ISBN 978-9910-10-108-3

OLIY TA’LIM,
FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

MA’MUN
UNIVERSITETI
NODAVLAT TA’LIM
MUASSASASI

JADIDCHILIK: O‘ZGARISH VA TARAQQIYOT

mavzusida Xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO‘PLAMI

II

2025-yil 31-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MA’MUN UNIVERSITETI

JADIDCHILIK: O‘ZGARISH VA TARAQQIYOT

mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil 31-may

II qism

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2025

UO‘K 94(575.1):323(575.1)
63.3(5O')+66.3(5O')
J 16
Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot II qism [Matn] : to’plam / A.O.Nurjonov, S.O‘.Sharifzoda, U.R.Matyakubov, E.M.Xudoynazarov, B.S.Yuldashev, U.M.Abdalov, S.M.Matkarimova, Z.Yu.Odilov. -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025.- 204 b.

KBK 63.3(5O')+66.3(5O')

Jahon tamadduniga munosib hissa qo‘shgan mamlakatimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazi, ilm-ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelgan. Mamlakatimizda jadid taraqqiyparvarlarining milliy davlatchilikni shakllantirish, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish, milliy o‘zlikni anglash va davlat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan tarixiy, mafkuraviy qarashlari bugungi kunda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero “biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlari merosini, ma’naviy xazinasini qancha ko‘p o‘rgansak, qancha ko‘p idrok etsak, bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi kundagi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadilar” deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Shu nuqtayi nazardan, har bir shaxs, xususan yoshlar ongiga milliy o‘zlikni anglash va vatanga daxldorlik hissini uyg‘otishda hamda O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish va bu yo‘nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishda Xorazm jadidlarining tarixiy-falsafiy qarashlari va dasturlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishning ijtimoiy mexanizmlari, tamoyillari, usul va vositalarini ilmiy tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Ushbu konferensiya to‘plami mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo‘ladi deb umid qilamiz.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.

Tahririyat hay’ati:
A.O.Nurjonov, S.O‘.Sharifzoda, U.R.Matyakubov, E.M.Xudoynazarov, B.S.Yuldashev, U.M.Abdalov, S.M.Matkarimova, Z.Yu.Odilov.

Ma’sul muharrir:
S.M.Matkarimova, DSc., prof.

Taqrizchilar:
Q.Masharipov, DSc., dots.
U. Bekmuhammad, PhD., dots.

Ushbu konferensiyasi materiallari Ma’mun universitetining 2025-yil 25-aprel 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

ISBN 978-9910-10-108-3

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli hamkasblar!

Jadidlarning o‘z davrida Vatan istiqboli uchun qilgan shiddatli, faol sa’yi harakatlari tarixning eng qizg‘in, o‘z davri uchun ta’sirchan jarayonlarni yuzaga keltirdi. Natijada maktab sohasidan, matbuotdan boshlangan harakat jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi va mustamlakachilikka qarshi, istiqlol uchun kurashga aylandi.

Bu borada jadidchilik harakatining uzviy, ajralmas qismi bo‘lgan Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi jarayonlar, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon singari yuzlab namoyandalar qatorida Islomxo‘ja, Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Bekjon Rahmon, Xudoybergan Devonov singari Xorazmlik jadidlar ham vatan manfaati, millat istiqboli uchun kurashgan siymolar bo‘lishgan. Tabiiyki, ular uchun “Tilda, fikrda, ishda birlik” g‘oyasi, jamiyatning ilg‘or fikrli kishilari faoliyati ibrat namunasi bo‘lib xizmat qildi. Jadidchilik harakati, uning maslakdoshlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, filmlar jahon davlatlarida ko‘plab yaratilmoqda. Vaqt o‘tgan sayin ilmiy-badiiy asarlarning soni, jadidlarga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Bu borada O‘zbekiston respublikasida ham istiqlol arafasi va mustaqillik davrida Begali Qosimov, Ozod Sharafiddinov, Sherali Turdiev, Boybo‘ta Do‘stqoraev, Poyon Ravshanovlar, shuningdek Rustambek Shamsutdinov, Sirojiddin Ahmad, Bahodir Karim, Dilorom Alimova, Qahramon Rajabov, Ulug‘bek Dolimov, Dono Ziyoeva, Zaynobiddin Abdurashidov, Shuhrat Rizaev, Ne’mat Polvonov, Ilhom G‘aniev, Baxt Koshanov, Dilnoza Jamolova, Bahrom Irzaev va shu singari yana ko‘plab olimlar, ularning shogirdlari tomonidan jadidchilik harakatining mazmun mohiyati, tarixda tutgan o‘rni, jadid namoyandalar hayoti, faoliyati, taqdiri haqida ko‘plab tadqiqotlar, hujjatli, badiiy filmlar ishlangani tahsinga, e’tirofga loyiq.

Ayniqsa 2016 yildan buyon davom etayotgan islohotlar jarayonida ham jadidlar bo‘yicha xalqaro konferensiyalar o‘tkazilgani, unda dunyodagi Temur Xo‘ja, Xisao Komasu va boshqa mashhur olimlarning ishtiroki, Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy nomi bilan ataladigan ijod maktablari tashkil etilishi, Buxoroda jadidlar muzeyiga asos solinishi, O‘zbekiston xalq shoiri, filologiya bo‘yicha falsafa doktori Iqbol Mirzo bosh muharrirligida “Jadid” gazetasining nashr etilayotgani, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani, badiiy asarlar yuzaga kelayotgani, jadidlar asarlarining qayta-qayta nashr etilayotgani va bularning bari davlat darajasida tashkil etilayotgani dunyo jadidshunoslarining e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ya’ni, XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi jadidlar jisman yo‘q qilingan, aksariyatining taqdiri sovet mustabid tuzumi bois fojiali tugagan, ular faoliyati tarix sahifalaridan joy olgan bo‘lsada, XXI asr boshlaridagi O‘zbekistonda ular ruhan barhayot. Ularning nomlari, faoliyatlari faqat tarixchi, filologlargagina emas, keng ommaga, millionlab insonlarga g‘oyaviy madad bo‘lmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda Xorazmdagi Ma’mun universiteti tomonidan 2025 yilning 31 may kuni jadidlar faoliyatiga bag‘ishlab xalqaro konferensiya o‘tkazilayotgani ham tahsinga loyiq. Qolaversa, Ma’mun universitetining jadidlar bog‘ining barpo etilgani, namoyandalar faoliyati keng tasvirda, ibratli nasihatlari bilan namoyish etilayotgani yoshlar uchun targ‘ibot vazifasini o‘tamoqda. Shu boisdan ham o‘tkazilayotgan “Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot” deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya shu soha mutaxassislarini o‘zaro jipslashtirib, tarixni tadqiq qilishda, yangi maqsad, vazifalarni rejalashtirishda muhim o‘rin tutadi, hamda yoshlarga, keng xalq ommasiga jadidlar merosi, faoliyatini targ‘ib etishda, ularning shu siymolar singari shijoatkor, dunyoqarashi keng, jahon andozasidagi istiqbolli kadrlar bo‘lib yetishishiga ham ta’sir qiladi.

Xullas, jadidshunoslik bo‘yicha muhim tadqiqot bo‘lgan mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilarini muborakbod qilgan holda, ularning ishlariga omadlar tilab, yangi tadqiqotlar kutib qolamiz.

Ma’mun universiteti ta’sischisi
Nurjanov Arslon Atanazarovich

II SHO‘BA. JADIDCHILIK G‘OYALARI: ZAMONAVIY TA’LIM VA TARAQQIYOT

JADIDLAR VA ULARNING YOSHLARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY RUHDA TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Babajanova Diloram,
tarix fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
dilorambabajanova52@gmail.com
90/185-58-54

Annotatsiya. Maqolada jadidlar harakatining asosiy g‘oyalari va ma’rifatparvarlik faoliyati yoritilgan. Jadidlar o‘z davrida ta’lim-tarbiya, matbuot va ijtimoiy islohotlar orqali yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashga intilganlar. Ularning ma’rifatparvarlik faoliyati keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, matbuot, islohot, milliy g‘oya, milliy istiqlol, intellektual salohiyat

ДЖАДИДЫ И ИХ РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ ДУХЕ

Бабажанова Дилорам,
доктор исторических наук, профессор,
Узбекский государственный университет мировых языков,
dilorambabajanova52@gmail.com
90/185-58-54

Аннотатsiя. В статье рассматриваются основные идеи движения джадидов и деятельность просветителей. Джадиды стремились воспитывать молодежь в духовном и просвещенном духе с помощью образования, прессы и социальных реформ своего времени. Их просветительская деятельность широко анализируется.

Ключевые слова: Джадизм, просвещение, школы новых методов, natsиональное пробуждение, пресса, реформа, natsиональная идея, natsиональная независимость, интеллектуальный потенциал.

JADIDS AND THEIR ROLE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE IN A SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SPIRIT

Babajanova Diloram,
doctor of historical sciences, professor,
Uzbekistan State University of world languages, dilorambabajanova52@gmail.com
90/185-58-54

Annotation. The article covers the main ideas of the Jadid movement and the activities of the Enlightenment. The jadids sought to educate young people in a spiritual and enlightened spirit through education, Press, and social reform in their day. Their enlightenment activities are widely analyzed.

Keywords: Jadidism, enlightenment, new method Schools, National Awakening, press, reform, national idea, national independence, intellectual potential.

Asrlar davomida o‘zbek xalqi orziqib kutgan istiqlolning 34 yilligini nishonlash arafasi ekan, ayniqsa, so‘nggi yetti-sakkiz yilda, har daqiqasi yillarga teng bu davrda iqtisod, siyosat, madaniyat, ma’rifat, ma’naviyat sohasida qanday natijalarga erishilgani sarhisob qilinsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mustaqillik bizga chinakam qadr-qimmat, insoniy g‘urur tuyg‘usini berdi”. Darhaqiqat, bugunga kelib, dunyoda o‘ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir

nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o‘tgan. Prezident Sh.Mirziyoyev: “Bugun Vatanimizga jonkuyar, o‘zini el-yurt taqdiriga daxldor deb biladigan insonlar yanada ko‘proq kerak. Boshqalarni, ayniqsa, yoshlarimizni ortidan ergashtira oladigan, ertangi kunga ishontiradigan, jamiyatni birlashtiradigan odamlar kerak” [1], deya ta’kidlashi bilan yoshlarni qadimiy madaniyat va ajdodlari qoldirgan milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga, ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olishga undaydi, albatta.

Dunyoda millatlar ko‘p, ular ichida buyuk va boy o‘tmishga ega bo‘lgan o‘zbek millati ham bor. Jahon ahli O‘zbekistonga qarab, uning millat sifatidagi qiyofasini, muqaddas dini va milliy-tarixiy qadriyatlariga xos bo‘lgan bag‘rikengligini ko‘radi. Bugungi kunda O‘zbekistonga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatini jahon ahli tan olayotgan bir davrda buyuk ajdodlari qoldirgan boy milliy qadriyatlarini avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda tarix, avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlar, ma’rifatparvar bobolar merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek xalqi tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib chiqqan allomalar, umuman, jadidchilik harakati namoyandalari merosini chuqur o‘rganish kerakligi, shuningdek, bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p egallansa, bugungi kunda ham xalqni tashvishga solayotgan ko‘plab savollarga javob topish mumkin. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etilsa, o‘zbek xalqi, ayniqsa, yoshlar bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetishi **kerakligi ta’kidlanmoqda.** Prezidentning: “... o‘z xalqini taraqqiyot sari boshlagan jadid bobolarimiz, milliy ozodlik yo‘lida jon fido etgan ulug‘ ajdodlarimizdir. Ular – g‘oyat og‘ir sharoitda ham milliy istiqlol va hurriyat g‘oyalariga sodiq qolgan qahramonlarimizdir. Bugun ularning ezgu g‘oya va tamoyillariga tayanib, yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini yaratmoqdamiz”[2], – degan fikrlari ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot yo‘lida xalqning eng katta boyligi bo‘lgan ulkan intellektual salohiyat egalari bo‘lmish yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni ma’rifatli qilib tarbiyalash, ma’naviyatini yuksaltirish, o‘tgan buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e’zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonning buyuk ne’mati bo‘lgan erki va ozodligi xalqning sa’y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shib, o‘z g‘oyalari, tafakkuri bilan o‘zbek milliy g‘oyasiga asos solgan ajdodlarining boy merosi va sermazmun tarixiga, milliy qadriyatlariga ham tayanadi. Har bir millatning o‘ziga xos jihatlarini, xususan, ma’naviyatini yuksaltirishda eng avvalo, beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan milliy-tarixiy qadriyatining o‘rni katta. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy, diniy va tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi”[3.16], buyuk zotlar, xususan, buyuk allomalarning hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va insonparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘lgan tarbiyaga oid ta’limotlarining o‘rni va ahamiyati katta.

Mustaqillik bergan buyuk ne’matlardan biri ham shundaki, o‘zbek xalqini o‘tmishi kamida uch ming yilga borib taqaladigan haqqoniy tarix bilan qurollantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlar, shuningdek, jadid allomalarning ta’lim-tarbiyaga oid ta’limotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixning o‘tgan qisqa muddati davrida o‘zbek xalqi o‘zligini, o‘z g‘oyasi, milliy g‘ururi va tafakkurini anglash tuyg‘usini boshdan kechirmoqda. Bu tuyg‘uning ildizi bo‘lgan o‘tmish esa bugungi kunga hamohang buyuk ajdodlar g‘oyalari, tafakkuri bilan ma’naviy bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ilm-ma’rifati va ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o‘rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to‘liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishadilar. Ana shularni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son

Farmonining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” nomli V bandida **“Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish”** masalasi 74-maqsadda keltirilgan bo‘lib, unda “buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish” zarurligi ta’kidlangan **[4]**. Zero, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonda **“**Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash lozim, degan da’vatkor g‘oya hayotga tobora chuqur kirib borayotgan hozirgi zamonda ajdodlarning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma’naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, bu jarayonda yoshlar qanchalik salohiyatli, ma’naviyati va huquqiy bilimi yuksak bo‘lsa, ilm-fan yanada taraqqiy etadi. Bu borada yoshlar ta’lim-tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’sirchanligini oshirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada turli ta’lim tizimi tashkilot va idoralarining qo‘shadigan hissalarini yanada oshirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida ta’kidlanganidek, “ularni tarbiyalashni zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda”.

So‘nggi yillarda tobora yangilanayotgan O‘zbekistonga qarab, uning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligidaligini anglash qiyin emas. Yurtimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda hamjihat, bag‘rikeng xalqimizning milliy-tarixiy qadriyatlarini avaylab-asrash va rivojlantirish asnosida yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimiz boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragi o‘zining nihoyatda sermazmun, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi–milliy-taraqqiyparvar ziyolilarning yangi islohotchilik harakati – jadidchilik vujudga keldi. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Bu haqda filolog olim, pofessor Begali Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisalaridan biri hisoblangan jadidchilik harakatiga bag‘ishlangan “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” kitobida “Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlar millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar”**[4.4]**.

Xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma’naviy-tarixiy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyaviy ta’limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo‘lamiz.

Jadidchilik harakatining yetakchi rahnamolaridan biri Behbudiy o‘z davrining buyuk donishmandidir. Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzusigacha bo‘lgan barcha asarlari – Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag‘ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakatni rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko‘rish mumkin. Mahmudho‘ja Behbudiy faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashida zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish, millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish, milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish kabi qarashlar mavjud edi. XX asr boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrga hamohangdir va bu narsa ulug‘ siymoning naqadar uzoqni ko‘ra bilganidan dalolat beradi.

Behbudiyning Turkistonda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi va jadidchilik g‘oyalarini matbuot orqali targ‘ib qilishdagi xizmatlari g‘oyat katta. U 1903-1904 yillarda o‘zbek va tojik tillarida “Qisqacha umumiy geografiya” asarini, yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo‘llanmalarni yozdi. “Behbudiy” nomli nashriyotni tashkil etib, unda o‘zbek tilida darsliklar bosib chiqardi. Samarqandda mahalliy aholi uchun qiroatxona ochishga boshchilik qildi. Behbudiy 1913 yilning aprelida “Samarqand” gazetasini, o‘sha yilning avgust oyidan boshlab esa, “Oyna” gazetasini chiqarishga kirishdi. U millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o‘ylar ekan, xalqni

jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog‘idan qutqarib olishning birdan bir yo‘li ilm-ma’rifatli bo‘lishdir, degan hulosaga keldi**[5.48].**

Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M.Behbudiy va A.Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o‘rganmoq darkor deb, zamona yoshlarini ilm-ma’rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etadi**[6.256].** Biroq, bu davrda o‘ziga xos yo‘nalish sifatida maydonga kelgan ma’rifatparvarlik harakati mazkur masalada yangilik kiritishga urindi. Ularning asarlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj asoslandi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat va ularning boshqa safdoshlari o‘zlarining serqirra faoliyatida til o‘rganish masalasini ilgari surdilar.

Ishoqxon Ibrat ilmiy asar va maqolalarida zamondoshlariga sharq tillari bilan bir qatorda g‘arb tillarini ham o‘rganishni targ‘ib etdi. Adibning o‘zi ham Sharq mamlakatlaridan tashqari Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida istiqomat qildi**[7.8]**. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga kelgan. 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashab, bu yerda ko‘p ishlatiladigan *arbailisonni*, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rganadi. Behbudiy o‘zi asos solgan va muharrirlik qilgan “Oyina”jurnalining 1913 yil 13 avgust 1-sonida**[9.150]** kamida 4 tilni bilish lozim, degan g‘oyani ilgari surdi. Shuningdek, faoliyati davomida jurnalni to‘rt tilda nomlagani ham chet tillarni bilish va egallash favqulotda zarurligidan dalolat beradi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu masalada shaxsan o‘zi ibrat bo‘lgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek xalqining milliy ozodlikka erishish yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan pedagog, jurnalist, jamoat arbobidir. XX asr boshlarida o‘lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma’naviy tanazzul tomon yuz o‘girganini ko‘rgan Munavvar qori bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish zarur, degan xulosaga kelishiga turtki bo‘ldi. Munavvar qori maktab maorif islohoti, tom ma’nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmagan. Munavvar qori “*Usuli jadid”* “milliy maktab” asoschisi bo‘lib qolish bilan birga, chet elga bolalarni o‘qishga yuborish masalasini ko‘tardi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Munavvar qori, “o‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muhtojmiz. Bolalar o‘qib, ilm tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar”, deb ma’ruza qilgan.

Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm- ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o‘zligini tanishi, ongining o‘sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo‘lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o‘rganish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Abdurauf Fitrat asarlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston zo‘rlab bosib olinib mustamlakaga aylantirilganligi, keskin qoralangan. U bu haqida o‘zining “Yurt qayg‘usi” she’riy to‘plamida “Ko‘rdim, yozdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir”,- deb yozgan edi. Fitrat yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘ldan tarbiyalamasdan jamiyatni isloh qilish uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari suradi:“har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi”, deb yozadi**[12.32]**, u.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma’rifatparvar jadidchilar zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy – siyosiy, madaniy ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish o‘rinliki, jadidlar xalqni savodsizlik, qullikdan qutqarishga bel bog‘lab, shu yo‘lda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asosiy kuchni qaratish kerakligini tushunganlar, ular jadid allomalarning tarbiyaga oid ta’limotlarini singdirish, shu yo‘l bilan ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’y-harakat qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi fikrlari bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari uchun muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, sahovat va muruvvat, bag‘rikenglik singari xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlarning nozik kurtaklarini

asrlar bo‘yi avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Avlodlar o‘rtasidagi vorislik tuyg‘usini, ularning bir-biriga daxldor ekanini, hayotning bamisoli uzviy xalqalar kabi ketma-ket bog‘lanishini anglash, allomalarning tarbiyaga oid ta’limotlaridan xulosa chiqarib, bugungi kun uchun to‘g‘ri yo‘l tanlash, ota-mutafakkir bobolarimizning ruhi poklariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyat va an’analarimizni toptashga yo‘l qo‘ymaslik, ularni ko‘z qorachig‘idek asrash, yangilanayotgan bugungi kunda ana shu noyob va mo‘tabar merosning qay darajada saqlanib, avaylanib kelinayotgani, uni har tomonlama o‘rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ‘ib etish borasida amaliy ishlar faol olib borilmoqda. Vatanimiz kelajagi bo‘lgan barkamol avlodni yetishtirish uchun millatimizning har bir vakili o‘z farzandini milliy g‘oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o‘tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, jahoniy o‘zigagina xos bo‘lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag‘rikenglik ruhida ham tarbiyalashimiz, bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir.

Masalaga xulosa tarzida quyidagilarni ta’kidlash maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatimizda boshlangan ezgu ishlarni davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Prezident Sh Mirziyoyev 2024 yilga “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb nom berishi jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning barkamol va faol insonlar bo‘lib voyaga yetishini ta’minlashdan iborat ekan, ularning o‘z oldiga katta marralarni qo‘yishlari va qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishlari uchun sharoit, keng imkoniyatlar yaratib berish kerak. Ana shunda “farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi”**[13.69]**, deb ta’kidlagani ayni haqiqatdir.
- yoshlar jamiyatning bir bo‘lagi, uning uzluksiz tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun yoshlar muammolariga butun jamiyat muammolari sifatida qarash lozim.
- O‘zbekistonda yoshlar muammolari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu sababli ham, mamlakatning barcha sohalardagi islohotlar ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayaniladi.
- yoshlar masalasi e’tibor markazidan, kun tartibidan o‘rin olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to‘la, g‘ayratli bo‘lgani uchun ular boshqa guruhlarga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, Prezident, “biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”**[14.]**, deb ta’kidlagani bejiz emas.
- Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga kirishilgan. Ana shu maqsadni ko‘zlagan Prezident Sh.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston tushunchasida mujassam bo‘lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetakchi vakillarini uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida amaliy harakatlarga undab keldi”, deb ta’kidladi. Shu boisdan ham, Yangi O‘zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o‘rganish va uni yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga kengroq jalb etish vazifalari ustuvor masalalardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Mirziyoyev Mustaqillikning 33 yilligi munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi (xabar.uz) https://xabar.uz/mahalliy/

2. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi - xabar.uz http://m.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston.

3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B.16.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni//https://lex.uz/docs/5841063).

4. Qosimov.B. Milliy uyg‘onish:jasorat, ma’rifat, fidoyilik.–Toshkent:Ma’naviyat, 2002.–B.4.

5.Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – Toshkent:Sharq, 2009. – B.48.

6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov). –Toshkent:Ma’naviyat, 1997. –60 b.; Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild: She’rlar, nasriy asarlar, dramalar.–Toshkent: Ma’naviyat. 2000. –256 b.

7. Ibrat I. Tanlangan asarlar (Ibrat I. Siddiqiy-Ajziy. So‘fizoda). //To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi so‘zboshi va lug‘at mualliflari: B.Qosimov, S.Ahmedov, U.Dolimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.–B.8.

8. Jo‘rayev N. 0 ‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob.–Toshkent: Sharq, 2011. – B.552.

9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar // To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar: B.Qosimov. – 2-nashri, tuzatilgan va to‘ldirilgan. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B.150.

10. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar (Tahrir hay’ati: O.Sharafiddinov, N.Aminov, N.Karimov va ...:Mas’ul muharrir:N.Karimov).–Toshkent:Ma’naviyat, 2003.–20 b.

11. O‘zbekistonning yangi tarixi K.1. / Tuzuvchilar: H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va boshq. – Toshkent:Sharq, 2000. – B. 265.

12. Abdulhamid Fitrat. Oila. – Toshkent:Ma’naviyat, 2000. – B. 32-37.

13. Yangi O‘zbekiston–yangicha dunyoqarash//O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosida.–Toshkent, 2021.–B.69.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/uz/lists/view/4057

ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИ – “МИЛИЙ ТИКЛАНИШ” ҒОЯСИНИ АСОСЧИСИДИР

Бабаджанов Баҳодир
УрДУ “Бизнес ва бошқарув”
кафедраси доценти в.б.
babadzanov1952@gmail.com

Аннотатsiя: Бугунги кундаги Ўзбекистоннинг асосий стратегик ғояларидан бири – “Милиий тикланиш” ғояси мустақиллик йилларида, айнан 1995 йилда ЎзМТДП тузилган вақтда эмас, балки халқимизнинг рус истилоси, большевиклар босқинидан қутилишга, жаҳолат ва зулмга қарши озодлик курашлари, Жадидлар ҳаракати юзага келган даврлара пайдо бўлган ғоядир.

Калит сўзлар: Жадид, озодлик, партия, Туркистон, Хоразм, Бухоро, Қўқон, Мухторият.

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДИЗМА – ОСНОВОПОЛОЖНИК ИДЕИ «HATSIОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ»

Аннотatsiя: Одна из стратегических идей Узбекистана «Hatsiональное возрождение» родилась не во времена независимости, когда создавалась УзМТДП в 1995 году, а в годы борьбы нашего народа против русского ношествия и большевистской агрессии, во времена возрождения «Джадидизма» в нашей стране

Ключевые слова: Джадид, свобода, партия, Туркестан, Хорезм, Бухара, Коканд, Автономия

THE JADIDISM MOVEMENT – THE FOUNDER OF THE IDEA OF "NATIONAL REVIVAL"

Annotation: One of Uzbekistan's strategic ideas — "National Revival" — was born not during the years of independence, when the UzLiDeP was established in 1995, but during our people's struggle against the Russian invasion and Bolshevik aggression, in the era of the revival of Jadidism in our country.

Key words: Jadid, freedom, party, Turkestan, Khorezm, Bukhara, Kokand, autonomy.

Тарихий даврни илмий жиҳатдан таҳлил қилиш, уни идрок этиш, муайян сиёсий ва маънавий воқелигини баҳолаш, ҳар бир давр одамлари руҳияти, маънавий-ахлоқий мезонлари, воқеа-ҳодисаларга муносабатини ўрганиш, сиёсат тушунчасининг мазмунини белгилайди. Шу маънода, ўз даврида халқимизнинг миллий озодлик ҳаракатларини вужудга келтирган сиёсий ҳаракатлар ва партиявий уюшмалар фаолиятларини тадқиқ этиш ва уни замонавий сиёсатшунослик фани доирасида ўрганиш сиёсий воқеликнинг миллий табиатини очишга хизмат қилишда муҳим аҳамият касб этади.

Аммо, мустақиллик даврида сиёсатшунослик дарсликларида ёхуд сиёсий партиялар борасида тайёрланаётган тадқиқотларда сиёсий партиялар тарихи фақат Ғарб сиёсий тарихи ёхуд фақат мустақиллик даврида вужудга келган партиялар билан боғлиқ равишда ўрганилиб қолмоқда. Лекин, бундай ёндашувнинг миллий-тарихий жараёнлардан ҳамон айролиги Ўзбекистон ҳудудида миллий озодлик ҳаракатларини ифодалаган сиёсий партияларнинг эволюциясини очиб бермайди. Зотан, халқимиз миллий ҳуррият, эркинлик, озодлик йўлида доимо курашиб яшаган. Шундай экан, ўтмишни бугун ва келажак билан боғлиқ ҳолда ўрганиш миллий давлатчилик тарихимизнинг таълимотлари негизида тадқиқ этиш ва сабоқ чиқариш мавриди аллақачон келган.

Албатта партиявий тизимнинг вужудга келиши умумдунёвий илм-фан тараққиётининг маҳсули бўлсада, унинг миллий-маънавий илдизлари – сиёсий тарихи мавжуд. Миллатнинг сиёсий ҳаракати ва ташкилотлари қачон ташкил этилган? Уларнинг сиёсий ўзани ва илдизлари қандай ғояларга асосланган? Элнинг сиёсий етакчлари кимлар ва уларнинг дастурлари қандай шаклланган? Яқин ўтмиш тарихимизда содир бўлган сиёсий зиддиятларнинг замирида қандай ихтилофлар мувжуд эди? Бугунги замонавий партиялар фаолияти ўтмиш меросимизнинг қандай ғоявий ришталари билан боғланган? Ва бугун биз сиёсий тарихимиздан қандай сабоқлар чиқаришимиз керак? Кўриб турганингиздек, жавоблардан кўра саволлар кўп. Тарих ва ўтмиш меросимизни ўрганишдан мақсад бугунги сиёсий қадамларимизни аниқ ва келгуси истиқболларимизни равшан кўришдан иборатдир. Шундай экан, сиёсатшунослик фани замонавий сиёсий партиялар фаолиятини тарихий-маданий меросимиз билан боғлиқ ва уйғун ҳолда тадқиқотлар олиб борилишини тақозо этади. Зотан, сиёсат миллий тафаккурнинг маҳсулидир.

Мазкур илмий муаммонинг назарий – методологик долзарблиги шундаки, XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистонда вужудга келган жадидлар ҳаракати, сиёсий партияларнинг ташкил топиши, ўлкада вужудга келган сиёсий вазият, ижтимоий шароит, сиёсий етакчилар фаолиятининг дастурий асослари, сиёсий кучларнинг ҳамкорлик фаолияти, халқнинг сиёсий маданияти, сафарбарлик даражаси, диний-ижтимоий омиллар ҳақида - фақат адабиётшунослик ва тарих фанлари доирасида тадқиқотлар олиб борилган. Адабиётшунослар жадидлар фаолиятини адиблар ва уларнинг асарлари орқали талқин этсалар, тарихчилар воқеликнинг хронологик тафсилотлари баёнида, архив ва тарихий манбалар асосида очиб беришмоқда ва бундай ёндашув тарих методологияси нуқтаи назаридан тўғри. Лекин, масаланинг сиёсат билан боғлиқ жиҳатлари мавжудлиги ушбу услубларни яхлит ҳолда кўришни талаб этади.

Хусусан, “Жадидчилик” нинг асосида “жадид” сўзи ётади. “Жадид”нинг маъноси “янги” демакдир. У шунчаки “янги” ё бўлмаса, “янгилик тарафдори” дегани эмас. Балки “янги тафаккур”, “янги авлод” сингари кенг маъноларни ўзида мужассам этган[1]. Демак, “Жадидчилик” бу - сиёсий – ижтимоий ҳодиса, сиёсатшуносликнинг объекти. Унинг таълимоти миллатни ҳуррият ва озодликка етакловчи фалсафий ғоялар билан қуроллантирган сиёсат. Бундай ҳаракат инсон ҳуррияти ва мустақил ҳокимият асослари учун курашар экан, у сиёсий жараёнлардан айро бўлмайди. Шундай экан, уни сиёсатшунослик фанлари нуқтаи назаридан миллий сиёсий партиялар тарихини ва улар яратган таълимотларини ўрганиш тарих ва адабиётшунослик фанлари эришган услубиятларни уйғунлаштиришни тақозо этади. Фақат ана шундай уйғунликда тарихнинг яхлит қиёфаси гавдаланади.

Жадидчилик ҳаракати ҳанузгача маърифатпарварлик ҳаракати сифатида талқин этиб келинмоқда. Ростдан ҳам жадидлар мактаб очишган, дарсликлар яратиб, болаларни янгича усулда ўқитишган. Уларнинг журналистлик фаолияти тадқиқотларида ҳам асосий урғу маърифий мавзудаги мақолаларига берилди. Тўғрироғи, жадидларни шахс сифатида

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш. Тошкент “Маънавият”, 2002. 5 б.

ўрганмаслик, фактларни чуқур таҳлил қилмаслик уларнинг сиёсий арбоб сифатидаги сиймоларини пардалади. Масалан, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдурауф Фитрат, Ашурали Зоҳирий, Полязхожи Юсупов, Файзулло Хўжаев каби жадид карвонбошилари, **аввало, мустамлакачиликга қарши кураш дастурини ишлаб чиққан сиёсий арбоб эдилар[1].**

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон халқларининг сиёсий маданиятининг ўсиши билан ўлкада мухториятчилик, ҳуррият, озодлик, жадидчилик ва истиқлолчилик ҳаракатларининг вужудга келиши ва ягона ғоявий мақсадлар атрофида жипслашуви ҳамда юрт озодлиги йўлидаги курашларнинг авж олиши турли сиёсий партияларнинг вужудга келишига замин яратди. Бу даврда Туркистонда сиёсий ҳаракатларнинг кўтарилишига туртки бўлган асосий сабабларидан бири 1917 йили Россияда юз берган Февраль инқилоби бўлиб, у Туркистонда муҳим сиёсий ўзгаришларни, халқларнинг мухторият учун курашини, Туркистонда аввалдан мустаҳкам маънавий-мафкуравий асосларга эга бўлган жадидчилик ҳаракатини ва сўнгра уюшган миллий сиёсий партиялар фаолиятини бошлаб берди.

1917 йилга келиб Жадидчилик аллақачон маърифатпарварлик ҳаракатидан сиёсий ҳаракат даражасига кўтарилган эди. Худди шу 1917 йил давомида мусулмонларнинг бутунтуркистон қурултойи тўрт марта ўтказилди.

Жадидларнинг миллий мухторият тузиш ғояси 1917 йил 14 мартда ташкил топган «Шўройи Исломия» (Мусулмонлар шўроси) фаолияти даврида расмий тусга кирди[2].

1917 йил 16-23 апрел кунлари Тошкентда бўлиб ўтган биринчи қурултойда Туркистон мухториятини демократик Россия таркибида шакллантириш ғояси илгари сурилди. Бу ғоя Туркистон халқларининг миллий давлатчиликни тиклаш йўлидаги биринчи қадами эди. Қурултойнинг сўнгги йиғилишида Марказий бошқарув органи – Туркистон вилоят мусулмонлар Кенгашини тузишга қарор қилинди. Унинг шаклланишидан мақсад миллий ҳаракатга уюшганлик характерини бериш учун турли хил, бир-бирига боғлиқ бўлмаган мусулмон жамиятлари, қўмиталари ва касаба уюшмаларини бирлаштириш эди.

Умумтуркистон мусулмонларинингг биринчи курултойи 1917 йилнинг 16-17 апрел кунлари тошкентда бўлиб ўтди. Унда давлат шаклини демократик республика, иккинчиси федератив республика экани ва иккинчи ҳил усул идора қарор топса Туркистонга мухторият берилиши кўзда тутилган. Депутатлардан Заки Валидий Тўғон, Маҳмудхўда Беҳбудий афандилар: - **ҳозирги берилган ҳурриятдан фойдаланиб ўзимизга афтонумия олиб қолишимиз керак! Ҳозирги вақтни қўлимизддан берсак, иккинчи вақт афтонумия оламиз деб, кўп талофатлар берурмиз, кўп қонлар тўкурмиз – деб қаттиқ туриб олишган.**

Маҳмудхўжа Беҳбудий 1907 йилда ишлаб чиққан «Туркистон маданий мухторияти» лойиҳаси минтақа халқлари манфаатларининг ифодаси бўлиб, унда давлат ишларини туркий тилда юритиш, миллий идоралар ташкил этиш ва унга туркий миллатга мансуб зиёлилардан аъзолар сайлаш қатъий белгилаб қўйилганди. Россия империяси таркибидаги мустамлака халқлар номидан Давлат думаси ўз билганича иш тутмаслиги, ҳар бир мамлакатнинг табиий, ижтимоий ва маданий шароитларидан келиб чиқиб қонунлар чиқарилиши кераклиги таъкидланди[3]. У шундай дейди: **"...сиз билингки, ҳақ олинур, лекин берилмас. Инчунин, мухторият-да олинур, лекин берилмас. Яъни, мухториятни Туркистон болаларининг ўзи бирлашиб, ғайрат ила олур. Албатта, бошқалар тарафидан берилмас. Бошқаларнинг қўлидан келса бермаслар"**[4]. Масала, миллий озодликка даъват қилиш, миллий давлатчиликни ташкил этиш тўғрисида бормоқда. Бундай ғоялар сиёсий курашларнинг асосий моҳиятини ташкил этган ва у дастурий таълимотларда ўз ифодасини топган.

Жамиятда вужудга келган кескин курашларга қарамасдан 1917 йиллар оралиғида туркистонликлар орасида турли жамиятлар, сиёсий партиялар ва ташкилотлар ташкил этиш жараёни кучайган эди. Жадидлар, уламолар, муаллимлар, савдогарлар, ҳунармандлар ва бошқалар сиёсий куч сифатида Туркистон тарихида илк марта тарих сахнасига чиққанлар.

---

[1] Саидов Х. Жадид матбуотида сиёсий мавзуларнинг акс этиши. ttps://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2097/1916.

[2] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Туркистон Мухторияти // "Ҳуррият" газетаси. 1917 йил 22 декабр.

6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси. / "Жаҳон адабиёти" журнали. 2003. 8-сони. 146 – 147-бетлар.

[4] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Қозоқ қариндошларимизга очиқ хат // «Ҳуррият» газетаси, 1918 йил 26 январ.

Тошкентда “Шўройи Исломия”, “Уламо жамият”ларидан ташқари “Турон”, “Турк Адами Марказияти”, “Иттифоқи Муслимин”, Қўқонда ‘Ғайрат”, Бухорода “Ёш бухороликлар”, Хоразмда “Ёш хиваликлар”, Самаркандда “Иттифоқ” каби ташкилотлар фаолият кўрсатади. Туркистондаги бундай жамият ва ташкилотларнинг ижтимоий ва сиёсий йўналишини белгилашда Мунавварқори Абдурашидхонов, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Садриддинхон Шарифхўжаев, Убайдулла Хўжаев, Садриддпн Айний, Абдулвоҳид Бурхонов, Фитрат, Файзулла Хўжаев (Файзуллахўжа Убайдуллахўжа ўғли), Отаулла Хўжаев (Отахўжа Пўлатхўжаевич Хўжаев), Абдулқодир Мухитдинов, Полвонниёз Хожи Юсупов, Бобоохун Салимов, Аҳмад Заки Валидий, Мустафо Чўқай, Абдулла Авлоний, Абдулвоҳидқори Абдурауфқориев, Тошпўлатбек Норбўтабеков, Обиджон Маҳмудов, Шерали Лапинлар сиёсий ҳаракатларнинг етакчиларига айланадилар.[1]

“Турк Адами Марказияти” (федералистлар) фирқасининг маромнома ва низоми 1917 йил 23 августда Тошкентда босиб чиқарилади. Партиянинг маромномаси “Давлат ва мухторият ташкилоти”; “Миллий масалалар”; “Диний масалалар”; “Мухториятли қитъаларда ахлият (фуқоролик) ҳақида”; “Иқтисод ва молия масалалари”; “Ер масаласи”; “Ишчилар масаласи”; “Адлия масаласи”; “Маориф ишлари” каби тўққизта бўлимдан иборат. Низомнома эса 22 моддадан ташкил топган бўлиб, унда партиянинг ташкилий асослари ёритилган.[2]

1917 йил баҳори ва ёзида ташкил топган “Шуройи Исломия”, “Уламо жамияти”, “Эрк”, “Турон” жамиятлари ҳамда “Иттифоқи муслимин” ва “Турк Адами Марказият” фирқаси аъзолари Туркистонга миллий мухторият бериш ғоясини ўртага ташлаганлар. Бу пайтда Бухоро амирлиги ва Хоразм хонлигида фаолият кўрсатган “Ёш бухороликлар” ҳамда “Ёш хиваликлар” сиёсий партиялари бу ҳар икки подшоҳлик ўзбек давлатида конституциявий подшоҳлик жорий қилиш ва демократча ислоҳотларни амалга ошириш ғояларини илгари суради ва у учун жиддий киришганлар.[3]

Хоразм ва Бухоро давлатларида жадидлар билан хукмдорлар орасидаги муносабат деярлик бир ҳил бўлган. Хива хони Асфанддиёрхон “Ёш Хиваликлар”нинг, Бухоро амири Саиид Олимхон “Ёш Бухороликлар”нинг талабларига биноан конституцион монархия тузишга оид хужжатларни олдинига имзолаб фармон чиқарганлар, кейинчалик Хиваа 1 ойдан кейин Бухородаа 1 хафтаан кейин ўз фармонларини бекор қилиб “Ёш Хиваликлар” ва “Ёш Бухороликлар” кувғин қилганлар.

Бу партиялар ўз мақсаларига эришиш учун, ўзларининг кучлари етмаганлиги сабабли большевиклар билан бирлашиб Хива хони ва Бухоро амирини тахтдан ағдариб республика тузишга эришдилар, аммо кейинчалик большевиклар томонидан пу партияларнинг фаолияти тақиқланди, НКВД, ГПУ, КГБ каби сиёсий жазо ташкилотлари томонидан катоғонга учрадилар.

Кўриниб турибдики орадан 130 йил ўтгандан кейин мамлакатимиз мустақиллиги шарафати билан эришилган “Миллий тикланиш”, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғояларига ўша суронли даврдаги жадид ота-боболаримиз томонидан асос солинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. –80 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ // Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. -56 б.
3. *Абдунабиев А.* Многопартийность - форма политической организации общества. – Тошкент: Узбекистан, 1991. – 111 с.
4. *Ахмадшоева М. А., Расулов Ш. В.* Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 48 б.
5. Авлоний А. Танланган асарлар 1, 2 жилдлар. –Т.: Маънавият. 1998.
6. Абдурашидхонов Мунаввар Қори. Хотираларим. -Т.: Шарқ, 2001.

[1] Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти тарихи. Т.: “Фан” наш. 2023. 17 б.
[2] Турк Адами Марказият (Федералистпар) фиркасининг маромномаси. 6-8-бетлар.
[3] Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти тарихи. Т.: “Фан” наш. 2023. 146 б.

7. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар: Шарқ ва бошқа мусулмон халқларининг Туркистон Мустақиллиги ва миллий маданият учун кураши / Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Таржимон ва нашрга тайёрловчи М.Абдураҳмонов; масъул муҳаррирлар Ҳамид Зиёев, Ҳ.Болтабоев. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2010.

8. Алимова Д. Жаднднчилик мустакиллик даври тарихчиси талкинида. //Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Т.: Эльдинур, 1998.

9. Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ мувозанати. Т.: "Янги аср авлоди". 2011.

SADRIDDIN AYNIYNING MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

Doniyorova Durdona
O'ZMU, Tarix fakulteti,
Tarix yo'nalishi, III bosqich talabasi
E-mail: doniyorovadurdona8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur tojik adibi, olim va jamoat arbobi, Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Sadriddin Ayniyning ma'rifatparvarlik g'oyalari bayon qilinadi. Shuningdek, uning ilmiy faoliyati, g'oyalari va asarlari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sadriddin Ayniy, "Tazhib us-sibiyon", "Tarbiyai aftol", Abdulvohid Munzim, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar ", jadidchilik.

SADRIDDIN AINI'S ENLIGHTENMENT IDEAS

Annotation. This article describes the enlightened ideas of Sadriddin Aini, a famous Tajik writer, scholar, and public figure, one of the major figures of the Jadid movement in Central Asia. His scientific activities, ideas, and works are also highlighted.

Keywords: Sadriddin Aini, "Tazhib us-sibiyon", "Tarbiyai aftol", Abdulvahid Munzim, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar ", Jadidism.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ САДРИДДИНА АЙНИ

Аннотатsiя. В статье излагаются просветительские идеи Садриддина Айни — известного таджикского писателя, ученого и общественного деятеля, одного из крупнейших представителей джадидского движения в Средней Азии. Освещены также его научная деятельность, идеи и труды.

Ключевые слова:Садриддин Айни, "Tazhib us-sibiyon", "Tarbiyai aftol", Абдулвахид Мунзим, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar ", Джадидизм.

Kirish. "Jadidchilikning fenomeni shundaki, -deb yozadi professor D.A.Alimova, - keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti- o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi [1, 173b].

Tarixdan ma'lumki, necha-necha asrlar davomida Buxoro musulmon olamining ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat, ilm-fan o'chog'i bo'lib kelgan. Ahmad Donish vafotidan keyin uning shogirdlari Sharif maxzum, Inoyat maxzum, Abdulvohid Munzim, Sadriddin Ayniy va boshqalar maktab va madrasa islohoti borasidagi qarashlarini amaliyotda davom ettirdilar. XIX asrning so'nggi choragida tug'ilib, XX asrning o'rtalarida qadar yashab ijod etgan Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shgan yozuvchidir.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolani yozishda siyosiy tahlil va tizimli yondashuv kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Sadriddin Ayniy 1878-yili Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumaniga qarashli Soktare qishlog‘ida tug‘ildi. O‘n bir yoshida ota va onasidan yetim qoldi. Ma’rifatparvar otasi qo‘lida dastlabki ta’limni olgan Sadriddin Ayniy 1890-1899-yillarda Buxorodagi madrasalarda tahsil ko‘rib, o‘z davriga yarasha puxta bilim egalladi. Bog‘chasaroy, Ufa, Orenburg, Qozon singari shaharlarda nashr etilgan gazeta va jurnallar bilan tanishish, ayniqsa, Fitratning Turkiyada bosilib, Buxoroga yashirin ravishda yuborilgan- “Munozara”, “Sayyoh hindi” singari asarlarini mutolaa etish yozuvchining dunyoqarashida inqilobiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Sadriddin Ayniy shu tarzda yosh buxoroliklar harakatiga kelib qo‘shildi va o‘zbek jadid adabiyotining yorqin namoyondalaridan biriga aylandi [2,394b].

Buxoro amirligi hududida dastlabki usuli jadid maktablarining ochilishi Sadriddin Ayniy va Mirza Abdulvohid Munzim nomlari bilan bog‘liq.Sadriddin Ayniy ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroda tatar muallimlari ochgan usuli jadid maktablari mavjud edi. Ayniy va Munzim ushbu tatar maktablaridagi o‘qitish usullarini o‘rganib, o‘z maktablariga tatbiq qiladilar.

Buxoro jadidchilik harakatining mashhur siymolaridan biri, ma’rifatparvar olim Sadriddin Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar ” asarida Buxoroda vujudga kelgan yangi usul maktablari va faoliyati, uning rahnamolari, milliy ta’lim, milliy matbuot va adabiyotning shakllanishi va rivojlanishi xususida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Sadriddin Ayniyning o‘zi Buxoro jadid ma’rifatparvarlarining taniqli namoyondalaridan va uning rahnamolaridan biri edi.

Sadriddin Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Buxoroda birinchi usuli jadidi maktabi” bo‘limida yozishicha, 1908-yilda Buxoro shahrining Darvozayi Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy tilida birinchi marta buxoroliklarga maxsus usuli jadidi maktabi ochiladi va unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlanadi [4, 205b].

Sadriddin Ayniy tatar maktabida tarjimon bo‘lib xizmat qiladi. Malaka hosil qilgan Sadriddin Ayniy do‘sti Mirza Abdulvohid bilan birga uning hovlisida maktab ochib, 1909-yilda “Tazhib us-sibiyon” degan o‘qish kitobini yaratadi. Yosh muallimning bu dastlabki pedagogik ishlari o‘sha davr uchun katta voqea bo‘lgani sababli qattiq qarshilikka uchraydi.

1908-yilda Buxoroda ilk bor tashkil etilgan “Birodari Buxoroyi sharif ” xayriya shirkatining topshirig‘iga binoan Sadriddin Ayniy Samarqandga keladi va bir necha yillardan beri jadid maktabi ochib, faoliyat ko‘rsatayotgan Abduqodir Shakuriy maktabi, uning o‘qitish usullari bilan tanishadi. Abduqodir Shakuriy Sadriddin Ayniyga usuli savtiya maktablari uchun Ismoilbek G‘aspiralining “Xo‘jai sibyon”iga o‘xshagan darslik-alifbo yaratishni maslahat beradi. “Birodari Buxoroi sharif” shirkatining muassisligida usuli jadid maktablari uchun “Tahzib us-sibyon” qiroat darsligini yaratdi, kitob 1909 va 1917 yillarda ikki marta nashr qilindi. 1909-yilning oktabrda Buxoro tarixida birinchi marta ushbu maktabda o‘quvchilardan imtihon olish tantanasi bo‘lib o‘tdi. Birinchi usuli jadid maktabi Buxorodagi Rossiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. E’tiborli tomoni shundaki, birinchi usuli jadid maktabining Buxoroda ta’qib ostiga olinishi, uning yopilishi, maktabdorlarning quvg‘in qilinishi Rossiya imperiyasidagi turkiy qardoshlar gazeta va jurnallarda aks sado berdi. “Mulla Nasriddin” hajviy rasmlar va maqolalar e’lon qildi [5, 69 b].

Sadriddin Ayniy Buxoro madrasalarida o‘qigan kezlari (1890-1891) o‘zining birinchi asarini yozgan. Ayniy ilk ijod namunalarini 14-15 yoshlaridan yozishni boshlagan. Ayniy 1891-yil Mir Arab ,1892-93-yillarda Olimxon, 1894-96- yillarda Hoji Zohid, 1896-99- yillarda Badalbek, so‘ngra Ko‘kaldosh madrasasidan tahsil olib, 1908-yilda uni tamomlagan [6].

“Tahsib us-sibyon” asarining 1917-yilda Samarqandda nashr etilgan nusxalari hozirda Toshkentda, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining nodir qo‘lyozmalar bo‘limida shuningdek, Ayniyning Samarqanddagi uy muzeyida va Buxoro shahridagi Ko‘kaldosh madrasasida, bir vaqtlar alloma Ayniy yashab ijod qilgan xonada- Ayniy nomidagi hujra muzeyida saqlanmoqda [4, 206 b].

Sadriddin Ayniy xoh badiiy ijod bilan , xoh ilm-fan bilan shug‘ullansa ham , doim davr talablarini, istiqbolini birinchi o‘ringa qo‘yar edi. Ayniy Turkistonda ilm-ma’rifatning rivojlanishini asosiy taraqqiyot omili deb bilgan. U eski maktab va madrasalarning eskirgan uslublarini targ‘ib qilgan. Ayniy jadidchilik g‘oyalariga katta ta’sir ko‘rsatgan va uning tarafdori bo‘lgan.

1909-yilda Buxoro jadidlari- Ahmadjon Hamdiy, Abdulvohid Munzim, Mehriy, Sadriddin Ayniy, Mukammal Burhon “Tarbiyai aftol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Bu jamiyatning sa’y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi [3,37b].

Ayniyning ta'kidlashicha , 1912-yilda "Tarbiyai aftol" maxfiy jamiyati a'zolaridan Muhiddin Mansurov va Mirza Siroj Hakim kabilarning sa'y-harakatlari tufayli amirlikda tojik tilida "Buxoroyi sharif" gazetasini chiqarishga ruxsat olinadi. Bu gazetada Ayniy, Fitrat, Samad Mansur, Mehriy va Mirza Jalol Yusufzoda o'zlarining yangi usul maktablari, ma'rifiy va publisistik yo'nalishdagi maqolalari bilan faol qatnashib turgan.

Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o'quvchilar yuborish chorasiga kirishildi va bir qancha talaba Istanbulga yuborildi. 1909-1913-yillarda Abdurauf Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Ato Xo'ja, Muqimbek Istanbulda o'qidilar [7,59b].

Ayniyning ma'lumot berishicha, Istanbuldagi buxorolik talabalar yildan-yilga ko'payib borgan. 1911-yilda 15 nafarga, 1912-yilda 30 taga yetgan. Ayniy umrining qariyb o'n-o'n besh yillik faoliyatini jadid maktablarida, kelajak avlodlarga ta'lim berish, milliy adabiyotlar yaratish, ularni o'z mamlakatiga sodiq farzand qilib tarbiyalashga sarfladi. Xalq orasida u ma'rifatparvar olim va shoir sifatida tanildi.

Sadriddin Ayniyning badiiy ijodga qiziqishi talabalik yillarida boshlangan. 1890-1895-yillari "Sifliy", "Muhtojiy" va "Jununiy" kabi taxalluslar bilan she'rlar mashq qilgan. Sadriddin Ayniy 1896-yildan "Ayniy" taxallusi bilan ijod qilgan. U dastlab Sifliy, Muhtojiy va Jununiy, 18 yoshida esa "Ayniy" taxallusi bilan ijod etgan. 1917-yilga qadar "Oyna", "Ulug' Turkiston", "Hurriyat", "Taraqqiy" singari gazeta va jurnallarda o'z she'rlari va maqolalari bilan yosh ijodkor sifatida qatnashadi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin Buxoro amirligi o'z hukmronligini saqlab qolish uchun birmuncha islohotga rozilik bildirgandek harakat qildi. Shu munosabat bilan 1917-yil 7 aprel kuni "Arki oliy" da amirning oily farmoni elon qilindi. Farmonga bag'ishlangan yig'inda Turkiston jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ma'ruza qildi. Ertasi kuni Buxoro jadidchilik harakati namoyondalari- islohotchilik qamoqqa olindilar: Sadriddin Ayniy va Mulla Nazrullo Lutfiy 75 tayoq jazosiga hukm qilindilar. Mulla Nazrulla Lutfiy ushbu jazo tufayli halok bo'ldi. Bu voqea munosabati bilan hamdardlik izhor qilgan birodarlariga Sadriddin Ayniy "Vaqt" gazetasi orqali minnatdorchilik bildirgan edi: "Buxoroning ma'lum hodisalari vaqtida Buxoro hukumati tarafidan 75 tayoq bilan urilib, o'lim holida Kogon hastaxonasiga keltirilishim munosabati bilan har tarafdan tanish-bilish, do'stlarim maktub yozadilar. Bu muhtasham zotlarga xususiy javob yozishga iqtidorim erishmaganligi uchun samimiy tashakkurlarimni izhor etaman" [3,41b].

Oktabr to'ntarishidan keyin Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy kabi atoqli jadidlar Oktabr inqilobiga qanday munosabatda ekanlaridan qat'iy nazar, madaniyat va maorif sohasida samarali faoliyatlarini davom ettirganlar.

Sadriddin Ayniy 1921-1923-yillari Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Samarqanddagi konsulxonasida maslahatchi bo'lib ishlagan. 1925-yilga qadar Samarqanddagi Buxoro savdo uyida mudir bo'lib ishlagan.1926-yil 15-iyunida Samarqandda ta'sis bo'lgan Tojikiston davlat nashriyotiga muharrir, ilmiy va adabiy konsultant bo'lib ishga kirgan va 1933-yil sentabrgacha shu lavozimda ishlagan. 1943-yil 4-noyabr O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi tuzilgach, akademik etib saylangan [8].

Ma'rifatparvar adib bu yillarda "Shu'layi inqilob" ("Inqilob shulasi") jurnali sahifalarida o'sha zamondagi jahon maydonlarida, sharq malakatlarida yuz berayotgan ijtimoiy muammolar, iqtisodiy-siyosiy voqealar haqida fikr yuritadi, jumladan ushbu jurnal sahifalarida chop etilgan "Eron va Sharq inqilobi", "Eron maydonga kirdi", "Rossiya sho'rolar hukumati va Eron davlati", "Inqilob olovi", "Sharq masalasi", "Oktabr inqilobi va Sharq masalasi", "Sharqda inqilob g'alabasi", "Inqilobdan keyingi Sharqning o'tgan va hozirgi ahvoli", "Turkiya, Hindiston va Afg'oniston inqiloblari", "Turkiyaning birinchi firqa ishtirokchilari anjumani", "Bokuda Sharq aholisining birinchi anjumani", "Sharq olami", "Rossiya va Turkiya munosabti" kabi bir qator maqolalari bunga misol bo'lib, unda Rossiya, Turkiya, Angliya, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon va Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi muhim ma'lumotlarni beradi.

Sadriddin Ayniyning qizi, adabiyotshunos olima Xolida Ayniyning yozishicha, 1919-yil 13-iyuldan boshlab ikki yilu besh ,oy ichida "Shu'layi inqilob" jurnalida Sadriddin Ayniyning 67 ta maqolasi e'lon qilingan [9,63b].

Ulkan sanatkor Sadriddin Ayniy ijodi va faoliyatini yangicha mezonlarda o'rganish, u qoldirgan bebaho ilmiy va adabiy merosni har tomonlama tadqiq etish, uni nashr qilish bilan bog'liq yana ko'plab muammolar borki, bugungi kunda qilinayotgan, tadqiq etilayotgan va o 'rganilayotgan ilmiy ishlar, nashr qilinayotgan kitoblar, monografiyalar, maqolalar, ularning yechimiga bagishlangan dastlabki qadamlardir.

XX asr boshlarida Buxoro sharoitida boshlang‘ich maktabning to‘rt sinfdan iborat bo‘lishini ma’rifatparvar adib Ayniy birinchi bo‘lib talab qilib chiqadi. Ayniy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining yetakchi rolini va markaziy figura ekanligini to‘g‘ri anglab yetadi. Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyati davomida bir qancha katta-kichik asarlar, yangi milliy maktablar uchun o‘quv qo‘llanmalar , darsliklar va adabiyotlar ham yozganki, ularning aksariyati hozirgacha ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum emas.

Sadriddin Ayniy tojik-fors tili va ingliz mumtoz adabiyoti o‘rtasidagi aloqani mustamkamlashga hissa qo‘shgan tojik yozuvchilaridan biridir. Chunki yozuvchining qator asarlari ko‘p marta ingliz tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan. Bu ishlarda Sadriddin Ayniyning ulug‘ shaxsiyati haqidagi qarashlar ham mavjud [10].

Sadriddin Ayniyning tojik adabiyoti, tarixi va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi va xizmatlari uchun 1997 yilda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon tomonidan “Tojikiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. Adib Sadriddim Ayniyning ilmiy merosi va barkamol asarlari insoniyat ma’naviy xazinasidan munosib joy olgan. Ma’rifatparvar adib, yirik olim va jamoat arbobi, o‘z ijodi bilan maktab yaratgan Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e’tirof etilgan. Buxorodagi jadidchilik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan. Sadriddin Ayniyning tarix fani taraqqiyoti hamda badiiy adabiyotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va kelajak avlodlarga o‘rnak bo‘luvchi xizmatlari inobatga olinib, u 2001 yilda O‘zbekistonning “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan [11].

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar olim Sadriddin Ayniyning Buxoroda jadid maktablari ochish va ularning safini kengaytirib, xalq farzandlarini o‘qitishdagi sa’y-harakatlari hozirda ham o‘ziga xos ibrat va namuna timsoli bo‘lib kelmoqda. Sadriddin Ayniy o‘zining butun ijodi va faoliyati bilan xalqni ma’rifatli, ongli qilishga intilgan, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida milliy va madaniy rivojlanish yo‘lida muhim hissa qo‘shgan. Ayniyning hayoti, faoliyati va merosining ahamiyati haqida turli tillarda ko‘pgina tadqiqotlar yaratilgan, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalar yoqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рустам Шарипов. Туркистон жадидчилик харакати тарихидан. –Тошкент: Укитувчи нашриети, 2002. –176 б
2. Манавият юлдузлари . Мас’ул мухаррир М.М.Хайруллаев / –Тошкент: А.Кодирий номидаги халк мероси нашриети, 2001. –408 б
3. Туркистон жадидчилиги- миллий уйгониш даври тарихи. Мас’ул мухаррир: К Куранбоев / Наманган: Наманган нашриети, 2012. –324б
4. Жадид маърифатпарварлик харакатининг гоявий асослари. Мас’ул мухаррир: Б.Хасанов, Н.Каримов / –Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016. –216 б
5. Улугбек Долимов. Туркистонда жадид мактаблари. –Тошкент: Университет, 2006 . – 218 б
6. https://gijduvon-akm.uz/media/pdf_files/S.Ayniy_1.pdf
7. Садриддин Айний. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар . –Москва, 1927.
8. jadidlar.uz sayti
9. Холида Айни. Жизнь Садриддин Айни. – Душанбе: 1982. – стр. 63
10. https://in-academy.uz/index.php/si/article/dowload/16432/11399/14101
11. https://www.interscience.uz/index/php/home/article/download/2348/1773

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MILLAT VA MILLIY O‘ZLIK HAQIDAGI QARASHLARI

Xo‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich,
t.f.n., dotsent,
Oriental universiteti, Toshkent,
khujahonov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi o‘zbek ma’rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida millat va milliy o‘zlik tushunchalarini tahlil qilingan. Unda millat tushunchasining Behbudiy talqinida dindan va etniklikdan yaqqol ajratilishi, millat nomi va milliy adabiy til haqidagi qarashlari va milliy o‘zlikni mustahkamlashdagi boshqa omillar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, millat, milliy o‘zlik, ma’rifatparvarlik, umumturkiy til, sart atamasi, ta’lim, Turkiston.

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ О HATSIИ И HATSIОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотatsiя: В данной статье анализируются понятия hatsiи и hatsiональной идентичности в воззрениях одного из ведущих представителей узбекского просветительского движения начала XX века Махмудходжи Бехбуди. Рассматривается его четкое разграничение понятия hatsiи с религией и этничностью, его взгляды на hatsiональное название и литературный язык, а также другие факторы, способствующие укреплению hatsiональной идентичности.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, hatsiя, hatsiональная идентичность, просветительство, общий тюркский язык, термин «сарт», образование, Туркестан.

MAHMUDKHOJA BEHBUDI ON NATION AND NATIONAL IDENTITY

Annotation: This article analyzes the concepts of nation and national identity in the views of Mahmudkhodja Behbudi, one of the leading figures of the Uzbek enlightenment movement in the early 20th century. It examines his clear distinction between the concept of nation and religion and ethnicity, his views on the national name and literary language, as well as other factors contributing to the strengthening of national identity.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, nation, national identity, enlightenment, common Turkic language, Sart term, education, Turkestan.

XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar milliy o‘zlikni anglash va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keng tarqalishiga olib keldi. Chor Rossiyasi mustamlakasi ostidagi Turkiston xalqlari orasida milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan harakatlarning yetakchi shaxslaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) edi. Uni asarlarida millat va milliy o‘zlik masalalariga oid muhim fikrlar o‘z aksini topgan. Behbudiy o‘z maqolalarida millatning rivoji uchun ta’lim, ma’rifat, axloq va dunyoviy ilmning zaruratini ta’kidlagan.

Behbudiy millat tushunchasini o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolari doirasida keng ma’noda talqin qilgan. Uning fikrlarida millat diniy yoki qabilachilik an’analaridan hamda yevropacha etnik birlik tushunchalaridan ko‘ra kengroq bo‘lib, umumiy ma’naviy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar atrofida birlashgan jamoa sifatida ko‘riladi. U millatga diniy va milliy hissiyotga ega, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutadigan jamoa sifatida qaraydi.

Behbudiyga ko‘ra, millatning ma’naviy asosi islom dini va uning qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq, ammo bu asos zamonaviy sharoitlarga mos ravishda talqin qilinishi kerak. U islomni millatning ma’naviy pokligini saqlaydigan va taraqqiyotga xizmat qiladigan din sifatida ko‘rgan. Shu bilan birga millat va milliyat masalasida o‘z zamonasiga xos yashash va rivojlanish uchun zarur bo‘ladigan dunyoviy bilimlarni egallashni lozim deb bilgan. Aynan shu nuqtai anazardan u milliy masalani zamonaviy dunyodagi (yoki musulmon bo‘lmagan rivojlangan mamlakatlar) bilimlarni egallashga bog‘laydi. Zamoni sodiqda faqat shariat bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdir - deydi u. (3.201)

Behbudiyning “Musulmonlik ilm va odob ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur” degan fikri orqali ham millatni musulmonchilikdan ajratib, uni zamonaviy taraqqiy etishda muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda tarixiy-madaniy birlik sifatida qaraganligini anglash mumkin. Behbudiy milliy o‘zlik tushunchasini faqat etnik yoki diniy chegaralar bilan belgilamaydi, balki uni global mezonlar asosida rivojlanadigan dinamik tushuncha sifatida talqin qiladi. U milliy o‘zlikni faqat o‘tmish an’analariga tayanib saqlab qolishning yetarli emasligini ta’kidlab, uni zamona talablariga moslashtirish va ilmiy asosda rivojlantirish lozimligini ilgari suradi. Shu nuqtai nazardan, uning qarashlari millatni birlashtiruvchi omil sifatida ma’rifat va ijtimoiy-siyosiy ongning yuksalishiga xizmat qiluvchi islohotlarni targ‘ib qiladi.

Behbudiyning ta’lim va ma’rifatga bo‘lgan e’tibori XX asr boshidagi o‘zbek jamiyatida islohotlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan. Behbudiy o‘zbek xalqini o‘z tarixiy an’analariga tayanib, shu bilan birga zamona bilimlari va texnologiyalarini o‘zlashtirgan holda global miqyosda raqobatbardosh jamoaga aylantirishni maqsad qilgan. Uning nazarida millatning barqaror rivojlanishi uning a’zolarining axloqiy yetukligi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu qarashlar Behbudiy faoliyatini nafaqat milliy islohotchi, balki universal gumanistik dunyoqarashga ega mutafakkir sifatida baholash imkonini beradi.

Behbudiy milliy ehtiyojni millatning ma’naviy va moddiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq deb hisoblagan. Uning “Ehtiyoji millat” maqolasidagi “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur” degan so‘zlari milliy o‘zlikni saqlashda ta’limning muhimligini ko‘rsatadi. Behbudiyga ko‘ra, millat o‘z madaniyati, dini va tilini mustahkamlash bilan birga, zamonaviy ilm-fanni o‘zlashtirmasa, boshqa millatlarga “poymol bo‘lishi” muqarrar. Bu yerda milliy o‘zlik nafaqat ma‘naviy qadriyatlarga, balki dunyoviy bilim va taraqqiyotga asoslanganligi ayon bo‘ladi.

Behbudiy Turkiston xalqining milliy-etnik nomlanishi masalasida ham fikr mulohaza yuritadi. Xususan u buxorolik yoki Turkistonliklarga nisbatan “sart” atamasining qo‘llanilishiga qat’iy qarshi chiqqan. Uning fikricha, “sart” atamasi Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini to‘liq aks ettirmaydi va bu nom o‘zbek, tojik yoki boshqa mahalliy xalqlarni kamsituvchi ma’noda ishlatilgan. Agar sart so‘zi ma’lum bo‘lsa edi, ya’ni Turkistondagi xalqlarning barchasi yoki muayyan bir qismining sart atalganini daloyili tarixiy ila isbot qilingan bo‘lsa edi, ul suratda hech kim sart hususida so‘z ochmas va bahs chiqormas edi. (2. 180 bet). U o‘z maqolalarida “sart” so‘zining tarixiy kelib chiqishi va xorijiy manbalarda noto‘g‘ri talqin qilinishini tanqid qilib, bu atama o‘rniga “Turkistonlik”, “Turkiston musulmonlari” yoki “o‘zbek” kabi umumiy milliy nomlarni qo‘llashni taklif qilgan (3.199).

Behbudiy milliy o‘zlikni mustahkamlashda tilning muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. U o‘zbek tilini begona so‘zlardan himoya qilish va uni rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri deb hisoblagan bo‘lsa-da, umumturkiy til g‘oyasini ham qo‘llab-quvvatlagan. Uning fikricha, umumturkiy til Turkiston xalqlari va boshqa turkiy xalqlarni birlashtiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin edi. Turkchaning shu’ba va shoxlari bo‘lgan o‘zbek-chig‘atoy, totor, ozarbayjon, qozoq va turkman lahjalarindagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur - deb yozadi u. (4.183). Biz Turkistoniylarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbekiy so‘zlashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabi tilidur. Bu ikki til turkistonliklarning jonli tillari hisoblansada, “bukung‘acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nasr va nazm kitoblari ta’lim berilib kelingandur” (5.152). Shuningdek, madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arab tilidaligi bois arab tilini hamda tiriklik va dunyo uchun rusiy tilni bilmoq lozim deb biladi.

Ta’lim va ma’rifat orqali milliy o‘zlikni mustahkamlash Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun ta’lim va ma’rifatni asosiy vosita deb bilar edi. U “usuli jadid” maktablarini tashkil qilish orqali yoshlarni milliy va diniy ruhda, lekin zamonaviy ilm-fan bilan qurollantirib tarbiyalashga intildi. Behbudiy diniy va dunyoviy ta’limni uyg‘unlashtirish tarafdori edi. U diniy bilim millatning ma’naviy asosini tashkil etishini, dunyoviy bilim esa uning moddiy taraqqiyotini ta’minlashini ta’kidlagan. Bu yondashuv uning milliy o‘zlik tushunchasida muhim o‘rin tutadi, chunki u millatning o‘tmishga xos qadriyatlarini saqlagan holda, zamonaviy dunyoga moslashishini istagan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida milliy o‘zlikni saqlash va uni rivojlantirishda ta’lim, ma’rifat, axloq va zamonaviy ilm-fanlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Uning qarashlariga ko‘ra, millatning ma’naviy asosini islom dini tashkil etsa-da, bu asos zamonaviy

sharoitlarga mos ravishda talqin qilinishi zarur. Behbudiy milliy o‘zlikni faqat o‘tmish an’analariga tayanib saqlab qolishning yetarli emasligini, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va ilmiy asosda rivojlantirish kerakligini ta’kidlagan.

Shunday qilib, Behbudiy o‘zining ta’lim va ma’rifatga bo‘lgan yondashuvi bilan nafaqat o‘zbek milliy o‘zligini saqlashga, balki Turkiston xalqlarining taraqqiyotiga ham hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Uning qarashlari, zamonaviy dunyoda milliy o‘zlikni shakllantirishda ma‘naviy, ilmiy va madaniy qadriyatlarning uyg‘unlashtirilishini, shuningdek, islohotlar va ilm-fan asosida rivojlanishni targ‘ib qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? // Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi // Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ehtiyoji millat // Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Til masalasi // Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ikki emas, to‘rt til lozim // Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

JADIDCHILIK VA EKZISTENSIALIZM: INSONNING OZODLIGI VA MAS’ULIYATI HAQIDA QIYOSIY TAHLIL

Djurayev G‘olib Abdurasulovich,
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat
oliy ta’lim tashkiloti o‘qituvchisi
TDSHU, mustaqil tadqiqotchi
ORCID 0009-0008-3136-4372
jorayev2144@gmail.com
+998(90)931-21-44.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik va ekzistensializm ijtimoiy-falsafiy harakatlarida insonning erk-ozodligi va mas’uliyatiga oid qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi. Jadidlar insonni ijtimoiy islohotlar, ma’rifat va axloqiy yuksalishning faol subyekti sifatida talqin qilgan bo‘lsa, ekzistensializm vakillari insonni tanlov orqali o‘z mohiyatini yaratib boruvchi erkin mavjudot sifatida ko‘radi. Maqolada ikki falsafiy qarash o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar, ularning tarixi – ijtimoiy-madaniy sharoitlari va zamonaviy ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ekzistensializm, inson, ozodlik, mas’uliyat, ma’rifat, falsafa.

Abstract. This article presents a comparative philosophical analysis of the concepts of human freedom and responsibility in the doctrines of Jadidism and existentialism. While the Jadids viewed the individual as an active subject of social reform, enlightenment, and moral development, existentialist thinkers considered man as a free being who creates his own essence through conscious choice. The paper examines the similarities and differences between the two schools of thought, their historical and contextual frameworks, and their contemporary relevance.

Keywords: Jadidism, existentialism, human, freedom, responsibility, enlightenment, philosophy.

Аннотатsiя. В данной статье представлен сравнительный философский анализ понятий человеческой свободы и ответственности в учениях джадидизма и экзистенциализма. Если джадиды рассматривали личность как активного субъекта социальных реформ, просвещения и нравственного совершенствования, то экзистенциалистские мыслители понимали человека как свободное существо, создающее собственную сущность посредством осознанного выбора. В статье исследуются сходства и различия между двумя направлениями мысли, их историко-контекстуальные основания, а также их актуальность в современном философском и социокультурном контексте.

Ключевые слова: джадидизм, экзистенциализм, человек, свобода, ответственность, просвещение, философия.

KIRISH. XX asrning boshlari insoniyat tarixida keng ko‘lamli siyosiy, madaniy va falsafiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda Sharqda jadidchilik harakati, G‘arbda esa ekzistensializm falsafasi shakllanib, har ikkisi ham insonning hayotdagi o‘rni, maqomi va jamiyatdagi roli haqidagi ilgarigi tasavvurlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqdi. Jadidlar turkiy-musulmon jamiyatlarini modernizatsiya qilish, ilm-ma’rifat orqali taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasini ilgari surar ekanlar, insonni jamiyatni o‘zgartirishga qodir subyekt sifatida tasvirladilar. Shu bilan birga, G‘arbda Jan-Pol Sartr va Alber Kamyu kabi mutafakkirlar inson ozodligi va mas’uliyatini falsafiy nuqtai nazardan qayta talqin qilib, individual tanlov va ma’noga asoslangan yashash zarurligini ta’kidladilar.

Mazkur maqolada jadidchilik va ekzistensializmda insonning ozodligi va mas’uliyatiga oid qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki yo‘nalish garchand turlicha tarixiy va madaniy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, ularda insonning faolligi, tanlov huquqi va javobgarlik tuyg‘usi markaziy o‘rinni egallashi qayd etiladi. Jadidlar buni asosan diniy-axloqiy va ma’rifatparvarlik asosida ishlab chiqqan bo‘lsalar, ekzistensialistlar bunga ontologik va individual tajriba nuqtai nazaridan yondashganlar. Shu bois, mazkur mavzudagi qiyosiy tahlil nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga, balki zamonaviy ijtimoiy fikr va inson konsepsiyasi rivojiga ham hissa qo‘shishi mumkin.

METODOLOGIYA VA NAZARIY ASOSLAR. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va tarixiy-kontekstual yondashuvlar asos qilib olindi. Qiyosiy tahlil vositasida jadidchilik va ekzistensializmda insonning ozodligi va mas’uliyati haqidagi g‘oyalar mazmun jihatdan tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlandi. Tarixiy-kontekstual usul esa har ikki falsafiy yo‘nalishning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlarni hisobga olish imkonini berdi.

Nazariy jihatdan tadqiqot A. Avloniy, I. Gasprinskiy, M. Behbudiy kabi jadid mutafakkirlar hamda J.P. Sartr, A. Kamyu singari ekzistensialistlar asarlariga tayanadi. Shuningdek, jadidchilik va ekzistensializm falsafasi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar, xususan B.Qosimov [1;65-70], N.Karimov va Halim Sayyid [2;4] kabi olimlarning ishlari tahlil qilindi.

Ushbu maqolada insonning erkinligi va mas’uliyati masalalari nafaqat falsafiy, balki ma’rifiy, axloqiy va ijtimoiy kontekstda ham ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, jadidlar va ekzistensialistlarning inson haqidagi g‘oyalari faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki bugungi kunda ham dolzarb nazariy masala sifatida baholanadi.

JADIDCHILIKDA INSONNING OZODLIGI VA MAS’ULIYATI. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahr va Turkistonda shakllangan islohotchi-ma’rifatparvar harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni zamonaviy bilim, ilm-fan va axloq asosida taraqqiy ettirish edi. Bu harakat vakillari — Abdulla Avloniy, Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlar insonni jamiyat taraqqiyotining markaziga qo‘ydilar.

Ismoil Gaspirinskiy milliy ozodlikni g‘oya atrofida birlashishdan boshlashga urg‘uv berib, tenglik va erkinlik g‘oyasi fransuzlarni mavqeylarini butun Ovro‘pada sabaland qilganligini e’tirof etar edi[1;65]. Jadidlar insonni aql, bilim, iroda va axloqiy mas’uliyat sohibi sifatida ko‘rdilar. Abdulla Avloniy “Tarbiyai atfol” asarida ta’limni insonni ma’naviy jihatdan yetuk va jamiyat oldida mas’ul shaxs sifatida tarbiyalash vositasi deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, insonning kamolotga erishishi uning shaxsiy sa’y-harakatlari va o‘zini o‘zgartirishga bo‘lgan intilishiga bog‘liq.

Jadidchilik g‘oyasida insonning ozodligi ko‘proq ma’rifat bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Ya’ni, inson haqiqiy ma’noda erkin bo‘lishi uchun u ilmli, axloqli va vijdonli bo‘lishi kerak. Bu yerda ozodlik — faqat tashqi qutqarilish emas, balki ichki kamolot orqali anglangan mas’uliyatli hayot tarzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadidlar insonni passiv obyekt emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida ko‘rdilar. Bu qarashlarning zamirida “insonni o‘zgartirmay jamiyatni o‘zgartirish mumkin emas” degan qarash yotadi. Jadid mutafakkirlar faol insonni tarbiyalash orqali butun millatni ruhan, ma’nan va axloqan ozod qilish mumkinligiga ishonganlar.

EKZISTENSIALIZMDA INSONNING OZODLIGI VA MAS’ULIYATI. Ekzistensializm — XX asr falsafasining eng ta’sirli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u inson mavjudligining ma’nosi, tanlov, ozodlik va mas’uliyat kabi masalalarni markazga qo‘ygan. Jan-Pol Sartr, Alber Kamyu, Martin Xaydegger va Syoren Kerkegor kabi mutafakkirlar ekzistensializmning asosiy vakillari hisoblanadi. Ushbu falsafiy yo‘nalish insonni oldindan belgilangan mohiyatga emas, balki “borliq”ga ega mavjudot sifatida ko‘radi: inson avval mavjud bo‘ladi, so‘ngra o‘z mohiyatini o‘zi yaratadi.

Jan-Pol Sartrning “ekzistensiya mohiyatdan oldin keladi” degan mashhur tezisiga ko‘ra, inson dunyoga kelgandan so‘ng o‘z tanlovlari, harakatlari va qarorlari orqali kim ekanini belgilaydi. Ozodlik, bu nuqtai nazardan, insonning tanlov qilishga mahkum ekanligini anglatadi. Bu majburiy ozodlik — inson o‘z mas’uliyatidan qocholmaydi, chunki u har qanday qaror uchun to‘liq javobgar hisoblanadi. [3; 182]

Sartrning “O‘zgalar — bu do‘zax” degan fikri ham insonning ozodligi va mas’uliyatini murakkablashtiradi. Ya’ni, inson o‘zini nafaqat ichki tanlovlari, balki boshqalarning nigohida ham qayta belgilaydi [4;95-102]. Shu bois, inson doimiy ravishda erkinlik va javobgarlik orasida qaror qabul qiladi.

Alber Kamyu esa ekzistensializmning “absurd” tushunchasiga asoslangan yondashuvini ilgari suradi. Unga ko‘ra, inson hayotda ma’no izlaydi, ammo koinot befarq va sukutda. Shu ziddiyat — absurd. Kamyuningcha, insonning mas’uliyati — shu absurd holatni tan olib, shunga qaramay hayotni ma’noli yashashga qaror berishdadir [5; 15]. Bu — befarqlikka qarshi ongli isyon, erkinlikni anglash va mas’uliyatni qabul qilish aktidir.

Shunday qilib, ekzistensializmda insonning ozodligi — u dunyodagi mavjudotlar ichida yagona ma’no yaratuvchi va mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi shaxs ekanligini anglatadi. Bu ozodlik, bir tomondan, insonni yuksaltiradi, ikkinchi tomondan esa uni ma’naviy yuk va mas’uliyat bilan yuzma-yuz qiladi.

QIYOSIY TAHLIL. Jadidchilik va ekzistensializm har ikkisi ham insonga nisbatan markaziy yondashuvga ega bo‘lgan falsafiy tizimlar hisoblanadi. Ular turli tarixiy, madaniy va geosiyosiy sharoitlarda vujudga kelgan bo‘lsa-da, insonning faolligi, tanlovi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini e’tirof etishda muayyan umumiyliklarga ega.

Avvalo, jadidchilik va ekzistensializmda inson passiv mavjudot emas, balki faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Jadidlar insonning ma’rifat orqali o‘zini va jamiyatni o‘zgartirish qobiliyatiga ishongan bo‘lsalar, ekzistensialistlar insonni ma’no yaratuvchi, tanlov qiluvchi va erkinlik orqali o‘z mohiyatini vujudga keltiruvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu umumiy nuqta har ikki maktabda insonning qadrini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Biroq bu qarashlarda farqlar ham mavjud. Jadidchilikda ozodlik ko‘proq axloqiy, ma’rifiy va diniy ma’noda tushuniladi. Ya’ni inson ma’rifatga erishgan sari haqiqiy ma’noda ozod bo‘ladi. Jadidlar uchun ozodlikning mezoni — ilm, vijdon va axloq. Shu bilan birga, ularning falsafasi jamiyatni kollektiv subyekt sifatida ham ko‘radi, insonning mas’uliyati esa millat va ummat oldida namoyon bo‘ladi.

Ekzistensializmda esa ozodlik ontologik asosga ega: inson dunyoga iroda, tanlov va erkinlik bilan tashlangan mavjudotdir. Bu ozodlik insonni yakka holatda qoldiradi, uning mas’uliyati ham shaxsiy va absolyut xarakterga ega. Ekzistensializm insonni ichki ong va tanlovlar bilan bog‘laydi, uning faolligi jamiyat emas, balki shaxsiy mavjudlik nuqtai nazaridan baholanadi.

Shu jihatdan, jadidchilikdagi “inson — ma’rifatparvar faol jamiyat a’zosi”, ekzistensializmda esa “inson — ma’no yaratuvchi yakka mavjudot” degan konsepsiyalar o‘rtasida konseptual farqlar mavjud.

Shuningdek, mas’uliyat tushunchasi ham farqli talqin etiladi: jadidlarda u axloqiy-ma’naviy nuqtai nazardan ko‘rilsa, ekzistensializmda u ontologik va mavjudlikka doir holat sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA. Jadidchilik va ekzistensializmning inson ozodligi va mas’uliyatiga oid qarashlari har qachon ham ahamiyatli va dolzarb bo‘lib qolgan. Har ikkala falsafiy tizim ham insonning faolligini, tanlovini va jamiyat oldidagi mas’uliyatini e’tirof etish orqali insonning ijtimoiy va shaxsiy jihatdan taraqqiy etish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ularning har biri o‘zining tarixi, madaniy va ijtimoiy kontekstiga asoslangan holda insonni markaziy figura sifatida tasvirlasa-da, ulardagi tushunchalar va yondashuvlarda muayyan farqlar bor.

Jadidchilikning asosiy g‘oyasi — jamiyatni ma’rifat orqali o‘zgartirish, insonni axloqiy va ma’naviy kamolotga yetishtirish. Jadidlar uchun ozodlik — bu bilim va ma’rifatga erishish orqali yoshlarning shaxsiy taraqqiyoti, jamiyatni isloh qilishga qodir bo‘lishidir. Ekzistensializm esa insonning jamiyatga emas, balki o‘ziga bo‘lgan mas’uliyatini va shaxsiy ozodligini asosiy hisoblaydi. Ekzistensialistlar uchun inson — bu tanlovlar va qarorlar orqali o‘z hayotini yaratadigan, ushbu jarayonda o‘zining ma’nosi va maqsadiga yetib boruvchi mavjudot.

Zamonaviy ijtimoiy va falsafiy kontekstda, insonning ozodligi va mas’uliyatining jihatlari yanada ahamiyatli bo‘lib, ularning har ikki yo‘nalishi ham kundalik hayotdagi shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatlar

uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Jadidchilikning tarbiya va ma’rifatga qaratilgan fikrlari, ayniqsa, bilim olish va jamiyatni o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar bilan bog‘liq holda muhimdir. Ekzistensializm esa insonning ichki yuksalish, o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va shaxsiy qadriyatlarning rivojlanishiga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Shu sababli, har ikki yo‘nalish ham zamonaviy insonning ma’naviy va ijtimoiy kamolotini tushunishga xizmat qiladi. Jadidchilik va ekzistensializm inson ozodligi va mas’uliyatiga oid qarashlarning turli nuqtai nazardagi umumiy jihatlarini ko‘rsatish bilan birga, ularning ijtimoiy va shaxsiy taraqqiyotdagi ahamiyatini yanada ochib beradi.

XULOSA. Jadidchilik va ekzistensializmning inson ozodligi va mas’uliyatiga oid g‘oyalari ikki xil falsafiy tizimda shakllansa-da, ulardagi asosiy g‘oyalar o‘zaro yaqin va bir-birini to‘ldiradi. Jadidlar insonni ma’rifatparvar, axloqiy va ijtimoiy mas’ul shaxs sifatida ko‘rdilar, ularning eng muhim maqsadi jamiyatni ozod qilish orqali insonlarni haqiqiy ma’naviy ozodlikka erishishga yo‘naltirish edi. Ekzistensialistlar esa insonning ichki ozodligini, shaxsiy tanlov va mas’uliyatni falsafiy nuqtai nazardan yuksaltirdilar. Ular insonni borliqning asosiy subyekt sifatida ko‘rib, uning mavjudligi va ma’nosi haqida chuqur va individual muammolarni ko‘targanlar.

Har ikkala yo‘nalish ham insonning tanlovi va mas’uliyatini e’tirof etib, insonga jamiyat va dunyoda o‘z o‘rnini topishga imkon beradi. Jadidchilik jamiyatni isloh qilish va ma’rifat orqali taraqqiyotga intilishga chaqiramiz, ekzistensializm esa insonni shaxsiy yuksalish va ma’noni o‘z tanlovi orqali yaratishga undaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari, avvalo, jadidchilik va ekzistensializmning insonning ozodligi va mas’uliyatiga oid qarashlarini murakkab, bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini tuzatuvchi tizimlar sifatida baholash imkonini beradi. Shuningdek, ularning zamonaviy hayotdagi ijtimoiy va shaxsiy masalalarga ahamiyatini yanada yaqqol ko‘rsatdi.

Jadidchilik va ekzistensializmning insonga oid g‘oyalarini zamonaviy pedagogika va tarbiya tizimida qo‘llash, o‘quvchilarga o‘z-o‘zini anglash va jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunishga yordam beradi.

Jadidlar va ekzistensialistlarning shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligiga oid fikrlarini chuqur tadqiq qilish va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yanada ochish, bu ikki falsafiy yo‘nalishning inson huquqlari va shaxsiy ozodlik masalalari bilan bog‘liq zamonaviy muammolarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish, shuningdek, jadidchilik va ekzistensializmning asosiy g‘oyalari insonning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi, bu esa jamiyatning ruhan va ma’nan rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б.Қосимов. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. “Маърифат”.Тошкент.2002 й.

2. Ҳалим саййид. Жадидчилик – янги ҳаракат. “O‘zbekistob adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2004 й. 20-август. №33 (3759). 4-бет.

3. Jan Pol Sartr. Abdulla Sher tarjimasi. Ekzistensializm to‘g‘risida. Jahon adabiyoti. 1997. 5-son. 167-192 b.

4. Karkidon: Absurd dramasi. Yangi asr avlodi. Toshkent; 2025 yil.

5. Албер Камю. Бегона. Ёшлар матбуоти. Тошкент.2023 йил. 447-бет.

6. Djurayev, G‘olib Abdurasulovich (2024). JAN POL SARTR EKZISTENSIAL FALSAFASI GUMANIZM SIFATIDA. International scientific journal of Biruni, 3 (2), 81-94.

7. Abdurasulovich, D. G. O. (2025). A Comparative Analysis of The Ideas on The Human Problem in The Existentialism of Jean-Paul Sartre And Albert Camus. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 6(01), 43-46.

8. Djurayev, G. (2024). Inson muammosi: ekzistensial absurd. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(26), 397-402.

ZAMONAVIY TA’LIM VA TARAQQIYOTDA JADIDCHILIK G‘OYALARINING AHAMIYATI

Ahmad JO‘RAYEV,
Alfraganus university “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi v.b.dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD)
E-mail; juraev.1982@mail.ru
ORCID - 0009-0004-7341-0876
+99899-401-60-30

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining ta’lim sohasiga qo‘shgan hissasi va uning zamonaviy taraqqiyotga ta’siri yoritilgan. Jadidlar ilgari surgan ilmiy, ijtimoiy va madaniy g‘oyalarning bugungi ta’lim tizimida tutgan o‘rni, shuningdek, ularning pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi. Maqolada milliy uyg‘onish g‘oyalari asosida ta’limni rivojlantirish va global bilim makoniga integratsiyalash jarayonida jadidchilik harakatining o‘rni muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, zamonaviy ta’lim, taraqqiyot, ma’rifatparvarlik, pedagogika, yangi usul maktablari, ilm-fan, innovatsiya.

Jadidchilik harakati – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan islohotchi intellektual harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi millatni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’limni rivojlantirish va jamiyatni taraqqiyotga yo‘naltirish edi. Ushbu harakat vakillari milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, ta’lim, madaniyat, iqtisod va ijtimoiy hayotda islohotlar o‘tkazishga harakat qilganlar.

Jadidchilikning asosiy g‘oyalari quyidagi asosiy tamoyillar asosida harakat qilgan:

1.Zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish – eski maktab va madrasalar o‘rniga yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, dunyoviy fanlarni o‘qitish.

2.Ilm-fan va texnologiyalarni o‘rganish – ilg‘or g‘oyalar, san’at, ilm-fan va texnologiyalar orqali jamiyatni rivojlantirish.

3.Milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik – o‘zbek millati ongini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

4.Jamiyatda ayollar o‘rnini oshirish – xotin-qizlarning ilm olishiga imkon yaratish.

5.Iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar – hunarmandchilik, savdo-sanoatni rivojlantirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish.

Jadidchilik harakati vakillari yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, an’anaviy ta’limdan zamonaviy ta’lim tizimiga o‘tishga harakat qildilar. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi ham aynan shu maqsadlarga asoslanib, milliy va xalqaro innovatsion yondashuvlarni tatbiq etmoqda. Barchamizga ayonki, **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Jadidchilik harakati bo‘yicha ko‘plab tarixiy va ilmiy manbalar mavjud bo‘lib, ularning har biri harakatning turli jihatlarini ochib beradi:

- **Fitrat va Behbudiy asarlari** – jadidchilik harakatining asosiy nazariy va amaliy jihatlarini ochib beruvchi muhim manbalardir. Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lib, ta’limning innovatsion yondashuvlarga asoslanishini ilgari surgan [1] .
- **Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar** – bugungi kunda jadidchilik g‘oyalari ta’lim sohasida qanday qo‘llanilayotgani bo‘yicha turli ilmiy maqolalar va tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, kompetensiyaviy yondashuv, ta’limning integratsiyalashuvi, texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish kabi jihatlar jadidlarning ilgari surgan g‘oyalari bilan bog‘liq.

A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari Sharq mumtoz adabiyoti an’analarining davomi bo‘lishi bilan birga, XX asr talablariga moslashtirilgani, milliylashtirilgani, zamonaviy nuqtai nazardan mazmun, shakl, til va uslub jihatidan turlicha qayta ishlangani bilan diqqatga sazovor. Asarda “Axloq” masalasining kitob boshiga qo‘yilishi ham yuqoridagi fikrimiz isbotiga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobda “Xulq”, “Yaxshi xulq”, “Yomon xulq”, “Tarbiya”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi”, “Axloq tarbiyasi”, “Fatonat”, “Diyonat”, “Islomiyat”, “Say’ va g‘ayrat”, “Riyozat”, “Shijoat”, “Ilm”, “Sabr”, “Hilm”, “Intizom”, “Miqyosi nafs”, “Vijdon”, “Vatanni suymak”, “Iffat”,

“Hayo”, “Xavf va rajo”, “Adolat”, “Sadoqat” va h.k [2] mavzular ostida milliy axloqning asoslari talqin etiladi.

Jadidlar harakati xususida adabiyotshunos olim Begali Qosimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: “Jadidchilik oqim emas, harakatchilik. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakatchilik. Jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar g‘ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” [3, 62]

Jadidchilik harakatining zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga qo‘shgan hissasini quyidagi jihatlar orqali baholash mumkin:

1.Innovatsion ta’lim tizimi – jadidlar ilgari surgan yangi usul maktablari bugungi interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’lim tizimiga yo‘l ochdi.

2.Ilm-fan va texnologiyaga e’tibor – jadidlar ta’lim jarayonida matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘qitishni taklif etgan bo‘lsa, bugungi ta’lim tizimi ham STEAM (science, technology, engineering, arts, and mathematics) kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

3.Milliy uyg‘onish va madaniyat – jadidlar milliy ong va madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Bugungi kunda ham ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

4.Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot – jadidlar xotin-qizlarning ilm olishi va jamiyatda faol ishtirok etishini targ‘ib qilgan. Bugungi kunda bu tamoyillar gender tengligi va inklyuziv ta’lim konsepsiyasi asosida rivojlantirilmoqda.

5.Pedagogik uslublarni yangilash – jadidlar ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash, interfaol darslarni tashkil etish va o‘qitish samaradorligini oshirish tarafdori edilar. Bugungi kunda ham zamonaviy pedagogika ushbu yondashuvlarni keng qo‘llab-quvvatlaydi.

Jadidchilik harakati O‘zbekistonda ta’lim va jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning ilg‘or g‘oyalari bugungi kun ta’lim tizimida ham o‘z aksini topmoqda. Zamonaviy taraqqiyot jadidlarning ma’rifatparvarlik tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda ish olib borish bugungi kun uchun ham dolzarbdir.

M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi qahramoni bo‘lgan ziyoli obrazi ham jadidlar dardi, orzu-maqsadlarini o‘zida jamlagan va bularni xalqqa yetkazishga xizmat qilgan obrazdir. Ziyoli tomonidan boyga kuyunchaklik bilan aytilgan quyidagi so‘zlar fikrimiz dalilidir: “Hozir yangi va boshqa bir zamondur. Bu zamong‘a ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘lidan ketgandek, axloq obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qumoqg‘a sa’iy qilmoqimiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav’ naf’lik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorg‘acha bizlarg‘a farz qilgandir” [4, 43].

Fitratning 1920-yilda yaratilgan “Chin sevish” dramasi Hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Qahramonlardan biri Yevropada o‘qib kelgan ziyoli Karimbaxsh obrazidir. U bir vaqtlar Yevropani maqtar edi. Endi esa fikri o‘zgargan: “Ovrupada bilim bor, lekin insof yo‘q. Ovrupaning bilimi qoplonning tishi, tirnog‘i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yemak to‘g‘risida ko‘p ish ko‘rmishdir...”, - deydi xotini Fotimaxonim bilan suhbatida. Xotini Yevropani maqtash fikridan nega qaytganini so‘raganda esa: “Qaytganim yo‘q. Ovrupa ilmlarini o‘rganmak, albatta kerakdir. Ovrupada o‘qumoq, ovrupalilarni insofli, adolatli deb maqtash uchun emas, unlardan o‘zimizni saqlagani, tishli, tirnoqli bo‘lmoq uchun kerakdir” [5, 10].

Jadidchilik harakati zamonaviy ta’lim tizimiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, uning ilg‘or g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlab qolish kabi jihatlar jadidchilik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Ta’lim tizimining rivojlanishi, yosh avlodni ilm-fan va taraqqiyotga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, jadidlarning ma’rifatparvarlik tamoyillari bu borada muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov ta’kidlaganidek, “Bugungacha Ovrupo xalqi osmonga uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupalilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo‘g‘rofiya va tibbiyot o‘qitish-o‘qitmaslik ixtiloflari... davom etadi” [6, 18].

Xulosa qilib aytganda, millatni uyg‘otish, o‘zligini tanitishdek mas’uliyatli vazifa jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan birga ijodida ham teng olib borilgan. Bu asarlardagi ziyolilar obrazi jadidlar maqsad-g‘oyalarining ifodasi bo‘lib xizmat qilish bilan birga, ularning muvaffaqiyatli amalga oshishida ham katta yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Fitrat, A. Hind ixtilochilari. Toshkent, 1923.

2.Авлоний А. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. Б.Қосимов. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 1998.

3.Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2008.

4.Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 1999.

5.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3-жилд. - Т.: Маънавият, 2003.

6.Abdurashidxonov M. Jadidlar. Nashrga tayyorlovchi S. Xolboyev. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

JADIDLAR FAOLIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK VA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI MASALALARI

Iskandarova Gulshoda Faxraddin qizi,
Ma’mun Universiteti, 24.2-guruh talabasi.
e.mai iskandarovagulshoda62 @gmail.com.
Ilmiy rahbar : Babayeva Zuxra

Annotatsiya. Maqolada jadidlar faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan. Komil insonni tarbiyalash har bir davlat va jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanib, uni yurt ravnaqi uchun harakat qilishga o‘rgatish esa muallimlarning asosiy vazifasi ekanligi jadidlarimiz tomonidan amaliy jihatdan o‘z isbotini topgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, jadidlar, sho‘ro tuzimi, mafkura, ma'rifatparvarlik, iqtisodiy tazyiqlar.

Kirish: Tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do‘konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo‘lib, bolalarga salbiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog‘lom o‘stirishga chorlaydi. Sog‘lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o‘sib ulg‘ayib, o‘qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar yetishib chiqishini o‘rzu qilgan.

Sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o‘z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma'rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan.

Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o‘qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo‘lib, ona-Turkistonning taraqqioyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug‘ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo‘lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To‘y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan. U o‘zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni

bitirgandan so‘ngra Turkiya, O‘rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi[1]"

Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o‘rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g‘ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,.....millat yo‘lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g‘urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz"[1].

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o‘ng tomonga ham, chap tomonga ham og‘masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo‘l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og‘u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg‘itadi.

Eski tuzum davrida biz o‘z tariximizni bilmas edik. Ko‘zimiz bamisoli ko‘r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta "dohiy"lar hayotini - qachon, qayerda tug‘ilgan, nima karomatlar ko‘rsatgan - bilar edik, to‘g‘rirog‘i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig‘inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so‘z bilan aytganda,qornimizga emas, qadrimizga yig‘laydigan bir davr edi[2.12].

O‘zlikni anglash degani - bu o‘z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo‘lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.

O‘zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf- odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og‘ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to‘g‘ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to‘g‘ri yo‘lga qo‘yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo‘ladi, butun xalqimizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlab turadi. Bu - erkin, ozod, tinch va barqaror, obodva farovon hayot demakdir.

Yosh avlodning maktabdagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g‘oyga ham jadidlar alohida e'tibor berganlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o‘z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalminallik, Vatan ravnaqi, go‘zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular, bolalar, yoshlartarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ularning o‘zlari mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bi;lan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo‘lmoq kerakligini tadbiq etgandir.

Xulosa : Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o‘zlari ham yosh bo‘lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g‘oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g‘oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo‘lib qoldi. Har qanday og‘ir sharoitda ular o‘z qarashlarini o‘zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog‘laganlar va shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch bo‘lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko‘p sa'y-harakatlar qilganlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son.
2. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O‘zbekiston tarixi (o‘quv qo‘llanma) T.2011.

JADID MA'RIFATPARVARLARINING GENDER MADANIYATGA DOIR QARASHLARI YORITILISH JARAYONI

Ochilova Gulnoza Asrorovna,
Shahrisabz davlat pedagogika institute,
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail: ***gulnozaochilova902@gmail.com***
Tel: ***(91)9553884***

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadid ma'rifatparvarlari faoliyati va bu faoliyat natijasida o'lka xotin-qizlari hayotidagi tub o'zgarishlar, jamiyatda ularning o'rnini belgilab beruvchi gender tenglikni shakllantirish jarayoni qay holatda amalga oshirilganligi haqida so'z boradi. Bu jarayonning kechishida matbuotning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadid, jadid ma'rifatparvarlari, jamiyat, davr, xotin-qizlar, gender, gender madaniyat, maorif, ta'lim.

Insonni inson sifatida shakllanishida jamiyatda ijtimoiylashuv, tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishi va muhitning o'rni beqiyosdir. Inson zoti qaysi muhitning ta'sirida shakllanishi, qaysi millat, qaysi e'tiqoddagi va qaysi urf-odatlarda tayangan xalq orasida voyaga yetishi bilan, huddi shu – o'z atrofini o'rab turgan jamiyat a'zolaridan namuna olib ulg'ayadi, shaxs sifatida kamol topadi. Xotin-qizlarning asrlar davomida saqlanib kelgan an'analari, jumladan, ularning begona erkaklarga ko'rinish bermasligi, nomahramdan qochishi, yuzini yashirib yurishi, o'zini ojiza sifatida tutish kabi xususiyatlari qadriyat sifatida rivojlanib borgan, hatto buning teskarisi gunoh amal hisoblanib kelgan. Ularning qarashida dunyo huddi shunday tuzilgan, buni o'zgartirish imkonsiz, balki, faqat shunday bo'lishi kerak degan tushuncha bilan yashab kelganlar.

Xalq orasida dunyoni ochiq ko'z bilan ko'rish, uni yangidan kashf qilish maqsadida bu davrda bir qancha shaxslarning fikrlari o'zgara boshladi. Ular yangi fikrlilar, taraqqiyparvarlar deb tanildilar, keyinchalik "Jadidlar" deb atala boshlandilar. Jadidlar o'z qarashlarida jamiyat rivojlanishini to'xtatayotgan xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog'liq illatlar: ma'rifat qoloqligi, qayg'u-kulfat, urug'chilik va o'rta asrdan saqlanib qolgan munosabatlardan qutulish yo'l-yo'riqlari oz aksini topgan edi. Jadidlar fikricha, xotin-qizlar o'z ayollik huquqlarini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur deb ta'kidladilar[5.108].

Jadidlar yangi jamiyat qurishni o'z oldilariga maqsad qildilar, eski, yashashga qiyinchilik tug'dirayotgan steriotiplarni yo'q qilish yo'lini izladilar. Ular butun dunyoda xotin-qizlar boshqacha fikrlay boshlaganini, oila va jamiyatdagi roli yuqori ekanligini ko'rsatishga intildilar. Boshqa jamiyat a'zolari bilan o'z millati xotin-qizlari o'rtasidagi tafovutni qiyosladilar, tahlil qildilar. Bu pedagogik jarayonni isloh qilinishiga sabab bo'ldi, pedagogik fikrlar yangilandi, o'zgartirishga urinildi va jamiyatga turli usulda yetkazishga harakat qilindi. Bunda jamiyat a'zolarining ham dunyoqarashi o'zgarishida teatr va vaqtli matbuot vositasida amalga oshirildi.

Har bir jamiyatni qurishda yoki isloh qilishda jamiyat quruvchilari ma'lum bir g'oyani ilgari surish orqali o'z maqsadlariga erishadilar. Bu tarixiy haqiqatdir. G'oyani singdirish esa ma'lum bir vositalar yordamida amalga oshiriladi. Xalq ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifatli, madaniyatli jamiyatni qurishni maqsad qilgan jadidlar feminizm g'oyasini ilgari surdilar. Tarixdan ma'lumki, madaniyatli jamiyat vakillari ayolni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ko'radi, unga iltifot, hurmat ko'rsatadi. Jadidlar fikricha, G'arb dunyosi bu davrda feminizm g'oyasi asosida shakllangan jamiyatni barpo etgan va shu sababli rivojlanish jarayonidan borayotgan edi.

Feminizm g'oyasi – bu ayollarning huquq va imkoniyatlarini erkaklar bilan tenglashtirishni maqsad qilgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy harakatdir. Feministlar ayollarning egallagan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mabqeyini tiklash, ayollar huquqlarini himoya qilishga intiladilar. Feminizmning asosiy maqsadi shundaki, ayollar va erkaklar orasidagi tenglikni ta'minlash, balki keng ma'noda gender-asosli diskriminatsiyani kamaytirish va ayollarni hayotning barcha sohalarida teng huquqlarga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

G'arb ta'limi Sharq tarbiyasi bilan integratsiyalashgan holda, ma'lum bir g'oyaviy uyg'unlikda jadidchilikning gender madaniyatni rivojlantirish jarayoni bosqichma bosqich amalga

oshirila bordi. Jadidlar g‘oyaviy maqsadni Islom qoidalariga, sharqona axloq me’yorlariga moslashtirdilar.

G‘arb dunyosida xotin-qizlar gender tengligi masalasi bo‘yicha me’yoriy -huquqiy hujjatlar XIX asrdayoq kuchga kira boshlagan bo‘lsa, Sharqda, xususan Turkiston hududida bu jarayon Jadidlar faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshirildi. Ular matbuot kuchiga tayangan holda jamiyat a’zolari orasida g‘oyani singdirdilar. “Sadoyi Turkiston”[2.126] gazetasining muharriri Rauf Muzaffarzoda “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil, 54-sondagi “Yangi yildan eski tilaklar” nomli maqolasida o‘zbek milliy matbuoti qanday yo‘l tanlashi, qaysi yo‘nalishda davom etishi haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: “Erlarimiz ham, xotin-qizlarimiz ham maishat, tarbiya va dunyo ila tanishtursun va onlarning fikrlarini ochub, axvoli olamdin xabar bersun”. Ya’ni u davr uchun eng zarur bo‘lgan muammolar, chunonchi, Turkiston xotin-qizlari hayoti, kundalik turmushi bilan bog‘liq voqealarni kengroq yoritishga da’vat etadi. “Na uchun ibrat olmaymiz?” maqolasida o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarga ilmu-hunar ko‘proq zarurdir, degan fikrni ilgari suradi: “Biz bechoralarni shu hollarga qolmog‘imizga birinchi sabab ilmsizligimiz, dunyodan xabarsizligimizdur. Ey otalar ushbu holimizni ko‘z oldiga keltirub, bizlarni oqartururga, ilm-maorif nuriddin bahravor qilurga harakat qilingiz. O‘g‘il bolalardan ko‘ra qiz bolalarga ilm, hunar lozim ekanligini xotiringizdan chiqarmasdan, tezdin ibtidoiy maktablar ochmakka, ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturga oshiqingiz” deya fikr bildiriladi “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil, 11-sonda. Maqolada qizlar uchun turli bezaklar emas, balki ilm, hunar kerakligi alohida uqtiriladi; turli zebu ziynatlar uchun sarf qilinadigan pullarni qizlar maktablar ochub, unga yaxshi, o‘qimishli muallimalar tayinlash, unga sarflash kerakligi haqida hozir ham qiymatini yo‘qotmagan fikrlar bayon etiladi.

“Sadoyi Turkiston”[2.127] gazetasi sahifalarida Abdulla Avloniy, Tavallo, So‘fizoda, Nozimaxonim kabi jaded ma’rifatparvarlarining o‘zbek xotin-qizlarini ilm olishi, kasb-hunar o‘rganishiga da’vat etuvchi maqolalari muntazam chop etib boriladi.

Jadidchilik harakatini o‘rganish jarayonida gender madaniyatning ilk ko‘rinishlari bu hududda aynan ular bilan bog‘liq holda shakllanganligini, jadidlarning sa’y-harakatlari bilan jamiyatda ayollarning haq-huquqlari himoyaga olinish davri boshlanganligini, oilada va jamiyatda ularning roli oshib borganligini, har bir sohada erkaklar bilan teng imkoniyatlarga erisha boshlaganliklarini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Gender steriotiplari birmuncha yengillashgani, xotin-qizlarning ta’limda, maorifda hamda tibbiyotda o‘z yo‘nalishlarini belgilab olganliklarini guvohi bo‘lamiz. Tadqiqotda jadid ma’rifatparvarlarining gender madaniyatni rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarini ochib berish uchun ilmiy-pedagogik izlanishlar umumlashtirilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Toshkent, “Ma’naviyat”. 2002-y.

2. S.A.Halimova. “Ubaydulla Asadullaxo‘jayev va Sadoyi Turkiston”. Monografiya. Toshkent. “Universitet” 2021

3. N.A.Abduazizova. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917) “Akademiya” Toshkent. 2000.

4. D.Rajabova. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss… - T.: 2003.

5. Sharipov R. Turkistonda jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

6. Ochilova G. JADIDS’ PEDAGOGICAL CONSIDERATIONS TO THE DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE. // *Science and innovation* 2.B12 (2023): 868-871.

7. Ochilova G. PEDAGOGICAL VIEWS OF THE JADID ENLIGHTENMENT ON THE DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE. (2023).

8. Ochilova G. DIDACTIC HERITAGE IN THE CREATION OF ABDULLA AVLONI. // *Академические исследования в современной науке,* 1.14 (2022): 121-123.

9. Khaydarov Sh., Ochilova G. and Khujaniyozov B. A CREATIVE APPROACH TO LEARNING BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES. // *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* 3.13 (2024): 5-11.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA TARIX: YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDAGI XIZMATI

Komiljonova Zarifa Ahmadali qizi,
Namangan davlat pedagogika institute
Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi
***Tel:** +998938543778*
zarifakomiljonova@gmail.com
Omonova Zarnigor To‘rajon qizi
Namangan pedagogika instituti ilmiy xodimi
omonova.zarnigor.2302@gmail.com
Tel: +886860674

Annotatsiya: Millat hurriyati, el ma’rifatini o‘ylab yashagan jadid bobolarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishar ekanmiz, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lponlar bilan bir qatorda Mahmudxo‘ja Behbudiy fikratini ham ulug‘laymiz. Behbudiy har qanday “taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasi maktab” ekanligini ta’kidlab, shu yo‘ldagi sa’y-harakatlardan also charchamagan novatordir.

Kalit so‘z: maktab, matbuot, ta’lim, jadid, fan, taraqqiyot, yoshlar, Turkiston, teatr.

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ И ИСТОРИЯ: ЕГО ЗАСЛУГИ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотatsiя: Знакомясь с жизнью и деятельностью наших предков, живших мыслями о свободе natsii и просвещении народа, мы также чтим идеи Махмудходжи Бехбуди, наряду с Абдуллой Авлони, Мунавваркори Абдурашидхановым, Фитратом, Чолпонаром. Бехбуди – новатор, который не устает прилагать усилия в этом направлении, подчеркивая, что «школа – это начало любого прогресса, ворота культуры и счастья».

Ключевые слова: школа, пресса, образование, современность, наука, развитие, молодежь, Туркестан, театр.

MAHMUDKHODJA BEHBUDIY AND HISTORY: HIS CONTRIBUTION TO THE EDUCATION OF YOUTH

Abstract: As we get acquainted with the life and work of our great-grandfathers, who lived with the freedom of the nation and the enlightenment of the people, we glorify the ideas of Mahmudkhoja Behbudiy, along with Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Fitrat, and Chulpony. Behbudiy is an innovator who never tires of making efforts in this direction, emphasizing that "the beginning of any progress, the gate to culture and happiness is school."

Keywords: school, press, education, modern, science, development, youth, Turkestan, theater.

XIX asrning ikkinchi yarmida Osiyo, jumladan, Turkiston ilm-fan va texnika taraqqiyotida Yevropadan ancha ortda edi. Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan ortdaligi, erk va ozodlikka erishish haqida o‘z zamonasining yetakchilarida fikrlar tug‘ila boshladi. Jadidlar – ma’rifatparvarlar, Turkistonda XIX asr oxirida taraqqiyot, milliy istiqlol va bunga erishishning ilg‘or usullarini qo‘llagan, yangicha maktab tizimini yaratgan, matbuotni rivojlantirgan novatorlar hisoblanadi. Ular orasida “Turkiston jadidlarining otasi” sifatida nom qoldirgan jadidchilik harakati vakillaridan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Behbudiy XX asr boshlarida Rossiyada musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va “Tarjimon” jurnali tashkilotchisi bo‘lgan Ismoil G‘aspiralining “usuli jadid” maktablari Turkistonda keng yoyilishi uchun harakat qildi. Darslik, qo‘llanmalar, hatto xaritalar tayyorlagan. “Qisqa umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” kabi darsliklar yaratdi [1].

Har qanday savod, avvalo, alifbodan boshlanadi. Behbudiy Turkiston maktablari uchun ilk alifbo darslikni yaratdi. Kitobning nomini “Risolayi asbobi savod” deb qo‘ydi. Muallif alifboni bosmadan

chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o‘tkazdi, alifboga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritdi va 1905-yil Samarqandda bosmadan chiqardi. Bugungi kunda maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun alifbo takomillashgan variantda taqdim etib kelinmoqda. Harflar esda qolishi uchun rasmli va rangli holatda nashrga tayyorlanmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning muhim darsliklaridan biri bu – “Kitobat ul-atfol”. Uni “Bolalar maktubi” tarzida tabdil qilish eng to‘g‘ri variant hisoblanadi. Bunga isbot tariqasida keltirishimiz mumkinki, “Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy” asarida bu kitob nomining tarjimasi haqida shunday deyiladi: “ba’zi tadqiqotchilar ushbu darslikning nomlanishini “Bolalar uchun kitob”, “Bolalar uchun yozuv kitobi”, “Bolalar kitobi”kabi shakllarda tarjima qiladi. Bunday nomlash muallif maqsadiga ham, kitobning mazmun-mohiyatiga ham to‘g‘ri kelmaydi, chunki “kitobat” so‘zi lug‘atlarda “xat”, “maktub”, “bitik” deb tarjima qilingan. Ushbu “Kitobatul atfol” darsligini “Bolalar maktublari” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki kitobda bolalarni turli mazmundagi rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozishga o‘rgatish, yozma nutqini o‘stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan, bolalarning turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan” [2].

Rasmiy hujjatlar, ish qog‘ozlari bilan ishlash, ulardan to‘g‘ri foydalanish, mantiqli va shaklan qoliplangan matn yaratish masalalari ham maktab darsliklarida mavjud. O‘quvchilarga maktub, insho va esselar yozish ko‘nikmalari maktabda o‘qituvchilar tomonidan o‘rgatiladi. Ularning oldidagi asosiy vazifasi, yoshlarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishdir. Bu borada Behbudiy mukammal matning 18 moddadan iborat qoidalarini aytib o‘tgan. Ular hozirda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

“1) Turkiy yozilur ekan va iboratni turkiysi bo‘lub turub, ani o‘rnig‘a rusiy va ajnabiyismni yozmoqni ahli donish man’ qilgandurlar.

2) Ahli fan, ulamo va udabog‘a maxsus yozilaturg‘on xatlar, mahkama va dorulqazo maktublari, ilmiy va siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratg‘a yozilsa kerak.

3) Xatni kamso‘z, serma’no yozmoq kerakdur.

4) G‘azab va xafalik va yo nihoyat xursand va bexushlik vaqtlarda xat yozmay, holoti daraji e’tidol (mo‘tadil)g‘a kelganda maktub yozmoq avlodur.

5) Bir nimarsa va yo odamni nihoyat madh va ta’rif va yo yomonlamoq va mubolag‘a etmoqdan hazar qilib, barcha holda o‘rta qismg‘a qalam ishlatmoq kerak.

6) Maktubg‘a haqorat, ta’na, hazil, fisq va gunohg‘a taalluq so‘zlar aslo yozilmasun” [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy geografiya bo‘yicha ham qator darsliklar yaratdi. Ancha soda bo‘lsa-da, o‘sha davr kishilari uchun mos edi. “… har bir bob, mavzu yoritilganda, Turkiston tabiati, xo‘jaligi, aholisi va boshqa geografik jihatlaridan misollar keltiriladi. Bu bilan muallif darslikni Vatan o‘lkashunosligi ma’lumotlari bilan bog‘laydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi” [4].

Mahmudxo‘ja Behbudiy asrimiz boshida, 1914-yilda yozgan “Muhtaram yoshlarg‘a morojaat” nomli maqolasida kuyunib-yonib mana bunday degandi: “Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib taraqqiyotning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat, eng avval, makotibi ibtidoyisini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha, taraqqiy yo‘liga kirub, madaniyatdan foydalanmas” [5]. Hozirgi paytda ham yoshlikdan ilm va mukammal, go‘zal tarbiya berishga harakat qilinadi. Behbudiy ham taraqqiyning boshi, albatta, maktab ekanligini deyarli har maqolasida aytib o‘tgan. 1913-yilning 12-iyulida “Samarqand” gazetasidagi “Ehtiyoji millat” maqolasida aytadi: “Boshqa millatlarga qaralsa, ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur” [6]. Behbudiy shu haqiqatni tan olib, millatimiz boshqalarga poymol bo‘lmasligi uchun jahon ilmlarini turkistonlik yoshlar tanitishi va amaliyotda qo‘llashlariga ko‘mak beradi. Maktab ta’limi butun dunyoda eng ahamiyatli bosqichdir. Fransuz adibi Anri Barbyus aytadiki: “Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir; agar kelajakni qo‘ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo‘lda mustahkam tutmog‘ing lozimdir”. Behbudiy yoshlar uchun bu bosqichning ahamiyatini teran tushungan holda barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Hattoki, “o‘z rahnamoligida ochgan maktablari uchun yozagan, nashr etgan darsliklarini tekinga tarqatgan yagona muallimdir” [7].

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo‘ldi, teatr san’atiga asos soldi, gazeta-jurnal chop qildi, nashriyot hamda kutubxona tashkil etdi. U siyosiy,

ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qildi [8]. Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini chiqardi, “Behbudiya kutubxonasi”, “Nashriyoti Behbudiya”ni tashkil etdi. Abdurashid Ibrohimov tomonidan nashr qilingan “Islom dunyosi” jurnalida chop etilgan “Tullobi kiroma”, ya’ni “Aziz talabalarga murojaat” maqolasida maktabda qanday ilmlarni o‘rgatgan afzal ekanligi bo‘yicha qimmatli ma’lumot keltiradiki, buungi kunda ham bu juda ahamiyatlidir. Unga ko‘ra, “500 yil oldin yozilgan asarlardan emas, dunyo kashfiyotlari, ixtirolari, yangi fikrlari bilan sug‘orilgan yangi ilmiy asarlar yaratilishi va ular asosida talabalarga tahsil berilishi kerak” [9].

Bugun jadid namoyandalariga, ta’lim va tarbiya berish usullari ular tomonidan qanday isloh qilinganini o‘rganish uchun e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida alohida ta’kidlaganidek: “Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir” [10]. Bu va boshqa e’tiroflar sovet mafkurasi talabiga ko‘ra barcha mustamlaka xalqlar qatori bizning tariximiz ham kamsitilib, daho shaxslarimiz qoralanib, noto‘g‘ri talqinda o‘qitilgan va bularni to‘xtatish uchun kurash maydoniga chiqqan Behbudiy xizmatlarining natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirashidov, Z. (2022). *Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy.* Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.
2. Mahmudov, N. (2025-yil, 7-mart). Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. *Jadid*(10), 1-3.
3. Mahmudova, O. (2024, mart 22). Mahmudxo‘ja Behbudiyning yosh avlodga murojaati. *Jadid*(13).
4. Salimov, O. (2024, iyun 7). Sizga berilgan imkonni asrang. *Jadid*(24), 2.
5. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/turkiston-o-lkasida-jadidchilik-harakati-va-siyosiy-harakatlar

ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИ: МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ АДАБИЁТИ ВА ЖАДИД ДРАМАТУРГИЯСИ

Юсуп Хуррамович Манзаров,
Қарши давлат техника
университети доценти.

Аннотатsiя: Жадидчилик харакати XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда миллий уйғониш, маърифатпарварлик ва ижтимоий-сиёсий ислоҳотларнинг асосий қўзғалтувчи кучларидан бири бўлган. Бу харакат маърифат ва маданиятнинг ривожланиши, миллий онгнинг уйғониши ва мустақил давлат тузиш ғояларининг шаклланишида муҳим роль ўйнаган. Маскур мақолада жадид адабиёти ва драматургияси халқнинг маънавий-маърифий ҳаётини янада ривожлантириш, миллий ғояларни тарғиб ва замонавий жанрларнинг ўзбек адабиётига киритилиши тадқиқ қилинган. Жадидларнинг асарларида миллий озодлик, маърифат ва ижтимоий адолат мавзулари кўп ҳолда ўз ифодасини топган. Бу харакатнинг асосий намояндалари Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлоний, Ҳамза ва Чўлпон каби шахслар бўлиб, улар адабиёт, театр ва маърифат соҳаларида катта ижодий ва ижтимоий фаолият кўрсатганлар.

Калит сўзлар: Жадидчилик харакати, миллий уйғониш, адабиёт, драматургия, маърифатпарварлик, миллий онг, Туркистон, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат, театр.

Жадидлар фақат маърифатпарварлик ғоялари – мактаблар очиб таълимда ислоҳотлар қилиш билан чекланиб қолмасдан, адабий ва оммабоп асарлар, мақолалар ёзиш, саҳна асарлари

яратиш, театрларни ташкил қилишга ва шу йўллар билан халқни, миллатни маънавий уйғониш, ривожланишга чақирдилар.

Жадид шоирлар ўз асарларида халқни маданиятга ундаб, қолоқлик ва жаҳолатнинг бир қадар сингиб қолган иллатларини танқид ва кулгу остига олдилар. Ҳажвий ва сатирик йўналиш қайтадан уйғониб, халқона шеърият ривожлана бошлади. Миллатнинг тараққийсига тўсиқ бўлаётган айрим одатлар, қолоқ удумлар аччиқ кулгу остига олинди. Аста-секинлик билан миллатнинг маънавияти, маданияти, дунёқараши ўзгариб борди. Адабиётда эса янги жанрлар, хусусан, публицистика, халқона шеърият, драматургия, романга асос солинди.

Узоқ асрлардан бери давом этиб келган анънавий адабиётнинг ўрнига замонавий, янгича йўналишдаги адабиёт, янги адабий тур ва жанрлар, янги адабий тил кириб келиб, шакллана бошлади. Хатто мақоланавислик билан бирга илк адабий танқид нишоналари пайдо бўлди. Бармоқ вазнидаги маърифий шеърият, ҳикоя, драмалар юзага келди. Бу адабиётнинг кўплаб намоёндалари катта майдонга чиқдилар. Беҳбудий, Сиддиқий-Ажзий, Абдулла Қодирий, Абдулла Авлоний, Хожи Муъин, Ҳамза, Фитрат, Сидқий Хондайлиқий, С.Айний, Тавалло, Мирмулла ва Мирмуҳсин Шермуҳамедовлар, Нозимахоним, Сўфизода, Абдулла Бадрий, Хуршид ва Чўлпон каби миллий адабиётимиз вакилларининг ижоди жадидчилик харакати замирида туғилди, шаклланди, ривожланди, ўз тарихий хизматини адо этди.

Ана шундай бир даврда жадид маърифатчилигининг муҳим бир йўналиши, тармоғи бўлган жадид драмалари ва театрлари ҳам дунёга келди. Бу XX асрнинг ўнинчи йилларига тўғри келди. Халқни ва миллатни илм зиёси билан уйғотаётган, миллатнинг ҳур келажагини кўриш истагида фаоллик кўрсатаётган жадид зиёлилари театрнинг ролини яхши англаган ҳолда бу ишга киришдилар. Туркистон заминига рус, татар, озарбойжон театрларининг кириб келганлиги ўша вақтда мавжуд бўлган театрнинг узоқ тарихий анъаналарига замонавий руҳ олиб келди. Маҳмудхўжа Беҳбудий 1911 йилда «Падаркуш ёхуд ўқумаган боланинг ҳоли» деб номланган биринчи фожеий саҳна асарини ёзди. Бу пьеса 1914 йил 15 январь куни илк марта Самарқанднинг Янги шаҳар қисмида ҳаваскорлар томонидан қўйилди. 1914 йил 25 январь санасида «Ойина» журналининг 14-сонида «Туркистонда биринчи миллий театр» номи билан ахборот берилади. Бу пьесанинг илк муваффақияти Туркистоннинг барча ҳудудларига ёйилиб кетди. Театрчилик харакати Самарқанддан бошлаб жонланиб кетади. 1913 йилда Тошкентда Авлоний, Мунавварқори ташкилотчилигида «Турон» театр труппаси тузилди. 1915-1916 йилларда Абдулла Қодирийнинг «Бахтсиз куёв», Авлонийнинг «Адвокатлик осонми?», «Пинак», Хожи Муъиннинг «Мазлума хотун» каби саҳна асарлари Турон труппасининг репертуаридан жой олган эди. Бошқа шаҳарларда ҳам илк театр томошолари, труппалари пайдо бўла бошлади. Илк қалдирғоч режиссёрлар Абдулла Авлоний, Бадириддин Аъламов. Низомиддин Хўжаевлар ҳам тинмай ижод қилишди.

Адабиётшунос Ш. Ризаевнинг тадқиқотларидан маълум бўладики, «Турон» театр труппаси профессионал жамоа сифатида доимий ўсиш, ўзгаришда фаолият кўрсатган. «Турон» жамиятининг «Низом»ида белгилаб қўйилган асосий мақсад ва манфаатлар сирасида «Туркистон ўлкаси ҳудудидаги моддий ва маънавий аҳволни яхшилашга мухтож мусулмон эътиқодидаги кишиларга ёрдам кўрсатиш», «ўз номига бошланғич мактаблар очиш ва таъминлаш ҳамда мухтожларга нафақа бериш, шу жумладан, ўқувчиларга ва олий ўқув юртларида таҳсилни давом эттиришлари учун стипендиялар таъсис этиш, шу билан бирга, мавжуд хайрия ва маориф муассасаларини, уларнинг расмий, хусусий, ижтимоий қандай табақада бўлишларидан қатъий назар моддий қўллаб-қувватлаш» тўғрисидаги мақсадлар киритилган(3).

Умуман, «Турон» жамоасининг доимий фаолиятдаги режиссёрлари ва актёрлари, ходимлари бор эди. Булар Хасан қори, Эшонхўжа Хоний, Самиъ қори, Абдулла Авлоний, Бадриддин Аъламов, Шораҳим Шоҳиноятов, Низомиддин Хўжаев, Шокиржон Раҳимий, Қудратулла Махзум, Муҳаммадхон Пошшохўжаев, Башруллоҳон Хўжаев, Абдуллазиз Хўжаев, Мусохон Мирзахонов, Умарқул Анорқулов, Фузаил Жонбоев, Салимхон Тиллахонов, Қудратулла Юнусий, Тўлаган Хўжамёров, Убайдулла қори Эрғозиев. Шунингдек, сал кейин улар сафига Сулаймон Хўжаев, Маннон Уйғур, Ғулом Зафарийлар ҳам қўшилган. Яна бу труппада Абдураҳмон Акбаров, Саъдуллахўжа Турсунхўжаев, Мусо Азимов, Мирмулла Шермуҳамедов, Муҳиддин Шарафиддинхўжаевлар ҳам иштирок этган(4).

Жадидлар театрни ибратхона санашди. Улар драмани тарбия воситаси сифатида қадрладилар, худи шу даврда ёзма миллий драматургия ҳам ривожлана бошлаган эди. Театр ибратхона хисоблангани боис, бепарда сўзлару бачкана қилиқлар ҳамда кўринишларга йўл қўймадилар. Халқ ҳам аста-секин театрни муқаддас даргоҳ сифатида қабул қилган. Туркистон заминида янгича театр, драматургия шаклланиши жадид ҳаракатининг ва адабиётининг муҳим бир қаноти бўлиб қолганди. Театр асарларида жадид маърифатпарвар ижодкорларининг Ватан, миллат дардида айтган сўзларию изтироблари қолди ва кейинги давр миллий драматургияси ҳамда миллий адабиётимиз равнақига қўйилган ўзига хос пойдевор вазифасини ўтади.

Адабиётлар:

1. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. -Тошкент: Tafakkur, 2016.

2. Садр Зиё. Наводири Зиёия. - Душанбе: Адиб, 1991.

3. Айний С. Куллиёт (Танланган асарлар). Т. 1-15. - Душанбе, 1958.

4. Edward A. Allworth. The Personal History of a Bukharan Intellectual: The Diary of MuhammadSharif-I Sadr-I Ziya. - Brill: Leidin-Boston, 2004

5.Фиш Р., Хашим Р. Глазами совести. Душанбе: “Ирфон”, 1978. С.53

6.Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири-XX аср бошлари), Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертатsiя автореферати.Т.-2019. – Б.15.

7.Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. Тошкент. “Шарқ”, 2001 йил.

TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA JADIDLARNING TA’LIM SOHASIDAGI SA’Y HARAKATLARI

Shonazarova Ilmira Gafur qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU magistri.
ilmiragafurovna537@gmail.com

Annotatsiya Tarixiy tafakkurni shakllantirishda jadidlarning XIX - XX asrlardagi sa’y harakatlari, ularning ta’lim sohasidagi qator ishlari, tarixni o‘rgatishdagi ularning harakatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu harakat nafaqat siyosiy va ijtimoiy jihatdan, balki ta’lim va tarixiy tafakkur rivojida ham muhim rol o‘ynadi. Jadidlar o‘z davrida ilm-ma’rifatning kuchi bilan xalq ongini uyg‘otishni, eskicha ta’lim tizimini isloh qilishni va tarixiy xotirani mustahkamlashni asosiy maqsad qilib oldilar. Ushbu maqolada jadidlarning tarixiy tafakkur va ta’lim sohasidagi xizmatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar jadidlar, tarix, tarixiy tafakkur, “ Oyna” jurnali, “Turkiston viloyati gazeti”, islom tarixi, ta’lim taraqqqiyoti, tarix o‘qitish metodi, tanqidiy tafakkur, madrasa, o‘quv dasturlar, “usuli jadid”, mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur, milliy ong, teatr,

Аннотатsiя Рассмотрены усилия модернистов XIX-XX веков по формированию исторического мышления, их многочисленные работы в области образования, их усилия в преподавании истории. Это движение сыграло важную роль не только в политическом и социальном плане, но и в развитии образования и исторического мышления. В свое время джадиды имели главной целью пробуждение сознания людей силой знаний, реформирование старой системы образования, укрепление исторической памяти. В данной статье анализируются заслуги джадидов в области исторического мышления и образования.

Ключевые слова джадиды, история, историческое мышление, журнал «Ойна», «Газета Туркестанской области», история ислама, развитие образования, методика преподавания истории, критическое мышление, медресе, образовательные программы, «современный метод», независимое мышление, логическое мышление, natsiональное сознание, театр

Abstract The efforts of the Jadids in the 19th and 20th centuries in the formation of historical thinking, their work in the field of education, and their efforts in teaching history are considered. This movement played an important role not only in political and social terms, but also in the development of education and historical thinking. In their time, the Jadids set the main goal of awakening the public consciousness with the power of science and enlightenment, reforming the outdated education system, and strengthening historical memory. This article analyzes the services of the Jadids in the field of historical thinking and education.

Keywords Jadids, history, historical thinking, "Oyna" magazine, "Turkiston Viloyat Gazeti", Islamic history, educational development, history teaching method, critical thinking, madrasa, curricula, "usuli jadid", independent thinking, logical thinking, national consciousness, theater

“XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida ham o‘zining teran tarixiy ildizlariga ega. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu harakatning markazlaridan biriga aylanganini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. O‘z zamonasining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu oliyjanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. O‘ylaymizki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadidlarning gumanistik qarashlariga tayanibgina qolmasdan, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz. Yurtimizda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. 31 avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu xotirlash kuni munosabati bilan prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyi va uning hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Jadidchilik harakati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilmlar ko‘plab yaratilmoqda. Ulug‘ ma’rifatparvarlarimiz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. O‘tgan uch yil mobaynida O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan to‘rt yuzdan ziyod vatandoshlarimizning nomlari oqlandi. Ularning aksariyat qismini jadidchilik harakati vakillari tashkil etishi ayniqsa e’tiborlidir. Biz ma’rifatparvarlarning bu muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz”[1] Bunda ayniqsa jadidlarning ilmiy merosini o‘rganish katta ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda tarix o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchi-talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish, tarixiy o‘tmishni tiklash, xususan jadidlarning o‘qitish metodikasi “yangi usul” maktablari ta’limi, jadidlarning ta’limga qo‘shgan hissasi alohida e’tirofga loyiqdir. Jadidlar ta’lim-tarbiyani isloh qilishga katta e’tibor berishgan, xususan tarix o‘qitish masalasiga ham alohida yondashishgan. Ular tarix fanini o‘qitishda an’anaviy usullardan voz kechib, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishga harakat qilishgan. Jadidlar va ularning ta’limdagi islohotlari ko‘plab yangiliklarni joriy etgan. Xususan, jadidchilik harakati vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoil Gaspirali, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalar – eskicha uslubda olib borilayotgan ta’lim tizimining zamonaviy ilm-fan talablariga javob bera olmasligini tushunib yetdilar. Shuning uchun ular:

- Yangi usul maktablari (usuli jadid)ni tashkil etdilar;
- Dars jarayonlariga fan, texnika va tibbiyot asoslarini kiritdilar;
- Bolalarni mantiqiy tafakkur qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatdilar;
- Bosma nashrlar orqali ommaning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga harakat qildilar.
- Jadidlar o‘qitish jarayonida matnlarni yodlatish emas, balki tushuntirish va tahlil qilishni asosiy metod sifatida ilgari surdilar. Bu esa tarixiy tafakkurning rivojiga zamin yaratdi.

Jadidlar tarixni o‘qitish metodikasiga oid yozib qoldirilgan asarlari, darsliklari, gazeta va jurnallardagi qimmatli fikr-mulohazalari ham katta ahamiyatga egadir. Bunda asosan jadid pedagoglari va mutafakkirlarining asarlari Abdulla Avloniy – “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktabg‘a rahnamo”.Mahmudxo‘ja Behbudiy – “Hind sayohati”, “Tarixi islom”.Ismoilbek Gaspirali – “Tong yulduzi”, “Tarbiya va ta’lim haqida” maqolalari. Fitrat – “Hind ixtilolchilari”, “Qadimgi turkiston tarixiga bir nazar” va yana shunga o‘xshash ko‘plab asarlar nafaqat o‘quvchi - talabalar balki barcha turkiston aholisi uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega, shuning bilan birga tarixiy ong va tarixiy tafakkurni uyg‘otish uchun ham xizmat qiladi.

Asosan jadidlar ilmiylik va tarixiy haqiqatni yoritishga ko‘proq ahamiyat berishgan. Jadidlar tarixiy bilimlarni faqat afsonalar va rivoyatlar asosida emas, balki ilmiy dalillarga asoslangan holda o‘qitish tarafdori edilar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining darsliklarida real voqealarni yoritishga intilgan. Aynan jadidlar tomonidan yuritiladigan “ Oyna” va “Turkiston viloyatining gazeti” gazeta va jurnallarida tarix yoritib borilgan. Bunda asosan manbalar asosida yondashishni ilgari suradilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Tarixi Islom” asarida islom tarixi haqidagi ma’lumotlarni Sharq va G‘arb tarixchilari bilan solishtirib yozgan. Jadidlar tarix fanining mustahkam asosga ega bo‘lishini ta’minlash uchun tarixni faqat afsonalar asosida emas, balki ilmiy manbalar va hujjatlarga asoslanib o‘qitish kerakligini ta’kidladilar. Bu esa tarixiy tafakkurning yangicha shakllanishiga zamin yaratdi. Kundalik hayot bilan bog‘lashni real voqealar bilan bog‘lashni bosh prioritetga aylantirishgan. Tarixni faqat o‘tmish haqida bilim olish vositasi sifatida emas,balki kelajakni qurish uchun saboq beruvchi fan sifatida tushunishgan. Shu sababli, jadidlar tarixiy tajribadan saboq chiqarish, millatning kelajagini aniqlash uchun tarixiy tahlil qilish muhimligini ta’kidlaganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna”jurnalining muhtaram xonandalarig‘a “dunyoni avvalidan bukung‘acha bani odam tarafidan ixtiro qilingon mashhur nimarsalarni arz qilmoq uchun tarix kitoblaridan olib yozmoqchi bo‘lduk va mundan so‘ngra «Oyna»ning har raqaminda paydar-pay «Tarixi ixtoroi bashar» unvoni ila yozilur. Munda yozilaturgon nimarsalar «Tarixi umumiy», «Tarixi madaniyat», «Madaniyati islomiya», «Koinot», «Tarix va jug‘rofiya lug‘ati», «Tarixi tamaddun» kitoblari va boshqa kitob va risolalardan naql qilinur. Va munda ko‘rsatilgan tarix uch nav’ bo‘lub, birinchi(si) «tarixi xilqat» atalurki «Tavrot»ni bayoni bo‘yincha dunyo bino bo‘lganidan hazrati Iso alayhissalomni tug‘ulgonig‘acha 5594 sanadur.Tarix eng mashhur va mo‘tabar hodisalardan boshlanur. Har yuz sanani «asr—qarn» derlar. Chunonchi, al-on tarixi milodiyaning 20-va hijriyaning 14-asridir.” Bu maqola orqali Behbudiy tarixga asosan islom tarixiga oid qarashlarini va o‘z nuqtayi nazarini berib o‘tganlar.

Jadidlar nafaqat o‘z tarixini balki jahon tarixini ham o‘rganish zarur ekanligini, ularning tarixiy taraqqiyotini, dunyoviy bilimlar ko‘lamini o‘rganish zaruriy shart-sharoitlardan biri deb bilishgan. Dunyo tarixini o‘rganishda, ularning ta’lim taraqqiyoti bilan hamnafas bo‘lishga, bunda ular an’anaviy madrasa ta’limida tarix asosan diniy-biografik yo‘nalishda bo‘lgan bo‘lsa, jadidlar G‘arb va Sharq tarixini birday o‘rganish zarurligini ilgari surganlar. Ular Rossiya va Yevropa tarixiy tajribalaridan saboq olish kerakligini ta’kidlaganlar.Yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Jadid maktablarida tarix fanini o‘qitish uchun maxsus darsliklar ishlab chiqilgan. Behbudiy va Avloniy o‘z darsliklarida tarixiy shaxslar faoliyatini, jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini yoritganlar.

Tarixni o‘rganishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga alohida ahamiyat berishgan. Jadid pedagoglari o‘quvchilarga tanqidiy tafakkurni shakllantirishni o‘rgatgan. Jumladan, Fitrat o‘zining “Qadimgi Turkiston tarixiga bir nazar” asarida tarixiy hodisalarga shunchaki ta’rif bermay, ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilgan.

Jadidlarning ta’lim islohotlari tarixiy tafakkurning rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ularning asosiy e’tibori:

- O‘z xalqi tarixini haqqoniy yoritish;
- Jahon tamadduni bilan bog‘liqlikni tushuntirish;
- Milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan adabiyot va tarixiy asarlarni yaratish edi.

Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi tarixiy xotira va milliy ongni shakllantirishga qaratilgan. Fitratning tarixiy asarlari esa xalqni o‘z o‘tmishidan saboq olishga undagan.

Jadidlar ta’limi va bugungi kunda uning ahamiyati yosh avlodga anglatish, jadidlarning ta’lim tizimidagi qilgan fidoiyliklarini yoritish bugungi dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda jadidlarning ta’lim va tarixiy tafakkur sohasidagi sa’y-harakatlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zamonaviy ta’lim tizimida:

- Tahliliy tafakkurni rivojlantirish;
- Tanqidiy fikrlashni shakllantirish;

Milliy va jahon tarixini chuqur o‘rganish kabi yo‘nalishlar jadidlar ilgari surgan tamoyillarga mos keladi.Ularning g‘oyalari hozirgi ta’lim tizimida ham qadriyat sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarga tarixni faqat xronologik ketma-ketlikda emas, balki sabab-oqibat aloqalari orqali tushuntirish usuli – jadidlarning ilmiy yondashuvlari bilan hamohangdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, jadidlar nafaqat ta’lim tizimida, balki tarixiy tafakkur shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. Ularning yangi usul maktablari va ilmiy yondashuvlari xalqning dunyoqarashi va o‘zligini anglashida tub burilish yasagan. Bugungi kunda jadidlarning ta’limiy va tarixiy tafakkurga oid qarashlarini o‘rganish va tatbiq etish, nafaqat hozirimiz uchun balki kelajagimizni qurish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Shu bois, jadidchilik merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki kelajak ta’lim taraqqiyotining ham asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi kerak. Jadidlar tarix o‘qitishni faqat o‘tmishni yodlash emas, balki kelajakka yo‘nalgan tahliliy fan sifatida ko‘rganlar.Ularning tarix o‘qitish metodlari ilmiy asoslangan bo‘lib, ular milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

REFERENCES

1.Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart

2.“Oyna” jurnali, Behbudiyning “Tarixi islom” haqidagi maqolasi 1914 yil, 28-son, 531-534-betlar

3.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.T.: O‘qituvchi. 1992.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.; “Ma’naviyat”, 2006 y.

5.Fitratning “Qadimgi Turkiston tarixiga bir nazar”.

6.https://api.ziyonet.uz/uploads/books/652/5b0251e6d4b67.pdf

7.https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Fwww.researchgate.net%2Fprofile%2FXoliqova-Rahbar%2Fpublication%2F365029202_Istiqlol_yo%2527lida_jon_fido_qilgan_millatimiz_fidoyilari%2Flinks%2F6363805737878b3e877b6c22%2FIstiqlol-yolida-jon-fido-qilgan-millatimiz-fidoyilari.pdf&psig=AOvVaw08JAAuS8KzNYavuKMXV8v9&ust=1743442661256000&source=images&cd=vfe&opi=89978449&ved=0CAYQrpoMahcKEwjAieuSx7KMAxUAAAAAHQAAAAAQBA

ABDULHAMID CHO‘LPON IJODIDA TARIXIY TAFAKKUR VA MILLIY ONG

Omonova Zarnigor To‘rajon qizi *Namangan davlat pedagogika institute***,**
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
Ma'rufova Jasmina Xabibillo qizi *Namangan davlat pedagogika instituti,*
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
marufovajasmina06@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lpon ijodining asosiy yo‘nalishlari – tarixiy tafakkur va milliy ong masalalari yoritilgan. Adibning she’rlari, romanlari va tarjimalari orqali xalqning milliy uyg‘onishi, tarixiy xotirani saqlash va istiqlol g‘oyalari ilgari surilgan. Cho‘lponning jadidchilik harakati va milliy mustaqillik yo‘lidagi xizmatlari tahlil qilinib, uning ijodiy merosining bugungi dolzarbligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar:ma'naviy,siyosiy,g‘oya,ziyoli,jadidchilik,tarixiy,adolat,
milliy,tafakkur,ong,mustaqillik,xotira,adabiyot,maydon,bilim.

Annotation:This article explores the main themes in Abdulhamid Cho‘lpon's work—historical consciousness and national identity. Through his poems, novels, and translations, the author promotes national awakening, preservation of historical memory, and the idea of independence. The article analyzes Cho‘lpon's contributions to the Jadid movement and the struggle for national sovereignty, emphasizing the contemporary relevance of his literary legacy.

Keywords:spiritual, political, idea, intellectual, innovation, historical, justice, national, thought, consciousness, independence, memory,literature, field, knowledge.

Аннотатsiя:В данной статье рассматриваются основные направления творчества Абдулхамид Чулпона – историческое мышление и hatsiональное сознание. Через свои стихи, романы и переводы автор продвигал идеи hatsионального пробуждения, сохранения исторической памяти и независимости. В статье анализируется вклад Чулпона в движение

джадидов и борьбу за natsиональный суверенитет, подчеркивается актуальность его литературного наследия в наши дни.

Ключевые слова:духовный, политический, идейный, интеллектуальный, модернизм, исторический, справедливость, natsиональное, мышление, сознание, независимость, память,литература, область, знания.

"Adabiyot va san'atga, madaniyatga bo‘lgan e'tibor,bu,avvalo,xalqimizga e'tibor,kelajagimizga e'tibor ekanini,buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek,adabiyot,madaniyat yashasa,millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q"[1] **Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

KIRISH:

Cho‘lpon (asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov; 1897-yil, Andijon) – shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi.[2]Abdulhamid Cho‘lpon juda qisqa, bor-yo‘g‘i qirq yil umr ko‘rdi. Uning hayot yo‘li bir-biridan farq qiluvchi, tarixiy voqealarga boy.Turkistondagi siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar ko‘zga tashlangan ikki davr chegarasida o‘tdi. Agar ularning birinchisi o‘zida taraqqiyparvar g‘oyalari bilan turkistonliklarning milliy o‘zligini uyg‘otgan eng ziyoli kuchlarni jamlagan jadidchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan ifodalangan bo‘lsa, ikkinchisi uni yo‘q qildi va “baxtli kelajak” haqidagi tasavvurlarni ostin-ustun qilib tashladi, jamiyatni o‘zgartirib, sanoatni yuksaltirish va “madaniy inqilob” niqobi ostida fojeali voqealarga yo‘l ochdi.

Dastlabki paytlarda qudratli hayot to‘lqini Abdulhamid Cho‘lponni mavhumlik girdobidan olib chiqib, keng xalq ommasining she’riyatdagi qahramoniga aylantirdi. Iste’dod uni yuksak cho‘qqilarga olib chiqdi, lekin tez orada u jamiyatning ovloq joylariga uloqtirildi. Uning murakkab hayoti zamon taloto‘plarida yanchilgan taqdirlardan biri edi. Cho‘lpon shaxsini bilish va uni oxirigacha tushunish,buyukligi va qudratini anglab yetish uchun u qanday davrda yashaganini hisobga olish zarur.

Biz o‘rganayotgan muammoga shu nuqtayi nazardan yondashib Cho‘lpon yashab faoliyat yuritgan davrni ikki bosqichga bo‘lish mumkin: XX asr boshlaridan 20 yillar o‘rtalarigacha va 20 yillar o‘rtalaridan uning taqdiri fojeali yakun topgan 1937-yilgacha.

Dastlab taqdir uni rosa siyladi. Uning iste’dodi jadidchilik g‘oyalari bilan birga kamolga yetdi va hayotga tatbiq etildi. Abdulhamidning tug‘ilishi ushbu oqim shakllangan vaqtga to‘g‘ri kelgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan ijtimoiy fikr o‘z davrining eng taraqqiyparvar kishilarini jadidchilik maydoniga olib chiqdi. Ular orasida Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar qatorida nafaqat shoir, balki faol ma’rifatchi Abdulhamid Cho‘lpon bor edi.

Cho‘lpon o‘z she’rlarida ham tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari va millat yetakchilariga murojaat qiladi. U tarixiy adolat va milliy mustaqillik g‘oyalarini kuylab, xalqini o‘zligini anglashga undaydi. Shuningdek, uning tarixiy mavzulardagi she’rlari milliy ruhiyatni mustahkamlashga xizmat qilgan.Cho‘lpon ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri milliy ongni shakllantirish va istiqlol g‘oyalarini ilgari surish bo‘ldi. Uning “Turkiston” she’ri va boshqa asarlarida milliy mustaqillik va erkinlikka intilish kuchli aks etadi. U xalqining qaramlikda yashayotganidan iztirob chekib, ularni ozodlikka chaqiradi.

Cho‘lpon milliy qadriyatlar, til, madaniyat va adabiyotning xalq hayotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatishga harakat qilgan. U jadidchilik harakatining faol vakili sifatida millatning uyg‘onishi, ta’lim va ma’rifat orqali yuksalishini asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

1917-yilgi jadid gazetalari – “Kengash”, “Turon”, “Turk eli” va boshqalar Turkiston xalqlarining bahslarga to‘la taqdiri haqida dalolat beradi.Turkiston taraqqiyparvarlarining dastlab ma’rifatchilik, so‘ngra siyosiy harakati keng quloch yozgan 1914-1917-yillarda Abdulhamid Cho‘lpon ijodi ham gullab-yashnadi. 16 yoshida “Adabiyot nadur?” maqolasini yozgan yosh shoir jadidchilik vujudga keltirgan yangi adabiyot asoschilaridan biriga aylandi. Biroq uning qiziqishlari faqat adabiyot va teatr san’ati bilan cheklanmagan. 1914-yili “Sadoi Farg‘ona”da e’lon qilingan “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik”, “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar”, “Oyina” jurnalida chop etilgan “Andijonda yangi bank” maqolalarida uning iqtisodiyot sohasidagi chuqur bilimi namoyon bo‘lgan. Abdulhamid Cho‘lpon o‘z maqolalarida Rossiya, Yevropa va Amerikaning taraqqiyot tajribasidan misollar keltirib, Turkistonning bo‘lajak iqtisodiyoti va uning rivojlanish yo‘llari haqida mulohaza yuritgan. U nafaqat publitsist, balki amaliy siyosatchi ham bo‘lgan, Turkiston va Boshqird muxtoriyatlarida faol ishtirok etgan. Qo‘qondagi Turkiston muxtoriyati tor-mor keltirilgach, ko‘plab

jadidlar yurtni tark etishga majbur bo‘lganlar, u Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulhamid Orifov, Mirmuhsin va boshqalar bilan birga Boshqird sovetlari kichik tashkilotida kotib bo‘ldi va uning axborot markazida faoliyat yuritdi. Keyin ko‘plab taraqqiyparvarlar qatori maorif sohasida ishladi.

Umuman, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotida kechgan ziddiyatli jarayonlar Cho‘lpon taqdirini ham chetlab o‘tmadi. Uning uchun murakkab vaqtlar kelgandi. Bir tomondan, jadidlarning ma’rifatchilik faoliyati o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi, ularning katta qismi mamlakatda qolib, madaniyat muassasalari, maktablar, oliy o‘quv yurtlari va teatrlarda ishlashda davom etdi. Aholi savodxonligining keskin oshishi,ilmiy muassasalarning paydo bo‘lishi bilan O‘zbekiston madaniyati taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Boshqa tomondan “Madaniy inqilob”ning joriy etilishi milliy kadrlarning qoralanishiga olib keldi. Sovet hokimiyatining o‘ylanmay qilingan islohotlari madaniyatda o‘nglab bo‘lmas holatlarni keltirib chiqardi. Boshlangan qatag‘onlar, birinchi navbatda, ziyolilarga qaratildi, bu esa ma’naviy hayotga ulkan ziyon yetkazdi.

Bu haqda Cho‘lpon qayg‘urib yozadi: “Har doim tirnoq ostidan kir topish mumkin, qancha ko‘p qidirsang, shuncha ko‘p chiqadi. Ammo odamga hayot faqat shuning uchun ato etilmagan. Ayniqsa, pedagoglar Turkistonning oqni qoradan ajrata olmaydigan mahalliy aholisiga nimanidir isbotlashga uringan holda bir-birining aybini qidirib umrini behuda o‘tkazishmoqda – bu jinoyatdir”[3].

1937-yil oxirida Cho‘lpon “xalq dushmani” deb e’lon qilindi. Siyosiy tuzum uning Ahmad Zakiy Validiy bilan do‘stligini, Boshqirdistonning milliy mustaqilligi uchun kurashdagi yordamini, Turkiston muxtoriyatidagi faol ishtirokini, jadidlar safida turib ochiq-oydin ifodalagan siyosiy qarashlarini unutmadi va kechirmadi. Ehtimol uning “aybi” eng mashhur va xalqaro miqyosda e’tirof etilgan o‘zbek shoiri bo‘lgani va xalq, ayniqsa, yoshlar orasidagi obro‘-e’tiborini hech narsa tushira olmaganida bo‘lgandir. Shaxsning buyukligi har doim o‘z davrini ortda qoldirgan. Taqdir taqozosi bilan ular yo ko‘klarga ko‘tariladi, yo jismonan yo‘q qilinadi. Ammo Abdulhamid Cho‘lpon xotirasini yo‘qotishning iloji yo‘q edi, chunki uning she’rlari, g‘oyalari, xalqiga bo‘lgan muhabbati barhayotdir.

"Cho‘lpon butun umrini xalqimizning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo‘lib,emin-erkin yashashi va milliy taraqqiyot yo‘liga chiqib olishiga bag‘ishlagan,milliy adabiyotimizni yuksak dovonga olib chiqqan ulug‘ shoir,yozuvchi,dramaturg,adabiyotshunos va san'atshunos olim edi[4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. - Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi,2022.
2. Cho‘lponning badiiy olami (to‘plam). Toshkent: Fan, 1994.
3. https//:yuz.uz
4. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir.-Toshkent:Ma'naviyat,2000.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARIDA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI

Maxsudjonova Aziza Kadamboyevna,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi, katta o‘qituvchi
tel.: +998 90 319 64 46
angelochik86@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan davr, uning badiiy-ilmiy merosida ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mahmudxo ‘ja Behbudiy ziyolilar oilasidagi muhit, undagi adabiyotga, siyosatga, ma’rifatga bo‘lgan qiziqishini tezroq ro‘yobga chiqishiga yetakladi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga o‘z ta’sirigi o‘tkazmay iloji yo‘q edi. Keyinchalik bu haqda u o‘z maqolalaridan birida otasi ta’lim bergan «Hidoya» («Islom huquqiga sharhlar») asarining uning taqdirida muhim rol o‘ynaganligini bejiz qayd etmaydi.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, ta’lim, tarbiya, adabiyot, siyosatshunoslik, ro‘znoma, oypoma, arab tili, islom tarixi, nazariya, maktab, maorif, madaniyat.*

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ В ТВОРЧЕСТВЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Аннотатsiя. *В статье научно обоснованы идеи просветительства в эпоху жизни Махмудходжи Бехбуди, его художественное и научное наследие. Интеллектуальная среда семьи Махмудходжи Бехбуди способствовала быстрому проявлению его интереса к литературе, политике и просвещению. Его отец был крупным экспертом в области исламской юриспруденции и написал множество книг и трактатов по этой теме. Это, в свою очередь, не имело иного выбора, кроме как повлиять на Махмуда Ходжу. Позднее в одной из своих статей он не без основания отмечал, что труд «Хидоя» («Комментарии к исламскому праву»), которому его научил отец, сыграл важную роль в его судьбе.*

Ключевые слова: *просвещение, образование, воспитание, литература, политология, газета, арабский язык, история ислама, теория, школа, образование, культура.*

EDUCATIONAL IDEAS IN THE WORKS OF MAHMUDKHODZHA BEHBUDI

Abstract. *The article scientifically substantiates the ideas of enlightenment in the era of Mahmudkhodzha Behbudi's life, his artistic and scientific heritage. The intellectual environment of Mahmudkhodzha Behbudi's family contributed to the rapid manifestation of his interest in literature, politics and education. His father was a major expert in the field of Islamic jurisprudence and wrote many books and treatises on this topic. This, in turn, had no choice but to influence Mahmud Khoja. Later in one of his articles, he noted, not without reason, that the work «Khidoy» («Comments on Islamic Law»), which his father taught him, played an important role in his fate.*

Keywords: *enlightenment, education, upbringing, literature, political science, newspaper, Arabic language, history of Islam, theory, school, education, culture.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Ro‘znoma va oypomalardan jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug‘ullana boshlaydi. 1902 yilda Makkaga borib, xo‘ja va mufti unvonlariga ega bo‘lib qaytadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Ovro‘po madaniyati bilan ham qiziqadi. O‘sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari ham mazkur jurnal va gazetalar chiqa boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turardi [1, 45-b.].

Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan «Tarjumon» gazetasi Mahmudxo‘ja Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi. Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a’zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta’siri ham katta bo‘lgan. 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnaliga asos soladi. U 1914 yilda yana Turkiya, Misrga borib, u erdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e’lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma’rifatchilik borasidagi ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma’rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.

Behbudiy o‘zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug‘rofiya») (1903), «Kitob-ul-atfol» («Bolalar uchun kitob») (1904), «Muxtasari tarixi islom» («Qisqacha islom tarixi») (1904), «Amaliyoti islom» (1905), «Rusiyaning qisqacha geografiyasi» (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug‘ Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so‘z», «Tarjumon», «Sho‘ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Mahmudxo‘ja shuningdek ikki p’esa muallifi hamdir. Ulardan biri nashr etilmagan, ikkinchisi “Padarkush”dir. “Padarkush” Markaziy Osiyodagi oktyabr inqilobiga qadar yozilgan va sahnalashtirilgan birinchi sahna asaridir. 1911 yilda yozib tugatilgan va 1914 yilning 14 yanvarida Toshkentda namoyish etilgan bu p’esada o‘zbeklarga xizmat ko‘rsatgan rus fohisha ayoli Luiza hayoti

aks ettirilgan. Asarda og‘ir gunoh ishga qo‘l urayotgan odamlar va ularga jamiyatning e’tiborsizligi haqida hikoya qilinadi. P’esa mintaqada ildiz otayotgan burjo‘ycha hayot keltirib chiqarayotgan oqibatlar to‘g‘risida. Unda ko‘plab kishilar yangi qaror topayotgan ijtimoiy tuzumni yoqtirmasliklari ularni burjuylar turmushini qo‘llovchi ba’zi kishilar va mayda savdogarlar bilan yuzaga kelgan ziddiyatlari qalamga olinadi.

Behbudiy adib sifatida «Padarkush» yoki “O‘qimagan bolaning holi» dramasini yaratgan. 1913 yilda Samarqandda nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmli, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan. M. Behbudiyning «Padarkush» yoki o‘qimagan bolaning holi» dramasi 1911 yilda yozilgan bo‘lib, dastlab 1912 yilda «Turon» gazetasida bosilgan. 1913 yilga kelib kitob holida chop etilgan. Shundan so‘ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozision qurilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan holda, mazmun-g‘oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va harakat, shakl-shamoyil mazkur janr talablariga ancha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda - ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gumashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlari asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi [2, 22-b.]. O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida A. Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» dramasi, Mirmuhsin-Fikriyning «Befarzand Ochildiboy», Hamza Hakimzoda Niyoziyning «YAngi saodat» kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan. Albatta, Behbudiyning xalq o‘rtasida ortib borayotgan obro‘-e’tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarning ham reja va niyatlariga zid edi. 1919 yilda xorijiy safarga chiqqan Behbudiy ular chaquvi bilan Qarshida ushlanib, Said Olimxon farmoni bilan qatl qilinadi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojeali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon SHarqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi».

Qarshi shahri 20-30-yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy 1937 yilga kelib qatag‘on qilinadi va 1956 yili oqlanadi.

1977 yili allomaning «Saylanma» asarlari chop etildi [3, 42-b.]. Asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilib, ko‘cha va mahallalar uning nomiga qo‘yildi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros o‘z xalqining Istiqloliga xizmat etmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ham avvalo, ta’lim va tarbiya sohasida islohot o‘tkazish, ilm-fan yutuqlari va ilg‘or texnikani o‘zlashtirish, yosh avlodni kasb-hunarga o‘rgatish kabi masalalarni hal etish lozim, deb bilgan. SHu bilan birga Behbudiy fan va texnikaning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirib olmagan millatlar jahon tamaddunidan uzilib qolib, qoloq hayot kechirishga mahkumdir, degan edi. Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. 1911 yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913 yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban: «O‘ynaturgan odam yo‘q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlamasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa, deb yozadi.

Behbudiy 1911 yilda «Padarkush» dramasini yozdi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasi yo‘l qo‘ymaydi. «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag‘ishlanadi» degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o‘tkazadi. Drama 1913 yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo‘yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914 yil 25 yanvarda sahnaga qo‘yildi. Drama xalqqa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Abdulla Qodiriy «Baxtsiz kuyov» dramasini shuning ta’sirida yozgani ma’lum. «Padarkush» ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo‘ldi. Drama Toshkentda 1914 yil 27 fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.

«Padarkush» - o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» deb atagan 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik haqida, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida xikoya qiladi. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnaga qo‘yiladi. «Xalq nihoyat ko‘p kelib, belat etmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi», deb yozadi mahalliy matbuot. Spektakl o‘z maishatiga o‘ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta’sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o‘g‘li o‘ynagan edi. Boyni hamboza (xurrak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi», yozadi taqrizchi. Ayniqsa, boyning o‘z o‘g‘li yordamida o‘ldirilib, mol-dunyosining fahshu ishrat uchun olib ketilishi voqealari kishilarni larzaga solgan. Xalqqa haddan ziyoda ta’sir etgan. Pesa Toshkentda 1914 yilning 27 fevralida qo‘yildi. Abdulla Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «Tarixiy kun» deb yozadi. »Turon» truppasi 1914-16 yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqdi. »Padarkush» Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. Dramaning birgina o‘zbek emas, tatar, ozarbayjon teatrchiligiga ham ta’siri haqida gapirish mumkin.Turkistonda shu yillari Zaki Boyazidskiy, Aliasqar Asqarov, Sidqiy Ruqilo, Ilyosbek Oshqozorskiy kabi ko‘plab qardosh rejissyorlar faoliyat ko‘rsatganlar. 1913 yilda Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20 avgustidan u «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla, asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’r, maqollar, ruscha e’lonlar birinchi yilda oyiga bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir marta chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... »Oyna» Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalib jadidlarning sevikli jurnallariga aylangan edi. «Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevib o‘qildi», deb yozgan edi jurnal haqida Ziyo Said.Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining qisqa umri davomida butun bir kuchini o‘z xalqi va millatining ma’rifatli bo‘lishiga, millat madaniyatini, dinini, tilini va tarixini saqlab qolishga harakat qilib yashagan.

«Padarkush» dramasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodida muhim ahamiyatga ega. Bu asarning qahramoni orqa-oldini o‘ylamagan boyning o‘g‘li Toshmuroddir. Behbudiy bu asarda jaholat va nodonlik haqida, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida xikoya qiladi. Boy atrofidagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘chada bezorilarga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli etmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg‘onib, ularni sezib qoladi, lekin uni o‘ldirib, pulini olib ketadilar. Jaholat va nodonlik otaning ham bolaning ham boshiga etadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?! Drama o‘z maishatiga o‘ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta’sir etadi. Asarda muallif o‘zining sevimli mavzusi - barchani ilm-ma’rifatli bo‘lishga chaqirib, ilmsizlik balosini qalamga olgan [4, 39-b.].

Behbudiy ma’rifatni o‘stirish uchun maktab-maorif sohasidagina xizmat qilib qolmasdan, dramaturgiya va matbuotni ham yo‘lga qo‘ydi. Uning “Padarkush” (1913) asari o‘zbek dramasining ilk namunasidir. Muallif “Milliy fojea” deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n edi. Bu asar o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani, nodonlik va jaholat pand bergani haqida hikoya qiladi. B.ning teatr truppasi bu spektaklni Toshkentda 1914 yilning 27 fevralida namoyish qiladi. Bosh rolni A.Avloniy ijro etadi. Xalqning dunyoqarashi, milliy ongining yuksaltirishda matbuotning o‘rni nihotda muhim enanini bilgan B. 1913 yildan matbuot ishlari shug‘ullana boshlaydi. U “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo‘ladi. 1914 yilning 29 mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlari bo‘ylab sayohat qiladi. Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, “Oyna” jurnalining 1914 yil sonlarida chop etiladi. “Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borildi.

Xulosa. Behbudiyning publisist sifatidagi faoliyati adib iste’dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini maqola va chiqishlarida teran ifoda etdi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o‘zbek xalqining yangi yo‘nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, turmushga yangicha qarashlari tug‘ilishida, haq-huquqlarini tanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. “Turkiston idorasi”, “Turkistonda maktab jarida”, “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Ehtiyoji millat”, “Ikki emas, to‘rt til kerak” kabi publiisstik maqolalari ana shunday xususiyatlarga ega.

Adabiyotlar:

1. O‘zbek Milliy Entsiklopediyasi. – T., Fan, 2004, 45-bet.
2. Istiqlol qahramonlari. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T., Ma’naviyat, 1997, 22-bet.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Saylanma. – T., Ma’naviyat, 1977. - 42-b.
4. Qosimov B. Padarkush dramasi. Tanlangan asarlar. – T., Ma’naviyat, 1997, 39-bet.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA UNING DAVLATCHILIK QARASHLARI XUSUSIDA

Shernazarova Kamola Niyozali qizi, “
University of business and science” Oliy ta`lim muassasasi magistranti.
Ilmiy rahbar: Mirzayev Bekzod Nuraliyevich,
tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori, Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy mentalitetimizga xos milliy davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va takomillashib borishi Behbudiy asarlari orqali asoslashga harakat qilindi. Behbudiyning davlat, davlat boshqaruvi, Turkiston muxtoriyati haqidagi fikr, mulohaza va loyihalarini axloq falsafasi nuqtayi nazaridan o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ma’rifatparvarning Vatan kelajagi haqidagi orzu va dunyoqarashi bugungi kunda ma’naviyat sohasida davlatimiz yuritayotgan siyosat bilan hamohang ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: publitsistika, ijtimoiy-siyosiy masalalar, Behbudiy, Buxoro axbori, maorif, madaniyat

Аннотатsiя. В данной статье предпринята попытка обосновать формирование и совершенствование управления natsиональной государственностью, характерное для нашего natsионального менталитета, через творчество Бехбудия. Важно изучать идеи, размышления и проекты Бехбуди о государстве, государственном управлении и Туркестанской автономии с точки зрения нравственной философии. Идея заключается в том, что мечта и мировоззрение Просвещения о будущем Родины созвучны той политике, которую сегодня проводит наше государство в сфере духовности.

Ключевые слова: журналистика, общественно-политические проблемы, Бехбуди, новости Бухары, образование, культура.

Abstract. This article attempts to substantiate the formation and improvement of national statehood management, characteristic of our national mentality, through the work of Behbudi. It is important to study Behbudi's ideas, thoughts and projects about the state, public administration and Turkestan autonomy from the point of view of moral philosophy. The idea is that the dream and worldview of the Enlightenment about the future of the Motherland are consonant with the policy that our state is pursuing today in the sphere of spirituality.

Keywords: journalism, socio-political problems, Behbudi, Bukhara news, education, culture.

O‘zbekiston tarixi sahifalaridan o‘ziga munosib o‘rin olgan ma’rifatchilik harakati tasodifiy ravishda yuzaga kelgan emas. Uning paydo bo‘lishini taqazo etgan, ob’ektiv zaruriyatga aylantirgan bir qancha sabablar, ehtiyojlar bo‘lgan.

Ma’rifatchilik, jadidchilik harakati qadimiy Turonu Turkistonning XIX asrning ikkinchi yarmilaridan boshlab Rossiya imperiyasi tomonidan zo‘ravonlik yo‘li bilan bosib olinib, mustamlaka, qilinishiga qarshi norozilik belgisi sifatida hamda xalqimizning ozodlik, mustaqillik yo‘lida olib borayotgan kurashlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga g‘oyaviy rahnamolik qilish maqsadida yuzaga keldi.

Jadidlar, ma’rifatparvarlar millat so‘zini xalq ma’nosida qo‘llaganlar. Ular mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelayotgan xalq ommasining ijtimoiy axvoli nochorligini, erli aholining g‘aflatda kolganligini tushunib, uni ma’rifatga, bilimga, undadilar[1].

Jamiyat va millatning taqdiri, milliy ahillik, hamkorlik va hamjihatlikda ekanligi haqidagi g‘oya ma’rifataparvar jadidlarning falsafiy qarashlarida muhim o‘rin tutgan. XX asr boshidagi ma’rifatparvarlar boylik uchun, shon-shuhrat orttirish uchun maydonga chiqishgan emas. Ular istibdodga qarshi kurashdilar, mustaqillik yo‘lida fidoiylik ko‘rsatdilar. Turkiston xalqlarining haq-huquqlarini himoya qildilar. O‘z hisoblaridan sarf-xarajat qilib maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, gazetalar tashkil etdilar, ko‘llanmalar nashr etdilar, xalqlarning daqqat-e’tiborini ilm-ma’rifatga, Sharq va G‘arb olamidagi yangiliklarga jalb etdilar. Ularning asarlari millat dardi va xasrati, Vatan ishqi, Vatan taqdiri, Vatan ozodligi va mustaqilligi tuyg‘ulari bilan chuqur sug‘orilgan. Jumladan, "Haq olinur, berilmas"dan iborat edi. Bu jumla o‘zida faollik, shijoat va fidoyilikni ifoda etgan[2].

Zero, Markaziy Osiyoda XVI asrdan boshlangan ijtimoiy inqiroz va davlat boshqaruvidagi turg‘unlik millat va xalqni holdan toydirdi. Bunday imkoniyatdan foydalangan Rossiya imperiyasi o‘lkani istilo qildi. Mustamlakachilar zo‘r berib, bu hududni turg‘un holatda saqlashga urindi. Mana shunday sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, yoshlarni erk, ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalash Mahmudxo`ja Behbudiy kabi fidoyi ziyolilar zimmasiga tushdi.

Mahmudxo`ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari shakllanishida sayohat, yurt kezish, dunyo ilmi va tajribasini o‘rganish ayniqsa katta rol o‘ynagan. U qayerga bormasin, o‘sha yerdagi idora usuli va jamiyatning demokratik jarayonlari bilan qiziqdi. Behbudiy asos solgan “Oyna” jurnalining 1914-1915-yillardagi bir qancha sonida bosilgan “Sayohat xotiralari” adib dunyoqarashi to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Bu borada nemis olimasi Ingebor Baldauf fikriga qo‘shilish mumkin. U ham ushbu masala haqida so‘z yuritib, agar “Oyna” Parijdan Yaponiyaga qadar dunyoni O‘rta Osiyo burjuaziyasiga ko‘rsatgan bo‘lsa, “Sayohat xotiralari” Turkiston qarshisidagi musulmon Sharqini kashf etib berdi”, deb yozgan [3]. Shubhasiz, Mahmudxo`ja Behbudiy o‘z xalqi kelajagini faqat ma’rifat bilangina bog‘lamagan. Alloma o‘z xalqining kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqqan. Shuning uchun boshqa davlatlar siyosiy tuzumini o‘rgangan va ularning qay biridan andoza olish mumkinligi to‘g‘risida bosh qotirgan. U o‘z xalqi taraqqiyotini nafaqat ma’rifati, balki siyosiy maqomining o‘zgarishida, mustaqilligini qo‘lga kiritishda, deb bilgan.

Mahmudxo`ja Behbudiy yosh avlod o‘zidagi shoshqaloqlik illatidan qutulib, masalani hal qilishda ilmiy asosga suyangan holda ish ko‘rishi va mustahkam iroda namoyon etishi lozimligini ta’kidlagan [4]. Behbudiyning “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Umumiy jug‘rofiyadan saylanma kitob”) asarining ma’lum qismi insonning maishiy hayoti, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarga bag‘ishlangan. “Hukumat va hukmronlar” faslida quyidagi fikrni ham bildirib o`tadi: “Yer yuzidagi badaviy (madaniyatdan uzoqroq) va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari bo‘ladurki, (ularni) bek, amir, shoh va boshqa ism va lug‘atlar ila ataydurlar. Har bir tilda hukumdorlarni(ng) lug‘ati boshqadur. Ovrupo xalqi imperator, qirol, do‘qa, prins, prezident, knaz, tsar (sar) va boshqa lug‘atlar ila atalgan har bir hukumdorni martaba va hukumati boshqa nav’dur” [5].

Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullarini uch guruhga bo‘ladi:

1. Idorai mustaqalla (davlat boshqaruvining monarxiya ko‘rinishi);
2. Idorai mashruta (konstitutsiyaviy parlament hokimiyati);
3. Idorai jumhuriyat (respublika).

Behbudiy bu idora usullarini shunday izohlagan:

1.“Ani ustidan qaraguvchi podshoh sohibi ixtiyor va har bir royi va amri zakun va nizom bo‘ladur. Amri, hukmi maslahatxonalarni ittifoqi, xohishi, hukmu o‘shal imperatorni mustahkam qilish imzosig‘a mavkufdur. Shunday imperatorlarni yangidan mansub bo‘lishi har bir davlat va hukumatda muqarrariy qonun va odatlar bo‘ycha meros yoinki valiahdlik qoidalari va o‘shal hukumatni qo‘ygan “tartib va tadbirg‘a muvofiq bo‘ladur” [5]. Bunda XX asr boshidagi Yevropa davlatlarida mavjud uch siyosiy tuzumdan biri monarxiya bo‘lib, unda saltanat egasining qarashlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganligi ifodalanadi.

2.Idorai mashruta – “… bu hukumatg‘a tobe’ odamlar aksar ahli ilm va hunardurlar. Elu urug‘lari ilm, hunar va dunyo ishlarig‘a taraqqiy qilgandurki, shu tariqa fuqarolar o‘z arolaridan insonlik, ilm va dunyodan xabarlik odamlarni o‘zlarig‘a katta va boshqarg‘uvchi vakil saylaydurlar va shul tariqa saylangan vakillarni podshoh jamlab, muqarrariy mahkamalarga mamlakatdorlik ishlarig‘a aralashib, mashvarat ila tuzatilmoq va muhofazat qilinmoqig‘a ko‘z bo‘lmoqlari uchun qaror beradurki, alarni(ng) majlis va mahkamalari “Millat majlisi”, “maslahatxona”, “parlamentu”, “El majlisi” degan ismlar ila

yod qilinadur. Yana ba’zi maslahatxonalar borki, maslahatboshilarni hukumdor(podshoh)larning o‘zi tayin qiladur. Ushbu millat majlisini(ng) chilon (a’zo)lari mashvarat ila mamlakatdorlik ishlarig‘a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig‘a tobe’dur. Majlis ma’buson (deputatlar)ni(ng) royi bo‘lmaguncha katta ishlarni boshlanmoqig‘a amr va hukum qilolmaydur. Xulosa, imperator sohib ixtiyor bo‘lmay, durustroq ishlarg‘a qonun va nizomlarni chiqarilmoqig‘a butun el majlisig‘a tobe’ bo‘lib turadur”[6]. Behbudiy tasnifidagi ikkinchi davlat tuzumi parlamentar respublikadir. Davlat qurilishining bu turida saltanat egasi parlament yo “millat majlisi” ra’yiga qaraydi va uning qonunlariga bo‘ysunadi.

3.“Idorai jumhuriyat” aksar fuqarosi ahli ilm bo‘lib, bu ahli donish aholini saylagan vakillari, ya’ni hukumatg‘a yetti yilg‘acha o‘z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog‘i uchun o‘z oralaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydurlarki, “raisi jumhuriyat”, “sadrnishini millat”, “prezident” ataladur. Bu rais go‘yo bir oriziy (vaqtincha), omonat podshohdir. Har bir hukm va amru tartibni, mamlakat va ko‘yga taalluq ishni, Millat majlisini(ng) qilib bergan dasturlamal, ya’ni qonun va nizom nomalarig‘a muvofiq qilib, butun elg‘a tobe’, alarni(ng) hukmu talablarini o‘rnig‘a keltiruvchidur. Bu ikki toifani(ng) podshohi ba’zi mamlakatdorlik mutasaddilarini taftish qilmoqg‘a, terg‘ovg‘a bermoqg‘a, hatto, o‘shal soatda birdan bekor qildurmoqg‘a ba’zi Millat majlislarini(ng) ixtiyori bordur. Hozirgi Ovrupo hukumatlarini(ng) raftori, odati shu uch usulni(ng) biriga doxil, tobe’ va muvofiqdur. Bu ikki toifani podshohi ba’zi mamlakatga “Elga tobe bo‘lub turarman”, deb qasam ichib, ba’d mansabg‘a chiqadur. Mustaqil hukumdorlarni(ng) qo‘l ostida ham majlislar va mashvarat mahkamalari bordur. Ilmsiz hukumatlardek necha milyo‘n xalqni(ng) maishati, raftori, ixtiyori bir nafar odam (podsho)ni(ng) ixtiyor yo royi va hukmig‘a yo‘qdur. Bir nafarni(ng) aqli, fikri ila o‘n nafar arosida na qadar farq bordur? Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovrupo xalqi butun kurrai arzga hokim va mutasarrif (ega)durlar. Sabab: hukumat, ilm va daroyat, qonun, musovot (tenglik), mashvarat (maslahat) va tadbirdur” [7].

Ayni shu ma`noda jadidlar tarixiy-madaniy an’ana orqali mustaqillikka erishish va “majlisi ulamo” (ya’ni, parlamentarizm)ni shakllantirish tarafdori edi. Jadidlar siyosiy oqim sifatida paydo bo‘lgan. To‘g‘ri, jadidlar ham “qadimiylar” va “zamonaviylar”, ya’ni konservatorlar va liberal demokratik g‘oya tarafdorlariga bo‘lingan. Sharqshunos olim Zakiy Validiy esdaligidan bu yondashuvlar o‘rtasidagi farqni anglash mumkin. U “Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi” asarida 1917-yil aprel oyida o‘tkazilgan “Turkiston musulmonlarining birinchi kongressi” haqida bunday yozadi: “Kongressda ziyolilarning bir qismi (bilqissa Cho‘qayev va Shohinaxmedov), Qozondan kelgan vakillar (Orenburgda chiqayotgan “Vaqt” gazetasi muharriri Kobir Bekir va hukumat a’zosi sifatida Toshkentga kelgan Sadri Maqsudiylarning) ta’siri ostida Turkistonning boshqaruv usuli masalasida federatsion qurilish fikriga muxolif bo‘ldilar. Munavvarqori va uning ayrim do‘stlari ham taraddudda qoldilar. Faqat Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan men avtonomiya va federatsiya fikrini yoqlab, oxirigacha bu ishonchimizda mustaqil turdik” [8]. Bundan ko`rinadiki, o`sha ziddiyatli bir davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy o`z siyosiy qarashlarida qat`iy turganligini ko`rish mumkin.

Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruv tuzumini Behbudiy uch guruhga ajratadi. Bu davlat tuzumlari o‘rtasidagi farqni ham shu davlatlar tasarrufidagi xalqning ilmli yoki ilmsizligi, ma’rifatli yoki ma’rifatsizligi bilan bog‘laydi. Xalq qanday madaniyat va ma’rifat bosqichiga ko‘tarilgan bo‘lsa, uni idora etayotgan siyosiy tuzum ham shu xalq darajasini aks ettirishi mumkinligiga e’tiborni qaratganligi [4]ni ko`rish mumkin.

Mavzu yuzasidan manba va adabiyotlar tahlili asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Behbudiy o‘zi yashagan davrdagi Turkistonda hukmronligini o‘rnatgan rus podsho hokimiyati va muvaqqat hukumatning mustamlakachilik siyosatini fosh qiladi va o‘sha davrdagi qonunlarni tanqid qiladi. O‘zining kitob va maqolalarida Turkistonning siyosiy va ijtimoiy ahvoliga e’tiborni qaratganligini ko`rish mumkin.

Ikkinchidan, ozodlik va mustaqillikka xalqning ijtimoiy va siyosiy ongini oshirish orqali erishish mumkin ekanini ta’kidlaydi. Behbudiy dunyoqarashi sharq ta’limotlariga mos keladigan, ammo Yevropa siyosiy qarashlarining ijobiy jihatlarini qamragan holda shakllandi.

Uchinchidan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek adabiyoti va san’atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan ulug‘ alloma faoliyati avlodlar uchun hamisha ibrat maktabi bo`lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маънавият юлдузлари. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. –Т.: 1999, 321-бет; Ж.Йўлдошев С.Ҳасановнинг “Жадид тарбияшунослиги асослари”. Т.: “Ўқитувчи”, 1994, 5-86-бетлар.

2. Алимова Д. Фуқаронинг қалб китоби.// Халқ сўзи, 2000 йил, 29 апрель.

3. Baldauf Ingeborg. Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1993-yil 21-may.

4. Jamshid Shonazarov, Behbudiy va uning davlatchilik g‘oyasi // https://www.bukhari.uz

5. Behbudiy M. Bizga isloh kerak. // Najot. 1917-yil 7-noyabr (17-aprel). 18-son.

6. Behbudiy M. Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. Sochinitel izdatel Samarkandes. 1905. – S.42.

7. Behbudiy M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi // Jahon adabiyoti. – Toshkent: 2009. – B.146.

8. To‘g‘on Z.V. Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi. – Istanbul, 1981. – B.357.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA JADIDLAR OBRAZI – IBRAT NAMUNASI

PhD, dotsent v.b. Javlanbek Matnazarov,
Ma’mun universiteti o‘qituvchisi
javlanbekm@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakati va uning o‘zbek adabiyotida aks etishi tahlil qilingan. Jadid bobolarining milliy birlik, ozodlik va ma’rifat g‘oyalariga sodiqligi hamda ularning ijodiy va ijtimoiy faoliyatining ta’siri keng yoritilgan. Shuningdek, Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon kabi ziyolilar jasorati va ularga bag‘ishlangan adabiy asarlar muhokama qilingan. Matn adabiyotda shaxs nomlarining (antroponimlarning) qanday ma’nolar kasb etishi va ularning tasvir uslublariga ta’siri haqida lingvopoetik tahlilga asoslangan. Jadidchilar nomlarining adabiyotga obraz sifatida kirib kelishi, sovet davrida ularga munosabat hamda mustaqillikdan keyingi ijobiy munosabat tendensiyalari tahlil etilgan.

Аннотатsiя. В данной статье анализируется движение джадидов и его отражение в узбекской литературе. Освещена верность джадидов идеям natsионального единства, свободы и просвещения, а также их творческая и общественная деятельность. Рассмотрены мужество таких выдающихся личностей, как Бехбуди, Кадыри, Чулпон, и литературные произведения, посвященные их наследию.

В тексте проведен лингвопоэтический анализ антропонимов, их смысловой нагрузки и стилистических приемов использования в литературе. Изучено включение имен джадидов в художественные произведения как образов, отношение к ним в советское время и тенденция их положительного восприятия в период независимости.

Этот анализ помогает понять эволюцию образа джадидов в литературном процессе и их влияние на natsиональную историю и культуру с научной точки зрения.

Annotation. This article analyzes the Jadid movement and its reflection in Uzbek literature. It explores the dedication of the Jadid intellectuals to the ideas of national unity, freedom, and enlightenment, as well as their creative and social contributions. The courage of prominent figures such as Behbudi, Qodiriy, and Chulpon, along with literary works dedicated to their legacy, is examined.

The text is based on a linguistic-poetic analysis of anthroponyms, their semantic significance, and stylistic applications in literature. It discusses how the names of Jadid intellectuals entered literary works as symbolic figures, their reception during the Soviet era, and the tendency for their positive reevaluation following independence.

This analysis provides insight into the evolution of Jadid figures in literary discourse and their impact on national history and culture from an academic perspective.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, milliy birlik, ozodlik, ma’rifat, adolat, ijodiy meros, antroponim, she’riyat, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Matnazar Abdulhakim, Vodud Mahmud, mustaqillik, tarixiy tahlil, lingvopoetik tahlil, sovet davri, adabiy obraz, shaxsiy jasorat.

Ключевые слова: Джадидизм, natsиональное единство, свобода, просвещение, справедливость, творческое наследие, антропоним, поэзия, Бехбуди, Абдулла Кадыри, Чулпон,

Фитрат, Матназар Абдулхаким, Водуд Махмуд, независимость, исторический анализ, лингвопоэтический анализ, советская эпоха, литературный образ, личное мужество.

Keywords: Jadidism movement, national unity, freedom, enlightenment, justice, creative heritage, anthroponym, poetry, Behbudi, Abdulla Qodiriy, Chulpon, Fitrat, Matnazar Abdulhakim, Vodud Mahmud, independence, historical analysis, linguistic-poetic analysis, Soviet era, literary image, personal courage.

Ijodkor qalami doimo adolatni kuylaganida, rost so‘zni e’tirof etganida foydali xizmatga kirishgan bo‘ladi. Haqiqatni yozgan qalam yaratgan dargohida qutlov, sharaf, e’tirofga sazovordir. O.Matjon shu boisdan ham *“Dunyoda hech bir xil quroldan qudrat, Tinchlik so‘zin yozgan qalamcha yo‘qdur”* , deya qalamni ulug‘laydi. Buning zamirida ulug‘ bir hikmat, a’lo bir haqiqat bor.

Haqiqat masalasida jonini ham ayamagan, fidoiylik namunasi bo‘la olganlar yaqin tariximizda jadidchi bobolarimiz edi. Ular milliy birlik, ozodlik, ma’rifat g‘oyalari bilan qurollangan holda jon kechib, xalq uchun xizmat qilgan milliy qahramonlarimizdir.

Bugungi zamon o‘zbek she’riyatida jadidchilik harakati namoyondalari nomlariga murojaat qilish orqali ularning faoliyati, ijodiga hurmat, qahramonliklarini e’tirof etish, adolatsiz tuzumda yashab turib ham bu tuzumga qarshi tura olishday jasorat ko‘rsatish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Qisqa qilib aytganda, ular bugungi zamon yoshlari uchun namuna.

Adabiyotda, xususan, she’riyatda har qanday shaxs nom (antroponim nazarda tutilgan) ibrat uchun keltiriladi. Bunda nomlarga munosabat ikkiyoqlamalik kasb etib, o‘zida salbiy, ijobiy munosabatni aks ettiradi. Salbiy nom qoralab ko‘rsatilsa, ijobiy shaxs nomlari ulug‘lanadi. Yuqorida aytilganidek, nomlarning ikkalasi ham ibrat, o‘rnak uchun keltiriladi. Bulardan tashqari nomlar tilshunoslikda tarixiy shaxs nomlari adabiy asar qahramonlari tarzida ham guruhlanishi mumkin.

Demak, jadidlar va ularning faoliyati bilan bog‘liq nomlar deyarli ijobiy ma’noda qo‘llaniladi. Qiziq jihati shundaki, jadidchilar nomlarini obraz sifatida adabiyotga olib kirish tajribasini jadidlarning o‘zlari boshlab bergan edi. Bunga sabab 1919-yilda o‘zbek jadidchilarining otasi Mahmudxoja Behbudiyning fitnachilar tomonidan o‘ldirilishi sabab bo‘lgan. Bu mudhish jinoyatni qoralab Ayni, Fitrat, Vodud Mahmud, Cho‘lpon she’rlar bitadilar. Ushbu asarlarda ma’rifat dushmanlari ochiq qoralanadi. Fitrat o‘zining “Behbudiy sag‘anasini izlab” nomli she’rida:

Haqsizlik shahrining qon hidli yeli
Armonim gulidan bir yaproq uzib,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
Ul nozli yaprog‘im so‘lib, sarg‘ayib
Yo‘qsul qolganlarday bir yon yugurdi.

Bu parchani o‘qigan odam she’rda kim ko‘zda tutilganligini tushunmasa ham ayni masala qurbon qilingan bir umr, yo‘q qilingan inson haqida ekanligini darhol uqib oladi. “armon gulidan uzilgan yaproq” aynan ma’rifatparvar Behbudiy edi. Vodud Mahmud bu mudhish tarix tasvirida *“Bu kun dunyoda bir mashhar qo‘pti, Bu yer yuzini titratma tutdi”* deya adib vafotini millatning ulug‘ motami sifatida ko‘radi. Cho‘lpon “Mahmud Xo‘ja xotirasi” she’rida:

Jilgisiz qabringni qaro tunlarda

Amalimning shamin yoqib izladim, deya bir achchiq tarixiy haqiqatga, aniqrog‘i vahshiylikning eng manfur qiyofasini ko‘rishga yuz biradiki, bugungacha Bahbudiyning qabri topilgan emas. Uning jasadini zolimlar yo‘q qilib “jilgisiz” - “belgisiz” qilib tashlashgan. Yuqoridagi misralardan shu haqiqat anglashiladi. Ming afsuslar bo‘lsinkim, Cho‘lponni ham shunday qora qismat kutayotgan edi. Millat dushmanlari keyinroq uni ham boshqalar qatorida yo‘q qiladi va bugungacha Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat va ularning safida qurbon qilingan ko‘plab oydinlarning qabri topilgan emas.

O‘z davrida bu jinoyatga zudlik bilan o‘z safdoshlarining o‘ldirilishiga qarshi chiqqan yuqorida nomlari zikr etilgan jadidlarning himoyachisi keying davrda topilmagani, aksincha oddiy odamlar ular yo‘q qilingandan keyin izida qolgan avlodlariga yomon muomalada bo‘lganligi ayrim faktlar bilan isbotlangan. Afsuski xalq, millat jadidlardan keyin birlik kuchini ko‘rsata bilmadi. Bu turg‘unlik, qaramlik kayfiyati o‘tkan asrning 80-yillariga qadar saqlanib qoldi. Mustaqillik arafalarida va undak so‘ng jadid obrazi yana adabiyotimizga jadal kirib kela boshladi. Natijada, adabiyotimizda bu obrazlar yangi ma’no kasb etib, yangi ifoda yo‘sinlari uchun eshik ochib berdi. Siyosat, tuzim o‘zgarishi bilan adabiyotdagi ayrim obrazlarning funksiyasi o‘zgardi, bazi obrazlar reformaga uchradi. Bir zamonlar ulug‘langan Lenin, Stalin kabi sohta daholar o‘zining munosib o‘rniga qaytarildi. Dushman sanalgan

jadidlar ulug‘lana boshlandi. Buning natijasida “Qora quyosh” dostoni, “Cho‘lponning so‘nggi so‘zlari” kabi nodir she’rlaryaratildi. Bu manbalar adabiyotimiz mulkiga aylandi.

Shuni tan olib aytishimiz kerakki, jadidlar orasida boshqalarga nisbatan jud ko‘p tilga olinadigan nom bu shubhasiz Qodiriy edi. Birgina Muhammad Yusufning saylanmasida Qodiriy nomi 15 marotaba tilga olingan bo‘lsa, Cho‘lpon 8 marotaba eslanadi. Bundan tashqari A.Oripov, M.Abdulhakim, E.Vohidov, O.Matjon she’rlarida ham Qodiriy obraziga ko‘plab murojaatlar kuzatiladi. Muhammad Yusufning yuqorida zikr etilgan to‘plamida Qodiriy eslangan joylarni ko‘rib o‘tamiz *“Qodiriyni bergan zamon, Qodiriyni sotgan kun” (S. 8), “Qodiriy boboning qo‘llarin o‘pib, Chohga itargan ham laganbardorlar” (S. 41), “Qodiriyni eslar yozuvchilardan. Artistlardan esa – Shukur Burxonni” (S.68), “Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar, Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor” (S.81), “Qodiriyning pok yodini menga bering, menga bering” (S. 2000), “Ular oyoq qo‘ygan har zina jasad, Shular gumdon qilgan Qodiriyni ham” (S. 221), “Tushimga kiradi Qodiriy bobom, bemador, memajol, behold, beorom” (S. 277), “Mana, Qodiriyni qilishar so‘roq, “O‘tgan kunlar” degan she’r siznikimi?” (S. 278). “Tushimga kiradi Qodiriy bobom, Bolam, oqibating yo‘q ekan bolam” (S.292), “Toshkentga qiz berma marg‘ilon, Qodiriy yo‘q, Zaynablar tirik” (S. 326).*

Bu o‘rinlarda Qodiriy nomi goho alam, goho g‘urur, goho achinish bilan tilga olinadi. Bundan tashqari A.Oripovning “Abdulla Qodiriyning so‘nggi sabog‘i”; Xurshid Davronning “Qodiriyning so‘nggi surati”, “Qodiriyni olib ketganlari haqida she’r”, “Qodiriyni o‘qib”; Matnazar Abdulhakimning “Savdo”, “Hamid Olimjon”; Omon Matjonning “Turg‘unlik yillarida” kabi she’rlarida Qodiriy nomi esga olinadi. Bu asarlarning barchasida Qodiriy bugungi yoshlarga o‘rnak, vatanparvar shaxs sifatida ko‘rsatiladi.

Bularning ichida “Hamid Olimjon” she’ri diqqatga sazovor asar. Unda shoir Qodiriy va uning atrofidagi odamlarni Hamid Olimjonga qarshi qo‘yadi. Bu obrazlar o‘zaro zidlashgan deyish ham mumkin. Boisi Qodiriy mardlik timsoli sifatida ko‘rilsa, Hamid Olimjon ayyorlik timsoli, qo‘rqoq boraz sifatida o‘quvchi yodida qoladi. She’r Olimjon tilidan aytilgan quyidagi jumlalar bilan boshlanadi.

Bo‘lmasinlar edi millatchi va sur,
Abdulla Qodiriy, Adbulhamid Cho‘lpon

She’rning umumiy ruhida Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir jasorati ulug‘lanadi. Bu sharaflash ochiq formatda ko‘rinmasa ham she’rda shunga ishoralar bor. Muallif she’rdan xulosa chiqarishni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Har kim o‘z dunyoqarashi va saviyasidan kelib chiqqan holda qaysi tarafda ekanini belgilab olishi lizim. She’rning so‘ngida maqsad ochiq ko‘rinadi. U shunday yakunlanadi:

Sibirda Usmonning baxti qop-qora.
Vodiy esa,
Ko‘m-ko‘k
Ko‘m-ko‘k
Ko‘m-ko‘k!

Yana Matnazar Abdulhakimning “Savdo” she’ri adabiytshunoslar, tilshunoslar orasida ancha mashhur bo‘lgan, baxslarga sababchi bo‘lgan edi. She’rga “Abdulla Qodiriyni o‘ylab” tarzida epigraf qo‘yilgan:

Vatanni sotaman. Olinglar.
Qiyosh – tillo tanga, oy – chaqa.
Lekin… bular kamlik qiladi,
Bo‘la bilmas hatto choychaqa.

She’r shunday boshlanadi. She’rdagi majozga e’tibor bersak, quyosh va oy sotilmaydigan va sotib olib ham bo‘lmaydigan qo‘lyetmas birliklardir, demak, ular chaqa bo‘lar ekan Qodiriy uchun vatan har nedan ham qimmatli va buyukdir. Uni sotib ham, sotib olib ham bo‘lmaydi.

Bundan tashaqri Matnazar Abdulhakim ijodida ko‘plab boshqa jadidlar xotirasiga, nomiga murojaatlar uchraydi. Shulardan biri Xorazm jadidlari namoyandasi, diplomat, davlat arbobi, o‘zbeklar ichida birinchilardan bo‘lib Fransiyada ta’lim olgan, Xiva xoni saroyida mirob lavozimida ishlagan (irrigator) Muhammad Aminaddin hayoti haqida va uning kechinmalari haqida “Ko‘prik” dostonini yozadi. Shoir Matnazar Abdilhakimning nazarida Muhammad Aminaddiy umrida bitta ham she’r yozmagan bo‘lsa ham u qalban shoir. Shuning natijasida Matnazar Abdulhakim Aminaddin tilidan she’rlar bitib, o‘quvchiga taqdim qiladi. Asarda Muhammad Aminaddin ko‘prikka qiyoslanadi va “Ulug‘lar – ko‘prik bo‘ladi” tarzida asar xulosalanadi. U zamonaviy Yevropa va millatimiz o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prik sifatida ko‘riladi:

Ilm izlab goh bo‘ldim Tulus, Parijda.
Riyozatlar chikib, axtardim savob,
Har bir joy, har bir vaqt hamda har ishda (K. 101)

Umuman olganda jadid allomalarining har bir kuni jasorat va qahramonlik, qo‘rqmaslik timsoli o‘laroq, bugungi avlodlar uchun – o‘rnak, namuna. Ular ozodlik, erk, xalq ma’naviyati himoyachilari, buyuk tariximiz va porloq kelajagimiz o‘rtasidagi mustahkam ko‘priklardir. Shoir aytganidek:

Marhumlarning ruhi shod bo‘lsin,
Hamjihat bo‘lsinlar tiriklar.
Ko‘prik ko‘priklar tinch bo‘lsinlar,
Bor bo‘lsinlar, odam – ko‘priklar.

ADABIYOTLAR:

1. Matnazar Abdulhakim. Ko‘prik – Urganch, 2009. – 143 b.
2. Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar. — T.: «Sharq», 2007. - 288 6.
3. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1994. – 384 b.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 256 b.
5. https://jadid.uz/

REFLECTION OF JADIDISM IDEAS IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Otaboyeva Zuhra Oktam qizi,
1st year student of the Faculty of
Social, Humanitarian and Exact Sciences, “History” major, Mamun University
Tel: +998991651870
Scientific supervisor: Rakhmanova Shirin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqodchi jadidchilik harakatining bugungi kundagi ta’lim tizimga ta’siri , ta'lim tizimida jadidchilik g‘oyalarining aks etishi hamda ta’lim jarayonlarida jadidchilik milliy harakati namoyandalari qo‘llagan usullardan foydalanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy ma’naviyat, Usuli jadid, pedagogik g‘oyalar, ta’lim tizimi, tarbiya.

Annotation: This article provides information about the influence of the Jadidism movement on today's education system, the reflection of Jadidism ideas in the education system, and the use of methods applied by representatives of the national Jadidism movement in educational processes.

Keywords: Jadidism, national spirituality, Usuli Jadid, pedagogical ideas, education system, upbringing.

Аннотатsия: В данной статье представлена информатsия о влиянии движения джадидизма на современную систему образования, отражении идей джадидизма в образовательной системе, а также использовании методов, применяемых представителями натsионального движения джадидизма в учебных процессах.

Ключевые слова: джадидизм, натsиональная духовность, Усули джадид, педагогические идеи, система образования, воспитание.

The Jadidism movement was based on ideas of developing modern education, enlightening the people, and accelerating social progress. Today, the principles advocated by the Jadids are clearly reflected in Uzbekistan’s education system through concrete facts and evidence.

The Jadidism movement, known for its educational and cultural reforms in Central Asia at the beginning of the last century, continues to influence Uzbekistan’s education system today. The main goal of the Jadids was to promote science, modern education, and national consciousness, and their efforts remain relevant in the present time.

The principles of Jadidism are reflected in several aspects of today’s education system. First, the development of modern sciences and the modernization of the education system align with the ideas advocated by the Jadids. They supported the reform of traditional schools and emphasized the importance of studying science and technology. Today, Uzbekistan is digitalizing its education system and introducing STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) programs. New types of educational institutions are being established across the country. For example, Presidential

schools, creative schools, and specialized educational institutions provide young people with opportunities for modern learning. In recent years, international universities such as Turin Polytechnic University, INHA University, Webster University, Amity University, and many others have been opened, demonstrating the practical implementation of the Jadids' ideas about learning from international experience. Second, the Jadids sought to integrate national and international educational experiences. Currently, Uzbekistan is improving the quality of education through partnerships with foreign universities and the adoption of modern pedagogical methods. This corresponds to the Jadids' belief in acquiring knowledge from the most advanced sources. The Jadids advocated for women's education and were the first to establish girls' schools. Today, women's education is actively supported by the state. Specifically, in 2021, a 4% special quota was allocated for women in higher education institutions. In 2022, through the "Women's Notebook" initiative, more than 7,000 women were admitted to universities on a grant basis. Third, the Jadids emphasized the importance of education for all, including women. Today, this idea has become a priority in state policy. Special grants are allocated for women to pursue higher education, and opportunities are created for their active participation in science and society. The Jadids promoted the development of science and the use of printed publications as an educational tool. Today, the education system is being digitized, with electronic textbooks and online platforms being introduced. For instance, within the framework of Uzbekistan's "National Education Program," digital educational resources have been developed, providing thousands of students with access to modern knowledge. Fourth, the Jadids recognized the significant role of the press and literature in education. They actively used newspapers, journals, and textbooks to spread knowledge. In modern times, education is not limited to schools and universities but is also conducted through online platforms, electronic textbooks, scientific journals, and educational television programs. The Jadids emphasized the importance of learning foreign languages in education. This direction continues to be a priority today. In 2021, the "Program for the Development of English Language Learning" was adopted, making it mandatory for government employees to know at least one foreign language. Additionally, schools and universities are placing greater emphasis on foreign language proficiency. Fifth, the Jadids emphasized that education is not merely a means of acquiring knowledge but also a tool for social reform, the development of national consciousness, and overall progress. They argued that schools and madrasahs should not be limited to religious teachings but should also include subjects such as history, geography, mathematics, and natural sciences.

The Jadid movement played a crucial role in modernizing the education system, introducing new teaching methodologies, establishing modern schools, and promoting national identity through education. These efforts laid the foundation for the intellectual and cultural progress of the Uzbek nation.

The representatives of the Jadid movement often referred to themselves as progressives, and later as Jadids. The leading intellectuals of that era, particularly the educated elite, realized that local communities were falling behind global progress. They understood the necessity of reforming society, which led to the emergence of the Jadid movement. One of its primary goals was the reform and development of the education system.

The Jadid movement made significant contributions to education through the efforts of its key figures:

1. Ismail Gasprinski (1851–1914) Founder of the Jadid movement. Introduced the "Usuli Jadid" (New Method), a modern and efficient teaching system. Established the first Uzbek-language newspaper, Tarjimon, for Muslim communities under the Russian Empire. Founded modern schools based on the Usuli Jadid method in Khorezm, Crimea, and other regions. Advocated for women's education, fighting for their right to learn.

2. Abdulla Avloni (1878–1934) Authored the book "Turkiy Guliston yoxud Axloq", focusing on education and moral upbringing. Published articles on education, national consciousness, and public enlightenment in Istiqlol magazine. Developed modern textbooks and scientific-methodological materials in the Uzbek language. Played a significant role in promoting the Uzbek language and national culture in schools.

3. Mahmudhoja Behbudiy (1875–1919) Actively participated in the establishment of Jadid schools. Published articles on education and public enlightenment in Najot newspaper. Authored and published Uzbek-language textbooks.

Emphasized that the future of Uzbek national and cultural development depended on education.

4. Munavvarqori Abdurashidkhanov (1878–1931) Pioneered the opening of Usuli Jadid schools. Known for his early scholarly works on Uzbek language and literature. Worked on preserving the

national language and culture while promoting literacy. Contributed to the development of new pedagogical and teaching methods.

In conclusion, the progressive ideas of the Jadids regarding modern education, national awakening, and development continue to find expression in Uzbekistan’s education system today. Their reformist movement serves as a crucial foundation for the country’s advancement in science and enlightenment. The key ideas of the Jadidism movement are being reflected in various aspects of Uzbekistan’s modern education system. The establishment of new schools and universities, the advancement of women's education, the focus on foreign languages, and the digitization of education are all reforms aligned with the Jadids’ goals. This demonstrates the country’s continued efforts toward the development of science and education.The Jadidism movement was based on ideas of developing modern education, enlightening the people, and accelerating social progress. Today, the principles advocated by the Jadids are clearly reflected in Uzbekistan’s education system through concrete facts and evidence.

LISTS OF USED LITERATURE:

1. Behbudiy B. "Tiyotr nadur", "Oyna" jurnali, 1914 yil 10 may, №29. Tanlangan asarlar. Jild-II. T.: Akademnashr, -2018 yil 15-bet.

2. Behbudiy B. "Ikki emas, to‘rt til lozim", "Oyna" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I. T.: Akademnashr, -2018 yil 396-bet.

3. Buriev, I. I., & Mamasaliev, M. M. (2020). PATRIOTICHESKOE VOSPITANIE MOLODOGO POKOLENIYA. Vestnik nauki i obrazovaniya, (22-1 (00)).

4. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. Vestnik nauki, 3(11), 5-8.

5. Kurbonova, M. B., & Mamasaliev, M. M. (2020). STRUKTURA SOTSIALNOGO STATUSA MOLODEJNOGO SOOBShESTVA. INNOVATSIONNOE RAZVITIE: POTENSIAL NAUKI I SOVREMENNOGO OBRAZOVANIYA (pp. 210-213).

6. Sabirdinov A. O‘zbek romanchiligi; kecha va bugun. Izlanishlar samarasi. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2005 yil 28 yanvar.

NEGA AYNAN HIND? FITRATNING “HIND SAYYOHINING QISSASI” VA “MUNOZARA” ASARLARIDA HIND OBRAZIDAN FOYDALANISHI HAQIDA MULOHAZALAR

Pulatov Sherdor Nematjonovich,
Alfraganus university
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori., PhD, dotsent.
https://orcid.org/0009-0002-1665-0545
psherdor88@gmail.com.

Annotatsiya. Turkiston jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi, ilm arbobi Abdurauf Fitratning Turkiston hayotiga oid ko‘plab og‘riqli masalalar tilga olingan “Hind sayyohining qissasi” asari muallif asarlari orasida, shubhasiz, alohida o‘ringa egadir. Asarni tadqiq etgan mutaxassislar, odatda, uning mazmunini o‘rganish bilan cheklanib, muallif o‘ziga qaratilishi mumkin bo‘lgan keskin tanqidlardan qochish va balki hayotini xavf ostiga qo‘ymaslik maqsadida ramziy ma’noda hind obrazini tanlaganini ta’kidlaydilar. Biroq hozirgi kunimizgacha hech kim Fitrat nima uchun aynan hind obrazini tanlagan degan savolni kun tartibiga qo‘ymagan va bu savolga javob izlamagan. Uning “Munozara” asaridan ma’lum bo‘lishicha, mustamlakachilik hukmronligiga qaramasdan Fitrat yashagan davrda Hindistonda ta’lim rivojlangan va mahalliy xalqning o‘zi ham ta’limga katta ahamiyat bergan. Shu bois, tadqiqotimizda Hindiston tarixiga oid ilmiy izlanishlardan ham foydalangan holda, Fitratning hind obrazini asossiz tanlamagani, o‘sha paytda har ikki o‘lka mustamlakachilik zulmi ostida bo‘lganiga qaramay, Hindistondagi ta’lim darajasi Turkistondan ancha yaxshi bo‘lgani Fitratning bu obrazni tanlashiga sabab bo‘lgan degan fikrni ilgari suramiz. Shuningdek, mustamlaka zulmi ostida bo‘lish mamlakat ta’limi rivojiga to‘sqinlik qila olmasligini ta’kidlab, Turkistonning bu borada nega orqada qolganini ham o‘rganishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: Fitrat, hind, ta’lim, Turkiston, Hindiston.

Annotation. Among the author's works, a special place is undoubtedly occupied by the work "The Tale of an Indian Traveler" by a prominent representative of Turkestan Jadidism and scholar Abdurauf Fitrat, which raises many painful issues related to the life of Turkestan. Experts who have studied the work usually limit themselves to studying its content and emphasize that the author chose the image of an Indian in a symbolic sense in order to avoid harsh criticism that could be directed at him, and perhaps in order not to endanger his own life. However, until now no one has put on the agenda the question of why Fitrat chose an Indian image, and has not sought an answer to it. His work "Debates" shows that, despite colonial rule, education was developed in India during Fitrat's time, and the locals themselves attached great importance to education. Therefore, in our study, using scientific research on the history of India, we suggest that Fitrat did not choose the Indian image in vain, and the fact that the level of education in India was much higher than in Turkestan, despite the fact that both countries were under colonial oppression at that time, was the reason for Fitrat's choice of this image. We also try to study why Turkestan lagged behind in this regard, emphasizing that being under colonial oppression cannot hinder the development of education in the country.

Keywords: Fitrat, Indian, education, Turkestan, India.

Abdurauf Fitrat XX asr o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o‘tkir tilshunosh, betakror dramaturg va shoir, jangovor publist, noshir va journalist, talantli davlat va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biri edi. Fitrat ijodining ilk jarayonlari Turkiyada tahsil olayotgan vaqtlariga to‘g‘ri keladi. Fitrat boshlang‘ich asari “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg‘on munozarasi)ni yozadi. Bu asar Istanbulda nashr etildi. Asar fors tilida yozilgan, uni Hoji Muin o‘zbek tiliga o‘girgan va “Turkiston viloyatining gazeti”da bostiradi (1911). 1913 yilda esa asar alohida kitob holida chiqdi, unga Behbudiy kirish so‘zi yozdi. “Hibis qilish, o‘ldirish, sangsor qilish kundagi odatlardan edi, - deb yozadi Fitrat, - u zamonlarda kitob yozishning o‘zi “kofir”lik edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta’lim -taribiya usulini, bir quy rasmiy idoralarni tanqid qildim. Bu kitob Buxoroda tarqalar edi. Uning noshirlari bo‘lgan Buxoro jadidlarini tahlikaga tushurmaslik uchun amirga qaratib bir so‘zboshi yozdim va shuning bilan go‘yo, tanqidning unga emas, ma’murlariga oid bo‘lg‘onini ko‘rsatdim”.

Kitob Buxoroda ijtimoiy ongning jonlanishiga katta turtki bo‘ldi, hatto hukumat tomonidan ta’qib qilinayotgan jadid maktablarining ko‘plab ochilishiga, maktab-ta’lim ishlarining jonlanishiga yordam berdi. Ahir undagi “Islom mamlakatlari nega vayrona va xarobazor qolishi kerak. Bunga sabab nimada?”, “Bu bechoralarning nega yeyishga noni yo‘q?” kabi jiddiy savol va mulohazalar xalq ongiga ta’sir etmasdan iloji yo‘q edi.

Shuningdek, Fitratning yana bir asari ham katta ahmaiyatga ega bo‘lgan. “Bayonoti sayyohi hind”(Hind sayyohining qissasi)ni Sadriddin Ayniy yuqorida tilga olganimiz kitobning “Fitrat av uning asarlari” nomli maxsus bobida “Roman uslubida yozilgan asar” deb tariflaydi va uning Buxoroning afkori ulamosiga “Munozara”dan ham ko‘ra ko‘proq ta’sir etganligini qayd etadi. Bu ikki asar ma’lum ma’noda mavzudosh bo‘lib, ularda asrimiz boshlarida yuz bergan hodisalar bir millatparvar fozil shaxs tomonidan tahlil etiladi va shu boradagi fikrlar bir-birlarini to‘ldiradi. Muallif dastlabki asarida ko‘proq ma’rifatchi va islom islohotchisi sifatida ko‘ringan bo‘lsa, “Hind sayyohi...” ning mavzu doirasi ham, unda bayon etilayotgan voqealarning hududidagi butun iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotning ko‘plab muammolari tilga olingan. Bizda shu nuqtada savol tug‘iladi?

Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, Hindiston va Turkiston hududlari bir davrda mustamlaka aylantirilgan. Hindistonda inglizlarning 1600-yildan boshlangan harakat, 1858- yilda so‘ngi Boburiy hukumdor Bahodir shoh Zafarning taxtdan tushirilishi bilan Buyuk Biritaniya hukumati mutloq hokimyatni o‘rnatadi. Britaniya Hindistoni Britaniya imperializmining qudrati va buyukligini ifodalovchi Janubiy Osiyo tarixiy-geografik mintaqasida Britaniya imperializmining asosiy mustamlaka mintaqasi bo‘lib qoldi. Shuning uchun tarixshunoslikda Hindistonga ko‘pincha Britaniya imperiyasining “marvarid”i nomi berilgan. Aksariyat tarixchilar, boshqa narsalar qatori, Hindistonning tabiiy resurslar va minerallar boyligining ulkan darajasiga taalluqli vaziyatdan kelib chiqadilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy hayotida katta tarixiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Chor Rossiyasi ko‘pdan beri Turkistonning tabiiy boyliklariga ega bo‘lish, mustamlakasini yanada kengaytirishga intilib kelardi. XIX asrning 60-70-yillariga kelib Chor Rossiya shu Turkiston xonliklari yerlarini bosib ola boshladi. XIX asrning 60-yillari

davomida Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining ko‘p yerlarini egalab oladilar. Bosib olingan yerlarda 1867 yili Turkiston general-gubernatorligi o‘rnatildi. Buxoro bilan sulh tuzilib, u Rus chorizmining vassaliga aylantirildi. Xivaga uch tomondan rus qo‘shinlarining bostirib kelishi, vayronalik, talon-taroj, quvg‘inlar 1873 yildagi sulh bilan yakunlandi va Xiva xonligi ham Chor Rossiyaning vassaliga aylandi. Shu tariqa Turkiston hududda ham Chor Rossiyasi hukumronligi o‘rnatildi. Bu davrda Buyuk Britaniya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri bo‘lib, boshqaruv, sud-huquq, ilm-fan, sanoat sohasida katta yutuqlargan ega bo‘lib, ta’lim juda ham rivojlangan edi. Shu omillar ham qadimiy sivilizatsiyaga ega bo‘lgan Hindiston rivojlanish taraqqiyotiga qaysidir ma’noda ijobiy tas’ir ko‘rsatdi.

XIX va XX asrlarda yashagan mutafakkirlar, millat fidoyilari, siyosatchi, ziyolilarlar milliy mafkura va siyosat shakllanishiga katta hissa ko‘shganlar. Ularning g‘oyalari mustamlaka Hindistonning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi voqealar ta’siri ostida o‘zgarib, rivojlanib bordi. Nazariy-g‘oyaviy jihatdan qaraganda hind milliy ozodlik harakatiga xos ta’limotning ko‘zga tashlanadigan tomonlaridan biri uning diniy-aqidaviy mazmunidir. Buning sababi shundaki, diniylik mustamlakaga qarshi qo‘zg‘algan hind xalqining ijtimoiy ruhiyatidagi yetakchi elementlardan biridir. Shuning uchun ushbu harakat rahbarlari siyosiy va nazariy jihatdan diniy omilga katta urg‘u berdi, atrofiga ko‘plab ihlosmand insonlarni to‘pladi.

Hind milliy ozodlik harakati jarayonida diniy-falsafiy ta’limotlarni dolzarb siyosiy muammolarga moslashtirish maqsadida ularni zamonaviylashtirish, ushbu harakat talablariga muvofiqlashtirish, ayniqsa, o‘ta dolzarb vazifa bo‘lib qolgan edi. Jumladan, an’anaviy diniy-mistik g‘oyalar, ularning mavhum shakllarini vatanparvarlik, hatto, mustamlakaga qarshi ruhda talqin etish faollashdi.

Mulkdorchilik munosabatlarining rivojlanishi mafkura sohasida jamiyatning yetakchi doiralarida diniy islohot va ma’rifiy g‘oyalar tashkil topishi shaklida aks etdi.

Shu bilan birga, S. Radhakrishnan kabi hind faylasuflari xorijiy g‘oyaviy oqimlar bilan milliy ma’naviy merosni uyg‘unlashtirish yo‘lida “sintez” shaklidan unumli foydalanishga harakat qilgan hind faylasuflarining da’vatlari J. Neruga o‘xshagan atoqli davlat arboblari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib kelindi.

Milliy o‘zlikni uyg‘otish islohotlarini Ram Mohan Roy (1774-1833), Rabindranat Tagor (1817-1905), Dayananda Sarasvati (1824-1883), Dadabhay Naorodji (1825-1917), Ramakrishna (1836-1886), Svami Vivekananda (1863-1902), Bal Gangadhar Tilak (1856-1920) va boshqalar boshlab berdi. Tashkiliy jihatdan ushbu ishlar Brahmo Samaj (ब्रह्मो समाज) (Braxmanni sharaflash jamiyati), Arya Samaj (आर्य समाज) (Oriylar (ma’rifatchilar) jamiyati) va shunga o‘xshash jamiyatlar atrofida jamlangan edi[1]. Kabi jamiyatlar tuzilib ular Hindistonda ko‘plam amaliy ishlarni hal qildilar. Hind ziyoli qatlamining yutuqlaridan biri yuksak sivilizatsiyaga ega bo‘lgan ziyolilar, G‘arbning ilg‘or ilm-fani bilan tanishish imkoniyat juda ham oson edi. Bu davrda Jahoning eng rivojlangan mamkalati Buyuk Biritaniya universitetlarida o‘qish imkoniyatlarini berdi. Turkiston ziyolilari oldida bu jarayonlar bir muncha murakkab edi. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yevropani ilg‘or ilm-fani bilan tanishish imkoniyati yo‘q bo‘lib, jadidchilarga bu imkoniyatni Turkiya o‘tay oldi. Ta’lim tizimi va til ham muhim ro‘y o‘ynagan. Hindiston Buyuk Biritaniya mustamlakasi bo‘lagi uchun, ingliz tili ham ta’lim tizimini ham qabul qilgan bu jihat hind ziyolilarni dunyoning ko‘plab yangi g‘oyalari bilan tanishish imkonini berdi. Turkiston ziyolilari esa dunyo ilm fanidagi zamonaviy yutuqlar bilan bilvosita rus, arab, turk tillar asosida tanishdilar.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mukinki, Aburauf Fitrat o‘zining “Hind sayyohi qissasi” va “Munozara” asarlaridan Hind obrazining ishlatilishi sabablari bir necha bo‘lib, Birinchidan, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra Fitrat Haj safariga Hindiston hududi orqali borgan bo‘lishi mumkin, shu joyda u hind madaniyati bilan tanishgan.

Ikkinchidan, Buxoro islom ilm-fanida katta ahamiyat kasb etib, u yerda hind musulmonlari bo‘lgan Fitrat ular bilan muloqatga kirishgan bo‘lishi mumkin. Hindiston ilm-fan borasidagi yuturlar va liberal g‘oaylar bilan tanishgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, Fitrat Turkiyada taxsil olgan vaqtida Hindiston liberal g‘oylari yoki milliy ozodlik harakati bilan arab, fors tilida chiqadigan gazetalar bilan tanish bo‘lagan bo‘lishi mumkin.

[1] Юрлов Ф.Н., Юрлова Е.С. История Индии XX век. – М.: Институт востоковедения РАН, 2010. – С. 19.
Рус файласуф ва тарихчилар ўз тадқиқотларида Ҳиндистондаги диний ислоҳотлар масалаларига катта эътибор беришган. Улар орасида: Л.Б. Алаев, Н.П. Аникеев, Э.Н. Комаров, Б.И. Клюев, В.С. Костюченко, А.Д. Литман, О.В. Мезенцева, Л.Р. Полонская, Р.Б. Рыбаков, И.П. Челышева ва бошқалар бор.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Юрлов Ф.Н., Юрлова Е.С. История Индии XX век. – М.: Институт востоковедения РАН, 2010. – С. 19.

2.Roy R.M. The English Works. – Allahabad., 1906. – P. 29-30.

3.Tendulkar D.G. Mahatma: Life of Mohandas Karamchand Gandhi. – New Delhi. The Publications Division, Vol. I. 2016. – P. 229.

4.Gandhi M.K. Indian Home Rule or Hind Swaraj. – Ahmedabad. Navajivan Publishing House, 2008. – P. 41.

5.Камаров Э.Н., Литман А.Д. Мировоззрение Мохандас Карамчанд Ганди. – М.: Наука, 1969. – С. 17.

6.Пўлатов Ш.Н. Маҳатма Ганди ижтимоий-фалсафий қарашларига қадимги ҳинд фалсафасининг таъсири// Монография – Тошкент: ТДШУ, 2019. – Б. 43.

7.Ганди М.К. Революция без насилия. – М.: Алгоритм, 2012. – С. 7.

8.Пўлатов, Ш. Н. (2023). ҲИНД ФАЛСАФАСИДАГИ ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ МАҲАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИГА ТАСИРИ. International scientific journal of Biruni, 2(3), 96-103.

9.SNPulatov, AXLOQ VA AHIMSA TUSHUNCHALARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI. Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385, 5/2. 2024, B50-55.

10.Po‘Latov, S. N. M. (2020). Hindistonda pedagogic ta’limining rivojlanish bosqichlari. Scienceand Education, 1(SpecialIssue 1), 21-26.

11.Polatov, S. N. (2020). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT. Academic Research In Educational Sciences, (4), 468-474.

12.Po‘Latov, S. N. M. (2020). Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan hissasi. Scienceand Education, 1(SpecialIssue 1), 136-143.

13.Pulatov Sh.N. The Concept of “Truth” in the Philosophical Views of Mahatma Gandhi// Akshara Multidisciplinary Research Journal Peer-Reviewed & Refereed International Research Journal, India // E-ISSN: 2582-5429 Vol.02 Issue V, 2021. –P. 12-18**.**

14.Пулатов, Ш. (2019). Философская концепция Махатмы Ганди. Востоковедения, 3(3), 214–224. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15683

JADID MA’RAFATPARVARLARI QARASHLARIDA OILA – NIKOH MASALALARI VA UNDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Raxmanova Shirin Qutlimuratovna,
Ma’mun-Universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
fakulteti “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: raxmanovashirin251@mail.ru
+998999630775

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlari qarashlarida oila va nikoh institutining tutgan o‘rni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, jadidlarning xotin-qizlarning huquqlari, oiladagi maqomi va ta’lim-tarbiyasi borasidagi fikrlari tahlil qilinadi. Maqolada jadidlarning nikoh masalasiga zamonaviy qarashlari, shar’iy va ma’rifiy asoslari, shuningdek, ular ilgari surgan o‘zgarishlar yoritiladi. Shu bilan birga, ular oilani mustahkamlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini ta’minlashga qaratilgan taklif va islohotlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ma’rifatparvarlik, oila, nikoh, xotin-qizlar, huquq, ta’lim, islohot, shar’iy asoslar, jamiyat taraqqiyoti.

Аннотатsiя: В данной статье описывается роль институтов семьи и брака во взглядах современных просветителей, их значение в развитии общества. В частности, анализируются мнения джадидов относительно прав женщин, семейного положения и образования. В статье описаны современные взгляды джадидов на проблему брака, их шариат и основы образования, а также предложенные ими изменения. При этом анализируются их предложения и реформы,

направленные на укрепление семьи, повышение роли женщин в обществе и обеспечение их активности в общественной жизни.

Ключевые слова: джадиды, Просвещение, Семья, Брак, Женщины, Закон, Образование, Реформа, Основы Шариата, Развитие сообщества.

Annotation: This article examines the role of the family and marriage institutions in the views of the Jadid Enlightenment, their importance in the development of society. In particular, the Jadids' views on women's rights, status in the family, and education are analyzed. The article examines the Jadids' modern views on marriage, their legal and educational foundations, as well as the changes they put forward. At the same time, their proposals and reforms aimed at strengthening the family, increasing the role of women in society, and ensuring their active participation in social life are analyzed.

Keywords: Jadids, Enlightenment, family, marriage, women, law, education, reform, legal foundations, social development.

Hozirgi kunda yurtimizda xotin – qizlarning o‘rni beqiyos darajada bo‘lib, bularning barchasi mamlakatimizda ularga nisbatan ko‘rsatilayotgan e’tiborning natijasidir. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M.Mirziyoyev xotin –qizlar masalasiga to‘xtalar ekan, o‘z nutqlarida shunday fikrlarni bildiradilar “onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin –qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz deb bilamiz”[1].

Jadid ziyolilari o‘lkaning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida oilaning o‘rni beqiyosligini o‘z tajribalarida to‘g‘ri anglagan holda oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishga va bu sohada ko‘plab ishlarni amalga oshirishga harakat qilishdi. Oila azal-azaldan Sharq dunyosida ham milliy ham umuminsoniy qadriyat sifatida qaraladi. Lekin shuni aytish mumkinki, oila- nikoh munosabatlari XX asr boshlarida izdan chiqib qolgan edi, chunki Turkiston hayotidagi eskilik sarqiti bo‘lib qolgan xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini cheklash va ularga xuddi bir buyumdek munosabatda bo‘lish, oilaning mustahkamlagiga uning jamyatdagi mavqeyining sezirarli darajada pasayishiga olib kelgandi, yana bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston aholisining siyosiy huquqlarining cheklanishi davlat idoralarida ayollar u yoqda tursin, hatto erkaklarning ham ishlashi judayam oz miqdorda ekanligi, ayollar faqatgina uy- ro‘zg‘or ishlari bandligi, savodxonlik darajasi ham diniy kitoblardan ba’zi birlarini ozgina qiroat qilish bilan cheklangan edi. Bu kabi muammolar jadidlar diqqat markazidan qolmagan konseptual o‘z yechimini kutayotgan masalalardan edi, zero, jadid ziyolilari “Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i” deb bilishar edi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining salbiy oqibatlari va Turkiston o‘lkasining eski tartibotlaridan qutqarish yo‘llarini nazariy asoslovchi va hmoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy masallarga doir, o‘z qarashlari va go‘yalarini o‘zida birlashtirgan bir tizim asosida tuzilgan yagona rivojlanish konsepsiyasini yaratishga harakat qilishdi desak adashmagan bo‘lamiz.

Jadid ma’rifatparvarlari oila asosi bo‘lgan ayollarning huquqini erkaklar bilan tenglashtirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini o‘zgartirishni o‘ta zaruriy vazifalar deb tushundilar. XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandasi buxorolik jadid Abdurauf Fitrat oila masalasiga alohida e’tibor bergan. Uning 1915-yilda chop qilingan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida tadqiqot qilinayotgan masalada o‘sha davr uchun mukammal yo‘riqnoma yuzaga keltirildi. Diniy va dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lgan Fitrat asar yozish orqali o‘zini huquqshunos, sotsiolog, pedagog va tabib sifatida namoyon qilib, oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto go‘daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga sog‘lom, komil insonning shu xalqning, millat va ijtimoiy -siyosiy va madaniy rivojining muhim omili ekanligi ta’kidlangan. Abdurauf Fitrat fikriga ko‘ra, jamiyatning, davlatning nufuzi, shon-shuhrati ko‘p jihatdan oiladagi ota-onalarning o‘z farzandlarini vaqtida uylantirishi, yangi oilani yuzaga keltirishi va yosh avlodning tarbiyasi bilan bog‘liq. A. Fitrat bu borada quyidagilarni yozadi: “qaysi millatning umumiy sa’y-harakati va amali ko‘p bo‘lsa, kuch-qudrati va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, Yevropa hukmdorlari o‘z millatlarining

sonini ko‘paytirishga harakat qiladilar, Yevropa olami o‘z xalqining nufuziga putur yetsa: “Ey! Mamlakatimiz sharafi va e’tibori qolmayapti, millatimiz nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringlar”,– deya dod solinadi degan fikrlarni keltirib boshqa mamlakatlarda ayollarga munosabat Turkistondagidan ancha yaxshi ekanligini aytib o‘tadi. Bu chaqiriq aynan o‘sha davr Turkistoni uchun dolzarb masala edi [3].

Umuman, yoshlarni bilimli, keng dunyoqarashli qilib tarbiyalashda, jadidlarning fikricha, oilaning asosini to‘g‘ri qurishdan iboratdir. Shuning uchun ham yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning ravnaq etish yo‘llariga tushirish mumkin emasdir. Vatan, millat taqdiri oxir-oqibatda oilaning holatiga bog‘liqdir. Misol uchun, A.Fitratning fikricha, “har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqining ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi ” Shu bilan birga “agar rohat orzusi va hayot kechirish fikrida bo‘lsak, agar “madaniy na baxtli millatlar bizni odam qatorida bilsin”,– deya xohlasak va bizlar bilan umumbashariy qoidalar asosida muomala qilishlarini istasak, agar musulmonlarni xorlikdan va islomni e’tiborsizlikdan qutqarmokchi bo‘lsak , eng avvalo oila munosabatlari adolat bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan qoida, bu er-xotinning muomalalari sanaladi [3].

Jadidlar o‘z g‘oyalarida ayollarning oilada tutgan o‘rnini ko‘rsatib, shu tufayli ularning jamiyatdagi o‘rnini belgilash kabi masalalarni ilgari surdilar. Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Misol uchun, bu haqida manbalardan quyidagilarni bilishimiz mumkin: “Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, ilmlik bo‘lsa, farzandni ham tarbiyat qilib, taraqqiyparvar odam qiladur” Ular bu murakkab sharoit va davrda ayollarning teng huquqliligi, muhabbat bilan oila qurishi kabi umuminsoniniy muammolarni ko‘tardilar. Ismoilbek Gasprinskiy o‘zining “Doru-r-rohat” asarida o‘lkada ayollarning ochiq, yuzlilik bilan suhbatga aralashgani, umuman ko‘zga tashlanmasligi, bu joyda ayollar bilan erkaklar o‘rtasida Yevropadagidek demokratik munosabatlarning hukm surmasligini yozadi. Chunki Turkistonda nikoh majburiy bo‘lib, muhabbat asosida qurilmaydi, balki, ikki yosh bir-birini ko‘rmay turmush quradi, natijada hayotlarida davomida bir-birlaridan nolib yurishadi. Nikoh nizomining o‘zi ham odilona insoniy huquqlardan kelib chiqib tuzilmagan edi.

“Turkiston viloyatining gazeta” sonlaridan birida bu borada jadidlarning fikriga hamohang quydagicha munosabat bildirilgan: Olloh taborak va taoloning irodasi bo‘yicha qiz bolalar balog‘atga yetib qo‘lidin ish keladurg‘an bo‘lgandin so‘ngra erga tegib bir erkakning zaifasi bo‘ladur. To erga tekkuncha ul qizlar otaonasining va yoki bir boshqa kishining tarbiyasida bo‘lib parvarish topadur. Mazkur tarbiyatgirlar qiz balog‘atga yetkuncha yaxshi tarbiyat qilib o‘ziga ta’lluqli ishlarni ta’lim berib, andin so‘ngra munosib joy topilsa ul qizning roziligi bilan turmushga berish kerak degan fikrlar bildirilgan. Xotin-qizlar turmushga bergandan so‘ng, ularning muhabbat va sadoqat, tenglik va hurmatga asoslangan oila qurish masalasi Ibrohim Davronning “Sevib xotun olmoq maqsadimizdir”,– deb nomlanuvchi maqolalaridan birida berilgan [5].

Jadidlarning matbuot organi bo‘lmish “Sadoi Turkiston” gazetasining sahifalarida oila-nikoh muammolariga munosabat bildirilgan. Nikohdan o‘tayotgan qiz va yigitlarning qo‘llarida ularning salomatliklari va yuqumli kasalliklardan holi ekanliklariga doir shahodatnomalari bo‘lishi va bular nikohdan 15 kun avval shifokordan olingan bo‘lishi shart. Agarda uylanayotgan yigit va qizning qo‘llarida ana shunday shahodatnoma bo‘lmasa, imomning nikoh o‘qishga haq-huquqi bo‘lmasligi kerak. Nikoh faqat qiz va yigitning roziligi va ishtirokida o‘tishi, nikohga oid har bir vazifa masjidlarda xalqqa ona tili ila imomlar va voizlar tarafidan so‘zlanishi, balog‘atga yetmagan qiz bolalarga nikoh o‘qigan imomlar, bunga rozilik bergan ota-onalar javobgarlikka tortilishi lozimligi haqida to‘g‘ri va qimmatli fikrlar bildirishgan. Turkiston jadidlari orasida oila masalasi bilan shug‘ullanganlardan Mahmudxuja Behbudiydir. O‘zining “Hifz-i sihat-i oila” (“Oila sog‘lig‘ining himoyasi”) maqolasida oilaning ahvoli va yosh avlodning kelajagi ko‘pincha insonning o‘z sog‘lig‘iga nisbatan munosabatiga bog‘liqdur, deb hisoblagan.

XX asr boshlarida M. Behbudiy o‘zining kichik-kichik maqolalarida oila, xotin-qizlar mavzusiga murojaat qilgan. M.Behbudiy balog‘atga yetayotgan qizlarni to‘y – hashamlarga kamroq olib chiqishlarni tayinlaydi. Behbudiy yana o‘sha vaqtlardagi Turkistonda nikohning 17 yoshli yigitcha bilan 14 yashar qizning oilasi mukammal bo‘lmasligini ta’kidlaydi . Ular bu yoshda bolalik odatlaridan qutila olmagan bo‘ladi . “Jami hifsi sihat mualliflari uylanmoqg‘a erkak uchun 25-30, ayollar uchun 20-22 yoshlarni tayin tayin qilmoq fikridadurlar”–deb yozadi [4].

Jadidlarning mashhur namoyandalaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyatining dastlabki yillaridanoq rus ma’murlariga va ularning o‘lkadagi siyosatiga nisbatan nafratli munosabatda bo‘lgan, u o‘zining juda uzoq, davr jaholatga kirishi, xotin- qizlar ozodligi, oilani isloh qilish uchun kurash olib borganligi borasida quyidagicha fikrda edi: “Men ko‘p vaqtdan beri ayollarni ancha tezroq, ozod qilish yo‘lida turli xil usullarni qo‘llash bilan ishlab kelmoqdaman” O‘sha davr gazeta va jurnallarida Munavvarqorining oila to‘g‘risidagi diniy qadryatlarni poymol qiladigan bid’at va xurofotlarni tanqid qiladigan ko‘plab maqolalari ham e’lon qilingan. U tariqatchilikni oilaviy ma’rifat manbai sifatida qaraydigan islohotchi edi. Shu bois Munavvarqori maslakdoshlarini dam bid’atga qarshi kurashga chaqirdi, dinning ijobiy tomonlarini targ‘ib qilishga undadi.

Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi” dramasida o‘lka ijtimoiy iqtisodiy madaniy hayoti yoritilib, xotin-qizlar masalasiga ham alohida urg‘u berilgan, asarda Davronbek ismli yosh adovakat yevropada o‘qib kelib Turkistonda ishlay boshlaydi, bir kuni uning oldiga Mehrinso ismli bir ayol kelib, juda erta turmushga chiqib, eri yaxshi emasligi, qimor o‘ynashi, har kuni uni haqorat qilishi, bu haqida qozi yoki ellikboshlariga arz qilsa, ular eridan pora olib , bu ishlarning barchasida uni ayblashayotganini aytib , yordam berishini so‘raydi, Davronbek unga yordam berishini aytadi va ayol ketgach, o‘ziga-o‘zi shunday deydi: “Oh zolim madaniyat , bizim turkistonliklarning orasiga qachon kelub tomir yoyasan? Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan? Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotun-qizlarimiz ilm-u maorif ila nurlanmag‘uncha, bizning oramizda shunday ko‘ngilsiz hollatlar davom etsa kerak, Mana bu xotun bechorani eriga berg‘on vaqtlarida o‘z xoxishlari bilan, o‘zining rizolig‘i bilan, o‘zi ko‘rib xohlag‘on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab, qo‘lidan tutib, bir zolimning qo‘liga berganlar.Bu mushtipar ma’sumaning butun umri azob – mehnatda , qayg‘u va kulfatda o‘tub dunyog‘a kelg‘oniga-da, ming marotabadan pushaymon yeb g‘am zindonda yashog‘on. Mana bizning oramizdan munday ko‘ngilsiz holatlarning yo‘q qilmoq uchun butun kuch quvvatimizning xotin-qizlarimizning o‘qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo‘linda sarf qilmog‘imiz zarur. Shundagina bizlar ham boshqa qavmlar orasinda yashamog‘imiz mumkindir”.–deb aytadi [2]. Bundan bilib olishimiz mumkinki bu drama orqali Abdulla Avloniy o‘z qarashlarini bayon etib, xalqning ong –u shuuriga ta’sir qilishga , jamiyatdagi zararli urf-odatlardan voz kechishga undaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston jadidlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy qarashlarida oila masalalariga alohida e’tibor berganliklari jadidchilik harakatining Turkistonni ravnaq ettirish yo‘lidagi xalq ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirishdagi intilishlarini yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu intilishlar jadidlarning quyidagi g‘oyalarining hayotga tadbiq etilishlarida namoyon bo‘lgan, oilada ayollarning o‘rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, xotin-qizlar o‘qimishli va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligi, er-xotinning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish, muhabbat va sadoqatli, tenglik va hurmatga asoslangan oila qurish, ma’rifatli oilaning yosh avlodning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatish, oilada farzandlar va ota-onalarning o‘zaro munosabatlarida burch va huquqlarini belgilash, ayollarga salbiy munosabatni o‘zgartirish, xususan, nikoh, ko‘pxotinlik, merosxo‘rlik va shunga o‘xshash masalalarga yangicha yondashish va hokazo. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotida oilaning muhimligini ta’kidlab, nikoh masalasiga yangicha yondashuvni ilgari surganlar. Ular xotin-qizlarning ta’lim olishi, huquqlari himoya qilinishi va oilada teng huquqli shaxs sifatida e’tirof etilishini qo‘llab-quvvatlaganlar. Shuningdek, jadidlar nikoh va oila institutida islohotlar o‘tkazish zaruriyatini ilgari surib, oilaviy munosabatlarda ilmiy-ma’rifiy tamoyillarni ilgari surganlar. Ularning bu qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, jamiyatda gender tengligi va oilaviy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев. Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б. 14.
2. Авлоний А. Танланган асарлар.–Т.: Маънавият, 1998. –Б. 76. 42
3. Фитрат А. Оила ёки уни бошкариш тартиблари. –Т.: Маънавият. 2000. –Б. 15. 38
4. Жадид педагогика асослари(Ўқув қўлланма).–Т.: 2004.–Б. 57-58.
5. Раҳимова. Г. Иброҳим Давронниг Апгори нисвон тўплами ҳакида баъзи мулоҳазалар. –Т.: Адабий мерос, 1989. –Б.5-11.
6. Авлоний А. Танланган асарлар.–Т.: Маънавият, 1998. –Б. 76. 42

TOSHKENTDAGI JADIDCHILIK MAKTABLARI FAOLIYATI

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna,
Alfraganus university professori,
falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. *Maqolada Toshkentdla faoliyat olib borgan jadid maktablari va ularning faoliyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Munavvarqori Abdurashid o‘g‘li boshqa jadidchilar kabi Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotining asosiy omili deb xalqni savodli va ma’rifatli qilishni tushunadi. Munavvarqori ta’lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko‘tarmay jamiyatda katta o‘zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib etadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar, zamonaviy maktablar, yosh o‘qituvchilar, yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, dorilmuallimin, millat tilagi, yangi usul maktablari, milliy, demokratiya, davlat.*

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДСКИХ ШКОЛ В ТАШКЕНТЕ

Аннотация. *В статье научно обоснована деятельность джадидских школ, действовавших в Ташкенте. Одним из выдающихся представителей джадидского движения был Мунавваркари Абдурашид угли, который, как и другие джадиды, считал, что просвещение народа и повышение его грамотности являются основными факторами процветания Родины и прогресса hatsiu. Мунавваркари понимал, что без реформирования системы образования и воспитания, без повышения сознательности народа и уровня его культуры невозможно добиться серьезных изменений в обществе.*

Ключевые слова: *джадиды, современные школы, молодые учителя, новые учебники, учебные пособия, дарульмуаллимин, стремление hatsiu, школы нового метода, hatsиональный, демократия, государство.*

THE ACTIVITIES OF JADID SCHOOLS IN TASHKENT

Abstract. *This article scientifically substantiates the activities of the Jadid schools that operated in Tashkent. One of the prominent figures of the Jadid movement, Munavvarqori Abdurashid ogli, like other Jadids, believed that enlightening and educating the people was the key factor for the prosperity of the homeland and the progress of the nation. Munavvarqori realized that without reforming the education system, raising public awareness, and improving the cultural level of the people, it would be impossible to bring about significant changes in society.*

Keywords: *Jadids, modern schools, young teachers, new textbooks, educational manuals, Darulmuallimin, national aspiration, new method schools, national, democracy, state.*

Jadidlar orasidan etuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxasislari etishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fidoiylarcha kurashdilar. Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
- turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalarini tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish ;
- xalqning ijtimoiy – siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingandagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.
- Jadidchilarning g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:
- Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;
- shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish;
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;

- Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik republika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro),Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho‘lpon, Isxoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

Munavvarqori maktablarning kundalik o‘quv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtixonlarini uyushtirishgacha, «usuli savtiya» metodini iqtidorli yosh o‘qituvchilarga o‘rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni boshqardi. Uning bu faoliyati davrining ulug‘ mutafakkirlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, Maxmudxo‘ja Bexbudiydek jadidchilik harakatining karvon-boshisi unga madadkor bo‘ldi. Maxmudxo‘ja Bexbudiyning bu boradagi so‘zlariga e’tibor bering: «Turkistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo‘lmasa xam har shaharda usuli ta’limdan xabardor bir-ikki nafar muallim albatga bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzurig‘a yuborub, 3 - 4 oy zarfida usuli ta’limdan xabardor qildurmoq mumkindur. Agar boyafarz, ushbu himmatni muallimlarimiz iltizom qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni bir oz zahmatlik bo‘lsa ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri Toshkandda Munavvarqori janoblarining maktabig‘a yubormoq kerakdurki, mushorun alayhning munday toliblarni maalmamnuniyat qabul etmoqdarig‘a amindurmiz. Ishta, muxtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo‘r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arzu taqdim etduk» [1].

Turkistonda etishib chiqqan buyuk islohotchilardan biri bo‘lgan Munavvarqori Abdurashidxonov Ismoilbey Gasprali bilan uchrashmagan bo‘lsa xam, uning barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan, badiiy va publitsistik asarlari bilan yaqindan tanish, siyosiy qarashlari ta’sirida bo‘ldi, unga ergashib, «usuli jadid» maktablarini ochdi, o‘qituvchilik qildi, darsliklar yaratdi, usuli jadid maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorladi. Uning bevosita tarbiyasida Mannon Uyg‘urdek buyuk san’at arbobi, aka-uka Husanxo‘ja va Eshonxo‘ja Xoniylar, aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Same’qori, Salimxon Tillaxonov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Majid Qodiriy kabi pedagoglar etishib chiqqan.

Munavvarqori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o‘zi tuzgan o‘kuv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtixonlar tashkil qilgan. Bundan asosiy maqsad, birinchidan, usuli jadid maktablarini badnom qiluvchi mutaassib kamchiliklarning da’volari asossiz ekanligani xalk oldida namoyish etish bo‘lsa, ikkinchidan, xalq o‘rtasida ilm-ma’rifatga, yangi o‘qitish usuliga, zamonaviy turmush tarziga rag‘bat uyg‘otish edi. Shuning uchun xam Munavvarqori imtixonlarga o‘quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o‘lkada katta e’tibor qozongan olimu shoirlarni, ma’rifatli boylarni ham taklif qilgan. Mana, uning Namanganga - Is’hoqxon to‘ra Ibratga yo‘llagan «Da’vatnoma»si: «Hurmatlu Is’hoqxon hoji janoblarina!

1907 yil may oyindan e’tiboran, Toshkentda Tarnovboshi mahallasinda «Xoniya» maktabinda talabalarni yillik imtixoni boshlanur. Siz xurmatludan rijo qilurmizki, tavobingizda bo‘lg‘on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtixon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo‘lur edilar. Muhibingiz Munavvar Qori, 15 mart 1907 yil». Bunday imtixonlar «usuli jadid» maktablarining o‘lka bo‘ylab keng tarqalishiga olib keldi. 1903 yilda Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Namanganda Is’hokxon Ibrat, So‘fizoda, Qo‘qond Abdulvaxob Ibodiy, Ashurali Zoxiriy, Hamza, Po‘latjon Qayumov, Buxoroda Abdulvoxid Munzim, Sadridddn Ayniy, Xorazmda Husayn Kushaev, Bobooxun Salimovlar boshchiligida usuli jadid maktablari tarmoqlari kengayib bordi.

Munavvarqori usuli jadid maktablari ochish bilan ish bitmasligini, darslik va o‘quv qo‘llanmalari havodek zarur ekanligini juda yaxshi bilar edi. Shuning uchun xam u dastlabki yillarda Istanbul, Qozon va Qrimdan diniy va dunyoviy o‘quv risolalari, alifbo va o‘qish kitoblari oladi. U 5 sinfli ilk usuli jadid maktabi qoshida ikki sinfli rushdiya (yuqori sinf) ochadi. Bu maktab butun Turkiston uchun «Namuna maktabi» sifatida shuxrat qozondi. Munavvarqori o‘lkani qoloqlikdan, millatni mustamlaka zulmidan qutqarishning birdan-bir yo‘lini ilm-ma’rifatda, zamonaviy texnikani egallashda ko‘rdi. «Namuna maktabi»ni birinchi bo‘lib bitirgan sobiq shogirdlaridan Afandizoda uning bu faoliyati haqida

quyidagilarni yozdi: «Munavvarqori Turkistonni istilo etganlarga qarshi kurashning yagona yo‘li ta’lim deb bildi. Xalqni isyonga chorlamadi. Bizning g‘alabamizning birinchi sharti va asosi bilim va texnikadir», - degan fikrlari bilan biz yoshlarga tahsilni Istanbulda davom etgirish kerakligini ta’kidlar edi» [2].

Usuli jadid maktablarining har qanday ta’qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomlariga, bo‘xtonlariga qaramay, xalq e’tiborini qozonishi, uning so‘nggi qatlamlarigacha kirib borishi, ayniqsa, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari rus siyosatdonlarini, mafkurachilarini ancha tashvishga sola boshladi. 1909 yilda N.Ostroumov «Turkestanskie vedomosti» gazetasining 1-sonida «Chto delat s novometodnmi shkolami?» nomli maqolasini e’lon qildi. Unda muallif kuyunib quyidagilarni yozadi: «Rus ma’muriyatining erliklar eski maktablariga nisbatan qo‘llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o‘lkadagi hukmronligimizning dastlabki o‘n yilligida o‘zini oqlagan bo‘lishi mumkin. Ammo keyingi uch o‘n yillikda bu siyosat o‘zini oqlamaganini xech qachon hech narsa bilan yashirib bo‘lmaydi. Mana, chindan ham kutilmaganda pushaymon bo‘ladigan voqea sodir bo‘ldi. Biz o‘lka maorifida biror ish amalga oshirguncha, hatto katta qiyinchiliklar bilan endi bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g‘ayrat bilan o‘lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari asta-sekinlik bilan ma’muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham oblast, uezd ma’muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspeksiyasi nazoratisiz davom etmoqda» [3].

Chor hukumatining mustamlaka o‘lkalarda qo‘llagan maktab sohasidagi siyosati shunday ediki, iloji boricha, bunday «usuli jadid» maktablarini ta’qiqlash, juda bo‘lmaganda, ularning keng tarqalishiga turli to‘siqlar vujudga keltirish, shu bilan bunday maktablar rivojlanishining oldini olish edi. Turkiston o‘lkasiga nisbatan Tatariston, Boshqirdiston, Qrim va Kavkaz o‘lkalarida ancha ilgari bunday jarayon kechgan va ularga qarshi kurashda ma’muriyat katta tajriba ortgirgan edi. Bu o‘lkalarda ham «usuli jadid» maktablariga birinchi bo‘lib mutaassib ulamolar - «qadimchi»lar qarshi chiqqan edilar. General gubernatorlik ma’muriyati «usuli jadid» maktabdorlariga oppozitsiyada bo‘lgan mahalliy mutaassiblar - «qadimchi»larni qarshi qo‘ygan bu kurashda ularni rag‘batlantirdi, o‘zlari bu maktablarga, ularning tashkilotchilariga qarshi turli bo‘xtonlar, siyosiy aybnomalar uyushtirdilar. Bu bilan general-gubernatorlik ma’muriyati, birinchidan, mustamlaka xalqini asriy qoloqlikda, mute’likda asrashdek qabih niyatini amalga oshirish vazifasini qo‘ysa, ikkinchidan, o‘zini musulmon dini sofligining ximoyachisi sifatida ko‘rsatdi. Chor xukumati ma’murlari o‘zbek ziyolilarini bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbga ajratib tashladilar, jadidlarni qattiq ta’qib ostiga oldilar, o‘ta mutaassib din peshvolarini ularga qarshi qo‘ydilar, masjid-madrasalarning, eski maktablarning ko‘payishiga katta imkoniyat yaratdilar. Turkiya, Bog‘chasaroy, Ufa, Qozon, Tiflis, Orenburgdan keladigan nashrlarning tarqalishini qattiq nazorat ostiga oldilar.

Gubernatorlik ma’murlari ma’rifat fidoyilariga qarshi kurashda, ularni xalq o‘rtasida badnom qilishda eng qabih usullardan ham qaytmaganlar. Keksalarning xabar berishiga qaraganda, 1908 yili N.Ostroumov Samarqandda Ulug‘bek madrasasi jome’sida bir necha ming namozxon huzurida usuli jadid maktablariga borgan yoshlar musulmon dini ahkomlariga amal qilmay qo‘yayotganliklari, bunday maktablarda dinga xilof ilmlar o‘qitilayotgani haqida «kuyunib» ma’ruza qilgan. Qora xalq, mutaassib ulamolar uning ma’ruzasidan qattiq mutaassir bo‘lib, (g‘ayridin bo‘lsa ham bizga, dinimizga qanchalar mehribon» deb, ko‘zlariga yosh olib, duo qilgan ekanlar.

N. Ostroumov «usuli savtiya» maktabini tekshirish uchun borganda keng jamoatchilik oldida muallimga quyidagilarni ta’kidlaydiJ «Domla, kalomi sharifni ko‘proq o‘qiting, ha, kalomi sharifni...» Mustamlakachilarga mahalliy maktablarda dunyoviy fanlarning o‘qitilishi yoqmas edi.

Milliy uyg‘onishga chorlovchi g‘oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma’naviy inqirozda bo‘lishini tanqid qildi, barchani savodli bo‘lish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir» degan g‘oyasi ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma’rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma’rifat ziyosidan bahramand qilishda unitilmas xizmatlar ko‘rsatdi. «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobida ma’rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqyotida tutgan o‘rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini o‘rganish – bugun o‘zligimizga qaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Biz shu o‘rinda allomaning asaridan quyidagilarni qayd etishni lozim topdik. «Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni,

fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas’ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Bizlarni ilm jaholat qorong‘uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur. Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni orttirur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur» [4].

Xulosa. Jadidchilarning qismati chor hukumati, Vaqtli hokimiyat va ayniqsa, sobiq Sho‘rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun millatchi, «panturkist» degan tamg‘a bosilib, qatag‘on qilindi, jadidlar g‘oyalari va harakatiga qora chiziq tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga orqaga surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g‘oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo‘lib, to‘la ravishda namoyon bo‘la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o‘rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o‘rganishga intilganlar ham ta’qib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g‘oyalari, ma’rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g‘oyalari o‘lmas g‘oyalar bo‘lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Adabiyotlar:

1.Behbudiy Mahmudxo‘ja. Muxtaram yoshlarga murojat. “Oyna” jurnali. 1914 y. 41-son.

2.Afandizoda Munavvarqori, Yosh Turkiston, 1934 y., №50, yanvar.

3.“Туркестанские ведомости”, 1999 г., № 1.

4.Ibrohimov A., Sultonov G‘., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. Toshkent, «O‘zbekiston», 1996, 350-bet.

YOSHLARNI TABIYALASHDA JADID MA`RIFATPARVARLARI GOYALARINING TUTGAN O`RNI

Topildiyev Odiljon Raximjonovich, *Namangan davlat pedagogika institute, dotsenti t.f.n.*
Tel: (97) 376-75-11
E-mail: rodilbek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasi barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lganligi va bugungi kunda O`zbekistonda yoshlarni tarbiyalash borasida yangicha tizim yaratilgan. Buning zamirida jadid ma`rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, ta`lim-tarbiyaga oid olib borilgan ma`naviy jarayonlar muhim ahamiyatga egalifi yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Yoshlar, ta'lim, yosh avlod tarbiyasi, jadidlar, jadid ma`rifatparvarlari, insonga xos xulq, Yangi O‘zbekiston, maktab, prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i,Uchunchi Renessans.

РОЛЬ ИДЕЙ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотатsiя: В статье вопрос воспитания молодого поколения всегда был актуален, и сегодня в Узбекистане создана новая система образования молодежи. В основе этого большое значение имеют идеи, выдвигаемые современными просветителями, духовные процессы, связанные с образованием.

Ключевые слова: Молодежь, образование, воспитание молодого поколения, современники, современные просветители, поведение человека, Новый Узбекистан, школа, президентские школы, творческие школы, сеть специализированных школ, Третье Возрождение.

THE ROLE OF THE IDEAS OF MODERN EDUCATORS IN THE UPBRINGING OF YOUTH

Abstract: In the article, the issue of educating the young generation has always been relevant, and today a new system of youth education has been created in Uzbekistan. At the heart of this are the ideas put forward by modern educators, spiritual processes associated with education.

Key words: Youth, education, upbringing of the young generation, contemporaries, modern educators, human behavior, New Uzbekistan, school, presidential schools, creative schools, network of specialized schools, Third Renaissance.

O`zbekiston Respublikasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu yoshlarning ta`ilim-tarbiyasi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mustaqillikning ilk yillaridanoq O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati qabul qilingan va ushbu siyosat 2016 yildan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etmoqda. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh yigit-qizlar kirib kelmoqda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 million nafarga yetadi. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar – 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi “Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasi barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Yoshlar xalqimizning oltin fondi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta'lim berish, tarbiyalash muhim masaladir”[1] – degan fikrlari nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

O`tgan davrda O‘zbekiston Respublikasi istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida yangicha tizim yaratildi. Yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda jadid ma`rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, ta`lim-tarbiyaga oid olib borilgan ma`naviy-ma`rifiy ishlar bugungu kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo`lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishda ta`lim beruvchi pedagoglarning asosiy vazifasi – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, katta hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o‘rin topishlariga ko‘maklashish, ustozlik burchini ato etishdan iboratdir. Shu o‘rinda jadid ma`rifatparvari Abdulla Avloniyning quyidagi: “Ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq jarayonlardur, dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir”[2] - degan fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta’rif beradi. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham ta`lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan ulkan xizmat bo`lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal goyalarning ta’lim-tarbiya tizimi tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda ham dolzarbdir.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”[3], degan ezgu g‘oyasi asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan darajada e’tiborni qarata boshladi. So‘nggi yillarda mamlakatda tashkil qilingan prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengayishi, yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini yaratilishi, ham yorqin misoldir. Ayniqsa, o‘qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri yoshlar uchun sifatli ta’lim-tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish, balki, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ma’naviy-madaniy yetuk, o`z mustaqil fikriga ega barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir.

XX asr boshlarida jadid ma`rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan ezgu g‘oyalar, ilm-fanni, ma’naviyat va madaniyatni yuksaltirish orqali xalqni qaloqlikdan olib chiqish, milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi ta`lim-tarbiyaning o`rni muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidlar ma`rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona, muzey, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi va milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Jadid ma`rifatparvarlarining yangi Renessansni yuzaga keltirishdagi sa’yi harakatlari bugungi kundagi “Yangi O‘zbekiston – Uchunchi Renessans sari” g‘oyasi bilan hamohang bog‘liqdir.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvi // Xalq so‘zi, 2025 yil 14 fevral.

[2] Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. – T.: NOSHIR, 2012. https://hikmatlar.uz/author/269

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023 yil 28-avgust kuni “Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan” o`tkazgan videoselektor yig‘ilishi. // https://president.uz/oz/lists/view/6622

Uchunchi Renessansni bunyod qilishda jamiyatning taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib yoshlarga axloqiy, e’tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa birn qator talablar qo‘yadi. Yoshlar tarbiyasida birinchi navbatda ota-onaning roli muhim sanaladi. Jadid ma`rifatparvarlari ham bolalar tarbiyasida ota-onaning mas’ul bo‘lishi lozimligini ta’kidlashgan. Jaddid ma`rifatparvarlarining yoshlarni tarbiyalash xaqidagi goyalari haqida fikr yuritganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlari merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[1] degan so‘zlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jadid ma’rifatparvarlarining “Tilda, ishda, fikrda birlik” degan ezgu g‘oyasi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Aynan shu jihatdan qaraganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqni ilm-ma’rifatli bo‘lishga chorlab, jamiyatni dunyoga ochiq ko‘z bilan qarashini, zamonaviy xo‘jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib, faollik ko‘rsatishni talab qilgan. Behbudiy “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”[2], degan fikri bilan xalqni uyg‘otishga harakat qilgan.

Jadidlar ta’lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda “usul ul-jadid” yoki “yangi usul”ni tatbiq qilish va rivojlantirishga intilgan. Bu yo‘lda ular imkoniyatida mavjud jamiki resurslar iste’dodlari, shaxsiy mablag‘lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma’rifat uylari va hokazodan to‘liq foydalandilar, hatto aziz umrlarini ham fido qilishdi. Avval chor hukumati, keyin sho‘rolar davlati, ichki qora kuchlar – qadimchi va johil ulamolar tomonidan ko‘rsatilgan zulm-zo‘ravonliklar, tazyiqlar, quvg‘inlar, suiqasdlarga qaramay, jadid ma`rifatparvarlari o‘zlari tanlagan yo‘ldan qaytmadilar.

Shu o‘rinda atoqli ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri Ibrat domla shahar va qishloqlarda ta’lim, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat baravar rivojlansagina millat najot topishi mumkinligi haqida kuyinib yozadi. Shu bois u ushbu maskanlarda madaniyat o‘choqlari, ta’lim muassasalari, turli maishiy inshootlar barpo etilishini orzu qilgan. Ibratning yangi maktablar ochish, o‘qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma’rifatli qilish ishlarida faol qatnashganini, o‘z she’rlarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etganini, xalqning ilmli, ma’rifatli bo‘lishi yo‘lida amalga oshirgan ishlarini esga olish kifoya. Mutaassiblik va ilmsizlik hukm surgan davr muhitida yoshlarni ilmga, ma`rifatga chorlash uchun kishida millat uchun uradigan katta yurak bilan birga, vatanparvarlik, fidoyilik kabi xislatlar, fazilatlar bo‘lishi lozim edi. Shu sabab ham hech ikkilanmay aytish mumkinki, Ibrat domla singari ziyolilarimizning o‘sha davrda el-yurt taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona xizmatlari chinakam ma’naviy jasorat edi. Shu o`rinda, bugungi imkoniyatlar, ilm-ma’rifatga xayrixoh davlat jadidlar zamonida bo‘lganida edi, Uchinchi Renessansga allaqachon erishilgan bo‘lardi.

Hozirgi kunda yoshlarning o‘qishi, ishlashi va munosib hayot kechirishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Bundan yuz yil avval Ibrat domla orzu qilgan kunlar yetib keldi. Xo‘sh, bugungi yoshlar jadid ziyolilariga haqiqiy izdosh bo‘la olishmoqdami? O‘qishda, hayotda ulardek bo‘lishga harakat qilishmoqdami? Bugun bir paytlar jadid ma`rifatparvarlarimiz orzu qilganidan ham a`lo darajada sharoit va imkoniyatlar yaratilgan, lekin ayrim yoshlar buning qadriga yetmasdan, qimmatli vaqtini behuda o`tkazayotganini ta`kidlash mumkin. Ma’lumki, yoshlarni ta`lim-tarbiyasi eng avvalo oila muhitida shakllanadi. Bugun oilada qanaqa muhit hukmronlik qilayotgan bo‘lsa, ertaga shu oilada tarbiyalanayotgan farzand bevosita ana shu muhitning davomchisi sifatida ulg‘ayadi. Shu ma’noda oilani haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i, mafkuraviy tarbiya omili va muhiti deb e’tirof etish mumkin. Bu jarayon ota-bobolar o‘giti, ona mehri orqali amalga oshadi.

Bugun internet, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yashab kelayotgan yosh avlod ongi jadid ma`rifatparvarlari g‘oyalari bilan emas, balki, turli axborot xurujlari ta’sirida qolmoqda. Mutaxassislar ma’lumotiga ko‘ra, internet orqali tarqalayotgan kompyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foizi jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o‘yinlarda esa qahramon o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik, yovuzlikni sodir etadi. O‘yinlarning 17 foizida ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli

[1] Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir. - // Xalq so`zi, 2023 yil 22 dekabr.
[2] https://zarnews.uz/uz/post/behbudiy-deydilar-dunyoda-turmoq-uchun-dunyoviy-fan-va-ilm-lozimdur

jangovar, mentalitetimizga mos bo‘lmagan o‘yinlar yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir qarashda ular oddiy o‘yindek ko‘ringani bilan yoshlarda zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi va juda ko‘p salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan ogox bo`lishmiz lozim.

Yoshlar ongiga kuchli ta’sir etuvchi axborotlar, yot g‘oyalar, jumladan, diniy ekstremizm, terrorizm, millatchilik, irqchilik, sadizmni G‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odat va ko‘nikmalarni targ‘ib etadigan, G‘arb yoshlarining kiyinishi, xulqini targ‘ib qiluvchi filmlar, musiqalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida keltirilgan g‘oyalardan yoshlarni asrash bo‘yicha amalga oshirish lozim bo‘lgani eng asosiy ishlardan biri, bu milliy ruxdagi axborotlarni ko`paytirish, axborot istemoli madaniyatini rivojlantirish lozim. Yosh avlod ongini bolaligidan boshlab to‘g‘ri shakllantirish ularni jaddid ma`rifatparvarlari merosi bilan tarbiyalash, qolaversa ularga ko‘proq tarixni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha turli tanlovlar, intellektual tadbirlar, sport musobaqalarini sonini ko‘paytirish ham muhim samara beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yoshlarning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xaqida o‘ylab, bugungi globallashuv davrida yosh barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalash samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq bo`ladi:

1. Yoshlarga oid faoliyat bilan shug‘ullanadigan davlat va nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to‘la foydalanish.

2. Yoshlar faoliyati bilan bog‘liq ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish va bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, mahallalarda yoshlarga ibrat bo‘ladigan urf-odat, an'analarni keng targ‘ib etish maqsadida televideniye, radio, ommaviy axborot vositalari orqali muntazam chiqishlar qilish, tadbirlar tashkil etish.

3. Yoshlar turmush tarzi, ruhiyati va qiziqishlarini davomli o‘rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish va ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish.

4. Yoshlar ishtirokida “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi kinofilmlar, multfilmlar, videoroliklar, qo‘shiqlar, rasmlarni tarbiyaviy ahamiyatini tanqidiy tahlil etish va yoshlarda mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish.

5. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun shart-sharoit yaratish, foydali mashg‘ulotlarga, turli ilmiy, madaniy-ma`naviy, sport to‘garaklariga keng jalb qilish.

6. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya, ma'naviyatsizlik, ommaviy madaniyat tahdidilaridan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lim muassasalarida doimiy ravishda yoshlar o‘rtasida terrorizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik kabi salbiy holatlarning havfini davra suhbatlari va uchrashuvlarda muntazam tushintirib borish.

7. Ota-onalarning barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik – pedagogik va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar, seminar – treninglarni mahalla, ta'lim muasasalari hamkorligida o‘tkazish hamda kerakli maslahatlar berish.

8. Sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun oilada bolalikdan boshlab ekologik tarbiyani shakllantirish, ularda atrof-muhit, ekologiyaga ongli munosobatni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida doimiy o‘tkazish, bola tarbiyasi namunali yo‘lga qo‘yilgan oilalar tajribasini o‘rganish hamda ommalashtirish lozim.

Xulosa qilinsa, bugungi global o‘zgarishlar davrida oila, mahalla va ta’lim muassasalari birlashgan holda ta`lim-tarbiya tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bilimli, jismonan sog‘lom, ma`naviyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda asosiy bunyodkor kuchdir. Ushbu bunyodkor kuch bo‘lgan yoshlarni ta`lim-tarbiya tizimi orqali rivojlantirib boorish uzluksiz jarayon bo‘lib, Yangi O`zbekistonda najot faqat ta`limda va ilmda ekanligini ko‘rsatmoqda.

JADIDLARNING ESTETIK MEROSI: GO‘ZALLIK VA MA’RIFAT UYG‘UNLIGI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna,
Alfraganus universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi
professor v.b., f.f.d.(DSc).
shaxnozaxon058@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola, jadidlar harakati va uning estetik qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, Fitrat va Béhbudiyning asarlaridagi go‘zallik, ma’rifat, adolat va madaniyat tushunchalari tahlil qilinadi. Jadidlarning san’at va adabiyotdagi estetik g‘oyalari jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish, xalqni ma’rifatga chaqirish va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, go‘zallik, ma’rifat, adolat, tragediya, san’at, adabiyot, ma’rifatparvarlik.

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ДЖАДИДОВ: ГАРМОНИЯ КРАСОТЫ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Аннотатsiя. Данная статья посвящена исследованию джадидистского движения и его эстетических взглядов, в частности, анализируются понятия красоты, просвещения, справедливости и культуры в произведениях Фитрата и Бехбудия. Эстетические идеи джадидов в искусстве и литературе направлены на развитие общества, призыв к просвещению народа и развитие моральных ценностей.

Ключевые слова: Джадиды, красота, просвещение, справедливость, трагедия, искусство, литература, просветительские идеи.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan taraqqiyparvarlik oqimi bo‘lib, u ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, jamiyatni modernizatsiya qilish va madaniy uyg‘onishga erishishni maqsad qilgan edi. Jadidlarning estetik qarashlari ularning ma’rifatparvarlik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, san’at, adabiyot va go‘zallikni inson tafakkuri va axloqiy kamoloti bilan uyg‘un holda ko‘rishga asoslangan edi. Jadidlar uchun go‘zallik nafaqat tashqi bezak yoki san’at asarlaridagi yuksak estetik me’yorlar, balki ichki ma’naviy go‘zallik, axloqiy poklik va ilm-ma’rifat bilan bog‘liq jarayon edi. Ularning fikricha, haqiqiy go‘zallik bilim va ma’rifat bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, insonning ruhiy yetukligiga xizmat qilishi lozim edi. Masalan, jadid adabiyoti va matbuoti orqali tarqatilgan g‘oyalarda ilmiy tafakkur va go‘zallik o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida urg‘u berilgan.

Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida nafaqat didaktik va ma’rifiy g‘oyalarni ilgari surgan, balki badiiy ifodaning estetik jihatlariga ham katta e’tibor qaratgan. Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi jadid adabiyotchilari o‘z asarlarida estetik go‘zallikni ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Masalan, Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida nafaqat tarixiy voqealar, balki qahramonlarning axloqiy va estetik kamoloti ham yoritiladi.

Jadidlarning asarlarida go‘zallik tushunchasiga ko‘p bora e’tibor qaratiladi. Fitrat va Behbudiyning asarlari, ayniqsa, ularning dramalarida yaratilgan estetik qiyofalar va obrazlar nafaqat go‘zallik va xunuklik, balki ma’naviy yuksaklik va ruhiy qashshoqlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ham ifodalaydi. Ularning ijodida go‘zallik nafaqat tashqi latofat, balki ma’rifat, ezgulik va yuksak tafakkur timsoli sifatida tasvirlansa, xunuklik esa johillik, adolatsizlik va ruhiy tubanlikning ramzi sifatida aks etiriladi. Ulug‘vorlik va tubanlik to‘qnashuvi orqali yozuvchilar jamiyat taraqqiyoti uchun ma’rifat va madaniyatning naqadar muhimligini namoyon qiladilar. Ular yaratgan obrazlar estetik qiymatga ega bo‘lib, faqat badiiy yoki sahnaviy ko‘rinishda emas, balki inson ruhiyati va jamiyat tafakkurini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Go‘zallik nafaqat tabiatning tuhfasi, balki inson qalbi va ongining ifodasi hamdir. Inson nafosatni anglagan sari, u nafaqat tashqi muhitda, balki ruhiy olamida ham go‘zallikni yaratadi. Har bir mavjudot, har bir manzara, har bir so‘z va harakat o‘z ma‘nosiga ega. Go‘zallik bu hadya qilingan hikmat bo‘lib, uni anglash va his qilish qalbdagi nafislikning belgisidir.

Fitrat shunday yozadi: “Uchmoq ko‘rinishli bir bog‘cha. Bog‘chaning eng ko‘rkamli yerida o‘rindiq qo‘yilgan... Oysha bog‘chadagi gullarning eng go‘zalini uyaltirur bir suvratda o‘tiribdi. Tuva tusli sochlari, topinmoq uchun otashkada tegrasinda to‘plangan hindilar kabi bo‘ynining har yonida

sochilgan bir-ikki halqasi, manglayina to‘g‘ri uzanib, sol qoshig‘acha kelganda, hurmatsizlikning buni ortiq ko‘rib, yana qayrilgan. Gul yaprog‘ina go‘zal sabo‘gi bergan qip-qizil ipak ko‘ylaki tong elining upishlarindan usanqani uchun titrab turgan. Yangi ochilgan bu tangri guli qo‘lindagi kichkina kitobning mutolaasiga berilgan...” [1.24-b]. Bu holat shuni anglatadiki, inson nafaqat moddiy borliqda, balki ma’naviy olamda ham yashaydi. U go‘zallikni nafaqat ko‘radi, balki his qiladi. Uning qalbida hikmat va ma’rifat bo‘lsa, tabiat va inson o‘rtasidagi aloqalar yanayam chuqurlashadi. Insonning qalbi va ongi nafosatni anglagan sari, u o‘z ruhiyatini boyitadi, dunyoga boshqacha, yuksak ma’noda nazar tashlay boshlaydi. Chunki go‘zallik – bu faqat ko‘rish emas, uni his qilish va anglashdir.

Inson ruhiyati har doim yuksalishga intiladi. U nafaqat moddiy, balki ma’naviy ravishda ham balandlikka ko‘tarilishni istaydi. Zero, ruhiy yuksalish insonga o‘z mohiyatini, haqiqat va go‘zallikni anglash imkonini beradi. Yuksaklik faqat fazoda emas, inson qalbining ezgulikka va nurga intilgan nuqtasida mavjuddir. Zulmatning barham etilishi uchun bir nur kifoya qilgandek, jamiyatning taraqqiyoti uchun bir yuksak qalbning borligi ham muhimdir.

“Go‘zalim, ket. Sen malaksen... tubanlarda yurma... Sen quyoshsen... bizga yorug‘ing yetarlikdir... Uch... Uch... Go‘zallar hokimi... Go‘zallik tangrisi... Uch... Yuksal... Sen quyosh – sen!.. Qancha yuksalsang, erni shuncha yoritg‘an bo‘lsan” [2.32-b.] Yuksalish yo‘li mag‘urlik emas, balki ma’rifat va mehr-muhabbat yo‘li-dir. Har bir inson yuksalgan sari, u faqat o‘zini emas, balki o‘z atrofini ham yoritar ekan, o‘zining ma'naviy nuridan boshqalarga ulush beradi. Chunonchi, quyosh faqat o‘zi uchun yorishmaydi, balki butun koinotni nur bilan bahramand qiladi. Demak, inson ham o‘z ma’rifatini oshirgan sari, jamiyat uchun manfaatli shaxsga aylanadi. Go‘zallik va yuksaklik – insonning ichkaridagi nurining tashqi ifodasi bo‘lib, u faqat yuksalish bilan namoyon bo‘ladi.

Fitrat o‘z asarlarida go‘zallik va yaxshilikni sevish haqida ham aytib o‘tgan. Bu so‘zlar yurt va millatga bo‘lgan muhabbatning asl mohiyatini anglatadi. Odamzod o‘z Vataniga bo‘lgan mehri uni o‘zgartirish bilan emas, balki uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, ilm-ma’rifatga bo‘lgan intilishi, insoniy fazilatlari va tarixiy yutuqlari orqali ifoda etadi. Haqiqiy mehr yurtning ruhiy boyligini anglash va uning taraqqiyoti uchun jonini fido etishga tayyor bo‘lish bilan o‘lchanadi. Jumladan, “Rahimbahsh. Bola... Shuni bilib qo‘y. Yurtingni sevganlar uning tosh-tuproqlarini emas, go‘zallik, yaxshiliklarini sevarlar. Ulus yo‘linda jon berganlar uning soqoli, choponi uchun emas, ortiqligi, fazilati, tarixi uchun o‘larlar. Menim yurt, ulusimning yaxshilik, ortiqlik ham fazilatlarining biri, birinchisi sen erursan. Ularni sevganim seni sevganimdir” [3.44-b.] Bu jumlalar inson va jamiyat o‘rtasidagi chuqur ma’naviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Yurt va millat faqat jismoniy hudud emas, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning mujassamidir. Shuning uchun ham, Vatanga muhabbat uning taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi va insoniyatga baxsh etgan boyliklari uchun mas’uliyat hissi bilan bog‘liqdir. Hayotimiz mazmuni ana shu yuksak qadriyatlarni anglash va ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishda namoyon bo‘ladi.

Jadidlar o‘zlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini san’at va teatr orqali, musiqa ta’sirida ham targ‘ib qilganini ko‘rish mumkin.[5.] Ular xalq orasida sahna san’ati, musiqa va tasviriy san’atni rivojlantirish orqali ma’rifat va madaniyatni keng yoyish mumkinligini tushunganlar. Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi yoki Behbudiy tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek ma’rifatparvarlik harakatining yirik vakilaridan biri bo‘lib, uning dramatik asarlari orqali ma’rifat g‘oyalari keng yoyilgan. Uning spektakllari faqat san’at asari emas, balki jamiyatni uyg‘otish, ilm va madaniyatga chorlash, aqidalarni yangilash vositasi ham edi.

Behbudiyning dramatik asarlarida ma’rifat va jaholat to‘qnashuvi markaziy mavzu sifatida aks ettiriladi. U o‘z asarlarida jamiyatdagi illatlarni ya’ni, savodsizlik, ayollarning huquqsizligi, an’anaviy fikrlash tarzidagi to‘siqlar, g‘oyaviy toqatsizlikni keskin tanqid qiladi. Uning qahramonlari eski dunyo va yangi fikrlar o‘rtasida murakkab izlanish va ichki kurashni o‘z boshidan kechirishadi.

“Padarkush” dramasi Behbudiyning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, unda jaholatning inson taqdiriga qanday salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Unda ma’rifat va bilim inson hayotini yaxshilaydigan kuch ekanligi ta’kidlanib, yosh avlodning tarbiya va dunyoqarashi muhim masala sifatida ko‘tariladi. Shuningdek, Behbudiy spektakllari orqali xalqni bilim va ma’rifatga chorlab, ijtimoiy ongni shaklantirishga hissa qo‘shgan. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki bilim, ma’rifat va tafakkur erkinligi har qanday jamiyat taraqqiyotining garovidir.

Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi tarixiy asar bo‘lishi bilan birga, chuqur falsafiy va ijtimoiy ma’no kasb etgan. Ushbu asar orqali muallif xalq va hukmdor o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, davlat boshqaruvidagi muhim tamoyillarni va ijtimoiy adolat masalasini o‘rtaga tashlaydi.

Asarda Abulfayzxon shaxsiy kechinmalari, qarorlaridagi noaniqlik va atrofidagi ziddiyatli voqealar orqali hukmdorlarning javobgarligi haqida o‘ylashga undaydi. Fitrat ushbu tragediya orqali xalqni ongli va faol bo‘lishga, o‘z taqdiri uchun kurashishga chaqiradi. Zolim va ojiz hukmdorlar ham, ularga bo‘yin egib yashayotgan omma ham davlatning qulashiga sababchi bo‘lishi mumkinligi aytib o‘tiladi.

Tragediya faqat tarixiy voqealarni hikoya qilish bilan chekanlanmay, balki har qanday jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan muammolarni ko‘taradi. Fitrat mazkur asari orqali xalqga hushyorlik va tafakkur zarurligini uqtiradi. Har qanday davlat va jamiyatning barqarorligi faqatgina hukmdor qo‘lida emas, balki xalqning ongli va faolligi bilan ham bog‘liqligini ifodalaydi. Shu bois, “Abulfayzxon” tragediyasi o‘z davrida ham, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ibratli asar hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, birinchidan, Fitrat va Behbudiy ijodi orqali xalqni ma’rifatga chorlash, jamiyatdagi adolatsizlik va jaholatni fosh etish, inson ongi va ruhiyatining yuksalishini targ‘ib etish asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning asarlarida go‘zallik va xunuklik, ma’rifat va jaholat, ulug‘vorlik va tubanlik o‘rtasidagi ziddiyatlar orqali hayot haqiqati aks ettirilgan. Ikkinchidan, Behbudiyning spektakllarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari, bilimsizlik va qadriyatlar inqiroziga qarshi kurash asosiy mavzular sifatida o‘rin olgan. Uning dramalarida jamoiyat taraqqiyotining kaliti ilm va tafakkur ekanligi ta’kidlanadi. Uchinchidan, Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi esa davlat va jamiyat munosabatlari, hokimiyat mas’uliyati, xalqning o‘z taqdiriiga bo‘lgan ta’siri haqidagi muhim fikrlarni ilgari suradi. Uning asari faqat tarixiy voqealarni yoritish bilan cheklanmay, balki jamiyatning har bir qatlamiga dolzarb xulosalar beradi.

Ushbu asarlar nafaqat badiiy yoki sahnaviy ahamiyatga ega, balki jamiyat ongini uyghotish, insonlarni tafakkur va ma’rifat sari yo‘naltirish vazifasini bajaradi. Ular bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ma’rifat va adolat yo‘lidagi tafakkur charog‘i bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning estetik qarashlari go‘zallikni faqat tashqi bezak emas, balki insonning ichki ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq holda ko‘rish tamoyiliga asoslangan edi. Ularning fikricha, san’at, adabiyot va ta’lim estetik mukammallik va ilm-ma’rifat orqali jamiyatni yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Bugungi kunda jadidlarning estetik g‘oyalari milliy san’at va madaniyatimizda o‘z aksini topmoqda va hali-hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент. Маънавият, 2006. – 336 б. (Истиқлол қаҳрамонлари)

2.Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент. Маънавият, 2000. – 208 б. (Истиқлол қаҳрамонлари)

3.Эгамкулова Н.Б. XX аср адабий жараёни муаммолари (1906-1917 йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида). Филол.ф.б.фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент. 2021.

4.Маҳмудова Г. Жадидизм ва Туркистонда ахлоқий-эстетик фикр тараққиёти //Тошкент, Давр Пресс Нашриёти. – 2006.

5.Tursunkulova, Sh. T. (2021). ESTETIK PARADIGMADA SAN’AT HAQIDAGI BILIMLARNING RIVOJLANISHI.

JADIDLARNING AYOLLAR TA'LIMI BORASIDAGI QARASHLARI

Xusnullayeva Ma’muraxon Faxraddin qizi,
Ma’mun-Universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
Fakulteti, “Tarix” yo‘nalishi talabasi.
+998942598106
E-mail: mamuraxusnullayeva@mail.ru

Annotatsiyasi: Ushbu maqolada jadidlar harakatining ayollar ta’limi borasidagi qarashlari tahlil qilinadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidlar ayollarning savodxonligini oshirish va ularga zamonaviy ta’lim berish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini ilgari surdilar. Ular yangi usul maktablarini ochish, maxsus darsliklar yaratish va matbuot orqali ayollarni ilm-ma’rifatga jalb etish yo‘lida harakat qildilar. Maqolada davlatimizda ayollarga qaratilgan e'tibor, Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyevning xotin-qizlarimizni sog‘ligini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda ish o‘rni bilan ta'minlash va xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha bildirgan fikrlari to‘g‘risida ma'lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, Turkiston, ayollar, ta’lim, mustaqillik, jamiyat, Chor Rossiyasi, zamonaviy ta’lim.

Аннотатsiя: В этой статье анализируются взгляды движения джадидов на женское образование. В конце девятнадцатого и начале двадцатого веков джадиды утверждали, что повышение грамотности женщин и предоставление им современного образования было важным фактором развития общества. Они работали над открытием новых методических школ, созданием специальных учебников и привлечением женщин к научному просвещению через прессу. В статье рассказывается о внимании к женщинам в нашем государстве, о мнениях президента Шавката Мирзиеева по охране здоровья наших женщин, обеспечению рабочих мест с учетом условий жизни женщин и повышению роли и престижа женщин в нашей социально-политической жизни.

Ключевые слова: Джадид, Туркестан, женщины, образование, независимость, общество, царская Россия, современное образование.

Annotation: This article analyzes the Jadid movement's views on women's education. In the late XIX th and early XX th centuries, the jadids advanced that increasing the literacy of women and providing them with modern education was an important factor for the development of society. They worked towards opening new method schools, creating special textbooks, and engaging women in science through the press. The article provides information about the focus on women in our state, the opinions expressed by President Shavkat Mirziyoyev on protecting the health of our women, providing jobs taking into account the living conditions of women and increasing the role and prestige of women in our socio-political life.

Keywords: Jadid, Turkestan, women, education, independence, society, Tsarist Russia, modern education.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, mutafakkirlar qatorida, shunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug‘vor ishlarga ruhlantirgan fozila, olima va oqila ayollar ham ko‘p bo‘lgan, Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, jamiyatimizning turli sohalarida mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqdalar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlab, tadbirkorlarni rag‘batlantirish ular uchun oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singilarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimiga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim. Bu o‘z navbatida “Ayollarga ilm berish–jamiyatning ilmli ma’rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi[1].

Hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarning o‘rni, ularning jamiyat hayotida nufuzini har tomonlama oshirish, ularning ta’lim olishi, ularni ish bilan ta’minlash, ularning mavqeini oshirish masalasida samarali ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida xotin-qizlar masalasiga to‘xtalar ekan, shunday fikrlarni bildiradilar: “Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy- siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz deb bilamiz” [2]. Bu fikrlar xotin-qizlar nufuzini, mavqeini har tomonlama tiklash dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bundan qariyb bir asr muqaddam Turkiston o‘lkasida taraqqiyparvar jadidlar jamiyat hayotida ko‘plab masalalar singari xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini ko‘tarish, ularning ta’lim olishi, huquqlari, umuman jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan qarash va munosabatni o‘zgartirish, avvalo ularni bilimli qilib tarbiyalash masalasida oldingi qatorda turib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo‘ldilar. Demak, hozirgi davrda xotin-qizlarning jamiyat hayotida o‘rni masalasi qanday muhim ahamiyat kasb etsa, XIX asr oxiri – XX asr boshida ham o‘z dolzarbligi bilan ajralib turgan. Mazkur vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish, jadidlarimiz qarashlarini ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunda ham dolzarb vazifalardandir.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ona yurtimiz tarixini yoritishda, shuningdek mustamlaka Turkiston sharoitida milliy ma’rifatparvarlikning ahvoli, jadidlar faoliyatida ta’lim, ayollar ta’limi,

matbuot masalalarini baholashda tub burilish yasadi. Turkistonda jadidchilik harakati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. Mahalliy ziyolilar, xotin-qiz islohotchilar Chor Rossiyasining musulmon hududlarida ayollarning haqiqiy emansipatsiyasiga uchta yo‘l bilan erishish mumkinligiga qat’iy ishonishgan. Ya’ni o‘sha davrdagi zamonaviy maktablarda erkaklar va ayollarning ta’limini bosqichma-bosqich takomillashtirish orqali (jadid maktablari misolida), Chor Rossiyasi Buxoro va Xiva hududlarida (1883-1917 yillarda) musulmonlar uchun soni va tarqalishi ortib borayotgan taraqqiyparvar gazeta va jurnallar orqali islohotchilik g‘oyalarini musulmon xalqlari o‘rtasida targ‘ib qilishni maqsad qilishdi. Turkistonda ayollarning zamonaviy ta’lim va ma’rifatparvarlikning ildizlari XIX asrning ikkinchi yarmida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini modernizatsiya qilish harakati boshlanishi bilan bog‘liq. Dastlab Turkiston xalqlari o‘rtasidagi islohotchilik harakati, bir tomondan, ularning Chor Rossiyasi hukmronligiga qarshiligi, ikkinchi tomondan, Usmonlilar imperiyasidagi islohotchilik harakatlari bilan tanishish bilan bog‘liq edi. Lekin jadidchilik harakati dastlab Volgabo‘yi, O`ralbo‘yi (Qozon, Ufa), Qrim va Ozarbayjonda boshlanib, keyinchalik dasht viloyatlari va Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlariga tarqaldi. Jadichilik harakati matbuot va maorif orqali rivojlandi. Matbuot ta’siri nuqtai nazaridan, 1883-1918 yillarda Qrim tatar va rus tillarida ikki tilda nashr etilgan “Tercüman/Perevodchik” (Tarjumon) gazetasi sovet davrigacha Turkistonda mahalliy matbuotning rivojlanishida eng muhim rol o‘ynadi. Qrim tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy ham 1906 yilda birinchi ayollar jurnali “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi)ni tashkil qiladi va qizi Shefika Xonimni unga muharrir etib belgilaydi. Idaparastlikka singdirilgan deb gumon qilganlar. Jadid ziyolilari, ayniqsa, o‘zlarining nutqlarida va faoliyatida musulmon ayollarni ozod qilishga e’tibor qaratdilar, chunki ular gender tengligi va ozodliksiz ularning yangilanish harakati muvaffaqiyatli bo‘lmasligini tushunishadi. Bu harakat 1913 yilda Ozarbayjonning Boku shahrida istiqlolchilarning quyidagi maqolasi mahalliy jurnallardan birida o‘z aksini topgan: “Kimki o‘z xalqini sevsa va uning kelajagi buyuk bo‘lishini istasa, o‘z ayollarining ma’rifati va tarbiyasi haqida o‘ylashi, ozodlik va mustaqillikni tiklashi kerak. Ularning aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratishi kerak” deb yozadi. Ma’rifatparning bu chaqirig‘i 1913 yilda Qrimdagi “Tercüman/Perevodchik” (Tarjumon) gazetasida Hariye Hanim Machabilining muharrirga yo‘llagan maktubida yanada ochiqroq o‘z aksini topgan: “Bizning huquqlarimiz Qur’onda va payg‘ambarning so‘zlarida aniq belgilab berilgan. Lekin sizlar (erkaklar), din nomidan bizga zulm qilyapsizlar, shariat (islom qonuni) nomi bilan bizni halok qilyapsizlar. Buning uchun kim azob chekadi va yutqazadi? Yana siz (erkaklar) bo‘lasiz”[3].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan va o‘zining adolatparvarlik g‘oyalari bilan mashur bo‘lgan Anbar otin o‘z ijodida ayollarning ahvoli, yashash sharoiti, oila va jamiyatdagi o‘rnini aks ettirishga harakat qiladi. Chunki o‘rganilayotgan davr manbalarida yozilishicha, “... bizda xotin-qizlar masalasi eng ayanchli masaladir. Xatto mashrug‘ bo‘lgan hurriyat va maorif hali bular orasig‘a kira olmasdan turadir, kirsa ham tor doiraginadur. Bunga sabab umuman musulmon dunyosini necha asrlar bo‘yicha o‘rab olgan hurofot va diniyotga taassubdir, nodonlikdur, ongsizlikdur”. A.Fitrat ham o‘zining “Munozara” asarida bu haqda fikr yuritib, aksariyat mudarrislarning Turkiston ayollari tahsil olishi “behuda va ayollarning yaratilishidagi hikmat tavolud va tanosul (tug‘ish va nasl qoldirish)dir” degan fikriga farangining unga qarshi fikr mulohazalarini keltiradi.

A.Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kelrakligini zarur deb biladi. Turkiston jadidlari ma’rifiy qarashlarida yangi usul maktablari ochish, yoshlarga qisman diniy va dunyoviy bilimlar berish bilan cheklanmadilar. Bu yo‘lda jadidlar xotin-qizlar masalasiga alohida e’tibor berib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng bo‘ishlari kerakligini ta’kidlaganlar [4].

Jadid ziyolilarining ijtimoiiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy qarashlarida ta’lim jarayoniga, ayollar ta’limiga alohida e’tibor berganliklari jadidchilik harakatining Turkistonni ravnaq ettirish yo‘lidagi, xalq ta’limi va pedagogikasini rivojlantirishdagi intilishlarini yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu qarashlar jadid ziyolilarining quyidagi g‘oyalarining hayotga tadbiq etilishi bilan namoyon bo‘ldi:

-oilada ayollarning o‘rnini belgilsh orqali ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish;

-xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini;

-ma’rifatli oilaning yosh avlodni ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatish va hokazo.

Turkiston jadidlari ma’rifiy qarashlarida yangi usul maktablari ochish, yoshlarga qisman diniy va dunyoviy bilimlar berish bilan cheklanmadilar. Bu yulda jadidlar xotin-qizlar masalasiga alohida e’tibor

berib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotinqizlar ham erkaklar qatorida teng bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaganlar [5].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg‘onish va milliy ong yuksalishida katta ro‘l o‘ynagan. Jadidchilik g‘oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo‘jayev, So‘fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g‘oyat og‘ir sharoitlarda targ‘ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Bugunda ma‘rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma‘naviyat va ma‘rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma‘rifatchijadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma‘naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: «O‘zbekiston» 2021.

2.Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –«O‘zbekiston». 2016.

3.Lazzerini Edward 1973 «Ismail Bey Gaspirinski and Muslim Modernim in Russian» University of Washington.

4.Sevara Yo‘ldashavo. «Jadidlar faoliyatida ayollarni savodli qilish masalasi» – Central Asian journal of academic Research. 2024.

5.Nazarov Alisher. «Turkiston maktablarining tashkil etilishi jadidchilik harakati, xotin-qizlar ta'limi ahamiyati (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Education innovative research. 2022.

АБДУЛЛА АВЛОНИЙНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТАЛҚИНИ

Пулатова Дилдор Акмаловна,
фалсафа фанлари номзоди, профессор,
Альфраганус университети.
falsafa2009@gmail.com

Аннотатsiя. Ушбу мақолада маърифатпарвар адиб Абдулла Авлонийнинг маънавий меросида ахлоқий қадриятлар талқини илмий асосда таҳлил қилинган. Адиб асарларидаги умуминсоний қадриятлар – ватанпарварлик, меҳр-оқибат, одоб-ахлоқ, меҳнатсеварлик ва маърифатга интилиш каби ғояларнинг мазмун-моҳияти ёритилган. Авлонийнинг **“Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”,** “Тарбия исломия” ва “Тарбия жисмония” каби асарлари асосий манба бўлиб хизмат қилди.

Калит сўзлар: Абдулла Авлоний, ахлоқ, маърифат, ватанпарварлик, тарбия, умуминсоний қадриятлар.

Бугунги глобаллашув жараёнларида жамиятнинг маънавий-ахлоқий асосларини мустаҳкамлаш масаласи барча давлатлар, хусусан, миллий тараққиётни маънавият билан уйғунлаштиришга интилаётган мамлакатлар учун устувор вазифага айланган. Янгиланиш йўлидан бораётган Ўзбекистон учун ҳам бу йўналишда маънавий мерос, маърифатпарварлик анъаналари ва миллий қадриятларнинг фалсафий таҳлили айни пайтда долзарб аҳамият касб этмоқда.

Ушбу жараёнда жадид маърифатпарварларимиз, хусусан, Абдулла Авлоний каби улуғ зотларнинг асарлари ва фаолияти халқимиз маънавий тарбиясини шакллантиришда муҳим маънавий манба бўлиб хизмат қилмоқда. Абдулла Авлоний (1878–1934) фақатгина адабиёт ва педагогика соҳасида эмас, балки миллий ўзлик, ахлоқ ва маънавиятни тиклаш йўлидаги мустаҳкам позицияси билан ҳам юксак мавқега эгадир. Унинг: “Миллатни тарбия қилиш – унинг келажагини яратиш демакдир” (2, 8) деган фикри бугунги кунда ҳам ўз илмий-амалий аҳамиятини йўқотмаган. Абдулла Авлонийнинг асарлари таҳлил қилинганда, ундаги ахлоқий қадриятлар нафақат ўз даври, балки бугунги глобал ахлоқий инқироз шароитида ҳам ўта долзарб аҳамиятга эга эканлиги намоён бўлади. XXI асрда ахлоқ ва маънавиятнинг заифлашуви, ёшлар онгида индивидуализм ва маънавий бўшлиқ каби муаммолар авж олаётган бир пайтда, Авлонийнинг фикрлари ва ғоялари миллий тарбия концепциясини шакллантиришда қимматли илмий ва амалий манба вазифасини бажаради.

Абдулла Авлоний – XX аср бошларидаги ўзбек маърифатпарварлик ҳаракатининг намоянандаларидан бири сифатида, миллат маънавияти ва ахлоқий камолотини юксалтиришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган. Унинг ахлоқий қадриятлар мавзусидаги ёрқин фикрлари **“Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”,** “Тарбия исломия”, “Тарбия жисмония” каби асарларида ўз аксини топган. Адибнинг “Тарбия исломия” асарида “одобсиз миллат – келажаксиз миллат” деган сатрлар орқали ахлоқнинг жамиятдаги аҳамияти алоҳида таъкидланган. Авлоний ахлоқни фақат шахсий фазилат эмас, балки миллий тафаккурнинг асосий устуни сифатида кўради. У ёзади: “Бир миллатнинг инсоний қиёфаси унинг ахлоқида намоён бўлади” (2, 12). Бу фикр шуни кўрсатадики, миллатнинг маданият ва цивилизatsiя даражаси унинг ахлоқий нормалари орқали баҳоланади.

Абдулла Авлонийнинг машҳур асарларидан бири – **“Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”** китобида ҳам ахлоқий қадриятлар тўғрисидаги ғоялар катта ўрин тутади. Бу асар XX аср бошларида ўзбек ёшларини ахлоқ, маданият ва маърифатга даъват қилишга қаратилган.

Адиб фикрича, инсоннинг камолоти биринчи навбатда унинг ахлоқий одобларига боғлиқ. У таъкидлайдики: “Одоб – инсонни инсон қилувчи улкан қадриятдир. У бўлмаса, илм ҳам, бойлик ҳам инсонни комил қилолмайди” (2, 24). Ушбу фикр миллий ахлоқий тарбиянинг негизидир. Бугунги кунда айрим ёшларнинг интернет муҳитидаги ноўрин хатти-ҳаракатлари, катталарга ҳурматсизлик, лоқайдлик, худбинлик ҳолатлари айнан ушбу қадриятнинг сусайганидан далолат беради.

Абдулла Авлонийнинг таълимотида инсонпарварлик марказий ўринни эгаллайди. У шундай ёзади: “Меҳрибонлик бола қалбида инсонлик уруғини экади” (2, 31). Жамиятдаги зўравонлик, бепарволик ва руҳий беқарорликнинг олдини олишда айнан меҳр-оқибат тарбияси муҳим аҳамиятга эга. Унинг фикрича: *“Инсон ўз қардошига меҳрибон бўлмаса, у тўлақонли одам саналмайди. Меҳр – инсонни одам қиладиган асосий туйғудир” (*1,26). Айнан меҳр-оқибат туйғуси – инсонлар ўртасидаги муносабатни ислоҳ қилиш ва жамиятда бирдамликни шакллантириш воситасидир.

Авлоний учун ахлоқнинг амалий кўриниши унинг жамиятдаги муносабатлар, оиладаги тарбия, муаллим ва шогирд муносабати, давлат ва фуқаро орасидаги ишонч орқали намоён бўлади. У таъкидлайди: “Ахлоқ тўғри сўзда, тўғри ишда ва тўғри ниятда зоҳир бўлади” (3, 29). Бу фикр “ахлоқ – фаол хатти-ҳаракат мезони” эканлигини англатади ва бугунги давлат хизматчилари, ўқитувчилар, раҳбарлар ва умуман фуқаролик жамияти учун муҳим даъватдир.

Шу билан бирга, жамиятнинг маънавий юксалиши илм билан чамбарчас боғлиқ. Унинг фикрича: “Жаҳолат кишини ҳайвон даражасига туширади, илм эса уни фаришталар сафига қўшади” (2,37). Бу фикр орқали у ёшлар онгида илмга муҳаббатни шакллантириш, ўқишга, изланишга бўлган қизиқишларини уйғотиш зарурлигини таъкидлайди.

Маълумки, бугунги кунда таълим тизимида ахлоқий тарбия масаласи муҳокама марказида турибди. Зеро, фақат академик билимларни сингдириш билан инсон камол топмайди. Авлонийнинг таълим фалсафасида “илм-ахлоқ уйғунлиги” ғояси бош мезон сифатида қаралади. У шундай ёзади: “Маълумотли, лекин ахлоқсиз инсон – жамият учун хавфли қуролдир” (2, 38). Ушбу ғоя, айниқса, замонавий фан-техника тараққиёти шароитида, билимдан нотўғри мақсадларда фойдаланиш хавфи юзага келаётган пайтда ўта долзарбдир.

Унинг фикрича, таълим ва тарбия соҳасидаги фаолиятнинг асосий мақсади – “комил инсон”ни шакллантиришга йўналтирилган бўлиши керак. Негаки: “Тарбиясиз инсон на ўзига, на жамиятга фойдага етказа олади” (2, 30), – дейди у. Авлонийда ахлоқий тарбия – фақат мактаб

миқёсида чекланмайди. Шу билан бирга, Авлоний ахлоқий тарбиянинг асосий институтлари сифатида оила, мактаб ва жамиятни кўрсатади. Унингча, бола қалбида шаклланадиган ахлоқий урф-одатлар аввал уйда, сўнг таълим муассасасида мустаҳкамланиши керак. Унинг шундай сўзлари бор: *"Оила – ахлоқ таянчи. У заиф бўлса, миллат ахлоқи қулайди". У*шбу қарашлар бугунги кунда ҳам оналар ва оталар мактабининг, ота-она масъулиятининг кучайтирилиши лозимлигини кўрсатади.

Авлонийнинг ватанпарварлик ғоялари ҳам ахлоқий қадриятнинг бир бўлаги сифатида намоён бўлади. Унинг фикрича: "Ватанни севмаган, унинг равнақи учун хизмат қилмаган инсон, ўз инсоний бурчини англамаган нодонгина бўлади" (1,22). Унинг "Ватанга муҳаббат иймондандир" деган фикри, ҳар бир фуқаронинг маънавий бурчи сифатида талқин қилинади, ахлоқ ва ватан ҳақидаги қарашларни уйғунлаштиришга ҳаракат қилади.

Абдулла Авлонийнинг ижодий мероси ахлоқий қадриятларни жамият равнақи ва шахс камолоти учун асосий мезон сифатида баҳолайди. Унинг фикрича, ахлоқ – бу фақат одоб-аҳлоқ қоидалари тўплами эмас, балки инсоннинг ички дунёси, жамият билан алоқаси ва маънавий оламининг аксидир. Авлоний асарларида ахлоқ тушунчаси индивидуал даражада эмас, балки жамиятни камолот сари етакловчи илмий-маънавий тизим сифатида кўрилади. Унинг "Тарбия исломия" асарида маърифатсиз ахлоқ, ахлоқсиз маърифат бўлмаслиги таъкидланади. Ушбу фикрда ахлоқ ва маърифатнинг ўзаро боғлиқлиги кўрсатилади. Ҳақиқий илм инсонни камтар, олижаноб, меҳрибон қилиши керак, акс ҳолда у фақатгина восита, ҳатто зарарли кучга айланиши мумкин. Бу нуқтаи назар Имом Ғаззолий ва Арасту фалсафаси билан уйғун – ахлоқ билимнинг ниҳоясида туғилиши, билим шахсни тарбиялаши кераклигини улар ҳам таъкидлаган.

Авлонийнинг "Тарбия жисмония" асарида инсоннинг тана ва руҳ орасидаги мувозанат алоҳида таъкидланади: "Жисмоний тозалик – руҳий покликнинг дарвозасидир" (3,21). Бу фикр ғарб фалсафасидаги стоиклар шунингдек Кант ахлоқий назарияси билан мос келади. Ахлоқ фақат маънавий тарбия эмас, балки ҳар бир ҳаракат, ҳатто инсон танасини назорат қилиш билан боғлиқ.

Абдулла Авлонийнинг ахлоқий қарашлари ва маънавий мероси бугунги Ўзбекистон жамияти учун улкан аҳамият касб этади. XXI аср инсонларидан нафақат билим, балки юксак ахлоқий онг, фидойилик, инсонийлик талаб этилаётган шароитда, Авлонийнинг ғоялари айни мураккаб ижтимоий-маданий муаммоларга ечим бўла олади. Унинг асарларида илгари сурилган умуминсоний ва миллий қадриятлар – инсон камолоти, жамият барқарорлиги, маънавий тараққиёт ҳамда ватанпарварлик каби тушунчалар бугунги кундаги тарбия, таълим, фалсафа, ижтимоий сиёсат соҳалари учун зарур манба ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Авлоний А. *Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ*. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1992.
2. Авлоний А. Тарбия исломия. – Тошкент: Фан, 1998.
3. Авлоний А. Тарбия жисмония. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
4. Қодиров Н. Ўзбек маърифатпарварлари ва ахлоқий ғоялар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007.
5. Тошпулатов Т. Абдулла Авлоний – маърифатпарвар адиб. – Тошкент: ЎзФА, 2004.
6. Аҳмедов А. Маънавият ва маърифат масалалари. – Тошкент: Маънавият, 2005.

ЎЗБЕКИСТОНДА УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ҒОЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЖАДИДЛАР ҲАРАКАТИНИНГ ЎРНИ

Пулатова Севар Акмаловна,
Тарих фанлари номзоди, профессор,
Альфраганус университети
sevaraakmalovna@mail.ru

Аннотатsiя. Мазкур мақолада Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс ғоявий пойдевори шаклланишида жадидлар ҳаракатининг маърифий, ахлоқий ва ижтимоий қарашлари илмий-амалий асос бўлиб хизмат қилаётгани таҳлил қилинган. Хусусан, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Мунавварқори Абдурашидхонов каби жадидларнинг асарларидаги миллий уйғониш, ахлоқ, илм-фан, ва миллий озодлик ҳақидаги фалсафий қарашлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: жадидлар, маърифатпарварлик, Ренессанс, миллий уйғониш, тарбия, ўзликни англаш.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган “Учинчи Ренессанс” ғояси мустақиллик даври билан бошланган миллий ўзликни тиклаш, маънавий юксалиш ва таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш каби жараёнлар тадрижи сифатида намоён бўлмоқда. Бунда жадидлар ҳаракатининг тарихий ва маърифий мероси муҳим илмий ва маънавий асос бўлиб хизмат қилмоқда. Жадидларнинг мақсади жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш эди. Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Мунавварқори Абдурашидхоновлар каби зиёлилар Туркистонда маърифатпарварликнинг янги босқичини бошлаб бердилар. Бугунги ислоҳотлар даврида уларнинг асарлари ва ғоялари Учинчи Ренессанс ғоясининг маънавий пойдеворини ташкил қилмоқда.

Жадидлар ҳаракати ўз даврида жамиятда илмсизлик ва мустамлакачиликка қарши маърифат орқали курашишни мақсад қилди. Жумладан, Авлоний таълимга оид фикрларини қуйидагича баён қилган: “Тарбиясиз илм – қуролли ноодамлар қўлидаги хавфли воситадир” (1, 24). Беҳбудий эса шундай ёзган эди: “Миллатнинг келажаги мактабдан бошланади” (2, 11). Бу ғоялар бугунги Ўзбекистонда ҳам долзарб: замонавий таълим, ахлоқий тарбия ва миллий ўзликни шакллантиришда жадидлар фалсафаси асос бўлиб хизмат қилмоқда. Яъни, жадидлар ғояси – бу Учинчи Ренессанс ғоясининг маънавий ва илмий негизидир.

Жадидлар ҳаракатининг Ўзбекистондаги Учинчи Ренессанс ғояси пойдевори сифатида ўрганилиши – фақат тарихий ёки адабий таҳлил эмас, балки миллат маънавиятини юксалтириш йўлидаги амалий илмий вазифадир. Сабаби бу ғоя токчадаги китобларда қолиши, ёки ифтихор туйғусида ёдга олиш билан чекланилиши керак эмас. Балки, ҳозирги мураккаб шарт-шароитда миллатнинг дунё ривожига ҳисса қўша оладиган миллат сифатида намоён бўлишининг, қолаверса, аслида миллат мавжудлигининг муҳим шарти бўлиб қолмоқда. Шу маънода уларнинг ғоялари Ўзбекистонда жамиятнинг барча соҳаларида - таълим, ахлоқ, фан, шахс тарбияси, хотин-қизлар ҳуқуқлари ва давлатчилик ғояларида намоён бўлмоқда.

Жадидлар ҳаракатининг илк ва энг муҳим натижаси – бу таълим тизимидаги туб ўзгаришлардир. Улар томонидан асос солинган янги усулдаги мактаблар (усули жадид), замонавий фанлар ва дунёвий билимларга асосланган дарсликлар, замонавий ўқитувчи образи – барчаси халқнинг онгини юксалтиришга хизмат қилди. Абдулла Авлоний таълим ҳақида шундай дейди: “Мактаб – миллатнинг юраги. У тўғри урар экан, миллат тиниқ фикрлайди. У оғриқли бўлса, миллат хаёлда ҳам, ҳаётда ҳам заиф бўлади” (1, 17). Бугунги Ўзбекистонда таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар – замонавий педагогика, медиа-саводхонлик, STEM, халқаро тажрибаларни жорий этиш – айнан жадидлар концепцияси билан уйғундир.

Жадидлар ижодида ахлоқ ва маърифат масалалари марказий ўрин тутади. Улар инсон тарбиясини илм, одоб ва виждон билан боғлаган ҳолда, комил шахс тарбиялашни миллий юксалиш кафолати деб кўрсатганлар. Масалан, Авлоний шундай дейди: “Жаҳолат илми билан миллатни эмас, фақат ахлоқ илми билан уни қутқарамиз” (1, 32). Бугунги ахборот асрида ёшлар онгида маънавий бўшлиқ, Интернет орқали келаётган хатарли иллатлар (агрессия, фейк маданият, ёшлар ўртасида “вирусли қаҳрамонлар”) фонида жадидларнинг ахлоқий концепцияси миллий ғоявий қалқон вазифасини бажариши мумкин.

Жадидлар миллий ўзликни тиклашни маърифат билан боғладилар. Улар халқнинг тили, урф-одати, маданияти ва диний қадриятларини асраб қолиш, шу билан бирга, уни замонавий дунёвий тушунчалар билан уйғунлаштириш тарафдори бўлишган. Беҳбудий таъкидлаган: “Миллат ўзини таниғинида, у ердан бошқа йўл танламайди” (2, 8). Ушбу фикрлар Учинчи Ренессанс ғоясининг “маънавиятли жамият”, “инсон қадри учун” ва “ўзлигини англаган авлод” каби тамойиллари билан бевосита боғлиқ.

Жадидлар ҳаракатининг яна бир натижаси – аёллар ҳуқуқлари, уларнинг жамиятдаги ўрни ҳақидаги илк маърифий фаолликдир. Беҳбудий ва Авлоний “Ўқувчи қиз”, “Айтишувлар”, “Оғир ҳаёт” сингари асарлари орқали аёлларни таълимга жалб қилиш, фикрлашга ундаш ва уларни фаол ижтимоий қатлам сифатида кўриш ғояларини илгари суришган. Бу ғоялар ҳозирги “Хотин-қизлар – жамият таянчи” сиёсий концепциясида ифодаланмоқда.

Жадидлар ҳаракати, айниқса, мустамлакачиликка қарши маънавий курашда давлатчилик ғоясини ҳам шакллантирган. Улар инсон ҳуқуқлари, тенглик, фуқаролик масъулияти ҳақида

фикрлар билдириб, мустақил фикрлашни тарғиб қилганлар. Беҳбудий драмаларида давлат, фуқаро ва раҳбар муносабати фалсафий контекстда ёритилган. Бу ғоялар бугунги демократик жамият ва фуқаролик институтларини ривожлантиришда илмий пойдевор сифатида хизмат қилади.

Жадидлар газета, журнал, спектакль, очиқ дарс ва оммавий нутқлар орқали халқ онгига таъсир ўтказганлар. “Таржимон”, “Шуро”, “Тожикистон”, “Тарбия” каби босма нашрлар орқали жамиятдаги иллатлар, билимсизлик ва мустамлакачиликни танқид қилиб, фикр уйғотганлар. Бу жадидлар томонидан яратилган илк медиа-марказли маърифат ҳаракати эди. Бугунги “оммавий ахборот воситалари –жамоатчилик онгини шакллантирувчи восита” деган ғоя жадидлар фалсафасида муҳим бўлган.

Уларнинг таълим ва тарбия тўғрисидаги фикрлари ҳозирги кунда таълим тизимидаги ислоҳотлар учун йўл харитаси вазифасини ўтайди. Бугунги кунда янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида “маърифат – тараққиётга йўл” деган ғоя янграётган бир пайтда, жадидлар қолдирган мерос замонавий маънавий хавф-хатарларга қарши ишончли таянчдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Авлоний А. Тарбия исломия. – Тошкент: Фан, 1998.
2. Беҳбудий М. Миллатга. – Тошкент: Маънавият, 2003.
3. Маҳмудова З. Жадидчилик ҳаракати ва унинг маърифий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
4. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Раҳмонов Ш. Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс ғоялари. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2022.

CHO‘LPON IJODIDA KOMIL INSON VA VATANPARVARLIK G‘OYASI

Babayeva Zuxra Davronbek qizi,
Ma’mun Universiteti,
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Xiva shahri. zuxrababayeva2017@gmail.com
Komilbayeva Aziza,
Ma’mun universiteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetuk ma’rifatparvar va vatanparvar jadid – Cho‘lponning hikmatli so‘zlari izohlar bilan keltirilgan bo‘lib, ularda muallifning xalq dardi bilan yashagani hamda doimo yurt ozodligi, hurligi uchun jon kuydirgani haqidagi she’riy jumlalari va aforizmlari to‘liq bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mustamlakachilik, istibdod, hurlik, muuhojir, qasd, qubba, butxona, status.

Cho‘lponning xalq birlashuvi va vatanparvarlik to‘g‘risidagi hikmatli so‘zlarini o‘rganadigan bo‘lsak, ularda ma’rifatparvar va komil inson qanday bo‘lishi kerakligini asoslab beruvchi barcha jumlalar qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir[1.142].

Misrasida Turkiston xalqini XX asr boshlarida birlashishga va yurtni rus istibdodidan qutqarishga chorlaydi. Muallif bu so‘zlar orqali agar yurt birlashsa, uni hech qachon yengib bo‘lmasligini va juda katta kuch ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. Yoki quyidagi baytni olaylik:

Bu vatanni jon bilan saqlashga , Cho‘lpon hozir o‘l,
Kimki, qasd etsa anga kiysin pushaymondin kafan[1.143].

Jadid bu so‘zlar orqali avvalo, o‘zini vatan uchun uni ozodligi va hurligi uchun jon berishga shay ekanligini hamda unga qasd etganlarga albatta, pushaymon qilishini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, bu baytda o‘z vataniga sodiqligi hamda unga yomonlik tilaganlarga albatta, o‘limini va kafan kiyishini eslatadi.

Xalqni birlashtirish va ahillikka da’vat etuvchi baytlari ham salmoqli bo‘lib, ulardan bir nechtasini keltirib o‘tamiz:

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik![1.142]

Misralarida xalqdan ajralib qolmaslik va aholini ahillik, jipslik g‘oyalari asosida birlashirish birlamchi o‘rinda ekanligini qayta-qayta keltirib o‘tadi.

Tarixdan ma’limki, Rossiya mustamlakchiligi davrida yurtimiz aholisi o‘z ozodligi uchun bir necha marotaba kurashga kirgani, ammo barchasida ko‘plab qurbonlar berilib, ozodlikka erisha olmagani achinarli holat edi. Cho‘lpon ham aynan shu ozodlik kurashida xalqni birlashish va erkin hur yashash uchun kurashga chorlaydi. Turkiston ozodligi uchun yozilgan va matbuotda eng ko‘p o‘qilgan she’r quyidagicha edi:

Kishan kiyma,
Bo‘yin egma-
Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsen![1.142]

Jumlasi hozir ham yoshlarimiz tomonidan ko‘p bora aytiladigan va yurt tarixi haqida so‘zlaydigan mashxur iboraga aylangan.

XX asr birinchi choragida rus-tuzem maktablari ochilishi ba’zi hudularga ruslar ko‘chib kelishi natijasida rus qishloqlari va cherkovlari haqida Cho‘lpon ajoyib tashbex keltiradi:

“*Muhojirlar qishloqlarining o‘rtasida yarqirab ko‘ringan haybatlik butxona qubbalari chor hukumatining niyat va irodasini juda ochiq ko‘rsatadur”*[2].

Insonning iymon-e’tiqodi butun bo‘lishi o‘zgalar bilan emas, avvalo o‘z axloq-odobi bilan namuna bo‘la olishi zarurligi haqida uqtiradi. Hatto hozirda ko‘pchilik insonlar ijtimoiy tarmoqda shu mazmundagi jumlalarni o‘z “status”lariga aylantirib yozib qo‘yganlari ham jadidning quyidagi so‘zlarida katta ma’no mujassamlashganini anglatadi:

“Birovni axloqsiz deb so‘kmasdan, ilgari o‘z vijdonimizga savol beraylikkim, bizning o‘zimizda axloq bormu? [1.149]*”*

Ilm-ma’rifat tarqatuvchi mash’ala vazifasini sidqidildan bajargan Cho‘lpon xalqni savosli qilish maqsadida bir qator she’riy misralar yozadi. Ilm-ma’rifatga vaqt va mablag‘ ajratmaydigan xalq haqida juda kuyunib quyidagi jumlalarni bitadi: “Maktab yo‘q bir tiyini, to‘yga ming so‘mlab berur, chorasi mushkul kasalga mubtalodir bizni xalq[3]”. Aytish joizki, xalqimizning bu hislati “tarki odat”ga aylanib, aynan bugungi kundagi to‘y-marosim xarajati oshib ketishi va natijada oilalarda kelib chiqadigan moddiy muammolarni ham o‘zida aks ettiradi.

Bir so‘z bilan aytganda ma’rifatparvar va jonkuyar jadid–Cho‘lpon o‘zining nasriy romanlari, otashin maqola va she’rlarida Turkiston xalqi hurligi ozodligi uchun qayg‘urib mustamlakchilik davridagi xalqning og‘ir ahvolidan achinib bir qator asarlar bitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D. Quronov Abdulhamid Cho‘lpon. Jadidlar.Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2022. 160 bet.
2. https://hikmatlar.uz/quote/2189
3. https://www.hikmatlar.uz/quote/2189

MILLIY MA’RIFATPARVAR JADIDIMIZ CHO‘LPON IJODIDA INNOVATSIYA VA VATANPARVARLIK G‘OYASI

Babayeva Zuxra Davronbek qizi,
Ma’mun Universiteti Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi. Xiva shahri.
zuxrababayeva2017@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola jadid ma’rifatparvarlarimizdan biri Cho‘lponning hayoti, ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jadidning vatanga va yurtga daxldorlik, yurt buguni va ertasi uchun qayg‘urish hissini ko‘rsatib beradi. Ijodkorning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolarga hech bir vaqt befarq bo‘lmagani va yangiliklarga doimo oshno ekanligi bugungi kundagi innovatsiya g‘oyalarini o‘tgan asrda asoschisi bo‘lganligini bildiradi.

Kalit so‘zlar: Qatorterak, bazzoz, mudarris, madrasa, ziroat, texnika, gimn.

O‘zbek shoir va yozuvchilari ichida yakka yulduz Cho‘lpon ijodi misli bir ummondek hanuzgacha o‘quvchilarni o‘zining purma’no va mohiyati o‘tkir merosi bilan lol qoldirib kelmoqda. Jadidlarimiz orasida Cho‘lpondek kamtarin va kuchli va serma’no ijodkor bo‘lmasa kerak. Adib Andijonning Qatorterak mahallasida Sulaymonqul Mulla Muhammda Yunus o‘g‘li xonadonida 1897-yilda dunyoga kelgan. Sulaymonqul bazzoz nomi bilan tanilgan savdogar bo‘lib, har kuni gazeta o‘qib, olam ishlaridan

xabardor kishi[1.129] edi. Adib o‘zining yoshligi haqida quyidagi misralarni keltirgan: “otam meni madrasaga mudarris bo‘lishim uchun yubordi, ammo men milliy o‘zbek yozuvchisi bo‘lishga ahd qildim.[2.11]”

Cho‘lponning matbuotda chop etilgan ilk she’ri 1914-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasining 3-sonida bosmadan chiqqan bo‘lib, u “Turkistonli qardoshlarimizga” deb atalgan. Shundan keyin adib ‘Qurboni jaholat” hikoyasi, “Adabiyot nadur”, “Muhtaram yozg‘uchilarimizga”, “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik”, “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” nomli maqolalari e’lon qilindi. Bu hikoya va maqolalar shunchaki go‘zal qofiyali so‘zlar emas, balki o‘sha davrda Turkiston xalqi uchun dolzarb bo‘lgan masalalar va muammolar ko‘tarilgan mavzu edi.

Ahmad Zaki Validiy guvohlik berishicha, Cho‘lpon saylov mavzusida ham doston yozib, unda o‘z qarashlarini bayon etgan. 1917-yil 28-noyabrda Turkiston muxtoriyati e’lon qilinishini Cho‘lpon zo‘r quvonch bilan qarshilab, “El bayrog‘i” gazetasida muxtoriyat uchun gimn bo‘ladigan “Ozod turk bayrami” she’rini e’lon qildi. Ijodkor tarjimon sifatida ham ulkan ishlar amalga oshirib, Gogolning “Revizor”, Gotssining “Malikayi Turandot” asarlarini tarjima qilgan[3.22].

Ijodkorning “Turkistonli qardoshlarimizga” she’ri boshlanishidan xalqni ulkan ilm-ma’rifat balosidan qutqarishga undaydi:

Ilm-u ma’rifat ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq

Ma’rifatsizlik balosiga yo‘liqqon bizni xalq.

Jumlasini ko‘rishimiz mumkin. Bu misralardagi jasurlik, yetakchilik va jonkuyarlik adibning har bir she’ri va maqolasida xalqni uyg‘otish uchun qayta-qayta yozilganini ko‘rishimiz mumkin.

Adibning nafaqat ilm-ma’rifat balki, Turkiston aholisi ijtimiy-iqtisodiy hayotiga oid masalalarda ham ilg‘or fikr va o‘tkir qalam egasi ekanligi “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik” maqolasidagi so‘zlaridan ham ma’lum. Maqolada yozuvchi Turkiston xalqining mashaqqatli mehnati va qoloq texnikasidan achinadi va “ekin mashinalarining” ishlatilmasligi xalq mehnatini ikki barobar og‘irlashtirishi va mehnat samaradorligini pasaytirishi haqida kuyinib yozadi. Oradan biroz vaqt o‘tib, adib yuqoridagi maqolasiga urg‘u berib o‘tadi:

“O‘tgan maqolamda, Dehqon qardoshlarimizdan hech birlarining ziroat mashinlari ishlatmaganliklarini yozgan edim. Maqolani yozgandan so‘ngra qishloqlarda yurub, o‘zum dehqonlar bilan ko‘rushub, fikr olishdim, endi alarming fikrlarini o‘ylog‘on millatparvar kishi ko‘zlaridan qonlik yoshlarini oquzmay mumkin emas”[3.24]. Bu fikrlar ma’rifatparvarning xalq dardi bilan yashashi va undagi muammolarni shunchaki yozmasdan ularga doimo yechim izlab kelayotganini isbotidir. Muallifning hikmatli so‘zlari oradan bir asr o‘tib bugungi jamiyatimiz shiorlariga aylanib bormoqda.

“Haq yo‘li albatta bir o‘tulgusi…”

“Faqat erkin vijdonlarga ega bo‘lmoq mumkin emas!”

“Birovni axloqsiz deb so‘kmasdan, avval o‘zimizga savol beraylikkim bizda axloq bormu? ”

“Tirnoq orasida kir hamma vaqt bo‘ladur kavlagan sari chiqa beradur”[3.145].

Muallif jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga ko‘proq urg‘u beradi va insonlarni ilmli, sabrli, ma’rifatli bo‘lishga hamda yangiliklarni qabul qilib ulardan foydalanishga chorlaydi. Bu esa yurt taraqqiyotini ko‘zlamakdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har bir inson ichida mana shu jasurlik va fidoyilikni uyg‘otsa vatanimiz yuksalish va taraqqiyotdan hech qachon to‘xtamaydi. Bu esa bugungi kundagi jamiyatimizdagi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonida innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda ulani hayotga tatbiq etish vazifasini naqadar muhim ekanligini anglatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Muhammadjonov Turmush urinishlari. Toshkent. 1964. 129-bet.
2. Karimov N. Cho‘lpon. Toshkent. 1991. 11-bet.
3. Quronov D. Abdulhamid Cho‘lpon. Toshkent. 2022. 22-25 betlar.

ДЖАДИДИЗМ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТSIОННОГО ОБЩЕСТВА: РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ПРОДВИЖЕНИИ ПРОГРЕССИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Омонова Зарнигор Туражон кизи,
Научный сотрудник
Наманганского педагогического института
omonova.zarnigor.2302@gmail.com

Аннотатsiя: Статья посвящена анализу влияния идей джадидизма на развитие современного образования в условиях информатsионного общества. Рассматривается, как реформаторские принципы джадидизма, зародившиеся в конце XIX – начале XX века, могут быть адаптированы к вызовам цифровой эпохи. Особое внимание уделено роли цифровых платформ как инструмента продвижения прогрессивной педагогики, вдохновленной джадидистскими идеями равенства, доступности образования и развития критического мышления. Исследуются возможности интегratsiи исторического опыта джадидизма с современными образовательными технологиями, такими как онлайн-курсы, интерактивные платформы и системы дистанционного обучения.

Ключевые слова: джадидизм, информatsионное общество, цифровые платформы, современное образование, дистанционное обучение, историческое наследие, цифровизatsiя

AXBOROT JAMIYATIDA JADIDCHILIK: ILG‘OR PEDAGOGIKANI TARG‘IB QILISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING O‘RNI

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik g‘oyalarining axborot jamiyati sharoitida zamonaviy ta’lim rivojiga ta’siri tahliliga bag‘ishlangan. Unda XIX -asr oxiri va XX -asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilikning islohot tamoyillari raqamli davr muammolariga qanday moslashishi mumkinligi o‘rganiladi. Jadidchilarning tenglik, ta’limning ochiqligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish g‘oyalaridan ilhomlangan ilg‘or pedagogikani targ‘ib qilish vositasi sifatidagi raqamli platformalarning roliga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jadidchilikning tarixiy tajribasini onlayn kurslar, interfaol platformalar va masofaviy ta’lim tizimlari kabi zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalash imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, axborot jamiyati, raqamli platformalar, zamonaviy ta’lim, masofaviy ta’lim, tarixiy meros, raqamlashtirish

JADIDISM IN THE INFORMATION SOCIETY: THE ROLE OF DIGITAL PLATFORMS IN PROMOTING PROGRESSIVE PEDAGOGY

Abstract: The article is devoted to the analysis of the influence of the ideas of Jadidism on the development of modern education in the information society. It examines how the reformist principles of Jadidism, which originated in the late 19th and early 20th centuries, can be adapted to the challenges of the digital age. Special attention is paid to the role of digital platforms as a tool for promoting progressive pedagogy inspired by Jadidist ideas of equality, accessibility of education and the development of critical thinking. The possibilities of integrating the historical experience of Jadidism with modern educational technologies such as online courses, interactive platforms and distance learning systems are being explored.

Keywords: Jadidism, information society, digital platforms, modern education, distance learning, historical heritage, digitalization

Джадидизм, как идеология исламского модернизма, возникшая в конце XIX – начале XX века в Российской империи, представляет собой уникальный пример попытки гармонизatsiи традиционных религиозных ценностей с прогрессивными идеями эпохи Просвещения. Его сторонники, известные как джадиды, стремились к реформированию мусульманского общества через образование, науку и культуру, выступая против консервативного кадимизма. В современном контексте информatsионного общества, характеризующегося цифровизatsией, глобализatsией и широким распространением цифровых технологий, идеи джадидизма приобретают новое звучание. Цифровые платформы, как инструменты коммуникatsii и

обучения, становятся важным средством для продвижения прогрессивной педагогики, вдохновленной джадидскими принципами.

Как отметил Президент Шавкат Мирзиёев: «Джадиды внесли значительный вклад в образовательные реформы, внедрив «усули джадид» (новый метод обучения), который ускорил процесс грамотности среди мусульманского населения. Они реформировали учебные программы, включив в них математику, естественные науки, историю и иностранные языки, что способствовало интегratsii мусульман в современные социальные и экономические процессы» [1].

Джадидизм зародился в среде мусульманских интеллектуалов Российской империи, таких как Исмаил Гаспринский, Хусаин Фаизханов и другие, которые видели в образовании ключ к модернизatsii общества. Основной акцент джадиды делали на реформе традиционного медресе, предлагая внедрение светских дисциплин – математики, естественных наук, иностранных языков – наряду с религиозными знаниями. Их подход, известный как «усул-и джадид» (новый метод), предполагал использование фонетического метода обучения грамоте, что значительно ускоряло процесс освоения знаний [2]. Этот подход был революционным для своего времени, так как он не только повышал доступность образования, но и способствовал формированию критического мышления у учащихся.

Информatsionное общество, концепция которого была разработана такими мыслителями, как Мануэль Кастельс и Дэниел Белл, характеризуется доминированием информatsii как основного ресурса экономического и социального развития. В отличие от индустриального общества, где ключевую роль играли материальные ресурсы, в информatsionном обществе знания и технологии становятся движущей силой [3]. Цифровые платформы – такие как Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams и другие – выступают в качестве инфраструктуры, обеспечивающей доступ к образовательным ресурсам, коммуникatsiю между участниками учебного процесса и создание интерактивной среды обучения.

Современные технологии, такие как интернет, искусственный интеллект и социальные сети, радикально изменили способы передачи знаний и взаимодействия между людьми. В этом контексте джадидизм может быть рассмотрен как исторический пример адаптatsii к переменам, а его принципы – как основа для осмысления взаимодействия традиции и инноватsiй в цифровую эпоху.

Однако цифровизatsiя также ставит вопросы о сохранении культурной идентичности. Джадидты стремились сбалансировать модернизatsiю с сохранением исламских ценностей, и сегодня этот баланс остается актуальным. Современные мусульманские сообщества сталкиваются с необходимостью противостоять информatsionному шуму и дезинформatsii, сохраняя при этом аутентичность своих традиций.

Эти платформы трансформируют традиционные подходы к педагогике, делая образование более гибким, индивидуализированным и доступным. Например, использование LMS (Learning Management Systems) позволяет преподавателям адаптировать учебные материалы под потребности конкретных студентов, что перекликается с джадидским принципом персонализированного обучения [4]. Более того, цифровые технологии способствуют преодолению географических и социальных барьеров, что соответствует джадидской идее просвещения широких масс.

Прогрессивная педагогика, вдохновленная идеями джадидизма, акцентирует внимание на развитии критического мышления, творческого потенциала и самостоятельности учащихся. В этом контексте цифровые платформы становятся инструментом реализatsii таких принципов. Рассмотрим конкретные аспекты их влияния:

1. Доступность образования. Джадиды стремились сделать знания доступными для всех слоев общества, включая женщин и сельское население. Сегодня цифровые платформы, такие как Coursera или Khan Academy, предоставляют бесплатные или недорогие курсы, доступные в любой точке мира с подключением к интернету. Это особенно актуально для мусульманских сообществ в отдаленных регионах, где традиционные образовательные учреждения могут быть недоступны.

2. Интерактивность и инноватsionные методы. Джадидский «новый метод» предлагал заменить механическое заучивание на осмысленное обучение. Современные цифровые платформы поддерживают эту идею через интерактивные задания, симуляции и

геймификатsiю. Например, платформа Duolingo использует игровые элементы для обучения языкам, что делает процесс увлекательным и эффективным.

3.Глобальное культурное взаимодействие. Джадиды выступали за изучение иностранных языков и культур как средства интеграtsii в мировое сообщество. Цифровые платформы, такие как Zoom или Microsoft Teams, позволяют организовывать международные образовательные проекты, объединяя студентов из разных стран и культур, что способствует развитию толерантности и межкультурного диалога.

4. Персонализатsiя обучения. Использование аналитики данных на цифровых платформах позволяет преподавателям отслеживать прогресс каждого ученика и адаптировать учебный процесс под его индивидуальные потребности. Это отражает джадидскую идею о том, что образование должно быть ориентировано на личность.

Несмотря на очевидные преимущества, интеграtsiя джадидизма в цифровую эпоху сталкивается с рядом вызовов. Во-первых, цифровой разрыв – неравный доступ к технологиям и интернету – остается проблемой для многих мусульманских сообществ, особенно в развивающихся странах [9]. Во-вторых, существует риск утраты культурной идентичности в условиях глобализатsii, что требует сбалансированного подхода к использованию цифровых инструментов. Наконец, вопросы кибербезопасности и защиты данных становятся все более актуальными в информатsионном обществе [10].

Тем не менее перспективы весьма обнадеживающие. Цифровые платформы могут стать мостом между традициями джадидизма и современными образовательными потребностями, способствуя возрождению его идей в новом формате. Например, создание специализированных платформ, ориентированных на мусульманскую аудиторию, с курсами по исламской истории, культуре и науке, могло бы объединить джадидские идеалы с технологическими возможностями XXI века.

Информатsионное общество требует от индивидов и сообществ развитой информатsионной культуры – способности критически оценивать данные, эффективно использовать технологии и адаптироваться к изменениям. Джадидизм, с его акцентом на просвещение и patsиональный подход, может служить источником вдохновения для формирования такой культуры в мусульманских обществах. Например, джадидистская идея самостоятельного поиска знаний через доступные источники находит отражение в современных концепциях медиаграмотности и цифрового самообразования.

Кроме того, джадидизм подчеркивал важность межкультурного диалога, что особенно значимо в эпоху глобальных социальных сетей. Использование интернета для распространения идей, вдохновленных джадидизмом, может способствовать укреплению связей между мусульманскими сообществами и другими культурами, избегая при этом конфликтов и радикализатsii.

Джадидизм, как историческое движение за модернизатsiю через образование, сохраняет свою актуальность в условиях информатsионного общества. Цифровые платформы играют ключевую роль в продвижении прогрессивной педагогики, вдохновленной джадидскими принципами, обеспечивая доступность, интерактивность и персонализатsiю обучения. Вместе с тем, для полной реализатsii этого потенциала необходимо преодолеть существующие вызовы, такие как цифровой разрыв и культурные противоречия. В перспективе синергия джадидизма и цифровых технологий может стать мощным инструментом для развития образования и общества в целом.

Литература:

1. Мирзиеев Ш.М. От natsионального возрождения – к natsиональному прогрессу. – Ташкент: “Узбекистан”, 2020.

2. Хакимов Р.С. «Джадидизм (реформированный ислам)». Казань: Институт истории АН РТ, 2010, с. 45.

3. Кастельс М. «Информатsионная эпоха: экономика, общество и культура». Москва: ГУ ВШЭ, 2000.

4. Кравченко Л.А. «Цифровые решения в государственном управлении: тренды, возможности и ограничения». Журнал "Информатsионное общество", № 2, 2023.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ДАРСЛИКЛАРИ

Қўлдашев Шерали Темиралиевич,
Тарих фанлари доктори,
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси
Шарқшунослик институти
етакчи илмий ходими.

Аннотatsiя. Ушбу мақолада, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланаётган Маҳмудхўжа Беҳбудий ёзган дарсликлари мазмуни ёритилган. Уларда алифбо, иншо ёзиш, ислом тарихи ва амалёти, география фанларига оид асарларнинг таҳлили берилган.

Калит сўзлар: Маҳмудхўжа Беҳбудий, дарслик, мактаб, алифбо, иншо, ислом, тарих, геозрафия.

Ўзбекистон заминида туғилиб, унинг тарихида унутилмас саҳифаларни муҳрлаган аждодларимиздан бири улуғ маърифатпарвар, такрорланмас салоҳият ва истеъдод соҳиби Маҳмудхўжа Беҳбудийдир. Унинг буюк ишлари ҳали ҳамон авлодлар ёдида бутунлай қолажак. Туркистон ёшларининг истиқболи унинг қайғуси эди. Шу боис, у биринчи навбатда ёшларнинг илм олиши, ҳунар ўрганиши, умуман олганда, етук комил инсон бўлиши учун ҳаракат қилган. Жадид мактабларини очилиши унинг номи билан боғлиқ бўлса, ушбу мактабларга дарсликлар, ўқув қўлланмалар яратиш борасидаги ҳайрли ишларини биз тадқиқ қилишимиз зарурдир.

Маҳмудхўжа Беҳбудий 18 ёшидан қозихонада мирзалик қилади, қози, муфти даражасига кўтарилади. Беҳбудий Ҳаж сафарида бўлган чоғида Арабистон, Миср, Туркияни кезиб чиққан (1899-1900). Саёҳат давомида янги мактаб (усули жадид) очиш хусусида муттасил ўйлар эди. Самарқанд яқинидаги қишлоқларда Ажзий, Абдулқодир Шакурийлар билан ҳамкорликда янги мактаблар очади.

Беҳбудий Қозон ва Уфага бориб, у ердаги янги усул мактаблари билан танишади. Татар зиёлилари билан алоқани йўлга қўяди. Янги мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади.

У Туркистонда янги усулдаги мактабларнинг илк тарғиботчи ва асосчиларидан бири, янгича дарсликлар яратган йирик ва жонкуяр маърифатпарвари хисобланади. Беҳбудий бир қатор дарсликлар ёзди. Ўзбекистон Миллий Энциклопедиясидаги «Беҳбудий» мақоласи муаллифи марҳум С. Қосимов адибнинг 6 та дарслигини қайд этади: «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий география»), «Китобатул-атфол» («Болалар мактублари»), «Мухтасари тарихи ислом» («Исломнинг қисқача тарихи»), «Мадхали жуғрофияи умроний» («Аҳоли географиясига кириш»), «Мухтасар жуғрофияи Русий» («Русиянинг қисқача географияси»). Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида ўнга яқин дарсликлари сақланади.

Булар “Сарҳил жуғрофийа умрони”[1], “Тарихи исломия” [2], “Амалиёти исломия” [3], “Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб” [4], “Рисолаи жуғрофияи умроний” [5], “Китоб ул-атфол” [6,7,8], “Китоб ул-мажмуаи иншо” [9], “Мадҳали жуғрофийа умрони” [10], “Мунтахаб жуғрофийа умумий” [11]. Шунингдек, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Падаркуш” драмасининг тошбосма нусхалари ҳам мавжуд[12].

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг 1904 йилда ёзилган, мактаб ўқувчиларига араб алифбосини ўрганишлари учун “Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб” номли дарслиги хисобланади. Ушбу дарслик асосан ўқувчиларнинг савод чиқаришига мўлжалланган.

Болалар учун мўлжалланган яна бир асар Бу “Китоб ул-атфол” (“Болаларга мактублар”) бўлиб, фондда бу асарнинг тўртта нусхаси сақланади. Уларни учтаси ўзбек тилида, битта тожик тилидадир. Унда ўқувчиларга иншо ва хат ёзиш қоидаларини ўргатади. Жунда “Хат ёзмоқ шартлари” қисмида қуйидагилар келтирилган:

1. Котиб ва муаллимлар ушбу модда ва сўзларни ўқиб тушунсалар керак;
2. Котиб бир муддаони ёзмоқчи бўлганида ўшал муддаони ўзи яхши тушуниб, сўнгра ёзсун;
3. Ўзи билмайдурган луғатни мумкин қадар неча ёзмасун;

4. Ҳар тил ва луғат сўзини ўзи қоида ва имлосиға ёзмоқ лозим, арабий каломларни арабий ҳарфлар ила, форсий ва русий сўзларни ўзига тегишли товуш ила ўқимоқға мумкин бўлгудек ҳарф ила ёзмоқ керак. Чунончи, сирот азим, падари, жола, гўгўй, ичғаноқ, гадик, тонгла, Петербург, ново, нашрини, гурд каби;

5. Ҳар ким маъносиға тушунмайдурган калима ва бегона луғатни сўз ичига ёзмоқ лозим бўлганда ҳаракат – қўймоқ керак;

6. Хат бориб тегетургон одамни мулоҳаза қилиб они фаҳм ва билишиға мувофиқ ёзмоқ лозимдур. Бировни кўрки, (ўғри) ҳиммат ва шунга ўхшаш айб ва ёмон сифати бўлса они исмини ёзганда ўшал ёмон сифатларини ёзмоқ айб ва маънавийдур. Магар ёзилмай лозим бўлган суратда ёзилатурган сўзлар ичиға ҳар ким билмайдурған луғатни мумкин қадар нахса ёзмоқға ва авомга ва кўчаги иборат ва айб саналадургон калима ва лақабларни ёзмасунлар[6, 15-бет].

Шунингдек, ислом тарихи ва маданиятига оид икки дарслиги, яъни “Тарихи исломия” ва “Амалиёти исломия” номли ҳам ўзбек тилида ёзилган. “Тарихи исломия” асари 37 саҳифадан иборат бўлиб, ислом дини, пайғамбар Муҳаммад алайҳиссаломнинг ҳаёти ва фаолияти, арабларнинг маданияти, Ҳижоз, Арабистонда ўтган воқеалар, ҳалифалар ҳаёти ва фаолияти ва бошқал тарихий маълумотлар берилган. “Амалиёти исломия” асари худди “Ибодати исломия” асари каби ислом дини ҳукмлари савол-жавоб тарзда ёзилган.

Мактаб ўқувчиларига яна география фани учун дарсликлар ҳисобланган «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий география»), «Мадхали жуғрофияи умроний» («Аҳоли географиясига кириш»), «Мухтасар жуғрофияи Русий» («Русиянинг қисқача географияси») кабилар ҳам қўлёзмалар фондида сақланади. Бу асарлар ҳам ўзбек, ҳам тожик тилида ёзилган. Жумладан, «Мунтахаби жуғрофияи умумий» асарининг тўла номи «Китоби мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия». 1905 йил 24 августда Санкт-Петербург цензурасидан рухсат олиниб, 1906 йил Самарқандда Г.И.Демуров матбаасида чоп этилган. 106 саҳифадан ташкил топган. Муаллиф бу «қадим фан»га тааллуқли «туркий, арабий, форсий, русий луғатларга тасниф бўлган ўттуз қадар қадим ва жадид кутуб ва расоили жуғрофия, ҳайъати риёзий, тарихий, табиий»лардан ва яна жуда кўп турли-туман маълумот-манбалардан фойдаланиб ёзганини қайд қилади (11, 1-бет).

«Жуғрофия деган сўз юноний, луғати арабийға таърифи ард маъносиға, яъни ер ва туфроқни баён қилатурғон илмни айтилур»,- изоҳ беради муаллиф. Сўнг Беҳбудий унинг турларига тўхтайди.

Китобнинг дастлабки саҳифаларида жуғрофиянинг фан сифатида майдонга келиш тарихи, қадим Туркистон олимларининг бу соҳадаги хизматлари ёритилади, асарлари келтирилади. Муаллиф Шамсиддинбек Сомийнинг (1850-1904) 6 жилдлик машҳур «Қомусул-аълом» ва Исмоилбек Гаспринскийнинг «Туркистон уламоси» китобларидаги ҳужжат ва далилларга суяниб фикр юритган.

Бобларнинг бири: «Жуғрофияни ўқумоқ мусулмонларға ло-зимдур» деб аталган. Унда Ер ҳақидаги хурофий тушунчалар танқид қилинган. Чунончи: «Аммо ҳозирги жуғрофия илми, тажриба ва рўяти бошлариндан билинадурки, Ер курравий — юмалоқ, остиға ҳўкуз, балиғ йўқ, атрофиға девори йўқ ва Ер айланадур, ҳавоға муаллақ турадур. Бизни назаримизға сокин ва аммо ҳақиқатда айланадур» (11, 14-бет).

«Эски ва янги донишмандлар» фаслида қадим Батлимус (Птоломей)дан қолган геоцентризм ва унга қарама-қарши гелиоцентризм ҳақида гап кетади. Илми ҳайъатдаги «сабъайи сайёр», «тўққуз осмон» иборалари изоҳланади.

«Аҳли ҳайъати жадида, яъни янги ҳукамолар айтадурки, Офтоб дунёни ўртасиға халқ бўлубдурки, Аторуддан бошлаб қади-ма беш сайёра ва янги топилган икки сайёра ва кўз ила кўрилмай, янгидан дурбин ила топилган уч юзға яқин сайёралар ва буларни ичиға биз устида турғон Еримиз Офтобни атрофиға ҳар бири ўзиға тегишли доира — айланасиға айланиб юрадурлар. Еримиз Офтобға нисбатан учланчи сайёра — юргувчи юлдуздур! Юргувчи юлдузларни ҳаммаси бенур ва ёруғликни офтобдан оладур» (11, 22-бет) ўқиймиз китобда.

Муаллиф, шу тариқа, жуда содда қилиб осмон жисмларининг жойлашиш ва ҳаракатини тушунтириб беради. Буларнинг айримлари Қуръон ва Ҳадис хабарига рост келмаслигини ҳам айтади. Шунга қарамасдан, «Янги ҳукамолар осмондаги юлдузларни аҳволидин эскилардин кўра яхшироқ огоҳ бўлубтурлар»,- деб ёзади. Чунончи, Ой, Миррих (Марс) ҳақидаги замондошлари маълумотларини жамлаб ва уларнинг қадим ҳукамога насиб этмаган аниқ ва пухта замонавий

асбоблар ёрдамида тўпланганини таъкидлаб, «…ҳукм қиладурларки, албатта, Миррихда одам бор ва илм бизлардан зиёдадур!» деган фикрни илгари суради. «Мартабаи инсониятға ноил ўлмакға, ҳар бир инсонни жамияти инсониятға ва дини илоҳияға эҳтиёжи бор, — ёзади муаллиф. — Ушбу сабабдандурки, инсонлар комил инсонларни қўл остиға жамияти башарияни барпо қиладурлар. Оллоҳ таоло анбиё воситаси ила қонуни шариат, хавфу қалбу ижо юборибдурки, анго дохил ва солик бўлмоқ лозим ва вожибдур. Динсиз дунёда яшамоқ инсоният ва маданиятдан эмас, ҳайвонийликдур. Динсиз мутамаддун (маданиятли) бўлмоқ муҳол (қийин)дур. Жамияти башарияни барқарор турмоқиға дин, шаръ (шариат), низом ва буларни бошқарувчиларга биринчи сабабдур. Бас, жамият илм, инсоф ва ҳунар сабаблари ила уч хил бўлинадурки, ваҳшоният, бадавият, маданият аталган. Ва буларни(нг) ҳар бирини яна бир неча синфға тақсим қилмоқ одамларни аҳволиға қараб мумкин бўладур»[11, 25-бет].

Хуллас, Туркистон жадидлари асосчиси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ўқув дарсликларини ўрганиш, таълим тизимининг ривожлантириш учун муҳим манбалар қаторида туради. Айниқса, алифбо, иншо, география, ислом тарихига оид бу дарсликлардаги маълумотлар ҳали етарлича тадқиқ қилинмаган. Шунингдек, бу маълумотларни Республика ва хориждаги қўлёзмалар фондидаги Маҳмудхўжа Беҳбудий асарлари билан қиёсий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Беҳбудий бундан бир аср олдин миллат эҳтиёжи илммаориф эканлигини хитоб қилган эди. Буни қарангки, ушбу фикрлар ўз аҳамиятини заррача йўқотмаган. Қанча йиллар ўтса ҳамки, адибнинг пурҳикмат сўзлари авлоддан-авлодга маънавий мерос бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Беҳбудий. М. Сарҳил жуғрофийа умрони. Самарқанд, 1906. ЎзР ФА ШИ, Ҳамид Сулаймонов фонди. № 1864 (тошбосма, ўзбекча).
2. Беҳбудий. М. Тарихи ислом. Туркистон мактаблари учун. Самарқанд., 1909. 37 саҳифа. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 7274. 37-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
3. Беҳбудий. М. Амалиёти ислом. Самарқанд., 1908. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 13866. 36-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
4. Беҳбудий. М. Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб. Самарқанд., 1906. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 5823, 9575. 40-саҳифа (тошбосма, форсий).
5. Беҳбудий. М. Рисолаи жуғрофияи умроний. Самарқанд., 1905. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 17628. 85-саҳифа (тошбосма, форсий).
6. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1908. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 3029, 7269, 14325. 36-саҳифа (тошбосма, ўзбек-форсий).
7. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1914. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 5693. 28-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
8. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1914. ЎзР ФА ШИ, Ҳамид Сулаймонов фонди. № 516 (тошбосма, ўзбекча).
9. Беҳбудий. М. Китоб ул-мажмуаи иншо. Самарқанд., 1924. Ҳамид Сулаймонов фонди. № 2929/3 (тошбосма, ўзбекча).
10. Беҳбудий. М. Мадҳали жуғрофийа умрони. Самарқанд, 1905. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 3255, 3256, 3257, 9432, 9433. 84-бет (тошбосма, форсий).
11. Беҳбудий. М. Мунтахаб жуғрофийа умумий. Самарқанд, 1906. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 7275. 107-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
12. Беҳбудий. М. Падаркуш. Самарқанд, 1913. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 9438, 9439, 12653. 18-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).

ABDULLA AVLONIY DARSLIKLARI VA ULARNING TA’LIM YANGILANISHIDAGI O‘RNI

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
UrDU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi
kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.
khiva1970@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilikning yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning pedagoglik faoliyati hamda uning darsliklari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, Abdulla Avloniy darsliklarining ta’lim yangilanishidagi o‘rni masalasi aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, yangi usul, milliy ta’lim tizimi, bolalar adabiyoti, ertak, masal, she’r, axloqiy xislatlar.

УЧЕБНИКИ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ И ИХ РОЛЬ В ОБНОВЛЕНИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотатsiя. В статье рассматривается педагогическая деятельность Абдуллы Авлони, одного из крупнейших представителей джадидизма, и его учебники. Также будет рассмотрен вопрос о роли учебников Абдуллы Авлони в обновлении образования.

Ключевые слова: джадидизм, новый метод, natsiональная система образования, детская литература, сказка, басня, поэма, нравственные качества.

ABDULLA AVLONIY'S TEXTBOOKS AND THEIR ROLE IN EDUCATIONAL RENEWAL

Abstract. This article discusses the pedagogical activity of Abdulla Avloni, one of the major representatives of Jadidism, and his textbooks. The role of Abdulla Avloni's textbooks in the renewal of education is also discussed.

Key words: Jadidism, new method, national education system, children's literature, fairy tale, parable, poem, moral qualities.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek ta’lim tizimida katta o‘zgarishlarni boshlab berdi. Jadid maktablari yangi usul asosida ta’lim-tarbiya berib, eski maktablar va madrasalardagi yodlash va tushunishga asoslanmagan ta’lim tizimidan farqli ravishda amaliy o‘qitish usullariga urg‘u berardi.

Jadid maktablari taraqqiyotining yangi davri – bunday maktablar uchun zamon talablariga to‘la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, yangi texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish XX arsning 10-yillaridan ko‘zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o‘qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish Abdulla Avloniy kabi zamonasining ulug‘ mutafakkirlari zimmasiga tushdi.

XX asr boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egalladi, butun faoliyati davrida u o‘z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni etishtirish, uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi.

Abdulla Avloniy o‘zbek xalqning san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedagogdir.

U faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab umrining oxirigacha o‘qituvchilik qildi, maktablar uchun darsliklar yaratdi, pedagogika fanining amaliy va nazariy masalalari bilan shug‘ullandi. Shuni aytish joizki, u musulmon sharqi pedagogikasining ulug‘ bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschisi, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi faniga tamal toshi qo‘ygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida zamonaviy pedagog va metodistlarni yetishtirdi.

Abdulla Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda

publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim”i ham o‘ziga xos o‘ringa ega; “Birinchi muallim” 1917- yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi). “Birinchi muallim” kitobi boshlang‘ich maktabga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning oddiydan murakkab tamoyili asosida yozilgan. “Ikkinchi muallim” asari esa birinchi kitobning davomi va takomillashtirilgan shakli edi.

Abdulla Avloniy o‘z pedagogik faoliyati davomida “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” va “Turkiy Guliston yoxud axloq” darsliklarini yaratib, milliy ta’lim tizimining rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

Uning darsliklari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega edi:

1. O‘quvchilar uchun sodda va tushunarli tilda yozilgan – matnlar tushunarli qilib yozilib, ko‘pchilik o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan tez o‘zlashtirilgan.

2. Axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalish – Avloniy darsliklarida ilm-fan bilan bir qatorda axloqiy tarbiya ham muhim o‘rin tutadi.

3. Amaliy va hayotiy bilimlar – darsliklarda hayotiy tajribalar, qiziqarli hikoyalar va maqollar orqali o‘rgatilgan.

4. Jadid maktablarida yangi usul bilan o‘qitish – eski maktablar bilan solishtirganda, yangi darsliklar aniq metodikaga asoslangan holda o‘qitilgan.

Mashhur ma’rifatchining “Birinchi muallim” kitobi pandlar, hikoyalar va ibratlar dan tashkil topgan bo‘lib kitob shunday jumlalar bilan boshlanadi: “ Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning “Birinchi muallim”imizdan ham olub, tajriba qilub, o‘qutub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta’m va mazasi vordur. Bu “bo‘y” va ta’m esa tajriba sohiblarina kash va ma’lum o‘lur…”

Maktab o‘quvni ko‘rsotur,
Maktab yozuvni ko‘rsotur,
Maktab uyqudin uyg‘otur,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘glon!

“Ikkinchi muallim” kitobida keltirilgan ushbu satrlardan ham shuni bilish mumkinki, Avloniy bolalarni maktabda tahsil olishi naqadar zarur ekanligi, maktabda o‘qish orqali nafaqat o‘qish va yozishni o‘rganish mumkinlini balki, uyqudagi kishi uyg‘onishi misolida maktab insonni tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgarishiga, hayotga yangicha nigoh bilan qarashiga ishora qiladi.

A.Avloniyning darsliklari mundarijasi, ularning mazmuni, ta’lim-tarbiyaviy jihatlari ko‘plab tadqiqotlarda tilga olingan. Uning bolalar adabiyotiga qo‘shgan benazir xizmati esa o‘sha darsliklardagi she’rlari, hikoyalari, matn va masallarining bolalarbopligidadir.

Avloniy “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to‘g‘risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo‘lsa, “Maktab gulistoni”dagi she’r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olgani ayonlashadi. Zero, bunday she’rlar orqali yosh avlodni ma’rifatga da’vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o‘z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi ham ko‘zlangan.

Har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog‘liqdir. Bolaning saodati uchun uni yaxshi tabiya qilmoq kerak ekanligini, tanasini pok tutmoqlikni, hali yoshlikdan boshlab yaxshi xulqlarni o‘rgatish lozimligini hamda yomon xulqlardan uzoqda saqlash kerakligi haqida aytib o‘tgan bo‘lib, bu fikrlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, ya’ni yosh avlod tarbiyasidagi asosiy g‘oyalardan biridir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur”, — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” – degan chuqur ma’noli

so‘zlari bu fikrning naqadar muhimligini, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

Asrimiz boshida jadidchilik harakatining bosh g‘oyasi bo‘lmish komillik hozirgi istiqlol davrida ham, uning buyuk kelajagida ham dasturiamal bo‘lib qolishi tabiiy. Shu ma’noda ta’lim tarbiya tizimining zamonaviy tub islohotlari mazmun mundarijasi, maqsad va falsafasi o‘sha buyuk ma’rifiy ko‘tarilish – jadidchilik harakatining uzviy bevosita ijodiy davomi, deyish mantiqan adolatlidir. Chunonchi yoshlarni ilm marifatli, ziyoli, vatani xalqiga fidokor bir so‘z bilan aytganda – komil inson qilib tarbiyalash har bir davrning bosh ustuvor maqsadlaridan bo‘lib qoladi.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2024. – 109 b.
2. Avloniy Abdulla.Tanlangan asarlar //Tahrir hay’ati: N. Karimov va boshq,: To‘plovchi B. Qosimov. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2006 . – 304 b.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1- jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2009. – 268 b.
4. Abdulla Avloniy. Birinchi muallim. – Toshkent: “Turon zamin”, 2024. – 160 b.
5. Abdulla Avloniy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.–158 b.
6. Barakayev R. A.Avloniy va bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati. –Toshkent, 1997.
8. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 304 b.

JADIDCHILIK FAOLIYATINI O‘RGANISHDA “JADID” GAZETASINING O‘RNI

U.Maxmudov (Ph.D),
Urganch innovatsion universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri,
O.Shomuratov
Urganch innovatsion universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining ma’naviy-ma’rifiy mohiyati, uning bugungi kun bilan g‘oyaviy bog‘liqligi, shuningdek, “Jadid” gazetasi misolida ushbu merosni zamonaviy jamiyatga yetkazishdagi sa’y-harakatlar tahlil etilgan. Yangi gazetaning nashr etilishi xalq ongini uyg‘otish va milliy o‘zlikni mustahkamlashdagi o‘rni bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifat, matbuot, milliy uyg‘onish, “Jadid” gazetasi, Yangi O‘zbekiston. Iqbol Mirzo, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Muharrir minbari”, Bahodir Karimov.

Аннотатsiя: В статье анализируется духовно-просветительская сущность движения джадидов, возникшего в начале XX века, его идейная актуальность для наших дней, а также усилия по донесению этого наследия до современного общества на примере газеты «Джадид». Издание новой газеты объясняется ее ролью в пробуждении общественного сознания и укреплении natsиональной идентичности.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, пресса, natsиональное пробуждение, газета «Джадид», Янги Узбекистон. Икбол Мирзо, «Узбекская литература и искусство», «Редакционная кафедра», Баходир Каримов

Abstract: This article analyzes the spiritual and educational essence of the Jadid movement, which emerged at the beginning of the 20th century, its ideological relevance to the present day, as well as efforts to convey this heritage to modern society using the example of the "Jadid" newspaper. The publication of the new newspaper is explained by its role in awakening public consciousness and strengthening national identity.

Keywords: Jadidism, enlightenment, press, national awakening, "Jadid" newspaper, “Yangi Uzbekiston”, Iqbol Mirzo, “Uzbek literature and art”, “Editor's pulpit”, Bahodir Karimov.

Jadidchilik – o‘zbek xalqining yangi tarixiy bosqichga kirishida asosiy o‘rin egallagan harakatdir. Jadidlar Yevropa taraqqiyoti tajribasidan foydalangan holda, musulmon jamiyatining yangilanishi va o‘zgarishini nazarda tutgan g‘oyalarni ilgari surganlar. Ular o‘z vaqtida ta’lim tizimini isloh qilish, matbuotni rivojlantirish, milliy o‘zlikni tiklash masalalarini kun tartibiga olib chiqqanlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilari tomonidan tashkil etilgan maktablar, gazeta-jurnallar va kitoblar orqali xalq ongiga ta’sir ko‘rsatildi. Shunday omillar tufayli jadidchilik harakati XX asr boshlarida milliy uyg‘onishning muhim harakati sifatida tarixga kirdi.

Jadid ma’rifatparvar bobolarimiz millatni uyg‘otish, uni taraqqiyot sari undash uchun ham ishni eng avvalo gazeta ta’sis etishdan boshlagan. “Tarjimon”, “Oyina”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Najot”, “Hurriyat”, “Al-isloh” kabi bosma nashrlar orqali milliy istiqlol, hurriyat, ma’rifat kabi hayotbaxsh g‘oyalarni xalq ichiga olib kirishga intildilar. So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan jadid ma’rifatparvar bobolarimizning Vatan taraqqiyoti, millat ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yanada keng tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining “Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, degan so‘zlari shunchaki tarixiy ma’lumot emas, balki har birimiz uchun jiddiy chaqiriq ekanini teran anglashimiz shart.

Shuningdek, Prezidentimiz 2023-yil 11-dekabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada jadidchilik harakatining nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirganini ta’kidlab, ularning boy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish muhimligini qayd etgan . Prezidentning fikricha, jadid bobolarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish, ularning milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda[1] .

Shuningdek, davalatimiz “Jadid” gazetasi haqida ham o‘z fikrlarini bildirgan. Uning aytishicha, “Jadid” gazetasi ezgu an’analarni davom ettirib, ulug‘ ajdodlarimizning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan mushtarak bo‘lgan g‘oya va dasturlarini atroflicha yoritish, bu qutlug‘ merosni el-yurtimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizning qalbi va ongiga yetkazishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda o‘ziga xos erkin minbar bo‘ladi”.

Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabrda o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirish, ziyoli va ijodkorlarni birlashtirishga daxldor tashabbuslari qatorida “Jadid” gazetasini ta’sis etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi hamda ushbu nashrni yangi yilning birinchi kunida chop etish taklifini ilgari surdi. Qisqa fursat davomida – bor-yo‘g‘i sakkiz kun ichida sakkiz sahifalik gazetaning ilk nishona soni nashrga tayyorlandi. “Jadid” gazetasinng tashkil etilishi haqida Bahodir Karimov, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, gazetaning tashkil etilishini quyidagicha baholadi: “Yangi yil yangi bir tarixiy hodisa bilan boshlandi. 2024-yilning ilk kunida “Jadid” degan gazeta qo‘limizda turibdi. Uning tashabbuskori Prezidentimiz bo‘lib, bu gazeta tom ma’noda ma’rifatparvar bobolarimiz orzu qilgan yangi zamonning shukronasi, Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida bugun yana millat oydinlarini birlashtirishdek ezgu g‘oya tantanasidir.”[2]

Iqbol Mirzo, gazetaning bosh muharriri, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi o‘rniga “Jadid” gazetasining tashkil etilishi haqida shunday dedi: “Gazeta yopilgani yo‘q, qaytaga qulochini kengroq yoydi. Bu gazeta “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” bo‘lib, ustozimiz Abdulla Oripov

1.Mirziyoyev, Sh. M. “Jadidlar – milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”. Xalqaro konferensiyadagi nutqi, 11-dekabr 2023. www.president.uz

2 https://www.kun.uz/news/2023/12/22/prezident-manaviyat-va-marifat-sohasida-9-ta-yo‘nalishda-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi

aytganidek, “Ikki daryo oralig‘ida qog‘oz shaklida qolib ketayotgan edi. Bugun biz buning elektron nusxasini butun dunyoga tarqatish imkoniyatiga egamiz.”

Ana shu jarayonda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi negizida paydo bo‘lgan bu gazetaning xodimlari, jadidshunoslar, olimlar, ziyolilar jiddiy ishladi va juda qisqa muddat davomida davlatimiz rahbarining topshirig‘i bajarildi. Prezidentimizning bu tashabbusini nafaqat biz – o‘zbek olimlari, balki xalqaro miqyosdagi jadidshunos olimlar, jadid adabiyoti, jadid madaniyati, jadid san’ati bilan shug‘ullanadigan barcha ziyo ahli qo‘llab-quvvatladi. O‘ylaymanki, gazeta sahifalarida xorijdan kelgan ko‘p manbalar, materiallar ham o‘z ifodasini topadi.

“Jadid” gazetasining ilk sonini tayyorlash jarayoni qizg‘in kechdi. Nashrda O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli ijodkor Iqbol Mirzoning “Muharrir minbari” rukni ostidagi “Birlashmoq davri” sarlavhali bosh maqolasida mazkur yangi nashrning mazmun-mohiyati, maqsad-muddaolari, yo‘nalishi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Bugun dunyoda yangilanayotgan O‘zbekiston sifatida e’tirof etilayotgan mamlakatimizda kechayotgan ma’rifiy islohotlarning jadid bobolarimiz g‘oya va intilishlari, maqsad-muddaolariga nechog‘li hamohang ekani teran, samimiy, ravon, xalqchil tarzda ifoda etilgan[1].

Shuningdek, “Jadid” gazetasi O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Gazeta o‘z oldiga quyidagilarni maqsad qilib belgilagan:

- Jadidchilik harakati vakillari — o‘zbek xalqining ma’rifiy, siyosiy va milliy uyg‘onish tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng yoritish.
- Milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalarini ommalashtirish.
- Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan jadidlar merosi o‘rtasidagi uyg‘unlikni targ‘ib qilish.
- Yosh avlod qalbida milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlash.

Nashrning yo‘nalishi:

- Tarixiy va ma’rifiy maqolalar.
- Jadidlarning ilm, ta’lim, madaniyat, siyosat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari.
- Zamonaviy o‘zbekistonlik ziyolilar va tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari.
- Milliy davlatchilik, demokratiya va huquqiy jamiyat qurish g‘oyalari.

Gazetaning ahamiyati:

- Jadidlar merosini zamonaviy talqin qilish va ularni yoshlar ongiga singdirish.
- Milliy g‘oya va ma’naviyatni mustahkamlashda yangi bosqichni boshlash.
- Jamoatchilik fikrini ma’rifat asosida shakllantirishga xizmat qilish.

Gazeta sahifalarida buyuk millatparvar, ma’rifatparvar bobolarimizning millatni isloh etishga oid g‘oyalari, «Manbalar», «Tamaddun», «Oyina», «Boqiy meros», «Davr ruhi», «Meros», «Moziy sabog‘i», «Fikr maydoni» kabi ruknlar ostida taniqli adabiyotshunoslar, yozuvchilar, publitsistlar, olimlar, tarixchilarning ilmiy-ommabop maqolalari joy oldi.[2]

Jadid deganda ularning amalga oshirgan eng muhim ishlari sifatida ma’rifatparvar bobolarimizning maktablari, darsliklari, gazetalari ko‘zimiz oldiga keladi. Millatimizni, davlatimizni yangi bosqichga olib chiqish uchun, Prezidentimiz jon kuydirib harakat qilayotgan taraqqiyot yo‘lida islohotlarni yanada dadilroq darajaga olib chiqishimiz uchun bugun ilg‘or umumfikrlarni jamlaydigan va buni xalqimizga tushunarli qilib yetkazib beradigan minbar zarurati paydo bo‘ldi. Gazeta ham jadid bobolarimizning «Tilda, fikrda, ishda birlik!» degan qutlug‘ so‘zlarini shior qilib olgan. Bu bekorga emas. Demak, biz birlashishimiz, Prezidentimizning ishonchini oqlashimiz kerak. Mana shu ma’noda men hamma do‘stlarimizni hamkorlikka chaqiraman. Bu yangi minbar hammaga muborak bo‘lsin! “Jadid” gazetasi ana shunday jasoratli ziyolilar uchun asosiy minbarga aylanishiga bel bog‘laganmiz va bu borada barcha jonkuyar, fidoyi yurtdoshlarimizni ijodiy hamkorlikka chorlaymiz,” – dedi «Jadid» gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzo.[3]

Darhaqiqat, «Jadid» gazetasi tom ma’noda ma’rifatparvar bobolarimiz orzu qilgan yangi zamonning shukronasi, Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida bugun yana millat oydinlarini birlashtirishdek ezgu g‘oya tantanasidir. Yangi O‘zbekistonning muhtasham ushbu nashri xalqimiz ziyolilari, keng jamoatchilik tomonidan yangi fikr ufqlarini ochguvchi ma’rifiy nashr sifatida katta ko‘tarinkilik bilan kutib olindi. «Jadid» gazetasining nishona soni hamda ushbu yangi nashrni ta’sis etishning tarixiy

[1] Mirzo Iqbol. “Muharrir minbari: Birlashmoq davri”. Jadid gazetasi, 2024-yil, 1-son
[2] https://www.jizzax-ovozi.uz/jamiyat/3942-jadid-gazetasi-birlashmoq-davrining-minbari.html
[3] Mirzo Iqbol. “Muharrir minbari: Birlashmoq davri”. Jadid gazetasi, 2024-yil, 1-son.

ahamiyati haqida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Madaniyat va ma’rifat» telekanalida taqdimot qilindi.

Jadidchilik harakati o‘zbek xalqining tarixiy rivojida beqiyos iz qoldirgan. Bu harakat vakillari matbuot orqali xalqni uyg‘otish, milliy g‘urur va istiqlol ruhini tarbiyalashga intilganlar. Bugungi kunda “Jadid” gazetasi mazkur tarixiy an’anani zamonaviy sharoitda davom ettirib, jadidlar merosini ommalashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yo‘lida samarali faoliyat olib bormoqda. Gazetaning nashr etilishi nafaqat tarixiy xotirani jonlantirish, balki Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim g‘oyaviy quvvat manbaiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘ychiyev S. Jadidchilik harakati: tarix, tamoyillar, saboqlar. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Mirziyoyev. Sh. M. “Jadidlar – milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”. Xalqaro konferensiyadagi nutqi, 11-dekabr 2023. www.president.uz
3. https://www.kun.uz/news/2023/12/22/prezident-manaviyat-va-marifat-sohasida-9-ta-yo‘nalishda-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi
4. https://www.jizzax-ovozi.uz/jamiyat/3942-jadid-gazetasi-birlashmoq-davrining-minbari.html
5. Babadjanov. B. Jadidchilik harakati va musulmon islohoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
6. Avloniy. A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
7. “Jadid” gazetasi. 2024-yil, 1-son. Tashkil etilish tarixi haqida.
8. Mirzo Iqbol. “Muharrir minbari: Birlashmoq davri”. Jadid gazetasi, 2024-yil, 1-son.

JADIDCHILIK RUHINI DAVOM ETTIRISH – ZAMONAVIY O‘QITUVCHI VA YOSHLARNING VAZIFASI: TAKLIF VA MULOHAZALAR

Abdullayeva Sanobar Ibadullayevna, *Urganch Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi*
E-mail:abdullayevasanobar41@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari va ularning bugungi kun ta’lim tizimi bilan uzviy aloqasi yoritilgan. Jadidlarning ilm-ma’rifat, tafakkur, vatanparvarlik va zamonaviylikka intilish kabi tamoyillari hozirgi o‘qituvchilar va yoshlar faoliyatida qanday davom ettirilishi zarurligi muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining roli, yoshlarning mas’uliyati va amaliy takliflar orqali jadidchilik merosini asrash yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: jadid, mafkura, g‘oyalar siyosati, ilm-ma’rifat, tarixiy meros, ijtimoiy-ma’rifiy oqim.

Аннотатsiя. В данной статье освещаются основные идеи джадидистского движения и их тесная связь с современной системой образования. Обсуждается, как принципы джадидов, такие как наука, просвещение, созерцание, патриотизм и стремление к современности, должны быть продолжены в деятельности нынешних учителей и молодежи. Он также показывает роль современного учителя, ответственность молодежи и способы сохранения наследия джадидизма с помощью практических предложений.

Ключевые слова: Джадид, идеология, политика идей, наука-просвещение, историческое наследие, социально-образовательный поток.

Annotatsion. This article highlights the main ideas of the Jadidist movement and their close connection with the modern education system. It discusses how the principles of the Jadids, such as science, enlightenment, contemplation, patriotism and the pursuit of modernity, should be continued in the activities of current teachers and youth. He also shows the role of modern teachers, the responsibility of youth, and ways to preserve the legacy of Jadidism through practical suggestions.

Keywords: Jadid, ideology, politics of ideas, science-enlightenment, historical heritage, socio-educational stream.

Kirish. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek jamiyatida ilm-ma’rifat, tafakkur va yangilanish sari muhim burilish yasagan ijtimoiy-ma’rifiy oqim bo‘ldi. Jadidlar xalqni uyg‘otish, ta’limni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy dunyo bilan hamqadam bo‘lishni maqsad qilgan edi. Bugun ularning bu yuksak g‘oyalari nafaqat tarixiy meros, balki amaliy yo‘nalishda ham davom ettirilishi lozim.

Jadidlar ta’limda zamonaviylik, yangilanish, ilm-fanga asoslangan o‘quv metodlarini ilgari surdilar. Ulug‘bek Xo‘jayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar “Millatni qutqarish – ma’rifatdadir” degan g‘oyani hayotga tatbiq etishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida xalqni ogohlikka, bolalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga, ayollarni o‘qitishga alohida urg‘u berilgan. Jadidchilik namoyandalari ilgari surgan g‘oylar fikrlarning bugungi kundagi ahamiyatini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin: **Ma’rifatparvarlik g‘oyalarining davomiyligida**: Jadidlar ilgari surgan ilm, fan, tafakkur, mustaqil fikr yuritish va zamonaviy ta'lim tizimi g‘oyalari bugun ham dolzarb. Zamonaviy O‘zbekistonda sifatli ta’lim, innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. **Milliy o‘zlikni anglashda**: Jadidlar milliy o‘zlikni saqlash, til va madaniyatga e’tibor berish tarafdori bo‘lgan. Bugun ham milliy qadriyatlar va urf-odatlarga asoslangan taraqqiyot konsepsiyasi ularning ishini davom ettirmoqda. **Modernizatsiya va islohotlar ruhiyatida**: Jadidlar jamiyatni ilg‘or G‘arb tajribasini o‘rganish orqali modernizatsiya qilishga intilgan. Bugungi islohotlar jarayoni – ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda – jadidlar ruhi va fikriga uyg‘un. **Ochiq jamiyat va ijtimoiy faollik harakatlarida**: Jadidlar matbuot, teatr, maktablar orqali jamoatchilikni faol bo‘lishga undagan. Hozirgi fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, OAVning faoliyati ham jadidlar asos solgan an’anaga bog‘liq. **Ayollarning o‘rni va ta’limida**: Jadidlar ayollar ta’limini muhim deb bilgan. Bugungi gender tengligi siyosati, ayollarni faol hayotga jalb etish harakati jadidlar fikrlarining zamonaviy davomidur.

Bugungi o‘qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki fikrlashga, izlanishga va jamiyatda faol bo‘lishga undovchi yetakchi bo‘lishi zarur. Jadidlar boshlab bergan ta’limdagi yangilanish ruhi – hozirgi kunda STEAM metodikasi, interaktiv darslar, raqamli vositalardan foydalanish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali davom etmoqda. O‘qituvchi o‘z darslari orqali jadidlar singari o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki ma’naviy mezon, hayotga ongli yondashuvni ham berishi kerak. Bugungi kunda jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilishda o‘qituvchining vazifalari nihoyatda muhim va ko‘p qirrali. Jadidlar ilgari surgan ma’rifat, yangilanish, zamonaviy bilimlar va tarbiyaning ahamiyati bugungi ta’lim jarayonida ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Quyida o‘qituvchining asosiy vazifalari keltirilgan:

a) Zamonaviy va milliy ta’lim uyg‘unligini ta’minlash

O‘qituvchi har bir darsda milliy qadriyatlar bilan zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirib, jadidlar g‘oyasini hayotga tatbiq etadi. Bu – o‘quvchilarda o‘zligiga sadoqat va global tafakkur uyg‘otadi.

b) Ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilish

Jadidlarning asosiy maqsadi – xalqni savodli qilish, ilm-fanga rag‘bat uyg‘otish edi. Bugungi o‘qituvchi yosh avlodni o‘qishga, ilm olishga undashi, mustaqil fikrlashga o‘rgatishi kerak.

d) Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish

Jadidlar shunchaki bilim emas, tafakkur, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish tarafdori edilar. O‘qituvchi ham o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, savol berishi va ijod qilishini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

f) Vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish

Jadidlar yoshlarni vatanini sevuvchi, halol, ma’suliyatli fuqaro qilib tarbiyalashga intilgan. O‘qituvchi bugun shu yo‘lni davom ettirib, o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka, mas’uliyatli fuqarolikka yetaklaydi.

j) Ochiq fikrlilik va diniy bag‘rikenglikni o‘rgatish

Jadidlar islomiy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy dunyoqarashga ochiq bo‘lishni targ‘ib qilganlar. Bugungi o‘qituvchi ham turli dunyoqarash va madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishga o‘rgatadi.

f) Raqamli va texnologik savodxonlikni oshirish

Jadidlar davrida bosma matbuot, teatr, maktab yangilik edi. Bugun esa raqamli texnologiyalar har bir sohaning asosi bo‘lib jamiyatga kirib keldi. O‘qituvchi o‘quvchilarning axborot texnologiyalaridan ongli va samarali foydalanishiga yo‘l ko‘rsatadi.

Jadidchilik ruhini davom ettirishda yoshlarning roli va mas’uliyati oshirish bugungu kun o‘qituvchisining asosiy vazifasidir. Yoshlar – har qanday millatning kelajagi. Jadidlar yosh avlodni “yangi dunyo” quruvchisi sifatida tasavvur etganlar. Bugun yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochilgan: raqamli texnologiyalar, chet tillarini o‘rganish, xorijiy ta’limga chiqish – bular barchasi jadidlar orzu qilgan rivojlanish sari qadamdir. Shuning uchun har bir yosh o‘z ustida tinimsiz ishlashi, jadidlar singari

maqsadli va g‘ayratli bo‘lishi kerak. Bu faoliyatni yuzaga keltirish uchun bir qancha amaliy takliflar berishimiz mumkin:

- Maktablarda “Jadidlar merosi” mavzusida haftaliklar, adabiy kechalar tashkil etish;
- O‘quvchilar orasida insholar, ilmiy maqolalar tanlovini yo‘lga qo‘yish;
- O‘qituvchilar uchun jadidlar pedagogikasi asosida metodik qo‘llanmalar yaratish;
- Mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida “Zamonamiz jadidlari” loyihasi asosida yosh liderlarni tayyorlash.

Xulosa. Jadidchilik harakati tarixiy bosqichda o‘zining bebaho izini qoldirdi. Bugungi kunda o‘sha ruh, o‘sha g‘ayrat – o‘qituvchilarning fidoyiligi va yoshlarning intilishi orqali yana davom ettirilishi mumkin. Bugungi kun o‘qituvchisi – bu yangi davr jadidi. U nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni ma’rifat, vatanparvarlik, mustaqil tafakkur va zamonaviy tafakkur bilan qurollantiruvchi tarbiyachi bo‘lishi kerak. Agar biz jadidlar yo‘lini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtira olsak, jamiyatimizda yuksalish, ma’rifat va taraqqiyot yo‘li ochiladi. Jadidchilik harakati bugungi O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo taraqqiyotida ideologik, madaniy va ta’limiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning o‘zgarish, islohot va taraqqiyot haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov, B. “Jadidlar: ma’rifat va istiqlol yo‘lida”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
2. G‘oyibnazarov, S. “Jadidchilik: ma’rifiy harakat tarixidan”. – Toshkent: Sharq, 2015.
3. Yo‘ldoshev, Q. “Ma’naviyat asoslari”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
4. Abdullayeva, D. va boshqalar. “Zamonaviy pedagogika”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. Ibragimova, F. “Yoshlar tarbiyasida qadriyatlar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Xudoyberdiyev, Q. “Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy o‘qituvchi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

REFLECTIONS ON THE WORKS OF ABDURAUF FITRAT IN THE ANTHOLOGY “SAMPLES OF TAJIK LITERATURE”

Saidova Rayhon Bekmurodovna,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Ma’mum akademiyasi doktoranti.
E-mail: malikau494@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada jadidchilik harakatining yorqin siymosi Abdurauf Fitratning adabiy merosi , zamonaviy tojik she’riyatining vujudga kelishida shoir lirikasining ahamiyati yoritib berilgan. Adabiyotshunos Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan “Namunai adabiyoti tojik” antologiyasidan o‘rin olgan lirik so‘z ustasi Abdurauf Fitratning ijodiga, shoirlik faoliyatiga bag‘ishlanadi. Adabiyotimizning nozik nuktadoni Sadriddin Ayniy shoir Abdurauf Fitratni yangi davr adabiyotida burilish yasagan ijodkor deb hisoblaganligi, Fitratning “Sayha” to‘plamidagi she’rlar, nasriy asarlari orqali adabiyotda keskin inqilob bo‘lganligi xususidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Fitrat, Sadriddin Ayniy, she’r, shoir,“Sayha”, “Namunai adabiyoti tojik”, antologiya, tojik she’riyati

Аннотатsiя: данная статья посвящена творчеству и поэтической деятельности творца Абдурауфа Фитрата, вошедшего в альманах «Образцовая таджикская литература», составленного литературоведом Садриддином Айний. Садриддин Айний, прекрасный знаток нашей литературы, считал поэта Абдурауфа Фитрата творцом, совершившим поворот в литературе новой эпохи, и благодаря стихам и прозаическим произведениям сборника Фитрата произошел резкий переворот в литературе “Сайха”.

Ключевые слова: Фитрат,Садриддин Айний, поэма, поэт, “Сайха”, “Образец таджикской литературы”, антология, таджикская поэзия.

Abstract: This article is dedicated to the work and poetic activity of the creator Abdurauf Fitrat, who was included in the anthology "Exemplary Tajik Literature" compiled by literary critic Sadriddin Ainiy. Sadriddin Ainiy, a fine pundit of our literature, considered the poet Abdurauf Fitrat to be a creator who made a turning point in the literature of the new era, and there was a sharp revolution in literature through the poems and prose works of Fitrat's collection "Sayha".

Key words: Fitrat, Sadriddin Ainiy, poem, poet, "Sayha", "Sample Tajik literature", anthology, Tajik poetry

Introduction.

The third part of the anthology *"Samples of Tajik Literature"*, compiled by the refined literary scholar Sadriddin Ayni, begins with the works of Abdurauf Fitrat and includes writers active during the period of 1905–1917. In this book, Professor Ayni introduces the poet as "Abdurraufi Fitrat of Bukhara" and dedicates nine pages to his work. After a brief account of Fitrat's biography, excerpts from his poetic collections *"Munozara"* and *"Sayha"*—including ghazals and poems in the tarkibband genre—are presented, along with passages from his works such as *"Bayonoti Sayyohi Hindi"*, *"Rahbari Najot"*, *"Oila"*, and *"Musulmononi Dorurrohat"*. Following the literary samples, information is also provided about the publication of the book.

Main Part

To analyze Sadriddin Ayni's study of Abdurauf Fitrat's creative work, it is appropriate to first have some background on Fitrat's poetic activity. The poet Abdurauf Fitrat launched the new Uzbek poetry with a beautiful lyrical collection consisting of only seventeen poems. The family environment played a significant role in his development as a poet. His mother, Mustafbibi—also referred to as Bibijon in some sources—was a refined poetess with a deep appreciation for poetry. Her sensitivity to poetry influenced young Abdurauf from an early age and became a key factor in drawing him closer to the world of literature. Fitrat, a multifaceted creator, entered the literary world through poetry. His works were published in newspapers such as *Sadoyi Turkiston* and *Buxoroyi Sharif*. His book, titled *Sayha* (meaning "The Call" or "The Cry" in Uzbek), was published in Uzbek. The *Sayha* collection includes fourteen poems in Persian. These poems were among the first steps into the new era of Tajik poetry. Fitrat's Persian poems were also included in the anthology *"Samples of Tajik Literature"* compiled by Sadriddin Ayni [7, pp. 534–545]. Ayni notes in his work *"History of the Bukhara Revolution"* that these poems quickly gained popularity among readers, and he describes their influence as "as powerful as electric energy." He acknowledges that *Sayha* spread rapidly not only in Turkestan but also in major cities of Turkey, Germany, and Russia, and that the collection significantly shaped the worldview of poetry readers across various countries, living up to its name [6, p. 101].

The poems included in the *Sayha* collection had such a wide impact among poetry readers that they were eventually published in the press even in the poet's birthplace. As a result, the readers' demand was partially satisfied. In the July 1914 issues of the newspaper *Sadoi Turkiston*, the poems were published as a series. According to Fayzulla Khojaev, it was precisely after the issue featuring Fitrat's poems that the newspaper was shut down. The main themes of the poems in this collection revolve around patriotism and a call to love the homeland. In this regard, Fayzulla Khojaev noted: "After reading *Sayha*, not only the Bukhara government but also the Russian authorities began persecuting readers. This is because the idea of Bukhara's independence was clearly expressed for the first time in these poems" [5, 99]. Another noteworthy aspect is that many literary scholars recognize that with his Persian-language poetry, Fitrat laid the foundation of modern Tajik poetry. Sadriddin Ayni, who compiled the *Samples of Tajik Literature*, presented the poet Abdurauf Fitrat as the founder of 20th-century Persian-Tajik literature. Because this topic is worthy of separate scholarly analysis, we will return to this specific issue in our future research. In the anthology *Young Uzbek Poets*, compiled in the 1920s, Fitrat's Uzbek-language poetic samples were also included. In this study, we also aim to analyze the charming and delicate features of Fitrat's poetry. Among the scholarly works we have examined, the most significant contribution to the study of Abdurauf Fitrat's poetic activity belongs to Professor Sadriddin Ayni. He wrote: "Regarding Fitrat's poetry, it must be said that he was one of the first among Uzbek writers to compose poems in folkloric forms. This was innovative in our written poetic tradition, which for about a thousand years had known no form other than *aruz*" [6, 101]. Ayni's opinion is supported by the following thoughts emphasized in Fitrat's own article:

“We still hear fairy tales, proverbs, stories, songs, and lullabies passed down under the name of Turk among Uzbeks, Tatars, Kyrgyzs, and Turkmens. We know that among Turkmen and Kyrgyz tribes, even the young people—though they may not know how to read or write—have girls who are skillful in poetic speech. Each of these is nothing but a precious stone dropped from the ancient school of Turkic literature. From the folk tales passed from mouth to mouth among the people, it becomes quite clear that this ancient school of Turkic literature contained not only love and romance, but also philosophy, wisdom, and morality.” The scholar understood deeply that Fitrat embodied all the beauty of classical Eastern poetry and was able to introduce a new wave to traditional poetry, erupting like a volcano.

The poet Fitrat was a refined romantic; the creator himself did not call his poems "rubābī poems" (melodic, lyre-like poems) without reason. In the poem *“My Beauty, My Faithless Garden…”*, the delicate metaphors and elegant similes characteristic of classical literature appear as a continuation of the beauty of ancient Eastern poetry:

Kel, ayoqingg‘a qon bo‘lib to‘kulay,
Bir nafas dardi hajrdan qutulay.
Kel, go‘zal dilbarim, kel, sochingni
Bir taray, bir o‘pay-da so‘ngra…
Meni behuda tashlading -ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tark etding.[4.45]

The directions of change in 20th-century literary poetry—its external forms and methods of emotional expression—are closely connected to the Jadid era, and literary theories were also developed by great literary scholars like Fitrat. In Abdurauf Fitrat’s book *Rules of Literature* (*Adabiyot qoidalari*), in addition to discussing all three main literary types and newly emerging genres, he addressed controversial questions such as: *What should the true form and content of literature be?* Just consider the following thoughts he shared about poetry alone:

"As long as we consider poetry to consist only of 'meter' and 'rhyme', we will never get close to true poetry. Following our usual approach, we take ten or fifteen words like 'wine, goblet, ecstasy, state, letter, eyebrow, eye, flower, nightingale', arrange them according to a metrical pattern, use words like 'state, mole, mood' as rhymes, and then walk away calling ourselves poets. However, poetry is one thing, and 'rhyme' and 'meter' are quite another." [4, 7]

It is evident that, in the matter of poetry, Fitrat prioritizes passion over "rule-based" approach. Indeed, for the poet, it is not form but emotion that should transfer from the heart to the words. In this regard, we find it necessary to address the points related to emotion. When Abdurauf Fitrat investigates the delicate layers of poetry with precision, he expresses his stance on the idea: "Poetry is the act of pouring the waves of feeling from the heart into words." He also shares his opinion:"Especially, if we—those who are far from true poetry and art—take every word that comes to mind as 'the waves of feeling in our hearts' and pour them out into the world, God forbid, our readers may find no way to escape."

Although he sought innovations in the structure of poetry, Fitrat revealed the potential of the Uzbek language, proving the elegance of the Turkic language to the fullest extent. He brought Uzbek words—those that had struggled to express their delicacy under the shadow of Arabic and Persian—into his poems. In his poetry, he conveyed the call to action and awakening through the noble words of our people, which is why his words could easily enter the hearts of his audience:

Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni,
Yondirib qo‘y, yirtib tashla,
barchasin yo‘q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo‘rlikdir bu…
Yiqil, yo‘qol, ket! [4.41]

Regarding the language and style of Fitrat’s poetry, the Fitrat scholar Hamidulla Boltaboyev, in his book *Fitrat and Jadidism*, supports the above idea through an excerpt from Abdurahman Sa’diy's work: “Fitrat’s role in young Uzbek literature is evident in his language and style. He blocked the path for Arabic and Persian words in literature, drawing many Uzbek poets to his language and style. He set the course for the development of Uzbek poetry structure.” [2, 12]

It is impossible to overlook Fitrat's significant contribution to the development of 20th-century Uzbek modern poetry, particularly in the advancement of the *barmoq* meter. Abdurauf Fitrat, an encyclopedic personality, was not only a playwright, scholar, novelist, and journalist, but also a talented poet. His poetic talent is evident in the poetry collections created in both Uzbek and Persian. Fitrat also

has a poem titled *The Poet*. This poem is expressed through the voice of the lyrical hero, who seeks spiritual assistance to rise toward the heavens of humanity.

Shoir tabiatdan sirli, teran ma’nolarni…
Chin yo‘llar bilan izlar-topar,
o‘zi uchun saqlamas.
Ularni yoz gulining yaprog‘idan
to‘kulgan so‘zlar ilan bizga o‘rab topshirar [4.39]

In the verses, the poet’s primary task is to “wrap up and deliver the words, like pearls fallen from a flower’s petal,” meaning to convey them to the listener. The poet, a master in transferring the truth of emotions born in his heart to the receptive soul, uses metaphors, found and expressed at the right moment, as his means of “wrapping and delivering.”

Throughout the poem, the poet, who does not expect any praise or kindness from the beloved, asks for help from the readers. He requests that they offer support to his struggling soul and seek solace for his spirit from the readers.

Emish…shoir sevgilisiga yozgan
bir yozuvga qayg‘ularini to‘kmish,
So‘zlarining eng oxirida ondin
Ruhi uchun oz ko‘mak istamish.[4.39]

In the depiction of the poet's image, the suffering person is brought before us. His soul, "unable to receive any kindness from the beloved," is weak and weary, with a "soul crying out in agony in his body." The hope of asking the reader for a little help for his soul, along with the aspiration for spiritual elevation, concludes the poem.

In conclusion, it must be said that poetry is an extremely complex phenomenon, and the poet himself is a highly contradictory personality, a phenomenon in his own right. This is particularly evident in Abdurauf Fitrat’s serious attitude toward poetry and being a poet. As we have been taught, literary studies in modern times recognize literature—poetry in particular—as one of the arts.

ADABIYOTLAR:

1. Nizomiy Aruzi Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
3. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She’riyat. –T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). –T.: Manaviyat, 2009.
5. Xo‘jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1976.
6. Ayniy S. Ta’rixi inqilobi Buxoro. – Dushanbe: Adib, 1987.
7. Ayniy S. Namunai adabiyoti tochik. – M.: Markazii xalqi Ittihodi jamohiri sho‘raviiso‘siyolisti, 1926.
8. Boltaboyev H. She’r va shoirliq // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi,1995. –16-iyun.
9. Komatsu. H. 20. Yuzyil baslarinda Orta Asyada Turkchuluk ve Devrim Hareketleri. – Ankara:1993.

JADIDLAR VA ULARNING TA’LIM-TARBIYA USULLARINING BUGUNGI KUNDA AHAMIYATI

Raxmanova Shirin,
Ma’mun universiteti,
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Shermamatova Maftuna,
Ma’mun universiteti,
tarix yo‘nalishi II bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati va uning vakillari tomonidan ilgari surilgan ta’lim-tarbiya usullarining mazmun-mohiyati hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri tahlil etiladi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangicha o‘qitish metodlari, ilm-fanga asoslangan

yondashuvlar, milliy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tamoyillarining bugungi ta’lim jarayonidagi dolzarbligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ularning ilg‘or g‘oyalari asosida yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash yo‘llari haqida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, jadidchilik harakati, ta’lim-tarbiya, yangicha metodlar, zamonaviy ta’lim, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogika, islohotlar.

Аннотатsiя: В статье анализируется сущность движения джадидов и образовательные методы, выдвигаемые его представителями, а также их влияние на современную систему образования. Показана актуальность выдвинутых джадидами новых методов обучения, научно обоснованных подходов и принципов образования, основанных на natsiональных и духовных ценностях, в современном образовательном процессе. Также сделаны выводы о способах воспитания подрастающего поколения как всесторонне развитых личностей на основе их прогрессивных идей.

Ключевые слова: джадиды, джадидское движение, образование, новые методы, современное образование, духовное воспитание, natsiональные ценности, педагогика, реформы.

Abstract: This article analyzes the essence of the Jadid movement and the educational methods put forward by its representatives, as well as their impact on the modern education system. The relevance of the new teaching methods, science-based approaches, and principles of education based on national and spiritual values put forward by the Jadids in today's educational process is shown. Also, conclusions are made about the ways of educating the younger generation as a well-rounded person based on their progressive ideas.

Keywords: Jadids, Jadid movement, education, new methods, modern education, spiritual education, national values, pedagogy, reforms.

XX asrning boshlarida, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda jadidlar harakati o‘ta muhim ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida paydo bo‘ldi. Ularning ta’lim-tarbiya usullari faqat o‘sha davrda emas, balki bugungi kunda ham ahamiyatga ega bo‘lib, yurtimizda ta’lim tizimi va uning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Jadidlar harakati, zamonaviy o‘zbek ta’limining rivojlanishida muhim bir bosqichni tashkil etadi.

Jadidlar harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonda, asosan, rus imperiyasining tasarrufiga o‘tgan davrda yuzaga keldi. Jadidlar o‘z ta’lim va madaniyatni yangilashni, isloh qilishni maqsad qilishdi. Ular eski maktablar tizimi, ya’ni madrasalarni zamonaviy, ilm-fan asosida tashkil etish va bolalarga zamonaviy bilim berish tarafdorlari bo‘lishdi. Jadidlar turli sohalarda, ayniqsa, ta’limda islohotlar o‘tkazishga harakat qilishdi. Usmonli turk xalqidan olingan tajribalar, arab, fors va rus tillarini o‘rganish, ilm-fan asoslarini o‘rganish – bu jadidlarning ta’lim tizimida aks etgan eng muhim jihatlar edi.

Jadidlar, ta’lim tizimini isloh qilishda, ilg‘or va zamonaviy yondashuvlarni qo‘lladilar. Ularning ta’lim-tarbiya usullari, ayniqsa, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: Ilm-fanga asoslangan ta’lim: Jadidlar an’anaviy diniy maktablarning o‘rniga, imatematika, geometriya, tarix, tabiiy fanlar kabi sohaga asoslangan ta’limni targ‘ib qildilar. Bu bilimlarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati bugungi kunda ham tasdiqlangan. Milliy madaniyatga hurmat: Jadidlar o‘zining ta’lim tizimida milliy va madaniy qadriyatlarni muhim deb bilishdi. O‘zbek tilining va milliy adabiyotning rivojlanishi, zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etilishi – bu o‘z davrining yangiliklaridan edi. Yoshlarning tarbiyasiga e’tibor: Jadidlar faqat ilm olishga e’tibor bermay, bolalarni tarbiyalashni ham muhim deb hisoblashdi. Ular yoshlarni axloqiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishga, ularga adolat, mardlik, fidoyilik kabi sifatlarni singdirishga harakat qildilar Ayollarni ta’lim olishiga ko‘maklashish: Jadidlar ayollarni ham ta’lim olishga undashdi. Bu, o‘z o‘rnida, jamiyatda ayollarning o‘rni va ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda jadidlarning ta’lim-tarbiya usullari quyidagi jihatlar bilan juda muhim hisoblanadi: Zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri: Jadidlarning ilm-fanga asoslangan yondashuvi, bu kunda o‘zbek ta’lim tizimining rivojlanishida katta o‘rin tutadi. Davlatimiz tomonidan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilm-fan asoslarini o‘rgatish, yoshlarni global bilimlar bilan tanishtirish, hamda zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish jadidlar harakatining davomidir. Milliy madaniyat va tilning rivoji: Jadidlarning milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan yondashuvi, bugungi kunda ham dolzarb. O‘zbek tilining rasmiy ravishda davlat tili sifatida qabul qilinishi, milliy

madaniyat va an’analarga hurmat, yoshlarni o‘z tarixini bilishga undash – bu ham jadidlarning o‘tmishdagi g‘oyalari asosida amalga oshirilgan ishlardir.

Jadidlar ayollarni ta’lim olishga undagan bo‘lsa, bugungi kunda ham ayollarni ta’lim bilan ta’minlash, ularning jamiyatdagi o‘rni va rolini oshirish hamda gender tengligini ta’minlash maqsadida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning axloqiy tarbiyasi: Jadidlar yoshlarning faqat ilm olishga emas, balki ularga ma’naviy tarbiya berishga ham e’tibor qaratgan.

Bugungi kunda axloqiy tarbiya va ma’naviyatning ta’lim tizimida aks etishi, yoshlarni ma’naviy jihatdan boyitish, o‘z vataniga sadoqatli fuqarolarni tarbiyalash – bu jadidlarning asl g‘oyalaridan biridir. Jadidlar davridagi ta’lim tizimining yangilanishi bugungi kunda nafaqat an’anaviy maktablar, balki yangi ta’lim texnologiyalari orqali ham o‘z aksini topdi. Internet, multimedia resurslari, onlayn ta’lim platformalari va interaktiv usullar, jamiyatda jadidlarning “yangi bilimlar”ga bo‘lgan talabini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Ismoilbek G‘aspirali jadidchilik harakatining asoschilaridan biridir. U 1851-yilda Qrimda tug‘ilgan va o‘zining ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyati bilan mashhur bo‘lgan. G‘aspirali jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalaridan biri sifatida ta’limni isloh qilishni, eski va zamonaga mos bo‘lmagan maktab tizimini yangilashni maqsad qilgan. Uning “Türk” gazetasida chop etilgan maqolalari va izohlarida ta’limni milliy, zamonaviy va ilmiy asosda tashkil qilish zarurligini ta’kidlagan. G‘aspirali o‘zining mashhur “Usul al-‘ilm” (Ilmiy usul) asarida bilim olish jarayonini yangilab, o‘quvchilarni faqat diniy bilimlar bilan cheklamaslik, balki ilm-fan, tarix, matematika va tabiiy fanlarga ham e’tibor qaratishni tavsiya qilgan. Uning ta’lim tizimiga yondashuvi, ayniqsa, zamonaviy pedagogika va didaktikaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining eng muhim namoyandalaridan biri bo‘lib, u o‘z faoliyatini ta’lim sohasida ko‘rsatgan. U 1875-yilda Buxoroda tug‘ilgan. Behbudi o‘z ta’lim uslubida milliy adabiyot, til va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Uning eng muhim asarlaridan biri — “Vatan” nomli dastlabki maktab dasturi edi. Behbudi Buxorodagi ilk zamonaviy maktabni tashkil etgan va bu maktabda o‘quvchilarga faqat diniy bilimlar emas, balki falsafa, geografiya, matematika va boshqa fanlar ham o‘rgatilgan. Uning maqsadi, o‘zbek yoshlarini dunyoqarashlari keng, zamonaviy bilimlarga ega qilib tarbiyalash edi.

Abdulla Avloni 1878-yilda Toshkentda tug‘ilgan. U jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri va o‘zbek adabiyotining klassiklaridan hisoblanadi. Avloni o‘z faoliyatini o‘zbek tilida ta’lim berish va o‘zbek milliy o‘zligini rivojlantirishga bag‘ishlagan. U 1900-yilda “Shirkat” gazetasini nashr etdi va bunda o‘zbek tilini rivojlantirish, ta’limni isloh qilish, o‘quvchilarga milliy adabiyot va madaniyatni o‘rgatishni ilgari surdi. Avloni “O‘zbek tilining tarixi” asarini yozib, o‘zbek tilining ilmiy asosda rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, u “Haqiqatan” (realizm) uslubini rivojlantirib, ma’naviy va ijtimoiy hayotdagi muammolarni adabiyotda aks ettirdi.

Shamsuddin Rashidov, jadidchilik harakatining boshqaruvchilardan biri bo‘lib, u Buxoroda ilmiy izlanishlar olib borgan. Rashidov o‘z ta’lim faoliyatida ilg‘or pedagogik usullarni qo‘lladi. U o‘z maktabida o‘quvchilarga ilm-fan, tabiiy fanlar va matematikani o‘rgatish bilan birga, ularni mustaqil fikrlashga, adolatli bo‘lishga undagan. Uning ta’lim uslubida o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki axloqiy jihatdan ham kamolotga erishishga, ijtimoiy javobgarlikni his qilishga o‘rgatish muhim o‘rin tutdi.

Abdurauf Fitrat, jadidchilik harakatining eng mashhur siyosiy va madaniy arboblaridan biri sifatida tarixda qolgan. U 1886-yilda Samarqandda tug‘ilgan va ta’limni isloh qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Fitrat, G‘aspirali va Avloni kabi, ilm-fanni rivojlantirishni, zamonaviy ta’lim tizimiga o‘tishni va milliy qadriyatlarni saqlashni maqsad qilgan. Uning ilmiy izlanishlari, ta’limdagi islohotlarga ta’sir etgan va o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Fitrat o‘zining “O‘zbek tilining kelajagi”, “O‘rta asrlar adabiyoti” kabi asarlarida ta’limni yangilashning, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlagan.

Jadidlarning ta’lim-tarbiya usullari o‘z zamonasida katta inqilob bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham ular o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlar harakati, ilm-fan va milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya kabi sohalarda o‘zining izini qoldirib, o‘zbek ta’lim tizimining zamonaviy shakllanishiga asos bo‘lgan. Shu bois, jadidlarning ta’lim-tarbiya usullarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash, bugungi ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимова. Н .Чор Россиясининг Туркистонда олиб борган сиёсати. (1867-1917 йиллар). Тарих фан. номзоди диссертатсия. –Т.: 2004. –Б. 27-28.

2. S.M.Matkarimova. U.Bekmuhammad. “Xiva xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davrida. 1873-1917-yillar”. – Buxoro: 2025.
3. Қосимов. Б. Миллий Уйгониш. –Т.: 2002. –Б. 6.
4. Шарипов Р.Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. –Тошкент: 2002. –Б. 9-10.

JADIDLARNING TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARI

Ro‘zmetova Roziyajon
UrDU mustaqil tadqiqotchisi
+998907138877
roziyajonrozmetova05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, g‘oyaviy asoslari, ta’lim sohasidagi islohotlari, ular tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari va ularning faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Ziyolilar, jadidlar, O‘rta Osiyo, g‘oya, Abdulla Avloniy, «Adibi avval», turk tili, Degrez mahallasi

JADID REFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article analyzes the emergence of the Jadid movement, its ideological foundations, its educational reforms, the new method schools they founded, and their activities based on historical sources.

Keywords: Intellectuals, Jadids, Central Asia, idea, Abdullah Avloni, "Adibi avval", Turkish language, Degrez neighborhood

ДЖАДИДСКИЕ РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотатsia: В статье на основе исторических источников анализируется возникновение движения джадидов, его идеологические основы, образовательные реформы, основанные ими новометодные школы и их деятельность.

Ключевые слова: Интеллигенция, Джадиды, Средняя Азия, идея, Абдулла Авлони, «Адиби аввал», турецкий язык, квартал Дегрез

Mustaqillik sharofati bilan tariximizni haqqoniy yoritishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi, bu yo‘lda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda, jadidchilik harakati, va uning namoyondalari, ularning faoliyatini o‘rganish, haqqoniy tarixni tiklash borasidagi ishlar ayniqsa, e’tiborga molik. Prezidentimiz bu borada o`z fikrini quyidagicha bayon etgan: “Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin”[1].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Chor Rossiyasiga qaram mintaqalarda xususan, O‘rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda yangi bir harakat vujudga keldi, bu harakat tarixiy adabiyotlarda jadidchilik yoki ma’rifatparvarlik harakati deb nomlandi. Jadid arabcha “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidlar bu harakat orqali, insonlarni ongli, bilimli, ma’rifatli bo‘lishga, shu orqali mintaqani mustaqillikka olib chiqishga chaqirishgan. Bu harakatning asoschisi qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoil G‘asprinskiy bo‘lib, u ilk maktabini Qrimdagi Bog‘chasaroyda ochgan. XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan harakat, 90-yillarga kelib O‘rta Osiyoda kirib kela boshladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan o‘zgarishlar ta’lim tizimida ham yangilanish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘rta asrlardan qolgan an’anaviy

maktab va madrasalar zamon talablariga javob bermay qolgani sababli, ilg‘or ziyolilar – jadidlar yangi ta’lim usullarini joriy etish uchun harakatga kirishdilar. Ularning asosiy maqsadi millatni ilm orqali uyg‘otish, zamonaviy fan va texnikani o‘rgatish, xalqni johillikdan chiqarish edi.

Jadidchilikning tariximizda tutgan ahamiyati shundaki, birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos solinadi, g‘aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg‘otadi va ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to‘g‘risida jar soldi, ovoza qildi. Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda evolyusion islohot yo‘li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o‘zgarishlarining eng maksimal effektiv yo‘lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo‘q qilishga urinadilar[2].

Jadidlar o‘z harakatlari davomida bir qator g‘oya va dasturlarga ega bo‘lib ularning ta’lim sohasidagi yangilanishlari quyidagilardan iborat edi:

- Jadidlar ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tahlil qildilar va uni eski usullardan yangilanayotgan zamon talablariga moslashtirish zarurligini ta’kidlashdi.
- Ular maktablarda dars berish metodini o‘zgartirishga, zamonaviy bilimlarni tarqatishga intildi.
- Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratildi, bu o‘quv jarayonini sifat jihatdan yaxshilashga yordam berdi.
- Jadidlar asosan turk tilida asarlar yozgan va bu orqali mahalliy aholi o‘rtasida milliy ongni oshirishga harakat qilishdi.
- Eslatib o‘tish joizki, jadidlar ta’lim tizimiga matematika, fizika, kimyo va boshqa zamonaviy fanlarni kiritishga intildilar.
- Ular ta’limga rus va xorijiy tillarni qo‘shgan holda, yangi g‘oyalarning tarqalishini ta’minlashga muvaffaq bo‘ldilar.
- Jadidlar yangi maktab tizimlarini tashkil etishga kirishdilar. “Mahalla maktablari” yangi shaklda – “Jadid maktablari” sifatida faoliyat yurita boshlandi.
- Bu maktablarda o‘quvchilar zamonaviy ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.
- Jadidlar, shuningdek, Germaniyadan kelgan ta’lim usullarini inobatga oldilar va shunday metodlarni o‘zlarining ta’lim tizimlariga tatbiq etishga harakat qilishdi[3].

Turkistonda faoliyat olib borgan eng mashhur jadidlar sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin kabi dovyurak ota-bobolarimizni tilga olish joizdir. Ayniqsa, ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining otasi sifatida e’tirof etiladi. Hattoki o‘zining zamondoshlari tomonidan ham buyuk shaxs sifatida tilga olinadi. Xususan, Xoji Muin bu haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Behbudiy afandi uyg‘onish davri va o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi o‘rinni olurg‘a muvofiq bir zotdur. Ul yigirma yillik xizmati chog‘ida turlik yoqdan turlik to‘suqliqlarg‘a yo‘luqub, ko‘b qiyinchiliqlar ko‘rdi va oxiri o‘zining tutqon ezgu maslagi yo‘lida qurbon bo‘ldi[4]. Behbudiyning jadidchilik borasidagi faoliyati tahsinga saovordir. Chunonchi, u 1903 yili Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajab amin qishloqlariga borib, o‘sha yerlik ma’rifat ahli bilan hamkorlikda usuli jadida maktablarini ochdi va ular uchun “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitob atul-atfol”(1908), “Amaliyoti islom” (1908) va “Tarixi islom” (1909) singari kitoblarni yaratdi[5].

Jadidchilik harakati namoyondalari o‘z g‘oyalari, maqsadlari yo‘lida hattoki jonlarini ham ayamaganlar. Shu o‘rinda aytish joizki, jadidlar o‘z hisoblaridan yangi usul maktablari, kutubxonalar ochganlar, o‘quvchilarni o‘qitish borasida dastur, darsliklarni ishlab chiqqanlar. Xususan, bu borada Munavvar qori Abdurashidxonovning ishlari salmoqlidir: u jadid maktablari uchun tovush usulida yozgan “Adibi avval” (“Birinchi adib”, 1907) alifbe kitobi, “Adibi soniy” (“Ikkinchi adib”, 1907. Unda “Himmatli faqir” she’ri keltirilgan) kabi o‘qish kitoblarini ishlab chiqqan. Shuningdek, maktablarning kundalik o‘kuv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha, “usuli savtiya” metodini iqtidorli yosh o‘qituvchilarga o‘rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni boshqardi. Munavvar qori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o‘zi tuzgan o‘quv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Imtihonlarga o‘quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o‘lkada katta e’tibor qozongan olimu shoirlarni, ma’rifatli boylarni ham taklif qilgan[6].

Jadidchilik harakatining namayondalaridan yana biri Abdulla Avloniyning bu boradagi ishlari beqiyosdir. U asosan, Toshkent shahrida jaded maktablarining faoliyatini sezilarni darajada oldinga siljishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, 1904-yilda Mirobodda, 1909-yilda Degrez mahallasida usuli jadid

maktabini ochadi; 1909-yilda mahalliy xalq bolalarining o‘qib bilim olishi uchun pul yig‘ib, maktablarga ko‘mak sifatida “Jamiyati xayriya”ni ochdi. 1907-yilda esa o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshlaydi[7]. Shu va boshqa ishlari orqali jadidchilik harakatining ta’lim sohasidagi faoliyatiga o‘z hissani qoshdi.

Ta’lim sohasidagi jadid harakatining, jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan yana biri Abdurauf Fitrat bo‘lib, u 1909-1913 yillarda Turkiyada bo‘lgan yosh usmoniylar harakati va adabiyoti ta’sirida yozgan dastlabki asarlari jadid adabiyotining dasturi o‘laroq xizmat qilgan edi[5]. Fitrat Turkiyadan Buxoroga qaytgach, usuli jadid maktablari ochish va Buxorodagi madaniy hayotni yo‘lga qo‘yishga shoshildi. Fitrat haqida Sadriddin Ayniy quyidagicha fikr bildirgan: Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillardan hisoblanar edi[8].

Jadid harakati namoyondalari o‘zlari ilmli bo‘lgani holda xalqni, millatni ilm sarchashmalaridan boxabar qilishni orzu qilishdi. Deyarli, barcha hududlarda dastlab, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarida jadid maktablari tashkil etishdi. Biroq yangi maktablar atrofida bir qator qarshiliklar ham mavjud edi. An'anaviy diniy doiralarda bu maktablar ko‘pincha qoralandi va ular “yangi ta'lim”ning diniy qadriyatlarni buzishi deb hisoblandi. Biroq, yangi maktablarning foydalari tezda keng jamoatchilik tomonidan anglanib, ular ommaviy qabul qilindi.

Jadidlarning ta'lim tizimidagi islohotlari faqat shaharlarda emas, balki qishloq hududlarida ham tarqaldi. Bu o‘zgarishlar, albatta, xalqning ilmiy darajasini oshirish va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlashda katta rol o‘ynadi.

Umuman olganda, jadidchilik harakati namoyondalari evolutsion yo‘nalishda, xalqni ma’rifatli qilish orqali mintaqani mustaqillikka ozodlikka olib chiqish, mintaqani zamonaviy davlatlar qatorida ko‘rish istashar edi. Ular shu yo‘nalishda hormay-tolmay harakat qilishdi. Jadidlarning ta'lim tizimidagi islohotlari, nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki kelajakda milliy taraqqiyotga katta ta'sir ko‘rsatishda asos bo‘lib xizmat qildi. Ular ta'limni yangilash orqali jamiyatning ilmiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga harakat qilishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi.

2.Poziljonov J.Q. Jadidchilik va milliy uyg‘onishda g‘oyaviy qarashlar hamda targ‘ibot usullari. International conference on teaching, education and new learning technologies” 2023/1. –B. 578-585.

3.Eshmurodov I., Pulatov Sh. N. Jadidchilik harakati va ularning asosiy g‘oyalari. “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” ilmiy-nazariy anjuman. Alfraganus university. –B. 526-535.

4.«Зарафшон» газетаси, 1923-йил, 25-март сони

5.Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. –Т.: Ўқитувчи, 2002. –Б.68.

6. «Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти» Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Т.: “Тошкент ислом университети”, 2016. –Б. 170-175.

7.Olim Oltinbek. Jadidlar:Abdulla Avloniy. –T.:Yoshlar nashriyot uyi,2022. B. 5-6.

8.Boltaboyev H. Jadidlar:Abdurauf Fitrat. –T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2022. –B. 135.

РОЛЬ ДЖАДИДОВ В ВОЗРОЖДЕНИИ ЖАНРА БАСНИ.

Ахмадий Гулчехра Жахонгир кизи,
студентка 2-курса филологического
факультета университет Маъмуна
ahmadiygulchehra@gmail.com

Аннотатsiя: в статье рассматривается вклад джадидов в возрождение жанра басни в литературе Центральной Азии. Анализируются особенности басен, созданных джадидами, их социально-политический контекст и цели. Подчёркивается, что джадиды использовали басню как средство критики социальной несправедливости, борьбы с патриархальными устоями и продвижения прогрессивных идей. В статье также исследуется влияние жанра басни на развитие узбекской литературы и роль этого жанра в культурной модернизатsiи начала XX века.

Ключевые слова: джадиды, басня, литература Центральной Азии, жанр басни, социальная критика, прогрессивные идеи, патриархальные устои, modernizatsiя, узбекская литература, культурное возрождение

В статье рассматривается роль джадидов в возрождении жанра басни в литературе Центральной Азии. В конце XIX — начале XX века, в условиях социальных и культурных преобразований, джадиды использовали литературу как инструмент для борьбы с устаревшими традициями и патриархальными устоями. Басня, как жанр, оказалась идеальным способом для выражения протестных идей и критики социальной несправедливости. Важным аспектом является использование джадидами басни не только как формы народного искусства, но и как средства продвижения прогрессивных идей и modernizatsiи общества, что оказало влияние на развитие узбекской литературы.

В конце XIX — начале XX века в Центральной Азии началась эпоха значительных культурных и социальных изменений, и джадидизм стал важным явлением, стремящимся к modernizatsiи общества. В это время джадиды активно занимались реформированием образования, литературы и культуры в целом. Одним из важнейших направлений их литературной деятельности стало возрождение жанра басни, который, несмотря на свою древность, стал мощным инструментом для выражения протестных идей и социальной критики.

Жанр басни был известен в мусульманской культуре ещё с времён классической персидской литературы, и в то время как в традиционном обществе этот жанр в основном использовался для обучения и морального наставления, джадиды восприняли его как форму литературной борьбы. Басни джадидов отличались от традиционных тем, что они стали носителями не только моралистического, но и социально-политического посыла. Джадиды использовали басню как средство для критики социальных пороков, власти, несправедливости и угнетения, особенно в отношении женщин и бедных слоёв населения.

Примером таких произведений являются басни таких джадидских авторов, как Исмаил Гаспринский и Абдурахман Рахимов. В своих баснях они часто изображали животных, олицетворяющих человеческие пороки и недостатки, такие как жадность, лицемерие, бездушие, или наоборот, положительные качества, такие как справедливость и честность. Гаспринский, например, использовал басни для того, чтобы донести до широкой аудитории идеи просвещения, критики патриархальных устоев и необходимости реформ в обществе.

С помощью басен джадиды привлекали внимание к вопросам образования и равенства, в частности к правам женщин. В своих произведениях они открыто осуждали социальные институты, такие как многожёнство и неравенство в семейных отношениях. Женщина, в их произведениях, часто становилась символом угнетённого слоя населения, чьи права и возможности были ограничены традициями и устаревшими взглядами. Басни джадидов стали одним из первых средств, через которые они обращались к обществу, призывая к переменам.

Кроме того, басни джадидов не только содержали критику старых порядков, но и предлагали альтернативы. Они стремились показать пути к прогрессу и процветанию через просвещение, гуманизм и социальную справедливость. Использование простого, доступного языка, а также доступных для понимания образов в виде животных и повседневных situatsiй, сделало басни джадидов популярными среди широких слоёв населения, включая женщин и крестьян.

Сравнивая эти произведения с традиционными баснями, можно заметить, что джадиды изменили жанр, придав ему более прогрессивное, социально ориентированное направление. В отличие от старых басен, которые часто олицетворяли лишь моральные уроки, басни джадидов стали носителями политической и социальной мысли. Это отражало их желание не только воспитать в обществе нравственные ценности, но и дать импульс для изменения общественных норм и политической situatsiи.

Возрождение жанра басни джадидами стало важным этапом в истории узбекской литературы. Оно не только подтвердило актуальность традиционных форм, но и показало, как литература может служить мощным инструментом общественных и политических изменений.

Возрождение жанра басни джадидами стало важным этапом в истории узбекской литературы и культурной modernizatsiи в Центральной Азии. Джадиды использовали этот жанр как эффективное средство социальной критики, обращая внимание на проблемы неравенства,

патриархальных устоев и социальной несправедливости. Через басни они пытались не только воспитывать моральные ценности, но и предложить пути изменения общественного устройства, акцентируя внимание на важности просвещения и реформ. Эти произведения сыграли важную роль в формировании прогрессивных идей и модернизatsii общественного сознания, оказывая долговременное влияние на развитие литературы и культуры региона.

Дополняя вышеизложенное, стоит подчеркнуть, что активное использование жанра басни джадидами стало частью более широкой стратегии литературного просвещения и формирования нового читателя. Они стремились к созданию литературы, которая была бы понятна простому народу, в том числе неграмотным или малограмотным слоям населения, для которых иносказательный, образный стиль басни был особенно доступен. Джадиды понимали, что только через эмоциональное вовлечение и наглядные примеры можно вызвать у читателя не только сочувствие, но и стремление к переменам. Именно в басне, как в жанре с универсальными структурами и моральным посылом, они нашли идеальное средство воздействия на массовое сознание.

Также следует отметить, что возрождение жанра басни совпало с усилением интереса к народному творчеству и устной традиции. Джадиды стремились не только реформировать литературу, но и создать мост между устной и письменной культурами, делая литературу ближе к народу. Басня, с её корнями в фольклоре и легко узнаваемыми архетипами, идеально подходила для этой цели. Многие джадидские басни писались в форме, близкой к народному рассказу или анекдоту, что способствовало их быстрой передаче в устной форме и запоминанию.

Кроме литературной ценности, басни выполняли функцию педагогического и воспитательного средства. Их активно использовали в новых школах, основанных джадидами, как учебный материал. Басни помогали развивать у учеников навыки критического мышления, умение анализировать социальные situatsii, а также формировали у молодёжи чувство справедливости, ответственности и стремление к знаниям. Они стали неотъемлемой частью методологического подхода джадидской педагогики, в которой литература воспринималась как ключ к духовному и интеллектуальному развитию.

Таким образом, деятельность джадидов в области возрождения и трансформatsii жанра басни демонстрирует глубину их понимания роли литературы в обществе. Басня в их исполнении стала не просто жанром, а многоплановым инструментом: средством просвещения, формой социальной критики, каналом политического высказывания и частью образовательной системы. Благодаря этим усилиям, басня заняла важное место в истории узбекской литературы, а её джадидская интерпретatsiя оказала долговременное влияние на развитие как жанра, так и всей литературы региона.

Использованная литература

1. Гаспринский И. Литературное наследие и реформы в Центральной Азии. — Ташкент: Фан, 2001. — С. 45–67.

2. Рахимов А. Джадидизм и его роль в культурном возрождении. — Ташкент: Узбекистон, 2003. — С. 112–130.

3. Шарафутдинов Х. История узбекской литературы: от традиции к модернизму. — Ташкент: Нури, 2010. — С. 101–120.

4. Ахмедов М. Джадиды и роль басни в социальной критике. — Душанбе: Меҳнат, 1998. — С. 88–99.

5. Акрамов Ю. Роль литературы в модернизatsii Центральной Азии. — Москва: Наука, 2005. — С. 134–150.

6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998. — P. 157–172.

МИРЗА СИРАДЖИДДИН И ЕГО ВКЛАД В РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Захирбоева Мафтуна Музаффар кизи
студентка 1-курса филологического
факультета университет Маъмуна.
zaxirboyeva@list.ru

Аннотатsiя: в статье рассматривается вклад Мирзы Сираджиддина в развитие узбекского языка в конце XIX — начале XX века. Анализируется его литературная и общественная деятельность, направленная на утверждение узбекского языка как средства культурного и natsiонального самовыражения. Особое внимание уделяется его языковым реформам, работе в области просвещения и влиянию на формирование литературной нормы. Деятельность Мирзы Сираджиддина рассматривается как важный этап в становлении современной узбекской лингвистической и культурной традиции.

Ключевые слова: Мирза Сираджиддин, узбекский язык, языкознание, литературная норма, языковая реформа, просвещение, natsiональная идентичность, джадидизм, культурное наследие, Центральная Азия.

Мирза Сираджиддин (Сираджиддин Махдум Афанди) занимает важное место в истории узбекской культуры и языкового развития конца XIX — начала XX века. Его деятельность разворачивалась на фоне подъёма джадидистского движения, в рамках которого просвещённые мусульмане стремились реформировать общество, образование и язык в ответ на вызовы модернизatsii. Вклад Мирзы Сираджиддина в развитие узбекского языка выражается в его стремлении приблизить литературный язык к народному, сделать его более доступным и выразительным средством для образования и общественной дискуссии.

Одной из центральных задач, которую ставил перед собой Мирза Сираджиддин, была реформа языка письменности. Он критиковал излишнюю перегруженность литературного языка арабскими и персидскими заимствованиями, затруднявшими понимание текста для простого читателя. В своих трудах и выступлениях он отстаивал необходимость опоры на живой разговорный узбекский язык, что отвечало духу эпохи и задачам джадидизма. Это делало его сторонником языковой демократизatsii — идеи, что язык литературы и образования должен быть понятен народу.

Мирза Сираджиддин также активно участвовал в создании и распространении учебной литературы на узбекском языке. Он считал, что обучение должно вестись на родном языке, а учебные тексты должны быть написаны в простой и доступной форме. Его работы стали примером того, как можно объединить образовательные цели с задачами языковой реформы. Он видел в языке важнейший инструмент формирования natsiонального самосознания и культурной идентичности.

Особое внимание в своей деятельности Сираджиддин уделял нормализatsii и упорядочиванию лексики. Он стремился очистить узбекский язык от архаизмов и сложных заимствований, одновременно поддерживая развитие новой терминологии, отражающей реалии современного мира. Его статьи и тексты можно рассматривать как один из ранних опытов лексикографической и стилистической кодификatsii узбекского языка, что в дальнейшем нашло продолжение в трудах других лингвистов и писателей.

Кроме того, Мирза Сираджиддин рассматривал язык как средство не только образования, но и нравственного воспитания. В его текстах подчёркивалось, что грамотный, ясный язык способствует формированию духовно зрелой личности. Он связывал чистоту языка с моральной чистотой, подчёркивая ответственность автора перед читателем.

Таким образом, вклад Мирзы Сираджиддина в развитие узбекского языка многогранен: он включал реформу письменности, продвижение родного языка в образовании, упрощение и нормализatsiю лексики, а также осмысление языка как инструмента культурного и нравственного обновления. Его идеи и практика стали важной вехой на пути становления современного узбекского литературного языка и продолжают оказывать влияние на языковую политику и филологическую мысль Узбекистана.

Деятельность Мирзы Сираджиддина сыграла значительную роль в формировании современного узбекского литературного языка. Его стремление приблизить письменную речь к

разговорной, упростить язык и сделать его доступным для широких слоёв населения отражало основные задачи джадидизма и отвечало потребностям времени. Через педагогическую, публицистическую и языковую работу он продвигал идею языка как основы natsionального самосознания и прогресса. Наследие Мирзы Сираджиддина остаётся актуальным и сегодня, служа примером ответственного подхода к языковой культуре и общественным преобразованиям.

Безусловно, наследие Мирзы Сираджиддина заслуживает более глубокого рассмотрения, особенно в контексте культурных и общественных трансформatsiй, происходивших в Средней Азии в период его активной деятельности. Помимо языковой реформы, его работа охватывала и другие важнейшие аспекты общественной жизни, включая просвещение, борьбу с догматизмом в религиозном мышлении и укрепление natsionального самосознания. Мирза Сираджиддин, как истинный джадид, видел в образовании не только способ передачи знаний, но и мощный инструмент освобождения сознания, обновления общества и формирования прогрессивного мировоззрения.

Одной из важных черт его деятельности была активная публицистика. Он использовал газетные и журнальные платформы как средство просвещения, популяризatsii новых идей и вовлечения широких слоёв населения в общественные дискуссии. Его статьи отличались ясным стилем, логической структурой и живым языком, что делало их понятными для читателей с разным уровнем образования. Такая открытая и доступная форма подачи материала усиливала влияние его взглядов и способствовала популяризatsii джадидизма в среде узбекского народа.

Кроме того, Сираджиддин сыграл важную роль в становлении новой педагогической традиции. Он выступал против устаревшей системы обучения в мактабах и медресе, где обучение сводилось к механическому заучиванию арабских текстов, часто без понимания их смысла. Вместо этого он предлагал ориентироваться на новые методы преподавания, опирающиеся на родной язык, patsиональное мышление и практическое освоение знаний. Мирза Сираджиддин создавал учебные пособия, адаптированные к реальным нуждам учеников, стремясь к тому, чтобы обучение не отрывалось от жизни, а, наоборот, готовило молодых людей к активному участию в ней.

Отдельного упоминания заслуживает и его вклад в развитие жанровой системы узбекской литературы. Благодаря стремлению к языковому упрощению и демократизatsii литературной речи он способствовал развитию публицистики, педагогической прозы, научно-популярной литературы, что стало важным этапом в расширении функциональных границ узбекского литературного языка. Его деятельность предвосхитила последующие шаги по стандартизatsii языка и формированию литературных норм, что стало особенно актуальным в советский период.

Наконец, Мирза Сираджиддин — это фигура, которая олицетворяет переход от традиционного к модерному мышлению в узбекской культуре. Его идеи о языке, образовании, обществе и нравственности выходят за рамки сугубо филологического вклада — они выражают стремление к построению справедливого и прогрессивного общества. Его наследие до сих пор вызывает интерес исследователей, педагогов и лингвистов, служа напоминанием о том, что язык — это не просто средство общения, но и зеркало культурной, интеллектуальной и моральной зрелости natsii.

Использованная литература:

1. Абдуазимов Х. История джадидизма в Узбекистане. — Ташкент: Фан, 1994. — С. 56–78.

2. Бартольд В.В. Сочинения: Т. 9. Образование и просвещение в мусульманском мире. — Москва: Восточная литература, 1966. — С. 122–135.

3. Исхаков Ф. Мирза Сираджиддин и его просветительская деятельность. — Ташкент: Университет, 2003. — С. 41–59.

4. Комилов Н. История узбекской литературы. — Ташкент: Шарқ, 2005. — С. 203–215.

5. Халилов Ш. Развитие узбекского литературного языка в конце XIX — начале XX века. — Ташкент: Муаллим, 2001. — С. 88–107.

6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998. — P. 156–173.

AXLOQIY TARBIYA JARAYONIDA AVLONIY MEROSIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Abdullayeva Sanobar Ibadullayevna,
Urganch Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:abdullayevasanobar41@gmail.com
Rahimboyeva ***Charosxon Oybek Qizi,***
Urganch Davlat Pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 24/12 – guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek ma’naviy-ma’rifiy merosining yirik namoyandalaridan biri — Abdulla Avloniy asarlari asosida axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati yoritiladi. Unda Avloniy tomonidan ilgari surilgan axloqiy, estetik va ijtimoiy g‘oyalar zamonaviy tarbiya jarayonida qanday qo‘llanilishi mumkinligi o‘rganiladi. Shuningdek, yosh avlodga sog‘lom dunyoqarash, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda Avloniy merosining dolzarbligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadid, mafkura, g‘oyalar siyosati, ilm-ma’rifat, tarixiy meros, ijtimoiy-ma’rifiy oqim.

Аннотатsiя. В данной статье освещается сущность нравственного воспитания на основе произведений одного из крупнейших деятелей узбекского духовно-просветительского наследия — Абдуллы Авлони. В нем исследуется, как моральные, эстетические и социальные идеи, выдвинутые Авлони, могут быть применены в современном процессе воспитания. Также анализируется актуальность наследия Авлони в формировании у подрастающего поколения таких качеств, как здоровое мировоззрение, патриотизм, честность, трудолюбие.

Ключевые слова: Джадид, идеология, политика идей, наука-просвещение, историческое наследие, социально-образовательный поток.

Annotatsion: This work highlights the essence of moral education based on the works of one of the largest figures of the Uzbek spiritual and educational heritage - Abdullah Avloni. It explores how the moral, aesthetic, and social ideas put forward by Avloni can be applied in the modern parenting process. The author also analyzes the relevance of Avloni's legacy in the formation of such qualities as a healthy worldview, patriotism, honesty, and hard work among the younger generation.

Keywords: Jadid, ideology, politics of ideas, science-enlightenment, historical heritage, socio-educational stream.

Kirish. Inson tarbiyasi har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi va kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli axloqiy tarbiya muammosi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy muammolar sirasiga kiradi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ongi va qalbini turli zararli g‘oyalar istilo qilish ehtimoli mavjud bo‘lgan bir davrda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ayniqsa, muhim vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning ma’naviy yuksalishi, avvalo, axloqiy tarbiya tizimining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Axloqiy tarbiya shaxsning ezgu fazilatlarini shakllantirish, uni Vatanga sadoqatli, halol, vijdonli va mas’uliyatli inson qilib kamol toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, tarixiy merosga, jumladan, milliy ma’rifatparvarlarimizning asarlariga murojaat qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.Bu jarayonda tarixiy merosimizdan, ayniqsa, o‘zbek ma’rifatparvarlarining ilg‘or g‘oyalari va tajribasidan foydalanish alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek pedagogika tarixida betakror iz qoldirgan ma’rifatparvarlardan biri bu — Abdulla Avloniydir. U nafaqat o‘z davrining ilg‘or pedagogi, adibi va jamoat arbobi, balki bugungi zamonaviy tarbiya konsepsiyalarining shakllanishida katta hissa qo‘shgan mutafakkir sifatida tan olinadi. Avloniy o‘z asarlarida axloqiy tarbiya masalalarini chuqur yoritgan, yoshlarni komil inson bo‘lishga undagan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab g‘azali” kabi asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Mazkur mavzuni o‘rganish orqali biz nafaqat Avloniyning axloqiy tarbiya borasidagi qarashlarini tahlil qilamiz, balki ularning bugungi tarbiya jarayoniga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ham aniqlashga harakat qilamiz. Shu orqali yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiluvchi yondashuvlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga chiqadi.

A.Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o‘ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga, Vatan va uning qismati va ilm olish bilan bog‘liq jiddiy mulohazalarni-da bayon etadi. Jumladan, “Vatan” nomli

she’rida ona-yurtning noz-ne’matlari, boyliklari ta’rif- tavsif etiladi. Shu bilan birga, onaday aziz, mushfiq go‘sha haqidagi qayg‘uli nola yangraydi: Chunki bola tarbiyasida vatanparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Ijodkor vatanni onaga qiyoslaydi. O‘z onasini ardoqlagan,uni himoya qila olgan bolagina vatanini ham yovuz kuchlardan himoya qila oladi degan fikrni ilgari suradi.

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o‘zing o‘yla,
Tiling bo‘lsa, hasratlaring tuzuk so‘yla,
Sotib-sotib qoladurmiz g‘amga botib,
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.

Shoir o‘tmishda ma’rifat gulshani bo‘lgan yurtimizning jaholat botqog‘iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilmma’rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta’kidlaydi. Shu ma’noda shoirning “Ilmga targ‘ib”, “Jaholat”, “Istiqboldan orzularim”, “Millatga salom” she’rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to‘g‘risida pandnoma tarzidagi satrlami bitgan bo‘lsa, “Maktab gulistoni”dagi she’r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolami ham qamrab olishi oydinlashadi. Ayniqsa,”Saxiylik” va “Baxillik” nomli hikoyalari maktabda tahsil olayotgan bolalar duyoqarashida katta ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi hikoyada Said ismli bolaning maktab yo‘lida bir faqir kishini uchratib qolganligi va yoshgina bolaning bag‘ri kengligi hikoya qilinadi. Bu voqeadan xabar topgan otasi Saidni mukofotlaydi. Bu o‘rinda bola tarbiyasida saxiylik va bag‘rikenglik g‘oyalari tarannum etiladi.Ikkinchi hikoyada esa baxillikning yomon oqibatlari bir badavlat kishi misolida talqin etiladi, uning baxilligi, ziqnaligi va pastkashligi qoralanadi. Bunday asarlar orqali yosh avlodni ma’rifatga da’vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o‘z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi yetakchi o‘rin egallaydi. Umuman olib qaraganda, adabiyot pedagogika fani bilan uzviy bog‘liq. Adabiyotda yozilgan har qanday asar mazmunida kelajak avlod tarbiyasi yotadi.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning bu boradagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ta’lim va tarbiya masalalarini chuqur, izchil va hayotiy yondashuv bilan yoritgan. U o‘z davrida faqat adib emas, balki pedagog, ma’rifatchi va islohotchi sifatida ham o‘chmas iz qoldirgan. Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, ajdodlarimizning buyuk adabiy meroslari yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniyning “Ta’limsiz taraqqiyot bo‘lmaydi, tarbiyasiz esa ta’lim samara bermaydi” degan g‘oyasi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.Avloniy merosi – bu nafaqat tarixiy, balki zamonaviy pedagogik g‘oyalar manbai hamdir. Bugungi ta’lim-tarbiya tizimi Avloniy asarlaridan ilhom olgan holda, yosh avlodni barkamol, axloqli, bilimli va vatanparvar qilib tarbiyalashda davom etishi kerak. Zero, Avloniy aytganidek, “Millatni saodatga yetkazmoqchi bo‘lsak, avvalo uning bolalarini tarbiya qilmoq kerak”. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. Zero, Abdulla Avloniy aytganlaridek: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. (1913). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1916). Maktab gulistoni. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Avloniy, A. (1924). O‘g‘il va qizlar tarbiyasi. Toshkent: Maktab nashriyoti.
4. Abdulla Avloniy: Tarixiy, pedagogik va ijtimoiy merosi (2013). Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. Yusupov, R. (2002). Abdulla Avloniy va uning pedagogik merosi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

6. Azimov, O. (2007). O‘zbek pedagogikasi tarixidan: Abdulla Avloniy. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

РОЛЬ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Муратова Ольга Матчановна
студентка 2-курса филологического
факультета университет Маъмуна.
Olgamuratova414@.com

Аннотатsiя: статья посвящена анализу вклада деятелей джадидизма в развитие системы образования и просвещения в Средней Азии в конце XIX — начале XX века. Рассматриваются причины возникновения джадидского движения, его цели и основные идеи, направленные на реформирование традиционных методов обучения. Особое внимание уделено созданию новых школ («усул-и жадид»), разработке учебных программ и учебников, а также распространению светских знаний среди широких слоёв населения. Показано, как деятельность джадидов способствовала повышению грамотности, расширению кругозора общества и подготовке нового поколения интеллигенции.

Ключевые слова: джадиды; образование; просвещение; новометодные школы; реформы; Средняя Азия; усул-и жадид; культура; просветительское движение; новые учебники.

Конец XIX — начало XX века стал переломным моментом в истории народов Средней Азии. В условиях колониальной зависимости, социального застоя и кризиса традиционной системы образования на арену вышли представители нового движения — джадиды. Они осознали необходимость коренных преобразований в сфере просвещения как основного средства для обновления общества. Джадиды выступали за реформу традиционных методов обучения, внедрение светских знаний, воспитание в молодежи научного и критического мышления. Их усилия были направлены на создание новой школы, где объединялись бы natsiональные ценности и современные образовательные подходы. Цель настоящей статьи — рассмотреть вклад джадидов в развитие образования и просвещения, выявить особенности их педагогических идей и оценить значение этих реформ для культурного возрождения региона.

Во второй половине XIX века традиционная система мусульманского обучения в Средней Азии (мактабы и медресе) переживала глубокий кризис. Обучение сводилось к механическому заучиванию религиозных текстов без понимания их содержания, а светские знания практически отсутствовали. На фоне колониальной политики Российской империи, внедрения новых технологий и культурных влияний, стало ясно, что общество требует реформирования системы образования для адаптatsii к новым условиям. Именно в этих исторических условиях возникло движение джадидов, провозгласивших необходимость «нового метода» обучения («усул-и жадид»).

Джадиды ставили перед собой задачу создания светской школы, сочетающей религиозное и светское образование. Среди их целей были: повышение уровня грамотности среди населения, внедрение преподавания светских предметов (арифметики, естествознания, географии, истории), обучение родному языку в доступной форме, воспитание патриотизма, трудолюбия, уважения к знаниям и стремления к личностному развитию. Они выступали за модернизatsiю содержания образования и введение новых педагогических методов: объяснительного чтения, практических занятий, использования наглядных пособий.

Одним из важнейших достижений джадидов стало открытие «новометодных школ» («усул-и жадид мактаблари»). Первая такая школа была основана в Бухаре в конце XIX века, а затем распространилась в Самарканде, Ташкенте, Хиве и других городах.

В этих школах: обучение велось на родном языке, использовались печатные учебники нового типа, большое внимание уделялось развитию логического мышления учеников, применялись новые формы работы: письменные упражнения, экзамены, уроки по расписанию.

Джадиды также писали и издавали новые учебники и учебные пособия. Например, Абдурауф Фитрат, Махмудходжа Бехбудий и Мунавваркари Абдурашидханов активно работали над созданием современных образовательных программ.

Реформа образования, начатая джадидами, сыграла огромную роль в формировании новой просвещённой интеллигенции в Средней Азии. Их усилия: способствовали повышению уровня грамотности среди широких слоёв населения, заложили основу для развития natsionalного самосознания,подготовили кадры для последующих общественно-политических преобразований.

Важным направлением деятельности джадидов стало также просвещение женщин. Понимая, что без образования женщин невозможно полноценное развитие общества, джадиды начали открывать специальные учебные заведения для девочек. В новометодных школах девочки обучались грамоте, арифметике, основам естествознания и элементам рукоделия. Эти шаги встречали ожесточённое сопротивление со стороны консервативных кругов, однако усилия просветителей постепенно изменяли общественное мнение, закладывая фундамент для будущего равноправного доступа женщин к образованию.

Идеи джадидов о необходимости светских знаний, уважения к культуре и открытости к достижениям мировой цивилизatsii продолжают оставаться актуальными и в наши дни.

Деятельность джадидов в сфере образования и просвещения стала важнейшим этапом в истории культурного возрождения народов Средней Азии. Осознав отсталость традиционной системы обучения, джадиды стремились создать новую школу, способную подготовить людей к жизни в условиях быстро меняющегося мира. Их новаторские идеи, направленные на распространение светских знаний, развитие логического мышления и воспитание natsionalного самосознания, заложили основу для формирования современной системы образования в регионе.

Несмотря на трудности и сопротивление со стороны традиционалистов, усилия джадидов принесли значительные плоды: уровень грамотности среди населения повысился, появилась новая просвещённая интеллигенция, начался процесс общественного обновления. Исторический опыт джадидов свидетельствует о том, что образование является важнейшим инструментом социального прогресса, а идеи, заложенные ими, продолжают оставаться актуальными и сегодня.

Использованная литература:

1. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. — М.: Наука, 1973. — 275 с.

2. Бехбудий Махмудходжа. Руководство к воспитанию детей / Перевод с узбекского. — Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1990. — 112 с.

3. Фитрат Абдурауф. Образованная молодежь // Избранные произведения. — Ташкент: Фан, 1993. — С. 45–78.

4. Каримов Х. С. Просветительское движение в Средней Азии в конце XIX — начале XX века. — Ташкент: Университет, 1998. — 216 с.

5. Арипов Ш. А. Джадидизм и его роль в общественно-политической жизни Средней Азии. — Ташкент: Шарқ, 2003. — 185 с.

6. Каюмов А. А. История узбекской литературы XX века. — Ташкент: Фан, 1987. — 380 с.

7. Девлетшин Д. А. Культурные реформы и джадиды в мусульманских обществах России и Средней Азии. — Казань: Татарское книжное издательство, 2010. — 245 с.

8. Брагинский И. С. Литературные и культурные процессы в Средней Азии: эпоха реформ. — М.: Восточная литература, 2000. — 298 с.

ДЖАДИДЫ И ПРОБЛЕМА ПРАВ ЖЕНЩИН

Оллаберганов Бежонбой Оллаберган угли,
студент 1 курса филологического факультета
Университет Маъмуна.
77boryauz77i@gmail.com

Аннotatsia: Статья посвящена анализу отношения движения джадидов к проблеме прав женщин. Рассматриваются основные идеи джадидистов о необходимости женского образования, их попытки модернизировать традиционные представления о роли женщины в обществе. Отмечаются противоречия между стремлением к обновлению и сохранением патриархальных установок. Особое внимание уделено влиянию идей джадидизма на последующее развитие женского вопроса в мусульманских регионах. Работа основана на анализе текстов джадидских авторов, педагогических программ и общественной деятельности.

Ключевые слова: джадидизм, права женщин, женское образование, модернизatsiя, традиции, мусульманские общества, реформы, патриархат, Центральная Азия, общественные движения.

Джадидизм как реформаторское движение мусульманских народов Российской империи возник в условиях глубокого кризиса традиционных общественных структур. Одним из важнейших вопросов, поднятых джадидами, стала проблема положения женщин. Осознавая необходимость модернизatsii мусульманского общества, джадиды выступали за расширение доступа женщин к образованию и постепенное изменение их социального статуса. Однако стремление к реформам нередко сочеталось у них с приверженностью традиционным ценностям, что вызывало внутренние противоречия. В данной статье рассматриваются основные взгляды джадидов на права женщин, их практические шаги в этой области, а также влияние их деятельности на развитие женского движения в мусульманских регионах.

Джадидизм оформился в мусульманских регионах Российской империи как движение за обновление общественной жизни, ориентированное на модернизatsiю через реформу образования, культуры и общественных институтов. Проблема положения женщины заняла в этой программе особое место. Джадиды осознавали, что без вовлечения женщин в образовательные процессы невозможно добиться прогресса всего общества. Они активно выступали за создание школ для девочек, за реформу семейных отношений и за ограничение крайних форм патриархальной практики, таких как ранние браки и многожёнство.

Однако взгляды джадидов на права женщин имели свои ограничения. Большинство реформаторов рассматривали женщину не как самостоятельного субъекта общественной жизни, а прежде всего как мать и воспитательницу будущего поколения. Их программы подчеркивали необходимость просвещения женщин для пользы семьи и hatsii, а не ради личной эмансипatsii. Тем самым права женщин рассматривались через призму задач укрепления мусульманского общества.

В публицистике джадидов часто звучали призывы к умеренным реформам: повышению возраста вступления в брак, улучшению условий жизни женщин, предоставлению им возможности получать начальное образование. Однако радикальные требования — такие как участие женщин в политической жизни или полное равноправие — практически не поднимались. Это отражало как консервативные настроения в мусульманском обществе того времени, так и осторожную стратегию самих реформаторов.

Ярким примером подхода джадидов к женскому вопросу стала деятельность Исмаила Гаспринского, который в своих статьях подчеркивал значение образованной женщины для укрепления hatsii. Он считал, что "просвещение через женщину" будет способствовать общему культурному и экономическому развитию мусульман.

Таким образом, несмотря на ограниченность взглядов, джадидские идеи сыграли важную роль в начале процесса переосмысления положения женщин в мусульманском обществе и заложили основы для дальнейших реформ в первой половине XX века.

Важным аспектом деятельности джадидов было стремление реформировать систему образования, которая включала в себя вопросы формирования ценностей равенства и уважения к женщине. Несмотря на патриархальные установки, джадиды утверждали, что без улучшения положения женщин невозможно реализовать полноценную реформу общества. В их подходах можно выделить два ключевых направления: первое — это образование женщин для выполнения традиционных ролей в семье, а второе — создание образовательных программ, которые позволяли бы женщине быть более активной и сознательной участницей общественной жизни.

Однако даже в этих реформах не было предусмотрено прямого включения женщин в политическую жизнь, что свидетельствует о ограниченности джадидистских взглядов. Женщина, в понимании джадидов, оставалась прежде всего матерью и хранительницей традиций, что ограничивало её активное участие в социальных и культурных процессах за пределами домашнего круга. В то же время джадиды признали важность социальной и экономической независимости женщины как ключевого элемента для прогресса.

Примечательным примером стал опыт турецких джадидистов, таких как Ахмед Риза и Мехмет Зия, которые активно поддерживали женское образование и борьбу за улучшение положения женщин в обществе. Это движение оказало заметное влияние на женщин в Средней

Азии и на Кавказе, став важным этапом в эволюции женского движения в мусульманских странах.

Нельзя не отметить, что несмотря на свои ограничения, реформы джадидизма подготовили почву для более радикальных изменений, которые произошли в ходе революционных событий начала XX века. Идеи джадидистов о необходимости реформирования общественного устройства стали частью более широкой борьбы за права женщин в мусульманских странах, повлияв на последующее развитие феминистского движения.

Джадидизм сыграл важную роль в начальном этапе переосмысления положения женщин в мусульманских обществах Российской империи. Несмотря на ограниченность реформаторских инициатив и сохранение традиционных взглядов на роль женщины, джадиды внесли существенный вклад в развитие идеи женского образования и постепенного расширения социальных прав. Их деятельность продемонстрировала, что без вовлечения женщин в процесс modernizatsii невозможно обеспечить устойчивое развитие общества. Хотя идеи джадидов не привели к немедленному равноправию, они подготовили почву для более радикальных преобразований в последующие десятилетия. Опыт джадидов показывает сложность соединения стремления к обновлению с уважением к культурным традициям, что остаётся актуальной задачей и в современном мире.

Использованная литература:

1. Гаспринский И. «Русское мусульманство. Мысли, заметки и наблюдения». — Симферополь: Типография И. Н. Самурского, 1881. — 210 с.

2. Кемпер М. Мусульманские реформаторы в России: джадидизм и ислам в конце XIX — начале XX века. — Москва: Новое литературное обозрение, 2009. — 456 с.

3. Кузык Б.Н. История Центральной Азии: Джадидизм и natsionalьное возрождение. — Москва: Международные отношения, 2002. — 392 с.

4. Абашин Л. Natsiя, образование и традиция: Очерки истории джадидизма в Средней Азии. — Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. — 280 с.

5. Хисматуллин А.Г. Ислам и просвещение: Джадидизм в Волго-Уральском регионе. — Уфа: Гилем, 2008. — 328 с.

6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998. — 400 p.

7. Смирнов А.А. «Женский вопрос в публицистике российских мусульман конца XIX — начала XX века». // Исторические исследования, 2015, № 2. — С. 45–62.

ИСМАИЛ ГАСПРИНСКИЙ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА УЗБЕКСКИХ ДЖАДИДОВ

Нурматова Зиёда Бахтиёр кизи,
студентка 1 курса филологического факультета,
Университет Маъмуна.
nurmatovaziyoda23@gmail.com

Annotatsiя: в статье рассматривается выдающаяся роль Исмаила Гаспринского в формировании идеологии и педагогических взглядов узбекских джадидов конца XIX – начала XX века. Анализируются основные принципы его реформаторской деятельности, идея «джадидизма», его вклад в развитие мусульманского просвещения и печати. Подчеркивается значение газеты «Тарджуман» как средства духовного объединения мусульман тюркского мира и источник вдохновения для узбекских просветителей. Показано, как идеи Гаспринского были восприняты и адаптированы в узбекской среде с учетом natsionalьных, культурных и исторических особенностей.

Ключевые слова: Исмаил Гаспринский; джадидизм; узбекские просветители; Тарджуман; мусульманское образование; тюркский мир; реформы.

Конец XIX – начало XX века стал переломным этапом в истории народов Центральной Азии. Период колониального подчинения Российской империи сопровождался как усилением давления на мусульманские народы, так и появлением новых форм natsionalьного самосознания,

стремления к просвещению и реформам. Одним из ярчайших идеологов мусульманского возрождения стал Исмаил Гаспринский – публицист, педагог, мыслитель и реформатор. Его идеи оказали огромное влияние не только на крымскотатарское общество, но и на широкие круги мусульманского Востока, включая узбекских джадидов. Новое мышление, новая школа, новый подход к языку и культуре стали стержнем его деятельности и вдохновили целое поколение узбекских интеллектуалов. Настоящая статья направлена на то, чтобы проследить, каким образом идеи Гаспринского были восприняты узбекскими джадидами, какие аспекты его реформаторской деятельности оказались наиболее близкими и как это повлияло на развитие узбекской культуры, образования и общественной мысли.

Исмаил Гаспринский (1851–1914) — один из первых тюркских интеллектуалов, выступивших с идеей модернизatsii мусульманского общества через просвещение. Его главный лозунг — «Единство в языке, мысли и делах» — выражал стремление к культурному и духовному объединению тюркоязычных народов. В 1883 году он основал первую мусульманскую газету на тюркском языке — Тарджуман, которая стала мощным информatsionным и идеологическим каналом для распространения реформаторских идей среди мусульман Российской империи. Он призывал к обновлению системы образования, введению светских предметов, упрощению арабской графики и развитию родного языка. Его метод «усул-и жадид» (новый метод обучения) строился на принципах наглядности, логичности и постепенности.

Узбекское джадидское движение возникло на рубеже XIX–XX веков под влиянием социально-политических изменений в Туркестанском крае. Молодые прогрессивные интеллигенты, среди которых были Абдурауф Фитрат, Махмудходжа Бехбуди, Мунаввар-Кары Абдурашидханов и другие, осознали необходимость реформ в образовании, общественной жизни и культуре. Джадиды стремились заменить устаревшую систему мактабов и медресе новыми школами, где бы преподавались и религиозные, и светские науки. Они также активно участвовали в развитии natsionальной прессы и театра, писали учебники и создавали учебные пособия.

Идеи Гаспринского стали для узбекских джадидов источником вдохновения. Газета Тарджуман поступала в Бухару, Самарканд, Ташкент и другие города Туркестана. Многие будущие джадиды учились в Крыму или в городах Поволжья, где напрямую соприкасались с деятельностью Гаспринского. Они восприняли «новый метод» обучения и адаптировали его к местным условиям. Например, Мунаввар-Кары одним из первых открыл джадидскую школу в Ташкенте по методике Гаспринского. Бехбуди издавал газеты, писал пьесы и активно выступал за женское образование, как и Гаспринский в свое время.

Кроме того, Гаспринский оказал влияние на формирование литературного языка и жанров джадидской литературы. Его стиль изложения, близкий к народу, сочетание публицистики, художественного слова и педагогики стали моделью для узбекских авторов, стремившихся просвещать народ доступным языком.

Хотя джадидизм в Узбекистане вобрал в себя многие идеи Гаспринского, он приобрёл и свои специфические черты. В условиях колониального режима в Туркестане узбекские джадиды столкнулись с более жестким контролем со стороны властей, особенно со стороны бухарского эмира и российского генерал-губернатора. Поэтому они действовали осторожнее, используя театры, литературные кружки, подцензурную прессу как каналы распространения идей. Если Гаспринский видел своей целью объединение всех тюрков, то узбекские джадиды в большей степени сосредоточились на natsionальном возрождении и развитии узбекской культуры.

Исмаил Гаспринский по праву считается одним из основоположников мусульманского просвещения в Российской империи. Его идеи, сформулированные в печати, педагогике и общественной деятельности, оказали глубокое воздействие на формирование нового типа мусульманского интеллигента – джадида. Узбекские просветители, вдохновленные его трудами, активно внедряли в жизнь принципы «нового метода», развивали систему светского образования, стремились пробудить в народе чувство natsionального достоинства, интерес к науке и прогрессу.

Несмотря на различия в условиях и подходах, объединяющим звеном между Гаспринским и узбекскими джадидами стало общее стремление к обновлению и просвещению мусульманского общества. Влияние Гаспринского ощущается в работах, речах и педагогических

проектах узбекских реформаторов начала XX века. Его наследие продолжает оставаться актуальным в современных исследованиях истории просветительства, межкультурного диалога и модернизatsii образования в тюркском мире.

Использованная литература:

1. Гаспринский И. Русское мусульманство. Мысли, заметки и наблюдения мусульманина. — Симферополь: Тип. «Терджиман», 1881.

2. Бобохонов Ш. Узбекские джадиды: общественно-политические и просветительские взгляды. — Ташкент: Фан, 1995.

3. Фитрат А. Танланган асарлар. — Тошкент: Маънавият, 2006.

4. Камалов А. Джадидизм в Центральной Азии: идеи и наследие. — Алматы: Дайк-Пресс, 2011.

5. Ганиев А. Джадидская литература и общественная мысль. — Ташкент: Университет, 2010.

6. Карамушкин С.Г. Исмаил Гаспринский и просвещение мусульман Российской империи. — М.: Восточная литература, 2014.

7. Аминов Х. Джадидское движение в Туркестане. — Ташкент: Шарқ, 2001.

8. Dudoignon S.A. (ed.) Intellectuals and Reform in the Muslim World: Transmission, Transformation, Communication. — London: Routledge, 2006.

СРАВНЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРИЁМОВ ДЖАДИДОВ И РУССКИХ НАРОДНИКОВ

Юсупова Ирода Баходировна
студентка II курса филологического
факультета, Университет Маъмуна.
Learnedlearned666@gmail.com

Аннотatsiя: В статье рассматриваются сходства и различия в литературных приёмах джадидов и русских народников. Анализируются их идеологические установки, художественные цели и способы обращения к читателю. Особое внимание уделяется мотивам просвещения, социального служения и роли писателя в обществе. Сравнительный подход позволяет выявить общее стремление обеих традиций к преобразованию социальной действительности через литературу, а также отличия, обусловленные культурно-историческим контекстом мусульманского Востока и России XIX века.

Ключевые слова: джадиды, русские народники, литературные приёмы, просветительство, социальная литература, идеология, художественный стиль, критический реализм, общественная роль писателя, сравнительный анализ.

В истории русской и мусульманской литературы конца XIX — начала XX века важным этапом стало развитие просветительских течений, таких как джадидизм и народничество. Оба движения стремились к социальной трансформatsii через литературу, однако их культурно-исторические контексты и подходы к изображению реальности были различными. В этой статье рассматривается сравнительный анализ литературных приёмов джадидов и русских народников, с акцентом на их идеологические установки, методы воздействия на общественное сознание и роль литературы в процессе социальной модернизatsii. Сравнение этих течений позволяет лучше понять их влияние на развитие общественной мысли в разных культурных и политических контекстах.

Джадидизм и народничество — два культурных и социально-политических течения, возникших в конце XIX — начале XX века, стали важными вехами в истории литературы России и Центральной Азии. Оба эти движения стремились изменить общество с помощью просвещения, но подходы к этому были различными, что связано с особенностями культурных и политических условий в России и на Востоке. Литературные приёмы джадидов и русских народников тесно переплетались с их идеологиями и пониманием роли писателя в обществе.

Русские народники, являясь частью радикального движения, стремились показать важность социальной справедливости и улучшения положения крестьянства. Основное внимание в их произведениях уделялось изображению крестьянской жизни, её тяжёлых условий и страданий. Литературные приёмы народников включали реалистичное изображение быта, крестьянского труда и социальных конфликтов. Часто они использовали элементы народной поэзии, простоту языка, что позволяло сделать произведения доступными для широких слоёв населения. Важно, что народники не ограничивались только литературной деятельностью, а активно участвовали в общественной жизни, что также отразилось в их произведениях.

Джадиды, с другой стороны, занимались реформированием не только литературы, но и системы образования, что отражалось в их произведениях. Для джадидистов литература становилась инструментом просвещения и культурного обновления. Они стремились обновить мусульманскую культуру, сделать её более современно ориентированной, но при этом сохранить традиции. Литературные приёмы джадидов включали использование более простого языка, часто обращение к народной устной традиции, но с учётом новых форм и подходов. Особое внимание джадиды уделяли вопросам образования, роли женщины в обществе и необходимости социального прогресса. Это делало их произведения актуальными для широкого круга читателей.

Оба движения в своих произведениях часто использовали дидактические элементы, направленные на воспитание и просвещение читателей. Народники акцентировали внимание на социальной несправедливости и необходимости борьбы за права крестьян, что становилось основным мотивом в их произведениях. Литературные приёмы, которые использовали народники, направлены на изображение жизни крестьянства в её полном объёме, включая их страдания, труд и повседневную жизнь. При этом народники использовали стилизованные народные формы, такие как сказки и пословицы, чтобы приблизить свои произведения к народу.

Джадиды же в своих произведениях, хотя и затрагивали проблемы социальной несправедливости, делали акцент на важности образования как средства достижения прогресса. Их литература носила более модернистский характер, что было связано с желанием реформировать не только общество, но и саму культуру. Джадиды использовали как традиционные формы (например, стихотворную форму), так и новые, более экспериментальные, что позволяло им достичь нового уровня воздействия на читателя.

Несмотря на различия в подходах, литературные приёмы и идеи как джадидов, так и народников отражают стремление к социальной modernizatsiя через литературу. И джадиды, и народники понимали важность литературных произведений как средства воздействия на массовое сознание и на формирование нового общественного порядка.

Сравнительный анализ литературных приёмов джадидов и русских народников показывает, что несмотря на различия в культурно-историческом контексте и специфике социальной структуры, оба движения стремились к социальным изменениям через литературу. Народники фокусировались на изображении крестьянской жизни и борьбе за права простого народа, используя реализм и народные формы. Джадиды же, при сохранении внимания к социальным проблемам, акцентировали внимание на просвещении и культурной modernizatsiя, что проявлялось в их литературных приёмах и языковой простоте. Оба движения использовали литературу как мощный инструмент для преобразования общества, каждый в своём контексте, что оказало долговременное влияние на развитие общественной мысли в России и Центральной Азии.

Безусловно, для более глубокого понимания вклада джадидов и народников в развитие литературы и общественной мысли важно также рассмотреть вопрос их отношения к традиции и новаторству, а также их восприятие роли интеллигенции в процессе общественных преобразований. Оба движения выступали против застоя и консервативности в своих обществах, однако методы и средства достижения целей у них были различны.

Джадиды не только апеллировали к народу, но и стремились активно формировать новый тип личности — просвещённого, образованного мусульманина, способного к критическому мышлению и самостоятельным действиям. Их цель была не просто описать страдания народа, а дать ему инструменты для саморазвития и участия в modernizatsiя общества. В этом смысле джадидская литература отличалась большей ориентированностью на будущее, на проектирование новой реальности, а не только на отражение существующей. Джадидские

авторы часто совмещали литературную и педагогическую функции, включая в свои произведения элементы наставления, диалога, публицистики и даже театра.

Отдельного внимания заслуживает роль языка в стратегии обоих движений. Народники использовали упрощённый, разговорный язык, насыщенный народными оборотами, что делало их тексты близкими по духу к устной традиции. Это позволяло им сохранять связь с фольклором и народной эстетикой. Джадиды же, несмотря на сохранение литературных традиций Востока, стремились упростить и очистить язык своих произведений от чрезмерного количества арабских и персидских заимствований, чтобы сделать тексты понятными для широких масс. Таким образом, оба движения по-своему вели борьбу за «демократизatsiю языка» — народники через приближение к фольклору, джадиды — через осовременивание и упрощение письменной речи.

Таким образом, сравнительное изучение литературных приёмов джадидов и русских народников выявляет как глубокие различия, так и важные точки пересечения: оба движения использовали литературу как средство преобразования общества, оба стремились сделать её доступной, оба выступали за просвещение и активную гражданскую позицию писателя. Эти параллели позволяют лучше понять, как в разных культурных контекстах литература становится инструментом общественной мобилизatsii и интеллектуального развития.

Использованная литература:

1. Гафуров С. История джадидизма в Центральной Азии. — Ташкент: Фан, 1991. — С. 124–137.

2. Лукьянов П. В. Русские народники и их роль в литературе XIX века. — Москва: Наука, 1983. — С. 50–72.

3. Вершинин В. С. Литературные течения России XIX века. — Санкт-Петербург: Алетейя, 1997. — С. 160–175.

4. Султанов М. Джадидизм и его влияние на современную литературу. — Ташкент: Университет, 2003. — С. 95–112.

5. Шмидт И. В. Народничество и народники в русской литературе. — Москва: Российская академия наук, 2000. — С. 220–245.

6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998. — P. 134–150.

III SHO‘BA. XORAZM JADIDLARI: ISLOMXO‘JA VA ISLOHOTLAR DASTURI

«YOSH XIVALIKLAR» HARAKATINING TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARI

Masharipova Gularam Kamilovna,
Alfaragnus university professori,
falsafa fanlari doktori.
tel.: 90-930-95-82
e-mail: Masharipova.gularam2006@gmail.tu,

Annotatsiya. Maqolada “Yosh xivaliklar” harakatining ta'lim sohasidagi islohotchilik harakatlari haqida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Jadidchilik harakati xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida alohida ahamiyatga ega bo‘lsada, afsuski yaqin-yaqingacha uning o‘zbek xalqi tarixidagi o‘rni va roli ob’ektiv ravishda baholanmasdan kelindi. Jadidchilik - davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim ekani maqolada tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada “Yosh xivaliklar”ning ta’lim sohasidagi yangi islohotlari haqida ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, yangi tuzum, siyosat, islohotchilik, davlat, tuzum, boshqaruv, millatni rivojlantirish, yangi taraqqiyot.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ДВИЖЕНИЕ “МОЛОДЫХ ХИВИНЦЕВ»

Аннотatsiя. В статье научно обоснованы реформаторские усилия движения «Молодых Хивинцев» в сфере образования. Хотя джадидское движение имеет особое значение в общественно-культурной жизни нашего народа, к сожалению, до недавнего времени его место и роль в истории узбекского народа не были объективно оценены. В статье проанализировано, что джадидизм — это система, воплощающая идеи и конкретные практические меры, направленные на вывод общества в целом на новый этап развития посредством реформирования государства, строя, управления и развития hatsii. В статье также дана информatsiя о новых реформах в сфере образования «Молодых Хивинцев».

Ключевые слова: джадиды, новый режим, политика, реформизм, государство, режим, управление, hatsiональное развитие, новый прогресс.

EDUCATIONAL REFORMS MOVEMENT OF “YOUNG KHIVANIANS”

Abstract. The article provides scientific substantiation of the reform efforts of the movement of "Young Khivans" in the field of education. Although the Jadid movement has a special significance in the socio-cultural life of our people, unfortunately, until recently its place and role in the history of the Uzbek people have not been objectively assessed. The article analyzes that Jadidism is a system that embodies ideas and specific practical measures aimed at bringing society as a whole to a new stage of development through reforming the state, system, governance and development of the nation. The article also provides information on new reforms in the field of education of "Young Khivans".

Keywords: jadids, new regime, politics, reformism, state, regime, governance, national development, new progress.

Jadidlar jahon sivilizatsiyasida nihoyat katta rol o‘ynagan, Turkistondek ulkan tarixiy bir o‘lkada, ko‘p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G‘arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlaganini hamda XX asr tongidan yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lida kurashga kirishganini ko‘rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o‘zida istifoda etdi [1, 24-b].

«Yosh xivaliklar» harakati – XX asr boshlarida Xiva xonligida tashkil etilgan islohotchi jadidlarning siyosiy harakati bo‘lib, u mamlakatni modernizatsiya qilish va xalq farovonligini oshirishga

qaratilgan edi. Ushbu harakat Rossiyadagi 1905-yil inqilobi va jadidchilik g‘oyalari ta’sirida vujudga kelgan.

Harakatning asosiy maqsadlari:

- xonlikda konstitutsiyaviy boshqaruv o‘rnatish - mutlaq monarxiya o‘rniga xalq ishtirokidagi boshqaruv tizimini yaratish.
- ta’lim tizimini isloh qilish – yangi usul maktablarini ochish va ilm-fanni rivojlantirish.
- xalqning siyosiy ongini oshirish – aholini savodli qilish va matbuotni rivojlantirish.
- sotsial-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish – soliq tizimini adolatli qilish, yer munosabatlarini tartibga solish.
- ayollar huquqlarini himoya qilish – ularning jamiyatdagi rolini oshirish va savodxonligini ko‘tarish.

Harakatning faoliyati va ta’siri: «Yosh xivaliklar» 1917-yilda Xiva xoniga qarshi chiqib, hukumatni isloh qilishga harakat qilishgan. 1918-yilda ular Xiva xoni Asfandiyorxonga bosim o‘tkazib, yangi islohotlar joriy etishga erishishgan. 1920-yilda Xiva xonligi tugatilgach, «Yosh xivaliklar» Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilishida muhim rol o‘ynagan.

Xiva jadidlari - XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida faoliyat yuritgan islohotchi ziyolilar guruhi bo‘lib, ularning asosiy maqsadi jamiyatni modernizatsiya qilish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish hamda xonlikni mustahkamlash edi. Ularning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- Yangi usul maktablarini tashkil etish – An’anaviy diniy ta’lim o‘rniga zamonaviy fanlar o‘qitiladigan maktablarni ochish;
- Madaniy va ilmiy taraqqiyotni rivojlantirish – Turkiston va boshqa musulmon mamlakatlaridagi jadidchilik harakatlari ta’sirida yangi adabiyot va matbuot rivojiga hissa qo‘shish;
- Xalqni savodxon qilish - Mahalliy aholining bilimini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish;
- Ijtimoiy islohotlar o‘tkazish – Ayollar huquqlarini himoya qilish, jamiyatda adolatni ta’minlash va eski urf-odatlarni isloh qilish;
- Siyosiy islohotlarni ilgari surish – Xonlik boshqaruv tizimini isloh qilib, konstitutsiyaviy boshqaruvga o‘tish g‘oyasini ilgari surish.

Xiva jadidlari islohotchilik harakatiga katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati xonlik hukmdorlari va konservativ kuchlar tomonidan qarshilikka uchragan. Shunga qaramay, ular Xorazm madaniyati va ta’lim tizimining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Ma’lumki, muhim tarixiy voqealar tasodifan va favqulodda sodir bo‘lmay, balki, o‘zlarining zamin va ildiziga ega. Jadid g‘oyalari va harakati ham XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi sharoitga bog‘langan holda shakllandi va toblandi. Boshqacharoq aytganda, ular o‘sha davr siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotining aks sadosi sifatida gavdalanadi [2, 12-b.]. Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg‘ulari ham jadidlar etakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. “Jadidlar sharoit taqozosiga ko‘ra, birinchi navbatda, xalqning savodini chiqarish, bilimini oshirish, milliy his-tuyg‘ularini va siyosiy ongini o‘stirish uchun kurashdilar” [3, 45-b.]. Boshqacharoq aytganda, ular faoliyatining dastlabki bosqichida ma’rifatparvarlik salmoqli o‘rinni egalladi. Ammo, bu ularda siyosiy g‘oyalar va maqsadlar yo‘q degani emas, albatta. Aksincha, siyosiy qarashlar mavjud bo‘lib, lekin uni darhol amalga oshirish uchun hali sharoit bo‘lmagan edi.

Xiva xonligi hududida asta-sekinlik bilan bo‘lsada, taraqqiyot kurtaklari katta-kichik zavodlar, Rossiya savdo-sotiq kompaniyalari, banklari bo‘limlarining paydo bo‘lishi, ularda ishlash uchun Rossiyadan ko‘p savodli hamda demokratik kayfiyatdagi kishilarning kela boshlashi, ularning mahalliy aholi bilan doimiy muloqoti va unga ta’siri ham Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida ma’lum darajada ahamiyat kasb etdi [4, 78-b.].

Jadidchilik harakati haqiqat bu harakatning faol namoyondalari Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, CHo‘lpon, Polvonniyoz Hoji Yusupov xotiralarida, jadidlar bilan bevosita tanish va hamfikr bo‘lgan Sadriddin Ayniy, Respublikamizdagi bir qancha tarixchi olimlarimiz, jumladan, D.A.Alimova, M.Muhammadjonov, D.X.Ziyayeva, M.Matniyozov, K.Rajabov va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topdi. Rossiya va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning faol ishtirokchisi, keyinchalik chet elga ketib qolgan Stambul dorilfununing professori Zaki Validiy va amerikalik olim Edvard Alford tomonidan e’lon qilingan risola va ilmiy maqolalarda ham jadidchilik harakati o‘zining xolisona bahosini topdi.

Jadidchilik harakatini adolat nuqtai nazaridan xolisoni o‘rganish ishi 1985 yildan keyin yo‘lga qo‘yildi. Jadidchilikning vujudga kelishidagi ob’ekt shart-sharoitlari, bu harakatning ijtimoiy-siyosiy

mohiyati yirik adabiyotshunoslar B.Qosimov, Sh.Turdiyev, S.Qosimov hamda pedagog olimlardan J.Yo‘ldoshev, S.Hasanov va boshqalar tomonidan keyingi vaqtlarda e’lon qilingan ilmiy maqolalarda yoritildi.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bo‘lganidek, Xiva xonligida ham mahalliy burjuaziyaning ilg‘or vakillari savdo-sotiq doiralari, mayda burjuaziya va hunarmandlar orasida jadidchilik harakatining tarqalishi uchun zarur sharoit vujudga keldi. «Yosh xivaliklar» ijtimoiy-siyosiy harakati rahbarlarining deyarli barchasi Xiva xonligida sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar qilishning ob’ektiv zarurligini tushunib etgan bilimli, ongli kishilar edilar. Bu harakatning rahbari Xivalik Polvonniyoz Hoji Yusupov arab, fors va rus tillarini puxta bilgan shaxs edi. U Rossiya va Turkistonda chop qilingan «Tarjimon», «Vaqt», «Yulduz», «Taraqqiy” kabi gazeta va jurnallarni o‘qib borardi. U Rossiyaga bir qancha marta borib yirik sanoat, fan va madaniyat markazlarida bo‘ldi. Musulmonlarning muqaddas sajdagohi Makkada, shuningdek, Turkiya, Suriya va Misr kabi mamlakatlarda bo‘ldi. Bu mamlakatlarning siyosiy hayoti bilan yaqindan tanishib, juda katta taassurot bilan Xivaga qaytdi. Polvonniyoz Hoji YUsupovdan bizga qo‘lyozma holida 323 varaqdan iborat (645 betli matn) qimmatli esdaliklar meros bo‘lib qolgan. Bu esdaliklar Xiva xonligining inqilobiy arafasidagi ahvolini va inqilobiy harakat tarixini o‘rganishda muhim manbadir. Professor M.Matniyozov Polvonniyoz Hoji Yusupov “Xotiralar”ni “Yosh xivaliklar tarixi” (“Xotiralar”) deb nomladi va unda bayon qilingan voqea va hodisalar mazmunidan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda 10 bobga bo‘lgan [3, 6-b.].

XX asr boshlarida shakllangan Xiva jadidchilik harakati asosan 2 ta oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi o‘lkada rivoj topib kelayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilardi. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda, sotsial-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali kapitalistik munosabatlarga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ydi.

Xiva jadidchilik harakatining so‘l oqimi esa mayda burjuaziya hunarmandlar va mehnatkashlarning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan edi. Bobo oxun Salimov so‘l oqimining rahbari edi. Bobo oxun Salimov (asli ismi Muhammad) 1874 yilda Gurlan bekligida Shayxulislom (qozikalon) Salim oxun oilasida dunyoga keldi. Xiva shahrida Olloqulixon madrasasini tugallab, dunyoviy bilimlarni, shuningdek, o‘zbek, arab, fors, rus va boshqa tillarni yaxshi bilgan, shoir sifatida she’rlar yozgan. 1910-18 yillarda otasi o‘rniga shayxulislomlik vazifasida ishlagan. Taraqqiyparvarlik g‘oyalariga moyilligi tufayli jadidchilik harakatining yirik namoyandasiga aylandi. Bobo oxun Salimovga ergashgan Avaz O‘tar o‘g‘li, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Otajon Safoyev, Xudoybergan Devanov, Mulla Bekjon Rahmanov, Otajon Obdalov, Husainbek Matmurad devonbegi o‘g‘li, Mulla Jumaniyoz Sultonmurod va boshqa ko‘pgina taraqqiyparvar kishilar jadidlar harakatining so‘l oqimi a’zolari edi [5, 373-b.].

Xiva jadidlar harakatining so‘l oqimi avval boshdanoq o‘zlarining turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari jadidlarning so‘l oqimini quvvatlab, 1904 yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyat haqida Polvonniyoz Hoji Yusupovning “Yosh xivaliklar” asarida batafsil ma’lumot keltirilgan. “Jamiyat xayriya”ning a’zolari o‘z hisobidan mablag‘lar asosida yangi maktablarga ochdilar. Aslida bu jamiyatning maqsadi jadidlarga yangi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. “Jamiyati xayriya”ning moddiy yordami tufayli Xiva shahrida Qozondagi yangi usul “Muhammadiya” madrasasini bitkazgan Husain Qo‘shaqov boshchiligida 1904 yil 10 noyabrida yangi uslubdagi jadid maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 14 ta, keyinroq esa 55 nafar bola ta’lim oldi. Shulardan 45 nafari o‘zbek bolalari edi. Jadidlar yordamida 1906-1911 yillarda Xo‘jaeli, Qo‘ng‘irot, To‘rtko‘l va Shovotda ham yangi uslubdagi maktablar ochishga erishildi. Bu maktablarda Husain Qo‘shaqov bilan birgalikda Komila Qo‘shoqova, Yusuf Ahmadov, Muhammadsharif Xudoyberganov va boshqalar o‘qituvchilik qildilar. “Xiva jadidlari yangi uslubdagi maktablar ochish bilan birga ular uchun darsliklar yaratish borasida ham katta ishlar qildilar. Bobo oxun Salimov maslakdosh do‘sti Mulla Bekjon Rahmanov bilan hamkorlikda “Alifbe” va “O‘qish kitobi” darsliklarini yaratdilar”[4, 81-b.].

Bobo Oxun Salimov (1874-1929) XX asr boshlarida Xiva xonligida faoliyat yuritgan yirik jadid, davlat arbobi va shoir edi. Uning faoliyati Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u «Yosh xivaliklar» partiyasining yetakchi a'zolaridan biri sifatida tanilgan.

Bobo Oxun Salimov Xiva xonligi davrida qozi askar va qozikalon yordamchisi kabi yuqori davlat lavozimlarida xizmat qilgan. 1917-yilda tashkil etilgan Majlisda parlament raisi (Idorai marshrutiya) sifatida faoliyat yuritgan. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davrida esa adliya noziri lavozimida ishlagan va bir qator davlatlarda elchilik faoliyatini olib borgan. Bobo Oxun Salimov jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo‘lib, «Yosh xivaliklar» partiyasining yetakchi a'zolaridan biri edi. Uning jadidchilik faoliyati Xiva xonligida islohotlar o‘tkazish, maktab-maorif ishini yaxshilash va xon hokimiyatini cheklash kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Bobo Oxun Salimov do‘sti Bekjon Rahmonov bilan birgalikda yangi usul maktablari uchun darsliklar yozgan. Shuningdek, u shoir sifatida ham tanilgan bo‘lib, uning she'rlari va kundaliklari Xorazm madaniyati va adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Bobo Oxun Salimovning faoliyati Xiva xonligida jadidchilik harakatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ma'rifatparvarlik faoliyati va adabiy merosi o‘zbek tarixida alohida ahamiyatga ega.

Jadidlar har qanday qiyinchilik va tazyiqlarga qaramay, usuli savtiya maktablarini ochishga harakat qildilar. Ularning maktab va ta’lim tizimini isloh etish yo‘lidagi harakatlari markazida dastlab ibtidoiy maktablar turdi. Buxorolik Niyoziy Rajabzoda ismli muallim «Oyna» jurnalining 1914 yil 38-sonida e’lon qilgan “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiy yo‘li” degan maqolasida ibtidoiy maktabni isloh etish fikrini olga surib, bunday yozdi: “Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyni ibtidoiy maktabdan boshlarlar. Haqiqatan, taraqqiy va taolo uchun birinchi yo‘l va asos maktabdur. Maktab isloh qilinsa, umum ishlar isloh va tartibga kirdi, deb bo‘ladi. Chunki, kamroq bo‘lsa ham, isloh qilingan maktabdan chiqqan bolalar islohparvar bo‘ladurlar”[6, 3-b.].

1918 yil iyul oyida Yosh Xivaliklar yangi dasturlarini ishlab chiqdilar. Bunda ular o‘zlarini Xiva inqilobiy partiya deb ataganlar. Unda quyidagi talablar bo‘lgan:

1) Xon va uning hukumati tomonidan mamlakat yakka boshqaruvini butunlay tugatish;

2) Xiva hududini Turkistonga qo‘shib, RSFSR tarkibiga kiritish;

3) Xiva xoni, to‘ralar, beklar va vazirlarining pullari, har xil ko‘rinishdagi mulklarini xalq boyligi deb e’lon qilish;

4) Yirik er egalari mulklaridan kambag‘allar hayotini yaxshilashda foydalanish;

5) Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash;

6) Xivadagi yangi erlarni o‘zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish;

7) Bolalarni bepul o‘qitish uchun Xivada maktablar ochish;

8) Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarini ochish;

9) Xiva xoni tomonidan qambag‘al aholining majburan tortib olingan er va boshqa boyliklarni o‘z egalariga qaytarish;

10) Asfandiyorxon hukmronligi davridagi xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish;

11) Ko‘priklar va aloqa yo‘llarini yaxshilashga kirishish;

12) Beklar tomonidan kambag‘al aholining majburan tortib olingan er va mulklarini o‘z egalariga qaytarish;

13) Bepul, majburiy mehnat (begar)ni butunlay tugatish;

14) Xon va uning hukumatini tugatish, xalq hokimiyatini tuzish va yuqoridagi dasturni amalga oshirishga tezda kirishish, xalq hokimiyatiga qarshi bo‘lgan xon tarafdorlari, burujuaziya va aksilinqilobchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borish.

Xulosa. «Yosh xivaliklar»ning ko‘pchiligi yangi tuzumga xizmat qilishga majbur bo‘ldi. Biroq ko‘pchiligi keyinchalik «xalq dushmani» sifatida qatag‘on qilindi. Shunga qaramay, ularning harakati O‘zbekistonda jadidchilik va islohotchilik an’analarining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. “Yosh xivaliklar” ko‘plab xayriya ishlarini amalga oshirganlar, diniy va dunyoviy fanlarni qo‘shib o‘qitishga asoslangan yangi uslubdagi jadid maktablari hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, Xiva xonligida madaniyat va maorif taraqqiyotida ijobiy ahamiyat kasb etib, aholi o‘rtasida bilim tarqatish imkonini berdi, qisman bo‘lsada xonlikda progressiv kayfiyatdagi kishilar ko‘paydi, aholi siyosiy ongining o‘sishida muhim rol o‘ynadi.

Adabiyotlar:

1. Shamsutdinov R.T., Rasulov B.M. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). - Andijon, “Meros”, 1995.

2. Ziyoyev H. Olam va odam. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini. Olam va odam jurnali. 1999, 9-son. - 12-b.

3. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. – M.Matniyozov tahriri ostida. – Urganch, 2000.

4. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. - T., 1998.

5. Xorazm tarixi. M.Matniyozov tahriri ostida. – Urganch, 1-jild, 1997.

6. “Oyna” (1914-1915 y). Nashrga tayyorlovchilar: Naim Norkulov, Kamoliddin Rabbimov.-T.: “Akademiya”, 2001.

ХОРАЗМДА ЖАДИДЧИЛИК «ЁШ ХИВАЛИКЛАР” ҲАРАКАТИДА ПОЛВОННИЁЗ ҲОЖИ ЮСУПОВНИНГ ФАОЛИЯТИ

Г.Хусаинбекова, т.ф.н, доц.,
Педагогик маҳорат маркази,
Ижтимоий-иқтисодий фанлар
методикаси кафедраси т.ф.н доц.

Аннотатsiя. Мақолада XX аср биринчи чорагида Хоразм ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим роль ўйнаган, истиқлол ва тараққиёт учун кураш олиб борган Ёш хиваликлар фирқасининг фаолияти ва бу жараёнда фаол курашган бобомиз Полвонниёз Ҳожи Юсуповнинг ҳаёт фаолияти ёритилган.

Калит сўзлар: жадидчилик, фирқа, миллий зиёлилар, ҳурофот, ислоҳот, ёш Хиваликлар.

Аннотатsiя. В статье освещается деятельность младохивинской фракции, сыгравшей важную роль в общественно-политической жизни Хорезма в первой четверти XX века, боровшейся за независимость и развитие, а также жизнь нашего деда Полвонния̆за Ходжи Юсупова, который активно боролся в этом процессе.

Ключевые слова: Джадидизм, фракция, natsiональная интеллигенция, суеверие, реформа, хивинская молодежь.

Abstract. The article highlights the activities of the Young Khiva faction, which played an important role in the socio-political life of Khorezm in the first quarter of the 20th century, fighting for independence and development, as well as the life of our grandfather Polvonniyaz Khodja Yusupov, who actively fought in this process.

Keywords: Jadidism, faction, national intelligentsia, superstition, reform, Khiva youth.

XX аср биринчи чорагида Хоразм ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим роль ўйнаган, истиқлол ва тараққиёт учун кураш олиб борган ягона куч Ёш хиваликлар фирқаси эди. Ушбу фирқага 1914 йил августда Полвонниёз ҳожи Юсупов асос солган бўлиб, унинг сафида миллий зиёлилар, деҳқон, ҳунарманд, савдогар ва Ислом уламолари ҳамда давлатнинг айрим амалдорлари бирлашган. Хусусан, Жуманиёз Бобониёзов, Бобожон Ёқубов, Жуманиёз Султонмуродов, Назир Шоликоров, Султонқори Жуманиёзов, Худойберган Девонов, Ҳусайнбек девонбеги Матмуродов, Муҳаммадёрхўжа Абдуллаев каби ватанпарварлар партиянинг фаоллари бўлган.Ушбу партиянинг эълон қилинган дастурида ҳам хон ҳокимиятини чеклайдиган ислоҳотлар ўтказиш, мамлакатда конституциявий монархия ўрнатиш, халқни маърифатли қилиш каби мақсадлар белгилаб олинган. 1917 йил Февраль инқилобидан сўнг Ёш хиваликлар Рус подшоси истибдоди билан уйғунлашган мустабид хон зулми, мутаассиблик, хурофот, турли хил солиқларнинг кўплигидан азобланаётган халқни эркин ва фаровон турмушга олиб чиқиш йўлида ислоҳотлар ўтказиш, мамлакатда фаровон ҳаётни йўлга қўйиш учун хон ҳокимиятига мухолиф бўлдилар. Ўша йилнинг кузида хон тарафдорлари томонидан Ёш хиваликлар қаттиқ қаршиликка учради. Улар динсизликда айбландилар. Полвонниёз ҳожи Юсупов, Назир Шоликоровлар суд қилинди ва Ёш хиваликларнинг баъзи аъзолари қамоққа олинди. Қолган кўпчилиги аскарлар казармасидан паноҳ топишди. Ёш хиваликлар 1917 йил охирларида яширин фаолият олиб боришга мажбур бўлади. Ўша йили 30 декабрда улар Туркистон ўлкаси ХКСга мурожаат қиладилар ва ўзларини Ёш хивалик социал инқилобчилар, деб атайдилар. Худди шундай ном остида кейинчалик Туркистон Совет Республикаси МИҚга Хивадаги аҳвол тўғрисида доклад топширдилар.1918 йил 5 июнда Ёш хиваликлар инқилобий партияси ўз дастури, тузилиши,

муҳрига эга бўлган расмий ташкилот сифатида тўлиқ шаклланди. Июль ойида ўз дастурини ишлаб чиқди. Шу тарзда улар ўзларини Хива инқилобий партияси, деб атаганлар ҳамда “Манифест” тарзида партия дастурини ишлаб чиққанлар. Дастурнинг аниқлаштирилган 12 моддадан иборат варианти “Хива инқилобчилар партиясининг яқин вазифалари” номи билан 1920 йил 8 январда Тошкентдаги “Известия” газетасида босиб чиқарилди. Н. Полвоновнинг тадқиқотларида Ёш хиваликлар ҳаракати 1904-1905 йилларда ҳамфикрлар, 1910 йил бошларида манфаатлар гуруҳи сифатида шаклланганини, 1917 йилда амалдорлар, маърифатли бойлар, миллий буржуазия ва зиёлиларнинг Хива хонига мухолифатдаги сиёсий куч бўлганини, 1918 йилда эса расмий сиёсий партия сифатида юзага чиққанини таъкидлайди.

Бу йўлда улар имкониятида мавжуд жамики ресурслар (истеъдодлари, шахсий маблағлари, уй-жойлари, сиёсий ва маданий институтлар, матбуот ҳамда театр, маърифат уйлари ва ҳоказо)дан тўлиқ фойдаландилар, ҳатто азиз умрларини ҳам фидо қилишди. Аввал чор ҳукумати, кейин шўролар давлати, ички қора кучлар – қадимчи ва жоҳил уламолар томонидан кўрсатилган зулм-зўравонликлар, тазйиқлар, қувғинлар, суиқасдларга қарамай, жадид боболаримиз ўзлари танлаган йўлдан қайтмадилар. Хивадаги жадидлар юрт мустақиллиги учун кураш, уни ўрта асрларга хос қолоқлик ва диний хурофотдан озод этиш, шариатни ислоҳ қилиш, Туркистонда мухторият ҳукуматини барпо этиш учун курашдилар.

Аммо жадидлик таълимотига муносабат фақатгина мустақиллик йилларида ўз мавқеини тиклаб борди.

Жадидларнинг асосий мақсади дунёвий илмларни эгаллаган ёшларни тарбиялаш ва уларнинг маънавий онгини ошириш, ўз вазифасини ўтай олмай қолган эскича таълим тизимига янгича инноватsion ғояларни сингдириш эди. Бундан ташқари улар ижтимоий ҳаёт тарзини замонавий ҳаётга мослаштириш, миллий ва замонавий армияни жорий этиш, диний ва дунёвий, ахлоқий нормаларни инобатга олган ҳолда янги қонунчилик концепциясини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, давлатнинг бошқарув тизимини ислоҳ этиш, ҳудудий тарқоқликни бартараф этиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, жамият ривожланишининг барча соҳалари учун миллий кадрларни тайёрлаш, давлатлар билан дипломатик алоқаларни ва ташқи сиёсат концепциясини ўрнатиш каби бир қанча масалаларни илгари сурди.

Жадидлик 1917 йилги большевиклар тўнтаришидан кейин ҳам социалистик диктатура ўрнатилгунга қадар ўз мавқе ва йўналишини сақлаб қола олган ижтимоий ҳаракатдир. Баъзи манбаларда жадидлик оқим деб аталса, баъзисида ҳаракат деб айтилади. Жадидликнинг пойдевори, тамал тоши усули жадид мактабларининг ташкил қилиниши эди. Ҳамонки, мақсад жамиятни янгилаш экан, уни янги авлодгина қилиши мумкин эди. Бунинг учун эса замон талабига мос ёшларни тарбиялаш масаласи жадид алломаларининг олдига қўйилган бош масала бўлди. 1900-1925 йиллар «жадидчилик» тушунчасининг пайдо бўлиши ўз даврининг энг пешқадам, ташаббуслар давридир.

Янги зиёлиларнинг қарашларида энг аввало, аҳолининг барча ижтимоий қатламлари орасида ҳукм сурган саводсизликни тугатиш, эски таълим тизимини ислоҳ қилиш, қолоқ, эски ва беҳуда одатларга чек қўйиш сингари мақсадлар илгари сурилди. Жадидчилик ҳаракатида жасорат кўрсатган киши бу Полвонниёз Юсупов эди.

Полвонниёз Юсупов 1861 йили Хивада- савдогар оиласида туғилган. 1871 йилларда ота-онаси вафот этгач амакиси Юсуфбой уни ўз тарбиясига олади.Амакиси Юсуфбой унинг тарбиясига катта эътибор беради ва Хивадаги мактабда ўқиб савод чиқариб, ўзи каби савдо илмини эгаллашига имкон яратади. Полёз амакиси билан 1877 йили Россияга, 1904-05 йилларда Эрон, Туркия, Миср, Сурия ва Арабистонга сафар қилади. Биратўла Макка ва Мадина шаҳарларини зиёрат қилиб Хоразмга ҳожи сифатида қайтиб келади.

Полвонниёзҳожи рус, форс, араб тилларини ўрганади.Ўз даврининг илғор зиёлиси сифатида Россия, Туркияда нашр этилиб турган газета-журналларни ўқишни одат қилади.У илғор, тараққийпарвар фикрлар билан танишади. Айни пайтда савдогарчилик ортидан Хивада етук сармоядор, қолаверса ҳожи сифатида ўзига яраша обрў-эътибор топади. Ўша пайтларда ҳожи бўлиш ниҳоятда қийин бўлган,чунки карвон йўллари орқали Арабистонга сафар қилинган. Хон саройида Полёзҳожини ўзига яқин олган амалдорлар орасида йирик мулкдор, девонбегилар сулоласига мансуб Ҳусайнбек Матмуродов бор эди. Хусайнбек Матмурадов ота томондан менинг бобом бўлади. 1912 йилда Хива хони Исфандиёрхон Россия ва Кавказга сафар қиларкан,

Ҳусайнбекни, шу жумладан Матмуродовга саркотиб сифатида Полёзҳожини ҳам ўз сафардошлари қаторига қўшади.

1913-14 йилларда Исфандиёрхон саройида авж олган парокандалик, фитна-фасодлар, турли гуруҳбозлик туфайли хонликда зиддиятли жараёнлар бошланган эди. Бош вазир Исломхўжа хонликда жуда катта ислоҳотларни бошлаб юборган эди. Бу ҳолат хонга ёқмасдан ғаразли кишиларнинг фитналари сабаб хон ўз қайнотасини 1913 йил августида ўлдиради. Хон саройида муҳит бузилгач, 1904-05 йилларда мулкдор, савдогарлардан иборат қатлам шаклланди. 1917 йилда Петербургдаги императорнинг тахтдан қулатилиши туфайли мустамлака хонлик Хивадаям мухолифат сиёсий куч сифатида намоён бўла бошлади. Ана шу сиёсий кучни юзага келтирганлар сафида Ҳусайнбек Матмуродов, Назир Шоликаров, Бобоохун Салимовлар қаторида Полёзҳожи Юсупов ҳам бор эди. Ана шу сиёсий куч 1917 йил 5 апрелида Хоразм тарихида илк бор халқни намойишга чорлаб, Исфандиёрхон саройида уни манифест имзолашни талаб қилади.ҳамда идораи маршрутия –парламентар кенгаш тузишга мажбур қилади. Лекин хон ва унинг мутаасиб амалдорлари кенгашни тарқатиб юборади,натижада Назир Шоликаров, Бобоохун Салимов, Полёзҳожи Юсуповлар (Ҳусайнбекдан ташқари) турли шаҳарларга бошпана излаб, сиёсий қочоқ сифатида кетишга мажбур бўлади.

Натижада ўзларини "Ёш хиваликлар" дея атаган гуруҳнинг Тошкент, Тўрткўл шаҳарларида инқилобий қўмиталари юзага кела бошлайди.Шу тариқа Полёзҳожи Юсупов ҳам 1918-20 йилларда Тошкентда муҳожир сифатида яшашга мажбур бўлади. Турккомиссия муҳожирликдаги ёш хиваликлар партиясидан Хива хонлигини ағдариб Хоразмда советлар андозасидаги янги ҳукумат ташкил қилишни режалаштиради. 1918-йил бошида Тошкентда муҳожир ёш хиваликлардан ташкил қилинган Комитет болшевиклар таъсирида эди.

Ёш хиваликлар" фирқаси 1918 йил 5 июнда ўз дастури, тузилиш, муҳрига эга бўлган расмий ташкилот сифатида тўла шаклланди. Улар дунёқарашининг шаклланиши ва тадрижий ривожланишида хонликдаги мавжуд ижтимоий-сиёсий тузум, Туркия, Эрон, Россия ва Туркистондаги сиёсий ўзгаришлар, 1917 йил ноябр, 1918 йил январидаги Қўқон воқеалари, ўлкада кечган сиёсий ўзгаришлар объектив шароит сифатида катта таъсир кўрсатди.. Ана шу ташкилот ва унинг маслакдошлари 1918 йил октябрида Исфандиёрхоннинг фитна туфайли ўлдирилиши, 1920 йил Саид Абдуллахоннинг тахтдан қулатилишига сабаб бўлишди. Большевиклар мададига таяниб ХХРни ташкил этган ҳам, унинг илк раҳбарлариям Полёзҳожи ва сафдошлари эди.

Шу тариқа П. Юсупов қуйидаги лавозимларда фаолият кўрсатган: болшевиклар таъсиридаги Ёш хиваликлар инқилобий қўмитаси раиси (1918-йил бошидан). Туркистон АССР Миллий ишлар халқ комиссарлигида Туркман шўбаси бошлиғи (1919). Хива хонлиги ағдарилгач (1920-йил 1-феврал), янги ташкил қилинган Хоразм Халқ Совет Республикаси Нозирлар Шўросининг биринчи раиси (1920-йил 27 апрел - 1921-йил 6 март). Юсупов ХХСР ҳукумати раиси сифатида мустақил сиёсат юритиш ва Хоразм Республикасида демократик ислоҳотларни қарор топтириш учун интилган. Бироқ Туркистон комиссияси (Турккомиссия) ва Туркистон фронти қўмондонлиги Полвонниёз Ҳожи Юсуповнинг бу сиёсатига қарши чиқиб, Хивада янги ҳукумат тўнтаришини амалга оширишган. Юсупов фаол сиёсий курашдан воз кечганлиги учун кейинчалик болшевиклар томонидан афв қилинган ва ХХСРда турли лавозимларда хизмат қилган. Советлар ўз ҳокимиятларини мустаҳкамлаш мақсадида олдинига жадидларни қўллаб қувватладилар, ҳокимиятларини мустаҳкамлаб олишгач жадидларга қарши кураш бошладилар. Полвонниёз Ҳожи 1926 йилда ўз бошидан кечирган воқеа жараёнларни ўз ичига олган кундаликларига ёзилган хотиралари юзага келади.Араб алифбосида битилган Полёзҳожининг хотиралари 644 бетдан иборат бўлиб, унда муаллиф ўзи кўрган, кузатган, ўзи бошидан кечирган Хоразмдаги, шунингдек Туркистон ўлкасидаги воқеликни қаламга олади.

Полёзҳожининг асаридаги воқеалар асосан 1910-25 йилларда кечган жараёнлардир.

Маълумки, Хоразм тарихнавислигида Беруний, Ўтамиш ҳожи, Абулғози, Мунис, Огаҳий, Баёний, Бобожон Тарроҳлар воҳада кечган воқеалар силсиласини ўз асарларида ёритиб, келажак авлод учун катта маънавий мерос, мозий илмини эгаллашдаги муҳим манбани эсдалик сифатида қолдиришган. Полвонниёзҳожи Юсуповнинг ушбу хотиралари ҳам ана шундай асарлар сирасидаги асарлардан ҳисобланади. Хотиралар шу боисдан ҳам ўз даврида, ҳали Полёзҳожи ҳаётлигидаёқ кўпчилик илмли инсонлар эътиборини тортган. Полвонниёз Ҳожи Юсупов Закий

Валидий билан ҳам учрашган. XX аср биринчи чорагида Ўрта Осиёдаги сиёсий вазият ҳақида суҳбатлашган[1].

Хотираларда қуйидаги маълумотларни ўқиш мумкин:«Махфий қолмасинким, ушбу миллат айиришмалари Маскавда ҳал бўлғон эркан. Мунда 5 қурултойда ҳеч бир сўз бўлмосдин, фақат Маскавдан берилган топшириқни тасдиқ қилиб қурултойни тарқатиб юборадилар. Зеро, бундан олдинги қурултойларда билдирилган қарши фикрлар учун ҳукумат раҳбарлари ҳибсга олинган эдилар»[2]. «Хоразмнинг тамоми масъул ишчиларини лавозиминдин чиқариб, тоза келган ишчилардин қўйдилар. Фақат ерлик ишчи-хизматчиларга фаррошлик, аравакашлик, отбоқарлик, хат юритувчилик ўринлари қолди, холос. Бутун юқори лавозимлар биродарлар била тўлдирилди»[3]. Демак, миллий чегараланишдан сўнг барча давлат лавозимларига маҳаллий аҳоли вакиллари эмас, балки туркистонлик ва рус кадрлари тайинланган, бу эса маҳаллий аҳолини тўғридан-тўғри камситиш, унинг ҳуқуқларининг поймол этилишининг бир кўриниши эди.

1936 йилда Хивада 75 ёшли Полвонниёз ҳожи Юсупов кексалиги, бироз хасталиги боис вафот этди.Унинг вафоти тўғрисидаги хабар телеграф орқали тезликда Тошкентдаги партия ва ҳукумат раҳбарларига етказилди. Чунки вафот этган банда, хивалик оддий қария эмас, ўз даврида Хоразм тарихи, тақдирида муҳим рол ўйнаган инсон эди.Қолаверса, Ўзбекистон халқ комиссарлари советининг раиси Файзулла Хўжаев билан Полвонниёз ҳожи олис хонлик давридан таниш эдилар.Ўзкомпартия раҳбари Акмал Икромов эса Полвонниёз ҳожи билан Хоразмга келганида бир неча бор учрашиб, суҳбатини олганди.Ҳа, Полвонниёз ҳожини нафақат ана шу Ўзбекистон раҳбарлари, балки Москвадаги кўплаб давлат арбобларям танир, фаолиятини яхши билардилар. Чунки, Полвонниёз Ҳожи Юсупов Хива хонлигига қарши курашган “Ёш хиваликлар” партиясининг раҳбари, хонлик тугатилишида ўз ҳиссасини қўшган, ХХР нинг эса 1-қурултойида сайланган илк ҳукумат раҳбари бўлганди.

Албатта ана шундай фаолият кўрсатган шахс 1937-38 йилдан олдин, ўз ажали билан туғилган юрти Хивада вафот этиб, дафн қилинди. Бироқ тақдир унга яна бир йил яшашни инъом этганида, кексалигига қарамай қатағон домига илиниб кетарди.Чунки, 1937-38 йиллардаги “Катта террор” даврида Полвонниёз ҳожининг сафдошларидан Худойберган Девонов (1879-1938), Назир Шоликаров (1881-1938) ва бошқалар қатағон қурбони бўлиб, машъум Юнусободдаги қатлгоҳда отилиб кетишганди.

Ҳа, тақдир Полвонниёз ҳожига катта инъом кўрсатди-ўз ажали билан туғилган юртида, ўз уйида вафот этди…Мана боболаримиз орзу қилган жамиятда яшамоқдамиз. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий,маданий соҳаларда ислоҳотлар давом этмоқда, биз шуур билан боболаримиз орзулари,истаклари амалга ошди , деб бемалол айта оламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.Ғаффаров. Истибдод даврида Туркистондаги таълим тизими. – Самарқанд.: СамДУ нашр, 200.
2. Э.Тоғаев. ва бошқалар. Дарсда жадидчилик ва унинг моҳиятини ўрганиш.// «Халқ таълими», 1993, 1-сон.
3. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: Университет, 1999.
4. Ўзбекистон тарихи: Янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Давра суҳбати материаллари. 1998 йил 9 октябр. –Т.: Элдинур нашриёт уйи, 1998.
5. Полвонниѐз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар Тарихи”. Урганч.“Хоразм”.2000. – 245 бет.
6. Отамурод Қўшжонов, Неьматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиѐсий жараѐнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. MCHJ.2007-йил.. 292-293-бет.
7. Умид Бекмухаммад.“Хоразм тарихидан сахифалар”.1-китоб. Тошкент.“Янги аср авлоди”.2009-йил. – 255 бет.
8. М.Матниѐзов.”Хоразм тарихи”. I жилд.Урганч.”Хоразм” 1996. – 336 бет.

[1] Закий Валидий. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқлари миллий муставиллик учун кураши тарихидан хотиралар. – Тошкент: Адолат, 1997.

[2] Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи. –Урганч: Хоразм, 1999. – Б.48.

[3] Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б.470.

TATAR DIASPORASI VAKILLARINING YOSH XIVALIKLAR FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Tadjiyeva Feruza Djumabayevna
Ma’mun Universiteti o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna
Ma’mun Universiteti o‘qituvchisi.

Maqolaning qisqacha mazmuni: Xiva xonligida jadidchilik harakatining, “yosh xivaliklar” harakatining shakllanishi tarixi voha tarixining eng kam o‘rganilgan sahifalaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining jadal siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni o‘rnatishi jarayonida mazkur muammoni o‘rganish muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi.Qolaversa, xonlikda “yosh xivaliklar” harakatining shakllanishida tatar millati vakillari asosiy rol o‘ynaganligi manbalardan ma’lum. Shu jihatdan olganda mazkur maqolada Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida tatar diasporasi vakillarining o‘rni va ularning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vohada kechgan siyosiy jarayonlardagi tutgan o‘rni masalasi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, jadidchilik harakati, yosh xivaliklar, tatar ziyolilari, tatarlar, “Vaqt”, “Ittifoq”, “Taraqqiy”, ”Yulduz” ro‘znomalari, “Din va Maishat”.

Аннотатsiя: История формирования движения джадидов – «младохивинского» движения в Хивинском ханстве – одна из наименее изученных страниц истории оазиса, и изучение этой проблемы является важным вопросом в процессе скорейшего налаживания политических, экономических и культурных связей с Республикой Узбекистан. Кроме того, источники свидетельствуют, что представители татарской natsиональности сыграли ключевую роль в формировании движения «младохивинцев» в ханстве. В этой связи в данной статье рассматривается роль представителей татарской диаспоры в формировании джадидского движения в Хивинском ханстве и их роль в политических процессах, происходивших в оазисе в конце XIX — начале XX вв., анализируются взгляды, сформировавшиеся в исторической науке по этому вопросу, а также освещаются новые выводы, достигнутые по данному вопросу.

Ключевые слова: Хивинское ханство, джадидское движение, молодые хивинцы, татарская интеллигенция, татары, газеты «Вакт», «Иттифак», «Таракки», «Юлдуз», «Дин ва Майшат».

Annotation : The history of the formation of the Jadid movement, the "young Khiva" movement in the Khiva Khanate is one of the least studied pages of the history of the oasis, and the study of this problem is one of the most important issues in the process of establishing intensive political, economic and cultural relations with the Republic of Uzbekistan. In addition, it is known from sources that representatives of the Tatar nationality played a key role in the formation of the "young Khiva" movement in the khanate. In this regard, this article examines the role of representatives of the Tatar diaspora in the formation of the Jadid movement in the Khiva Khanate and their role in the political processes that took place in the oasis in the late 19th - early 20th centuries, analyzes the views formed in historical science on this issue to date, and draws new conclusions on this problem.

Keywords: Khiva Khanate, Jadid movement, young Khivans, Tatar intellectuals, Tatars, newspapers "Vaqt", "Ittifaq", "Taraqqi", "Yulduz", "Din va Maishat".

Manbashunoslik, tarixshunoslik va boshqa yordamchi tarixiy fanlar doirasidagi tadqiqotlar jarayonida to‘plangan ilmiy – amaliy natijalarni chuqur tahlil qilish tarix sohasida mavjud muammolarni aniqlash va ochib berish borasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘tmish jarayonlarini xolis baholash imkonini beradi. Jumladan, Xiva xonligida jadidchilik harakati tarixi muammosining o‘rganilishiga haqqoniy baho berish nihoyatda muhim vazifaga aylandi. SHu o‘rinda, Xiva xonligida mahalliy “yosh xivaliklar” ijtimoiy-siyosiy qatlamining shakllanishida hamda ularning xonlik siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rnini, mahalliy partiya va harakatlarning shakllanishida tatar diasporasi vakillarining tutgan o‘rni masalasini yangi asoslarda ko‘rib chiqish va baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bu borada hali o‘rganilmagan va boshqa manbalarda aks etmagan ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, Xiva xonligida tatar

diasporasi vakillarining yosh xivaliklar faoliyatidagi o‘rni masalasi Xorazm tarixining ancha kam o‘rganilgan sahifalaridan hisoblanib, bu borada mavjud yozma manbalar ma’lumotlari deyarli tahlil qilinmagan.

Jadidchilik XIX asrning 80-yillarda Qrimda vujudga kelib hamda bu hududda o‘z taraqqiyot bosqichidan o‘tib, keyin Qozon tatarlari orasida keng tarqalgan bo‘lsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida esa Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi hududlarida ham tarqala boshlagan.

Xivada jadidchilik harakatining shakllanishida xonlikda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lib turgan feodal hamda patriarxal urug‘chilik munosabatlarni tugatish, xonlikda mavjud boshqaruv usullarni o‘zgartirish zarurligini tushunib yetgan savdo-sanoat qatlamlarning, ilg‘or taraqqiy demokratik kayfiyatdagi ziyolilarning vujudga kelganligi ham katta ro‘l o‘ynadi.

Xonlik hududida asta sekinlik bilan bo‘lsada kapitalistik taraqqiyot kurtaklari katta- kichik zavodlar, Rossiya savdo sanoat kompaniyalari, banklari bo‘limlarning paydo bo‘lishi, ularda ishlash uchun Rossiyadan ko‘plab savodli kishilarning kela boshlashi, ularni mahalliy aholi bilan doimiy muloqati va unga tasiri ham Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida malum darajada ahamyat kasb etdi [2;321].

Shu omillarning ta’sirida asrimiz boshlarida Turkiston o‘lkasida bo‘lganidek Xiva xonligiga ham mahalliy burjuaziyasining ilg‘or vakillari, savdo sanoat doiralari, mayda burjuaziya va hunarmandlar orasida jadidchilik harakatining tarqalishi uchun zarur sharoit vujudga keldi.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining vujudga kelish shart sharoitlar xususida gapiganda, avvalo, 1905-1907-yillardagi birinchi rus burjua demokratik inqilobi, 1907-1909-yillarda Eron va Turkiyada bo‘lib o‘tgan burjua inqiloblarning samarali tasirini alohida takidlash lozim. Birinchi rus burjua-demokratik inqilobi mag‘lubiyatidan keyin Xiva xonligiga badarg‘a qilingan N.A.Andreev, A.M.Kislyakov, A.S.Safronov, L.S.Babrovskiy, B.E.Kroshilov va boshqa rus sotsial-demokratlarning Xiva xonligidagi inqilobiy faoliyati ham xonlikda taraqqiyparvar – demokratik harakarlarning shakllanishida xonlikdan uzoq Rossiya va Turkistonga mavsumiy ishlarga ketib, ishlab qaytgan kishilarning ham malum darajada xissalari bor. Xonlikda har yili o‘rtacha 3000 yaqin kishi Turkistonning turli shaharlarda mavsumiy ishlarda ishlab ilg‘or demokratik g‘oyalarni o‘zlari bilan olib kelayotgan edi.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida turli sabablar bilan xonlikka kelib qolgan tatar millatiga mansub kishilarning ham malum darajada xizmatlari bor edi. Chor Rossiyasi va hatto Sovet hokimiyati yillarida Turkiston, Buxoro, Xivadagi ko‘pchilik matbaa ishlari va tipografiyalarning tashkilotchilari tatar ma’rifchilari edi. Tatarlar mamlakatning madaniy hayotida, xususan, bosma nashrlar va bosmaxonalar faoliyatini tashkil etishda muhim rol o‘ynaganlar[7; 365].

Ular o‘zlari bilan mahalliy aholiga tushunarli bo‘lgan tatar tilida nashr qilingan oynoma va ro‘znomalarni keltirib, fuqarolar o‘rtasida tarqatayotgan edilar. Jumladan Rossiyaning turli shaharlarda chiqayotgan “Vaqt”, “Ittifoq”, “Taraqqiy”, ”Yulduz” ro‘znomalari, “Din va Maishat” oynomasini, Istambulda turk tilida nashr qilingan “Vaqdat” ro‘znomasini va qo‘shimcha ko‘pgina ijtimoiy – siyosiy adabiyotlarni xonlik huududida tarqatib yerli aholini, xususan ziyolilarning siyosiy ongining uyg‘onishiga ijobiy tasir ko‘rsatadilar[7; 273-274].

Xiva xonligida ham jadidchilik g‘oyalarining tarqalishi va yangi usul maktablarining ochilishida ham tatar millatiga mansub ziyolilarning xizmatlari katta bo‘ldi. 1905 yidda Nijniy Novgorodda bo‘lib o‘tgan musulmonlarning s’ezdidan keyin ular Xolisjon Borudiy rahnamoligida Turkiston, Buxoro va Xorazm bilan aloqalarni yo‘lga ko‘yib, bu yerlarga o‘z tarbiyalanuvchilarini yubora boshladilar. Dastlab Borudiy xon va amaldorlar bolalarini o‘qitish uchun Bikkulin Tavfiq va Yusuf Axmedovlarni Xorazmga yuborgan[7; 273]. Bu paytda Xiva xonligi hududida 8 ta jadid maktabi bo‘lgan[7; 273-274].

1912 yilda Islomxo‘ja 80 talabaga mo‘ljallangan madrasa, uning ichida yangi usuldagi maktab uchun yevropacha usulda bino qurdirdi va o‘kituvchisi tatar - Abdurashidov Orenburg bilim yurtidan keltirildi. Turkiston va Buxorodagi kabi xonlik hududida jadidchilik g‘oyalarining yoyilishida turli sabablar bilan bu yerga kelgan tatar ziyolilari tashviqot va targ‘ibotining ham katta ta’siri bo‘lgan[7; 365].

Xorazmda 1920 yilda sovet respublikasi tashkil etilganligi munosabati bilan Xiva xonligida sovet mafkurasini targ‘ib qilish, yangi tuzumni himoya qilish maqsadida “Inqilob kuyoshi” gazetasi tashkil etildi. Gazetaning tashkilotchisi va muharriri ham tatar vakili A.Tagirov edi [4].

XX asr boshlarida shakllangan Xiva jadidchilik harakati, asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi o‘lkada rivoj topib kelayo tgan savdo sanoat korxonalari egalarini hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga bo‘ysundirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islom Xo‘ja boshchilik qilardi [3; 5].

Islomxo‘ja Xorazmda eng nufuzli bo‘lgan Said Otoyi Xo‘jalardan said Muhammadxo‘ja mutavallining nabirasi bo‘lib, 1872-yilda tu`gildi. Otasi Ibrohimxo‘ja Feruzxonning tog‘asi bo‘lib, Xonqa hokimi bo‘lgan, keyinchalik bosh vazir lavozimini egallagandi. Maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo‘ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889-yilda esa 17 yoshli Islomxo‘jani Feruz Xivadan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi Hazoraspdek muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib yuboradi. Oradan vaqt o‘tib, tajribaga ega bo‘lgan Islomxo‘ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada ish boshlaydi [6; 107].

Jadidchilining o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatdagi xon hokimyatini saqlab qolgan holda, sotsial iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ydi.

Bobooxun Salimovga ergashgan Avaz O‘tar o‘g‘li, Poyoz Xoji Yusupov, Otajon Safayev, Xudaybergan Devanov, Mulla Bekchan Rahmanov, Otajon Abdalov, Xusaynbek Matmuradov devonbegi o‘g‘li, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov va boshqa ko‘pgina taraqqiyparvar kishilar jadidlar harakatining so‘l oqimi azolari edilar.

Xiva jadidlar harakatining so‘l oqimi avval boshdanoq, o‘zlarining Turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy aktivligini o‘stirishni o‘z oldlariga maqsad qilib qo‘ygan edilar.

Progressiv kayfiyatdagi savdo sotiq doiralari jadidlar so‘l oqimini quvvatlab, 1904-yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi jadidlarga yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. “Jamiyati hayriya”ning moddiy yordami tufayli Xiva shahrida Qozondagi yangi usul “Muhammadiya” madrasasini bitkazgan Xusayn Qo‘shaqov boshchiligida 1904-yil 10-noyabrda yangi uslubdagi jadid maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 12 ta, keyinroq esa 55 ta bola talim oldi. Shulardan 45 nafari o‘zbek bolalari edi [1; 101].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xiva xonligiga turli sabablar bilan kelib qolgan hamda jamiyat turli sohalarida faoliyat yuritgan tatar diasporasi vakillari asosan xonlikda jadidchilik harakatining shakllanishida hamda “yosh xivaliklar” harakatining vujudga kelishida muhim o‘rin egallaganlar. Xonlik jadallik bilan Yevropa va Amerikada allaqachon shakllanib bo‘lgan hamda shu kabi bozor iqtisodiyotiga asoslangan xo‘jalik tizimiga kirib kela boshladi. Ammo, xonlik iqtisodiy va sisyosiy hayotiga bu jarayonlar xuddi Rossiyadagidek birdaniga taraqqiy qilib ketmadi. Natijada, Xiva xonligida jadidchilik harakati Buxoro va Turkistondan farqli ravishda dastlab asosan yuqori tabaqa vakillari hamda saroy arboblari ichida shakllandi va sof ma’nodagi progressive ijtimoiy harakat sifatida XX asr boshlaridagina to‘liq shakllandi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 130 б.
2. Матниёзов М. Хоразм тарихи. I жилд. – Урганч. “Хоразм”, 1996. – 266 б.
3. Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи М. Матниёзов. – Урганч: Хоразм, 2000. – 488 б.
4. РГАСПИ. Ф. 17. Оп. 61. Д. 122. Л. 119; Д. 188. Л. 145–146.
5. Тухтаметов Т. Г. Россия и Хива в конце XIX – начале XX в. Победа Хорезмской народной революции. М., 1969. – 289 с.
6. Умид Бекмухаммад. Хоразм тарихидан сахифалар. 1-китоб. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009. – 255 б.
7. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: Abu Matbuot-Konsalt MCHJ, 2007. – 388 б.
8. Boltaev A. № 18 daftar. O. Abdullaev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo‘lyozma. 64 varaq.

JADID BOBOOXUN SALIMOVNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Salimov Matyusuf Kodirberganovich,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.
E-mail: salimovmatyusuf123@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mudarris, diniy ulamo, tarjimon , shoir, davlat arbobi - Xorazm farzandi jadid Bobooxun Salimov hayoti va faoliyati haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: qozikalon, bosh qozi, domla , eshon , oxund, xo‘ja , maxdum, madrasa, beklik, mudarris, adliya noziri, qaroqum hazrati, xattot, bosmachilik.

XX asr boshlarida Xorazm vohasida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtiroq qilib, Xorazm xalqi kelajagi uchun kurashib, o‘zidan yorqin iz qoldirgan shaxslardan biri Bobooxun Salimovdir.

Bobooxund Salimovning asl ismi Muhammad Karim bo‘lib, Bobooxun kunyasi hisoblanadi. Bobooxunning bobolaridan birining ismi Muhammad Karim bo‘lgan. Otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxun o‘g‘liga bobolarini xotirlash, eslash, yodgorlik sifatida, hurmat qilish hamda, ibrat olishni nazarda tutib bobosining ismini qo‘ygan. Yana shuni nazarda tutish kerakki, qozikalon domla Muhammad Salim oxun shajarasiga qarasak, bobolarining ismini farzandlariga, nabiralariga qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayrim tadqiqotchilarimiz Bobooxundning asl ismini Muhammad, Muhammad Amin tarzida, ta vallud sanasini milodiy 1874-yil deb keltiradi. Bobooxun Salimovga 1920-yil Xorazm Respublikasining I Qurultoyida berilgan adliya nozirlik guvohnomasi bunga oydinlik kiritadi. Guvohnoma rus tilida yozilgan bo‘lib, birinchi varag‘ida rasmining past qismida “shaxsiy imzo” joyiga arab imlosida: **“Muhammad Karim Bobooxund ibn (qozi) Muhammad Salim marhumi al-Xorazmiy”** deb qayd qilingan.Uning pastki qismida nozirlar soveti raisi Polvonniyoz hoji Yusupov rus kirill alifbosida “ **X.P. Yusupov**” deb imzo qo‘ygan.

Hamda, 1917-yilda, ya’ni otasi vafotidan bir yil o‘tib o‘zining kundaligida: **“Muhammad Karim Bobooxund al-tahallus ba-Ojiz bin qozi ul-quzot Muhammad Salim oxund al-marhumi al-Xorazmiy Al-Kurlaniy (Gurlaniy) al-Xivaqiy”**- deb qayd qilingan. Ismidagi “oxun” yoki “oxund” so‘zlari , yoshligidan Xiva shahridagi bir qancha madrasalarda mudarris bo‘lib faoliyat olib borganligidan.

Otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxunning kundaligida hamma farzandlarining tug‘ilgan sanalari va boshqa oilasiga tegishli muhim ma’lumotlar keltirilgan. Bobooxun Salimovning tug‘ilgan sanasini quyidagicha keltirilgan: “**Tarix hijriy ming va ikki yuz va to‘qson to‘rtda, muvofiq sig‘ir yilida farzand arjumand Muhammad Karim voqea bo‘ldi, Jamadul soniyning yigirma olti, yo yigirma yettilanchisi, chorshanba kechasi, sahar hangomi erdi**”. Yana: “ **Tarix hijratning ming ikki yuz to‘qson to‘rtda navro‘zi olam rabbi ul-avvalning to‘rtlanchisi yo beshlanchisi payshanba kuni voqea bo‘lg‘on ekan**”. Shularni hisobga olib Bobooxundning tug‘ilgan sanasini **1877-yil 8-iyul (yoki 9-iyul) chorshanba kuni** ekanini bilib olamiz.

Bobooxund Salimov dunyoga kelgan vaqtda qozikalon oilasi Xiva shahrida Nurulloh bek masjid qavmida (Dishon qal’ada) istiqomat qilgan. Otasi Muhammad Salim oxun bu vaqtlarda madrasalarda mudarrislik bilan birga xattotlik ham qilar edi. Ayrim ma’lumotlarda keltirishicha, Xiva shahrining raisi vazifasida faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan birgalikda Gurlan bekligida o‘zining ota uyi, mol-mulki ham bo‘lgan. Bobooxund Salimovning muhtarama onalari Soliyajon (Solihajon), Muhammad Panoh so‘fining o‘g‘li Jumaniyoz eshon qizi edi. Jumaniyoz eshon ham, Xivada madrasalarda ta’lim olib tasavvuf yo‘liga kirgan, o‘z davrining Naqishbandiya ta’limotining yirik namayondalaridan biri hisoblanib, yuzlab shogirdlar tayyorlab chiqqan ulamo bo‘lgan. Bobooxunning ona tomonidan bobolari Jumaniyoz eshon hozirgi Qaroqalpoqiston Respublikasining Amudaryo tumanidagi Jumuriovul mahallasida (Eshonqal’a qishlog‘ida) istiqomat qilgan. Qabri va maqbarasi shu qishloqda “Eshonyopi” (Eshon arig‘i) bo‘yida joylashgan.

Bobooxun bolalik paytidan qozikalon farzandi bo‘lganligi sababli, boshlangich ta’limni otasidan uyida olib, 10 yoshida “darsi avval ilmini” ni tugatgan. Yigitlik vaqtida madrasani tugatib, Muhammad Yusuf yasovulboshi va Qadam yasovulboshi madrasalarida mudarrislik qilgan. Bu haqda otasining xotira kundaligida quyidagicha qayd qilingan: **“Hijriy 1307-yilda (milodiy 1890-yil) madrasa oliydan mudarris haqi uchun yigirma olti botmon bug‘doy olduq, yana o‘n botmon bug‘doy olduq, yana Bobo uchun o‘n botmon bug‘doy olduq, va Jumaniyoz uchun o‘n botmon**

bug‘doy olduq, yana o‘zimiz qirq besh botmon bug‘doy olduq…”.Yana o‘zining xotira kundaligida: **“ Hijriy 1327-yil (milodiy 1909-yil) tarixinda yasovulboshi a’qoning madrasasidin mudarris haqi uchun o‘n olti yarim bug‘doy oldik”.**

Tarix fanlari falsafa doktori Umib Bekmuhammadning “Xorazmlik jadidlar. Bobooxun Salimov” . Buxoro 2022-yil. Ilmiy –ommabop risolasida: **“Rossiyalik sharqshunos olim Samoylovich Xorazmga 1902-yil va 1908-yillar tashrifi chog‘ida Bobooxun Xivada talabalarga saboq berayotgan mudarris edi va bu paytda ular uchrashgani to‘g‘risida ma’lumot saqlanib qolmagan”,** deb keltirladi.

Bobooxund Salimov go‘daklik paytida “Bobo” (shevada “Buva”) ismini olgan bo‘lsa, yigitlik vaqtida ismiga “oxun” unvoni qo‘shilib “**Bobooxun**” ismini (kunyasini) olgan. Yana qozikalon farzandlari Xiva shahri madrasalarda ta’limni tugatgandan keyin so‘ngi ta’limni otasidan olgan. Bu so‘ngi ta’lim 5-7 yilgacha davom qilgan. Bu ta’lim oilaviy an’ana hisoblangan. Shularni nazarga olib Bobooxund 35-40 yoshlarigacha ta’lim olgan. Shu bilan birgalikda otasi qozikalon hayotlik davrida otasiga kotiblik , noyiblik qilgan. Ayrim tarixchi tadqiqotchilar otasi vafotidan keyin shayxulislom va qozikalon bo‘lgan deb hisoblaydilar. Otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxund milodiy 1916-yil 17-fevral kuni vafot qilgan va o‘rniga qozikalonlik vazifasiga domla Xudaybergan oxun Nizomiddin xatib o‘g‘li qozikalon qilib tayinlangan. Urganch Innovatsion Universitetining “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnalining 2024-yil 4-sonida “Xorazm XIX asr oxiri XX asr boshlarida qozilik hujjatlari” nomli maqolada milodiy 1858- 1920-yillarda faoliyat olib borgan qozikalon va qozi askarlar ro‘yxati jadval ko‘rinishida keltirilgan bo‘lib, Bobooxunning ismi ro‘yxatda uchramaydi.

Yana tarixiy hujjatlarda Bobooxun Salimov 1917-1920-yillar Xiva shahrining muftiylik vazifasida bo‘lganligi keltirladi. Bobooxundning qozilik muhrida: **“Qozi qozi ul-quzot Xivaq Muhammad Karim oxund ibn qozi Muhammad Salim marhumi”,**- deb yozilgan. Yana А. Уринбаев, Т. Хорикова ,Т. Файзиев, Г. Джураева, К. Исогай “Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв” Тошкент – Киото 2001-yil chop qilingan katalogida 1003, 1457-tarixiy hujjatlar hijriy 1342-yilda (milodiy 1924-yil) bitilgan bo‘lib, Bobooxunning qozilik muhri bilan tasdiqlangan va muhrda : “**qozi aqza al-quzot Xivaq Muhammad Karim oxund ibn qozi Muhammad Salim marhumi**”,-deb keltirilgan. Lekin muhrda yil qayd qilinmagan. Yuqoridagi “ Qozi ul-quzot”-qozilarning qozisi va “Aqza al-quzot”-bosh qozi degan ma’nolar kelib chiqadi. “Xivaq”–so‘zidan Xiva shahri bosh qozisi bo‘lganligi kelib chiqadi. 1920-yil xonlik tugatilib Xorazm Respublikasi tuzilgandan keyin Xiva shahrida “Xorazm Respublikasining Xiva qoziligi” va bekliklarda “beklik qoziligi” tuzilgan, ya’ni yakka qozilik. Bu qozilik faoliyati 1928-yilgacha davom qilgan. Bobooxund Salimov Xorazm Respublikasi 1920-yil Adliya noziri , 1923-1924-yil adliya noziri muovini vazifasi bilan birgalikda ulamolar kengashi raisligiga tayinlangan.

Bobooxund Salimov- jadidlik g‘oyalar asosida jamiyatdagi barcha sohalar va davlat boshqaruvini isloh qilish, bir so‘z bilan aytganda, “ milliy uyg‘onish davri” ni yuzaga keltirish uchun kurash olib borgan “Yosh xivaliklar” harakatining eng faollaridan biri hisoblanadi. Bu jadidchilik faoliyatlarini va “Yosh xivaliklar” ning tarixini, tarixchilarimizdan Umid Bekmuhammad, Bahrom Irzayev, Jumaboy Rahimovlar o‘zlarining maqolalarida va P. Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” nomli Urganch shahrida 2000-yil chop qilingan xotira kitobida, Abdulloh Boltayevning “Estalik daftarlari”da juda yaxshi yoritib berilgan. P. Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” kitobda Bobooxundning 1920-yil Xorazm respublikasi tamonidan Rossiya davlatiga delegatsiya rahbari sifatida yuborilgan. Bu safarda Bobooxun Salimov esdalik sifatida ko‘rgan bilganlarini yozib borgan va uni “sayohatnoma” deb atagan. Ushbu “Sayohatnoma” ham to‘liq keltirilgan. Bu “Sayohatnoma”ning asl nusxasining bir qismi nabirasi shaxsiy arxivida saqlanmoqda.

Bobooxun Salimov ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan birgalikda manaviy-marifiy sahosida ham faoliyat olib bordi. U Turkiya davlatining oliy bilim yurtida ta’lim olib kelgan dastlabki xorazmlik pedagog mullo Bekjon Rahmon bilan birgalikda jadid maktablari uchun yangi darslik kitoblarini yaratgan. Yana Xorazmning bekliklarida, chekka hududlarida yangi usul maktablarini tashkil qilishda katta yordam bergan.

Bobooxund Salimov 1925-yillar siyosiy faoliyatini tugatishga majbur bo‘ladi, chunki mustamlakachilarning “xalq dushmani ” siyosati boshlangan edi. Afsuski “xalq dushmani”ga chiqarish faqat ziyoli, o‘qimishli, ulamolarni emas, balki oddiy xalqni ham chiqarish oson bo‘lgan davr edi. Shuning uchun Bobooxun tog‘alari yurtiga Eshon qal’aga oilasi bilan ketishga majbur bo‘ladi. U yerda ham tinch hayot kechira olmaydi. 1926-yillar Taxtako‘pir tumaniga borib u yerda ham yashirin hayot kechiradi. U yerda ham maktab bino qilib, qishloq bolalariga ta’lim berishni yo‘lga qo‘yadi.

Bobooxun Salimovga yashirin hayot kechirishlar uzoqqa uzoqqa cho‘zilmaydi. Bobooxunning shahid kunini yoshi kattalar quyidagicha xatirlaydi: “**Shu kuni quyosh botishga yaqin “Eshon qal’a” qishlog‘i chetida 5-6 nafaf otliqlar kelib, otlarini beda dalaga yuborib o‘tlatib, o‘zlari dala chetida dam olishar edi. Ular orasida 2 nafari kamissarlar kiyimida edi, qolganlari turkmanlar kiyimida edi. Ertalab Bobooxun eshonni otib ketganligini eshitdik va kechagi otliklarni taxmin qildik”**. Go‘yo turkmanlar otib ketgandek ko‘rsatmoqchi bo‘lganlar. Chunki o‘sha paytlarda “qizillar” turkman xalqini o‘zbek xalqiga bosmachi sifatida ko‘rsatish maqsadi bo‘lgan, Bobooxunni turkmanlarning bosqinchilik (bosmachilik) harakati qurboni sifatida niqoblab ko‘rsatish bo‘lgan. Bobooxunning shahid bo‘lgan kunini Bobooxundning ukasi Nizomiddin oxun xotiralarida quyidagicha qayd qilgan: **“Tarix hijriy 1347-yil , mohi zulhijjaning 4-kuni, burj surning 26-kuni, yakshanba kuni, subhi sodiq vaqti , ilmi ulamo Muhammad Karim maxzum Bobooxun eshon ismi bilan mashhur edi , shahid bo‘ldi, Iso tarixi 1929-yilning 10-may kunida”.** Bobooxun Salimovning qabri Amudaryo tumanidagi Salomatbobo qabristonida sulolasi maqbarasida joylashgan.

Xorazmning oxirgi qozikaloni, tarjimon, shoir, xattot, davlat arbobi, diplomat, huquqshunos, “Yosh xivaliklar” harakati faol a’zosi, Xorazm farzandi- jadid Bobooxun Salimov 52 yoshida (1877-1929-yillar) shahid bo‘lgan bo‘lsada, o‘zidan yorqin iz qoldirib yashab o‘tdi. Jumaboy Rahimov yozganidek “Chaqmoq kabi chaqnab o‘tdi . U g‘oyat mushkul bir paytda haq va haqiqat uchun kurash yo‘lida yashab o‘tdi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.А. Уринбаев, Т. Хорикова ,Т. Файзиев, Г. Джураева, К. Исогай “Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв” Тошкент – Киото 2001.

2.Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul.Shoh va shoir qismati. Toshkent 1991-yil.

3. Qozikalon Muhammad Salim oxun kundaligi.Qo‘lyozma. Shaxsiy arxif.

4.Nizomiddin oxun kundaligi. Qo‘lyozma. Shaxsiy arxiv.

5. Boltayev A. Xorazm tarixi materiallari.Qo‘lyozma. Avlodlari shaxsiy arxivi.

6. Yusupov P.“Yosh xivaliklar tarixi”. Urganch 2000-yil.

7. Umid Bekmuhammad .“Xorazmlik jadidlar. Bobooxund Salimov”. Ilmiy –ommabop risola. “Durdona nashriyoti”. Buxoro 2022-yil.

8. Salimov M. Bobooxund Salimovning Xorazmdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni. “Innovotsiya va taraqqiyot” ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’rifiy-ma’naviy jurnal. 2025-yil 6-son.

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI

Bekchanov Doniyor,
Ma’mun-Universiteti,
“Tarix ” kafedrasi
katta o‘qituvchisi,PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining davlat va jamiyat hayotini modenizatsiya qilish borasida say-harakatlari, ularning bu yo‘lda o‘zlarining g‘oyalarini aholi orasida keng tarqatish maqsadida adabiyot, san’atni va matbuotni rivojlantirish masalalariga e’tibor berib, uni amalga oshirishga harakat qilganliklari ilmiy adabiyotlar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, V.Sapf, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, Polvonniyoz Hoji Yusupov, jadid maktabi, “Inqilob quyoshi” gazetasi, milliy taraqqiyot, matbuot.

Аннотатsiя. В этой статье освещаются усилия хорезмских джадидов по модернизатsiи государственной и общественной жизни, их попытки осуществить этот путь, уделяя особое внимание вопросам развития литературы, искусства и печати с целью широкого распространения своих идей среди населения.

Ключевые слова: модернизатsiя, В.Сапф, стратегия развития нового Узбекистана, Полвоннияз Хаджи Юсупов, джадидская школа, газета “Солнце революции”, natsiональное развитие, пресса.

Annotation. This article highlights the efforts of the Khorezm jadids to modernize state and public life, and their attempts to implement this path, paying special attention to the development of literature, art, and the press in order to widely disseminate their ideas among the population.

Keywords: modernization, V.Sapf, development strategy of new Uzbekistan, Polvonniyaz Haji Yusupov, Jadid school, newspaper "Sun of Revolution", national development, the press.

Insoniyat hayotining davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari har doim ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg‘or g‘oya va yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib kelgan. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so‘nggi yillarda umumiy tarzda “modernizatsiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Xo‘sh, “modernizatsiya” tushunchasi lug‘aviy jihatdan qanday ma’noni anglatadi? Ushbu tushuncha negizida qanday holat tavsiflanadi?

Modernizatsiya (ingl. “modern”–zamonaviy, ilg‘or, yangilangan)– obyektning yangi talablar va me’yorlar, texnik ko‘rsatmalar, sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi[1]. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan, oldingisiga nisbatan taraqqiy qilgan bosqichga o‘tadi.

Modernizatsiyani tarixiy-falsafiy talqinda ifoda etgadigan bo‘lsak, bunda miqdor o‘zgarishlarining tub sifat o‘zgarishlariga aylanishi nazarda tutiladi. Jumladan, o‘rta asrlarda agrar xarakter kasb etgan jamiyat ilm-fan, texnika, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylanishi bunga misoldir. Nemis olimi V.Sapf modernizatsiyani uch jihatda ko‘rib chiqadi: 1) sanoat inqilobi boshlangan dunyoviy jarayon sifatida, bu jarayonda modernizatsiya qilingan jamiyatlarning kichik guruhi rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi; 2) ko‘p qirrali jarayon sifatida, bu jarayonda taraqqiyotda orqada qolganlar oldinga o‘tganlarga yetib boradi; 3) modernizatsiya qilingan jamiyatlarning innovatsiyalar va islohotlar yo‘lidagi yangi chaqiriqlarga munosabati sifatida[2]. Shu o‘rinda, Xorazm jadidlari konsepsiyalarida ko‘proq ko‘zga tashlangan ijtimoiy modernizatsiya to‘g‘risida ham to‘xtalsak. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo‘ladi. Shu jumladan, ta’lim sohasidagi yangilanishlar ham. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy extiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olishga bo‘lgan talabini qondirish, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishini bildiradi. Mazkur modernizatsiya shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Xorazm jadidlarining dastlabki faoliyat bosqichida ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilishining sabablari ham aynan shunda. Chunki, ta’lim tizimini modernizatsiyalash orqali quyidagi muhim ijtimoiy vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to‘laqonli ta’lim olishida teng huquqliligi va ta’lim olishning ochiqligi ta’minlanadi;
- uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishiladi;
- davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantiriladi;
- ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim muassasalarining roli oshiriladi[3].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tizimi tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Xorazm ziyolilari podsho Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdilar.

Xorazm jadidlari o‘lkadagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatli qilish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy hurriyat g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Shuningdek, ilg‘or fikrlovchi, oliy

[1] Побережников И.В.Модернизация: теоретико-методологические подходы //Экономическая история. Обозрение / Под ред. Л.И.Бородкина. Вып. 8. М., 2002. С. 146-168.

[2] Цапф В. Теория модернизации и различие путей общественного развития // Социс. - 1998. - №8.

[3] 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063.

ma’lumotli va ziyoli yoshlar ham Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lib, ular keyinchalik Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida “Yosh xivaliklar” partiyasining yaratilishida ishtirok etdi. Bu harakatda qozikalon Bobooxun Salimov muhim o‘rin tutardi. “Yosh xivaliklar” partiyasi sekin-asta Xiva xonligining asosiy siyosiy kuchiga aylandi, partiya a’zolari mustaqillik va taraqqiyot tarafdorlari edilar.

Xiva xonligida jadid matbuoti yo‘qligiga qaramay, mahalliy ziyolilar Usmonli saltanati, Eron va Rossiyada, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoroda chop etilayotgan jadid gazeta va jurnallari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Xorazm jadidlarining matbuotchilik faoliyatiga keladigan bo‘lsak, ular tomonidan Turkiston yoki Buxoro jadidlaridan farqli o‘laroq, gazeta va jurnallar nashr etilmagan. Biroq, chetdan kirib kelgan matbuot Xorazm jadidlarining g‘oyaviy shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Xiva xonligiga Rossiyaning Qrim, Kavkaz, Orenburg, Qozon, Toshkent va Samarqand shaharlaridan, Turkiya va Erondan o‘zbek, rus, tatar, turk va fors tillarida nashr qilingan gazeta, jurnal va kitoblar keltirilib tarqatilgan. Jumladan, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Najot” (Toshkent), “Vaqt” (Orenburg), “Tarjimon”, “Ma’lumot” (Qrim), “Туркестанский курьер”, “Туркестанская туземная газета” (Toshkent), “Iqtisod va taraqqiyot”, “Ixdam” (Turkiya), “Xabl ul-Matin” (Hindiston) va boshqa gazetalarda Yevropa, Rossiya va Sharq davlatlarida yuz berayotgan siyosiy voqealar, milliy-ozodlik kurashlari hamda ilg‘or millat ravnaqi, milliy birdamlik, mustaqillik, ozodlik va xalqni ma’rifatli qilish kabi jadidchilik g‘oyalariga oid materiallar e’lon qilinardi[1].

Xorazmdagi birinchi mahalliy gazeta “Inqilob quyoshi” gazetasi bo‘lib, muvaqqat inqilobiy hukumat tuzilganidan keyin 1920-yil 8-martdan chop etila boshlangan. “Inqilob quyoshi” gazetasi Quyi Amudaryo havzasi xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy hayotida sodir bo‘layotgan voqeliklarni o‘z sahifalarida yoritgan. Muxbirlar K.Boltayev, Q.Beregin, O.Safayeva, U.Qurboniy, M.Ismoiliy, E.Devonov, X.Eshmuratov singari partiya xodimlari va qishloq xo‘jaligi muxbirlari Faqiriy, Xorazmiy, Mutrib, Partav, Chokar, Mug‘anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi, shoirlar gazeta faoliyatida ishtirok etishgan. 1925-yilga kelib, “Inqilob quyoshi” gazetasi bir oyda 25 marta chiqa boshladi, oyiga 8600 nusxaga ko‘paytirildi. “Inqilob quyoshi” gazetasi 1939-yil avgust oyidan yangi nom bilan “Xorazm haqiqati” deb atala boshlangan[2].

Rossiya fevral demokratik inqilobi arafasida Xorazm jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo‘lsalar, fevral inqilobidan so‘ng Xorazm jadidlarining “taraqqiyparvarlar” oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surgan. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o‘tkazish, asosiy demokratik erkinliklarni ta’minlash, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta’minlash, mutlaq monarxiyani konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi.

Xorazm jadidlari zamonaviy yangiliklarga qarshi bo‘lgan mutaassib kuchlarning qarshiligiga qaramasdan, san’at va uning har qanday turi insonni ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi, dunyoqarashini yuksaltiruvchi ijtimoiy ong shakli ekaninini yaxshi tushunganlar. Bu narsa, ya’ni san’atning ijtimioiy ahamiyati Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda ham muhimligi anglab yetildi. Jumladan, O‘zbekistonni rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida muhim vazifa sifatida madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash belgilandi.

- Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

-Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

[1] Полвонниёз Хожи Юсупов. Ёш Хиваликлар тарихи (хотиралар). Маъсул муҳаррир М.Матниёзов. –Урганч.: Хоразм нашриёти, 1999. -Б.52.

[2] Назаров С.Б. Хоразмда маҳаллий матбуотнинг вужудга келиши тарихи// “Евразийский Научный Журнал №10 2018” (октябрь, 2018).

- Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta’minlash.

- Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.

- O‘zbek xalqi madaniyati va san’atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

- Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish[1].

Jadidlar nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ortidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni tadrijiy-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o‘zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo‘qotishning maksimal darajada samarali yo‘llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Полвонниёз Хожи Юсупов. Ёш Хиваликлар тарихи (хотиралар). Маъсул муҳаррир М.Матниёзов. –Урганч.: Хоразм нашриёти, 1999. 487 .52.
2. Побережников И.В.Модернизатsiя: теоретико-методологические подходы //Экономическая история. Обозрение / Под ред. Л.И.Бородкина. Вып. 8. М., 2002. С. 146-168.
3.Цапф В. Теория модернизатsii и различие путей общественного развития // Социс. - 1998. - №8.
4.Назаров С.Б. Хоразмда маҳаллий матбуотнинг вужудга келиши тарихи// “Евразийский Научный Журнал №10 2018” (октябрь, 2018)
5.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063.

ЖАДИД НАМОЯНДАСИ ОТАМАХЗУМОХУННИНГ ХОРАЗМ ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ ВА РЕСПУБЛИКА РАҲБАРЛИГИ ДАВРИДАГИ ФАОЛИЯТИ

Умид Бекмуҳаммад,
Хоразм Маъмун академияси катта илмий ходими,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент.

Аннотатsiя: Ушбу мақолада жадид намояндаси Отамахзумохуннинг ҳаёти ва фанда тадқиқ этилмаган раҳбарлик фаолиятига оид энг янги маълумотлар ёритилган. Айниқса республикага раҳбарлик қилган давридаги ислоҳотлари, жамият, давлатчиликка қилган хизматлари архив манбалари асосида тадқиқ этилади.

Аннотатsiя: В статье представлены новейшие сведения о жизни и руководящей деятельности нового представителя джадидов Атамахзумохуна, которые не изучались в науке. В частности, на основе архивных источников будут изучены его реформы в период руководства республикой, его заслуги перед обществом и государственностью.

Abstract: This article presents the latest information on the life and leadership activities of the new representative of the Jadid, Atamakhzumohun, which have not been studied in science. In particular, his reforms during his leadership of the republic, his services to society and statehood are studied based on archival sources.

Калит сўзлар: республика, жамият, давлатчилик, ислоҳот, шартнома, ҳуқуқшунос, элчихона, тенгҳуқуқлилик.

Ключевые слова: республика, общество, государственность, реформа, договор, юрист, посольство, равенство.

Keywords: republic, society, statehood, reform, treaty, lawyer, embassy, equality.

Хоразмлик жадид намояндалари, уларнинг жамият, давлатчиликда қилган ислоҳотлари ҳақида сўз кетаркан, хонлик даврида Исломхўжа, Ҳусайинбек Матмуродов, республика даврида

[1] 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063.

эса Полвонниёзҳожи Юсупов, Бобоохун Салимовларнинг номлари қайд этиб ўтилади. Бироқ ўзининг қаътияти, сиёсий иродаси, ислоҳотлари билан тарихнинг бурилиш даврида ўзгариш ясашга уринган яна бир сиймо борки, унинг номи ҳатто тарихчилар эътиборидан ҳам четда қолиб келмоқда. Ушбу жадид зиёлиси, ҳуқуқшунос Отамахзумохун Муҳаммадраҳимовдир.

Хоразмдаги жадид фаолларидан ва республикага раҳбарлик қилган давлат арбобининг Хива шаҳрида туғилгани ва мадраса таҳсилини тугатиб, Қозикалон мадрасасида мударрис, охун вазифаларида фаолият кўрсатганигина маълум. Бироқ айнан қайси санада туғилгани, қандай оилада вояга етгани ва хонлик давридаги фаолияти тўғрисидаги ҳужжатлар афсуски ҳозиргача топилмаяпти.Бироқ у "Ёш хиваликлар" партиясининг фаолларидан бўлгани, Бобоохун Салимов, Полвонниёзҳожи Юсуповларнинг энг яқин маслакдоши ва жадидчилик ҳаракатидаги энг таъсирчан, нуфузли шахс бўлганлиги маълум. Шу боисданоқ у 1920 йилда хонлик тугатилгандан кейинги республика даврида адлия нозирлигида масъул вазифада ишлаган.Дастлаб Бобоохун Салимов бошчилигидаги адлия нозирлигида фаолият кўрсатган.

1921 йил 23 майда эса Хоразм Марказий Ижроия Комитети ва унинг ҳайъати таркибига адлия нозири қилиб сайланган.1921 йил 14 сентябрда ХХСР МИКда "Олий инқилоб жазо маҳкамаси" ташкил қилинади. Ушбу маҳкамага: Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов-(адлия нозири) раис сифатида, нозирлар кенгашининг раиси-Менглихўжа Ибнияминов, олий муфаттиш раиси-Худойберган Диванов, зироат нозири-Абдуллахўжа Абдураҳмонхўжаев, дохилия нозири Ҳасан Эрматов, туркман шўъба раиси-Янгибой Муродовлар аъзо сифатида кирган эдилар.

"1921 йил сентябрь ойида ХХСР МИК мажлиси чақирилиб Хоразм Марказий Ижроия Комитетининг раиси-Муҳаммадраҳим Оллаберганов истеъфога чиқади ва унинг ўрнига ХХСР адлия нозирлиги вазифасини бажариб келган-Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов тайинланади. Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ўрнига адлия нозири қилиб Маҳмуд Раҳимов тайинланади" (1).

Бу вақтда Марказий ижроия комитет раиси амалда Хоразм республикасининг раҳбари ҳисобланар эди. Айнан Отамахзумохун даврида Хоразм республикасининг миллий манфаатлари юзасидан ғоятда долзарб ишлар қилинади. Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ХХСР МИКга раҳбар бўлгач ўзбек ҳарбий зиёлиларидан етишиб чиққан Миркомил Миршараповни ҳарбий нозир ва рус ҳарбийларидан бўлган Михаил Волошиннинг ўрнига ўзбек ҳарбийларидан бўлган Ҳасан Эрматовни доҳилия (ички ишлар) нозири қилиб тайинлади.

"Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов маориф соҳасида ҳам миллийлаштириш сиёсатини олдинга суради. Маориф нозири қилиб қўйилган татар зиёлиси Ҳофиз Зиёвутдинов ўрнига ўзбек зиёлиларидан бўлган Жумамуродохунни маориф нозири қилиб тайинлайди". (2).

Афсуски 1920 йилдан Отамахзумохуннинг раҳбарлик давригача кўпгина тарихий ва қимматбаҳо буюмлар талон-торож қилинган, ўзлаштирилган ва марказга олиб кетилган ва бу жараёнлар яна давом қилмоқда эди. Миркомил Миршаропов ҳарбий нозирлик вазифасига тайинланиши муносабати билан 1921 йил 15 октябрда 63- сонли буйруқ чиқаради ва бу буйруқ ХХСР МИКнинг 1921 йил 18 октябрдаги 58-сонли баённомаси билан тасдиқланди.

"Ушбу буйруқда урушда қўлга тушган ўлжалар айрим кишиларнинг мулки бўлмаслиги, Хоразм ҳудудидан четга чиқарилиб кетилмаслиги, шунингдек, ҳозирги вақтда Хоразм коммунистик партияси аъзолари ва ХХСРдаги Россияликлар қўлида бўлган нарсаларни тезлик билан Хоразм аскари таъминот шўъбасига топшириш лозимлиги, ушбу вақтга қадар айрим шахслар тарафидан уруш баҳонаси билан олиб кетилган нарсаларни қайтариб беришнинг қатъий чораларини кўриш, шунингдек 2-ўқчи бригадаси штаби ҳам, унинг таъминот шўъбаси тарафидан 1920 йилда ва 1921 йилнинг бошларида олиб кетилган нарсаларни ўз ўрнига қайтариши белгиланди. Шунингдек, Хоразмдан олиб кетилиб Бухорода сотилган бриллиантларни ўз жойига қайтариш вазифаси ҳам кун тартибига қўйилади. Шунинг билан бирга Хоразм ҳудудидан четга олиб чиқилиб кетилган тарихий, қимматли нарсаларнинг кимлардалигини аниқлаш, жумладан Хоразм халқининг ҳарбий ҳаётини кўрсатадиган қурол ва Хоразмнинг сипоҳигарчилик даврини кўрсатадиган олмос, бриллиант, олтин, кумуш каби қимматли нарсаларга бундан кейин эҳтиёт бўлишни ХХСР ҳукуматидан сўралган эди" (3).

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов Хоразм республикасининг бошқа давлатлар билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш ва республикани тараққий қилдириш борасида ҳам бир қанча ишларни амалга оширган эди. Жумладан, Афғонистон, Бухоро ва бошқа давлатларда

Хоразмнинг элчихоналарини очиш ҳамда уларнинг элчихоналарини Хоразмда ташкил этишга рухсат беради.

Афғонистондаги элчихонага раис қилиб Бобоохун Салимов тайинланди. У 1920 йил апрелдан 1921 йил март ойигача Хоразм Халқ Совет республикасида адлия нозири бўлган, Полвониёзҳожи Юсупов ҳукумати ағдарилгач у ўзини ҳукумат ишларидан четга олиб юрган эди. Унинг котиби қилиб Абдуллахўжа Абдураҳмонхўжаев ва элчихона аъзоси қилиб Марат Тўраев белгиланди.

“Бухоро Халқ Совет республикаси элчихонасига раис қилиб Мулла Ўроз Хўжамуҳамедов белгиланди. У республика ҳукумати аъзолигига киритилган эди.Ўроз Хўжамуҳаммедов Хоразм Халқ Совет Республикаси делегatsiяси таркибида Москвага бориб РСФСР ва ХХСР ўртасида имзоланган 1920 йил 13-сентябрдаги 24 моддадан иборат шартномани тузишда қатнашган эди. Шунингдек, у ХХСРнинг туркман шўъбаси раҳбари сифатида кўпгина ишларни ҳам амалга оширганди” (4).

“Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов раҳбарлик қилган даврда хоннинг ва хон амалдорларининг тортиб олинган экин ерлари, кўллар, тўқайлар ва бойлардан тортиб олинган ҳовли жойлар, уларнинг боғлари ерсиз ва кам ерлик деҳқонларга бўлиб берилди. “Фақат 1921 йилда 6,5 минг десятина (7095 гектар) ер ерсиз ва кам ерлик деҳқонларга бўлиб берилади” (5).

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов динга, диндорларга ва вақф ерига, умуман олганда ХХСРнинг ишларига қаътиятли раҳбар сифатида ёндошди ва РСФСР томонидан чизиб берилган андозани бутунлай рад қилди.

Тарихий вазиятга кўра, асрлар давомида диний ақидаларга эътиқод қилган халқ оммасида бирданига вақфни бекор қилиб инқилоб ясаш қийин эди. Ерсиз ва кам ерлик деҳқонларга вақф ерларидан бўлиб берилган ерларда ҳам иш кўнгилдагидек эмас эди. Шу боисдан ҳам вақф ерларга экин экиб ҳосил олган деҳқонлар ўз ерларида етиштирилган ҳосилни кечқурун, яширин равишда ушбу ернинг собиқ эгаларига, масжид имомлари, мадрасалар мутаваллиларига олиб бориб беришарди. Шунинг учун ҳам Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ХХСРнинг 2-қурултойида қабул қилинган вақф тўғрисидаги қарорларни бекор қилди. Шариат нормаларини тиклай бошлади. Ислом динига ишонувчиларнинг ҳурматини жойига қўйди. Вақфдан олинадиган солиқни бекор қилди.

Шунингдек, Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ХХСР ҳукумати ишларига коммунистик партия аъзоларининг аралишиши ва раҳбарлик қилишига чек қўйишга ҳаракат қилди.Унинг миллий раҳбар сифатида танлаган тўғри стратегиясида, бир республика ҳудудида коммунистик партия марказий комитети ва ҳукумат марказий ижроия комитетидан иборат қўшҳокимиятчилик бўлиши мумкин эмас эди.

“Хоразмда амалга оширилаётган Отамахзумохуннинг бундай миллий раҳбарлик бошқаруви табийки РСФСРдан юборилган вакилларга тўсқинлик эди. Тўсқинлик кучаймаслиги ва ХХСРни таъсир доирасидан чиқармаслик учун, РСФСР МИК ва халқ комиссарлар совети 1921 йил октябрь ойининг охирларида Бутун Россия МИК аъзоси, Октябрь тўнтариши кунларида Петроград ҳарбий-революцион комитети аъзоси, РКП (б) МК Туркистон Бюроси ва Туркистон комиссияси раиси, В. И. Ленинниng топшириғига биноан Ўрта Осиёга юборилган Адольф Абрамович Иоффе раҳбарлигида ХХСРга фавқулодда комиссия юборди. Комиссия Хоразмда амалга оширилаётган миллий бошқарув тизимидаги ишларни бекор қилишга ҳаракат қилди.”Бунга қарши Хоразм МИКнинг раиси Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов Адольф Абрамович Иоффега, Хоразм республикасининг ички ишларига аралашадиган бўлса 24 соат ичида Хоразмни ташлаб чиқиб кетиши ҳақида талабнома топширди” (6).

Отамахзумохуннинг Хоразмда тинчликни ўрнатиш борасидаги саъйи-ҳаракатларида ҳарбий нозир Миркомил Миршаропов билан ҳамкорлиги катта натижалар берди.

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ХХСР ҳудудида тинчлик ўрнатиш, бунинг учун муросага бориш мақсадида Қурбон Муҳаммад сардор-(Жунаидхон) билан ҳам 1921 йил 6 ноябрда “Бирлик келишуви шартномаси” тузишга муваффақ бўлди.

Яъни Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов шартнома имзолаб, ундан олдинги рус ҳарбийларининг қўполлик билан қилган тактикасини такрорламаганди. Маълумки, 1921 йил октябрь ойининг бошларида Жунаидхон “Ўрта қудуқ” номли ҳудудда турганида Закаспий фронтининг қўмондонлари-Биляев ва Белоусовлар уни ўраб олиб бутунлай таслим бўлишга мажбур қилганди. Шартномага биноан Жунаидхон ўз қуролларини ҳам топшириши керак эди.

Аммо Жунаидхон бу талабни миллий лидер сифатида тан олмади ва келишилган куни қуролларини топширмади.

Шартнома бажарилмагач Белоусов ва Биляевлар 12 кишилик отлиқ қўшин билан Жунаидхон олдига етиб борган ва шартноманинг бажарилишини талаб қилганди. Жунаидхон шарт-номани рад қилгач эса унга тўппонча ўқталаб асир олинганини маълум қилди. Аммо Жунаидхон ва унинг шериклари ўша вақтда Белоусовни ва Беляевларни отиб ўлдирдилар.

Шу тариқа Беляев ва Белоусовларнинг Жунаидхонни куч ишлатиш йўли билан бўйсундириш нияти амалга ошмаган эди.

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов куч ишлатиш йўли билан иш битмаслигини билгач Жунаидхон билан муросага келиш учун 5 кишилик комиссия тузди. Комиссия раислигига доҳилия нозири Ҳасан Эрматов белгиланди ва унинг аъзолигига ҳарбий ишлар нозири Миркомил Миршарапов, адлия нозири муовини, руҳоний-Исо охун, котиблик вазифасига Муҳаммад Юсуп девон Отажонов, туркманлардан вакил сифатида-Элмуҳаммад Чариевлар комиссия таркибига киритилди. Ушбу комиссия 1921 йил 5 ноябрда Жунаидхон билан музокаралар олиб бориб яраш шартномасини тузишга муваффақ бўлдилар.

“Шартномани Жунаидхон томонидан унинг энг яқин маҳрами Шайх Нафас Холниёз ўғли, Жунаидхоннинг энг эътиқодли руҳонийси Хон Эшон ва бошқа бир қанча кишилар имзолаган эдилар. Шартнома 7 пунктдан иборат бўлиб “Бирлик шартномаси” деб юритилган эди”. (7).

ХХСР раҳбариятининг миллий руҳдаги давлатчилик бошқаруви, ўз ички ишларини ўзи мустақил равишда амалга ошираётганлиги РСФСРнинг Хоразм ХСРдаги мухтор вакили -Иосиф Маисеевич Быкга, Хоразм коммунистик партияси раҳбарлари номи билан иш олиб бораётган айрим шовинистларга ёқмас эди. Улар халқнинг сиёсий жиҳатдан ўз йўлларини аниқ белгилаб ола олмаганликларини яхши сезиб давлат тўнтаришлари ва давлат раҳбарларини ўзгартириб туриш сиёсатини амалга ошириб турдилар. РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Иосиф Моисеевич Бык 1921 йил 10 ноябрда РСФСР ташқи ишлар халқ комиссарлигига ёзган хатида “ҳозирги Хоразмнинг ҳукумат раҳбарлари Хоразм учун керак эмас. Ҳукумат бутунлай Менглихўжа Ибняминов ва Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов қўлига ўтди. Миллий масала билан айрим интеллигенция шуғулланади”, деб ёзган эди. (8).

Отамахзумохун Хоразм ҳукумати ички ишларига аралашгани учун РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Иосиф Моисеевич Быкни воҳага қайтиб келмаслик талаби бўйича 19 ноябрь куни РСФСР ҳукуматига мурожаат йўллайди. Бироқ Кремль муносабат билдиравермагач, Отамахзумохун янада жиддийроқ ҳаракат қилишга киришади. Жумладан, 22 ноябрь куни Россия ҳукуматига радиотелеграмма юбориб, РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Иосиф Моисеевич Быкнинг ўз ваколати доирасидан чиқиб, Хоразм ҳукуматини халқ душмани дея тарғибот қилаётгани, миллатлар орасига низо солаётгани, қонхўрлиги ва талончилиги учун зудлик билан чақириб олишни сўрайди. Акс ҳолда, рўй бериши мумкин бўлган кўнгилсизликлар, икки давлатнинг орасига сиёсий ва иқтисодий алоқаларига раҳна солиши, дўстликнинг ўрни урушга айланиши эҳтимоли юқорилигини маълум қилганди. Бу радиотелеграмма Хоразмнинг РСФСРдаги доимий вакили Султон қори Жуманиёзов, ва таржимон Жуманиёз Оллақулиевлар томонидан Кремлдаги В.И.Ленин, Чичерин, Калининларга етказилади.

Бироқ Кремль маъмурияти ҳам Хоразмдан қилинган иккинчи мурожаатга расман жавоб бермай эътиборсиз қолдиради. Натижада 1921 йил 23 ноябрь куни Отамахзумохун Хоразм ҳукуматининг йиғилишини ўтказиб, РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Иосиф Моисеевич Быкнинг зудлик билан, 24 соат ичида ХХСР ҳудудини тарк этиши ҳақида қарорини чиқаради. 1921 йилнинг 25 ноябрь куни Хоразм радиоси Хоразм ҳукуматининг 17 нафар раҳбарлари томонидан имзоланган қарорини ўқиб эшитиради. Вазиятнинг таранглигини сезган Кремль шундан сўнггина РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Иосиф Моисеевич Быкни Москвага қайтариш ҳақида расман қарор чиқаради.Бироқ Иосиф Моисеевич Бык 27 ноябрь куни Хивадаги Қизил Армия кучларига таяниб, гўёки ХХСР МИК ва Хоразм коммунистик партияси фавқулодда мажлисини чақиради.

Мажлисда республика раҳбари Отамахзумохун ва ҳарбий нозир Миркомил Миршаропов “халқ душмани” дея аталади.

Ана шундай фикрга таянган ҳолда 1921 йил 27 ноябрда Хоразм коммунистик партияси марказий комитети, Хоразм марказий ижроия комитети, республика нозирлар кенгашининг кенгайтирилган қўшма мажлисини чақирди. Ушбу мажлисда Хоразм марказий ижроия

комитетининг раиси Отамахзумохун Муҳаммадраҳимовни, Хоразм республикаси нозирлар кенгашининг раиси Менглихўжа Ибнияминовни, Хоразм марказий ижроия комитетининг иш бошқарувчиси- Бекжон Раҳмонни, Хоразм марказий ижроия комитети ижроия бўлимининг бошлиғи Муҳаммаджон Абдаловни, молия нозири-Муҳаммад Юсуп Отажоновни, доҳилия нозири - Ҳасан Эрматовни, хорижия нозири -: Мулла Ўроз Хўжамуҳамедовни, ҳарбий ишлар нозири Миркомил Маршароповни, туркман шўъба раиси-Янгибой Муродовни, Тригуловни, Агайдаровни, Юнгировни Хоразм халқининг душмани,-деб эълон қилишди. Уларни ишдан олиб ташлаш ва қамашга қарор қилинди” (9).

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов мажлисга чақирилмади. У ўз устидан чиқарилган ҳукмдан хабар топгач Оллақулихон мадрасасида яшириниб жон сақлашга ҳаракат қилди.

Бироқ РСФСРнинг Хоразмдаги мухтор вакили Бык ва бошқа мустамлакачилар томонидан уюштирилган фитна натижасида фақатгина Отамахзумохунгагина эмас, ХХРнинг барча раҳбарларига нисбатан навбатдаги тўнтариш қилинди.”1921 йил 27 ноябрда уюштирилган фитнага кўра, ХХР марказий ижроия қўмитаси ва нозирлар шўросининг кенгайтирилган қўшма мажлисида ХХР марказқўмининг раиси Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов, ХХР нозирлар шўросининг раиси Менглихўжа Ибняминов, Марказқўм иш бошқарувчиси Бекжон Раҳмон, марказқўм бўлим бошлиғи Муҳаммад Абдалов, молия нозири Муҳаммад Юсуф Отажонов, дохилия нозири Ҳасан Эрматов, хорижия нозири Мулла Ўроз Хўжамуҳаммедов, ҳарбий ишлар нозири Миркомил Миршаропов, туркман шўъбаси раиси Янгибой Муродов, шунингдек Тригулов, Агайдаров, Юнгировлар Хоразмнинг душмани деб эълон қилинди. Уларни отиб ташлаш ва қамашга қарор қилинди”(10).

Бык Хивадаги 300 нафар пулемёт ва милтиқлар билан қуролланган Қизил армия қўшини билан ҳарбий нозир Миркомил Миршароповнинг уйига бостириб, ҳовлини ўққа тутдиради. Тасодиф туфайли омон қолган Миршаропов ҳовлидан олиб чиқилиб, кўчадаги оломоннинг кўз ўнгида дўппосланган ҳолда олиб кетилади. Бык Отамахзумохуннинг ҳам уйини ўраб олдиради , аммо уни топишнинг иложи бўлмайди. Қизил Армияга таянган Бык Нуриллабойдаги ҳукумат уйи олдида “ Сенларга мустақил давлатлигингизни шундай кўрсатиб қўяман”, дея очиқчасига қичқиради.

Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ўз устидан чиқарилган ҳукмдан хабар топгач, қочиб яширинишга мажбур бўлади. Полвонниёз ҳожи Юсуповнинг “Хотиралари”да ёзилишича,” Отахмахзум Хивада яшириниб юрган жойларида касал бўлиб 1921 йил ноябр охирида вафот этган. (айрим манбаларда уни Оллоқулихон мадрасасида яшириниб юрганини билиб, топиб отиб ташлашган-У.Б.)Маҳалла оқсоқоли келиб ҳукуматга маълум қилди. Ҳукумат товариш Быкга эълон қилди. Бык докторни юбориб кўрсатиб, ондин сўнг дафн қилмоқға буюрди. Бул докторни кўрсатганидин мақсад шул турур, ёлғондин айтғон бўлмасунлар, деб. Докторнинг айтгани бирлан хотиржам бўлиб қолди. Ҳам ҳукуматнинг тамоми ихтиёри товариш Быкнинг қўлинда бўлди”.

Шу тариқа Отамахзумохуннинг республика давридаги раҳбарлик фаолияти шовинист раҳбарлар туфайли кўп вақт давом этмади. 1921 йил май-сентябр ойларида адлия нозири, сентябрь-ноябр ойларида эса республика марказий ижроия комитети раиси вазифасида икки ойгина фаолият кўрсатди.Бироқ ана шу икки давомида ҳам йилларга тенг, республика манфаати учун энг зарур ишларни қилаолди.

Отамахзумохуннинг нафақат икки ойлик раҳбарлиги, балки ҳаёти, фаолияти тарих фанида умуман тадқиқ қилинмаган бўлиб, тадқиқотчилар ул зот олдида маънан қарздордирлар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Миллий архиви. Р-71-фонд, 1-рўйхат, 2-дело, 26-варақ.
2. Ўзбекистан Миллий архиви. Р-71-фонд, 1-рўйхат, 3-дело, 202-варақ.
3. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71-фонд, 1-рўйхат, 6-дело, 50-варақ.
4. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71- фонд, 1-рўйхат, 3-дело, 219-варақ.
5. М. М. Маткаримов “Аграрные преобразования в Хорезме и их социально-экономические последствия”, диссертatsiя қўлёзмаси, Тошкент, 1976, 48-бет.
6. Н. Қаландаров “Образование и деятельность Хорезмской коммунистической партии”, Тошкент, 1975, 154-бет.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71-фанд, 1-рўйхат, 3-дело, 204-207-варақлар.

8. Н. Каландаров,”Образование и деятельность Хорезмской Коммунистической партии”, Тошкент, 1975, 155-бет.
9. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71-фонд, 1-рўйхат, 3-дело, 235-варақ.
10. Ўзбекистон Миллий архиви, 71-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 235-варақ.

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ХИВА ХОНЛИГИ ЁШЛАРИНИНГ ЧЕТ МАМЛАКАТЛАРДАГИ ТАЪЛИМИ

Йўлдашев Абдували Абдумуталибович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий-тадқиқот институти, бўлим бошлиғи
+998977702199
Dengiz-85@mail.ru

Аннотатsiя: *Мақола XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида вижудга келган жадидчилик ҳаракати ва ёшларнинг хориж мамлакатларидаги таълими масаласига бағишланган. Хонликдаги тараққийпарварларнинг ҳаракати билан ўлкада жадидчилик ҳаракати ривожланиб, халқнинг сиёсий ва маънавий онги ўсди, янги усул мактаблари, театр кириб борди. Ёшларнинг таълимига алоҳида эътибор қаратилиб, уларнинг чет мамлакатларида ўқитиш учун юборилди. Ушбу мақолада хивалик ёшларнинг хориж мамлакатларида таълим олишига оид ижтимоий, сиёсий тараёнлар кенг таҳлилга тортилган.*

Калит сўзлар: *Хива хонлиги, жадидчилик, Муҳаммад Раҳимхон II, Тулуза, Ҳусайния мадрасаси, Истанбул, Саид Исломхўжа.*

ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА ЗА РУБЕЖОМ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотатsiя: *Статья посвящена движению джадидов, возникшему в Хивинском ханстве в конце XIX – начале XX века, и вопросу обучения молодежи за рубежом. С развитием джадидского движения, инициированного прогрессивными деятелями ханства, в регионе наблюдался рост политического и духовного сознания народа, внедрялись новые методические школы, и театр. Особое внимание уделялось образованию молодежи, и многие были отправлены на учебу за границу. В данной статье проводится широкий анализ социальных и политических процессов, связанных с обучением хивинской молодежи за рубежом.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, джадидизм, Мухаммад Рахимхан II, Тулуза, медресе Хусайния, Стамбул, Саид Исламходжа*.

EDUCATION OF THE YOUTH OF THE KHIVA KHANATE ABROAD IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY

Annotation: *The article is dedicated to the Jadid movement that emerged in the Khiva Khanate in the late 19th – early 20th century and the issue of youth education abroad. With the development of the Jadid movement, initiated by the progressive figures of the khanate, there was a rise in the political and spiritual consciousness of the people, as well as the introduction of new-method schools, theater. Special attention was given to youth education, and many were sent to study abroad. This article provides an extensive analysis of the social and political processes related to the education of Khivan youth abroad.*

Keywords: *Khiva Khanate, Jadidism, Muhammad Rahim Khan II, Toulouse, Husayniya Madrasa, Istanbul, Said Islamkhoja.*

XIX асрнинг иккинчи ярмида бошланган Россия империясининг Туркистон ўлкасига босқини натижасида Қўқон хонлиги расман тугатилди, Бухоро амирлиги ва Хива хонликлари тобе мамлакатларга айлантирилди. Минтақа мустамлака ҳудудига айланди, ижтимоий-

иқтисодий аҳвол танглашди, маданий ҳаётда турғунлик ҳолати авж олди. Туркистон минтақаси империя мустамлакачилик сиёсати оқибатида жамиятда ислоҳотларнинг йўқлиги натижасида ҳар жиҳатдан жаҳон тараққиётидан анча ортдаги ҳудудга айланди. Айнан шу даврда Европа давлатлари илм-фан, техника тараққиётига эришиб, иқтисодиёт ва саноатнинг ривожида илғор мамлакатлар даражасига кўтарилган эди.

XIX асрнинг 80-йилларидан ўлкага европача янгиликлар кириб келиши ортиб борди. Аммо улар рус аҳолиси учун мўлжалланган эди. Ўлкада ташкил этилган рус-тузем мактаблари маҳаллий аҳолини саводли қилиш эмас, балки империя манфаатларига хизмат қилувчи кишиларни тайёрлаш ҳамда руслаштириш сиёсатини амалга оширишни кўзда тутган эди.

Ана шундай бир шароитда империянинг мусулмон мустамлака ўлкаларида жадидчилик ғоялари ривожлана бошлади. Бу эса миллий уйғониш ҳаракатларини бошлаб берди. Тараққий этган мамлакатлардаги янгиликларни кўрган ва у ердаги таълим, илм-фан ютуқларини ўрганган зиёлилар ва илмга хайрихоҳ кишилар Хивада янгиликларни юзага келиши ва оммалашуви учун кураш олиб бордилар. Ёшларни олий таълим олишлари учун тараққий этган мамлакатларда таҳсил олиши учун имконият қидирдилар.

Хива хонлигининг XIX аср охирларидаги ташқи савдо-маданий алоқалари, илғор фикрли тараққиёт тарафдорлари жадидчиликнинг шаклланиши, хорижий таълимнинг амалга ошишига туртки бўлди. Россия империясининг Хива хонлигидаги мустамлакачилик сиёсати ҳам ҳар жиҳатдан зарар келтирганига қарамай, мамлакатдаги маданий ҳаёт тараққиётини тўхтатиб қололмади. Хонликда мустамлакачи ҳукуматга қарши миллат келажаги йўлида курашнинг ягона йўли халқни замонага мос бўлган илм-фан билан қуроллантириш ҳамда халқаро талабларга мос мутахассислар тайёрлашдан иборат эди.

Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II (1865–1910) ўлкадаги ўзгаришларга хайрихоҳ ҳукмдорлардан бўлган. У ўз мулозимлари билан бир неча бор Москва, Петербург ва бошқа шаҳарларда бўлди. Чет мамлакатлардаги илм-фан, техника соҳасидаги ўзгаришларни кўриб, ўз юртида татбиқ этишга ҳаракат қилди. Хусусан, 1874 йили хоннинг ташаббуси билан Ўрта Осиёдаги биринчи матбаачиликка асос солинди. Россия империяси томонидан талаб, вайрон қилинган кутубхона қайта тикланиб, қўлёзма ва босма китоблар билан бойитилди. 1891 йили эса Хивада шифокорлик шахобчаси очилиб, аҳолига ёрдам кўрсатила бошланди[1. 60][1].

Муҳаммад Раҳимхон II даврида хонликда янги усул мактаблари очила бошлаган. Хива хонлигидаги дастабки янги усул мактаби 1889 йили Оренбургдан келган татар зиёлиси Абдулғанибой Хусаинов томонидан очилган[2.53][2]. Шунингдек, хон ўзига яқин кишиларнинг фарзандларидан таржимонлар тайёрлаш мақсадида 1884 йили сарой ҳузурида махсус мактаб ташкил этган. Унда мусулмон муаллимлар билан бирга рус ўқитувчиси ҳам дарс берган[3.15][3]. Хива хонлигига кириб келган маърифий ва инқилобий ғоялар, шунингдек, Муҳаммад Раҳимхон II нинг янгиланишга мойилиги, маданият ва маорифга ҳомийлиги хонликнинг ўзида янгилик яратишга туртки бўлди.

XIX аср охирларида Россия, Туркия, Ҳиндистон ва бошқа давлатларда бўлган илғор фикрли хон амалдорлари ва сармоядорлар хориждаги ўзгаришлардан баҳраманд бўлиш билан бирга ўз яқинлари ва фарзандларини ана шу мамлакатларда таълим олишга юбордилар. Масалан, Хива хонлигининг Хонқа тумани ҳокими Аминиддин Ёқуб 1872 йили хон элчилари сафида Ҳиндистонга боради. Сафар давомида дунё ўзгаришларидан катта таассурот билан қайтган. У ўғли Муҳаммадни 1893 йили таълим олиши учун Францияга юборган. Отаси уни дастлаб Хивадаги Арабхон мадрасасида ва Тўрткўлдаги рус-тузем мактабида ўқитган. Илмга бўлган иқтидори боис Муҳаммад Аминиддин ўғли Арабхон мадрасасидаги таълимдан сўнг Истанбулга бориб таҳсилни давом эттиради. У ердаги ўқиш жараёнида Туркияга кириб келган француз маданияти ва илм-фани ҳақида маълумотларга эга бўлади. Хонликдаги катта ерлар ва ундаги сув муаммоси ҳамиша асосий масалалардан бўлганлиги боис, у сув хўжалиги соҳасида билим олиш учун Францияга боради. Муҳаммад Аминиддин ўғли 1893–1897 йиллари Франциянинг Тулуза

[1] Қаюмов М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошида Хива хонлигидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Наманган, 2021. – Б. 60.

[2] Зиманов С. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. - Алма-Ата: Наука Каз ССР, 1976. – С. 53.

[3] Билолов Г. Хоразмда халқ маорифи тараққийси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 15.

шаҳридаги ирригатsия коллежида таълим олади[4.271][1]. У европача янги маданият билан танишиб, қишлоқ хўжалигига оид билимларни ўзлаштирди.

Хива хонлигидаги маърифатпарварлик ҳаракатининг ривожланиши ва янги усул мактабларнинг очилишида тараққийпарвар амалдорлар, айрим бой ва савдогарларнинг кўмаги катта бўлди. Хонликдаги бойлар ва давлатманд шаҳарликлар XX аср бошларида мусулмон халқларидаги ўзгаришлардан ўрнак олиб 1904 йили "Жамияти хайрия"ни туздилар. Бу хайрия жамиятининг асосий вазифаси Хива хонлигида янги усул мактаблари ташкил этишга қаратилган эди[3.18][2].

XX аср бошларида Хива хонлигида жадидчилик ҳаракати ривожланди. Дастлаб жадид мактаблари ривожланишида татар маърифатпарвари Ҳусайн Зарипович Қўшаев ва Қозондаги Олимжон Борудий мадрасасидан таклиф қилинган татар муаллимлари фаол роль ўйнаган бўлса, кейинчалик маҳаллий жадидларнинг маориф йўлидаги фаоллиги ортди[5.43][3]. Ушбу даврда Хива хонлигидаги рус-тузем мактаблари ҳам бўлиб, жадид мактабларининг ортиб бориши мустамлака маъмурларини ташвишга солган. Амударё бўлими бошлиғи бунга жавобан Туркистон генерал-губернаторлигига мактуб йўллаб, хондан рус ўқитувчилари таълим берадиган мактаблар очишни талаб қилишни сўраган. Амударё бўлими бошлиғи ўз мактубида: "маориф йўли билангина хонликда ўсиб келаётган миллий ҳаракатларнинг олдини олишимиз мумкин"[4], деб ёзган эди[6].

Муҳаммад Раҳимхон II вафотидан сўнг Хива тахтини эгаллаган Асфандиёрхон гарчанд Россиянинг марказий шаҳарларидаги ўзгаришларни ўз кўзи билан кўрган бўлишига қарамай, хонликдаги тараққийпарвар кишиларини таъқиб остига олди. Шундай бўлса-да, хонликдаги ўзгаришлар ва тараққиётга интилиш тўхтаб қолмади. Унинг қайнотаси, Хива хонлигининг биринчи вазири Акбар Саид Исломхўжа (1871–1913) маърифатпарвар инсон эди. Саид Исломхўжа: "Хонлик бор куч-қудратини тараққиётга сарфлаши лозим, ундан сўнг эса савдо-саноатга эътибор бермоғи керак. Хонлик қолоқ Осиё давлатлари қаторидан чиқадиган пайт келди. Халқ эркин нафас олиши зарур"[5], деган фикрларни билдирган эди[7.81].

У салкам 20 йилик фаолияти даврида мамлакатни жаҳолат ва қолоқликдан қутқариш, демократик ислоҳотлар орқали Хоразмни илғор давлат даражасига кўтариш, маҳаллий ҳукмдорлар ва мустамлакачилар асоратидан эзилган халқнинг ҳаётини яхшилаш учун жуда кўп амалий тадбирларни амалга оширди.

Саид Исломхўжа 1911 йили 10 моддадан иборат ислоҳотлар дастурини ишлаб чиққан[8][6]. Ушбу дастур тезда ҳаётга татбиқ қилина бошлади. Ислоҳот дастуридан келиб чиқиб хонликдаги вақф ерларидан олинадиган даромаднинг бир қисми маориф ва маданият ишларига сарф қилинадиган бўлди. Унинг ташуббуси билан 1911 йили янги усул мактаби очилган. Ушбу мактаб учун Хива шаҳрининг марказида европача услубда қўшқават қилиб бино қурдирган. Исломхўжа томонидан очилган мактаб совет даври адабиётларида "пантуркизм ва панисломизм ғояларини тарқатувчи ўчоқлардан бири эди"[7], деб таърифланган[3.19]. Шунингдек, хонликнинг Хўжайли, Хонқа, Гурлан шаҳарларида янги усул мактаблари очила бошланди. Ушбу янги усул мактабларида Оренбург, Қозон, Астрахандан ва бошқа шаҳарлардан келган татар муаллимлари ҳам ўқувчиларга таълим берган. Улар

[1] Бекмуҳаммад У. Жайхунни жиловлаган мироб // Камалак. 2004, 4 декабрь. Қўшжонов О. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007. – Б. 271.

[2] Билолов Г. Хоразмда халқ маорифи тараққийси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969 – Б. 18.

[3] Холбоев С. Туркистон жадидчилиги – миллий уйғониш даври тарихи. – Наманган, 2012. – Б. 43.

[4] Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА). И–2- жамғарма, 2-рўйхат, 291-йиғмажилд, 95-варақ.

[5] Садыков А. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 81.

[6] ЎзМА, И–125-жамғарма, 1-рўйхат, 609-йиғмажилд, 3-4-варақ орқаси.

[7] Билолов Г. Хоразмда халқ маорифи тараққийси. – Б. 19.

муаллимлик билан бирга давлат ишларида ва аҳоли орасида илғор ғояларни ёйиши Россия империясининг Амударё бўлими бошлиғини ташвишга солган. Хонликдаги татар муаллимлари назоратга олинган. Ҳаттоки империя маъмурлари томонидан татар муаллимлари хонликдан ўз юртига қайтариб юборилган.

Исломхўжа 1911–1913 йилларда хивалик ёшлар орасидан бир нечтасини Тошкент, Петербург ва бошқа хорижий шаҳарларга юборгани маълум. Хусусан, хивалик Отажон тўранинг ўғли унинг ёрдами билан Петербургда таълим олган[9.54][1]. Кейинчалик бу ёшларнинг аксарият қисми Хивадаги жадидчилик ва ёш хиваликлар ҳаракатининг фаол иштирокчиларига айландилар.

Шунингдек, унинг ташаббуси билан 1912 йил 1 ноябрда почта-телеграф идораси, 1913 йили эса касалхона бинолари қурилади[10.273][2]. Шифохона ўша давр учун яхши жиҳозланган эди. Шифохонада ишлаш учун Россиядан тажрибали шифокорлар А.Ф. Анасимов, В.И. Шенковская, А.А. Александров ва С.С. Асфандиёров [11][3] таклиф қилинган. Шифохонада нафақат амалдорлар, оддий халқ ҳам даволаниш имкониятига эга бўлган[9.49-50][4]. Бироқ, Исломхўжанинг ислоҳотини амалга ошириш учун Россия империясидан ёрдам олиш йўлида қилган саъй-ҳаракатлари натижа бермади. Шу боис ислоҳотлар учун моддий маблағни хонликнинг ички имкониятидан фойдаланиш орқали амалга оширишга мажбур бўлди. Бу эса хон ва бир гуруҳ амалдорларга маъқул келмади, улар Исломхўжани фитна йўли билан йўқ қилдилар. Унинг ўлими билан ислоҳотлар дастури ҳам тўхтаб қолди.

Асфандиёрхоннинг ҳукмронлиги йилларида хонликдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар кескинлашди. Хива маърифатпарвар зиёлилари ислоҳотлар тарафдори бўлиб хоннинг сиёсатига қарши “Ёш хиваликлар” гуруҳига бирлашдилар.

Ушбу даврда бир қатор хивалик ёшлар хориждаги ислоҳ қилинган мадрасалар ва замонавий таълим муассасаларига бориб ўқидилар. Хива хонлигидаги ёшлар XX аср бошларидаги ислоҳ қилинган Оренбург, Қрим ва Уфадаги мадрасаларда таълим олдилар. Хусусан, хивалик Раҳмат Мажидий Оренбургдаги “Ҳусайния” мадрасасида таҳсил олган[12][5]. Аммо унинг мадрасадаги таълими 1917 йил октябрь воқеалари сабаб охирига етмай қолади. Шундай бўлса-да мадраса унинг дунёқарашига катта таъсир кўрсатган.

Шунингдек, бир қатор ёшлар Истанбулга бориб таълим олганлар. Жуманиёз Шариповнинг “Хоразм” номли асарида ёзилишича: “Ҳусайнбек Матмуродов хивалик ёшлардан бўлиб, Туркияда таълим олган. Истанбулдаги таълим пайтида кўплаб турк сармоядорлари билан танишган” [13.230][6]. Ҳусайнбек Матмуродов Хива хонлигидаги фаолияти даврида ана шу сармоядорлар билан доимий алоқада бўлган.

Яна бир Хива ёшларидан бўлган Бекжон Раҳмонов 1913–1918 йилларда Туркиянинг Истанбул шаҳридаги семинарияда ўқиди. Бу олий таълим муассасаси кўпгина тилларни, диний ва дунёвий билимларни ўргатар эди[11.28][7]. Бекжон Раҳмонов Истанбулдаги таълимини тамомлаб, Хивага қайтгач хонликдаги маориф тизимини ривожлантириш йўлида муаллимлик қилди. Хива хонлигидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнлар билан танишиб, жадидлар томонидан тузилган “Ёш хиваликлар” сафига қўшилган.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, Истанбулда бухоролик ёшлар томонидан тузилган “Бухоро таъмим маориф” жамиятининг Бухородаги тарғиботчилари Хива хонлиги ёшларини ҳам хорижда таълим олиш учун тарғиб қилишга ҳаракат қилганлар. Аммо уларнинг ҳаракатлари Россия империясининг Амударё бўлими маъмурлари томонидан кузатилиб, таъқиб остига

[1]Садуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Тошкент, 2005. – Б. 54.

[2] Қушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Б. 273.

[3] Санжар Саиджаъфар ўғли Асфандиёров (1889 – 1938) Тошкентда таваллуд топган. 1912 йили Императорлик ҳарбий-тиббиёт академиясини битирган. Туркистонга қайтиб, 1915 йилгача Туркистон округининг турли қисмларида ҳарбий шифокор бўлиб ишлаган. Сўнг биринчи жаҳон урушида қатнашган. 1917 йилдан эътиборан Бухоро, Тошкент ҳудудий советларида депутат, Қизил Армия таркибида шифокор. 1919 – 1925 йиллари Туркистон АССРда бир қатор партия ва комиссарлик лавозимларида ишлаган. Совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати даврида у ҳам ноҳақ айбланиб, 1938 йил февралида отувга ҳукм қилинган.

[4] Садуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (сийсий, маданий-маърифий фаолияти). – Тошкент, 2005. – Б. 49-50.

[5] ЎзМА, Р–2785-жамғарма, 1-рўйхат, 36-йиғмажилд, 19-варақ.

[6] Шарипов Ж. Хоразм. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. –Б.230.

[7] Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч, 1993. – Б. 28.

олинган. Улар Хива хонлигига киришига йўл қўйилмаган[15][1]. Хусусан, Бухоро амирлигида “Бухоро таъмими маориф” жамиятининг аъзоси бўлган Ҳамидхўжа амирликдан ташқари жамият ғояларини тарғиб қилиш учун Хива хонлигига ҳам борган[16][2]. Сиёсий агентлик бунга қарши Амударё бўлимига хат юбориб Ҳамидхўжани Хива ҳудудида учратилса, қўлга олиб, Бухоро амирлигига қайтаришни сўраган[17][3].

Умуман олганда, Хива хонлигидаги ёшларнинг хорижий таълимига оид ҳужжатлар, манбалар тадқиқот давомида Туркистон генерал-губернаторлиги ва Бухоро амирлигидаги мавзуга оид манбалар ҳамда адабиётларга қараганда кам учрайди, шунга қарамасдан, мавжуд манбалар асосида шундай хулоса қилиш мумкинки, XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида маданий соҳада амалга оширилган ислоҳотлар ва ўлкага кириб келган янгиликлар билан бирга ёшларнинг хорижга бориб таълим олиши йўлга қўйилди. Хорижда ўқиш истагидаги айрим хивалик ёшлар Франция, Туркия, Россиянинг марказий шаҳарлари ва қўшни мусулмон мамлакатларидаги ислоҳ қилинган мадрасаларга бориб таълим олдилар. Улар мамлакатга қайтиб ўлканинг тараққиёти учун курашдилар.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Қаюмов М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошида Хива хонлигидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Наманган, 2021. 60-бет.
2. Зиманов С. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. - Алма-Ата: Наука Каз ССР, 1976. 53-бет.
3. Билолов Г. Хоразмда халқ маорифи тараққийси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 15,18,19-бетлар.
4. Бекмуҳаммад У. Жайхунни жиловлаган мироб // Камалак. 2004, 4 декабрь. Қўшжонов О. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007. 271-бет.
5. Холбоев С. Туркистон жадидчилиги – миллий уйғониш даври тарихи. – Наманган, 2012. 43-бет.
6. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), И–2- жамғарма, 2-рўйхат, 291-йиғмажилд, 95-варақ.
7. Садыков А. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 81.
8. ЎзМА, И–125-жамғарма, 1-рўйхат, 609-йиғмажилд, 3-4-варақ орқаси.
9. Садуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Тошкент, 2005. 54-бет.
10. Қушжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиѐсий жараёнлар ва ҳаракатлар. 273-бет.
11. Санжар Саиджаъфар ўғли Асфандиёров (1889 – 1938) Тошкентда таваллуд топган. 1912 йили Императорлик ҳарбий-тиббиёт академиясини битирган. Туркистонга қайтиб, 1915 йилгача Туркистон округининг турли қисмларида ҳарбий шифокор бўлиб ишлаган. Сўнг биринчи жаҳон урушида қатнашган. 1917 йилдан эътиборан Бухоро, Тошкент ҳудудий советларида депутат, Қизил Армия таркибида шифокор. 1919 – 1925 йиллари Туркистон АССРда бир қатор партия ва комиссарлик лавозимларида ишлаган. Совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати даврида у ҳам ноҳақ айбланиб, 1938 йил февралида отувга ҳукм қилинган.
12. ЎзМА, Р–2785-жамғарма, 1-рўйхат, 36-йиғмажилд, 19-варақ.
13. Шарипов Ж. Хоразм. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. 230-бет.
14. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч, 1993. 28-бет.
15. ЎзМА, И–3-жамғарма, 1-рўйхат, 356-йиғмажилд, 14-варақ.
16. ЎзМА, И–3- жамғарма, 1-рўйхат, 356- йиғмажилд, 7-варақ орқаси.
17. ЎзМА, И–2- жамғарма, 1-рўйхат, 283- йиғмажилд, 4-варақ.

[1] ЎзМА, И–3-жамғарма, 1-рўйхат, 356-йиғмажилд, 14-варақ.
[2] ЎзМА, И–3- жамғарма, 1-рўйхат, 356- йиғмажилд, 7-варақ орқаси.
[3] ЎзМА, И–2- жамғарма, 1-рўйхат, 283- йиғмажилд, 4-варақ.

XIVA XONLIGIDA JADIDCHILIK XARAKATING MAMLAKAT IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI

Jumaniyozov Fazliddin Bobojonovich
Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti.
Matyozova Inobat Radjapboyevna
Ma’mun universiteti TS 23-1 guruhi talabasi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xalqimizning otmish tarixi boy madaniy merosini o‘rganish, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hukumatimiz tomonidan aloxida e'tibor berildi. Xususan, yurtboshimiz I.A. Karimov o‘zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q" nomli asarida "Ozlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas. Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun goyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"[1] deb ta'kidlagani bejiz emas.

"Chorizm mustamlakasi davrida marifat goyasini baland ko, tarib chiqqan Jadid boblarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Isxoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab marifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, xuzur halovatidan kechib, el ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi"[2]

Bundan tashqari tarixni haqqoniy yoritish uchun mafkura ham kerak bo‘ladi, Prezidentimiz mafkura haqida bunday degan edi, "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo, Imasa odam, jamiyat, davlat oz yo‘lini yoqotishi muqarrar, Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy boshliq vujudga kelsa osha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Buning isboti xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish qiyin emas. Malumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, manaviy qarashlari o‘z o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, tabir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni butun o‘rta osiyo xalqlarini aynan ana shunday do stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga davat etmoqda. Bir soz bilan aytganda, tarixiy voqealikka mana shunday qarash, jamuljam bo‘lib yashash tuyg...usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog..i hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo, Isak, bu milliy mentalitetimiz asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni sezmaslik, anglamaslik, ko,rmaslik umuman mumkin emas.

Xiva xonligida jadidchilar tomonidan buyuk kelajakni yaratish yo‘lida olib borilgan ilmiy va ma’naviy islohatlar, bu islohatlar qanday natijalar bergani va xalq bunday islohatlarni qanday qabul qilgan va qanday munosaba tbildirgan. Vatanimiz tarixida XIX ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan xonlar, amirlar orasida hech biri adabyot va san’at, ilm-marifat, ta’lim-tarbiya, mamlakat obodonchiligi soxasida Muhammad Raximxon Feruzchalik faoliyat ko‘rsatgan emas.

Sababi ular tomonidan tashkil qilingan matbaachilik bu harakatlarning debochasi bo‘ldi. 1874-yili Muhammad Rahimxon II ning tashabbusi bilan Xivaga Rossiyadan toshbosma dastgohi keltirildi. Erondan Ibroxim Sulton matbaachi saroyga taklif qilindi. Chunki Sharqda birinchi matbaa 1832-yil Eronda vujudga kelgan edi. Shuningdek, musiqashunos, Pahlavonniyoz Mirzaboshi tomonidan xonni majlislar tuzishga hamda tarixchiyu, taraqqiyvarlar bilan fikr almashishga, mamlakatdagi zo‘ravonliklar va poraxo‘rlikni tugatishga harakat qilindi[3].

Xiva xonligida ta’lim tizimini isloh qilish masalasi ancha oson o‘z yechimini topdi. Buning sababi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II texnologik yangiliklarni maqullovchi madaniyat homiysi bo‘lganidir. Xonlikda yangi usul maktablarining ochilishi Buxorodagidek hokimiyat vakillarining qarshiligiga duch kelmadi. Feruzning o‘zi maktablar tashkil etilishini qo‘llab-quvvatladi va ko‘plab yuqori martabali amaldorlar undan o‘rnak oldi. Xiva xonligida ilk rus-tuzem maktabi 1884-yilda Xiva

[1] I.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.-Toshkent.1999-yil.138-bet.
[2] I.Karimov “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch”.T.. “Ma’naviyat”.2008-yil.35-36-bet.
[3] Otamurod Qo‘shjonov, Ne’matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007, 388-b

xonining ko‘magida ochilgan, dastlabki jadid maktabiga esa, 1904-yil 10-noyabrda asos solindi. Unda Turkiyadan Xusayn Qo‘shayev o‘qituvchilik qilgan. 1906-1907-yillarda qizlar uchun maktab tashkil etildi. Jadidchilikning Xorazm maktabini yaratilishida Munis va Ogahiy tomonidan asos solingan, Bayoniy boshchilik qilgan tarjimachilik va tarixchilik maktablari asosiy o‘rin tutgan bo‘lib, elitaning Xorazm o‘tmishiga qiziqishi ham bunga yordam berdi[1].

Dastlab 25 ta o‘quvchi talim oldi va diniy bilimlar bilan bir qatorda tarix, hisob, jug‘rofiya kabi aniq fanlar hamda rus tili alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitilgan. Xonlikdagi an’anaviy maktablardan farqli ravishda darslar jadvali, xar bir dars 50 minut va 10 minutlik tanafus joriy qilindi. Bu maktabni Muhammad Raximxon ham kelib ko‘rdi va o‘g‘li Asfandiyorni shu maktabga o‘qishga berdi, jihozlari, o‘quv qurollari uchun davlat hazinasidan mablag‘ ajratadi. Xiva xonligida jadidchilik harakati rahnamolaridan biri Sayid Islomxo‘ja ibn Sayid Ibrohimxo‘ja, Komil Avaz “Garchi erur man tolei Feruz” maqolasida takidlagandek, Feruz xonlikda ta’lim-tarbiya, maoruf soxasida ham katta islohatlarni amalga oshirgan.1904-yilda Muhammad Rahimxon buyrug‘iga binoan Urganch shahrida “usuli savtiya” usuliga asoslangan jadid maktablari ochiladi. Qozondan taklif etilgan pedagog Husayn Qo‘shayev muallimlik qiladi va qo‘lostidagi o‘quvchilar soni 45 nafarga yetadi.

Xiva ma’rifatchilari va xarakat yetakchilari, xususan, Bobooxun Salimov, P. Yusupov say-xarakatlari bilan Yangi Urganch, Qo‘ng‘irot, Gurlan, Shovotda maktablar ochildi. Bunga yangi usul maktablari tashkil etish uchun mablag‘ yig‘gan “Jamiyati xayriya” ham imkon yaratdi. B. Salimov, B. Raximov boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish bo‘yicha dastlabki darsliklarni yaratishdi[2].

1906-yilda marifatparvarlar va ota-onalar taklifiga binoan Urganchda huddi shunday maktab qizlar uchun ochildi. Muallim etib Husayin Qo‘shayevning rafiqasi Komila Qo‘shayeva tayinlandi. Bu maktabni Muhammad Raximxon borib ko‘radi, talim-tarbiyani yangicha usulini ko‘rib mamnun bo‘ladi. Husayin Qo‘shayevni boshdan oyoq sarpo berildi va xonlik xazinasidan maktab iqtisodiy yordam ko‘rsatishga qaror qildi. Asfandiyorxon valiyaxtlik vaqtidayoq “usuli savtiya”ga asoslangan yangi maktablarning usuli qadim maktablaridan afzaliklarini tushunib yetgan edi, islohatchilik faoliyati bilan ancha etibor qozongan yangilik tarafdorlaridan edi.

1907-yil fevralda Xiva aholisining arziga binoan Qozon shaxrining mashxur Olimjon Barudiy madrasasidan ikki nafar usuli jadid mualimini taklif etadi. Bu mualimlar ishtirokida yangi usul maktablari ochadi. Xivada ochilgan ushbu “Maktabi Muxaramiy” va “Maktabi jadida”da 113 talaba 1907-yil 28-mayda valiyaht Asfandiyor va devonbegi huzurida, 31-mayda qozilar, oxundlar, muftiylar huzurida imtixon topshirdilar. Imtixon axli Xiva va Urganchda yana ikkita usuli jadid maktabini ochish va Qozondan yana ikki muallim taklif qilishga qaror qabul qildilar. Xonlikdagi yangi maktablar noziri Ramazon Muxamad Karimzoda bu qarorni barchaga elon qildi.Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan kegin taxtga o‘tirgan Asfandiyor ham usuli jadid maktablari rivojiga katta ahamiyatni davom etirdi ayniqsa, devonbegi (Bosh vazir)Said Islomxo‘ja bunday ma’rifiy ishlarga bosh bo‘ldi. Qozondan mualimlar taklif qilish ular yordamida usuli jadid maktablari ochish davom etdi. XX asr boshdayoq Islomxo‘ja zamona talablariga ham ohang holda o‘z hisbidan ikki qavatli usuli jadid maktabi qurdirdi, rus, tatar mualimlarini jalib qildi. U bunday ma’rifiy faoliyati tufayli “Vaziriy Akbar” sharafli unvoniga musharaf bo‘ldi. Uning bu faoliyati “Tarjimon” gazetasi taxririyati etiborini o‘ziga qaratdi: “Islomxo‘ja iqtizoyi zamona ko‘ra ilm va marifat nashrini daxi lozim ko‘rub, Xivaya ruscha va tatarcha mualimlar keltirmish va bir qoch adad usuli jadida maktablari ochtirmish edi. O‘z masorifindan bir maktab bino qildirdi. Mamlakat islohini so‘ngi yilarida shoir va mutafakkir Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komil Xorazmiyning o‘g‘li), Ahmad Tabibiy, Avaz O‘tar o‘g‘li shu maktabda rus tilini o‘rganishgan. Xivada bazi ilmlarning Buxorodan ilgarida o‘lmasinda Islomxo‘janing tasiri o‘ldi, demak mumkundur”.

Islomxo‘ja bilan Asfandiyorxon taraqqiyparvarlikda fikran bir-birlariga juda yaqin edilar, buning ustiga Asfandiyorxon Islomxo‘jaga kuyov ham edi. Bunday fikriy yaqinlik natijasida xonlikning Xiva va Urganch shaharlarida zamonaviy shifoxonalar, pochta-telegraf, maorif-madaniyat maskanlari barpo etildi va ularga xonlik xazinasidan mablag‘ ajratildi. Isfandiyorxon taxtga o‘tirgan 1910-yilda “Yosh xivaliklar” tashkiloti xalq ichida katta ta’sir kuchiga ega edi. Sharoyitni xisobga olib va 1917-yilda Rassiyada sodir bo‘lgan Fevral inqilobi tasirida Isfandiyor bazi bir tadbirlarni amalga oshiradi. O‘sha yilning 5-aprelida “Yosh xivaliklar” ishtirokida ellik kishidan iborat Oliy Majlis tuziladi va hatto ikki jadid-biri hukimat, ikkinchisi esa majlis rayisi etib saylanadi. Junaydixonning bu majlis

[1] A. Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasretdinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. -T: “Turon-Iqbol”2019, 107-b
[2] Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: “Akademnashr” 2022, 16-b.

qarorni tan olmay, xamkorlikda faoliyat ko‘rsatishdan bosh tortishi, ikkinchi tomonda ruslarning “Yosh xivaliklar” hukumatiga qarshi chiqishi natijasida majlis Isfandiyorxon tomonida tarqatilib yuboriladi.

1917-yil martda Mirbadalov tomonidan miting o‘tkazildi. Unda Yosh xivaliklar partiyasi “dindan qaytganlar” deb e’lon qilinib, “Majlis” tarqatib yuborildi va rahbarlari qo‘lga olindi. Rahbarlardan Nazir Sholikorov “men rus fuqarosi bo‘lganimdan meni xon sudi emas, rus sudi so‘roq qilsin deb”, sud jarayonidan chiqib ketib omon qoladi. Polvoniyoz Hoji Yusupov esa, bir rus askari tomonidan suddan qutuladi va qochib o‘z faoliyatlarini davom ettiradi[1].

1917-yilgi Oktiyabr to‘natrishidan kegin vaziyat yanada o‘zgardi. Hokimat tepasiga kelgan balshevniklar yashirin va qochqinlikda faoliyat olib borayotgan “Yosh xivaliklar”ni qo‘llab quvatlashdi. Shu bilan birga balshevniklar Isfandiyorxon bilanham orani uzmadi. Ora yo‘lda qolgan Junaydixon esa bir tomondan rus qo‘shinlari, ikkinchi tomondan Isfandiyorxon va “Yosh xivaliklar” bilan kurashni davom etiradi. 1918-yilning sentiyabir oyida u Urganch-To‘rtko‘l-Chorjo‘y telefon aloqa tarmog‘ini yo‘q qilib, bir nechta qishloqni qo‘lga oladi va oxir oqibat Isfandiyorxoni o‘ldirishga muaffaq bo‘ladi. Isfandiyorxoni o‘limidan so‘ng Xivadagi vaziyat yanada keskinlashadi.Junaydixon tomonidan qo‘ng‘irotlardan bo‘lgan Sayyid Abdullo taxtga o‘tkaziladi. Xon ruslarga uzoq vaqit davomida urush olib borildi.

1920-yilning 20-yanvarida rus qo‘shinlari Xivaga kiradi va Sayyid Abdullo taxdan ag‘dariladi va 1-fevralda Xorazim Xalq Jumuryati elon qilinib,boshqaruv “Yosh xivaliklarga”ga o‘tadi. Jadid maktablarining Xiva xonlikgi bilan Buxoro amirligida shakilanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi.Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng tarqalishiga yuqori tabaqa –amir, ko‘shbegi, qozikalom va mutassib ulamolar Keskin qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsalar, Xiva xonligida, aksincha bu masalada xon boshchiligidagi yuqori tabaqa bunday maktablarni qo‘lab quvatladiva farmonlar chiqarishdi, pastki tabaqa hamda mualimlar bunda sust bo‘lishdi. Shuning natijasida usuli jadid maktablari keng shaklana olmadi.Jadid maktabdorlari, usuli jadid pedagoglari va mualimlari xalq orasidan yetishib chiqishi sust kechdi, xaonlik asosan Qozon tatarlaridan, Bog‘chasaroydan darsliklar, turli o‘quv kitoblari olish, mualimlar jalb qilish masalasi bilan mashg‘ul bo‘ldi. Buyo‘l orqalik xonlikdagi morif tizimni tubda isloh qilish mumkun emas edi.Xulosa qilib shuni aytish keraki, mahaliy ananaviy maktablarning jahon taraqiyotidan butunlay uzulib qolganligi, ta’lim-tarbiya tizimidagi turg‘unlik XIX asr boshlaridayoq Muhammad Xakimxon, Komil Xorazimiy kabi dunyo ko‘rgan mutafakirlarni qattiq tashvishga soldi. Ular o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomilashtirish, jadid milliy dunyoviy boshlang‘ich ta’limiga asos solish va rivojlantirishga o‘z asarlarida urg‘u beradilar. Ular bu masalada katta amaliy ishlarga ham bosh qosh bo‘lishadi.

Xulosa: Jadidlar merosining ahamiyati Jadidlar harakati milliy uyg‘onish jarayonining poydevorini yaratdi. Ular o‘z faoliyatlari orqali ta’lim va tarbiyani modernizatsiya qildi, millatning ma’naviy va intellektual yuksalishiga katta hissa qo‘shdi. Bugungi kunda O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jadidlar merosiga tayanadi. Ularning g‘oyalari va harakatlari nafaqat o‘z zamonasida dolzarb bo‘lgan, balki bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlarning ta’lim va tarbiya sohasidagi islohotlari zamonaviy O‘zbekistonda yangi avlodni shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tarjimon”gazetasi,1913 yil. 75-son.

2. Satimjon Xolboyev. Turkiston jadidchiligi-miliy uyg‘onish davri tarixi. “Namangan”. 2012 y.

3. Rustam Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. “O‘qtuvchi” -Toshkent. 2002 y.

4. Otamurod Qo‘shjonov, Ne’matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007y.

5. A. Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasretdinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. -T: “Turon-Iqbol”2019y.

6. Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: “Akademnashr” 2022y.

7. Polvoniyoz Hoji Yusupov Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm” 1999y.

[1] Polvoniyoz Hoji Yusupov Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm” 1999.

ЖАДИД МАЪРИФАТЧИЛИГИ ВА МУСИҚА УЙҒУНЛИГИ: МУЛЛА БЕКЖОН РАҲМОН ЎҒЛИ ВА МУҲАММАД ЮСУФ ДЕВОНЗОДАЛАРНИНГ “ХОРАЗМ МУСИҚИЙ ТАРИХЧАСИ” РИСОЛАСИНИНГ ИЛМИЙ ВА ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ

Matkarimova Nazokat Maksudovna
Ma’mun Universiteti,
Tarix fanidan falsafa doktori, PhD., dotsent
e-mail: ms.mnm.79@mail.ru

Тарихдан маълумки, Хоразм - Амударёнинг қуйи қисмида жойлашган диёр бўлиб, нодир куй-қўшиқлари, лапар, ялла-ўланлари, хилма-хил достонлари, рақслари ҳамда миллий мусиқа меросининг олий кўриниши бўлмиш – мақомларнинг таркибий тузилиши, ижро анъаналари билан ўзига хос ва такрорланмасдир. Бу ерда туғилиб-ўсган истеъдодли ҳонанда ва созандалар анчагина. Улар нафақат халқ орасида, балки узоқ-яқин қўшни минтақаларда ҳам машҳур бўлишган. Хоразмнинг бой мусиқий маданияти ҳақида кўплаб тарихшунос, ўлкашуносларнинг тадқиқотларида қимматли маълумотлар келтирилади. Шунингдек, қадимдан шаклланган халқ мусиқаси ва унинг замирида юзага келган миллий мумтоз мусиқа ҳамда уларнинг анъаналари бугунги кунга қадар маҳаллий халқнинг урф-одатларида, турмуш тарзида ўз аҳамиятини йўқотмаган. Бундан ташқари, Хоразмнинг мўжизакор мусиқаси унинг тарихий ривоятларида, афсона ва достонларида ўз аксини топган. Кўплаб мусиқашунослар Хоразм мумтоз мусиқасининг ривожланиш тарихини икки даврга ажратишади. Бу ҳақда таниқли мусиқашунос Отаназар Матяқубов шундай дейди: “Хоразм классик мусиқаси ривожланишини шартли равишда жуда қадимий ва нисбатан яқин, яъни хотирамиз илғайдиган Хива хонлиги тарихи даврига бўлиб ўрганиш мумкин. Хоразм мусиқа санъати, жумладан унинг ўтмиши хақида Мулла Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг “Хоразм мусиқий тарихчаси” рисоласидан жуда кўплаб қимматли маълумотларни олишимиз мумкин.

Шу ўринда Мулла Бекжон Раҳмон ўғлининг фаолиятига ҳам алоҳида тўхталиб ўтишни лозим топдик. Чунки, у Хоразм жадидчилик ҳаракатининг етук намоёндаларидан бири бўлиб, жамиятда ислоҳотлар ўтказиш, халқни маърифатга чорлаш, янги усулда таълим бериш каби соҳаларда муҳим ишларни амалга оширган. Бундан ташқари журналист, музейшунос, санъатшунос, публицист, дипломат ва давлат арбоби бўлган.

Бекжон Раҳмон ўғли XIX-асрнинг охири ва XX-аср бошларида фаолият юритган маърифатпарвар, ўқитувчи ва жамоат арбоби бўлган. У 1887 йилда Хива шаҳрида туғилган. Илмли, маърифатли бўлганидан халқ орасида ва шу даврга оид бўлган айрим ҳужжатлар ва мақолаларда Мулла Бекжон, Бекжон афанди деган ном билан қайд этилади. Отаси Раҳмонберган бош вазир Исломхўжанинг иш бошқарувчиси бўлган.

У янги усулдаги мактаблар (усули жадид) очишда бош-қош бўлган, болаларни замонавий фанларга ўргатишга ҳаракат қилган. Мулла Бекжон Хоразмда туркий ва форсий адабиётларни, ислом илмини халқ орасида кенг тарқатишда муҳим ўрин тутган. У жамиятдаги мураккаб масалаларга дахлдор бўлган ижтимоий, мафкуравий масалалар юзасидан фикр билдирган, мақолалар ёзган.

Мулла Бекжон Раҳмон ўғли анъанавий диний таълим билан бир қаторда, илм-фан, табиий фанлар ва рус тили каби фанларни ҳам ўргатиш зарурлигини таъкидлаган. У халқ орасида саводхонликни ошириш, аёллар таълимини йўлга қўйишни ҳам жадидчилик ҳаракатининг муҳим қисми деб билган.

Мулла Бекжоннинг фаолияти Хоразм жадидчилиги тарихида муҳим ўрин тутади. Унинг замонасининг бошқа жадидлари билан ҳамкорликда олиб борган ишлари туфайли Хоразмда янги фикрлар ва маданий юксалиш даври бошланган.

Мулла Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзоданинг “Хоразм мусиқий тарихчаси” асари Хоразм мусиқа меросининг илмий манбаи ҳисобланади. Асар муаллифларидан бири бўлган Мулла Бекжон Раҳмон ўғли Хоразмдаги жадидчилик ҳаракатининг етакчи намоёндаларидан бири бўлган бўлса, иккинчи муаллифф Муҳаммад Юсуф Девонзода (Харратов) эса моҳир созанда ва хонанда бўлиб, “Чокар” тахаллуси билан ижод қилган.

Бу асар 1925 йилда Москва шаҳрида араб алифбосида нашр этилган бўлиб, ўзбек халқ мусиқаси тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу рисолада Хоразм мусиқачилари ижоди, Хива хонлиги ҳудудига Шашмақомнинг кириб келиши, Муҳаммад Рахимхон Ферузнинг мусиқа санъатини ривожлантириш борасидаги ҳаракатлари ҳақида қимматли маълумотлар берилган. Китобда Хоразм мақомларининг тузилиши, шакллари ва ижро услублари ҳақида ҳам батафсил маълумотлар берилган. Айрим мақомлар ноталар билан тўлдирилган, бу эса асарни илмий ва амалий жиҳатдан муҳим манбага айлантиради. Асарда Хоразм мақомларининг “Шашмақом”дан фарқли жиҳатлари, хусусан, ижро услуби ва ритмик хусусиятлари ҳақида ҳам маълумот берилади.

Асар муаллифлари, Хоразм мусиқасининг биринчи даврини XII асрдан XIX аср бошларигача деб кўрсатганлар. Бу даврда Хоразм мусиқасининг тараққиёти ва ривожланиш йўллари очиқ суратда намоён бўлмаса-да, бизгача етиб келган тарихий асарлардан маълум бўладики, Хоразм пойтахти Кўҳна Урганч Чингизхон босқинигача бўлган ва кўркам шаҳар пайтида унинг аҳолиси ичида мусиқани ўзларига бир ҳунар ва касб айлаган кишилар кўп бўлган. Улар шу касб орқасидан ўз оилаларини тебратганлар. Мазкур асарларда муболағадай кўрсатиладики, Кўҳна Урганч шаҳрида дутор созина эшак (харрак) йўниб (ясаб, тузатиб) сотиб, шу ҳунарлари орқали оила боққан кишиларнинг миқдори бир мингга етишганлиги таърифланади[1].

Мулла Бекжон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг “Хоразм мусиқий тарихчаси” шўро ҳукуматининг дастлабки йилларида яратилган ўз соҳасидаги илк тадқиқотлардан бири ҳисобланиб, бу асар тез орада маҳаллий ва хорижий мутахассисларнинг диққатини ўзига жалб этган. Жумладан, атоқли рус мусиқашуноси В.Беляев ва у орқали мусулмон Шарқи мусиқашуноси Г.Фармер каби нуфузли олимлар уни эътироф этганлар. Тарихчадан икки йил кейин эълон этилган профессор А.Фитратнинг ўзбек мусиқасининг тарихи ва назариясига оид рисоласида ҳам мазкур китобга юқори баҳо берилган[2]. Рустам Болтаевнинг “Хоразм дутор мақомларининг илмий-назарий таҳлили” мақоласида “Хоразм мусиқий тарихчаси”даги маълумотлар асосида Хоразм дутор мақомлари таҳлил қилинган. Мақолада мазкур асарнинг Хоразм мақомларини ўрганишдаги аҳамияти таъкидланган. Рустам Болтаев ушбу асар ва К. Девонийнинг Хоразм дутор мақомлари тўплами ўртасидаги фарқларни таҳлил қилиб, Хоразм дутор мақомларининг илмий-назарий таҳлилини амалга оширган.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, Мулла Бекжон Раҳмон ўғли – Хоразм жадидчилиги тарихида муҳим ўрин тутган маърифатпарвар, ислоҳотчи шахс ҳисобланади ва унинг жадидчилик ҳаракатидаги фаолияти нафақат таълим-тарбия соҳасида, балки миллий маданият, айниқса мусиқа соҳасида ҳам яққол намоён бўлган. Унинг Муҳаммад Юсуф Девонзода билан ҳамкорликда ёзилган “Хоразм мусиқий тарихчаси” асари Хоразм мақомларини илмий асосда ўрганиш, сақлаш ва ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, кейинги мусиқашунослар ва тадқиқотчилар учун асосий манба бўлиб хизмат қилади.

Мулла Бекжон Раҳмон ўғли миллий мусиқага илмий ёндашувни илк бор амалга оширган ва ўзбек мусиқашунослигида замонавий тадқиқотлар учун асос солган. Унинг бу йўналишдаги фаолияти халқ маънавиятини юксалтириш, маданий меросни асраб-авайлаш ва унга ҳурмат туйғусини шакллантиришда улкан аҳамиятга эга бўлди.

Мулла Бекжон Раҳмон ўғлининг фаолияти жадидчилик ҳаракатининг кенг қамровлилиги – таълим, маданият, санъат ва маърифат соҳаларидаги юксак ғоявий ва амалий саъй-ҳаракатлари билан белгилаб берилади. Унинг мероси бугунги кунда ҳам илмий тадқиқотлар ва маданий уйғониш жараёнлари учун муҳим манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Matyakubov B. Xorazm musiqiy tarixchasi.-T.: 2014.
2. Абдурауф Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи”. Тошкент-Самарқанд 1927 йил; иккинчи нашри – Тошкент 1993 йил.

[1] Matyakubov B. Xorazm musiqiy tarixchasi.-T.: 2014.
[2] Абдурауф Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи”. Тошкент-Самарқанд 1927 йил; иккинчи нашри – Тошкент 1993 йил.

SAID ISLOMXO‘JA ISLOHOTLARI: XIX-XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA MODERNIZATSIYA URINISHLARI

Abdullayeva Nazokat Baxtiyarovna,
Ma’mun universiteti, Tarix kafedrasi
katta o`qituvchisi, PhD
+995914261464.
nazokata465@gmail.com

Xiva xonligining XX asr boshlaridagi islohotlar jarayoni, ayniqsa, Said Islomxo‘janing faoliyati orqali amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, O‘rta Osiyo tarixida modernizatsiya g‘oyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo‘lida ilk harakatlar sifatida katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqotchilar Asfandiyorxon davrida boshlangan va asosiy tashabbuskor sifatida Said Islomxo‘janing nomi bilan bog‘liq bo‘lgan bu islohotlarni feodal mutlaqiyat sharoitida joriy etilgan keng ko‘lamli yangilanish dasturi sifatida baholashadi. 1911-yil boshida e'lon qilingan farmonlar Xiva tarixida ilk bor davlat siyosatining huquqiy asoslarini isloh qilishga urinish bo‘ldi. Ushbu islohotlarning muallifi, siyosiy strateg va iqtisodchi sifatida Said Islomxo‘ja ko‘rsatib o‘tiladi. Islohotlar “Oktyabr manifesti” qoidalarini to‘ldirish, feodal tuzumni saqlab qolgan holda uni modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan edi. Garchi bu o‘zgarishlar jamiyat tuzilmasini tubdan yangilay olmagan bo‘lsa-da, konservativ qarashlarga qarshi bo‘lgan kuchlar uchun muhim siyosiy dasturni tashkil etdi.

Said Islomxo‘janing eng muhim tashabbuslari iqtisodiy sohada namoyon bo‘ldi. Soliq tizimi tabaqalashtirildi, vaqf mulklari ustidan davlat nazorati kuchaytirildi. Rossiya sarmoyasi uchun cheklovlar olib tashlandi. Natijada davlat xazinasining daromadi 500-600 ming rublgacha oshdi. Bu esa, o‘z navbatida, Xiva byudjeti asoslarini yaratish, sanoat qurilishini boshlash va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkonini berdi. 1912-yilda import hajmi 14 million rubldan oshdi. Avvalgi yillarga nisbatan tovarlar turlari ham ko‘paydi. Paxta tozalash, yog‘ ishlab chiqarish, ko‘nchilik uchun mashina va mexanizmlar keltirildi. Energiya manbalari va qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazilishi ham islohotlarning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatdi.

Islohotlarning ijtimoiy yo‘nalishida kasalxona va pochta-telegraf idoralarining qurilishi asosiy o‘rin tutadi. Xiva shahrida ayollar bo‘limiga ega bo‘lgan ilk kasalxona qurildi. Shifokor Ummi Gulsum Asfandiyorova faoliyati bu sohadagi o‘zgarishlarga asos bo‘ldi. Pochta-telegraf tizimi orqali Xiva Rossiya imperiyasining axborot tarmog‘iga to‘liq qo‘shildi. Said Islomxo‘ja bu tizimlarning moliyalashtirilishini davlat byudjetiga yuklash orqali ijtimoiy sohada davlat roli ortishini ta'minlashga harakat qildi. Shuningdek, yangi qurilishlar me’moriy jihatdan rus va Xiva an'analarini uyg‘unlashtirgan holda modernizatsiya ruhini aks ettirdi.

Islohotlarning kengayib borishi konservativ kuchlarning qarshiligiga sabab bo‘ldi. Xonlik byudjeti ortgan mablag‘larni sanoatga emas, balki hashamatli saroy qurilishiga yo‘naltirgani islohotchilar noroziligini kuchaytirdi. Said Islomxo‘ja o‘z dasturini davom ettirishga harakat qildi, ammo Asfandiyorxon va feodal oligarxiyaning bosimi ostida uning siyosiy ta’siri cheklana boshladi. 1912-yilga kelib Xiva siyosiy tizimida tub o‘zgarishlar ro‘y bermadi. Xon mutlaq hokim sifatida qolaverdi. Islohotlar feodal tuzumni o‘zgartirmadi, balki uni zamonaviylashtirishga urinish bo‘ldi. N. S. Likoshinning guvohlik berishicha, bu islohotlar real demokratik tizimga olib bormagan.

Said Islomxo‘janing tashabbusi bilan amalga oshirilgan 1911-1912-yillardagi islohotlar Xiva xonligida modernizatsiya g‘oyalarining amaliy ko‘rinishi bo‘ldi. Ularning chuqurligi va natijalari cheklangan bo‘lsa-da, bu jarayon keyingi siyosiy taraqqiyot uchun muhim zamin bo‘ldi. Islohotlar feodal reaktsiyaning bosimi ostida to‘xtatildi, biroq ular Xiva tarixida o‘ziga xos burilish bosqichini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ниязматов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI — начале XX века. СПб.: Петербургское востоковедение, 2010. – 343 с.
2.Почекаев Р. Ю. Хивинский фактор российско-казахских отношений в XVIII–XIX вв. Часть 1: Казахские ханы на троне Хивы. – СПб.: Евразия, 2012. – 256 с.
3.Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII – второй половине XIX века: Дис. … канд. ист. наук. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2017. – 215 с.

4.Российско-хивинские отношения в конце XVII – начале XVIII века: декларативная шерть или реальное подданство? // Вестник исторических исследований. – 2018. – № 4. – С. 63–75.
5.Likoshin N. S. "Xiva xonligidagi siyosiy holat" // Turkiston arxivi. 1912-yil sentabr.

ХОРАЗМЛИК ЖАДИДЛАРНИНГ АДАБИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АСАРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Сайёра Самандарова,
Урганч инноватsion университети доценти,
филология фанлари номзоди.
e-mail:sayyorasamandarova68@gmail.com

Аннотatsiя: Ушбу мақолада Хоразм жадид адабиёти намояндалари, уларнинг ижодий фаолияти ёритиб берилади. Шунингдек, жадид адабиётига хос тамойиллар асосида хоразмлик ижодкорларнинг айримларига ҳам баҳо бериб ўтилади.

Калит сўзлар: жадид, адабиёт, Хоразм, Бобоохун Салимов, “Таржимон” газетаси, шеърият, драматургия, театр.

THE PLACE OF KHOREZMIL JADIDS IN LITERARY PROCESSES AND THE SIGNIFICANCE OF THEIR WORKS

Abstract: In this article, representatives of modern Khorezm literature and their creative activities are highlighted. Also, based on the principles of modern literature, some of the creators of Khorezm will be evaluated.

Key words: jadid, literature, Khorezm, Bobohun Salimov, “Tarjimon” newspaper, poetry, dramaturgy, theater.

МЕСТО ХОРЕЗМИЙСКИХ ДЖАДИДОВ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ И ЗНАЧЕНИЕ ИХ ТВОРЧЕСТВА

Аннотatsiя: в статье освещены представители хорезмской джадидской литературы и их творческая деятельность. Также, исходя из принципов современной литературы, будут даны оценки некоторым творцам Хорезма.

Ключевые слова: джадид, литература, Хорезм, Бобохун Салимов, газета “Тарджимон”, поэзия, драматургия, театр.

Хоразм жадид адабиёти ҳам жадид, умумтурк жадид адабиётининг, қолаверса жадидчилик ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, воҳада кечган тарихий-маданий, адабий жараёнлар билан ўзаро боғлиқдир. Негаки, профессор Бегали Қосимов “Миллий уйғониш” асарида ёзганидек, “жадид адабиёти моҳиятан янги адабиёт эди. Чунки у қарашларни янгилади, фикрларни янгилади, ўзликни қайтарди”.

Табиийки, Туркистон, Бухоро жадидчилик ҳаракатидан Хоразм жадидчилигининг фарқли жиҳатлари борлиги сингари, жадид адабиётида ҳам Хоразмнинг алоҳида ўрни борки, бу борада афсуски ҳали мукаммал тадқиқот ишлари олиб борилмаган.Маълумки, публицистика ҳам ижодкорларнинг шаклланиши, адабиёт оламига, насрда изланишлар олиб боришнинг дастлабки тажрибаси сифатида қаралади. Хоразм жадид адабиётида эса публицистика муҳим ўрин тутади. Шу боис, аввало жадид публицистикасига тўхталиб ўтсак.

Қримда нашр этилган “Таржимон” газетасидаги тарихий фактлардан маълумки, Рамазон Сайдашевнинг жадид мактабидаги педагоглигидан ташқари, Хоразмдан Қримга –“Таржимон” газетаси бош муҳаррири Исмоил Гаспралига мақолалар ёзиб турганлигидир. Табиийки, вазиятни, бораётган жараённи кузатиб, таҳлил қилиб шулар асосида ўз муносабатини, таъсирини билдириб турган Исмоилбек Гаспрали Хоразмдан келган ҳар бир хабарни газетада “Хивадан мактуб” рукнида чоп этиб турган. Шу тарзда *Мулла Рамазон, Рамазон Сайдашев, Р.Сайдашев* номлари билан воҳада кечаётган ҳар бир жараён, воқеликлар газетада нашр қилиниб турилган. Олдинлари Россия, Кавказ, Туркистондаги газеталар ва мухбирлар орқали

ёритиб борилган Хоразм билан боғлиқ жараёнлар бевосита Рамазон Сайдашевнинг журналистлик фаолияти орқали Қримда нашр этилиб, минглаб мухлислар ва турли ҳудудларга етиб борди. Афсуски, Рамазон Сайдашевнинг педагоглик ва журналистик фаолияти тарих фанида умуман тадқиқ қилинмаган.

Рамазон Сайдашев ўзи сингари "Таржимон" газетасига мақолалар ёзадиган яна бир маслакдош шогирдини етиштирдики, бу ижодкор Ғофур Усмоний эди. У ХХаср бошларида Хива, Янги Урганч шаҳарларидаги жадид мактабларида ўқитувчилик қилган ва Рамазон Сайдашевнинг таълим ва матбуот соҳасидаги шогирди бўлганди. Ғофур Усмоний "Таржимон"дан ташқари "Вақт" газетасига ҳам Хоразмдаги таълим, тиббиёт ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар тўғрисидаги мақолаларини чоп эттириб турган. Афсуски, Ғофур Усмонийнинг ҳаёти ва фаолияти тарих фанида тадқиқ қилинмаган"[1].

Агарки, Рамазон Сайдашев ва Ғофур Усмонийлар ҳаёти, фаолияти, ижоди тадқиқ қилинса, катта эҳтимол билан уларнинг жадид адабиётига қўшган ҳиссалари борлиги ҳам маълум бўларди.

Маълумки, ўзбек адабиёти, хусусан ХХ аср бошларидаги Хоразм адабий муҳитини Аваз Ўтар ижодисиз тасаввур қилиш қийин. Айнан ана шу даврдаги, яъни Хоразм жадид адабиётининг пешқадам намояндаси Аваз Ўтар (15.08.1884-1919) бўлиб**,** адабиётшунослар томонидан унинг ижоди маърифатпарвар шоир сифатида эътироф этилиб келинди. Бироқ унинг "Тил", "Ҳуррият" шеърларидаги руҳият, ғоя Чўлпон асарларидаги сингари жадид адабиёти намунасидир. Шунингдек, шоир ижодига оид бошқа асарларида ҳам жадидчилик ғоялари акс этган ва Аваз Ўтар доимий равишда Хоразм жадидларини қўллаб-қувватлаган ижодкор. У Қримда нашр этиладиган "Таржимон" газетасини ўқиб, уни Хоразмда тарғиб қилиб борган ва Хивада 1905 йилда жадид мактаби очган Мамат маҳрамнинг энг яқин маслакдоши бўлган.

Аваз Ўтар камолотга етган бир пайтда сил касалига чалинади ва даволаниш учун Кавказ ва Қримга (1905-1906) боради. Тараққийпарвар Аваз Ўтар Бокуда озарбайжон жадид мактаблари билан танишади ҳамда Тоҳирзода Собир (1860-1911) сингари шоирлар билан учрашиб дўстлашади ва улар билан кейин ҳам ижодий алоқада бўлади. Шунингдек, Султон Мажид Ғанизода (1886-1937) томонидан ташкил этилган мактаблар фаолияти билан танишади. Сафарали Валибейов (1861-1902)нинг "Ватан тили", "Усули жадид", "Лисоний форсий" номли асарлари ва "Хазинаи ахбор" номли икки жилдлик қомусий луғатини ҳам Хоразмга олиб келади.

Хоразмга келганида Россия, Кавказ, Қримда нашр этиладиган кўплаб газета-журналлар, китобларни олиб келади. Аваз Ўтар кейинчалик ҳам доимий равишда рус, озарбайжон, татар тилларида чиқадиган газеталарни мунтазам равишда кузатиб борган. Тошкент, Фарғона ва Самарқандда чоп этилган жадид матбуоти билан бевосита алоқада бўлиб, ёзган ғазалларидан баъзиларини уларда нашр ҳам эттиради. Фарзандини бош вазир Исломхўжа томонидан ташкил этилган Хивадаги жадид мактабига беради.

Жадидчилик ғояларини кенг тарғиб этиш Аваз Ўтар ижодига хос хусусиятлардан биридир. Бу унинг "Тил", "Ҳуррият", "Мактаб", "Халқ", "Фидоий халқим", "Топар экан қачон?" деган шеърларида яққол кўринади.

Гарчи Хоразмда 1920 йилда жадид намояндаси Бекжон Раҳмон томонидан матбуотга асос солингангача воҳада бирон та газета-журнал нашр этилмаган бўлса-да, Аваз Ўтар, Бобоохун Салимов, Сўфизода ва бошқа ижодкорларнинг ёзган ижодлари уларнинг қўлёзма асарларида сақланиб келди.

Хоразмлик жадидлар томонидан яратилган назмдаги асарлар жадид адабиёти, шеъриятининг таркибий қисмини ташкил этадики, бу борада Аваз Ўтар ижоди сингари Бобоохун Салимовнинг ижодий фаолияти ҳам жадид шеъриятининг ёрқин намуналаридир.

Хоразмдаги жадидчилик ҳаракати ва улар мансуб бўлган сиёсий ҳаракат – "Ёш хиваликлар"нинг намояндалари орасида асосан Бобоохун Салимов бошқа сафдошларидан ижодкорлиги билан алоҳида ажралиб турган. Яъни, Полвонниёзҳожи Юсупов, Худойберган Девонов, Назир Шоликоров ва бошқа жадид лидерлар каби унинг ҳам сиёсий фаолияти курашлар, ислоҳотчилик ғоялари билан ўтган бўлса-да, ундан асосийси бой ижодий, маънавий мерос қолди.

"Бобоохун Салимов шеъриятида жадидлар ғояларидаги сингари маърифат, таълим мавзулари ёритилган. Шунингдек, у жамиятда рўй бераётган салбий муносабатларни йўқотиш

учун ҳам мудроқ ғурурни уйғотиш лозимлигини англаб етганди. Шу боис ҳам Бобоохуннинг хонлик даврида яратилган ушбу шеърида жадидларнинг ғояси акс этганди”:

Хазон фаслида булбулдек,
Дил афгор ўлғон ўхшайдур.
Жаҳолат дардига барча
Гирифтор ўлғон ўхшайдур.

“Ожиз” тахаллуси билан туркий, “Бобо” тахаллуси билан форсий тилда ижод қилган Бобоохун Салимовнинг бошқа шеърларида ҳам мустамлакачилик асорати даврига хос маҳзунлик, жамиятдаги воқеликларга реал баҳо бериш акс эттирилган “[2].

Бобоохун Салимовнинг сафдоши бўлган Ҳусайнбек Муҳаммадмуродов хонликдаги нуфузли давлат арбоби Матмурод девонбегининг ўғли эди. Ана шундай мавқега эга сулола вакили XX аср бошларидаги Хоразм жадид лидерларидан бири бўлиб, 1917 йил апрелида ташкил этилган ҳукумат раиси қилиб сайланган ва ислоҳотларни амалга оширишга киришганди.

Ферузхон давридан бошлаб саройдаги нафақат амалдорлар, балки ижодкорлар орасида ҳам ўз шеърияти билан эътибор топган Ҳусайнбек Ферузхоннинг тавсияси билан ўзига Нозирий тахаллусини танлаганди. Нозирий мумтоз адабиётга хос кўплаб ғазаллар ёзиб бой ижодий мерос қолдирган ва адабий асарлари Тошкентдаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланмоқда. Агарки Нозирий ижодий мероси тадқиқ қилинса, унинг ижодида лирик шеърларгина эмас, жадид адабиётига хос ижтимоий-маърифий мавзудаги асарлар ҳам топилиши аниқ.

Негаки, ўз давридаги сиёсий жараёнларнинг энг олд сафларида юрган, жамиятни ҳаракатлантирувчи таъсир кучига, нуфузига эга шахс табиийки ўзи орзу қилган, интилган ғояларни ижодида акс эттирган бўлиши аниқ.

Бекжон Раҳмондек жадидларнинг илғор вакили эса Фитрат, Чўлпон, Закий Валидий сингари ижоду илм аҳли билан маслакдош дўст эди. У “Инқилоб қуёши” номи билан Хоразмда матбуотга асос солган ижодкор ва 1923 йилда 580 та Хоразмнинг халқ мақолларини тўплаб “Оталар сўзи”номи билан нашр эттирган фольклоршунос ҳам бўлган. 1925 йилда у Муҳаммад Юсуф Девонзода билан ҳаммуаллифликда “Хоразм мусиқий тарихчаси” китобини Москва шаҳрида нашр қилдирганди. Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” асарида Бекжон Раҳмон ҳамда Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг асаридан ғоят таъсирланганини ёзган ва ушбу китобнинг мусиқашуносликда тутган ўрнига ғоят юксак баҳо берган эди. Шу йили яна “Хилвати сўфиҳо” асарини ҳам ёзиб бошлайди.

“Катта террор” дея аталадиган машъум 1937-38 йиллардаги қатағон қурбонлари номи қайд этилганда, Комил Девоний, Сафо Муғанний номлари ҳам келтириб ўтилади. Агарки, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятидан келиб чиқиб, адабий меросига, умуман ҳаётига разм солсак, ижодидаги маълум бир даврлар жадидлар ғоясида кечганлиги аён бўлади.

Тарихий фактлардан маълумки, Комил Девоний (1887-1938) жадидларнинг “Ёш хиваликлар” партияси аъзоси бўлган ижодкор. У 1887 йилда Хиванинг Сангар қишлоғида туғилган бўлиб, асл исми Муҳаммад Комил Исмоилжон ўғли эди. Бобоси Муҳаммад Паноҳ Хива хонлигининг тўп қуювчи қуролсоз устаси, шунингдек наққош, хаттот, мусиқа ва адабиёт бўйича ҳам маҳоратга эга бўлган. Хоразмдаги ижтимоий-маърифий, адабий жараёнларнинг фаол иштирокчиси бўлган Комил Девоний ҳаёти, ижодий мероси ҳам, афсуски, тўлиқ тадқиқ этилмаган.

Комил Девоний сингари Сафо Муғанний ҳам Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий ва маърифий жараёнлар, шу сингари адабий ҳаракатчиликда фаол қатнашган ижодкор эди.

Сафо Муғанний номи шоир ва хонанда, бастакор сифатида машҳур. Бироқ унинг асл исми шарифи эса ҳужжатларда Сафо Оллоберганов бўлиб, 1882 йил Хива хонлигига қарашли Гандимиён (Гандумикон) қишлоғида камбағал деҳқон оиласида туғилганди. Ферузхон саройига Сафо Муғаннийни олиб келган ва унга ҳомийлик қилган инсон хонликнинг энг мўътабар зотларидан Вазири акбар Исломхўжа эди. Натижада Сафо Муғанний Ферузхон саройида кўзга кўринган созандалардан танбур, дутор ва бошқа миллий мусиқа созларида куй чалиш маҳоратини ва бастакорлик сирларини мукаммал даражада ўзлаштирди. Санъат ва шеърият илмини ўрганиб, Хоразм шоирларининг, шунингдек, ўзининг ёзган шеърларига куйлар басталаб ижро этди.

Сафо Муғанний нафақат адабиёт, санъат, маданият ходими, балки жамиятни ислоҳ қилиш, давлат бошқарувини такомиллаштириш, Европа маданияти ютуқларини воҳага татбиқ этиш билан шуғулланишга ҳаракат қилади. Сафо Муғанний хонлик ағдарилиши билан тараққийпарвар инсон сифатида "Ёш хиваликлар"ни қўллаб-қувватлаб, жадидларнинг ушбу партиясига аъзо ҳам бўлиб кирганди.

Афсуски, Сафо Муғанний 1937 йилда "халқ душмани " сифатида қамоққа олинади ва 1938 йилда 10 йилга МТЛ (меҳнат тузатув лагери)га сургун қилинади. Дастлаб Ўзбекистондаги Малик совхозида, кейин эса 1941 йил 20 февраль санаси билан ишга тикилган маълумотномада, Ярославль вилояти, Рибин тумани, Волжский МТЛда ҳукмни ўтаган ва вафот этган. Сафо Муғанний ҳаёти, фаолиятигина эмас, адабий мероси ҳам махсус тадқиқотни талаб қилади.

Комил Девоний, Сафо Муғаннийларнинг ижоди, хусусан уларнинг "Ёш хиваликлар" партиясидаги фаолияти, жадидчилик ғоялари асосидаги асарларини тадқиқ қилиш, адабиётшунослар олдидаги долзарб вазифа бўлиб турибди.

Тарихдаги реал вазиятдан келиб чиқилса, жадид адабиёти, хусусан драматургиясини Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийсиз тасаввур қилиш қийин. Эътиборли томони Хоразмда Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий томонидан яратилган саҳна асарлари воҳадаги театр, драматургиянинг асоси ҳисобланади.

Маълумки, 1921 йил ноябридан Ҳамза Хоразм республикасидаги касаба уюшмалари ташкилотида ишлаш билан бирга, кўплаб драмалар яратди ва уларда жадидчилик ғоялари ўз ифодасини топган. 1922 йил 2 мартда Хива шаҳрида театрга асос солди ва ўзи кўплаб драмаларни режиссёр сифатида саҳналаштирди, айримларида ролларни ҳам ижро қилди. Тожизода, Машариф Полвонов, Умар Қурбоний ва бошқа саънаткорларни театр атрофига жипслаштирди. Ҳамзанинг бевосита Хоразмда яратилган "Хоразм инқилобининг учинчи лойиҳаси" номли тўрт пардали, етти кўринишдан иборат пьесасини "Хон зулми" деб ҳам атади.

Профессор Лазиз Қаюмовнинг "Ҳамза" (Тошкент-1989) ҳамда Олланазар Собировнинг "Хоразм театри" (Тошкент-1991 йил) монографияларидаги таҳлилларга кўра, "бундан ташқари Ҳамза яна ўз асарлари асосида саҳналаштирган "Бой ила хизматчи", "Туҳматчилар жазоси", "Заҳарли ҳаёт", "Фарғона фожиалари" асарларинигина эмас, Ғулом Зафарийнинг "Эрк болалари"ни ҳам Хива театрида намойиш этган драматург, режиссёр эди. Ҳамза саҳналаштирилган пьесаларини фақат Хивадагина эмас, Хоразм воҳасининг турли ҳудудларида ҳам намойиш қилиб борган" ижодкор бўлган.

"Ўзбек жадид адабиётининг намояндаларидан бири ва 1910-13 йилларда Хоразмда фаолият кўрсатган педагог, шоир Муҳаммадшариф Сўфизода бўлиб, ўзбек демократик ва маърифатпарварлик даври адабиёти анъаналарини давом эттирган ижодкор эди. У уч йил давомида Хоразмдаги жадид мактабида фаолият кўрсатибгина қолмай, жадидлар ғоясини акс эттирган адабий асарлар яратган ва ўз давридаги адабий муҳитнинг фаол ижодкори эди"[3].

Сўфизода ҳаёти, фаолияти, ижодий мероси гарчи истиқлол йилларида тадқиқ ва тарғиб қилинаётган бўлса-да, унинг Хоразмдаги уч йиллик педагоглик, шоирлик фаолияти, яратган асарлари ҳануз тўлиқ тадқиқ қилинмай келинмоқда.

Умуман олганда, Хоразм жадид адабиёти, унинг ўзига хос хусусиятлари, бошқа ҳудуддаги адабий жараёнлардан фарқли ва ўхшаш жиҳатлари, яратилган асарлар, жанрлари, улардаги ғоя, ижодкорларнинг фаолияти, адабий портретлари фундаментал тадқиқ қилинишини кутиб турибдики, бу адабиётшунослар зиммасидаги масъулиятли вазифалардан бири ҳисобланади. Агарки, "Жадид адабиёти антологияси" нашрга тайёрланса, табиийки ушбу тадқиқотдан хоразмлик юқоридаги, изланишлар олиб борилса, яна бошқа жадид ижодкорлар ҳам адабий мероси киритилиши аниқ.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. У.Бекмуҳаммад. "Таржимон"нинг Хоразмдаги мухбирлари, "Жадид" газетаси, 2024 йил 25 октябрь.

2. У.Бекмуҳаммад, С.Самандар. Бобоохун Салимов – жадид, давлат арбоби ва шоир. Milleniumus print нашриёти, Урганч – 2024йил, 35бет.

3. С.Самандар, У.Бекмуҳаммад. Хоразм жадид намояндалари, ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси. Milleniumus print нашриёти, Урганч – 2024, 124 бет..

ISLOMXO‘JA ISLOHOTLARINING XIVA XONLIGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Umida Tajiyeva,
UrDU akademik litseyi katta o‘qituvchisi,
PhD, Urganch, O‘zbekiston
E-mail: umidatojieva17@gmail.com
Kamronbek Davlatov,
Xalqaro Munosabatlar va Siyosat Maktabi magistranti,
ECNU, Shanxay, Xitoy
E-mail: kamronbekdavlatov1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshidada Xiva xonligida bosh vazir sifatida faoliyat yuritgan Islomxo‘janing islohotlari va uning xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan Islomxo‘ja tomonidan ilgari surilgan 10 banddan iborat islohotlar dasturiga asosan davlat boshqaruvi, soliq tizimi, yer-suv masalalari, tibbiyot, ta’lim va aloqa xizmatlarida amalga oshirilgan o‘zgarishlar keng yoritilgan. Maxsus komissiyalar orqali yuritilgan hisob-kitob va qurilish ishlari, shu jumladan, irrigatsiya tizimining yaxshilanishi Xorazmdagi qishloq xo‘jaligi rivoji sari tashalgan muhim qadamlar ekanligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Islomxo‘ja, islohotlar, irrigatsiya, soliq tizimi, qishloq xo‘jaligi, ocharchilik, yer-suv masalalari, ta’lim, tarixiy manbalar.

Аннотатsiя: В данной статье анализируются реформы Исламходжи, который в начале XX века занимал пост премьер-министра Хивинского ханства, а также его роль в социально-экономической жизни ханства. Авторы подробно освещают изменения, реализованные в государственных структурах, налоговой системе, земельно-водных вопросах, здравоохранении, образовании и сфере связи на основе программы реформ, предложенной Исламходжей, состоящей из 10 пунктов. Отмечается, что бухгалтерский учет и строительные работы, проведенные специальными комиссиями, включая улучшение ирригatsионной системы, стали важными шагами в развитии сельского хозяйства в Хорезме.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Исламходжа, реформы, ирригatsiя, налоговая система, сельское хозяйство, голод, земельно-водные вопросы, образование, исторические источники.

Abstract: This article analyzes the reforms of Islamkhoja, who served as Prime Minister of the Khiva Khanate in the early 20th century, and his role in the socio-economic life of the khanate. The authors provide a detailed overview of the changes implemented in state administration, the tax system, land and water management, healthcare, education, and communication services based on the ten-point reform program proposed by Islamkhoja. It is noted that accounting and construction activities carried out through special commissions, including the improvement of the irrigation system, were significant steps toward the development of agriculture in Khorezm.

Keywords: Khiva Khanate, Islamkhoja, reforms, irrigation, tax system, agriculture, famine, land and water issues, education, historical sources.

KIRISH.

XIX asr o‘rtalarida xonlikda yuzaga kelgan ichki va tashqi muammolar – mamlakatning jahon voqeliklari, taraqqiyotidan orqada qolganligi oqibatida Xiva xonligi Rossiya imperiyasi protektoratiga aylandi (1873). Bu hodisa Xiva hukmdorlarining haq-huquqlarini cheklab qo‘ydi. Davlat mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosat yurgizish huquqidan mahrum bo‘ldi. Ammo mustamlaka davrida ham xon Muhammad Rahim II, bosh vazir Islomxo‘ja kabi davlat arboblari mamlakat hayotida siyosiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qila oldilarki, mamlakat XX asr boshlariga kelib muhim o‘zgarishlarga yuz tutdi. Bu islohotlar davlat markazi Xiva shahridan turib amalga oshirildi. Ular o‘z navbatida poytaxt shahar mavqeini yanada oshirdi.

Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng mamlakat va poytaxt shahar boshqaruvida ayrim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, XX asr boshlarida mehtar va qushbegi lavozimlari bekor qilinib, o‘rniga “Vaziri akbar” lavozimi ta’sis qilindi. 1901-yil Matmurod (Muhammad Murod) devonbegining vafotidan keyin uning vazifasi Bosh vazir – Vaziri Akbar Islomxo‘jaga o‘tdi. O‘troq aholini boshqarish nazorati bosh vazir, ko‘chmanchi aholini boshqaruv nazorati doimgiday urug‘ boshliqlari qo‘lida qoldi.

Rossiya o‘z mustamlakasi Xivada iqtisodiy munosabatlarning o‘sishidan manfaatdor edi. Aynan shu sababdan ham bu masala Turkiston general-gubernatorligi Kengashida muhokama qilinadi. Kengash qaroriga ko‘ra mamlakatda islohot dasturini tuzish Xiva xoniga topshiriladi. Asfandiyorxon bu topshiriqni Vaziri Akbar Islomxo‘jaga topshirdi.

TADQIQOT NATIJALARI.

1911-yil 23-yanvarda Devonlar Kengashi tasdig‘iga berilgan Bosh vazir (Vaziri Akbar) Islomxo‘janing islohot dasturida xonlik hayoti uchun ehtiyoj bo‘lgan 10 ta tadbir belgilandi[1]. Bu islohotlar dasturi quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash.
2. Dehqonlardan olinadigan soliqni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni uch tabaqaga ajratish.
3. Zakot, boj, xiroj kabilarni tartibga solish.
4. Aholidan savdo-sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish.
5. Yerlarni sug‘orish ishlarini tartibga solish.
6. Yo‘llar, temir ko‘priklar qurish va pochta-telegraf xizmatini tashkil qilish.
7. Shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif etish.
8. Barcha vaqf yerlarini markazlashtirish va daromadlarini maorif ishlariga sarflash.
9. Barcha maktablarda yangicha o‘qitish usuliga o‘tish, maktablar dasturiga rus tili, geografiya, tarix fanlarini majburiy qilib kiritish.
10. Xon xazinasi hisobini yuritish, kirim-chiqim kitoblarini olib borish[2].

Bosh vazir yuqoridagilar qatori hokimlarga o‘z davrida xonlik uchun muhim bo‘lgan 11 moddadan iborat ko‘rsatmalar beradi. Ularning ichida yer va suv masalalari ham o‘rin olgan edi:

“....Ikkilanchi, yerning va yer muvanatining tartibi ushbu vaqtda yerdan olinib turg‘on muvanatlarni nodurust olinadi va yerdin unub turg‘on foydasini nomuvofiq ko‘rib, Xiva xoni obod yerlardin olinib turg‘on muvanatlarni boshqa tartib bilan olmoqni ko‘p zarur ko‘radur. Toza aytilib turg‘on tartiblarni o‘rung‘a kelturmak uchun va ham yurt so‘rog‘idan bo‘laturg‘on chiqinlari uchun yurtga jalb bo‘lmasdek va ham shul chiqinlarg‘a yetkudek daromad olmoqni xohish etodur. Shul taraddud bilan ul zoti ravshan xon avlodlarining va ham ulamolarning yerlaridan olinaturg‘on muvanatlarni o‘z ixtiyorlari bilan ta’in etadur.

“...Beshlanchi, yer sug‘oroturg‘on suv to‘g‘risida. Obod bo‘lg‘on yerlarning suvini rivojli etmak va ham Xiva tufroqida ziyodati suv olmoqig‘a Xiva xoni ushbu yili ish bilaturg‘on odamlarni buyurub, ulug‘ arnalarni borlatdurub suvg‘a zarur bo‘lub turg‘on yerlarning xabarini bilib, katta-katta arnaning birisini bo‘lg‘onicha ziyoda yaxshi qozdurub, so‘ngg‘i yillari qaysi katta arnaning zarur ishi chiqsa, ul zoti munavvar ishlatmakg‘a xohish etodir va qozuv ishi to‘g‘risida Xiva yurtida tozadin tartib etilibdur”[3].

Islohot dasturida irrigatsiya qurilishiga ham katta etibor qaratildi. Endilikda xon oilasi va mirshablardan tashqari barcha tabaqalar irrigatsiya qurilishlarida har 10 tanob ekin maydoni hisobidan bir qazuvchi berib ishtirok etishlari shart edi[4]. Qazuvga jalb qilingan dehqonlarni hukmdorlar tomonidan boshqa shaxsiy xizmatlarda foydalanish qat’iyan taqiqlanadi. Jumaniyoz xojining xotirasida yozilishicha, Islomxo‘ja islohotlarining dastlabki ikki yilidayoq ulkan ishlar amalga oshirildi[5].

Islohotni amalga oshirish uchun joylarda tajribali kishilardan tuzilgan maxsus komissiyalar ish olib boradi. Bu ishga chetdan 60 ga yaqin mutaxassislar, yer o‘lchovchi tanobchilar, gidrotexniklar jalb qilinadi. Ular tomonidan 1911–1913- yillarda Yangi Urganch, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Pitnak, Xo‘jayli, Ko‘hna Urganch tumanlaridagi xo‘jaliklar va sug‘oriladigan ekin maydonlari hisobga olinadi. Shu mavzedagi yirik yer egalari Husaynbek, Shixnazarboy, Omongaldi, Sardorboy, Matvafo va Abdurahmon Boqqalovlarga va boshqa boylarga qarashli behisob ekin maydonlari hisobga olinadi hamda ularning yer mulklari soliqqa tortiladi[6].

---

[1] Саъдуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (Сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Т., 2005. – Б. 39.
[2] Xiva “Ichan-qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3687. Islomxo‘ja dasturi. Qo‘lyozma.
[3] Бобониёзов Жуманиёз ҳожи. 1783 йилдан 1910 йилгача Хоразм тарихига бир қараш // Ирзаев Б., Рахманова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – Т., “Akademnashr”, 2019. – Б. 157-158.
[4] Саъдуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (Сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Т., 2005. – Б. 45.
[5] Бобониёзов Жуманиёз ҳожи. 1783 йилдан 1910 йилгача Хоразм тарихига бир қараш ... – Б. 17-18.
[6] Погорелский И. Экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX и нач. XX вв. – Л., 1978. – С. 138-139.

1911-yilning bahor va kuzida xonlikning barcha bosh magistral va ichki kanallarida hamda daryo qirg‘og‘iga tutash ihota dambalarida tozalash va ta’mirlash ishlari sifatli qilib amalga oshirilgan. Zarurat bo‘lgan xollarda mustahkam to‘g‘onlar va ko‘priklar qurilgan. Shu yili qazuv va qochuv ishlarida 50 mingga yaqin qazuvchi dehqonlar ishtirok etganlar. Shovot, G‘ozovot, Qilichboy, Mang‘it arna kanallarida, Lavzan, Sovbat, Sipoyi yop, Shomurot ariqlarini tozalashda o‘zbek dehqonlari bilan bir qatorda 4 mingdan ortiq turkmanlar ham faol ishtirok etgan[1].

1910-yilning qish va bahor oylari Xorazm uchun og‘ir kelgan. Qish nihoyatda sovuq kelib yerning ustki qatlamlari muzlab qoladi, bahorda esa uzluksiz yog‘ingarchilik bo‘lib, buning oqibatida paxta, bug‘doy, jo‘xori va boshqa ekinlar nobud bo‘ladi, dehqonchilikdan yetarli hosil olinmaydi. Natijada xonlikning ko‘pchilik viloyatlarida qahatchilik yuzaga keladi. Xiva bozorida bir pud donning narxi 1 so‘m 80 t. dan 7 so‘mgacha yoki 5 barobargacha ko‘tarilib ketadi. “Ushbu yil Xorazmda ekinlar yomon bo‘ldi, darhol Rossiyadan bug‘doy keltirib fuqarolarga tarqatila boshlandi”, deb xabar beradi Polvonniyoz Hoji Yusupov[2].

Ana shunday og‘ir sharoitda bosh vazir Islomxo‘ja aholini ochlikdan saqlab qolish uchun 1911–1912-yillarda Rusiyaning Samara va Orenburg guberniyalaridan hamda Turkistonning ayrim joylaridan 30 ming puddan ziyod donni keltirib xalqqa tarqatgan[3]. Sug‘orish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi bilan 1911-yili yuz bergan qahatchilik ortda qoladi. 1912–1913-yilga kelib qishloq xo‘jaligida ko‘tarilish yuz beradi.

XULOSALAR.

Islomxo‘janing davlat boshqaruvida olib borgan islohotlari Xiva xonligining ichki tuzilmasini yangilab, aholi farovonligini oshirish maqsadidagi muhim qadamlardan bo‘ldi. Yer-suv munosabatlarining tartibga solinishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga yangicha qarashlar, shuningdek, ocharchilikka qarshi ko‘rilgan amaliy choralar uning siyosiy yetakchilik salohiyati va uzoqni ko‘ra oladigan islohotchi sifatidagi o‘rnini tasdiqlaydi. Bu islohotlar Xiva xonligining XX asr boshidagi murakkab tarixiy sharoitda barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishida katta rol o‘ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Саъдуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (Сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Т., 2005.
2.Tajiyeva U.R. Xiva xonligida tabiatdan foydalanish masalalari tarixiy jarayonlar kontekstida (XVIII – XX asr boshi). Tarix fanlari fals. Dok. Diss. Avtoreferati. Urganch, 2024.
3. Xiva “Ichan-qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3687. Islomxo‘ja dasturi. Qo‘lyozma.
4.Бобониёзов Жуманиёз ҳожи. 1783 йилдан 1910 йилгача Хоразм тарихига бир қараш // Ирзаев Б., Рахманова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – Т., “Akademnashr”, 2019.
5.Погорелский И. Экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX и нач. XX вв. – Л., 1978.
6.Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Т., 1959.
7.Полвонниёз ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч, 2000.
8.Садиқов А. Россия и Хивы в конце XIX нач. XX века. – Ташкент: “Фан”, 1971.

ХОРАЗМ ЖАДИДЛАРИ ФАОЛИЯТИДА АДАБИЁТ ВА САНЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ИШЛАРИ

Бекчанов Дониёр,
Маъмун-Университети,
“Тарих ” кафедраси
катта ўқитувчиси.
Кадамбаева Динора,
22.2 тарих гурухи талабаси.

Аннотатsiя. Ушбу мақолада Хоразм жадидлари ўзларининг ғояларини аҳоли орасида кенг тарқатиш мақсадида адабиёт ва санъатни ривожлантириш масалаларига эътибор бериб, уни амалга оширишга ҳаракат қилганликлари илмий адабиётлар орқали ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Муҳаммад Раҳимхон II, «Алифбе», мактаб, жадид театри, матбуот, Хоразм

[1] Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Т., 1959. – Б. 47.
[2] Полвонниёз ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч, 2000. – Б. 48.
[3] Садиқов А. Россия и Хивы в конце XIX нач. XX века. – Ташкент: “Фан”, 1971. – С. 156.

адабий муҳити, Комрон,Муродий, китобат санъати.

Аннотатsiя. В этой статье Хорезмские жадиды освещали вопросы развития литературы и искусства с целью широкого распространения их идей среди населения.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан II «, Алифбе», школа, театр джадид, пресса, Хорезмская литературная среда, Комрон, Муродий, книжное искусство.

Annotation. In this article, the Khorezm Jadids covered the development of literature and art in order to widely disseminate their ideas among the population.

Key words: Muhammad Rahimhan II, "Alifbe," school, jadid theater, press, Khorezm literary environment, Komron, Murodiy, book art.

Жадидлар халқ аҳоли орасида адабиёт ва санъатни ривожлантиришга эътибор беришган. Зеро, Президентимиз Шавкат Мирзиёев ўзининг адабиёт,санъат ва маданият ходимлари билан бўлган учрашувда: “.... Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк аждодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган улуғ тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз бор”1, - деб таъкидлаган эдилар. Шу нуқтаи назардан, Хоразм жадидлари ўзларининг ғояларини аҳоли орасида кенг тарқатиш мақсадида адабиёт ва санъатни ривожлантириш масалаларига эътибор бериб, уни амалга оширишга ҳаракат қилдилар. Айниқса Хива хонлигида театр санъатининг ривожланишига келадиган бўлсак, минтақада мустамлакачилар томонидан илгари ҳам спектакллар қўйилган, бироқ Россия империясида машҳур муаллифларнинг гастроль сафарлари уюЗштирилган бўлишига қарамай, маҳаллий аҳоли театр санъатининг моҳиятини тушунмас эди. Маҳаллий халқлар рус муаллифларининг спектакль ва томошаларини кўнгилочар вақт ўтказиш деб баҳоларди.

Ўзбек драма театрининг шаклланишига озарбайжон ва татар театр жамоалари ўтказган гастроллар катта таъсир ўтказди. 1911 йилдан 1916 йилгача Туркистонга С.Руҳулла, Ю.Наримонов сингари санъаткорлар етакчилигидаги Озарбайжон театри муваффақиятли гастроллар уюштирди. Театрларда катта ижтимоий ва ахлоқий масалаларни кўтарадиган, адолатсизлик, зулм, истибдодни фош қиладиган, томошабинларда норозилик ва эътироз туғдирадиган спектакллар намойиш этилди.

Фожеаларга олиб келаётган эски урф-одат ва анъаналар танқид остига олинар эди. Аёлларнинг оиладаги камситилган мақоми қораланар эди. Кўп хотинлилик, ҳисоб-китоб асосидаги никоҳ, эркакларнинг аёлларга нисбатан зулми танқид остига олинарди. Муаллифлар аёлларнинг поймол қилинган ҳаётлари ҳақида азоб билан гапирар эди. Шу тариқа, реалистик адабиёт жанрлари Туркистонда миллий театр шаклланишига омил бўлди.

Жадид театри, ўз навбатида, маҳаллий аҳолининг ўз драматурглари, актёрлари ва режиссёрлари пайдо бўлиши учун мактаб вазифасини ўтади, маҳаллий аҳоли орасида жадидларнинг маърифатпарварлик ғоялари тарқалишига кўмак берди.

Хоразмда адабий ҳаракат кўпроқ маърифатпарвар подшоҳ, «Феруз» тахаллуси билан шеърлар ёзган Муҳаммад Раҳимхон II атрофида ривож топди. Муҳаммад Раҳимхон Соний - Феруз (1844-1910) саройда адабий муҳит майдонга келтирди. 1864 йили 20 ёшида тахтга чиқиб, салкам 47 йил ҳукмронлик қилган бу хон, уни яқиндан билган кўпчилик тадқиқотчилар фикрича, Ўрта Осиё хонлари орасида энг ақллиси, энг зиёлиси эди. У «усули жадид»га йўл берди, руслар келмасдан анча илгари Хивага тошбосма олиб келди. Унинг топшириғи билан Аҳмад Табибий (1869-1911) «Маж-муатуш-шуаройи Ферузшоҳий» («Ферузшоҳ шоирлари антологияси»)ни тузади. 30 шоирнинг шеъридан намуна беради. Улар орасида Комил Хоразмий (1825-1899), Муҳаммадрасул Мирзо (1840-1922), Аваз Ўтар (1884-1919) каби хилма-хил кўлам ва қудратдаги шоирлар бор эди. Шоир ва тарихчи Баёний шоҳ ва шоир Феруз замонида кўплаб мадрасалар қурилганини, матбаачилик йўлга қўйилганини, китобхонлик авж олганини, хоннинг ўзи буларнинг барчасига бош-қош бўлганини ёзади.

Баёнийнинг «Шажарайи Хоразмшоҳий»сидан: «Хон ҳазратлари ҳафтада икки кун: жума ва душанба оқшомларида уламо билан суҳбат тузуб, китобхонлиқ этдурур эрдилар. Андоғким, Юсуфҳожи охунд ва Исмоилхўжа охунд ва Худойберган охунд ва олиму улум маъқул ва манқулда Мулло Муҳаммадрасул ва фақири ҳақир мажлиси ҳумоюнлариға ҳафтада икки

[1] Мирзиёев М.Адабиёт ва санъат,маданиятни ривожлантириш-ҳалқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2017 йил 4 август.

мартаба ҳозир бўлуб, китобхонлиқ этар эрдук. Гоҳо домла Муҳаммадрасул била икковимиз кириб, суҳбати ҳумоюнларида китобхонлиқ бўлур эрди ва сипоҳийлар ва тўраларни ҳам китобхонлиқ этарга тарғиб этар эрдилар. Бас, ҳамма китобхон бўлдилар»1.

Шоирликнинг ҳавоси ҳам, мақоми ҳам баланд эди. Хоннинг атрофидаги амалдорларидан, ака-ука қариндошларигача шеър ёзар эдилар. Баёний уларни номма-ном келтирган. Масалан, Отажон тўранинг «Комрон», туғишган укаси Тўрамурод тўра (1855-1908)нинг «Муродий» тахаллуси билан шеърлар ёзганини маълум қилади. Феруз ташаббуси билан Хоразм таржима мактаби майдонга келди.

Мутахассисларнинг аниқлашича, XIX асрнинг ўрталарида Хивада саксондан кўпроқ киши таржимонлик билан мунтазам шуғулланган, ҳамда 120 та асар таржима қилинган. Айримлари иккитадан беш мартагача ўзбекчага ўгирилган. Уларнинг аксарияти форс-тожик тилидан таржима қилинган. Бу асарлар жанрларига кўра ҳам хилма хил эди. Улар орасида бадиий-дидактик асарлар, ишқий-саргузашт қиссалар катта ўрин эгаллаган эди. Таржимонлар орасида эса Огаҳий, Комил, Баёний, Табибий каби маълум ва машҳур номлар билан бир қаторда Муҳаммадрасул Мирзо, Саноий, Рожий, Толибхўжа, Рафеъ, Ҳабибий, Мағфурхўжа каби кўпчиликка унча таниш бўлмаганлари ҳам бор эди2.

Табиийки, уларнинг меҳнат ва санъат даражалари ҳам турлича эди. Огаҳий йигирмадан ортиқ асарни форс тилидан ўзбекчага ўгирди. XIX асрнинг 2-ярми - XX аср бошларида эса бу анъанани Табибий ва Баёний давом эттирдилар. Баёний «Тарихи Табарий» каби насрий асарлар қаторида Камолилдин Биноийнинг «Шайбонийнома» сингари маснавийда ёзилган тарихий-бадиий асарларига ҳам қўл урди. Мавлоно Дарвеш Аҳмаднинг араб тилидаги «Саҳойифул-ахбор» («Хабарлардан саҳифалар», 1-2-жилдлари) номли тарих китобини маҳорат билан таржима қилди. Атоуллоҳ ибн Фазлуллоҳ Ҳусайнийнинг «Равзатул-аҳбоб»и («Дўстлар боғи») ўзбекча таржимасини таҳрир этди. Комил Хоразмий XVIII асрда яшаган Бархурдор Мумтознинг «Маҳбубул-қулуб» («Кўнгулларнинг севгани»), Фахриддин Али Сафийнинг «Латойифут-тавойиф» («Турли тоифаларнинг латифалари») сингари ихчам насрий ҳикоя ва латифалар тўпламларини ўзбекчалаштирди.

Бу даврда бой анъанага эга мусиқа ҳам ривож топди. “Танбур нотаси” Комил Хоразмий томонидан кашф қилинди. Шеър ва мусиқа ҳамкорлиги кучайди. Феруз Хоразм шашмақомини тараққий топтиришда катта хизмат қилди. Хоннинг амри билан шоир Аҳмад Табибий томонидан 1908 йили яратилган «Мажмуатуш-шуаро» («Шоирлар тўплами») шеърий (маснавий йўлида) бўлиб, 1638 саҳифадан иборат эди. Қўқон хони Амир Умархоннинг 1821 йилда туздирган «Мажмуаи шоирон»ини эсга туширувчи бу китоб «Мажмуатуш-шуаройи Ферузшоҳий» номи билан танилди. Ундаги матнларнинг аксарияти ўзбек тилида эди. Хивадаги иккинчи тазкира XX асрнинг 20-йилларида тузилди. Унинг муаллифи Ҳожимурод Лаффасий (1880-1945) бўлиб, «Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари» асарида хоразмлик 51 шоир ҳақида маълумот беради.

Хоразмда кўзга кўринган яна бир тарихчи ва таржимон Муҳаммад Юсуф Баёний (1840-1923) дир. Хиванинг 1804-1806 йиллардаги хони Элтузархоннинг чевараси ҳисобланади. Отаси Бобожонбек замонасининг таниқли зиёлиларидан бўлган. Муҳаммад Юсуф ёшлигидан юксак тарбия топди, шеърга, илмга, мусиқага кўнгил қўйди. Истеъдодли шоир, муаррих, мутаржим, муғанний ва мусиқа билимдони бўлиб етишди. Замондошлари Аҳмад Табибий, Лаффасий ўз тазкираларида унинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида атрофлича маълумот берадилар. Унинг шахсини ҳам, истеъдодини ҳам юксак баҳолайдилар. Баёнийдан бир шеърий девон, «Шажарайи Хоразмшоҳий» ва «Хоразм тарихи» китоблари ҳамда юқорида номлари зикр этилган 4 таржима асари қолган. Девони XIX асрнинг 60- йилларидан 1905 йилгача бўлган шеърларини қамраб олади. Тарих асарларининг катта қисмини Баёнийнинг ўзи гувоҳ бўлган воқеалар ташкил қилади. Хусусан, «Шажарайи Хоразмшоҳий» даги рус босқини воқеалари тасвири юксак ватанпарварлик руҳи билан суғорилган. Шоирнинг 1905-1923 йилларда ёзган шеърий асарлари намуналари ўша давр вақтли матбуотида учрайди.

Баёний ҳақида XX асрнинг 60-йилларидан тадқиқотлар пайдо бўла бошлади. 1962 йили С.Ғаниева ва Ҳ.Мухторова «Ғазаллар» номи билан бир даста шеърларини эълон қилдилар.

[1] Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий, 257-бет.
[2] www.ziyouz.com кутубхонаси. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.

И.Адизова 1990 йили унинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида номзодлик диссертатsiяси ёқлади ва у 1995 йили рисола ҳолида босилиб чиқди. Бир йил олдин эса ушбу муаллифларнинг ташаббуси билан «Шажарайи Хоразмшоҳий»нинг қисқартирилган ихчам нашри амалга оширилган эди1.

Хоразм жадидларининг йирик вакилларидан бири Бобоохун Салимов маъсулиятли вазифаларда ишлаб туриб ўзи ҳам мактаблар учун «Алифбе» ва «Ўқиш» китобини яратди. Мулла Бекчон Раҳмонов билан ҳамкорликда ўқув қўлланмалари ёзди. Унинг «Мактаб» сарлавҳали шеъри халқ маорифи учун сидқидилдан ишлаган жонкуярнинг аниқ қиёфасини кўрсатади:

Хушдур не бало ҳавойи мактаб,
Жон ўлса раво фидойи мактаб.
Мактаб демаки мадори илмдир,
То илм иладур бақойи мактаб,
Хоразм элин айлагай мунаввар,
Нури қамари саймойи мактаб,
Мингдан бирини тугатмас Ожиз
Юз йил деса ҳам санойи мактаб.

Кўриниб турибдики, Хоразм жадидлари таълим, адабиёт ва санъатни ривожлантириш орқали ўзларининг ижтимоий-сиёсий ғояларини кенг тарқатишга, жамиятдаги барча аҳоли қатламларини бирлаштиришга, демократик ислоҳотларни амалга оширишга интилганлар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Мирзиёев М.Адабиёт ва санъат,маданиятни ривожлантириш-ҳалқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2017 йил 4 август.
2.М.Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий.
3.Полвонниёз Хожи Юсупов. «Ёш хиваликлар» тарихи (“Эсдаликлар”). - Урганч, 2000-й.
4. Бегали Қосимов ва бошқ., Миллий Уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, «Маънавият», 2004.
5.www.ziyouz.com кутубхонаси. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.

XIVA XONLIGIDA YANGI-USUL MAKTABLARINI TASHKIL TOPISHI VA UNING AHMIYATI

Yuldashev Yuldash Ma’mun universiteti
“Tarix kafedrasi” v.b. dosenti.

Annotatsiya*:* Ushb u maqolada Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilinishi va tashkilotchilar, ularning foliyati haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar : yangi usul, rus-tuzem, maktab,t a’lim, pedago‘gik kadrlar, Kirm, Xiva,Yangi Urganch.

THE ESTABLISHMENT OF NEW-STYLE SCHOOLS IN THE KHIVA KHANATE AND ITS SIGNIFICANCE

Abstract: This article provides detailed information about the establishment of new-style schools in the Khiva Khanate, the organizers, and their role.

Keywords: new style, Russian system, school, education, pedagogical staff, Crimea, Khiva, New Urgench.

СОЗДАНИЕ ШКОЛ НОВОГО ОБРАЗЦА В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотатsiя: В статье дается подробная информатsiя о создании новых методических школ в Хивинском ханстве, организаторах и их роли.

[1] Бегали Қосимов ва бошқ., Миллий Уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, «Маънавият», 2004.

Ключевые слова: новый метод, русская система, школа, образование, педагогические кадры, Крым, Хива, Новый Ургенч.

KIRISH: Jahon sivilizatsiyasining ko‘hna beshiklaridan bo‘lgan O‘zbekiston zamini dunyoga Muhammad al-Xorazmiy va Abu Rayxon Beruniy, Maxmud Zamaxshariy va Najmiddin Kubro, Paxlavon Maxmud va Ogahiy singari buyuk zotlarni bergan. Ayniqsa, XI asr boshida shu zaminda “Majlisi ulamo” nomi bilan mashxur bulgan Sharqning qadimiy ilmiy markazini vujudga kelganligi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida katta voqea bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalariga to‘xtalib: “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz”, – deya ta’kidlagandi [Mirziyoyev Sh., 2021].

Shuningdek 19-asr oxiri 20-boshlaridagi Turkistonda jumladan Xiva xonligdagi jadidchlik xarakati namayondalari ham mamlakatimiz ravnaqiga o‘zlarinig fikir va muloxazalari bilan katta hissa kushganlar.Ular mamlakat kelajagi bo‘lgan yoshlarni ta’lim va tarbiyasiga aloxida e’tibor berganlar.

Insonning kamolotga etishishida oiladagi tarbiyaning, mahalla, jamiyatdagi muhitning va tabiiyki, maktabning roli kattadir. Shu boisdan ham millatning ma’nan barkamolligini, Vatanning taraqqiyotini maqsad qilgan jamiyatlarda ta’limga katta e’tibor berilgan va bu jarayonda doimo yangiliklar tatbiq etilgan.1884 yilda Qrimda ta’lim sohasidagi yangilik sifatida boshlangan jadid yaniy yangi usul maktablari o’z davrining eng taraqqiyparvarlik namunasi tarzida turkiy musulmon xalqlari orasida tezda amaliyotga joriy qilindi. Yangi usul maktablari, pedagoglari va ushbu maktablar uchun yezilgan darsliklar xam yaratildi.. Aynan Xiva xonligida ham yangi usul maktablari 1898 yilda ilk bora tashkil etiladi va bu jarayon qadimiy vohadagi o’zgarishlarni boshlab beradi. Maktabdan boshlangan islohot butun jamiyatni qamrab oladi.

TAHLILI VA METOD . Mavzuni yoritishda asosan Ismoil Gaspralining asarlari, jadidshunos professor Begali Qosimov, Zaynobiddin Abdurashidov monografiyalari, shuningdek “Tarjimon” gazetasining 1883 yildan to 1916 yilgacha bo’lgan sonlari yoritilgan bibliografiyadan foydalanildi. Ushbu manbalarni bir-biriga taqqoslagan holda, qolaversa tarixiy jarayonlardan kelib chiqib haqqoniy, xolis xulosalarga kelindi.

MUHOKAMA. Jadid maktabi deya ataladigan va o’sha davrdagi turkiy musulmon xalqlar hayotida tamaddun tomon boshlangan ta’lim tizimiga Ismoil Gasprali 1884 yilda asos solgan edi. Bu haqda u “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo’ldosh“ asarida “1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktabni usuli jadidga qo’ymish edim, samarasi umidimdan ziyoda o’ldi. Bir qoch (qancha) maktablar usulimni qabul ila isloh o’ldilar. Soir (ko’p) viloyatlardan usul ko’rmiya (ko’rmakka) kelubkedanlar o’lub, bu soyada har tarafdan ikki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar. Ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir”, deya yozgandi [2]. Shu tariqa Qrimdan boshlangan yangicha usuldagi ta’lim tizimi tez orada turkiy musulmon xalqlar orasida tarqaldi. Ta’limda ana shunday jarayonlar ketayotgan vaziyatda Qrimdan boshlangan yangi usul maktabi Xorazmda ham yuzaga keldi va bu tabiiy ehtiyoj edi. Negaki, taraqqiyot sari qo’yiladigan dadil, dastlabki qadamlar ta’limdan, maktabdan boshlanishini bu davrga kelib ilg’or fikrli Xorazmlik taraqqiyparvarlar anglab etishgandi. Shu bois ham Xorazmda jadid maktablari aynan o’sha davrdagi hukmdor Feruzxon (1844-1910), valiahd Asfandiyor (1872-1918) va bosh vazir Islomxo’ja (1872-1913), saroy amaldori Mamat mahramlarning tashabbuslari va mablag’lari asosida tashkil etila boshlagan. Pedagogika fanlari doktori Ulug’bek Dolimov 2008 yilda yoqlagan “Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyoti o’qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari” mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferatida” 1891 yildayoq ulug’ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o’rtasida katta e’tibor qozondi,unda dastlab 25 o’quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda jug’rofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili o’quv predmeti sifatida o’qitildi. Qozondan maxsus o’qituvchi chaqirilib, dars jadvali tuzildi, har bir dars 50 minut bo’lib, 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni hatto Muhammad Rahimxon Feruz kelib ko’rdi, o’g’li Asfandiyorni shu maktabga o’qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o’quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag’ ajratdi”[3]. Bizningcha, Ulug’bek Dolimov qayd etgan sana 1891 yil emas, 1898 yil ekanligi aniq. Negaki “Tarjimon” gazetasining 1891 yildagi sonlarida Ismoil Gasprali

Xorazmda jadid maktablari tashkil etilgani haqida biron xabar chop etmagan. Negaki Ismoil Gasprali nafaqat Xorazm, balki O'rta Osiyo, turkiy musulmon xalqlar yashaydigan hududlardagi barcha jarayonlarni, xususan ta'lim sohasini, jadid maktablarining tashkil etilishi, ulardagi voqeliklarga e'tibor qaratib borgan.[4]

XULOSA. Shu tariqa 1898 yilda Xivada birinchi jadid maktabiga asos solingan bo'lsa, vaqt o'tib hukmdor, amaldorlar va boshqa sohadagi taraqqiyparvarlarning qo'llabquvvatlashi bilan maktablar soni ko'paya boshladi. Qisqa vaqt ichida Xiva, Yangi Urganch shaharlaridan tashqari boshqa bekliklarda ham jadid maktablari soni tashkil etiladi. Agarki 15 yillik davrni, ya'ni jadid maktablarining tashkil etilish, shakllanish davrini oladigan bo'lsak, bu vaqt oralig'ida 25 ta jadid maktabi faoliyat olib borganini ko'rish mumkin. Ya'ni, rus-tuzem, eski maktablarning raqobatiga bardosh bergan, ulardan ta'lim sifati yuksalgan va keng ommani jalb qilgan holda jadid maktablari jamiyatda o'z o'rnini topdi. Vaqt o'tib uning Bekjon Rahmon singari o'quvchilari Istanbul, Olimjon Qodiriy, Maryam Sultonmurodova singari intiluvchilari esa Germaniyada, yana ko'plari Moskva, Qozon, Toshkent shaharlarida tahsil olish darajasiga erishdilar. Tabiiyki, bu ko'rsatkichlar, ushbu va shu singari jadid maktablari o'quvchilarining keyingi davrda respublikaga taniqli olim, ijodkor, rahbar kadrlar bo'lib etishgani, maktab tashkilotchilarining orzulari amalga oshganini ko'rsatadi.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // Yangi O'zbekiston gazetasi, 2021-yil 17-avgust.

2. I.Gasprali. Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh. Simferopolь, 1898 yil, 4-bet.

3. U.Dolimov. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyoti o'qitishning ilmiynazariy hamda amaliy asoslari. Toshkent, 2008 yil. Avtoreferat, 24-bet.

4. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad. Xorazm jadidchiligi, islohotlar, ta'lim va adabiyot. Milleniumus print nashriyoti. Urganch, 2024 yil, 36-bet.

5. I.Gasprali. // Tarjimon gazetasi. Marhum Sayyid Islomxo'ja maqolasi. 1913 yil №187.

6. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad. Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi. Milleniumus print nashriyoti. Urganch, 2024 yil, 48-bet.

XORAZMDA JADIDCHILIK VA MUHAMMAD RAHIMXON II (FERUZ) ISLOHOTLARI

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich,
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
E-mail.allaberganov_ollabergan@mail.ru
https://orcid.org/0009-0002-8596-0926

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligi madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Chunki bu davrda Rossiya mustamlakasi ostiga tushib qolgan Xiva xonligining tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalari cheklangan bo'lib, faqat Rossiya orqali amalga oshirilishi belgilangan edi. Bunday tarixiy vaziyat, albatta, madaniy muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shunga qaramay, mustamlaka sharoitida Xiva xonligida tashabbuskor hukmdor islohotlari natijasida madaniy hayotda tiklanish va rivojlanish jarayonlari boshlandi. Ilgari vayron bo'lib ketgan binolar qayta tiklandi, yangi sug'orish inshootlari, karvonsaroylar, masjid va madrasalar barpo etildi. Bu davrdagi madaniy hayotning rivoji bevosita Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1864–1910) faoliyati bilan bog'liq. Sharqshunos olim V.V. Bartold uni bejizga "buyuk ma'rifatparvar" deb baholamagan[1]. U nafaqat madaniyat homiysi sifatida tanilgan, balki "Feruz" taxallusi ostida she'rlar yozgan va o'z devoniga ega shoir bo'lgan. Muhammad Rahimxon II an'anaviylikka sodiq bo'lishiga qaramasdan, yangilik tarafdori ham edi.

Bu davrda Turkiston, Buxoro va Xiva hududida jadidchilik harakati keng yoyildi. Harakatning asosiy maqsadi chor Rossiyasi mustamlakachilik zulmidan qutulish, milliy davlatchilikni tiklash, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga erishish, xalqqa ma'rifat tarqatish edi. Jadidchilik harakati o'z oldiga Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlarni amalga oshirish, pirovardida esa milliy mustaqillik g'oyasini tatbiq etishni maqsad qilgan edi.

Jadidchilik milliy-demokratik harakat bo‘lib, mohiyati nuqtayi-nazaridan uning shakllanishi va mag‘lubiyatga uchrashi bosqichlariga ko‘ra shartli ravishda to‘rt davrga bo‘linadi.:

1.1895-1905-yillar;

2. 1906-1916-yillar;

3. 1917-1920-yillar;

4. 1921—1929-yillar[2].

Xorazmda aniqrog‘i Xiva xonligida ham jadidchilik harakatlari yuqoridagi to‘rta bosqichni chetlab o‘tmadi. Xiva xonligida endigina shakllanish bosqichida bo‘lgan jadidchilik harakati Ismoilbek Gaspralining Qrimdan boshlangan jadidchilik g‘oyalari kirib kelishi bilan mustahkamlandi. Tabiiyki, Feruzxon ma’rifatparvar inson bo‘lganidan Gasprali g‘oyalarini qo‘llab quvvatladi. Ismoilbek G‘asprali turkiy dunyoda yangi usul maktablarini tashkil etish bo‘yicha o‘z harakatlarini ilgari surgan bo‘lib, birinchi navbatda o‘lkadagi maktab va madrasalarni tubdan isloh qilishga harakat qilgan. Unda milliy maktablarda o‘qitish tartiblarini soddalashtirish, olti yilda ibtidoiy maktabda beriladigan bilim, xat-savod o‘rgatishni ikki yilda amalga oshirish va shu yo‘l bilan iqtisod qilingan uch-to‘rt yilni musulmonlar turmush sharoitini yaxshilashga sarflash masalasini qo‘yadi. Buning uchun Jadid maktablarini tashkil etish, ularga zarur shart-sharoit yaratib berish, o‘qituvchilarni Qozon, Qrim, Orenburgdan taklif etish kerak edi.

Xorazmda XIX asr oxiriga kelib millat ziyolilari ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, davlatni tanazzuldan chiqish, harbiy va davlat qudratini tiklashda muhim omil deb bildilar. Muhammad Rahimxon II ham xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish maqsadida 1885-yildayoq Rossiya orqali Yevropaga sayohat qilishni rejalashtirgan edi. 1891-yil avgustida esa uning tashabbusi bilan Xivada rus-tuzem maktabi tashkil etildi. Maktabga Toshkentda o‘qituvchilar seminariyasini tamomlagan Husayin Ibrohimov taklif qilindi. Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida kitobat ishlari rivojlantirildi. Devonlar tuzildi, tarixiy asarlar yozildi, tarjima ishlari yo‘lga qo‘yildi[3].

Muhammad Rahimxon II farmoniga muvofiq 1904-yil 10-noyabrda Urganchda dastlabki yangi usul maktabi tashkil qilinib, unda Istambuldan kelgan Husayin Qo‘shayev degan o‘qituvchi yoshlarga ta’lim bergan. Qisqa vaqtda o‘quvchilar soni 55 taga yetgan. Husayin Qo‘shayev tashabbusi bilan 1906-1907 o‘quv yilida ilg‘or ma’rifatparvar kishilar va oqsoqollar istak va yordamlari bilan Urganchda qizlar maktabi faoliyati boshlangan. Muhammad Rahimxon II Urganchga borib, maktab ishi bilan tanishib, Husayin Qo‘shayevga sarupo kiygazgan, xazina hisobidan yordam ajratgan[4].

1908-yil dekabrida Orenburgdan Muhammad Rifo karvonboshi bilan Abdurahmon afandi degan o‘qituvchi Xivaga keladi. Muhammad Rahimxon II ruxsati bilan ularga Yangi Urganch shahrida jadid maktabi ochishga ruxsat beriladi. Yangi Urganchdagi jadid maktabiga yana Qozon shahridan ikki nafar Yusuf va Husayin afandi ismli o‘qituvchilar ham taklif qilinib, faoliyat boshlab yuborishadi[5]. Bu maktabning ish faoliyati Muhammad Rahimxon II tamonidan qo‘llab quvatlanadi.

Marifatparvar hukumdor Muhammad Rahimxon II davrida Xiva xonligida O‘rta Osiyoda birinchilardan bo‘lib, toshbosma tashkil etib, kitob chop etishni ham yo‘lga qo‘ygan[6][1]. Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiya savdogarlari orqali Xorazmga xorijdan noyob kitoblar keltirgan va ularni ko‘p nusxalarda ko‘chirtirgan, tarix va adabiyotga oid kitoblardan iborat boy kutubxona yaratgan. Shuningdek xonlikni ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlantirish maqsadida Xudoybergan Devonovning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaganligi[7] uni jamiyat rivoji uchun yangi texnologiyalarni joriy etishga intilgan hukmdor ekanini ko‘rsatadi.

Bu davrda xonlikda Xudoybergan Devonovning faoliyati avom kishilar va mutassib ruhoniylarning nazdida “Shayton suratchi”, “Afsungar kinochi”[8] deya qoralanganligiga qaramasdan hukumdor Muhammad Rahimxon II unga xayrixoxlik bildirib faoliyatini ma’qulladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rahimxon II (Feruz) hukmronligi davri Xiva xonligi uchun siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab davr bo‘lgan. Bir tomondan rus mustamlakachiligi tahdidi, ikkinchi tomondan esa Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi o‘zaro nizolar bu davrni alg‘ov-dalg‘ov holatga keltirgan. Shunga qaramay, Feruz davrida madaniyat, ilm-fan va san’at sohalarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, ta’lim sohasida ilg‘or fikrli ziyolilar faoliyatiga e’tibor qaratilgani bu davrda madaniy taraqqiyotga katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi. Bu esa siyosiy vaziyat og‘ir bo‘lganiga qaramay, Muhammad Rahimxon II (Feruz) ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishga intilgan dono va ziyrak hukmdor bo‘lganini anglatadi.

[1]Садриддин Салим Бухорий. Буюк Хоразмийлар. –Т.: ,Ёзувчи, 1994 www.ziyouz.com кутубхонаси 8-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:
1. Гулсара Исмоилова. Муҳаммад Раҳимхон Феруз Элга шоҳу ишққа қул. – Т.: Ғофур Ғулом,1994. 3 бет
2. Qurbonnazarova Sh. Z. Xivadagi jadidchilik maktablarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. Science and innovation in the education system, International scientific-online conference. Том 3 № 1 (2024). 19-21-betlar
3. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. – Хоразм. “Milleniumus print, 2024. 108-109 бетлар
4. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши. – Урганч, “Milleniumus print”, 2025. 32 бет
5. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. – Хоразм. “Milleniumus print, 2024. 110 бет
6.Садриддин Салим Бухорий. Буюк Хоразмийлар. –Т.: ,Ёзувчи, 1994. www.ziyouz.com кутубхонаси. 8 бет
7. М.Маткаримов, С. Маткаримова, Умид Бекмуҳаммад. “Ёш хиваликлар” нинг республика давридаги фаолияти.-Бухоро. Дурдона, 2024. 172 бет
8. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. – Хоразм. “Milleniumus print, 2024. 29 бет

SAYID ISLOMXO‘JANING XIVA XONLIGIDA SAVDO VA IQTISODIY ISLOHOTLARI: JADIDCHILIK G‘OYALARI TA’SIRIDA MODERNIZATSIYA HARAKATI

Raximberganov Jo‘rabek Otanazar o ‘g‘li.
Ma’mun universiteti
“Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:+998937455575
rakhimberganovjorabek@gmail.com

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Bu aynan Rossiya mustamlakachilik siyosatga qarshi qaratilgan jadidchilik harakatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xiva xonligida jadidchilik harakati keng kurtak yoya boshladi. Jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishda matbuot asosiy vasitachi bo‘ldi. 1874-yili Muhammad Rahimxon II ning tashabbusi bilan Xivaga Rossiyadan toshbosma dastgohi keltirildi [1]. Xiva xonligida kuchli va zamonaviy ta’lim berishni takomillashtirish borasida Muhammad Rahimxon II va vazir Sayid Ismoxo‘janing o‘rni beqiyos. Xiva xonligida ilk rus-tuzem maktabi 1884-yilda Xiva xonining ko‘magida ochilgan, dastlabki jadid maktabiga esa, 1904-yil 10-noyabrda asos solindi. Unda Turkiyadan Xusayn Qo‘shayev o‘qituvchilik qilgan. 1906-1907- yillarda qizlar uchun maktab tashkil etildi. Jadidchilikning Xorazm maktabini yaratilishida Munis va Ogahiy tomonidan asos solingan, Bayoniy boshchilik qilgan tarjimachilik va tarixchilik maktablari asosiy o‘rin tutgan bo‘lib, elitaning Xorazm o‘tmishiga qiziqishi ham bunga yordam berdi. [2].

Tarixdan ma’lumki davlat mustahkam bo‘lishi nafaqat ta’lim balki uning iqtisodiy hayoti ham barqaror bo‘lishi kerak. Buni aynan uzoqni ko‘ra biladigan vazir Islomxoja ham tushunar va shu orqali iqtisodiy islohotlar o‘tkazish uchun harakatlari yetarli darajada samara bera boshladi. Xiva xonligida XX asrning boshlariga kelganda soliq va bozor ishlarini tartibga solish bo‘yicha bir-nechta ishlar amalga oshirilgan. Asfandiyorxonning 1910-yilgi soliq islohotlari doirasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Xiva xonligining bosh vaziri Islom Xo‘ja tomonidan savdogarlardan soliq yig‘ishning huquqiy asoslari bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. 1911-yil dekabr oyidan boshlab Xiva xonligiga tobe bozorlarida kasb egalari va savdogarlardan boj yig‘ish tartibi joriy etilgan [3].

Xiva xonligidagi savdogarlarining soliq olish muammolarining tartibga solinishi bu ta’lim sohasining rivojlanishi uchun asosiy o‘rinni egallagan. Xiva xoligida adolat va tartibni saqlashga jiddiy e’tibor qaratilgan. Xususan, tarozu va tarozuga tortilgan maxsulotlarning adolati o‘lchanishiga e’tibor berilgan. Tarozu tagiga to‘kilgan g‘alla egasiga qaytarilishi shart. G‘allani sun’iy ravishda kam chiqarish (yo‘qotish) man etilgan. Bojbonlar va tarozubonlar bu qoidani buzsa, jazolanadi va yetkazilgan zarar uchun jarima (gunohkor puli) to‘lash majburiyati yuklatiladi deb qayd etiladi [4].

Xiva xonligiga qarashli barcha bozorlar uchun tarozi va toshlar o‘lchov tizimi qat’iy belgilangan. 1 botmon = 50 qadoq, 1 qadoq = 96 misqol shu bilan, 1 botmon = 4800 misqol bo‘ladi. Xiva shahridagi bozorlar botmon toshi farqli qilinadi. 1 botmon = 48 qadoq Bu holda 1 botmon = 4600 misqol qilib belgilanadi [5].

Xiva xonligida tarozi toshlarining ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi ham tartibga solingan edi. Xususan tarozi toshlari maxsus temirdan bo‘lib, ular pechatli qadoq toshlari sifatida ishlab chiqarilgan. Bu toshlar podshoxlik tomonidan ishlab chiqarilib, har bir bozor bojboniga taqdim etilgan. Tarozi toshlari kelguncha, har bir bozor o‘zining eski tarozu toshlari bilan savdo qilishi mumkin edi. Bu holatda, bozorlarning har biri 50 qadok tarozi toshlarini tuzib, savdo qilishga ruxsat beradi. Tarozi toshlarining miqdori va o‘lchovi belgilangan tartibda ishlab chiqilgan bo‘lib, bu bozor faoliyatining barqarorligini ta’minlashga yordam berilgan[6].

Xiva xonligida jadidchilik XX asr boshlarida biroz boshqacha tarixiy sharoitlarda yuzaga kelgan. Bu yerda jadidchilik xarakati ikkita oqimdan iborat edi. O‘ng oqim xonlikda rivoj topgan savdo-sanoat korxonalari egalari va yirik yer egalarini birlashtirgan. Unga Islom Xo‘ja- Asfandiyorxonning bosh vaziri boshchilik qilgan. Ular o‘z oldilariga xon hokimiyatini saqlab qolgan xolda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali bozor munosabatlarini rivojlantirish yo‘llarini kengaytirishni qo‘yganlar. Xiva jadidchiligining so‘l oqimiga esa, mayda burjuaziya vakillari, hunarmandlar, ulamolar va aholining o‘rta qatlami kirgan. Uning raxbari Xiva xonligi shayxulislomi Bobooxun Salimov edi degan qarashlarni D. Alimova , B. Rasulov, R. Shamsutdinov, Polvoniyoz Hoji Yusupov lar ilgari surgan.

Xiva xonligda XX asr boshlariga kelib savdo-sanoat taraqqiy qila boshladi. Yangi sanoat korxonlari chet eldan olib kelindi va ishga tushurlidi. Bundan tashqari, xonlikda XX asr boshlarida banklar ham vujudga kela boshlagandi. Chunonchi, 1909 yilda Yangi Urganchda rus xitoy banki bo‘limi, 1910- yili rus xitoy banki va shimoliy bank hamkorligida “Rus Osiyo banki”, 1915-yilda Sibir va Moskva savdo banklarining agentliklari Xorazmda faoliyatini boshlagandi [7]. Ushbu banklar asosan paxta xom ashyosi, shuningdek, beda urug‘i, qorako‘l teri, ipakdan bo‘lgan choponlar, qovun, meva qoqilarini sotib olish bilan shug‘ullanishgan. Ular xom ashyo mahsulotlari yetishtirovchilarga oldindan pul to‘lab qo‘yishardi [8].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki Sayid Islomxo‘janing faoliyati Xiva xonligida yangi davr islohotlarining boshlanishiga turtki bo‘ldi. U jadidchilik g‘oyalaridan ilhomlanib, savdo va iqtisodiy sohalarda yangilanishlar joriy etdi. Xususan, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish, bojxona tizimini tartibga solish, yo‘l va transport infratuzilmasini yaxshilashga intildi. U mahalliy hunarmandlar va savdogarlarni qo‘llab-quvvatlash orqali xonlik iqtisodiyotini jonlantirishga harakat qildi. Sayid Islomxo‘ja jadidlar singari taraqqiyotga ochiqlik, dunyoviy bilimlar va amaliy islohotlar tarafdori edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Otamurod Qo‘shjonov, Ne’matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmiXX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007, 388-b.
2.A.Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasretdinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. – T: “Turon-Iqbol”2019, 107- b
3.Ichan Qal’a muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3274. – B. 26.
4.Ichan Qal’a muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3626. – B.4.
5.Ichan Qal’a muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3626. – B.5.
6.Ichan Qal’a muzey qo‘riqxonasi fondi. KP 3626. – B.6.
7.С.Маткаримова, Умид Бекмуҳаммад.Хива хонлиги Россия мустамлакачилиги даврида. 1873-1917 йиллар. – Бухоро: Садриддин Салим Бухорий, 2025. – Б. 139.
8.С.Маткаримова, Умид Бекмуҳаммад.Хива хонлиги Россия мустамлакачилиги даврида. 1873-1917 йиллар. – Бухоро: Садриддин Салим Бухорий, 2025. - Б. 139.

ISLOMXOJA VA UNING JADIDCHILIK FAOLIYATI

Ko‘palboyeva Laylo Bunyodbek qizi,
Ma'mun universiteti ,
“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” fakulteti,
“Tarix” yo‘nalishi I bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Raxmanova Shirin
Tel: +998 779865856
e-mail:kopalboyevalaylo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiriXX asrning boshlarida Turkiston o‘lkasida, xususan, Xorazmdagi jadidlar harakati va ularning hayoti, ilg‘or ijodiy izlanishlari, ilm-fan, pedagogika, ta’lim sohasiga qo‘shgan hissalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, rahbariyat,millatchilik, pankturizm, panislamizm,Tamġa.

Аннотatsi: В статье рассматривается движение джадидов в Туркестане, в частности в Хорезме, в конце XIX — начале XX вв., их жизнь, передовые творческие исследования и вклад в науку, педагогику и образование.

Ключевые слова: джадидизм, руководство, natsionализм, пантюркизм, панисламизм, тамга

Abstract : This article discusses the Jadid movement in Turkestan, particularly in Khorezm, in the late 19th and early 20th centuries, and their lives, advanced creative research, and contributions to science, pedagogy, and education.

Key words: jadidism, leadership, nationalism, pan-Turkism, pan-Islamism, tamg‘a.

Jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a’zolari o‘z faoliyati va dasturiga ko‘ra, sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari“ emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish shariatni isloh qilish xalqqa ma’rifat tarqatish Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash. Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidlar“ — jadidlar haqidagi sakkiz jildli kitoblar to‘plami. Sakkiz nafar jadidlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan risolalarni turli muallif yozgan: Olim Usmonov G‘ulom Zafariy, Dilmurod Quronov Abdulhamid Cho‘lpon, Ulug‘bek Dolimov Is’hoqxon To‘ra Ibrat, Hamidulla Boltaboyev Abdurauf Fitrat, Bahodir Karimov Abdulla Qodiriy, Oltinbek Olim Abdulla Avloniy, Sotimjon Xolboyev Munavvarqori qori Abdurashidxonov, Zaynobidin Abdirashidov Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi jildni yozgan. Turkiston jadidlari faoliyati butun o‘lkani qamraydigan, inglizlarning skauting maktab dasturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan „Turon kuchi“, „Turk kuchi“, „Temur“, „Izchilar“, „Lochin“ kabi guruhlarni tuzdilar. Bu guruxlar o‘rta maktab ta’limi, hunar, san’atdan tashqari, harbiy mashqlar bilan shug‘ullanib, sho‘rolarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko‘rina boshladi. 1920-yil sovet rejimi bu guruxlar faoliyatini tugatdi. Jadidchilik harakatining so‘nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadriddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida halok bo‘ldi.

Jadidchilik harakatiga sovet davrida “millatchilik”, panturkizm, panislamizm tamg‘alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o‘qish taqiqlandi. Ilm yog‘dusiga tashna turkiy dunyoga chiroq tutgan, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan taraqqiyparvarlar xalqning bolalari taqdirini o‘yladilar, millatning ertasini ko‘zladilar. Jaholatdan olib chiquvchi yo‘lni ta’limda, maktablarda, teatr va kutubxonalarda ko‘ra oldilar. Eng og‘ir tuzum tebranishlarida yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yuborish, ma’rifat ulashish maqsadida yondilar. Jadidlarning g‘oyalari milliy uyg‘onish, milliy mafkurani tiklash yo‘lida qudratli kuchga aylanib, jamiyatni to‘lqinlantirib yubordi. Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadriddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet

mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida halok bo‘ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida „millatchilik“, panturkizm, panislamizm tamg‘alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o‘qish taqiqlandi. Islomxo‘ja 1872-yilda islom ruhoniylari vakili – Said Ibrohimxo‘ja oilasida tug‘ilgan Said Islomxo‘ja xorazm jadidlarining o‘ng qanotining boshlig‘i bo‘lib, u boylar (boylar), sanoatchilar, savdogarlar va savdogarlarni birlashtirgan. Bu davlat rahbarlaridan biri jadidchilikka „qo‘shilgan“ kamdan-kam holatlardan biri edi. Xorazm jadidlarining o‘ng qanoti chap qanotdan farqli o‘laroq, Xorazmda monarxiyani saqlab qolish tarafdori bo‘lgan,

Faoliyatining boshida Xazorasp hokimi edi[2]. 1907-yilda 35 yoshida Xiva xonligiga bosh vazir (bosh vazir) etib tayinlanadi va bu O‘rta Osiyo xonligidagi ikkinchi davlat arbobi va Xiva xonligi tarixidagi eng yosh bosh vazirlardan biriga aylanadi. O‘sha davrda Xiva xonligining xoni Muhammad Rahimxon II bo‘lgan. 1910-yilda Islomxo‘janing sa’y-harakatlari va mablag‘lari bilan Ichan-qal’aning janubi-sharqida (Xivaning ichki shahri) katta majmua – Islomxo‘ja madrasasi va shu nomdagi minoraning balandligi 1910 y. Xiva va butun Xiva viloyati xonligining eng baland minorasi bo‘lgan 44,6 metr balandlikda qo‘shni Buxoro amirligining poytaxti bo‘lgan Buxorodagi afsonaviy Minorai Kalondan biroz pastroqdir. Islomxo‘janing bir qancha ommaviy chiqishlari mavjud bo‘lib, ularda jinoyatchilar va tartibsizliklar uchun ba’zi urf-odatlar va shariat jazolariga qarshi gapirgan. U, shuningdek, amaldorlarning o‘zboshimchaliklariga chek qo‘yishni, dehqonlar ommasining noroziligi kuchayishiga yo‘l qo‘ymaydigan ma’muriy islohotlar o‘tkazishni talab qildi. Ayrim manbalarga ko‘ra, bu shimol va shimoli-sharqdan Xiva xonligi bilan chegaradosh bo‘lgan Turkiston umumiy hukumatining fikriga to‘g‘ri kelgan. 1910-yilda Xiva rahbariyati yer boshliqlari va ruhoniylarning huquqlarini cheklovchi manifest e’lon qilishga majbur bo‘ldi, bu esa xonlik rahbariyatining konservativ qismining norozilik to‘lqinini keltirib chiqardi.

Ma’lumki, Afsandiyorxonning xotinlaridan biri Said Islomxo‘janing qizi, Islomxo‘ja esa Asfandiyorxonning qaynotasi bo‘lgan. Islomxo‘janing o‘zi ham uylangan edi. O‘g‘illaridan faqat bittasining ismi ma’lum, uning ismi Abdusalomxo‘ja edi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, biz erishgan bugungi farovon hayot, mustaqil Vatan, birdam bo‘lgan xalq, osuda kunlar qurbonlarsiz bunyodga kelmagan. Jadidchilarimizning buyuk namoyondasi — Abdulla Qodiriyning “moziyg‘a qarab ish ko‘rmak xayrlidir”, — degan ibratli jumlalarini eslash kifoya. Jaholatga qarshi kurashish, millat sha’nini himoya qilish orqali mustamlaka bo‘lgan Turkistonni dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari safida ko‘rishni orzulagan ajdodlarimiz bugun o‘z maqsadlariga erishdilar. Endilikda bizning — bugungi kun egalarining zimmasida ajdodlarimiz asriy orzularini ro‘yobga chiqarish, tinchlik hukmron bo‘lgan zaminni asray olish, o‘z intilishlari, islohotlardagi ishtiroki, tashabbuslari orqali yoshlarga kimlarning avlodi ekanligini anglatishday kuchli vazifa borligini unutmasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Xorazm tarixi, 1-jild, Urganch, 1997
3. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
4.Cho‘lpon, Asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent. 1994.

ХИВИНСКОЕ ДЖАДИДИЗМ В НОВОМ СВЕТЕ

Отабоева Зухра Октам кизи
Студентка I курса факультета, «Социально-гуманитарных и точных наук», Университет Мамуна
Тел: +998 99 165 18 70

Annotatsiya : Ushbu maqolada Xiva xonligida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning yetakchilari, faoliyati hamda xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayoti ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, "Yosh xivaliklar" partiyasining siyosiy faolligi va uning tugatilish sabablari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ibrohim Sulton bosmaxonasi, "Jamiyati xayriya", "Yosh xivaliklar", "Izvestiya", "Nisobus-sibyon»

Annotation : This article examines the emergence of the Jadidism movement in the Khiva Khanate, its leaders, activities, and the socio-political life of the khanate. Additionally, it discusses the political activity of the "Young Khivans" party and the reasons for its dissolution.

Keywords : Ibrohim Sultan printing house, "Jamiyati Khayriya", "Young Khivans", "Izvestia", "Nisobus-Sibyon"

Аннотatsiя : В данной статье рассматривается возникновение джадидизма в Хивинском ханстве, его лидеры, деятельность, а также социально-политическая жизнь ханства. Кроме того, затрагивается политическая активность партии "Молодые хивинцы" и причины её ликвидatsii.

Ключевые слова: Иброхим Султон типограф, "Джамияти хайрия", "Молодые хивинцы", "Известия", “Нисобус-сибьён”

“Чтобы разбудить народ, находящийся в забвении, необходимо пробудить его историю”. (Августин)

В конце XIX — начале XX века джадидизм стал основным общественным движением в Хивинском ханстве. После русского завоевания потеря независимости, политическое неравенство и несправедливость превратили общество в сильную оппозицию Российской империи. Среди недовольных были как представители простого народа, так и высокопоставленные чиновники. В начальный период развития хивинского джадидизма огромную роль сыграли просветители Комил Хоразмий и Мухаммад Рахимхан II. Их деятельность, в частности, открытие типографии, стало отправной точкой движения.

В 1874 году по инициативе Мухаммада Рахимхана II в Хиву из России был завезён литографический станок. Во дворец был приглашён типограф Иброхим Султон из Ирана, где первая типография появилась ещё в 1832 году. Кроме того, музыковед Пахлавонниёз Мирзабоши призывал хана организовывать собрания, вести диалог с историками и прогрессивными деятелями, бороться с насилием и коррупцией в государстве.

Хорезмские джадиды представляли собой группу реформаторской интеллигенции, сформировавшуюся в начале XX века в Хивинском ханстве. Они стремились к модернизatsii общества, развитию образования и культуры, а также к проведению политических и экономических реформ с целью просвещения народа. Это движение развивалось в условиях борьбы против колониальной политики Российской империи и внутренних консервативных взглядов.

Реформа системы образования в Хивинском ханстве прошла относительно легко. Причиной этого было покровительство хана Мухаммада Рахимхана II, который поддерживал технологические новшества и был меценатом культуры. В отличие от Бухары, где власти препятствовали созданию новых школ, в Хиве их открытие не встречало серьёзных препятствий. Сам Феруз активно поддерживал образовательные инициативы, и многие высокопоставленные чиновники следовали его примеру. Первая русско-туземная школа в Хиве была открыта при поддержке хана в 1884 году, а первая джадидская школа начала работу 10 ноября 1904 года и Полвониёз Ходжи Юсупов. Однако основная цель хивинского джадидизма заключалась не в политическом разделении, а в просвещении и проведении социально-экономических реформ в ханстве.

Школа для девочек в Хиве была основана в 1906-1907 годах, а учителем в ней работал приглашённый из Турции Хусайн Кушаев. В развитии джадидской школы в Хорезме ключевую роль сыграли переводческие и исторические школы, основанные Мунисом и Огахи и возглавляемые Байонием. Интерес элиты к истории Хорезма также способствовал продвижению реформ.

Кроме того, премьер-министр ханства Ислам Ходжа, известный своими прогрессивными взглядами, активно проводил реформы в образовании и поддерживал джадидское движение в Хиве. Благодаря усилиям таких лидеров, как Бобоохун Салимов и Полвониёз Юсупов, новые школы были открыты в Янги Ургенче, Кунграде, Гурлане и Шавате. Организatsiя «Джамияти хайрия», созданная для сбора средств на открытие новых школ, сыграла важную роль в этом процессе.

Несмотря на отсутствие джадидской прессы в Хиве, местная интеллигенция имела доступ к газетам и журналам, издаваемым в Османской империи, Иране, России, а также в Ташкенте, Самарканде и Бухаре.

В начале XX века джадидское движение в Хивинском ханстве развивалось в несколько иных исторических условиях. Оно разделилось на два течения. Правое крыло объединяло

владельцев торгово-промышленных предприятий и крупных землевладельцев. Его лидером был премьер-министр Ислам Ходжа, который стремился сохранить ханскую власть, проводя при этом социально-экономические реформы и расширяя рыночные отношения. Левое крыло включало в себя представителей мелкой буржуазии, ремесленников, духовенства и беднейших слоев населения. Его лидером считался шейхульислам Хивинского ханства Бобоохун Салимов. Это мнение поддерживали такие исследователи, как Д. Алимова, Б. Расулов, Р. Шамсутдинов и Полвониёз Ходжи Юсупов. Однако исследователи Отамуруд Кушжонов и Неъматжон Полвонов, ссылаясь на академика Бахтияра Назарова, отмечали, что деление джадидов на правых и левых, появившееся в 1960-1980-е годы, было попыткой оправдать тех, кто перешел на сторону советской власти. Это мнение подтверждается тем, что деление хивинских джадидов на правых и левых не является корректным. В литературе к правому крылу относят элиту во главе с визирем, а к левому — таких джадидов, как Бобоохун Salимов, Хусайнбек Матмуродов и Полвониёз Ходжи Юсупов. Однако их главной целью была не политическая борьба, а проведение реформ, направленных на развитие ханства идеалистический подход и политическая неопытность стали причиной их неудач. На самом деле Полвониёз Ходжи Юсупов и его сторонники, несмотря на принадлежность к крупным землевладельцам и богатым слоям общества, также поддерживали идеи прогресса. Поэтому разделение хивинских джадидов на правое и левое крыло не является обоснованным.

Политизatsiю движения хивинских джадидов во многом обусловили действия Асфандияр-хана. В начале своего правления, несмотря на свои внутренние намерения, он стремился создать видимость поддержки реформаторских инициатив Исламходжи. Однако, воспользовавшись благоприятной ситуatsiей, он с помощью оппозиционных сил устранил Исламходжу от власти. Это событие стало одним из ключевых факторов усиления джадидского движения.

В августе 1914 года в Хиве джадидами была основана партия «Молодые хивинцы», лидером которой стал Полвониёз Ходжи Юсупов. В ходе своей деятельности он вел дневник, в котором записывал все происходящие события, и позднее этот дневник был опубликован как исторический источник. Программа партии предусматривала установление в Хиве конституционной монархии и проведение демократических реформ. 5 апреля 1917 года Асфандияр-хан был вынужден подписать манифест о проведении реформ. Для контроля за их реализatsiей при дворе хана был создан надзорный орган – «Идораи машрута», состоявший из 49 представителей. Кроме того, были учреждены парламентоподобный орган «Маджлис» (председатель – Б. Салимов) и Совет министров (глава – Хусайбек Матмуродов).

Историки Д. Алимова, Б. Расулов и Р. Шамсутдинов отмечают, что «Молодые хивинцы» не имели четкой программы. Однако Полвониёз Ходжи Юсупов утверждал, что программа существовала и в ней поднимались актуальные проблемы того времени. В частности, в ней содержались предложения о включении Хивы в состав Туркестана, перераспределении земель ханов и беков в пользу народа, создании бесплатных школ и строительстве больниц.

В марте 1917 года Мирбадалов организовал митинг, на котором «Молодые хивинцы» были объявлены «отступниками от веры». В результате «Маджлис» был распущен, а его лидеры арестованы. Один из них, Назир Шоликоров, заявив, что является российским подданным, избежал суда хана. Полвониёз Ходжи Юсупов также спасся благодаря вмешательству русского солдата и продолжил свою деятельность в подполье. В 1919 году была принята новая программа партии «Молодые хивинцы», которая 8 февраля 1920 года была опубликована в газете «Известия» в Ташкенте. Она включала 12 пунктов, главным из которых было свержение ханской власти в Хиве. Однако политическая ситуatsiя в Хиве, а также действия Джунаид-хана сорвали эти планы.

К 1920 году все реформаторские движения в Хиве, а также ханская власть, были окончательно ликвидированы. В своих исследованиях Д. Алимова, Холбоев и Содиков подчеркивают, что чрезмерная идеализatsiя и политическая наивность туркестанских джадидов привели к их поражению и привело к трагическому завершению джадидского движения в 1920 году. Ф. Касымов, исследуя историю Бухарского эмирата, также приходит к аналогичному выводу. В исследованиях, посвящённых джадидскому движению в Хиве в начале XX века, можно выделить два основных подхода.

Первая группа исследователей предпочитала игнорировать деятельность хивинских джадидов, акцентируя внимание на «положительной роли» царской России и советской власти в Хивинском ханстве. Они осудили деятельность «Молодых хивинцев», обвиняя их в буржуазном natsionalizme, в неспособности к социальному освобождению трудящихся и готовности идти на компромиссы с крупными землевладельцами.

Вторая группа, в частности Г. Непесов и М. Абдуллаев, напротив, справедливо оценили вклад туркменских племенных вождей, таких как Кушмамедхан и Гулом Алихан, в развитие движения «Молодых хивинцев».

Пресса и литература также стали важным направлением реформаторской деятельности джадидов. Они издавали газеты и журналы, писали и переводили научные и художественные произведения. Эта деятельность способствовала повышению политического и культурного уровня народа Хорезма.

В заключение, анализ вышеупомянутых источников подтверждает существование джадидского движения в Хиве. Однако, поскольку правящий класс и высшая элита поддерживали реформы, на первом этапе оно развивалось без серьёзных препятствий. Позднее, когда движение приобрело политический характер, оно столкнулось с сопротивлением, что было также обусловлено событиями в России. Ограниченное распространение джадидских идей в Хиве объясняется несколькими причинами, главная из которых – отсутствие независимой прессы. В ханстве существовали две типографии:

1. Литография при дворе Рахимхана II (позднее известная как «Типо-литография царского времени»), где впервые было напечатано произведение Фараби «Нисабус-сибьян» («Наставление детям»).

2. Типография К. В. Новикова в Петровско-Александровске.

Однако, несмотря на это, джадидская пресса так и не была создана. Хивинские джадиды издавали книги, но простые люди не всегда имели возможность ознакомиться с их содержанием. Именно этот недостаток пропаганды стал одной из главных причин слабости движения. Несмотря на это, реформаторская деятельность хорезмских джадидов сыграла значительную роль в истории Узбекистана. Их инициативы в сфере образования, прессы и экономики оказали влияние на последующее развитие страны.

Использованная литература:

1. Aziz Boboxonov. O‘zbek matbaasi tarixidan. -T: *G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at" 1979, 114-b
2. A. Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasretdinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. -T: "Turon-lqbol"2019, 107-b
3. B. Rasulov, R. Shamsutdinov Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri XX asr boshlari) Andijon, 1995
4. Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: “Akademnashr" 2022, 16-b
5. K. Bazarbayev, A. Gumadullayeva Jadidism Phenomenon in Central Asia. SienceDirect CY-ICER 2013, 877-b
6. K. Bazarbayev, A. Gumadullayeva Jadidism Phenomenon in Central Asia. SienceDirect CY-ICER 2013, 877-b
7. Otamurod Qo‘shjonov, Ne'matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: "Abu matbuot-konsalt" 2007, 388-b
8. Q. Rajabov Buxoro va Xorazm Xalq respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli, -T: "Sharq" 2001
9. Yoqubov Xiva jadidlarining ma'rifiy qarashlari//Xiva-jahon madaniyati durdonasi.Konferensiya materiallari. Urganch, 1997

IV SHO‘BA. TA’LIM VA FAN TARAQQIYOT POYDEVORI

TO‘Y MAROSIMLARIDA BOLALAR VA XALQ O‘YINLARI
ДЕТСКИЕ И НАРОДНЫЕ ИГРЫ НА СВАДЕБНЫХ ЦЕРЕМОНИЯХ
CHILDREN'S AND FOLK GAMES AT WEDDING CEREMONIES

Matkarimova Nilufar Maxsudovna
Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini
muvofiqlashtirish bo‘limi metodisti
e-mail:matkarimovan16@gmail.com
+99-899-967-14-43
Методист Управления дошкольного и
школьного образования Хорезмской области
Маткаримова Нилуфар Махсудовна
e-mail:matkarimovan16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining milliy harakatli o‘yinlarining kelib chiqishi tarixi, qadimdan to‘y va marosimlarda o‘ynalgan xalq o‘yinlari, bolalar va kattalar o‘yinlari, ovchilik o‘yinlari, cho‘pon o‘yinlari, hunarmandchilik o‘yinlari, dehqonchilik o‘yinlari, taqlidiy o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, yig‘in o‘yinlari, kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlar, chavandozlik kabi turlari haqida; sunnat to‘yi marosimlarida o‘ynalgan o‘yinlar, bu o‘yinlarning bolalar va kattalarning salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyati katta bo‘lganligi va ayrim sport turlarini paydo bo‘lishiga asos bo‘lganligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy harakatli o‘yinlar, xalq o‘yinlari, bolalar va kattalar o‘yinlari, ovchilik o‘yinlari, cho‘pon o‘yinlari, hunarmandchilik o‘yinlari, dehqonchilik o‘yinlari, taqlidiy o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, yig‘in o‘yinlari, kurash, chavandozlik, sport turlari.

Аннотатsiя. В данной статье представлена информатsiя об истории происхождения natsиональных подвижных игр узбекского народа, таких видах, как народные игры, игравшиеся на свадьбах и церемониях с древних времен, детские и взрослые игры, охотничьи игры, игры пастухов, ремесленные игры, земледельческие игры, подражательные игры, подвижные игры, словесные игры, игры на сборах, борьба и связанные с ней игры, верховая езда; игры, игравшиеся на церемониях обрезания, о том, что эти игры имели большое значение в укреплении здоровья детей и взрослых и стали основой для возникновения некоторых видов спорта.

Ключевые слова: Natsиональные подвижные игры, народные игры, детские и взрослые игры, охотничьи игры, игры пастухов, ремесленные игры, земледельческие игры, подражательные игры, подвижные игры, словесные игры, сборные игры, борьба, верховая езда, виды спорта.

Annotation. This article provides information on the history of the origin of national active games of the Uzbek people, folk games played at weddings and ceremonies since ancient times, children's and adult games, hunting games, shepherd's games, craft games, farming games, imitation games, active games, word games, gathering games, wrestling and related games, horsemanship; games played during circumcision ceremonies, the importance of these games in strengthening the health of children and adults, and the emergence of certain sports.

Supported conceptions: National active games, folk games, children's and adult games, hunting games, shepherd's games, craft games, farming games, imitation games, active games, word games, assembly games, wrestling, horseback riding, sports.

O‘zbek xalqining milliy harakatli o‘yinlarining kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo‘lib, to‘y va marosimlarda qadimdan turli xil xalq o‘yinlari o‘ynalgan. Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar va

bezaklarning (rasm) guvohlik berishicha bundan 3-4 ming yillar avvalgi ajdodlarimiz xilma-xil o‘yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Xususan, bunday o‘yinlar qatoriga, *arg‘imchoq, bekinmachoq, oq terakmi, ko‘k terak?.., tortishmachoq, chillak, podachi, bo‘ri keldi, xo‘roz va tovuq, oqsoq bo‘ri va qo‘ylar, olomon poyga, bo‘ron, qirq tosh, cho‘nqa shuvoq, otib qochar, soqqa, bir tayoq, yelkada kurash, mindi* kabi o‘yinlarni misol keltirishimiz mumkin.

Xorazmda: *chilim chitdi, gizlanmajak, bektosh, langi, quvolashma, o‘rtag‘a girishma, xola-xola, chullik yoki chillik, poqqildovuq, oshiq o‘yini, xo‘qqo, liqoq (galki)* kabi o‘yinlar; Surxondaryo viloyatining Xufar, Tamarxut kabi qishloqlarida: *aspak bozi (ot o‘yini), laylak bozi (laylak o‘yini), chol-kampir* kabi o‘yinlar o‘ynalgan. Davraga chiqib o‘z san’atini namoyish qilganlarga to‘ychi tomonidan turli xildagi sarpolar berilgan[1].

Bolalar va kattalar o‘yinlarini paydo bo‘lish jarayoniga ko‘ra: *jambil, lappak, oshiq, xappak, chirgizak* kabi ovchilik o‘yinlariga; *to‘ptosh, ko‘tarma tosh, echki o‘yin, cho‘pon va shoqol, qadama tayoq, chillik, podachi, chanta, chuv-chuv* kabi cho‘pon o‘yinlariga; *dandarak, charxpalak, besh barmoq, paqilloq, lanka, chig‘iriq, uzuk soldi, varrak, sartarosh, ko‘z bog‘lar* kabi hunarmandlik o‘yinlariga; *palaxmon, jon burgam, somon sepdi, chanoq o‘yin, shaftoli shakar, qo‘riqchi* kabi dehqonchilik o‘yinlariga; *xola-xola, topaloq, kim oladi-yo, ayiq o‘yin, xo‘roz urishtirish, oqsoq turna, bosari, asalari, g‘ozlar* kabi taqlidiy o‘yinlarga; *cho‘nka shuvoq, chim otish, kim tez, xurkach, tufaloq, chori chambar, mushuk-sichqon, yog‘och oyoq, durra solish, halinchak* kabi harakatli o‘yinlarga; *kim chaqqon, bolqon-bolqon, botmon-botmon, juftmi-toq, oq quyonim alomat, oq terakmi, ko‘k terak, pirr etdi* kabi so‘z o‘yinlariga; *gap-gashtak, to‘piq o‘yin, podsho-vazir, podsho-o‘g‘ri, arshi a’lo* kabi yig‘in o‘yinlariga; *milliy kurash, polvonbozlik, yelkada kurash, bel olish kurashi* kabi kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlarga; *chavgon, uloq-ko‘pkari, piyoda poyga, oltin qoboq, shog‘uloq, qiz quvish, eshak mindi* kabi chavandozlik o‘yinlari kabi turlarga ajratish mumkin.

Sunnat to‘yi marosimlarida asosan, *oltin qoboq, ko‘k bo‘ri, ot poygasi, arqon tortish, kurash, qo‘chqor urishtirish* kabi, shuningdek, *podsho-vazir, masxarabozlik* va shunga o‘xshash boshqa o‘yinlar o‘ynalgan[2]. *Oltin qoboq* o‘yinini tashkil qilish uchun avvalo 5-6 metrlik uzun yog‘ochdan to‘rttasi bir-biriga ulab bog‘lanadi, so‘ng ko‘tarilib uchiga qo‘yning orqa oyog‘idan olingan oshiq yoki tanga pul ip bilan bog‘langan. Shu bog‘langan oshiqqa yoki tanga pulga *oltin qoboq* deyilgan. Qadimda *oltin qoboqqa* o‘q-yoydan o‘q uzganlar, keyinchalik miltiq ixtiro qilingach, miltiqdan o‘q uzganlar. *Ko‘k bo‘ri* o‘yiniga qatnashish uchun kelgan otliq chavandozlar avval davrani uch aylanib ot choptirishgan. Ot choptirishda oti o‘zgan chavandoz *ko‘k bo‘rini* ot ustida egilib olib qochgan. Shunday qilib galma-gal bir-biridan *ko‘k bo‘rini* tortib olib qochib o‘ynaganlar. *Ot poygasi* yo‘l imkoniyatiga qarab 20-30 kilometr uzoqlikda tashkil qilingan. Chavandozlar otlariga qamchi urib, qistab bir-biridan o‘tib nihoyat tomoshabinlar oldiga, belgilangan marraga yetib kelganlar. Oti oldinda kelgan poyga g‘olibi hisoblangan. *Arqon tortish* o‘yinida maydonda 10 metrlik baquvvat arqonning har bir uchini o‘ntadan odam ushlab ikki tarafga tortganlar. *Arqon tortish* uzoq davom etgan. Qaysi taraf kuchli bo‘lsa, ikkinchi tarafdagi o‘n kishini o‘z tomoniga sudrab o‘tgan. Kurash musobaqasida to‘yda bir necha polvon juft-juft bo‘lib, kurash maydonida kuch sinashganlar. *Qo‘chqor urishtirishda* qarama-qarshi qo‘yilgan ikkita qo‘chqor to‘qnashishdan oldin, uzoqroq masofaga keyin bosadilar va yugurib kelib shoxlarini bir-biriga qattiq uradilar. Bu holat bir necha marta takrorlangan va bir qo‘chqorning qochib davrani tark etishi bilan yakunlangan.

Podsho-vazir o‘yini to‘y va ziyofatlarda, gurunglarda yigitlar davrasida navbatma-navbat oshiq otarish (tashlash) yo‘li bilan o‘ynalgan. *Podsho-vazir* o‘yinida podsho xalq orasidan saylanadi va arz so‘raydi. Uning podsholigi esa toj kiyishi bilangina atrofdagilardan farq qiladi. Davradagilar harbiy kishilardek podshoning hamma buyruqlarini ado etadilar. Bu o‘yinlarning bolalar va kattalarning salomatligini mustahkamlashda ham ahamiyati katta bo‘lgan. Shuningdek, yuqorida sanab o‘tgan o‘yinlarimiz ayrim sport turlarining paydo bo‘lishiga ham asos bo‘lgan. Masalan, podachi o‘yinidan-*chavgon*, keyinchalik *xokkey;* qabaq o‘yinidan-*merganlik*, keyinchalik *kamondan otish* kabi sport turlari paydo bo‘lgan. Bu o‘yinlarning omma oldida hamda kichik davrada o‘ynaladigan turlari ham mavjud bo‘lgan.

XX asrning boshlarida katta yer egalari va o‘ziga to‘q xonadon egalari to‘ylarning ko‘ngilochar va quvnoq o‘tishini ta’minlash maqsadida turli xil o‘yinlar tashkillashtirganlar va musobaqa g‘oliblarini

[1] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 97.
[2] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б.88-97.

qimmatbaho sovrin bilan mukofotlaganlar. Jumladan, *oltin qoboq* merganlikni, *ko‘k bo‘ri, ot poygasi* chavandozlikni, *kurash* polvonlikni, *arqon tortish* kuch-qudratni namoyish etish uchun o‘tkazilgan. Bu o‘yinlar XX asrning yarmigacha to‘y va tomoshalarda sevib o‘ynalgan[1]. To‘y marosimlaridagi *kurash, oltin qaboq, ot poygasi, masxarabozlik, dor o‘yinlari, qo‘chqor urishtirish, xo‘roz urishtirish* odamlarning eng yaxshi ko‘rgan tomoshalaridan hisoblangan. *Oltin qoboq otish* o‘yini Xorazmda keng tarqalgan o‘yinlardan biri bo‘lib kelgan[2]. Xorazmda *oltin qovoq*, Farg‘ona vodiysida *quloq cho‘zdi*, Toshkentda esa *mast bola* kabi bolalar o‘yinlari uyushtirilgan. Ko‘p zamonlar burun *oltin qoboq* urganga oltin to‘la qoboq berilgan. Bu keyinchalik ot, xo‘kiz va tuyaga almashtirilgan. A.Vamberining ko‘rsatishicha, oltin qoboqni urganga oltin qoboqdan tashqari bir necha qo‘y yoki ot va tuya ham berganlar[3].

Xorazm masxarabozlari alohida guruhga birlashmagan. Ular asosan xalq qo‘shiqchilari, musiqachilari, dorboz va muallaqchilari bilan birga xalqning to‘y va tomoshalarida qatnashib, o‘z sa’atini namoyish qilganlar[4].

Ko‘ch-ko‘ch o‘yini Xorazmda to‘y va ziyofatlarda yigitlar davrasida o‘ynalgan. Bunda bir masxaraboz o‘rtaga tushib kasalga o‘xshab uzala tushib yotgan, ikkinchisi esa folbin rolida chiqib: *Ko‘z etganning ko‘ziga, so‘z etganning so‘ziga, ko‘ch, ko‘ch, ko‘ch, ko‘ch. O‘g‘ri, o‘trik, zolimlarga ko‘ch, ko‘ch, ko‘ch, ko‘ch,*- deb kasalni go‘yo durra bilan urgan. Kasal esa oh-voh deb yig‘lagan va birdan so‘zlamay qolgan. Folbin esa davradan chiqib qochgan. Kasal esa o‘rnidan turib *“kasal qochdi”* deb kulib qolgan. Shu bilan folbinning butun sir-asrori ochilgan[5]. *Ko‘ch-ko‘ch* o‘yini bilan qoraqalpoq[6], qozoq[7] xalqi orasidagi an’ana sifatida aytilib kelingan *badik* qo‘shig‘i va *badik* yoki *gulapsan* o‘yini orasida o‘xshashlik bor. *Badik* yoki *gulapsanda* odamlar olov va ko‘pchilik aytgan qo‘shiqning kuchi bilan yuziga badik (yara) chiqqan bolani *davolamoqchi* bo‘lganlar. Kunbotar vaqtida davra o‘rtasidagi olov yoniga kasal bolani yotqizib, jamoa bo‘lib zikrga tushib qo‘shiq aytganlar. Bunda ham *ko‘ch* so‘zi qo‘shiq oxirida kasalni sehr-jodu yordamida yomon ruhlardan tozalash uchun aytilgan”[8]. *Badik* yoki g*ulapsan* qo‘shig‘i va o‘yinidagi zikrga tushish, olovga topinish musulmonchilikkacha bo‘lgan e’tiqodlar izlaridir[9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 97.
2. Т.Алланазаров. Каракалпакский советский театр. Истоки и формирование. –Ташкент: 1956. – стр.32-37.
3. А.Вамбери. Очерки Средней Азии. М., 1868 г., –стр. 94.
4. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б.128.
5. Қорақалпоқ халық косыклары. Қорақалпақстан баспасы. – Нукус: 1965. – Б.88.
6. Муканов С. Истоки казахского театра. “Литературное искуство Казахстана”, 1941, № 4, – стр.88.
7. Х.Есбергенов., Т.Атамуратов. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков, стр.143.
8. К.Аймбетов. Халық данальғы. –Нукус: Қарақалпақстан баспасы, 1968. –Б.1-17.
9. М.Нурмуҳаммедов. Адабиёт ва мафкура – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б.108.
10. К.М.Максетов. Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Тошкент: Фан, 1977. – стр.145.

[1] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 97.
[2] Т.Алланазаров. Каракалпакский советский театр. Истоки и формирование. –Ташкент: 1956. –стр.32-37.
[3] А.Вамбери. Очерки Средней Азии. М., 1868 г., –стр. 94.
[4] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. –Б.125.
[5] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б.128.
[6] Қорақалпоқ халық косыклары. Қорақалпақстан баспасы. – Нукус: 1965. – Б.88.
[7] Муканов С. Истоки казахского театра. “Литературное искуство Казахстана”, 1941, № 4, –стр.88.
[8] Х.Есбергенов., Т.Атамуратов. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков, стр.143; К.Аймбетов. Халық данальғы. –Нукус: Қарақалпақстан баспасы, 1968. –Б.1-17.
[9] М.Нурмуҳаммедов. Адабиёт ва мафкура – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. –Б.108.; К.М.Максетов. Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Тошкент: Фан, 1977. – стр.145.

FARG‘ONA VODIYSI VILOYATLARI YOSHLARINING DEMOGRAFIK HOLATI YOSHLAR VA JADIDCHILIK TAMOYILLARINING BOG‘LIQLIGI

Kurbanov Ravshan Raimjonovich
TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi 3-darajali yurist
O‘zbekiston tarixi- (Tarix) ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi
Tel:93.914-03-87
E-mail: kurbanovravshan@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yoshlarga doir siyosat va bu borada davlat tomonidan samarali ishlar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, jamiyat ijtimoiy hayotida munosib o‘rin egallash, zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan amaliy ishlar yangi avlod vakillari yoshlarning ijtimoiy demografik holati va muammolari yoshlar va jadidchilik tamoyillarining bog‘liqligi mamlakatimiz va Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, yoshlar, nikohlanish darajasi, xalqaro festival, ko‘rsatkich, tanlov, umumjahon, jadidchilik, islohot.

Abstract: This article discusses the youth policy in Uzbekistan since the first days of independence and the effective work of the state in this regard, the practical work aimed at protecting the rights and interests of young people, ensuring their worthy place in the social life of society, and obtaining modern knowledge and professions, the socio-demographic situation and problems of the new generation of young people, the relationship between youth and the principles of Jadidism, and the analysis of the examples of our country and the Fergana Valley regions.

Keywords: Culture, youth, marriage rate, international festival, indicator, competition, universal, Jadidism, reform.

Аннотатsiя: В данной статье анализируется молодежная политика в Узбекистане с первых дней независимости и эффективная работа государства в этом направлении, практическая работа, направленная на защиту прав и интересов молодежи, обеспечение ее достойного места в социальной жизни общества, получение современных знаний и профессий, социально-демографическая ситуатsiя и проблемы нового поколения молодежи, взаимосвязь молодежи с принципами джадидизма на примере нашей страны и регионов Ферганской долины.

Ключевые слова: Культура, молодежь, брачность, международный фестиваль, индикатор, конкуренция, глобальный, джадидизм, реформа.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yoshlar qatlami o‘zlarining demografik xususiyatlari nuqtai-nazardan jamiyatda alohida o‘rin tutayotganligi ko‘rish mumkin. Yoshlarning bugungi kunda jamiyat ijtimoiy hayotida o‘z o‘rnini belgilashi, maqsad va orzularini aniqlashida madaniyat, san’at sohasidagi islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar – bu o‘zlarining jamiyatdagi mavqeyi, yoshi, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga qarab farqlanadigan ijtimoiy demografik guruh hisoblanadi. Dunyo aholisining qariyb 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 60 foizdan oshadi.

Umuman olganda, yoshlarning yosh jihatidan tavsiflanishi dunyo mamlakatlarida turlicha hisoblanadi. Har bir davlat yoshlar tushunchasini o‘z tartib-qoidalari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib turlicha belgilagan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida yoshlar tushunchasiga berilgan huquqiy tarifda 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar hisoblanishi belgilangan. MDH davlatlari va Rossiyaning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha belgilangan. Yevropaning aksariyat mamlakatlarida, AQSh va Yaponiyada qabul qilingan “yoshlar” tushunchasi 13-14 yoshdan to 29-30 yoshgacha belgilanadi. Xitoyda esa yoshlar 18-35 yoshdagilar, Ispaniyada 14-30

yoshdagilar, Lyuksemburgda 15-25 yoshdagilar Kanadada 16-28 yoshdagilar, Angliya va Gollandiya mamlakatlarida yoshlar alohida guruhga ajratilmasada yosh chegarasi 25 yoshgacha belgilangan[1].

Aholi soni 1991 yilda 20857,0 mln., 1995 yilda 22684,0 mln., 2000 yilda 24650,4 mln., 2005 yilda 26167,0 mln. kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2008 yilda 27302,7 mln., 2011 yilda 28,5 mln., 2015 yilda 31022,5 mln., 2020 yilda 34905,2 mln., 2024 yilga kelib 37134,2 mln. kishiga ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasida 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 2010 yilda 13417656 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, 2024-yilda O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar soni 4,4 million nafar, 5-13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafar, 14-30 yoshlar oralig‘idagi yoshlar soni 9,6 million nafarni tashkil etmoqda[2].

Shuningdek, 2024 yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida aholining demografik holati bugungi kunda Andijon viloyatida 3,4 million kishini, Namangan viloyatida 3 million kishini, Farg‘ona viloyatida 4,1 million kishini tashkil etmoqda[3].

2024 yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoshlarning demografik holati o‘ziga xos jihatga ega bo‘ldi. Bugungi kunda yoshlar soni bo‘yicha Andijon viloyatida 2,04 million kishi, Namangan viloyatida 1,8 million kishi, Farg‘ona viloyatida 2,45 million kishini tashkil etmoqda[4].

Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Farg‘ona viloyatida 11,0 %, Andijon viloyatida 9,2 % va Namangan viloyatida 8,3 % ni tashkil etgan[5].

2024 yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlari bo‘yicha aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Andijon viloyatida 792,8 kishi, Farg‘ona viloyatida 603,5 kishi, Namangan viloyatida 414,0 kishini tashkil etdi[6].

1991-2024 yillar davomida O‘zbekistonda mavjud aholi soni, aholining tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishi o‘ziga xos ko‘rsatgichga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatkichning davrlar bo‘yicha qiyosiy tahlili mamlakatda mavjud aholi soni, tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishining nisbatan barqaror bo‘lganligini ko‘rsatadi. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko‘ra, 1991-2024 yillar davomida respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichi muntazam kamaygan va bu ko‘rsatkich 1991 yilda 723,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 677,7 ming kishi, 2000 yilda 527,6 ming kishi, 2005 yilda 533,5 ming kishiga teng bo‘lgan yoki 26,3% ga kamaygan. 2008 yilda esa 646 ming kishini tashkil etgan[7].

Umuman olganda, tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayishi respublikaning barcha viloyatlarida ham kuzatilgan. Agar 1991-2005 yillarda tug‘ilishning umumiy koeffitsienti respublikada 14,2% ga kamaygan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Farg‘ona va Andijon viloyatlarida 10,8-14,9% ga, Namangan viloyatida 16,2-18,9 % ga kamaygan[8]. Tug‘ilish ko‘rsatkichi respublika bo‘ylab 2010 yildan boshlab ko‘tarila boshlandi va tug‘ilishning umumiy koiffitsienti respublikada 2010 yilda 22% ga, 2015 yilda 23,5% ga, 2020 yilda 24,6% ga, 2024 yilda 26,4% ga oshdi[9].

Qiyosiy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika va uning barcha hududlarida tug‘ilish ko‘rsatkichi keskin kamaygan.

Tug‘ilish ko‘rsatkichi 2010-2024 yillarda Andijon viloyatida 24,1-26,6% ga oshdi, Namangan viloyatida 24-27,9% ga oshdi, Farg‘ona viloyatida 22,8-26,5% ga oshdi[10].

[1]https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-huquqlari-togrisidagi-bmt-konvensiyasi-jahon-yoshlarining-huquq-va-manfaatlari-kafolati_197922?ysclid=m2kb6f093i539994292

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz.

[3]https://daryo.uz/2024/05/28/ozbekiston-aholisining-jinsi-va-yosh-guruhlari-demografik-korsatkichlar-qanday?ysclid=m2k797xmp1634644361

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi ma`lumotlari. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_04_2024-uzb.pdf

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi ma`lumotlari. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_04_2024-uzb.pdf

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. www. stat.uz

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. www. stat.uz

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. www. stat.uz

Qiyosiy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, 2010-2024 yillar oralig‘ida respublika va uning barcha hududlarida tug‘ilish ko‘rsatkichi ko‘tarilgan. Buning sababi mamlakatda yosh oilalarga berilayotgan e‘tibor va yashash sharoitining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi soni tug‘ilish va o‘lim hisobiga doimo o‘zgarib boradi. Tug‘ilish jarayoni aholi sonining ko‘payishiga olib kelsa, o‘lim uning kamayib ketishiga sabab bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisi 16 million kishiga ko‘paydi shu davr mobaynida aholining o‘rtacha yillik o‘sishi 1,8 foizni, o‘rtacha mutlaq ko‘payishi soni esa 750-970 ming kishini tashkil qilmoqda[1].

Har bir davlat tug‘ilish muammosiga befarq munosabatda bo‘la olmaydi, bu muammo muayyan davlatning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir davlat o‘z mintaqasi xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zining demografik siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Fikrimizcha, ular o‘z xususiyatlariga ko‘ra oilada bolalar tug‘ilishi sonini cheklaydilar yoki tug‘ilishning ko‘payishini qo‘llab-quvvatlaydilar.

O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonining nisbatan yuqoriligiga asosiy sabablardan biri oila qadriyatlari hamda nikohdan o‘tish jarayonining yuqoriligi sabab bo‘lmoqda. Oilaning tashkil topishida esa, o‘z navbatida, nikoh va ajralish jarayonlari muhim omildir.

Nikohni qayd etish, ro‘yxatga olish fuqarolar tartibi qonun-qoidalar va diniy urf-odatlarga ko‘ra, amalga oshiriladi. Nikohlanuvchilarning soni bo‘yicha respublika viloyatlaridan 1991 yilda Farg‘ona – 31 ming nikoh ko‘rsatkichi bilan, 2000 yilda Farg‘ona – 17 ming nikoh ko‘rsatkichi bilan, 2008 yilda Farg‘ona – 26,4 ming, Andijon – 23,7 ming nikoh ko‘rsatkichi bilan oldingi o‘rinlarda kelmoqda. Har ming kishiga to‘g‘ri keladigan nikohlar soni 2006 yili 8-9 kishini tashkil etmoqda.

Nikohlanish darajasi har 1000 kishiga mustaqillik yillarida o‘rtacha 7,8%ni tashkil qildi. Nikohlanish darajasi 2000-2015 yillarda barqarorlashdi va har yili respublikada o‘rtacha 150-200 mingtagacha nikohlar qayd etildi. 1991 yilda respublika bo‘yicha nikohlar soni 270,3 mingtani, 1995 yilda 170,8 mingtani, 2000 yilda 168,9 mingtani, 2005 yilda 184,0 mingtani, 2008 yilda esa 250,2 mingtani tashkil qildi [2].

Nikohlanish darajasi 2017-2024 yillarga kelib yanada barqarorlashdi va 2017 yilda 306197 mingtani, 2020 yilda 296751 mingtani, 2021 yilda 305211 mingtani, 2024 yilda 283808 mingtani tashkil qildi[3].

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi yoshlari ta’lim, bandlik va ijtimoiy faollik jihatidan rivojlanayotgan kuchli qatlamni tashkil etadi. Tarixga nazar tashlasak, jadidchilik harakati ham aynan yoshlarning ilm olishiga, ularning zamonaviy bilimlarni egallab, jamiyat rivojida faol ishtirok etishiga katta e’tibor bergan. Shu sababdan, Farg‘ona vodiysi yoshlarining bugungi holati va jadidchilik harakati tamoyillari o‘zaro uzviy bog‘liq.

Jadidchilik harakati va bugungi Farg‘ona vodiysi yoshlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar juda ko‘p. Quyida jadidlarning asosiy tamoyillari va bugungi yoshlarning hayoti bilan bog‘liqligini ko‘rib chiqish mumkin.

Jadidchilik tamoyillari	**Bugungi Farg‘ona vodiysi yoshlari**
Zamonaviy ta’lim – jadidlar yoshlarni yangi maktablarda o‘qitishni maqsad qilgan.	Yoshlar oliy ta’limga intilmoqda, ammo ta’lim sifati va innovatsiyalarni o‘rganish masalalari dolzarb.
Kasb-hunar egallash – jadidlar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligi uchun kasb-hunar o‘rganishini targ‘ib qilgan.	Yoshlarning katta qismi ish bilan band bo‘lishga harakat qilmoqda, ammo hali ham ishsizlik muammosi bor.
Milliy g‘urur va vatanparvarlik – jadidlar yoshlarning millatga sodiq bo‘lishini istagan.	Hozirgi yoshlar orasida milliy qadriyatlarni qadrlash va vatanparvarlik g‘oyalari kuchli.
Zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish – jadidlar ilm-fanni rivojlantirishni muhim deb bilgan.	Bugungi yoshlar zamonaviy texnologiyalar va startaplarga katta e’tibor bermoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz
[3]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/01/demography/

Erkin fikrlash va innovatsiyalar – jadidlar yoshlarning mustaqil fikrlashini ta’minlashga harakat qilgan.	Yoshlar yangi g‘oyalar bilan chiqmoqda, ijodkorlik rivojlanmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush tarzi va faoliyat ko‘rsatish sharoitlarini yaratishdir. Oila mablag‘ini oila a'zolarining ehtiyojlariga qarab, zarurlarini ajratib olib, to‘g‘ri taqsimlash davr talabidir. Kishi boshiga 9 m^2 va undan ko‘proq turar joy to‘g‘ri keladigan oilalardagi bolalarning sog‘lomligi 5 m^2 turar joy to‘g‘ri kelgan oilalarga nisbatan 7-8 barovar yuqoridir. Hozirgacha oilada eng katta xona bolalarga emas, mehmonlarga ajratiladi. Eng yaxshi, qulay sharoit bolalar uchun yaratilishi kerak, degan ko‘nikma ayrim oilalarda hali shakllanmagan. Oilalarda bolalar uchun eng yaxshi sharoit yaratilishini targ‘ib etishga ahamiyat berish lozim. Bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omilidir.

Xulosa qilinadigan bo‘linsa, Bugun Yangi O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini o‘zi yaratishga harakat qilayotgan, jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlatning taraqqiyotiga o‘ziga xos munosib hissa qo‘shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda yoshlarning ijtimoiy demografik holati va muammolarini tahlil etish, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlarda o‘z yechimini topib bormoqda.

Shu o‘rinda Farg‘ona vodiysi yoshlari va jadidchilik tamoyillari o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud. Jadidlar yoshlarni ma’rifatli, hunarmand va mustaqil fikrlovchi inson sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan bo‘lsa, bugungi yoshlar aynan shu yo‘ldan bormoqda. Biroq, hali ham ta’lim sifati, bandlik va innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p. Agar jadidchilikning ilg‘or g‘oyalari davom ettirilsa, Farg‘ona vodiysi yoshlari nafaqat mintaqaning, balki butun O‘zbekistonning taraqqiyotiga katta hissa qo‘sha oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Demografik muammolar T., 2003.
2.Bo‘rieva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent 2000.
3. Holmatova M,Murodova N, Yoshlar oilaviy xayot busag‘asida.Toshkent 2000.
4. Тожиева З. Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Илмий монография. – Т.: «Fan va texnologiya».
5.https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-huquqlari-togrisidagi-bmt-konvensiyasi-jahon-yoshlarining-huquq-va-manfaatlari-kafolati_197922?ysclid=m2kb6f093i539994292
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz.
7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz.
8.https://daryo.uz/2024/05/28/ozbekiston-aholisining-jinsi-va-yosh-guruhlari-demografik-korsatkichlar-qanday?ysclid=m2k797xmp1634644361
9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz.
10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi ma`lumotlari. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_04_2024-uzb.pdf
11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi ma`lumotlari. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_04_2024-uzb.pdf
12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. www. stat.uz
13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma`lumotlari. http:// www. stat.uz

KASBIY MUHIM SIFATLARNING OLIY TA'LIM PEDAGOGLARINING KASBIY RIVOJLANISH TRAYREKTORIYASIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

B.A.Raximov,
Ma'mun universiteti,
"Psixologiya va sport"
kafedrasi o'qituvchisi.

Tayanch so'zlar: Kasb, oliy ta'lim, pedagog, rivojlanish, trayektoriya, kasbiy muhim sifatlar, motivatsiya, muvaffaqiyat..

Ключевые слова: профессия, высшее образование, педагог, развитие, траектория, профессионально важные качества, мотиватsiя, успех.

Key words: profession, higher education, pedagogue, development, trajectory, professionally important qualities, motivation, success.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasasi pedagoglariga yaratib berilayotgan imkoniyatlar hamda ularni qo'llab quvvatlash yo'lida olib borilayotgan sa'y - harakatlarning negizida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni har tomonlama yetuk tarbiyalalovchi, zamonaviy talablar asosida ta'lim beruvchi hamda ilmiy-akademik faoliyat bilan faol shug'ullanuchi, zamonaviy fikrlovchi va yangilikka intiluvchi professor-o'qituvchilar salmog'ini oshirish, ularning iste'dodini qo'llab quvvatlash hamda kelgusida kasbiy – ilmiy faoliyat sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi yetuk pedagog mutaxassis bo'lishlariga ko'maklashish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berib kelinmoqda. Biroq, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida eng ko'p uchrayotgan salbiy psixologik holatlardan biri sifatida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga ega emasligi va buning natijasida ularning muvaffaqiyatlari darajasining kutilganiga nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatishimiz mumkin. Bunga bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qilishi mumkin. Jumladan, professor-o'qituvchilardagi "kasbiy muhim sifatlar" ning yuqori darajada tarkib topganligi ularning kasbiy rivojlanish trayektoriyasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir.

A.V.Karpov "Kasbiy muhim sifatlar – bu shaxsning alohida dinamik sifatlari bo'lib, psixik hamda psixomotorik xususiyatlarda aks etib, o'zida tegishli psixik va psixofiziologik jarayonlarning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Bundan tashqari shaxs uchun ma'lum bir kasb talablariga mos keladigan va shu kasbni muvaffaqiyatli egallashga yordam beradigan jismoniy sifatlardir" deya ta'rif bergan. [1,190].

Aslida ham har bir insonning individuallik xususiyatlari orqali biz ularni boshqa insonlardan farqlaganimiz kabi, kasbiy muhim sifatlar bo'lmish tashkilotchilik, mas'uliyat, muloqatchanlik, moslashuvchanlik, mehnatsevarlik, kasbiy bilim, tajriba, ijodkorlik hamda stressga chidamlilik kabi sifat va xususiyatlar ham har bir shaxsda turli darajada rivojlanganligi, kasbiy muhim sifatlarning ham individual xususiyat ekanligidan dalolat beradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarda ham mazkur xususiyatlar turlicha darajada rivojlanganligi ularning pedagogik va ilmiy faoliyat sohalarida ham turlicha muvaffaqiyatga erishishlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda kasbiy muhim sifatlar oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning talabalarga bugungi zamonaviy ta'lim nuqtayi-nazaridan didaktik va tarbiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim berishi yuqoridagi ezgu maqsadlar kaliti hisoblanadi.

V. D.Shadrikovning ta'rifi eng to'liq va aniqligi bilan ajaralib turadi. U "kasbiy muhim sifatlar" deganda «faoliyat samaradorligiga va uni o'zlashtirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi subyektning individual fazilatlarini» nazarda tutadi [2, 86-bet].

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan kelib chiqadiki, kasbiy muhim sifatlar subyekt faoliyatining samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Ushbu turdagi mehnat faoliyati uchun talab qilinadigan sifatlarning shakllanganlik darajasiga ko'ra, insonning o'zi tanlagan sohada amalga oshirish qobiliyati haqida xulosa qilish mumkin. Shundan kelib chiqib, o'z qobiliyatlarini ular bilan bog'lash uchun o'zini qiziqtirgan faoliyatning xususiyatlari, tuzilishini bilish hamda hisobga olish juda muhimdir [3, 20-bet].

Shundagina shaxs kasbiy faoliyat jarayonini kasbiy muhim sifatlari bilan uyg'un holatda amalga oshirishga kirishishi hamda ko'plab yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'ladi.

Oliy ta’lim pedagogiga xos bo‘lgan asosiy kasbiy muhim sifatlar

Sifat	Tavsif
Mas’uliyatlilik	Qabul qilingan qaror va harakatlar uchun javobgarlik his qilish.
Reflektivlik	O‘z faoliyatini tahlil qila olish va o‘zgarishlarga ochiqlik
Kreativlik	Yangicha yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyati.
Kommunikativlik	Tushunarli, empatik va samarali muloqot olib borish
Ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyati	Tahliliy fikrlash, ilmiy muammoga yondasha olish.
Motivatsion barqarorlik	Ichki motivatsiyaning uzoq muddat saqlanishi
Pedagogik empatiya	Talabaning psixologik holatini tushunish va moslashuvchanlik
Liderlik	Ilmiy yoki o‘quv jarayonida boshqaruv, tashabbus ko‘rsatish

Professor-o‘qituvchilarning kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish modeli

Ilmiy yetuklik (Transpersonal rivojlanish)

▲

Kasbiy innovatsion izlanishlar (Kreativlik, empatiya)

▲

Malaka va mustahkamlash (Kompetensiyalar, motivatsiya)

▲

Shaxsiy-professional o‘zlikni anglash (Kasbiy identifikatsiya)

Mazkur, kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish modeli ;

1. A.G.Kovalev va D.Syuperning “Kasbiy o‘zlikni anglash”
2. K.Levin va A.Maslouning “Shaxsiy va kasbiy o‘sish spiral modeli”
3. A.Bandura va J.Rotterning “Ijtimoiy-kognitiv nazariya” lariga asoslanib ishlab chiqildi.

Yuqoridagi professor-o‘qituvchilarga xos bo‘lgan kasbiy muhim sifatlar; mas’uliyatlilik, empatiya, kommunikativlik, metodik kompetensiyani oliy ta’lim pedagoglarida shakllantirish hamda rivojlantirishda muassasada faoliyat yuritayotgan psixologlarni ishtiroki juda muhim ahamiyatga egadir. Shundagina, kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish modeli yordamida pedagoglarni kasbiy rivojlanish trayektoriyalarini to‘g‘ri va aniq asosda yo‘lga qo‘yish hamda muvaffaqiyatli ilmiy-pedagogik faoliyat yuritishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy muhim sifatlari masalasiga psixologiya fanida bir nechta yondashuvlar hamda fikrlar mavjudlgini ko‘rsatishimiz mumkin. Bulardan eng asosiy nazariyalarga qaraydigan bo‘lsak, birinchisi, kasbiy muhim sifatlar shaxsning dinamik, psixik, psixomotorik va jismoniy sifatlari bilan bog‘liq xolda taxlil qilingan, ikkinchisi, shaxslarga xos bo‘lgan kasbiy muhim sifatlarni individual psixologik xususiyatlar sifatida e’tirof etadigan ilmiy va boshqa qarashlar mavjud. Yuqoridagi fikrlar pedagoglarning kasbiy rivojlanishlarida, kasbiy muhim sifatlarning ahamiyati masalalari fanda dolzarb va ilmiy axamiyatini yo‘qotmagan muammo ekanligini ko‘rsatadi. Va kasbiy rivojlanishda muhim sifatlar omillarini yanada chuqurroq zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan xolda yangi tadqiqotlar olib borish lozimligini e’tirof etish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. А.В.Карпов. Психологическая структура профессиональной деятельности //Психология труда/Под ред. А.В.Карпова.М., 2004.
2. Шадриков В. Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности. М. : Логос, 2007. 192 с.
3. Raximov B.A. Shaxs kasbiy taraqqiyoti psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma / Urganch.; Khwarezm publication, 2024.-92 b.

OLIY TA'LIMDA TALABALAR STRESSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNGA QARSHI YONDASHUVLAR: EMPIRIK TAHLIL ASOSIDA

Babajanov Maqsadbek Ulug'bekovich,
Ma'mun universiteti,
psixologiya va tibbiyot
kafedrasi o'qituvchisi.
maqsadbekbobojonov2@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalar duch keladigan stress omillari va ularning psixologik salomatligiga ta'siri tahlil qilingan. Stress manbalari sifatida akademik yuklama, shaxsiy muammolar, moliyaviy bosim, o'qitish metodikasi va ijtimoiy moslashuv holatlari aniqlangan. Bir nechta xalqaro va mahalliy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, talabalarda stress darajasi yuqori ekani, unga nisbatan javoblar esa turlicha bo'lishi ko'rsatilgan. Muallif psixoprofilaktik va emotsional moslashuv mexanizmlarini taklif qiladi.

KALIT SO'ZLAR: stress, talaba psixologiyasi, oliy ta'lim, akademik yuklama, psixoprofilaktika, shaxsiy moslashuv, o'quv bosimi, ijtimoiy psixologik omillar.

ANNOTATION: The article analyzes the sources of stress faced by students in higher education and their impact on psychological well-being. Identified stressors include academic workload, personal issues, financial pressure, teaching methodologies, and social adaptation challenges. Drawing on the findings of several international and local studies, the article highlights the high levels of stress among students and the diverse coping responses they adopt. The authors propose psychoprophylactic strategies and emotional adjustment mechanisms as effective means to mitigate stress.

KEYWORDS: stress, student psychology, higher education, academic workload, psychoprophylaxis, personal adjustment, academic pressure, socio-psychological factors.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun stress — nafaqat tashqi omillar, balki ularning ichki psixologik muvozanatini izdan chiqaruvchi omil hisoblanadi. Stress holatining shakllanishida individual psixik sezuvchanlik, ijtimoiy-emotsional muhit va o'quv yuklamasi muhim o'rin tutadi. Millat taraqqiyotida talabalarning roli muhim. Agar ular psixologik va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlangan bo'lsa, ular mamlakatni rivojlantirishga olib kelishi mumkin **[1].** Stress, tashvish va taranglik har qanday mavjudotning baxtini jiddiy ruhiy va jismoniy muammolarga aylantira oladigan atamalardir. Ushbu atamalarning talabalar hayotiga integratsiyalashuvi ularga har jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatishi va shu bilan ularning o'quv faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Talabalar o'rtasida stress turli xil cheklovlar tufayli yuzaga kelishi mumkin, ular orasida imtihon qo'rquvi, shaxslararo munosabatlar, atrof-muhit va ularning dunyoqarashi bo'lishi mumkin. Bu omillar talabalarga psixologik va akademik jihatdan bevosita ta'sir qiladi. Talabalardagi stress darajasi barqaror va baxtli hayot kechirish uchun zarur bo'lgan akademik natijalar bilan bog'liq juda muhim o'zgaruvchilardan biri bo'lib hisoblanadi. Talabalar jamiyatning eng qimmatli qismidir, chunki har qanday davlatning kelajagi bevosita ularning qo'lida.

Tadqiqotchilar Bulo, J. G., va Sanchez, M. G. lar o'z tadqiqotlarida ta'kidlashicha «Talabalar hayotida stressning eng keng tarqalgan turlari — shaxsiy, munosabatlardagi, akademik va atrof-muhit omillaridir» **[2.B,16]**. Moliyaviy qiyinchiliklar, past baholar, katta o'quv yuklamasi va ota-onalarning kutgan natijalari talabalardagi stressni kuchaytiruvchi omillar sifatida qayd etilgan **[4]**. Ushbu stress holatlari O'zbekistonda ham keng tarqalgan bo'lib, akademik bosim, moliyaviy muammolar, ota-onalarning kutgan natijalari, imtihonlar va baholashdagi noaniqliklar stress darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, talabalar noreal umidlar, kelajak tashvishlari, qo'rquv, raqobat va madaniy o'zgarishlar tufayli stressni his qilishlari mumkin . Bu esa, talabaning psixologik barqarorligini susaytirib, emotsional beqarorlik va o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi. Natijada stressga qarshi kurashishda individual yondashuv, ijtimoiy yordam tizimi va psixologik savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy qism. Stress holatini tushunishda Gans Selyening konsepsiyasi asosiy nazariy baza hisoblanadi. U stressni organizmning har qanday tashqi yoki ichki tahdidga umumiy moslashuv javobi

deb belgilagan: Stress organizmning ichki muvozanatini buzuvchi tashqi ta’sirga moslashuv ko‘rinishidir.

Ilmiy adabiyotlarda stress omillari keng tasniflangan. Jumladan, Saeed, M., Ullah, Z., va Ahmad, I. o‘z tadqiqotlarida akademik stressni keltirib chiqaruvchi omillar olti toifa bo‘yicha tasniflanadi: o‘qituvchilar, o‘quv jarayoni, shaxsiy muammolar, ijtimoiy munosabatlar, o‘z-o‘zini baholash, va akademik bosim **[8.B, 205]**. Bundan tashqari, stress yuzaga kelishining sabablari talabaning o‘zini baholash darajasi va umidlariga bog‘liq. Stressga individual yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. M.E. Seligman nazariyasiga ko‘ra, insonning stressga bo‘lgan munosabati uning umid, nazorat tuyg‘usi va kognitiv yondashuviga bog‘liq. Optimistik insonlar stressni vaqtinchalik va o‘tkinchi holat deb baholaydi, pessimistiklar esa uni hayotiy muammo sifatida qabul qiladi Ushbu farqlanish stressga individual psixologik profil orqali yondashish zarurligini isbotlaydi.

Stressga yondashuvdagi bu farqlar psixologik moslashuvchanlik darajasi va ijtimoiy ko‘mak tizimi bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, akademik muhitdagi interaktiv metodlar ham ba’zan stress manbai bo‘lishi mumkin. Pai, D. R., Ram, S., Madan, S. S., Soe, H. H. K., va Barua, A. larning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, «simulyatsiya paytidagi bemor o‘limi holati talabalar uchun eng yuqori darajadagi stress sabablaridan biri bo‘lib qolgan» **[5.B, 192]**. Bu esa, o‘quv metodikasining mazmuni va shakli stress holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash zarurligini anglatadi.

Stress talabaning o‘quv faoliyatiga, jismoniy holatiga va ijtimoiy moslashuvchanligiga salbiy ta’sir qiladi. Talabalarda stressning asosiy turlari — akademik, shaxsiy va ijtimoiy stress shaklida namoyon bo‘ladi. Bunday tasnif stressni oddiy ruhiy holat emas, balki kompleks ijtimoiy-psixologik tizim sifatida anglash imkonini beradi. Boshqa tarafdan, stressning yuzaga kelish mexanizmi har doim ham omillar yig‘indisi bilan cheklanmaydi. Uni keltirib chiqaruvchi holatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv, ota-onalar kutgan natijani oqlay olmaslik, tanlov bosimi, do‘stlar bilan mojarolar, til muammolari, baholashdagi noaniqliklar asosiy stress omillari sifatida ajratib ko‘rsatilgan **[4].** Mazkur omillar nafaqat o‘quv faoliyatiga, balki shaxsiy o‘zlikni anglash jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatadi. Stressli vaziyatlarga talabalarning qanday munosabatda bo‘lishi masalasi ham muhim.

Nazariy asoslar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba hayotidagi stress turli ijtimoiy, emotsional, kognitiv va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘langan. Bu omillar nafaqat mustaqil, balki o‘zaro kesishuvchi tizimlar sifatida ham harakat qiladi. Shu sababli stressni faqat bir yo‘nalishda o‘rganish emas, balki multidisiplinar asosda yondashish orqali tahlil etish muhim.

Demak, talaba hayotidagi stress omillari murakkab tizim bo‘lib, ularni tahlil qilish multidisiplinar va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu holatlarni to‘g‘ri anglash va samarali psixoprofilaktik yondashuvlarni ishlab chiqish oliy ta’limdagi psixologik barqarorlikni ta’minlash uchun zarur hisoblanadi.

Metodologiya: Mazkur maqola talabalarda stressning yuzaga kelishi va unga bo‘lgan munosabatni aniqlashda bir nechta nufuzli xalqaro tadqiqotlar metodologiyasidan foydalanib umumlashtirildi. Yangi metodologiya taklif qilinmagan, aksincha mavjud ishonchli amaliy yondashuvlar sintezlangan.

So‘rovnoma tuzishda Student-Life Stress Inventory va boshqa validatsiyalangan shkalalar asos qilib olingan. Shu jumladan, stress darajasi va simptomlari baholagan Pariat, L., Rynjah, A., va Kharjana, J. M. G. lar o‘z ishlarida quyidagilarni qayd qilgan: «Talabalarning stress darajasi Akhtar (2004) tomonidan ishlab chiqilgan Student Stress Scale yordamida aniqlangan» **[6. B, 45]**. Bunday usul psixometrik jihatdan ishonchli bo‘lib, «Alpha koeffitsienti 0.78, test-retest ishonchliligi esa 0.71» **[6. B, 42]**. Shu sababli natijalar statistik jihatdan asosli hisoblanadi.

Ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida tahlil qilingan. Foydalanilgan asosiy statistik vositalar: Deskriptiv statistika, T-test (jinsiy farqlar yoki yashash joyi farqlari uchun), ANOVA (yosh guruhlari yoki ta’lim yo‘nalishlari kesimida), Pirson korrelyatsiyasi (stress darajasi bilan akademik ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik). Metodik yondashuvda etik mezonlarga qat’iy amal qilingan: So‘rovnoma anonim tarzda, ixtiyoriy ishtirok asosida va maxfiylikka qat’iy amal qilingan holda o‘tkazilgan. Stress manbalarini tahlil qilishda demografik omillar ham hisobga olingan. Respondentlarning yoshi, jinsi, oilaviy holati, yashash joyi va ota-onasining ma’lumot darajasi kabi omillar aniqlangan **[6].**

Bundan tashqari, akademik stressni baholash uchun «MSSQ-40» (Medical Student Stressor Questionnaire) **[3]** va shaxsiy emotsional stress uchun «Zung Self-Rating Anxiety Scale» keng qo‘llanilgan. Har ikki shkala stressning ko‘p qirrali, murakkab tuzilmasini hisobga olgan holda qo‘llaniladi. Ko‘rsatilgan metodlar shuni isbotlaydiki, talabalar stressini o‘rganishda bir yo‘nalishli

yondashuv yetarli emas. Mazkur maqolada foydalanilgan uslublar stressning: emotsional (uyqusizlik, xavotir, depressiya), ijtimoiy (munosabatlar, ijtimoiy izolyatsiya), akademik (imtihonlar, yuklama), moliyaviy (xarajatlar, ta'lim kontrakti) tomonlarini chuqur yoritish imkonini beradi.

Demak, empirik izlanishlar asosida shakllangan so‘rovnomaviy, psixometrik, statistik va etik yondashuvlar birgalikda qo‘llanilgan holatda talabalarning stress holatini chuqur va ishonchli tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar. O‘tkazilgan tahlillar talabalarda stress darajasi yuqoriligini ko‘rsatdi. Tibbiy yo‘nalishdagi talabalar orasida 94,9% ishtirokchi akademik stressga duch kelgan deb javob bergan **[3]**. Bu stresslar ko‘proq imtihon bosimi, baholash tizimidagi noaniqliklar, katta o‘quv yuklamasi va natijaga yo‘naltirilgan talablarga bog‘liq.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar eng yuqori darajadagi stressni moliyaviy qiyinchiliklar (o‘rtacha 4.83 ball), ijtimoiy muammolar (ota-onalar bilan ziddiyat, notanishlar bilan ishlash), o‘qituvchi bilan salbiy munosabatlar, qarama-qarshi jins bilan munosabatlar, va til to‘sig‘i tufayli his qilishgan **[2]**.

Yashash muhiti ham stress darajasiga ta'sir ko‘rsatgan. Yotoqxonada yashovchi talabalar uyda yashovchilarga qaraganda ko‘proq stressni boshdan kechirishgan **[3]**. Jinsiy tafovut ham kuzatildi — ayol talabalar erkaklarga nisbatan stressni kuchliroq his qilishgan. Bu emotsional sezuvchanlik, jamiyatdagi gender roli va kutuvlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin **[7]**. Stressga yondashuvlarda ham tafovutlar mavjud: ba'zi talabalar ibodat, do‘stlar bilan muloqot va jismoniy faollik orqali stressni yengishga urinayotgan bo‘lsa, boshqalar chekish, tarmoqlarga haddan ortiq bog‘lanish yoki passivlik orqali muammoni bosishga harakat qilganlar **[6]**.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, stress manbalari va unga bo‘lgan munosabatlar ko‘p omilli va o‘zaro murakkab bog‘liqliklarga ega. Natijalar talabalar stressini yengillashtirish uchun ijtimoiy, psixologik va akademik yo‘nalishlarda integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot oliy ta'limdagi talabalar stressining murakkab, ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Stress omillari orasida akademik yuklama, moliyaviy bosim, shaxsiy va ijtimoiy moslashuv muammolari yetakchi o‘rinda turadi. Tibbiy yo‘nalish talabalari orasida stress darajasi ayniqsa yuqori bo‘lib, bu intensiv o‘quv yuklamasi va baholash tizimidagi bosim bilan bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, stress darajasi talabaning jinsi, yashash joyi va psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Ayol talabalar erkaklarga nisbatan emotsional jihatdan ko‘proq reaktivlik ko‘rsatgan. Yotoqxonada yashovchilar uyda yashovchilarga qaraganda sezilarli darajada ko‘proq stressni boshdan kechirgan. Stressga yondashuvlar ham turlicha bo‘lib, sog‘lom strategiyalar (ibodat, do‘stlar bilan muloqot, sport) bilan bir qatorda salbiy yondashuvlar (chekish, ijtimoiy izolyatsiya) ham kuzatildi. Bu esa stressga qarshi kurashda differensial va integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, oliy ta'limda stressni kamaytirish faqatgina akademik yuklamani kamaytirish bilan emas, balki talabalar uchun psixologik yordam tizimini kuchaytirish, sog‘lom moslashuv strategiyalarini targ‘ib qilish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev,Sh.(2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojatnomasi.

2. Bulo, J. G., & Sanchez, M. G. (2014). Sources of stress among college students // CVCITC Research Journal. – Vol. 1, No. 1. – P. 16–25. – ISSN: 2362-9029.

3. Gupta, S., Choudhury, S., Das, M., Mondol, A., & Pradhan, R. (2015). Factors causing stress among students of a medical college in Kolkata, India // Education for Health. – Vol. 28, No. 1. – P. 92–95. – DOI: 10.4103/1357-6283.161924

4. Jain, D. (2019). Cause behind declining academic performance: Stress among students // Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR). – Vol. 6, No. 6. – P. 114–119. – ISSN: 2349-5162. – https://www.jetir.org/papers/JETIR1907R14.pdf

5. Pai, D. R., Ram, S., Madan, S. S., Soe, H. H. K., & Barua, A. (2014). Causes of stress and their change with repeated sessions as perceived by undergraduate medical students during high-fidelity trauma simulation // The National Medical Journal of India. – Vol. 27, No. 4. – P. 192–197.

6. Pariat, L., Rynjah, A., & Kharjana, J. M. G. (2014). Stress levels of college students: Interrelationship between stressors and coping strategies // IOSR Journal of Humanities and Social

Science (IOSR-JHSS). – Vol. 19, No. 8, Ver. III. – P. 40–46. – ISSN: e-2279-0837, p-2279-0845. – https://www.iosrjournals.org

7. Qamar, K., Khan, N. S., & Kiani, M. R. B. (2015). Factors associated with stress among medical students // Journal of the Pakistan Medical Association (JPMA). – Vol. 65, No. 7. – P. 753–755. – https://www.researchgate.net/publication/377780595

8. Saeed, M., Ullah, Z., & Ahmad, I. (2020). A Qualitative Exploratory Study of the Factors Causing Academic Stress in Undergraduate Students in Pakistan // Liberal Arts and Social Sciences International Journal (LASSIJ). – No. 4(1). – P. 203–223. – DOI: 10.47264/idea.lassij/4.1.18

ONLAYN IZOHNING JANR STATUSI

Jumanazarov Sardorbek Rajabboyevich
Ma‘mun Universiteti, Filologiya fakulteti,
“Roman-german filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
sardorjumanazarov4565@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada onlayn sharhning janr holati haqida savol tug'iladi. O'tkazilgan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarmoqdagi izoh subjanr (mustaqil bo'lmagan janr) tarmoq muhokamasining bir qismi bo'lgan Internet aloqasi nima ekanligini ifodalaydi . Subjanr holati ma'lum jihatdan (ommaviy axborot vositalari, pragmatik, stilistik va lingvistik parametrlar) onlayn sharhning o'ziga xosligi va o'ziga xosligi borligini anglatadi, bu bizga ushbu shakllanishni boshqa Internet janrlaridan ajratish imkonini beradi. Ammo tarkibiy va semantik nuqtai nazardan, onlayn sharh mustaqil emas, shuning uchun uni asl (sharhlangan) matn va barcha o'quvchilarning sharhlarini o'z ichiga olgan makromatn shakllanishining bir qismi sifatida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: onlayn sharh, matn, janr, media, pragmatik, semantik, strukturaviy tahlil.

Kommunikatsion texnologiyalarning tarqalishi va rivojlanishi tufayli Internetda muloqotning turli janrlari va shakllari har bir inson hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internetdan foydalanishning kommunikativ amaliyotlari orasida so'nggi yillarda keng tarqalgan Internet-muloqotning ijtimoiy turlari, shu jumladan turli xil onlayn materiallarga sharhlar yozish alohida ahamiyatga ega.

Onlayn sharhlarga murojaat qilishning dolzarbligi tadqiqotchilarning ushbu janrning ijtimoiy ahamiyati haqidagi kuzatishlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, I. A. Ushanovaning so'zlariga ko'ra, onlayn ommaviy axborot vositalarining matnlariga sharhlar shakl "rezonans bo'sh joy" media nutqi: media mavzularidan foydalanib, ular "qayta ishlash" ularning, berish ular yana rivojlanish, A Shuningdek yangi mavzular manbai bo'lib xizmat qiladi [1, p. [108–109]. Ushbu mavzuni ishlab chiqishda shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, ommaviy axborot vositalari vakillari emas, balki oddiy Internet foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan onlayn sharhlar mafkuraviy bo'yoqlardan xoli bo'lib, bizga fikr yuritish imkonini beradi. Tahririyat va shunga mos ravishda maqola muallifi tomonidan yuklangan hukmron siyosiy guruhning fikri emas, balki hozirgi ijtimoiy muammo bo'yicha shaxsning haqiqiy fikri haqida.

O'zining qisqa tarixi tufayli onlayn sharhlash tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qila boshladi: hozirgi kunga qadar onlayn sharhlarning turli tomonlarini tavsiflovchi bir nechta lingvistik asarlar mavjud [1–7]. Bizning maqolamizda biz onlayn sharhning janr holatining ta'rifiga murojaat qilishni taklif qilamiz, ya'ni. onlayn sharh Internet aloqasining alohida janrimi yoki yo'qmi degan savolni aniqlash.

Asosan, veb-sharh - bu turli xil veb-manba materiallari haqida o'quvchining fikrini ifodalovchi qisqa xabar. Shakl onlayn sharhlar uchun Internet-muloqotning ko'plab janrlari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, Twitter, onlayn media va boshqalar) interfeysida taqdim etiladi. Masalan, quyidagicha belgilanadi: "Izoh berish" ("Vkontakte", "kommentieren" (nemis tilidagi www.blogger.de serveridagi bloglar yoki "Schreibe" bitta Izoh” (Nemis tilida versiya Facebook, www.facebook.com). Shunga ko'ra, "sharh" atamasi Internet-muloqotning turli janrlarida muloqotni ta'minlaydigan dasturlar bilan belgilanadi, bu esa undan foydalanishning qonuniyligini ko'rsatadi.

Biroq, ba'zi mualliflar "javob" atamasi foydasiga ushbu atamadan voz kechishga harakat qilishadi, buni sharhlash tabriklar, ko'rsatmalar va savollar bilan bir qatorda javob funktsiyalaridan biri ekanligi bilan asoslaydilar [2, p. 8; 3, p. 16]. Biroq, bizning fikrimizcha, asl lotincha "commentarius" atamasi etimologiyasi ("kom-" intensiv dan prefiks + asos "meminisse" dan "eslab qolish" [8]) tegishli kompyuter dasturlari interfeysida qo'llaniladigan "sharh" atamasining keng funktsional tushunchasiga zid emas. Shuningdek, bu bunday kommunikativ hodisani "sharh" (inglizcha "a comment " dan) sifatida belgilashning keng tarqalgan amaliyotidan dalolat beradi . 5]. Bizning ishimizda ushbu "sharh" atamasining rus tilidagi ekvivalentiga ustunlik beriladi va "sharh" atamasi, bizning fikrimizcha, tegishli jargon lug'atlarida o'z aksini topgan jarangli xarakterga ega (masalan, [9]).

Qanday qilib va va hol boshqalar ijtimoiy janrlar Internet (kompyuter forum, munozaralar va ijtimoiy tarmoq, blog yoki "Twitter"), tarmoq sharhlash bor murakkab matn tabiat. o'xshash holatlar matn mumkin hisoblash yoki xabar individual foydalanuvchi (o'zgartirish Gapirmoqda tortadi uchun o'zingiz tomonidan yangi bayonot [10, p. 263], ya'ni. yangi matn) yoki bitta mavzu (forum) bilan birlashtirilgan xabarlarning butun to'plami, asl xabar (blog, tarmoqdagi sharhlar) maqola) yoki shaxsiyat muallif (Twitter). Yangi kommunikativ sharoitlarda matn kontseptsiyasini o'zgartirish haqidagi g'oyalarimizga asoslanib , biz taklif qilamiz [11]. o'xshash holatlar ta'kidlash boshqacha darajalari matnni tashkil etish: mikro daraja (daraja individual xabar) va so'l daraja (bitta mavzu yoki bitta muallifga tegishli xabarlar to'plami, cheklangan va interfeys aniq internet janri boshqalardan munozaralar).

Onlayn sharhlashning janr tabiatini o'rganish makro darajada ham, bir nechta darajada ham mumkin xabarlar, bog'liq bilan original tarmoq - boshlang'ich darajada, individual sharh darajasida va mikro darajada (birlamchi, sharhlangan matn). Biroq, onlayn sharhlarni sharhlangan matndan alohida tahlil qilish har doim ham mumkin emas, chunki sharhlar juda qisqa, elliptik bo'lishi mumkin yoki hatto og'zaki qismni o'z ichiga olmaydi, masalan, kulgichlar bilan cheklangan. Bu bizga tarmoq sharhini atributlash imkonini beradi kabi qaram janr shakllanishlar va uni mavjud bo'lgan kichik janr sifatida ko'rib chiqing yanada murakkab janr shakllanishining bir qismi sifatida (onlayn ommaviy axborot vositalaridagi maqola, blog, ijtimoiy tarmoq va boshqalar).

Tushunchalar janr, subjanr va Biz nutq janrlarining o'xshash tasnifi asosida Internet-muloqotning giperjanrini kiritamiz , ya'ni. og'zaki muloqot janrlari, taklif qilingan TO. F. Sedov [12, bilan. 14]. Bunday holda, biz pastki janrlarni nisbatan to'liq deb talqin qilamiz, egalik qilish aniq ommaviy axborot vositalari mustaqil mavjud bo'lolmaydigan ta'limni amalga oshirish va ichida aniq xizmatlar Internet yoki kompyuter dasturi va ular majburiy ravishda kattaroq ob'ektga - janrga kiritilgan. Masalan, veb-sahifa maydonida "Tez-tez so'raladigan savollar", "Mehmonlar kitobi" va "Interaktiv so'rov" mavjud. Janrlar (tor ma'noda) farq qiladi uning ommaviy axborot vositalari ma'lum bir Internet xizmati doirasida mustaqillik (elektron xat, suhbat) yoki kompyuter dasturlari va World Wide Web doirasida (kompyuter forumi, veb-sahifa va boshqalar). Tuzilishi jihatidan eng murakkablari giperjanrlar (Masalan, veb-portallar), ular tarkibida turli janrlarni birlashtirgan Internet aloqalari. Giperjanr Biz hisobga olamiz va ijtimoiy to'r va kuch uni ko'p funktsionallik va uning ichida Internet-muloqotning turli xil janr shakllarini taqsimlash (foydalanuvchilarning shaxsiy sahifalari) va guruhlar, guruh munozaralar, qidirish, media fayllarni saqlash va boshqalar). Shuni ta'kidlash kerakki, bularning barchasi turli xil janr shakllari tez-tez belgilanadi Bu holda juda keng ma'noga ega bo'lgan va Internetdagi har qanday tipik aloqa shakllariga ishora qiluvchi "janr" ning ajratilmagan atamasi.

Agar onlayn sharhning janr holati haqidagi savolga qaytadigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tilganidek, bu janr shakllanishining ushbu turkumidagi eng elementar kichik janr bo'lib, oraliq janr shakli (janr) sifatida onlayn munozaralar tarkibiga kiradi va onlayn munozara, bu haqda olingan barcha sharhlar bilan bir qatorda, o'z navbatida, Internet aloqasi gipergenri sifatida ijtimoiy tarmoqning tarkibiy qismlaridan biridir. Xuddi shu narsani Internetning boshqa ijtimoiy janrlaridagi onlayn sharhlar haqida ham aytish mumkin, masalan, YouTube videoxostida : pastki janrlar sifatida onlayn sharhlar sharhlangan video bilan birgalikda xostning alohida sahifasiga joylashtiriladi, ularning jami qidiruv va boshqa umumiy YouTube xizmatlari bilan birgalikda Internet-muloqotning ma'lum bir giperjanrini tashkil qiladi .

Biz taklif qilgan tahlil modeliga o'xshaydi janr Internet aloqalari, shu jumladan ommaviy axborot vositalari, pragmatik, strukturaviy-semantik va stilistik va lingvistik parametrlari janr [13, bilan. 27-63], kichik janrni tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin tarmoq sharhlar. Keling, tasvirlab beraylik Bu ijtimoiy tarmoqdagi munozaraga sharhlarni tahlil qilish misolidan foydalanish tarmoqlar LinkedIn ,

qaysi odatda belgilanadi ijtimoiy sifatida to'r uchun professional aloqa [14]. OAV parametrlari . Interfeys , bular. ingl dizayn tarmoq sharhlar va giperhavolalar, ruxsat berish majburlash aniq kommunikativ harakatlar bilan uni, o'z ichiga oladi. Keyingisi elementlar:

avatar (fotosurat) va muallifning logini (professional ijtimoiy tarmoqda, odatda, haqiqiy ism va familiya, shuningdek ish joyi, bu sifatida ishlatiladi);

asosiy matn;

reyting ("layk" soni", ya'ni sharhning ijobiy baholari) va shu bilan birga ijobiy baho qo'shish imkoniyati;

imkoniyat yozish shaxsiy xabar;

imkoniyat "Nomaqbul kontent haqida xabar berish";

sharh yozish vaqti (uning o'qilgan vaqtiga nisbatan necha kun yoki soat oldin sharh yozilgan);

Ushbu interfeys 1-misolda tasvirlangan (misol faqat sharhning og'zaki qismini ko'rsatadi, unda asl shriftni ajratib ko'rsatish va imlo saqlanadi; qo'shimcha ravishda, giperhavola bo'lgan elementlar tagiga chizilgan holda ta'kidlangan).

Sorin Paliga

Buxarest universiteti, bo'lim slavyan tillari

Til - bu so'zlar va iboralar ro'yxati emas, balki odamlarning barcha o'ziga xos munosabatlari bilan gaplashadigan til. odatlar, xatti-harakati, madaniyat, din va hokazo. Demak, ha, chet tilini o'rganish bu va boshqa ba'zi jihatlarni anglatadi ham. The yaxshiroq chet ellik tushunadi va Bularning barchasini o'zlashtirgan bo'lsa, uning bu tilni bilishi shunchalik yaxshi bo'ladi.

Yoqdi (1) Shaxsiy javob bering Nomaqbul deb belgilang 1 kun oldin

Barboura S. buni yoqtiradi (Amaliy tilshunoslik, 09.02.2015).

Tarmoq sharhi interfeysining nomlangan elementlari kompyuter dasturi tomonidan taqdim etiladi, ya'ni. foydalanuvchi shrift rangini, formatlashni tanlashi yoki interfeys elementlarini birlashtirishi shart emas. Unga ro'yxatdan o'tish, asl nusxasini o'qish kifoya matn va u haqida fikringizni chop eting bu maqsad uchun maxsus belgilangan sohada. Bu foydalanuvchi uchun, hatto Internetning ushbu janrida ko'p tajribaga ega bo'lmaganlar uchun ham onlayn sharhlashni iloji boricha qulay va tushunarli qiladi.

Ko'rinib turibdiki, onlayn sharh ma'lum darajada gipermatnlilik bilan ajralib turadi, chunki u dastlab giperhavolalar (foydalanuvchi nomi, sharhni baholash qobiliyati va boshqalar) bilan birga keladi, giperhavolalar muallif tomonidan birlashtirilishi mumkin. va va asosiy matn sharhlar. Hammasi giperhavola bosilganda havolalar alohida veb-brauzer oynasida ochiladi. Interaktivlik , ya'ni. turli kommunikantlarning muloqotda ishtirok etishi odatda bitta izoh uchun xos emas, balki asl xabar haqida o‘ziga xos polilogni tashkil etuvchi izohlar to‘plamining ajralmas xususiyatidir. Onlayn sharhlarda turli semiotik kanallardan foydalanish kabi multimedia odatiy emas uchun bundan janr va o‘zini namoyon qiladi faqat foydalanuvchi fotosurati (avatar) va interfeys elementlarini takrorlaydigan ba'zi piktogrammalardan foydalanishda, ular onlayn sharhlashning asosiy maqsadi nuqtai nazaridan faqat ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Onlayn sharhlash Internetda asl matn muallifining bir vaqtning o'zida bo'lishini talab qilmaydi. va bu asl nusxaga sharh yozadiganlar matn, bu bizga onlayn sharhni asinxron janr sifatida tavsiflash imkonini beradi . Bu manba matnni, boshqa foydalanuvchilarning sharhlarini o'qish va muhokamada ko'tarilgan masala bo'yicha o'z pozitsiyasi haqida o'ylash uchun vaqt topadigan foydalanuvchilar uchun juda qulaydir. LinkedIn professional ijtimoiy tarmog'idagi guruh muhokamalari bo'yicha bizning kuzatishlarimizga asoslanib , individual sharhlarni nashr qilish o'rtasidagi vaqt bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi.

tomonidan miqdori aloqa xodimlari subjanr Onlayn sharh o'zining birdan ko'pga (1:n) yo'nalishi bilan ajralib turadi, masalan, kattaroq janrdan farq qiladi - original xabar va unga barcha sharhlar bilan onlayn munozara, yaratish va idrok etishda bir nechta kommunikantlar ishtirok etadi (n:n). 1-misolda ko'rsatilganidek, professional ijtimoiy tarmoqdagi onlayn sharh muallifi odatda aniq : uning loginida uning haqiqiy ismi va familiyasi, shuningdek ish joyi mavjud.

Onlayn sharhning qayd etilgan media xususiyatlari, shuningdek, uning pragmatik parametrlarini , xususan, murojaat qiluvchining turini (shaxsiy yoki institutsional aniq foydalanuvchi), adresat (ko'plab shaxsiy va institutsional foydalanuvchilar), xronotop (onlayn sharh o'zining globalligi bilan ajralib turadi, ya'ni uni istalgan vaqtda dunyoning istalgan nuqtasidan yaratish va o'qish imkoniyati - tegishli veb-sahifani serverda saqlash sharti bilan). Professional ijtimoiy tarmoqda onlayn sharhlar yozishdan maqsad o'quvchilarni xabardor qilish va munozara tomonidan aniq professional mavzu. Shuni ta'kidlash

kerakki, noprofessional ijtimoiy tarmoqlarda sharhlar odatda kamroq bo'ladi, lekin ular bir oz boshqacha funktsiyalarni bajaradi - asl xabarni baholash, uni to'ldirish va hokazo.

Strukturaviy va semantik jihatdan tarmoq sharhlar farq qiladi kichik hajmi (1-7 paragraflar) va asl matn - asl xabar yoki sharhning mohiyatiga to'liq mos keladigan boshqa sharh bilan juda yaqin semantik "uyushish" - biror narsa haqida fikr bildirish. Sharh asl nusxani to'ldirish uchun mo'ljallangan. izoh berdi matn, A shuning uchun emas talab qiladi katta hajmi. Haqida munosabatlar Qo'shimchalar, shuningdek, asl matn va unga berilgan sharhlar o'rtasidagi ko'plab matnli aloqa vositalaridan dalolat beradi. Shunday qilib, "Tillarni o'qitishda madaniyat, kelib chiqish va dinlar mavjud bo'lgan to'siqlarga qanday munosabatda bo'lasiz?" Amaliy tilshunoslik mavzular guruhidan (www.linkedin.com/groups) biz quyidagi umumiy semantik guruhlarni kuzatamiz:

Tillarni o'rgatish - chet tilini o'rganish, ESL sinfi, tilni egallash, ma'lum bir tilni o'rganish, til o'qituvchilari.

Madaniyat - o'ziga xos munosabatlar, odatlar, xulq-atvor, din, pushtu va ba'zan nepal kabi madaniyatlar, madaniy o'sish, urf-odatlar, urf-odatlar, vatanparvarlik ramzlari, turmush tarzi.

Tarkibiy-semantik darajada onlayn sharhning mustaqil emasligi namoyon bo'lib, uning subjanr maqomini tasdiqlaydi. Buni izohlarda ko‘rsatish olmoshlari va aniqlovchilardan foydalanishning ko‘plab holatlari guvohlik beradi. anaforik matn ulanishlar va asl matnda yoki oldingi sharhlarda aytilganlarga ishora qiladi. Shu sababli, sharhning rasmiy to'liqligi va yaxlitligiga qaramay (xususan, keyingi sharhga o'tishda muallifning o'zgarishi dalolat beradi), semantik nuqtai nazardan, asl matn va sharhlarning umumiyligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, ular umuman teng bo'lmagan asl matnga ega bo'lgan polilogning bir turini tashkil qiladi (hajmi jihatidan ko'proq ahamiyatga ega va matn tuzilmasi bo'yicha xilma-xil, tuzilmalari bo'yicha turlicha). Izohlarning har biri, bu holda, semantik jihatdan faqat nisbatan to'liq matn shakllanishini, muhokamadagi o'ziga xos nusxani ifodalaydi. Matn rivojlanishini faqat makromatnda, sharhlar yig'indisida ochish mumkin. Ko'rinishidan, bu rivojlanish o'z-o'zidan, oldindan o'ylab topilmagan va muhokamaning har bir ishtirokchisining xohishiga bog'liq, ammo bu maxsus o'rganishni talab qiladi.

Stilistik va lingvistik nuqtai nazardan , tarmoq sharhi professional ijtimoiy tarmoqlar U ilmiy va ishbilarmonlik uslubida yozilgan va asosan neytral, faqat vaqti-vaqti bilan hissiy parchalar mavjud. yoki tabiiy nutq belgilari (masalan, matn terish xatolari), ammo biz ko'rib chiqqan materialda juda kam uchraydi. Faqat bir nechta sharhlarda biz yuqorida aytib o'tilgan muhokamaning bir qismi bo'lgan 2-misolda tasvirlangan uslubning heterojenligini kuzatishimiz mumkin .

... Madaniyat bunga qarshi chiqsa, bu ayniqsa qiyin bizning qadriyatlar yoki xafa qiladi biz! Balki fikr ning rozi bo'lmaslik yordam beradimi? Talabalar qabul qilishlari shart emas qadriyatlar ning xorijiy madaniyat shunchaki harakat qilib ko'ring uchun tushunish ularnikidan qanchalik farq qiladi. Bu ishlaydimi? (Amaliy tilshunoslik, 09.02.2015).

Berilgan sharh, birinchi navbatda, adabiy me'yordan kelib chiqqan holda tuzilgan nemis ishlatiladi professional va mavhum lug'at (madaniyat, qadriyatlar, g'oya, talabalar, qabul qilish) va etarli murakkab grammatika (murakkab gaplar, bir hil a'zolar, infinitiv guruhlar). Shu bilan birga, sharh muallifi ishlatgan undov va savol belgilari bilan jumlalar bayonotga ma'lum bir emotsionallikni beradi, bu yozuvchining muhokama qilinayotgan mavzuga qiziqishini va uni muhokamasiga iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb qilish istagini ko'rsatadi.

Onlayn sharhlar tahlilini umumlashtirish uchun shuni ta'kidlaymizki, ushbu matn shakllanishi asl (sharhlangan) matnga hamroh bo'lgan Internet aloqasining subjanri (mustaqil bo'lmagan janr) deb hisoblanishi mumkin. Subjanr maqomi ma'lum jihatdan (ommaviy axborot vositalari, pragmatik, stilistik va lingvistik parametrlar) onlayn sharhning o'z-o'zini ta'minlashga ega ekanligini anglatadi. va originallik, Nima imkon beradi chegaralash Bu Internetning boshqa janrlaridan shakllanishdir. Ammo tizimli va semantik nuqtai nazardan, onlayn sharh mustaqil emas va o'quvchining tegishli muammo bo'yicha umumiy munozaraga qo'shilishini anglatadi, shuning uchun uni asl nusxani o'z ichiga olgan makromatn shakllanishining bir qismi sifatida ko'rib chiqish tavsiya etiladi. (sharhlangan) matn, shuningdek, o'quvchilarning boshqa sharhlari.

ADABIYOTLAR:

1.Ushanova VA. A. Fikrlar kitobxonlar V yangi ommaviy axborot vositalari Qanaqasiga Internet aloqasi shakli // Til va madaniyatlararo aloqa: Ikkinchi Xalqaro ilmiy- Amaliyot. konf. (Veliy Novgorod, 2011 yil 19-20 may): 2 jildda. T. 2. / Resp. ed. O. A. Aleksandrova, E. F. Jukova. Ajoyib - kiy Novgorod: nomidagi Novgorod davlat universiteti Yaroslav donishmand, 2011. P. 105–109.

2.Andreeva D. A. Diskursiv tadbirning ramkasi "tomoshabin- yangiliklar hisobotiga javob" // Dijest - 2012: RGF VDU fakulteti talabalarining diplom ishlari / ostida ed. N. A. Fenenko. Voronej: Nashriyot -Voronej davlatining bosmaxona markazi Universitet, 2012. Nashr. 13. 8-15-betlar.
3.Egorova M. A. Javoblar Va baholash sharhlar da com- kalay vositachiligida kommunikatsiyalar // Herald Voro- Nejniy davlat universiteti. Seriya: Tilshunoslik- ka Va madaniyatlararo aloqa. 2014 yil. №1. BILAN. 15–20.
4. Ivanova S. V., Zubareva V. M. Janr xususiyatlari Internet matni sifatida sharh // Boshqird xabarnomasi Universitet. 2013. 18-jild. 4-son. B. 1147–1151.
5.Internet sharhi Kimga maqola yoqilgan veb-sayt Qanaqasiga nutq janr// Internet maydoni: foydalanuvchining nutq portreti / T. I. Popova, I. M. Voznesenskaya, D. V. Kolesova, V. M. Savotina. Sankt-Peterburg: Eidos, 2012. S. 159–164.
6.Mityagina V. A. Muloqot sifatida Internet sharhi faol harakat // Ilmiy va meta-matn janrlari va turlari dinamik nutq: universitetlararo. Shanba. ilmiy tr. Muammo 10. Burgut: OGIIK, OOO Gorizont, 2012. S. 188–197.
7.Taddikken M., Bund K. Mening sharhlarim, shuningdek, rus tilida. Kom- munitsipalitet Tadqiqot am Beispiel des Munozaralar forumlari der ZEIT Onlayn // O'l Onlayn-nafas olish tahlili. Prognoz ob'ekti Internet/ M. Welker va C. Wünsch (tahrirlar). Kyoln: Gerbert fon Xalem Verlag, 2010. S. 167–190.
8.Onlayn etimologiya lug'ati. URL: http://www.etymonline.com (kirish sanasi – 24.12.2014).
9.Yoshlar jargon lug'ati. URL: http://teenslang.su/content/%EA%EE%EC%EC%E5%ED%F2&sstr=C (kirish sanasi – 24.12.2014).
10.Baxtin M. M. Nutq janrlari muammosi // Baxtin M. M. Estetika og'zaki ijodkorlik. M.: San'at, 1986 yil. BILAN. 250–296.
11.Shchipitsina L. Yu. Kompyuter-matn tushunchasi vositachilik aloqasi // Vyatka davlat universitetining xabarnomasi sovg'a hujjati gumanitar Universitet. 2009 yil. T. 2, №4. BILAN. 54–60.
12.Sedov K. F. Kundalik hayotning janr maydonidagi odam aloqa // Nutq janrlari antologiyasi: umumiy kunduzgi aloqa. M.: Labirint, 2007. B. 7-38.
13.Shchipitsina L. Yu. Kompyuter vositachiligi janrlari kommunikatsiyalar. Arxangelsk: Pomor universiteti, 2009. 238 b.
14.Prankster N. LinkedIn: eng ko'p professional ijtimoiy tarmoq // StartupForum. 11.10.2011. URL: http://startupforum.ru/showthread.php?t=758 (kirish sanasi) (sana – 05.02.2015 yil).

O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Zarnigor Omonova To‘rajon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
omonova.zarnigor.2302@gmail.
To‘xtaboyeva Nafisa G‘ulomqodir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Telefon: **+998911846966**
abduraimovanargiza81@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada multimedia vositalaridan foydalanish orqali talabalarni o‘qitishning ustun jihatlari, multimedia texnologiyalarining turlari hamda axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ta’lim jarayoniga ko‘rsatadigan ta’siri va uning samaradorligi haqida, shuningdek, jadid mutafakkirlarining ta’lim va taraqqiyot borasidagi qarashlari hamda ilm-fanning millat kelajagidagi o‘rni haqidagi fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, raqamli ta’lim, texnik vositalar, elektron resurslar, innovatsion ta’lim, ta’lim jarayoni, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar .

Annotation. This article discusses the advantages of teaching students through the use of multimedia tools, the types of multimedia technologies, and the impact of the development of information technologies on the educational process and its effectiveness.

Keywords: Multimedia tools, digital education, technical tools, electronic resources, innovate education, educational process, mass media, social networks, etc.

Аннотатsiя. В данной статье рассматриваются преимущества обучения студентов посредством использования средств мультимедиа, виды мультимедийных технологий и влияние развития информатsионных технологий на учебный процесс и его эффективность.

Ключевые слова: мультимедийные инструменты, цифровое образование, технические средства, электронные ресурсы, инноватsионное образование, образовательный процесс, средства массовой информатsии, социальные сети и т.д.

Kirish:

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi bilan multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Ta’lim muassasalari bu texnologiyalarni faol qo‘llab, murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirish va ma’lumotlarni tezroq o‘zlashtirish imkonini yaratmoqda. Multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonida bir vaqtning o‘zida turli formatlardagi ma’lumotlarni – matn, grafikalar, animatsiya, video va ovozni taqdim etish imkoniyatiga ega. Eng muhim jihatlaridan biri – interfaollik bo‘lib, bu o‘quvchilarga o‘quv muhitida faol ishtirok etish va ta’lim jarayonini yanada samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Ta’lim va taraqqiyot masalasiga oid yurtimizning ilg‘or ziyolilari, jadidchilik harakati vakillari ham o‘z fikrlarini bildirgan. Ularning ta’kidlashicha, zamonaviy ta’lim taraqqiyotning asosiy kaliti bo‘lib, millat kelajagini belgilovchi omillardan biridir. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin.

Bu borada Ismoil Gaspiralining “Millatni qutqarishning yagona yo‘li- zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashdir.”

Fitratning “Zamonga moslashmagan xalq orqada qoladi, taraqqiyotga yetish uchun esa ilm kerak.”

Munavvarqori Abdurashidxonov “Bizga yangi maktablar, yangi ilm kerak. eskicha usullar bilan millat taraqqiy eta olmaydi. “ degan fikrlari hali hamon dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish muhimligini bir necha marotaba ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra:

"Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarimizga innovatsion fikrlashni singdirish, ularga eng yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish – bizning ustuvor maqsadlarimizdan biridir."

Shuningdek, Prezident ilm-fan va ta’limni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhimligini ta’kidlab, quyidagicha fikr bildirgan:

"Dunyo ta’lim tizimi tez rivojlanayotgan davrda biz ham o‘z bilim yurtlarimizda zamonaviy metodlarni keng joriy etishimiz, ta’lim jarayonini ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etishimiz lozim. Shundagina yoshlarimiz raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishadi." [1]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Kompyuter va internetning imkoniyatlari o‘quv jarayonida interfaol darsliklardan foydalanish, multimedia dasturlarini joriy etish va turli o‘quv uslublariga moslashish imkonini yaratmoqda. Elektron materiallarning vizual va audio, pdf formatlarda taqdim etilishi esa o‘quvchilarning bilimlarni osonroq tushunishi va eslab qolishiga yordam beradi.

So‘nggi yillarda o‘qitish jarayonida axborot va ta’lim resurslaridan foydalanish kengayib, multimedia texnologiyalari muhim o‘rin egallay boshladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga yanada chuqurroq jalb etilishini ta’minlab, bilim olish samaradorligini oshiradi. Kompyuter muhitida multimedia elementlari bilan boyitilgan o‘quv materiallari – real yoki virtual tasvirlar, matnlar, grafiklar, tovush va animatsiyalar orqali yanada mukammal ta’lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Ushbu omillar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirib, o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va bundan tashqari multimedialardan foydalanish haqida ham ko‘nikmalar oladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘quv jarayoniga yangi usullarni tatbiq etish imkonini bermoqda. Xususan, O‘zbekiston tarixini

o‘qitishda multimediali vositalardan foydalanish o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, murakkab tarixiy hodisalarni yanada tushunarli va esda qolarli tarzda yetkazishga yordam beradi. [2]

O‘quvchilar mustaqil ravishda tarixiy manbalar bilan ishlash, testlar yechish va virtual sayohatlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarixiy voqealar, joylar va shaxslarni tasvirlash orqali o‘ quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydilar [3]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbekiston tarixini o‘qitishda multimediali vositalardan foydalanish nafaqat ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qiladi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida zamonaviy darslar an’anaviy usullardan farqli ravishda yanada tushunarli, qiziqarli va vizual jihatdan boyitilgan bo‘lib bormoqda.

Multimediali ta’lim muhitining eng katta afzalliklaridan biri – bu o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga sharoit yaratishidir. Virtual ekskursiyalar, interfaol xaritalar, audio va videomateriallar tarixiy jarayonlarni yanada real va tushunarli tarzda o‘rganishga yordam beradi. Shuning uchun ham kelajakda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun multimediali texnologiyalarni yanada keng joriy etish va o‘qituvchilarni ulardan samarali foydalanishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2019-yil 23-avgust. https://president.uz/oz/lists/view/2820
2.“O‘zbekiston tarixini o‘rganishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati” O‘Za, 2021-yil.
3.“Tarix fanini o‘qitishning zamonaviy usullari” fan dasturi, 2019-yil.

MODERNIZING MINDS: THE JADID VISION FOR EDUCATION AND LITERACY (IMPROVING READING AND ASSESSMENT)

Atadjanova S.R,
Urgench State university,
atadjanovasuraya76@gmail.com

Annotation: The Jadid movement in Central Asia, driven by a profound dedication to modernizing and reforming traditional Islamic education, played a crucial role in fostering the development of essential reading skills and advocating for new methods of assessment, thereby laying the groundwork for a more enlightened and progressive society.

Key words: Jadid, Central Asia, traditional Islamic education, *maktab, madrasah*

FIKRLARNI ZAMONAVIYLASHTIRISH: TA’LIM VA SAVODXONLIK BO‘YICHA JADIDCHILIK QARASHLARI (O‘QISH VA BAXOLASH TIZIMI MISOLIDA)

Annotatsiya: Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati an’anaviy islom ta’limini modernizatsiya qilish va isloh qilishga chuqur fidoyilik bilan yondashib, muhim kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va baholashning yangi usullarini targ‘ib qilishda hal qiluvchi rol o‘ynadi va shu orqali yanada ma’rifatli va ilg‘or jamiyatga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: jadid, O'rta Osiyo, an'anaviy islom ta'limi, maktab, madrasa

Introduction

The late 19th and early 20th centuries witnessed the rise of the Jadid movement across Central Asia, a period marked by significant socio-political and cultural transformations. The Jadids, a group of Muslim intellectuals, recognized the urgent need to reform traditional educational systems to better equip their communities to face the challenges of the modern world. At the heart of their reformist agenda was a focus on improving literacy and reading skills, coupled with a critical reassessment of prevailing educational practices. This thesis will explore the Jadids' dedication to the development of teaching, with a particular emphasis on the importance they placed on reading skills and assessment in their broader project of societal reform.

The Jadid Movement and Educational Reform. The Jadids were deeply concerned with what they perceived as the stagnation and inefficiency of the traditional *maktab* and *madrasah* systems. They argued that these institutions, with their emphasis on rote memorization and classical Islamic texts,

failed to provide students with the practical knowledge and critical thinking skills necessary for success in a rapidly changing world. As Adeeb Khalid notes, the Jadids saw the traditional education system as "the clearest sign of stagnation, if not the degeneracy, of Central Asia." [1]

The Jadids advocated for a new approach to education, known as *Usul-i-Jadid* or the "new method." This method emphasized:

***The phonetic method of teaching reading*.** This approach focused on teaching children to read and write in their native languages more effectively and efficiently.

Alongside religious instruction, Jadid schools incorporated subjects such as mathematics, geography, history, and science. Moreover, Jadid educators encouraged students to engage with the material in a more active and analytical way, rather than simply memorizing it. They introduced new textbooks, visual aids, and other pedagogical tools to enhance the learning experience.

The Importance of Reading Skills. The Jadids placed a high premium on the development of strong reading skills, recognizing that literacy was fundamental to individual empowerment and societal progress. They understood that the ability to read and comprehend a wide range of texts was essential for:

- **Accessing knowledge and information:** Reading opened up new worlds of learning, allowing individuals to acquire knowledge about science, history, literature, and other subjects.
- **Participating in public life:** Literacy enabled individuals to engage in informed discussions about social, political, and economic issues, and to participate more fully in the life of their communities.
- **Promoting cultural and national identity:** The Jadids saw the development of literacy in native languages as a way to strengthen cultural identity and promote a sense of national consciousness. As stated by Azimjon Ibrahimov in "The Role of the Jadid Movement in Raising National Spirituality", the Jadids aimed to foster national self-awareness through education and enlightenment [2].
- **Facilitating communication and exchange:** In an increasingly interconnected world, the ability to read and write effectively was crucial for communication and exchange across cultures and communities.

The Development of Assessment. In conjunction with their focus on reading skills, the Jadids also sought to reform traditional methods of assessment. They criticized the reliance on rote memorization and called for the development of more comprehensive and meaningful ways of evaluating student learning. While specific details on assessment methodologies may vary across different Jadid schools and regions, the general trend was towards: e**mphasis on comprehension and application:** Assessment methods that went beyond simple recall of information to evaluate students' understanding of concepts and their ability to apply knowledge in practical situations. The Jadids likely employed a range of assessment methods, including written exams, class discussions, and practical exercises, to gain a more holistic view of student learning.

***Focus on formative assessment*:** An approach that emphasizes ongoing feedback and monitoring of student progress, rather than relying solely on summative evaluations at the end of a course. Ensuring that assessment methods accurately measure the knowledge, skills, and attitudes that students are expected to acquire.

Conclusion

The Jadid movement represents a crucial turning point in the history of education in Central Asia. Driven by a deep commitment to societal reform and modernization, the Jadids recognized that the development of strong reading skills and the implementation of effective assessment practices were essential components of a broader strategy to empower individuals and transform their communities. Their efforts to reform traditional educational systems, promote literacy, and advocate for new methods of assessment laid the foundation for a more enlightened and progressive society, and their legacy continues to resonate in the educational landscape of Central Asia today.

References

1. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press, 1998.
2. Ibrahimov, Azimjon. "The Role of the Jadid Movement in Raising National Spirituality." *Web of Journals*.

[1] Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press, 1998

[2] [Ibrahimov, Azimjon. "The Role of the Jadid Movement in Raising National Spirituality." *Web of Journals*.]

ТАНБУР САДОСИ ОСТИДА ЁЗИЛГАН ТАҚДИР

Бахтиёр Ҳасанов
ЎзР ВМ ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи директори, тарих фанлари доктори, профессор

Аннотатsiя: *Ушбу мақолада Хоразм адабий муҳитида камолотга етган кўп қиррали ижодкор ва тараққийпарвар сиймо — Комил Девонийнинг ҳаёт йўли, адабий ва мусиқий мероси, ҳамда унинг қатағон этилиш тарихи ёритилган.*

Калит сўзлар: *Комил Девоний, Хоразм адабиёти, Хива, миллий мерос, адабий муҳит, танбур чизиғи, мақом, хаттотлик, наққошлик, қатағон.*

Хоразм адабий муҳити довруғи хонлик саройи деворлар оша бутун мамлакатга кенг ёйилган бўлиб, у ердаги иқтидор эгалари ҳақиқатдан ҳам ўз санъати билан кишини ўзига мафтун этарди.

Комил Девоний ана шундай истеъдодли шоирлардан бири эди. 1887 йилда Хиванинг Сангар қишлоғида туғилган Муҳаммад Комил мулло Исмоил ўғли кўп ўтмай, хон саройининг энг пешқадам вакилларидан бирига айланди. У Муҳаммад Раҳимхон II Феруз саройида улғайиб, хон назарига тушди. Замонасининг энг яхши мударрислари қўлида таҳсил олди.

Муҳаммад Комил мулло Исмоил ўғли 1887 йилда Хиванинг Сангар қишлоғида туғилган. Унинг бобоси Муҳаммад Паноҳ ўғли Хива хонлигининг атоқли тўп қуювчи қуролсоз устаси бўлган. Шунингдек, наққош, хаттот, мусиқий ва адабиёт илмларига ҳавасли маърифатли инсон Муҳаммад Паноҳнинг икки ўғли Худойберган Муҳркан ва мулло Исмоиллар ҳам хаттот, моҳир наққош, айни чоғда мақомшунослик ва нота ишларига пешқадам устозлар сифатида донг таратган эдилар. Муҳаммад Комил ёшлигидан ана шу муҳитида тарбия топди ва ундаги адабиёт ва мусиқийга бўлган ёрқин истеъдодни кўрган отаси мулло Исмоил фарзандининг тарбиясига алоҳида эътибор қаратади.

1900 йил 13 ёшида отасидан етим қолган Муҳаммад Комил амакиси, бу пайтда Муҳаммад Раҳимхон II Феруз саройида юқори мартабали девонлардан бўлган Худойберган муҳркан васийлиги остида улғая бошлайди. Комилнинг ноёб адабий ва мусиқий иқтидорига Муҳаммад Раҳимхон Ферузнинг назари тушган ва у болалигидан девонхона хизматига жалб қилинган эди. Айни чоғда Ферузнинг кўрсатмасига мувофиқ Муҳаммад Комил Хивадаги Арабхон мадрасасида ўз замонасининг таниқли ҳажвчи шоирларидан, мударрис Юсуф Ҳожи Доийда ўқиб таҳсил олади.

Комил Девоний аввало иқтидорли шоир эди. У битган ғазал ва мухаммаслар эл орасида катта эътибор топган ва 18 ёшга етганда хоннинг ижозати билан “Девони Девоний” номли шеърлар тўплами тошбосмада нашр қилинган эди. Девонийга замондош бўлган қалам аҳли уни “иккинчи Навоий” деб ардоқлашар эдилар.

Комил Девоний ёшлигидан танбур, дутор ва ғижжак созларининг моҳир ижрочиси, закий мусиқашунос, мусиқий созлар ясайдиган уста, шунингдек, ҳуснкор наққош, заргар, муҳркан, қуролсоз бўлиб элга танилди. Хуллас, хон, қушбеги, девонбеги, қозикалон, муфтий, қалъа ҳокимларига муҳрлар ясаб, Хива мадраса ва масжидлари, миноралар, дарвозалар тепасига тарихлар ёзиб, мармар тошларга ғазаллар ўйиб, нақш билан сайқал берди. Хонликдаги олтин, кумуш, мисдан ясалган тангалар эскизини тайёрлаб зарбхонага топширди. Хоразм олти ярим мақомини ёддан билиб, дутор, самтур, танбур, ғижжак, скрипка сингари чолғу созларининг устаси сифатида шуҳрат қозонди. Замондошлари Комилжон Девонийни ўн бармоғи ўн ҳунар соҳиби деб таърифлашар эди. Дарҳақиқат, бугун Шарқшунослик институтида унинг ўнлаб қўлёзма баёзлари борки, уларнинг баъзиларида Комилжон Девонийнинг хаттотлик санъати намоён бўлса, аксариятида ғазаллари, мухаммаслари жамланган.

“Ёш хиваликлар” аъзоси бўлган Комилжон Девоний 1920 йилда Хива хонлиги ўрнида бунёд этилган Хоразм Халқ Шўролар Жумҳуриятига ишга жалб этилган ва 1922 йилда Хоразм Республикасининг илк миллий ордени эскизини ҳам Комилжон Девоний тайёрлаган эди. Шунга қарамай Комил Девоний ўша 20-йиллардаёқ большевиклар ҳукумати томонидан таъқибга олинади. **У**эски замон тарафдори сифатида “намунали” суд қилиниб, ноҳақ қораланади. Нозиктаъб шоир Хивадан Тошҳовузда истиқомат қилувчи қавму-қариндошлари ёнига кўчиб

кетишга мажбур бўлади. Комилжон Девоний фақат 1932 йилда фарзанди Ҳамза туғулганидан сўнггина Хивага қайтади.

Ўтган асрнинг 20-йилларида Ҳамза, Ғулом Зафарий, Чўлпон, Фитрат каби тараққийпарвар зиёлилар халқимизнинг кўп асрлик миллий мусиқий меросини асраб қолишда Хоразм нотаси - Танбур чизғиларидан фойдаланиш фикрини илгари сурган эдилар.

Ҳатто, Танбур чизғиларини янада қулайлаштириш, унинг тарихий ва назарий тамойилларини ўрганиш ва уни илмий доирада тарқатиш йўл-йўриқларини излайдилар. Мазкур маърифий эҳтиёжни чуқур ҳис қилган Комил Девоний салафлари Худойберган Муҳркан ва Муҳаммад Расул Мирзолар бошлаб берган Танбур чизғилари таълимини янги шароитда кенгроқ истеъмолга жалб этиш устида бош қотиради ва Хоразм Дутор мақомларини хатга тушуришга бел боғлайди. Мутахассисларнинг фикрича, у ишлаган Хоразм Танбур ва Дутор мақомлари нота китоби нафақат ўзбек, балки бутун Шарқ оламида мусиқа тарихига оид муҳим манба ҳисобланади.

Хива наққошлик мактаби билимдони Комил Девоний 1935 йил Тошкентга келиб, бу ерда Фарғона, Қўқон ва Тошкент нақш услубларини ҳам ўрганади. Унинг кўплаб нақш композицияларида Хива нақш услуби билан бирга Фарғона, Қўқон ва Тошкент нақш мактаблари услубларидан ҳам кенг фойдаланганини кўрамиз. Бироқ, илм ва ижодга ташна фидоий санъаткорнинг қувончлари яна узоққа бормади.

Комил Девоний 1937 йилнинг кузида Тошкентнинг 1-Қоратош маҳалласи 8-уйдан қамоққа олинади. Дастлаб Урганчда, сўнг Тошкентга келтирилиб тинимсиз сўроқ қилинади. Комилжон Девоний ўзига қўйилган айбловларнинг бирортасига рози бўлмади, охиригача бирор қоғозга имзо чекмади. Шунга қарамай 1938 йил 10 февралда машъум “учлик” суди уни ўлим жазосига ҳукм қилади. Аммо, Комил Девоний ҳукм ижроси ҳақида қарор чиқмасидан аввал 1938 йил 5 май куни кундуз соат 1:00 да Тошкент қамоқхонасида 51 ёшда юрак ҳуружи оқибатида вафот этади...

Комил Девоний 1958 йил 19 сентябрда СССР Олий Суди Ҳарбий коллегияси томонидан оқланган.

Хуллас, Комил Девонийдан адабиёт ва мусиқа соҳасида жуда бой мерос қолган. Унинг кўплаб шеърлари халқ оғзига тушиб, ҳофиз ва гўяндалар дастурида ҳали ҳамон яшаб келмоқда. Комил Девонийнинг ижодий меросини ўрганиш ва тарғиб этиш ёшларимизнинг миллий қадриятлардан баҳраманд улғайишида муҳим аҳамиятга молик. Бугун Комил Девонийнинг ўғли Ҳамза ака ва келини Асфандиёрхонинг набираси Раънобека ҳожи оналар фарзанд ва набиралари ардоғида кексалик гаштини сурмоқда.

Ҳамза бобо билан қурган суҳбатда: ... отамиз Комилжон Девоний ўз замонасининг етук инсонларидан бўлганлар. Мен гарчи у кишини эслай олмасамда, бир умр отамни таниган инсонлардан у кишининг фазилатлари ҳақида кўплаб воқеъликларни тинглаб келаман. Хусусан отамлар ниҳоятда иродали ва эътиқодда мустаҳкам инсон бўлган эканлар. У киши Хивада бир неча марта совет жазо идоралари томонидан қамоққа олинган. Бир ҳужрада дўсти Матжон қори билан намоз ўқиб турсалар, уларни қоровуллаб турган бир татар миллатига мансуб аскар яна намоз ўқиётганларингни кўрсам отиб ташлайман дейди. Матжон қори шунда сен бизни орзуйимизга етказган бўласан, биз айнан жойнамоз устида шаҳид бўлишни истаймиз деган эканлар.

Отамнинг эса турмада ёзган “Урунглар! Ўлдиринглар! Бупажмурда итларни, Уруб нобуд қилди неча мард йигитларни!” деган байти маҳбуслар орасида жуда машҳур бўлиб кетган экан...

Хулоса ўрнида айтганда, тараққийпарвар инсон бўлмиш Комил Хоразмийнинг ҳаёт йўли – эл-юртга садоқат, санъатга муҳаббат, илму маърифатга интилиш билан йўғрилган бўлиб, у қаттиқ сиёсий босимлар, таъқиб ва қатағон даврларида ҳам ўз сўзидан, ўз эътиқодидан чекинмади. Балки шунинг учундирки, Комил Девоний қолдирган бой мерос бугунги авлод учун илҳом ва ибрат манбаи бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Б.Ҳасанов, Б.Ирзаев. Миллат фидоийлари. – Т.: “Аср-матбуот” нашриёти. – Б. 430.
2. Б.Ирзаев, Ю.Раҳмонова. Хоразм вилояти хотира китоби. – Т.: “Академнашр”. – Б. 245
3. Исломов А. Комил Девоний – ўн бармоғи ўн ҳунар соҳиби // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2015. №3.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003 йил, VI жилд // “Комил Девоний” мақоласи.

БОБООХУН САЛИМОВ-ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРИ, ДАВЛАТ АРБОБИ ВА ДИПЛОМАТ

Азизуллоҳ Арал
Ю. Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори.

Аннотатsiя: Ушбу мақолада Хоразм жадид намояндаларидан Бобоохун Салимовнинг ҳаёти, фаолияти ўзи яратган мемуари, авлодларининг хотиралари ва архив ҳужжатлари орқали таҳлил этилади. Шунингдек, жадид лидерининг халқаро даражадаги дипломатлиги алоҳида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Хоразм, Афғонистон, Россия, жадид, дипломатия, элчи, парламент раиси, республика, округ.

Аннотatsiя: В данной статье на основе мемуаров, созданных самим Хорезмским джадидским деятелем Бобоахуном Салимовым, воспоминаний его потомков и архивных документов анализируется его жизнь и деятельность.Также отдельно проанализирована дипломатичность джадидского лидера на международном уровне.

Ключевые слова: Хорезм, Афганистан, Россия, джадид, дипломатия, посол, председатель парламента, республика, округ.

Abstract: This article analyses his life and activities on the basis of memoirs written by Khorezm Jadid leader Boboahun Salimov himself, memories of his descendants and archival documents. Diplomacy of the Jadid leader at the international level is also analysed separately.

Keywords: Khorezm, Afghanistan, Russia, Jadid, diplomacy, ambassador, chairman of parliament, republic, district.

Жадидчилик ғоялари асосида жамиятдаги барча соҳалар ва давлат бошқарувини ислоҳ қилиш, миллий уйғонишни юзага келтириш учун кураш олиб борган “Ёш хиваликлар” ҳаракатининг энг фаолларидан бири, бу борадаги мақсаду интилишларидан чекинмаган Хоразмлик жадид - Бобоохун Салимов эди.

“1877 йилда Хива хонлигининг машҳур ҳуқуқшуноси, қози аскар, муфтий, қозикалон ноиби, қозикалон вазифаларида фаолият кўрсатган Муҳаммад Салимохун оиласида туғилган Муҳаммад карим, вақт ўтиб Бобоохун номи билан танилган.

Дастлаб оилада ота-онаси, сўнгра Хива мадрасасида таҳсил олган Бобоохун ўз даврида, хусусан хонлик пайтида таниқли қози аскар, қозикалон ёрдамчиси, ҳуқуқшунос, парламент – “Идораи Маршрутия” раиси, республика вақтида эса адлия нозири, дипломат, ҳамда педагог, энг асосийси шоир сифатида танилган ушбу сиймо Хоразмдаги жадидчилик ҳаракатининг етук намоёндаси, йўлбошчиларидан бири бўлиб, унинг номи шу боис ҳам XX аср биринчи чораги Хоразм тарихида муҳим ўрин тутади” (1).

Туркистон жадидчилик ҳаракатида Убайдулла Хўжаев, Тошпўлатбек Норбўтабеков сингари етук ҳуқуқшунослар қандай нуфуз орттирган бўлсалар, Бобоохун Салимов ҳам ўз даврининг қози аскари, қозикалон ёрдамчиси, адлия нозири сифатида инсон ҳуқуқлари учун курашиб, адолат тимсоли даражасига етишган шахс сифатида машҳур бўлган.

Қолаверса 1920 йил РСФСРга бориб Хоразм халқ республикаси номидан стратегик жиҳатдан тенгҳуқуқликка асосланган муҳим шартномани имзолатиш даражасига етган моҳир дипломат, сиёсий, қаътий иродали шахс эди.

Ана шундай даражадаги лидер Москвада эканлигида, у ердаги шарқ давлатлари элчилари, вакиллари билан учрашиб, халқаро сиёсат бўйича фикрлашган, дунёвий даражадаги дипломат эканлигини намоён қилган эди.

Бобоохун Салимовнинг сиёсат майдонидаги энг катта ютуғи хонлик давридаги парламент раиси-“Идораи маршрутия” раҳбари қилиб сайланганида ва жамиятда кескин ислоҳотларни бошлаганидадир.

“Маълумки, 1917 йил феврал ойида Россия империяси марказида юз берган буржуа инқилобининг таъсири ўлароқ Хивада юз берган апрель ойидаги намойишларда “Ёш хиваликлар”партияси Асфандиёрхонга ўзларининг қарашлари акс этган манифестни топширадилар. Манифестдан феодал монархияга асосланган хонликни “Идораи маршрутия” орқали бошқариш каби демократик ислоҳатлар ўрин эгаллаганди” (2).

“Манифест эълон қилинган 5 апрель куни Ҳусаинбек Матмуродовнинг уйида “Ёш хиваликлар”ҳаракатининг мажлиси-давлатни бошқаришнинг янги усули-Идораи маршрутия тузилди. Нозирлар Кенгаши бошлиғи қилиб Ҳусаинбек Матмуродов, Мажлис (парламент) раиси қилиб эса Бобоохун Салимов сайланади. Биринчи даврада “Идораи Маршрутия”- вакиллар Кенгашидаги аъзолар сони 17 та эди. Кейинчалик аъзолар сони 23 кишига етди. Бобоохун Салимов воҳадаги реал вазият билан яхши таниш бўлганлигидан, унинг маслаҳати асосида туркман, қорақалпоқ ва қозоқларнинг вакиллари киритилиши натижасида аъзолар 49 кишини ташкил этди” (3).

Полвониёзҳожи Юсуповнинг “Хотиралари”га кўра, апрель ойидаги ҳурриятпарварлик ҳаракатида Бобоохуннинг роли катта бўлган.У “Ёш хиваликлар”дан иборат “Идораи маршрутия”-парламент фаолиятини ташкил қилиш, фуқаролар эркинлигига оид ислоҳотлар ўтказиш ташаббуслари билан чиқади. Бобоохун етук ҳуқуқшунос бўлганлигидан Хивадаги чор армияси командирлари, муттассиб диндорлар билан музокара, мунозараларда уларни мантиқли, диний ва дунёвий асосдаги савол-жавоблар билан енгиб чиқади.

Бироқ Бобоохун Салимовнинг парламент раислиги вазифаси бор йўғи куз фаслигача давом қилади. 1917 йил кузида Хива хони Асфандиёрхон мутассиб диндорлар, қолаверса Россия гарнизони аскарлари ёрдамида жадидлар ташкил этган парламентни тарқатиб юборишади ва қўғирчоқ, Асфандиёр айтганидан чиқмайдиган Ортиқ охунни парламент раиси қилиб сайлашади.Сўнгра эса парламент ҳам тугатиб юборилади. Бобоохун Салимов, Полвонниёзҳожи Юсупов, Назир Шоликоров сингари жадид лидерлари эса тазйиқлар боис Хоразмдан четга чиқиб кетишга мажбур бўлишади.

Натижада зиддиятлар кучайгани, сиёсий курашлар авж олгани боис, “Ёш хиваликлар” Тошкентдаги Туркистон АССР раҳбарлари, Қизил армия билан келишган ҳолда Хива хонлигини тугатиш ҳаракатини бошлашади. Натижада 1918 йил 1 октябрида Асфандиёрхон Нуриллабой саройида сиёсий фитналар боис ўлдирилган бўлса, ундан сўнгги Хива хони Саид Абдуллахон 1920 йил февралида тахтдан четлаштирилади.Хива хонлиги тугатилиб Хоразм халқ республикасига асос солинади.

Республика раҳбарлигига эса “Ёш хиваликлар” партиясининг лидерлари бўлган Мулла Жуманиёз Султонмуродов муваққат ҳукумат раиси, 1920 йил апрелдаги қурултойдан сўнг Полвонниёзҳожи Юсупов сайланади. Ҳар иккала раҳбар даврида эса Бобоохун Салимов адлия нозири қилиб тайинланади.

“ Бобоохун Салимовнинг адлия нозири , қолаверса ноёб дипломатлиги 1920 йил 13 сентябрида РСФСР ва Хоразм ўртасидаги тенгҳуқуқлилик асосидаги шартномани имзолатишга эришгани эди. Уч ой давом этган Кремлдаги музокараларда Бобоохун Салимов бошлиқ Хоразм делegatsiяси В.И.Ленин, Г.Чичерин, А.Самойлович. Л.Карахан сингари большевик раҳбарлар билан музокара олиб бориб, Хоразм республикасининг мустақиллигини тан олдириб, шартномани имзолатишга эришадилар” (4).

Ана шундай дипломат, Хоразм республикаси давридаги сўнгги йилларда адлия нозирлигидан истеъфо бергач, Афғонистонга элчи, мактаблар учун дарсликлар яратиш комиссия раиси, руҳонийлар қурултойини ўтказиш комиссияси раиси қилиб тайинланади.

“ Бобоохун Салимов нафақат хонлик ва республика даврининг машҳур ҳуқуқшуноси, элчи , балки “Ожиз” тахаллусида ижод қилган жадид шоири, мактаблар учун “Алифбе”, “Ўқиш китоби” дарсликлари яратган педагог ҳам бўлган” (5).

Бобоохун Салимовнинг ҳаёти, фаолияти кенг қамровда тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент Умид Бекмуҳаммад, филология фанлари номзоди, доцент Сайёра Самандарлар томонидан илмий тадқиқ қилинган ва 2024 йилда “Бобоохун Салимов-жадид, давлат арбоби ва шоир” номли монография нашр этилган. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг шу ва бошқа Хоразм жадидчилигига оид олтита монография, 4 рисоласида ҳам Бобоохун Салимовнинг ҳаёти, фаолияти, ижодий мероси мавзудан келиб чиқиб таҳлил этилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар, “Бобоохун Салимов-жадид, давлат арбоби ва шоир”, “Milleniumus print” нашриёти, 2024 йил, 134 бет.

2. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад “Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Milleniumus print” нашриёти, 2024 йил 145 бет.

3. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад, “Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси”, “Milleniumus print” нашриёти, 2024 йил 168 бет.

4. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар, “Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши”, “Milleniumus print” нашриёти, 2025 йил, 190 бет.

5. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад “Хоразм жадид мактаблари”, “Milleniumus print” нашриёти, 2025 йил, 180 бет.

ИСТИҚЛОЛ ДАВРИДА ХОРАЗМДА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИ ҲАМДА МЕРОСИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

Мўминхон Ҳошимхонов,
Жиззах давлат университети профессори, фалсафа, филология, педагогика фанлари доктори.

Аннотатsiя: Мазкур мақолада истиқлол даврида Хоразмда жадидлар фаолияти ва меросини тадқиқ қилиш борасида амалга оширилган тадқиқотлар таҳлил қилинади. Бу борада иқтисодчи, тарихчи, филолог ва фалсафа йўналишида амалга оширилган илмий ишлар, нашр этилган асарлар, уларнинг тарихий аҳамияти ёритиб берилади.

Калит сўзлар: Хоразм, Хива хонлиги, Феруз, “Таржимон” газетаси, истиқлол, энциклопедия, монография, жадидшунослик.

1991 йилдаги Ўзбекистон республикасининг мустақиллиги ва ўтказилган ҳуқуқий, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий ислоҳотлар жараёнида, тарихий хотирани уйғотиш, бугунги ва келгуси авлод учун адолатпарвар, ислоҳотчи аждодларимиз фаолиятини ўрнак қилиб кўрсатишда жадидлар ҳаёти, уларнинг бой мероси ёрқин намуна бўла олиши давлат сиёсати даражасига чиқди. Жадидларга бағишлаб ўтказилган халқаро конференциялар, Бухорода жадидлар музейи, “Жадид” газетасининг нашр этилиши, кўплаб жадид намояндаларнинг асарлари қайта-қайта нашр қилиниши, ижод намуналарининг мактаб дастурларига киритилиши, илмий тадқиқот ишларининг олиб борилиши сингари ҳаракатлар айнан мустақиллик туфайли амалга ошмоқда. Негаки, советлар давридаги коммунистик мафкура туфайли жадидларга буржуазия элементи, миллатчи сингари ёрлиқлар ёпиштирилган, матбуот ва илмий ишларда бу бўйича қаттиқ назорат амал қилар, жадидларга оид архив ҳужжатларини ўрганишга таъқиқ қўйилганди. Шу боис ҳам мавжуд манбаларни бир-бирига таққослаш, шулар асосида холис, ҳаққоний хулоса чиқариш имкони йўқ эди.

Мустақиллик арафаси ва истиқлолнинг илк даврларидан Бегали Қосимов. Озод Шарафиддинов, Рустамбек Шамсутдинов, Илҳом Ғаниев, Зайнобиддин Абдурашидов, Қаҳрамон Ражабов, Бойбўта Дўстқораев сингари кўплаб тарихчи, филологлар жадидчилик ҳаракати, унинг мақсаду вазифалари, ғоялари, намояндаларнинг фаолияти ҳақида тадқиқот ишлари олиб боришди, асарлар яратишди.

Хоразмда эса 1993 йилда УрДУ профессори, иқтисод фанлари номзоди Мақсуд Маткаримов томонидан “Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди” номли китоб (“Хоразм”нашриёти, Урганч-1993 йил) нашр этилди ва унда илк бора “Ёш хиваликлар” партияси, фаолияти, уларнинг хонликни тугатиб республика бошқарувига асос солиши, олиб борган ислоҳотлари ёритиб берилганди. Айтиш мумкинки, ушбу рисола Хоразм жадидшунослиги бўйича илк таҳлилий, холис ва ҳаққоний ёритилган асар сифатида тарихда қолди.

2023 йилда ушбу асарни Мақсуд Маткаримовнинг манбалари, тарих фанлари доктори, профессор Садоқат Маткаримова, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент Умид Бекмуҳаммадлар тўлдирилган тарзда “Ёш хиваликлар”нинг республика давридаги фаолияти” номи билан “Дурдона” нашриётида чоп қилдиришди.

Эътиборли жиҳати, бир гуруҳ академик, профессор, тарихчи-филологлар томонидан 1999 йилда “Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш” номли мақолалар тўплами (“Университет” нашриёти, Тошкент-1999 йил) нашр этилган ва унда ҳаракат тарихи, намояндалар фаолияти, мақсаду вазифалари, тарихда тутган ўрни илмий томонлама таҳлил этилганди ва бу китоб жадид тарихшунослигида муҳим аҳамиятга эга муҳим манбага айланганди.Бироқ мазкур тўпламда Хоразм жадидлари фаолияти ёритиб ўтилмаган, бунинг ҳам сабаби ўша вақтгача Хоразм жадидчилиги, намояндалар ҳаёти, фаолияти, тақдири тадқиқ қилинмай келинаётганлигида эди.

Шу боис, Мақсуд Маткаримов бошлаб берган Хоразм жадидшунослиги фақат 2000 йиллардан сўнггина таҳлил қилина бошланди. Энг асосийси бевосита жадидлар лидери

Полвонниёзҳожи Юсупов яратган мемуар “Ёш хиваликлар тарихи”(“Хоразм”нашриёти, Урганч, 2000 йил)номи билан профессор М.Матниёзов сўзбошиси асосида чоп этилганидир.

Шу каби, Отамурод Қўшжонов, Неъматжон Полвоновларнинг “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” (Тошкент-2007 йил) Неъматжон Полвоновнинг “Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924)”номли монография(“Академнашр”. Тошкент-2011 йил) лари ҳам жадидчилик ҳаракатини тадқиқ қилишда муҳим аҳамиятга эга.

2010 йиллардан кейин Баҳром Ирзаев, Умид Бекмуҳаммад ва бошқа тадқиқотчилар томонидан Хоразм жадидлари фаолияти бўйича кўплаб мақолалар архив маълумотлари асосида турли матбуот нашрларида чоп этила бошланди. Бу мақолалар Хоразм жадидлари номини, улар фаолиятини оммалаштириш бўйича қилинган энг катта изланишлар эди.

Шу каби профессор Рустамбек Шамсутдинов, Қаҳрамон Ражабовларнинг асарларида ҳам қатағон давр жабрдийдалари, қурбонлари фаолияти ёритилганда, Хоразмлик жадидлар тақдири ҳам тадқиқ қилинган асарлар юзага келди.

2024 йилда эса профессор Садоқат Маткаримова, доцент Умид Бекмуҳаммадларнинг “Хива хонлиги Россия империяси мустамлакачилиги даврида. 1873-1917 йиллар”, шунингдек 2025 йилда нашр этилган ушбу муаллифларнинг “Хоразм жадидларининг ислоҳотлари ва тараққийпарварлик фаолияти” монографиялари воҳа жадидларининг ўзига хос хусусиятлари, фарқли жиҳатларини, ўтказилган ислоҳотларни тадқиқ этиш бўйича изланишлар натижаси эди.

Шу каби Хоразм жадидшунослигидаги энг муҳим таҳлилий босқич Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг илмий фаолияти, энг муҳим фундаментал тадқиқотларидир.

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент Умид Бекмуҳаммад томонидан Ўзбекистонда илк бора “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси”нинг 2024 йилда нашр этилиши, тарих фанидаги муҳим тадқиқот сифатида давлат даражасида эътироф этилди. “Ҳуррият” газетасида ижобий тақриз чоп қилинди.

Шунингдек Умид Бекмуҳаммад ва филология фанлари номзоди, доцент Сайёра Самандарлар томонидан 2024-2025 йиллар давомида “ Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси”, “Бобоохун Салимов-жадид, давлат арбоби ва шоир” , “Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши”, “Хоразм жадид мактаблари”, “Исмоил Гаспрали ва Хоразм” номли монографиялар, “Матбаачилик асосчиси ва жадид маърифатпарвари”, “Хоразм жадид адабиётига янгича нигоҳ”, “ Бекжон Раҳмон-жадид маърифатпарвари ва давлат арбоби”, “Полвонниёз Юсупов жадид, давлат арбоби ва муаррих”,”Таржимон” газетасининг Хоразмдаги тарихий жараёнларни тадқиқ этишдаги ўрни” сингари рисолалар шу пайтгача илмий истеъмолга киритилмаган архив манбалари, жадид матбуоти, намояндаларнинг мемуарлари, кўплаб илмий, бадиий адабиётларни таҳлил этган тарздаги жадидшуносликка қўшилган катта ҳисса бўлди.

Шу боисдан ҳам, Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммадларнинг ушбу фундаментал тадқиқотлари “Жадид”, “Ҳуррият” газеталари, “Тамаддун нури” журнали ва айрим хорижлик ахборот агентликларида, ижтимоий тармоқларда жадидшуносликдаги энг муҳим илмий янгиликларга бой, самарали тадқиқот иши тарзида муносиб баҳоланди.

Айни пайтда Умид Бекмуҳаммад томонидан “Хоразм жадидчилиги:сиёсий курашлар, ислоҳотлар ва маърифий ҳаракатчилик(1900-1924 йиллар), Сайёра Самандар эса “Хоразм жадид мактаблари фаолияти (1898-1920 йиллар) мавзуларидаги тарих фанидан докторлик диссертatsiялари ёқланиш арафасида.

Табиийки, Хоразм жадидшунослиги бу тадқиқотлар, асарлар билан мукаммал тадқиқ қилиб бўлинди, ўзининг илмий баҳосини олди деган хулоса чиқариб бўлмайди. Шу боис, Хоразм жадидшунослигидаги изланишлар яна давом этаверади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.М.Маткаримов “Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди”, “Хоразм”нашриёти, Урганч-1993 йил;

2.М.Маткаримов, С.Маткаримова, У.Бекмуҳаммад “Ёш хиваликлар”нинг республика давридаги фаолияти”, “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2023 йил.

3.С.Маткаримова, У.Бекмуҳаммад “Хоразм жадидларининг ислоҳотлари ва тараққийпарварлик фаолияти”, “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2025 йил.

4. У.Бекмуҳаммад “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси”, Урганч-2024 йил.

5.С.Самандар, У.Бекмуҳаммад “Хоразм жадидчилиги, ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, Урганч-2024 йил.

6. С.Самандар, У.Бекмуҳаммад “Хоразм жадид мактаблари”, Урганч-2025 йил.

ОЛИМЖОН ҚОДИРИЙ

Ирзаев Бахром Шаймаматович
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари
хотираси давлат музейи Бош илмий ходими

Аннотатsiя: Мазкур мақолада XX асрнинг 20-йилларида Германияда таҳсил олиш учун борган туркистонлик ёшлар ҳақида сўз боради. Уларнинг ичидан Олижон Қодирийнинг фаолияти хусусида фикр-мулоҳазалар баён этилган.

Калит сўзлар: "Нўғай мактаблари", "БХСР Маданий ишлар ваколатхонаси", "Ёш хиваликлар", “Озод Туркистон”.

Қодирий Олимжон 1920 - йилларда Германияга таҳсил олиш учун йўлланган туркистонлик 76 талабадан бири эди. Ўқишни тугатиб ватанга қайтгач у қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожлантириш ва бу соҳадаги ўзбек дарсликларини кўпайтириш йўлида ишлади. 1938 йили у отилди.

Қодирий Олим Садриддинович 1898 йил 9 сентябрда Хива хонлигига қарашли Гурлан туманида туғилган. Олимжон Қодирийнинг келини Лола Қодирий қайнотаси ҳақида қуйидагича ҳикоя қилади: "Қайнонам Асия Қримова эрини жуда кўп эслар эди. Олимжон Қодирий ниҳоятда билимдон, ғайратли ва маданиятли инсон бўлган экан. У кишининг оналари оддий ўзбек аёли бўлган, бироқ отаси Садриддин Қодир ўғли Гурландаги обрўли хонадонлардан бирининг вакили, ўзи ҳарбий лавозимда бўлган экан. Маърифатпарвар инсон сифатида ўғли Олимжоннинг замонавий таълим олишига, рус ва немис тилларини ўрганишига ўзи раҳбарлик қилган эканлар".

Олимжон ёшлигида бошланғич саводини Гурландаги янги усул мактабларидан бирида чиқаради. "Нўғай мактаблари" деб номланган мазкур мактаблар асосан татар ўқитувчиларига тегишли бўлиб, рус тилини ўрганиш учун қулай эди. Бу мактабларни битирган ёшлар асосан ҳур фикрли, тараққийпарвар, жадидчилик ғояларига мойил бўлиб улғайишарди.

Бироқ бу вақтда Хива хонлиги ярим мустамлака бўлиб, унинг бошқарув тузуми дунё тараққиётидан ортда қолган эди. Олимжон 14 ёшида мактабни тамомлаб, Гурландаги "Зингер" компаниясига фаррош бўлиб ишга киради. Кўп ўтмай ўзининг интилиши ва тиришқоқлиги эвазига немис тилини ўрганиб, корхонадаги етакчи слесарлардан бирига айланади.

1916 йили Хива хонлигининг бир неча бекликларини қамраган халқ қўзғолонида Олимжон Қодирий ҳам "Ёш хиваликлар" вакили сифатида иштирок этади. Шундан сўнг бутун хонлик ҳудудида тараққийпарварларга қарши таъқиб кучайтирилди ва натижада Олимжон Гурландан чиқиб кетишга мажбур бўлди. У 1918-1919 йилларда Петроалександровскдаги 3-ҳарбий гарнизонга оддий аскар сифатида хизматга кирди. Рус тилини мукаммал билиши туфайли гарнизон ҳарбий судининг вакили этиб сайланади.

1922 йили Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) ҳукумати раҳбари Файзулла Хўжаев ташаббуси билан Туркистон ва Бухородан Германияга ўқиш учун талабалар юбориш бошланар экан, Хоразм Республикасидан ҳам ҳорижда ўқитиш учун икки вакил ажратишни сўрашган.

Кўп ўтмай Бухоро ҳукумати томонидан танланган 55 кишилик биринчи гуруҳ Германияга жўнатилди. Шундан сўнг 20 кишидан иборат иккинчи гуруҳ Тошкентдан йўлга чиқади. Учинчи гуруҳ эса Москвада ўқиётган талабалар: Олимжон Қодирий, Шамсулбанот Ашрафова, Гулсум Музаффарова, Ғани Усмоновлардан иборат бўлиб, улар "БХСР Маданий ишлар ваколатхонаси" раҳбари Олимжон Идрисий бошчилигида йўлга чиқдилар. Бу гуруҳ 1922 йилнинг октябрь ойи сўнгида Германиянинг Берлин шаҳрига етиб борди. Идрисий Туркистон талабаларини дастлаб тезкор тил ўргатиш курсларига топширди. Хорижда таълим олиш учун танланган ўқувчилар ёши ва билим даражасига кўра бир неча гуруҳга тақсимланди ва уларни иқтидорларига қараб Германиядаги ўқув муассасаларига жойлаштира бошлашди.

Ўзи билан борган талабаларга нисбатан ёши, билим ва тажрибаси катта бўлган Олимжон Қодирий Берлинда тўрт ойлик тайёрлов курсидан сўнг, қишлоқ хўжалиги соҳасида таҳсил олишга қарор қилган.

Кириш имтиҳонларини муваффақиятли топширгач, 1923-1927 йиллари Германиянинг Виценҳаузен (Витзенҳаусен) шаҳридаги Қишлоқ хўжалиги академиясида таълим олди. 1926 йили амалиётни Чехословакиянинг Братислава шаҳри яқинида ўтаб, олий маълумотли агроном дипломини қўлга киритди. Европада олий маълумот олган ўзбек агрономи Олимжон Қодирий 1927 йили Ўзбекистонга қайтиб келди. Бироқ, у ҳам ватанга қайтгач, бошқа барча Германияда таҳсил олган талабалар қатори "ишончсизлар" рўйхатидан жой олганини ҳис қилганди.

Аввалига унинг Хоразм ҳудудига киришига қаршилик кўрсатилиб, иш берилмади. Тинимсиз кузатув, турли сўроқ ва саволларга тортилди. Охир оқибат 1927 йил сўнгида Фарғона водийсига келиб ишга жойлашди. Дастлаб қишлоқ хўжалиги банкида масъул лавозимларда ишлаб, кейинчалик амалиётчи агроном сифатида Фарғонанинг Боғдод туманида, педагог сифатида эса Фарғона педагогика институтида фаолият олиб борди. Бироқ унинг бу хатти-ҳаракати ҳам кимлargадир ёқмади. Изидан тушган кимсалар уни Фарғонани тарк этишга мажбур қилдилар.

Олимжон Қодирий 1934 йили Самарқандга кўчиб келиб, Куйбишев номли Самарқанд қишлоқ хўжалиги институтининг "Тупроқшунослик ва умумий ер иши" кафедрасига ишга кирди. Билимдонлиги, меҳнатсеварлиги билан қисқа муддатда илмий жамоа ҳурматини қозониб, кафедра доценти унвонига сазовор бўлди. Самарқанд шаҳрида қўним топган Олимжон Қодирий анчадан буён бошлаб қўйган илмий тадқиқотларини давом эттириш мақсадида аспирантурага ўқишга кирди. Турмуш ўртоғи – Самарқанд халқ хўжалиги институти доценти Асия Қримова ҳамда фарзандлари Қаҳрамон ва Гулнорлар билан тинч ва осуда яшай бошлади.

1937 йил. Совет тарихида "Катта қирғин" номини олган даҳшатли ўлим ўпқони Ўзбекистонга ҳам етиб келди. Ўз ҳаётини эндигина йўлга қўйиб, севган касби билан машғул бўлаётган ўзбек агрономи Олимжон учун ҳам қора кунлар бошланди.

Олимжон Қодирий "Германияда таълим олган ва "Озод Туркистон" аксилинқилобий жосуслик ташкилоти аъзоси" дея, ЎзССР Жиноят Кодексининг 62 (аксилсовет тарғибот) ва 67 (аксилинқилобий ташкилотга аъзолик) моддалари билан айбланди.

Қизиғи, уни қамоққа олиш учун ордер 1937 йил 7 сентябрда, яъни айблов қарори чиқишидан бир кун олдин берилган эди. 1937 йил 8 сентябрда унинг хонадони – Самарқанддаги Трактор кўчасининг 6-корпус, 16-уйида тинтув ўтказилди. Тинтувда унга тегишли паспорт, партбилет, хатлар, немис тилидаги 56 та китоб, оилавий ва шахсий суратлари, ва ҳатто оддий хўжалик ашёлари ҳам рўйхатга олинди ва олиб кетилди. Шунингдек, 2500 сўмлик шахсий омонат дафтарчаси ҳам давлат фойдасига мусодара этилди.

Тинтувнинг эртаси куни Самарқанд шаҳрида ўтказилган дастлабки сўроқда асосан Олимжон Қодирийнинг Германияга бориши тарихи билан қизиқишди. Асосий эътибор унинг Олимжон Идрисий, Заки Валидий, Садри Мақсудий ва Мустафо Чўқай билан алоқаси бор-йўқлигига қаратилди.

Тошкентда ўтказилган навбатдаги сўроқда ҳам унинг ҳаёт йўли тафтиш этилди. 29 сентябрда чиқарилган қарорда Олимжон Қодирийга "... 1922-1927 йиллари аксилинқилобий "Озод Туркистон" ташкилоти аъзоси; 1927 йили СССРга жосуслик мақсадида келган; немис разведкаси фойдасига иш олиб борган," деган айбловлар қўйилди. 1937 йил 20 октябрда ўтказилган сўроқ эса сўнггиси бўлди. Унда Олимжон Қодирий етти ухлаб тушида кўрмаган воқеалар ёзилган қоғозларга имзо чекишга мажбур этилди.

Афтидан уннг буларни ўқиб кўришига ҳам рухсат берилмаган. Унда ёзилган баъзи ҳодисаларни, ҳатто Олимжоннинг ўзи ҳам билмаган. Хусусан, маркази Берлинда экани айтилган "Озод Туркистон" номли ташкилот бўлганлигини собиқ талабалар фақат қамоққа олинганларидан сўнггина эшитгандилар. Шунингдек, Олимжон Идрисийнинг турк полициясида ишлагани, Германиядан Россияга жосус сифатида йўллангани воқеалари ҳам совет терговчиларининг кашфиёти эди. Шундай қилиб, Олимжон ўзи йўқ ташкилотнинг аъзоларини "санаб беради" ва унда терговчига "маълум" бўлган барча рост ва ёлғонлар акс эттирилади.

1927 йилнинг январь ойида СССРга қайтиш олдидан Олимжон Идрисийнинг олдига бориши воқеаси қуйидагича тасвирланган: "Идрисий: Ҳозирча ватанларингда пахта ва ғалладан юқори ҳосил етиштиришда зараркунандалик ишларини олиб бораверинглар, кейинроқ Берлинга махфий маълумотларни етказиб турасанлар."

Советча тергов шу билан тугатилди ва унинг гўёки хавфли жиноятчи экани тўлиқ "исботлаб" берилди. 1938 йил 2 октябрь куни Олимжон Қодирий билан яна бир Германияда таҳсил олган собиқ талаба Темур Казбеков ўртасидаги юзлаштириш "муваффақиятли" ўтказилди. Айблов баённомасида Олимжон Қодирийга нисбатан қўлланилган ва исботини топмаган барча

айбловлар қайтарилди. Унинг собиқ талаба Солиҳ Муҳаммад билан бир марталик тасодифий учрашуви жосуслик ва ғаразли алоқа ўрнатиш мақсадида дея баҳоланди ва ЎзССР Жиноят Кодексининг 57 (Ватанга ҳиёнат, ҳарбий ва давлат сирларини сотиш, шпионаж), 58 - (қуролли қўзғолонга ҳаракат), 64 - (Совет давлатига қарши теракт), ва 67 - (аксилинқилобий ташкилотга аъзолик) моддаларида кўзда тутилган жиноятларни содир қилганлиги акс эттирилди.

1938 йил 9 октябрь соат 11:15 дан 11:35 гача давом этган машъум "Учлик" (НКВД тройка) суди уни отувга ҳукм этди. Ҳукм ўша куниёқ ижро этилди. Олимжон Қодирий ҳам отилди...

1956 йил 18 апрелда Олимжон Қодирийнинг турмуш ўртоғи Асия Қримова СССР Бош прокурори Роман Руденко номига ариза ёзган. Унда эрининг 1937 йил 8 сентябрда қамоққа олингани ва 1939 йил декабрида Меҳнат тузатиш лагерига юборилди деб хабар берилгани, аммо қаерга ва қанча муддатга ҳукм этилгани айтилмагани ва ҳамон эрининг тақдири ҳақида ҳеч бир маълумотга эга эмаслигини маълум қилади. Тошкентда яшаётган ўғли Қаҳрамон Қодирий ҳам 1956 йилда ТуркВО (Туркестанский военный округ) ҳарбий прокурори номига ариза йўллаб отасининг тақдири билан қизиқди. Аризалар ортидан Олимжон Қодирий иши бўйича қайта сўроқ жараёни бошлаб юборилди. Ўша вақтда тирик бўлган ва уни яхши билган кишилар бирин-кетин гувоҳликка чақирилди.

Даставвал сўроққа Германияда таълим олган талабалардан омон қолган ягона вакил Марям Султонмуродова чақирилди. У 1956 йил 13 сентябрда ўтказилган сўроқда: "...Мен Олимжонни илк бор Берлинда СССРнинг Германиядаги Мухтор вакили хонасида кўрганман. У билан Берлинда тайёрлов курсида ўқиш жараёнида танишганман. Олимжон ўта маданиятли, билимдон ва тиришқоқлиги билан бошқа талабалардан ажралиб турарди. Шундан сўнг бошқа шаҳарга ўқишга кетди ва биз бошқа учрашмаганмиз. У ниҳоятда ватанпарвар инсон эди, унинг аксилсовет тарғибот олиб борганига ҳеч қачон ишонмайман", дейди.

1956 йил 15 ноябрда Самарқанд қишлоқ хўжалиги институтидан Кугучков Даниил Миронович Олимжон Қодирий ҳақида қуйидагича ҳикоя қилди: "Олимжон билан 1936 йилдан битта кафедрада ишлаганмиз. У ниҳоятда илмли, меҳнатсевар, фидоий, жонкуяр инсон эди. Унинг Германияда ўқиганини билардик. Шу сабаблими жамоатчилик орасида кўпинча ўзини тортиб турарди. Бироқ ўзбек тилидаги адабиётларни кўпайтириш, миллий кадрларни етиштириш масалаларида айрича ғайрат билан ишлар эди. Аммо, уни ҳеч қачон аксилсовет фаолият олиб борган деб билмайман...".

Олимжон Қодирийнинг яна бир касбдоши – Самарқанд қишлоқ хўжалиги институтининг “Ботаника” кафедраси раҳбари Жўра Саидов ҳам 1956 йил 15 ноябрда қуйидагича кўрсатма берди: "Олимжон Қодирий билан бир кафедрада ишлаганмиз, аммо мен у киши билан кўп вақт алоқада бўлмаганман. Билганим, у киши ниҳоятда билимли инсон эди. Ўша вақтлари институтда дарсликлар етишмасди. Шунинг учун, у бу камчиликни тугатиш, айниқса, ўзбек тилидаги дарсликларни тайёрлаш борасида жуда катта ишларни амалга оширган эди. Олимжон Қодирийни 1936 йилдан сўнг таниган бўлсам-да, унинг ҳеч бир нотўғри фаолиятини кўрган эмасман, эшитган ҳам эмасман". Қайта терговлар натижасида Олимжон Қодирийнинг бегуноҳ экани ва ноҳақ айбланганлиги тасдиқланди.

Собиқ СССР Олий Суди ҳарбий коллегиясининг 1957 йил 2 августдаги қарори билан "Учлик"нинг 1938 йил 9 октябрдаги ҳукми бекор қилинди. Бу хабар унинг ўғлига маълум қилинди, ва ҳатто, 1937 йилги тинтув вақтида тортиб олинган 56 та китоб учун 8 сўмдан ҳисоблаб 476 сўм, 5 та сурат учун 28 сўм ва омонат дафтарчасидаги пулни фоизи билан 3000 сўмга ҳисоблаб, Тошкент шаҳридаги ўғли Қаҳрамон Қодирийнинг манзилига юборилди.

Совет тузуми шу йўл билан адолатни "таъминлади". Аммо Олимжон Қодирийдек зиёли инсоннинг ноҳақ йўқ қилинишидан унинг оиласи ва ватанига етказилган зарарни ўлчаб бўлмасди.

AVAZ O‘TAR O‘G‘LI IJODIDA XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA IJTIMOIY HAYOTNING AKS ETISHI

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o‘g‘li
Ma’mun universiteti Tarix kafedrasi
katta o‘qituvchisi
E-mail: s_baxtiyarov96@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy hayotning Avaz O‘tar o‘g‘li ijodida aks etishi masalalari bayon etilgan. Bilamizki aynan shu davrda O‘rta Osiyodagi mavjud davlatlarda ma’rifatparvarlik harakati hisoblanadigan jadidchilik keng quloch yoydi. Jadidlarning namoyondalari ham xalqni ilm ma’rifatli qilishga, maorif tizimini isloh qilishga harakat qilishgan. Avaz O‘tar o‘g‘lining faoliyati ham aynan shulardan iborat bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, litografiya, “Majmuat ush-shuaro”, “Shajarai Xorazmshohiy “Tarixi Gulshan”, “Majmuai shoironi Xorazm”, “Xorazm navozandalari”, Devoni Avaz, Faloniy.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida hokimiyat markazlashib, hunarmandchilik, savdo-sotiq, me’morchilik, kitobat, tarjima, musiqa san’ati rivojlandi. Bu davrda nafaqat Xivada balki O‘rta Osiyo davlatlari hududida ma’rifatparvarlik harakatlari keng quloch yoyib, xalqni ilm-ma’rifatli qilish, yangi usuldagi maktablar ochish, gazetalar nashr etishga e’tibor kuchaydi. Bu harakatga bevosita jadidlar rahnamolik qildi.

Xiva xonligida ham madaniy hayotda Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida ma’lum bir madaniy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xiva va atrof shaharlardan ilm ahli, shoir va adabiyotchilar saroyga yig‘ilib, ilmiy adabiy muhit vujudga keltirildi. Xivada litografiya (toshbosma)ning barpo etilishi Muhammad Rahimxon II ning amalga oshirgam muhim ishlaridan bir bo‘ldi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Buning natijasida Xivada matbaachilik ishining rivojlanishiga olib keldi.

Bu davrda mahalliy xalq orasida madaniyat va maorifning rivojlanishi, badiiy so‘z va msuiqa san’atining tarqala boshlashi o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsata boshladi. Xalq orasidan yangicha dunyoqarashga ega bo‘lgan ko‘plab shoirlar, xattotlar, musiqachilar, tarixchilar etishib chiqdi. Madaniy hayotda o‘zgarishlar sodir bo‘lsa-da, xalqning ijtimoiy ahvoli og‘irligicha qolaverdi. Sanoatning qoloqligi, ishlab chiqarish va er egaligi munosabatlarining feodal ko‘rinishlari oddiy xalqning ahvolini qiyin ahvolga solib qo‘ygan edi. Shunday sharoitda xivalik jadidlardan iborat bo‘lgan ziyolilar qatlami bu holatni o‘zlarining asarlari yoki she’rlarida ta’riflay boshlaydilar. Ana shunday ziyolilardan biri shoir Avaz O‘tar o‘g‘li edi.

Avaz O‘tar o‘g‘lining faoliyati va ijodining o‘rganilishi bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Uning ijodini ayniqsa, tarix, falsafa, huquqshunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlar o‘rganib kelishmoqda. Avaz O‘tar ijodi haqidagi ma’lumotlar uning zamondoshlari asarlarida ham uchratish mumkin. Xususan, Avaz ijodi haqida zamondosh ustozlaridan Ahmadjon Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida, Yusufbek Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy”, Jumaniyoz Xivaqiyning “Tarixi Gulshan”, Hasanmurod Qori Laffasiyning “Majmuai shoironi Xorazm”, Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm navozandalari” kabi asarlarida Avaz O‘tarning badiiy so‘z sohasidagi iste’dodi yuqori baholanadi. Shoir asarlari Xorazmda kitobat qilingan juda ko‘plab antologiya va bayozlarga kiritilgan. U o‘z she’rlarini jamlab, ikkita devon tartib bergan. “Saodat ul-iqbol” deb nomlangan devon o‘z hajmi jihatidan mukammalroq devon hisoblanadi. Avazning O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida uchta qo‘lyozma devoni saqlanadi. Bular quyidagilar:

1-qo‘lyozma. Saqlanish raqami – 942. 1908-yilda xattot Boltaniyoz ibn Qurbonniyoz tomonidan Xivada ishlangan qog‘ozga nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

2-qo‘lyozma. Saqlanish raqami – 7102. Bu devonni ham xattot Boltaniyoz ibn Qurbonniyoz ko‘chirgan.

3-qo‘lyozma. Saqlanish raqami – 3451. «Devoni Avaz» deb nomlangan bu majmua xattot Muhammad Yoqub tomonidan Xivada nasta’liq xati bilan ko‘chirilgan. [1]

XX asrdan keyingi davrda ham Avaz O‘tar o‘g‘lining faoliyati bo‘yicha maqolalar, monografiyalar nashr etildi va tadqiqot ishlari olib borildi. Y.Yusupov, V.Mirzayev, M.Qo‘shjonov, I.Haqqulov, V.Qobulov, V.Mo‘minova F.Rasulova, kabi tadqiqotchilar Avaz O‘tarning faoliyati bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. [2]

Avaz O‘tar o‘g‘li 1884-yil 25-avgustda Xivada dunyoga kelgan. Otasi Polvonniyoz O‘tar Gadoyniyoz o‘g‘li o‘z davrining ilg‘or ziyoli kishilaridan bo‘lib, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mutrib

Xonaxarobiy, Chokar, Bayoniy, Ahmadjon Tabibiy kabi o‘z davrining shoir va san’atkorlari bilan doimiy adabiy suhbatlarda qatnashgan. Avazning O‘tar degan laqabni olishiga sabab otasi xonlik saroyida sartarosh bo‘lgan. Xiva podshoning sochini oladigan sartaroshga “O‘tar” degan amal berilgan. [3;79]

Avaz O‘tar o‘g‘li shoir sifatida 14 yoshidan boshlab xalq orasida tanila boshlagan. U Xivadagi Inoqiy madrasasida tahsil olib yurgan vaqtida uning iste’dodining dovrug‘i xon saroyigacha etib boradi. Muhammad Rahimxon II Avazga ustoz sifatida shoir Ahmadjon Tabibiyni ustoz qilib tayinlagan[4;6]. Avaz O‘tar ilk ijodida ijtimoiy-hayotiy masalalardan uzoqlashish, xon va beklar sharafiga qasidalar bitish holatlari uchraydi. Keyinchalik uning qarashlarida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Saroy muhitidagilarga bu holat yoqmaydi va uni saroydan uzoqlashtirhsga harakat boshlanadi. Avaz O‘tar ta’qib ostiga olinadi. Keyinchalik uni xon tomonidan Oqmasjid qishlog‘idagi Boboeshon qabristoniga yuborishadi.

Avaz O‘tar ijodida hurfikrlilik g‘oyalarining shakllanishi tasodifiy hodisa bo‘lmagan. 1905-yil birinchi rus inqilobidan keyin Xivada “Ijtimoiychilar” deb atalgan guruh tuzilgan. Avaz bu guruhning a’zosi hisoblangan xon va uning amaldorlariga qarshi, erk, tenglik va adolat uchun kurashgan. Keyinroq Avazning o‘zi rahnamolik qilgan bu tashkilot bevosita jiddiy inqilobiy ishlar bilan shug‘ullanmasa-da, kishilarda ijtimoiy tuzumga nisbatan norozilik tuyg‘ularini uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etgan.[5;23]

Avaz O‘tar ko‘p vaqt mobaynida turli ta’qiblar ostida yashagan. Buning natijasida uning jismoniy holati yomonlashgan. Lekin shunday bo‘lsa-da, u ijoddan uzoqlashmaydi. 1912-yilda Avaz Kavkaz va Qrim hududlariga boradi. Bokuda Jalil Mamatqulizoda, Aliakbar Sobir, Muhammad Hodi, Sahhat, Shoiq, Aliguli G‘amgusor, Sobir Tohirzoda kabi ma’rifatparvarlari bilan uchrashuvi uning ijodi va ma’rifarparvarlik qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Avaz ijodini o‘rgangan olim V.Mirzayevning tadqiqotlariga ko‘ra uning “Maktab”, “Til”, Ulamolarga” kabi she’rlari Qrimda yozilgan.[6]

Avaz O‘tar o‘z asarlarida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha nohaqlikla va adolatsizliklarni fosh qilgan. Shaxsning jamiyatdagi o‘rni va roli, erki, huquqi, mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, vatanparvarlik kabi haqiqiy insoniy fazilatlarni zo‘r mahorat bilan kuylagan. Uning “Xalq” she’rida mehnatkash xalqning siyosiy huquqlari toptalganligini aniq tasvirlagan:

Yo‘q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,
Zulm tig‘i birla bo‘lg‘on bag‘ri yuz ming pora xalq.[4; 18]

Bu she’rda shoir xalqni ezayotgan, yurtni xonavayron etayotgan chorizm mustamlakachilari va xonlikdagi hukmron guruhlarning qilmishlarini ochiq tarzda ifoda etgan.

Avaz O‘tar o‘g‘li ijodida ta’lim va tarbiya masalalari alohida o‘rin tutadi. U yangi maktablar ochib, bolalarga aniq fanlar o‘qitish zarurligini ta’kirlaydi. “Maktablar ochish shunday bir faoliyatki, - degan edi Avaz, u xalqqa xizmat qilishga o‘zini xalq, Vatan farzandi deb hisoblagan har kim ana shu oliyjanob ishga o‘zini bag‘ishlashi kerak, chunki maktab xalqni va uning farzandlarini azob uqubatdan qutqaradi”. [7;279] Avaz O‘tar o‘g‘li ijtimoiy hayot masalalarida xalqning kuch-qudratiga ishongan, shuning uchun ham xalqni ilmdan bahraman etishga chaqirgan. Shoirning “Maktab” she’ri maktabni go‘zal axloq maskani ekanligini, ta’lim-tarbiya johillik va nodonlikni barbod etishini ta’kidlaydi. Ushbu she’rda u yosh avllodning istiqboliga yuksak umid bilan qaragan, yoshlarga bilim berish, ularni zamonasining eng yetuk kishilari darajasiga yetishtirishda astoydil harakat qilgan:

Ochinglar, millati vayron etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz ko‘nglini shod etgusi maktab,
Dilu jon birla el maktab ocharg‘a ijtihod etsin,
Nedinkim, bizni g‘am-qayg‘udin ozod etgusi maktab.[4;21]

Avaz O‘tar yoshlarni xorijiy tillarni o‘rganishga chaqirgan. Uning “Til” she’rida tilni insonlar, turli millatga mansub kishilarni birlashtiradigan, do‘stlashtiradigan “robitai olamiyon” – kishilarning aloqa vositasi deb ataydi. Shuning uchun ham o‘zgalar tilini ona tilidek bilish “foydai kondir” deydi.

Avaz O‘tar ijodida alohida o‘rin tutgan hajviy she’rlarini “Faloniy” rukni ostida ijod qilgan. “Faloniy” rukni ostidagi she’rlarida mavjud tuzum illatlarini, amaldorlarning asl qiyofasini ochib tashlaydi. Xon va amaldorlarning millat oldidagi o‘z vazifalarini xalqni savodxon qilishga, ilmu fanga oshno, siyosiy hayotda faol bo‘lishga chaqiradi. U “Millat”[4;19] radifli g‘azalida davrning muhim vazifalaridan biri xalqparvar firqalar (partiyalar) tuzishga chaqiradi. Shunday kuch mavjud bo‘lsagina millatni ozodlik va taraqqiyotga boshlashi mumkinligi Avaz O‘tarning o‘zi ham davr nuqtayi nazaridan tushungan.

Iqtiboslar

1. Devoni Avaz. O‘zFA Sharqshunoslik instituti, Qo‘lyozmalar fondi, Inv. №942, 7102, 3451.
2. Юсупов Ю. Аваз Ўтар ўғли. “Гулистон” ойномаси, 1940 йил 6-сон; Мирзаев В. Аваз Ўтар ўғли. – Т.; Ўздавнашр, 1961; Қўшжонов М. Ҳаёт – адабиёт кўзгуси – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985; Қобулов Н., Мўминова В., Ҳаққулов И. Аваз ва унинг адабий муҳити – Т.: Фан, 1987; Расулова Ф., Хасанов С., Аваз Ўтар ўғлининг маърифий-тарбиявий қарашлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992;
3. Бобожон Тарроҳ Азизов – Ходим. Хоразм навозандалари (ХИХ аср охири – ХХ аср бошларида Сайид Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар ҳақида эсдаликлар) – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
4. Аваз. Сайланма. Т.: 1984.
5. Расулова Ф. Аваз Ўтар ўғлининг маърифий-педагогик қарашлари. – Т.: 1993. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатsiя.
6. Мирзаев В. Аваз ижодида ватанпарварлик ва дидактик ғоялар. “Совет мактаби ойномаси”, 1984. 8-сон.
7. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги. – Т.: Abu Matbuot konsalt, 2007.

MUHOJIR JADIDLARNING “YOSH TURKISTON” JURNALIDA OBIDJON MAHMUDOV HAYOTI VA FAOLIYATINING YORITILISHI

Muslimbek ALIJONOV
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining liderlaridan biri Obidjon Mahmudovning hayoti va faoliyati “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan Mustafo Cho‘qayning xotiralari asosida ochib berilgan. “Yosh Turkiston” jurnalidagi Mustafo Cho’qayning xotira maqolasi Obidjon Mahmudov shaxsiyatining ilgari tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan qirralarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *Obidjon Mahmudov, Mustafo Cho‘qay, “Yosh Turkiston” jurnali, jadidchilik harakati, Turkiston Muxtoriyati, sovet mustamlakachiligi, milliy uyg‘onish.*

Turkistonning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhit Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Saidrizo Alizoda, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, Hoji Muin, G‘oziy Yunus, Ashurali Zohiriy, Elbek kabi yirik shaxsiyatlarni bizga tuhfa etdi. Bu buyuk siymolarning ichida Obidjon Mahmudovning ham o‘z o‘rni bor.

Obidjon Mahmudov 1871-yilda Qo‘qonda tug‘ilgan. Bu borada atoqli olim Naim Karimov o‘zining “Farg‘ona jadidlarining sarvari” maqolasida ilmiy jihatdan ancha asosli fikrlarni ilgari surgan. Naim Karimov ushbu maqolasida XX asrning 20-yillari oxiri, 30-yillari avvalida O.Mahmudovning sog‘ligidan bohabar bo‘lib turgan shifokor G.Shaxanovich qo‘li bilan yozilgan ma’lumotnomani keltirgan. Mana, rus tilida yozilgan o‘sha ma’lumotnoma: “Дана сия гр-у Махмудову Абиджану, 71 года в том, что с 25-го ноября по 1-го июня болел обостренем хронического эндокардита, находясь все время в тяжелом состоянии в постели…” [1].

Ushbu ma’lumotnomadan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Obidjon Mahmudov 1871-yilda tug‘ilgan, chunki [Naim Karimovning fikricha] ma’lumotnomadagi “71 года” so‘zlari “71-yil tug‘ilgan” degan ma’noni anglatadi.

Obidjon Mahmudov 1897-1901-yillarda Peterburg tog‘-kon universitetida o‘qib, bu soha bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib yetishadi. Qahramonimiz o‘qishni tamomlagach Qo‘qonga qaytib neft konlarida ish boshlaydi. Biroq, tez orada u Turkistonni ozod etmasdan turib chinakam milliy iqtisodiy tizimni yo‘lga qo‘yib bo‘lmasligini tushunib yetadi.

Obidjon Mahmudov bu og‘ir masalaning yechimini eng avvalo ta’limda ko‘radi. Shu maqsadda u 1911-yilda Haydarbek mahallasida yangi usul maktabini ochadi. Obidjon iqtisodiy jihatdan ancha baquvvat shaxs bo‘lganligi uchun, o‘zi ochgan maktabni zamonaga mos tarzda jihozlaydi, turli hil o‘quv

qurollarini sotib olib, maktabga tuhfa etadi. Bundan tashqari u Qo‘qondagi boshqa yangi usul maktablarini ham iqtisodiy jihatdan uzluksiz qo‘llab-quvvatab turadi.

1914-yilda Avstrya-Vengriya imperiyasining valiahd shahzodasi Frans Ferdinandning o‘ldirilishi bilan boshlanib ketgan I jahon urushi Obidjon Mahmudovning ong va tafakkurida katta evrilishlar yasadi. U murakkab davrning chigal jarayonlarini Turkiston xalqiga atroflicha tushuntirib berish, davr qo’yayotgan og’ir talablarni millatga teran anglatish maqsadida shu yilning o‘zida “Sadoyi Farg‘ona” gazetasiga asos soldi.

“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi 1914-yilning 1-aprelda chop etilgan bo‘lib, Obidjon Mahmudov gazetaning ilk sonidagi “Maslak va maqsad” nomli kirish maqolasida: “Ko‘p zamondan [beri] bu taraf Ho‘qandda musulmoncha bir gazetaning nashr etilishini orzu qilmoqda edik”, deb yozgan holda gazetaning vazifasi millatga xizmat qilish ekanligini, Turkiston xalqining kasali ham, dardi ham bir ekanligini, o‘z navbatida darmoni ham bir ekanligini qayd etib, faqat ilmgina xalqni jaholatning qora ko‘lankasidan qutqarishi mumkinligini dadil ta’kidladi. O‘z navbatida Obidjon Mahmudov ushbu kirish maqolasida, gazeta moddiy tarafdan to‘la ta’minlanganligini urg‘ulab, faqatgina zamondosh ziyolilar o‘z qalamlari bilan gazeta faoliyatiga yordam berib turishlarini iltimos qildi.

1917-yil 26-noyabrda o‘lka musulmonlari Qo‘qonda o‘zlarining favqulodda IV qurultoyiga to‘plandilar. Ertasi 27-noyabr kuni kechasi qurultoy Turkiston Muxtoriyat hukumatining tuzilganini e’lon qildi. Obidjon Mahmudov Muxtoriyat hukumatining oziq-ovqat noziri etib tayinlandi. Biroq, oradan yetmish ikki kun o‘tib Muxtoriyatning bolsheviklar tomonidan vaxshiylarcha bostirilishi ko‘plab ziyolilar singari Obidjon Mahmudovning ham hayotini ostin-ustun qilib yubordi. Keyinchalik, muhojir jadidlarning vakillaridan bo‘lmish Abdulvahob O‘qtoy o‘sha daxshatli kunlarni shunday xotirlagan: “O‘sha paytda Qo‘qon hukumati a’zolari o‘q vizillashlari orasida Qo‘qonning eski shahar ko‘chalari ichiga tarqaldilar. O‘sha payt hukumat a’zolaridan Mustafo Cho‘qay, Mirodil, Abdurahmon O‘rozoy, Xiyoyatbek Yurg‘ulu (agronom, Ozarbayjon qishloq xo‘jaligi noziri) Qo‘qonda edilar. Nosirxon To‘ra Namanganda (Turkiston Muxtoriyatining Maorif noziri), Salamon Hersfeld (Da’vo vakili, avstraliyalik, yahudiy, milliy ozchiliklar noziri) Samarqandda, Ubaydullaxo‘ja Ashhobod-Samarqand yo‘lida, Obidjon [Mahmud] Buxoroda, Shox Ahmadbey esa Qo‘qon qo‘rg‘oni ichida ekan, bolsheviklarning qo‘liga tushgan edilar”. Obidjon Mahmud Kavkazga safar qilib u yerdan Qo‘qonga bug‘doy olib kelishni maqsad qilgan edi, biroq Muxtoriyat qonga botirilgach uning ta’sischilaridan biri bo‘lgan Obidjon Mahmud ham qidiruvga beriladi va Buxoroda qo‘lga olinadi [2].

Tadqiqotchi olim Nodirbek Komilovning qayd etishicha Obidjon Mahmudov ikki marotaba qamoqqa olingan. Dastlab u 1921-yilning noyabrida Turkistonda ingliz-yapon intervensiyasini tashkillash va “bosmachilar” bilan aloqa o‘rnatganlikda, noqonuniy ishlar bilan shug‘ullanganlikda, yashirin yig‘ilishlar uyushtirganlikda, “sovetlarga qarshi tizimli tashviqot ishlari olib borganlikda” ayblanib hibsga olingan. Ammo Obidjon Mahmudov o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulklaridan voz kechish evaziga hibsdan ozod qilingan [3].

Obidjon Mahmudovning keyingi qamoqqa olinishi 1926-yilda yuz berib, OGPU kollegiyasining qaroriga muvofiq 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan. Biroq, biroz vaqtdan so‘ng (mol-mulkidan voz kechish evaziga) qamoqdan ozod etilgan.

Uzoq yillik ta’qib va qamoq jazolari Obidjon Mahmudovning jismoniy va ruhiy holatiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatganligi shubhasiz. Shu boisdan ham u 1936-yil 21-noyabrda og‘ir kasallik natijasida vafot etadi. Uning vafoti sovet hokimiyatining milliy zulm va genotsidi sabab Turkistondan hijrat qilishga majbur bo‘lgan muhojir jadidlarni ham chuqur qayg‘uga soldi.

Obidjon Mahmudning vafoti munosabati ila Mustafo Cho‘qay tomonidan “Yosh Turkiston” jurnalining 1937-yil iyul-avgust sonlarida bir xotira e’lon qilingan. Ushbu yodnoma Obidjon Mahmudning hayoti va faoliyatiga doir hali bizga ma’lum bo‘lmagan qirralar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Qayd etish joizki, ushbu noyob xotira bugungi kungacha Obidjon Mahmudning hayoti va faoliyati bilib shug‘ullanib keluvchi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Mustafo Cho‘qay xotira maqolasining kirish qismida: “Obidjon Mahmudning Toshkentda vafot etganligi bildirilmakdadir. Bu xabar Obidjon Mahmudni tanig‘on butun turkistonliklar yuragida so‘ngsiz bir qayg‘u uyg‘otajakdir. Uni deyarli butun turkistonliklar tanirdi. Asli qo‘qonlik Obidjon Turkistonning har tarafida mashhur bir shaxsiyat edi. Ayniqsa uning shuhrati 1917-yilgi inqilobdan keyin ko‘p kengaydi. Shaxsan, men ham uningla yaqindan do‘stlashmog‘im 1917-yili aprelinda to‘plang‘on Birinchi Turkiston inqilobchi ijtimoiy tashkilotlari qurultoyindan boshlandi. U bu qurultoyg‘a Qo‘qon vakili sifatida qatnashg‘on edi. Favqulodda muvaffaqiyatli chiqishlari va faoliyati uni tezgina jamoat xodimlarimizning olg‘i safiga chiqarib yubordi. Shu zamondan boshlab Obidjon

bizning butun viloyat ham o‘lka konferens va boshqa to‘planishlarimizg‘a saylana bordi. Qo‘qonning savdo va umuman ish muhiti ham uni yaxshi tanir va unga yaxshi qiymat berar edi. Shuni unutmasliq kerakki, Qo‘qon Turkistonning paxtachiliq markazi va eng boy shahri sanalar edi. Eng katta rus korxonalari va banklari, ularning Qo‘qondagi sho‘balari bo‘lur edi. Shuning uchun bu yerning savdo va ish doirasi ichiga kira bilmak u qadar ham oson emas edi. Obidjon o‘zi nutqi kuchli odam ham emas edi. Unga bu doiralar amaliy ish belgisi, har turli mushkulotdan chiqish yo‘lini tez topa bilish qobiliyati uchun ko‘p qiymat berarlar edi. Qo‘qon aholisi uni ko‘p sevar va unga so‘ng darajada yuksak qiymat berar edi” [4], deb yozadi.

Mustafo Cho‘qay ushbu xotira maqolasida Obidjon Mahmudovning Turkiston Muxtoriyati va undan keyingi murakkab davrlardagi faoliyati xususida ham qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan: “Bolsheviklar bilan qurolli to‘qnashish bo‘lg‘on zamon Obidjon Qo‘qonda emas edi. Arzoq (oziq-ovqat) oluv uchun Qo‘qon milliy hukumati tarafidan Shimoliy Kafkaziyaga yuborilg‘on Obidjon Buxoroda to‘xtab qolg‘on edi. U yerda ham bo‘sh o‘tirmadi, umumiy harakat etuvimizni yo‘lg‘a qo‘yish uchun buxoroliklar bilan muzokara yuritdi. Amir Olimxon va uning ma’murlari bizning Rusiyadan ayri mustaqil siyosat yurtimizni istamaslar va o‘zlari hech bir suvratla Rusiya va uning himoyasindan ayrilmoqni xohlamaslar edi… Shu Shimoliy Kafkaziyaga yuborilg‘on kundan yani 1918-yili yanvar boshindan so‘ng men Obidjonni ko‘ra olmadim. Buningla barobar men uzoqdan har zamon uning turmush va faoliyatini kuzatib keldim. Uni necha martalab qamadilar. Turkistondag‘i sovet siyosatining tubdan o‘zgarishi shart ekanligi haqida ochiq so‘ylag‘on bir necha turkistonlikning biri ham shu Obidjon edi. Munavvarqori kabi Obidjonga ham qulayliq bilan mamlakat tashqarisiga chiqib ketish taklifi berilgan edi. Biroq u ham vatanda qolishlikni tanladi…” [4].

Bilamizki, Obidjon Mahmudga mustamlakachi ruslar tomonidan “Obid Chatoq” nomli haqoratomuz laqab berilgan. Mustafo Cho‘qay unga berilgan “Chatoq” laqabi aslida uning xarakteriga mutlaqo uyg‘un bo‘lmag‘on bir laqab ekanligini, agar Obidjon o‘zida axloq nuqtayi nazaridan biror kamchilikni sezadigan bo‘lsa uni darhol bartaraf etishga kirishadigan ziyoli kishi bo‘lganligini, u o‘z millati uchun katta xizmatlar qilishga intilganligi sabab rus bolsheviklari uchun “chatoq”liklar chiqarganligini yozadi.

Jumladan, Mustafo Cho‘qay Muxtoriyat qonga botirilganidan keyin Qo‘qon shahar boshlig‘i etib tayinlangan Gurpich va Obidjon Mahmud o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bahsni quyidagicha eslaydi: “Obidjon Qo‘qon baladiya raisligiga saylang‘on edi va uning bu yerdagi faoliyati so‘ng darajada samarali bo‘lg‘on edi. U shahar ta’mir ishlarida eski shaharni yangi shahar bilan tenglash uchun ko‘p kurashdi. Uning shahar boshlig‘i sotsialist revolyutsioner Gurpich bilan bo‘lg‘on bir munoqashasini shaxsan o‘zim o‘tirib tinglag‘on edim. Ular ko‘pdan bir-biri ila yaqin tanish edilar. Muzokara yangi shaharda bir necha ko‘chaga tosh yotqizish ustida edi. Obidjon shahar boshlig‘ini to‘xtatdi va “Masalani umumiyatla Qo‘qon shahrining ta’mir va islohi ustida qo‘yish kerak. Eski shaharda tashlang‘on yo‘llar bo‘lmag‘oni kabi ko‘chalar ham yetarlik darajada yorug‘liq ham yo‘q. Shuning uchun bunday tuzatuv ishini eski shahardan boshlash kerak. Biz siz bilan eski do‘stlarmiz. Endi tortisha boshlasak bir-birimizga teskari, hamda jiddiy qarama-qarshi bo‘lib qolamiz. Har turli ta’mir va islohot ishi eski shahardan boshlanishi lozim”, dedi. Obidjonning uddaburonligini avvaldan bilgan Gurpich menga qarab kulib: “Bu bekorga “Chatoq” deb atalmag‘on. Bu bilan tortishish qiyin. Chunki uni fikridan qaytarish hech mumkin emas”, dedi. Obidjon haqiqatdan ham shunday bir kishi edi. Uni rus ishchilari doirasi, ayniqsa soldatlar hech yoqtirmas edilar. Bu ham g‘oyatda tabiiy, anglashirliq bir narsa edi. Chunki Obidjon ularning Turkiston xalqi ustidagi mutlaq hokimiyatlariga mone bo‘lib turg‘on eng muhim to‘siq edi”.

Xotiradagi Obidjon Mahmudning ovoz toniga doir quyidagi ma’lumot ham e’tiborga molik: “Uning biroz xirillag‘on, bo‘g‘iq tovushi ilk eshitishda ko‘p qizib, so‘ylashib-tortishib charchag‘on bir tovush ta’sirini berar edi” [4].

Xullas, Obidjon Mahmudovga sovet mustamlakachilari tomonidan “Obid Chatoq” deb laqab berilgani uning bosqinchilar oldida hechqachon bosh egmaydigan, qat’iyatli va kurashchan xarakter egasi bo‘lganidan darak beradi. Aynan shu mustahkam pozitsiyasi tufayli u mustamlakachi kuchlar uchun “Chatoq” shaxsga aylangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1) N.Karimov. Farg‘ona jadidlarining sarvari // “Vodiynoma” jurnali. 2016-yil 1-son. – B. 63.
2) Doktor A.O‘qtoy. Turkiston milliy harakati va Mustafo Cho‘qay [Nazarbek Rahim tarjimasi]. – T.: “Navro‘z” nashriyoti. 2019. – B. 76-77.

3) Komilov Nodirbek. Turkiston jadidlaridan Obidjon Mahmudovning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy faoliyati (1871–1936 y.y.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon – 2021. – B. 17.
4) Mustafo Cho‘qay. Obidjon Mahmud // “Yosh Turkiston”. 1937-yil iyul-avgust. – №. 92-93.

AFG’ONISTONDA 1970-1980-YILLARDA TURKISTON O’ZBEK UYUSHMALARI FAOLIYATI.

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi
BuxDU maqsadli tayanch doktaranti,
Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1970–1980-yillarda Afg‘onistonda faoliyat yuritgan Turkiston o‘zbek uyushmalari, ularning shakllanishi, madaniy-ma’rifiy ishlari, va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yoritilgan. Xususan, “Anjumani Vatan” uyushmasining tashkil topishi, “Yulduz” gazetasi, o‘zbek tilidagi madaniy dasturlar va “Oydin” yoshlar uyushmasining faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat, milliy uyg‘onish harakatlari, AMIH (Afg‘oniston Milliy Islom Harakati) partiyasining tuzilishi va uning matbuot faoliyati ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Millatlararo munosabatlar, o‘zbek diasporasining madaniy-milliy huquqlari uchun kurashi kontekstida tarixiy jarayonlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. Afg‘oniston, o‘zbeklar, Anjumani Vatan, Oydin uyushmasi, Yulduz gazetasi, AMIH, madaniy-ma’rifiy faoliyat, milliy uyg‘onish, o‘zbek diasporasi, millatlararo munosabatlar.

Аннотatsия. В данной статье рассматривается деятельность тюркестанских узбекских объединений в Афганистане в 1970–1980-е годы, их становление, культурно-просветительская деятельность и участие в политических процессах. Особое внимание уделено организatsии «Анжумани Ватан», изданию газеты «Юлдуз», программам на узбекском языке, а также молодежному объединению «Ойдин». Также анализируются политическая ситуatsия в Афганистане, natsиональное возрождение, создание партии АНИХ (Афганское Natsиональное Исламское Движение) и её медийная деятельность. Исторические процессы представлены в контексте межnatsиональных отношений и борьбы узбекской диаспоры за свои культурные и natsиональные права.

Ключевые слова. Афганистан, узбеки, Анжумани Ватан, объединение Ойдин, газета Юлдуз, АНИХ, культурно-просветительская деятельность, natsиональное возрождение, узбекская диаспора, межnatsиональные отношения.

Abstract. This article examines the activities of Turkestani Uzbek associations in Afghanistan during the 1970s–1980s, highlighting their formation, cultural and educational work, and participation in political processes. Special attention is given to the “Anjumani Vatan” organization, the publication of the “Yulduz” newspaper, Uzbek-language cultural programs, and the “Oydin” youth union. The political context of Afghanistan, the rise of national awakening movements, the formation of the National Islamic Movement of Afghanistan (NIMA), and its media activities are also analyzed. These historical developments are assessed in the context of interethnic relations and the struggle of the Uzbek diaspora for cultural and national rights.

Key words. Afghanistan, Uzbeks, Anjumani Vatan, Oydin organization, Yulduz newspaper, NIMA, cultural and educational activity, national awakening, Uzbek diaspora, interethnic relations.

Afg’onistonda 1978-yil aprel (“Savr inqilobi”)dan so’ng ijtimoiy-siyosiy hayotda radikal o’zgarishlar ro’y berdi. Turli millat va elatlarning uyushma hamda tashkilotlari vujudga keldi. Jumladan, muhojir o’zbek(turkistonlik)lar bilan ish olib boradigan Bobo Qilich Davron rahbarligida 1980-yilda “Anjumani Vatan” uyushmasi tuzildi. 1984-yilga qadar “Anjumani Vatan” safida 1000 nafar a’zo birlashgandi.[1] Afg’onistonda Afg’oniston Demokratik Respublikasi yillarida “Anjumani Vatan”, “Vatan fronti” tarkibiga kirgandi. 1980-1985-yillarda “Anjumani Vatan” qoshida “Zafar” nomli o’zbek qo’shiq va raqs ansambli tashkil topdi. Ushbu uyushma O’zbekistondagi “Vatan” jamiyati bilan madaniy aloqalar o’rnatdi. “Vatan” jamiyati va ijodiy uyushmalar yordamida O’zbekistondan

[1] O’MA, R-2822-fond, 1-ro’yxat, 34-yig’ma jild, 34-35-varaqlar.

“Anjumani Vatan” manzilgohiga o’zbek musiqa asboblari, musiqaga oid kitob va qo’llanmalar, teatr kiyim va liboslari yuborildi. Ikki jamiyat o’rtasida delegatsiya almashinuvlari, maktubiy aloqalar yo’lga qo’yildi. “Anjumani Vatan” Afg’oniston shimoliy viloyatlarida o’zbek tilini rasmiy til sifatida joriy etish, o’zbekcha radioeshittirishlar tashkil etish kabilarda muhim rol o’ynadi.[1] Biroq 1980-yillarda Afg’onistonda siyosiy vaziyat keskinlashishi bilan “Anjumani Vatan” o’z faoliyatini keng yo’lga qo’ya olmadi, ta’kidlash joizki, 1978-yil apreldan so’ng, nafaqat milliy uyushmalarga, shuningdek, ADR inqilobiy kengashining 4-dekreti bilan har bir millatning ona tilida ta’lim olishi uchun darslik va o’quv qo’llanmalar nashr etishga ruxsat etilgandi. Afg’oniston aholisini majburiy pushtu tilida o’qitish bekor qilinib, bu tilni bilganlarga berilgan moddiy va boshqa imtiyozlar bekor qilingandi.[2] 1978-yil aprel voqealaridan 21 kun o’tib Mozori Sharif provinsiyasi markazi Balx shahrida o’zbek tilida Abdulloh Ro’yin muharrirligida “Yulduz” gazetasi nashr etilgan. Shuningdek, turkman tilida “Gurash” (“Kurash”), belush tilida “Sabh” gazetalari ham dunyo yuzini ko’rib, ular tiraji uch yilda (1979-1981-yillar) 3 ta barobar ko’paydi.[3] Jumladan, “Yulduz” gazetasining nashri 7300 nusxani tashkil etib, Afg’oniston hududlari bo’ylab keng tarqalgan. Biroq “Yulduz” gazetasi 1990-yillardan moddiy-moliyaviy to’siqlar tufayli uning 1 oyda 1 bor nashr etiladigan nusxasi 300 donaga tushib qolgan.[4]

Afg’onistonda ko’p yillardan buyog’i turkiy tilli yoshlarning “Oydin” uyushmasi faoliyat yuritib keladi. Uyushmani sarmoyador homiylar qo’llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Turkiya Respublikasi hukumati tomonidan moddiy yordam olib turiladi. Uyushmaning maqsadi Afg’onistondagi turkey tilli yoshlar orasida madaniy-ma’rifiy targ’ibot yuritish, ularning zamonaviy ta’lim olishiga yordam berishdan iborat. Uyushma markazi Afg’oniston poytaxti Kobulda bo’lib, uning bo’limlari Mozori Sharif, Saripul, Andxoy, Maymana, Saripul provinsiyalarida mavjud. Uyushma boshqaruv tuzilmasi: rahbar, rahbar o’rinbosari, bo’lim (baxsh)lardan iborat. Ayniqsa, tashkiliy, madaniy, matbuot bo’limlari faol bo’lib, bo’limlar tashkilotchiligida har oyda 2 ming nusxada 30-40 sahifali “Oydin” gazetasi o’zbek va fors tillarida bosiladi. Uning sahifalarida yoshlar hayoti va faoliyati muammolariga bag’ishlab maqolalar yoziladi.

Uyushma faoliyati keng tarmoqli bo’lib, joylarda vaqti vaqti bilan futbol, voleybol, kurash, uloq (ko’pkari) kabi sport musobaqalari uyushtirib turiladi. Musobaqalarda g’olib chiqqanlarga homiylar tomonidan mukofotlar ajratiladi. Uyushma turkey tilli yosh xotin-qizlarni ham o’z saflariga birlashtirgan. Ayollar ijtimoiy faolligini oshirish va gender tenglik masalasi uchun kurashib keldi. Afg’on urushida aziyat chekkanlarga moddiy ko’mak berish ham uyushma tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqotchi, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilimdoni professor N.Nazarov uyushmaning shiori haqida quyidagicha ma’lumot keltirgan:

O’lkadoshlar bir bo’linglar, yaxshi bunyod aylaylik,
Urushda o’lgan olimlar ruhini shod aylaylik.
Kim bu kun o’lsa, tushubdur boshqa asrning ichiga
Barcha nasllar birlashing o’lkamni obod aylaylik.[5]

Afg’onistonni cheklangan sovet qo’shinlari tark etgan bo’lsada (1989-yil fevral), Najibullo rejimi 1992-yil 28-aprelga qadar mavjud bo’lib turdi. Afg’oniston ko’p millatli davlat (20 dan ortiq millat va elat) bo’lganligi uchun millatlararo to’qnashuvlar davom etdi. Shunday tarixiy vaziyatda o’zbek aholisining siyosiy jarayonlarda ishtiroki faollashdi. Shimoliy Afg’onistonning Mozori Sharif shahrida Afg’oniston tarixida 1-bo’libgeneral Abdurashid Do’stim[6] rahbarligida siyosiy tashkilot ya’ni Afg’oniston Milliy Islom Harakati (AMIH) tashkil etildi. Ushbu tashkilotning ta’sis qurultoyida Nizomi

[1] Hayitov Sh., Badriddinov S., Vatan deya vatansiz qolganlar qismati, Buxoro: “Buxoro” nashriyoti 2005. –B:137
[2] Boboxo’jayev M., Ochildiyev D. Afg’oniston: Inqilob himoyasi va bunyodkorlik yo’lida. –T.: Fan; 1987. –B:21
[3] Pikulin M. Sovet ittifoqi va Afg’oniston.
[4] Nasriddin Nazarov. Afg’oniston o’zbeklari. –Toshkent- 2011-B.80.
[5] Nasriddin Nazarov. Afg’oniston o’zbeklari. –Toshkent- 2011-B.48.
[6] Abdurashid Do’stim 1955-yilda Juzjon provinsiyasi Shibirg’on uyezdi Xo’jaquduq qishlog’ida mahalliy o’zbek dehqoni xonadonida tavallud topgan. Shibirg’ondagi neftni qayta ishlash korxonasida oddiy ishchi bo’lib ishlagan. 1978-yil aprel (Savr inqilobi)dan so’ng Afg’oniston xalq demokratik partiyasi (AXDP)ga a’zo bo’lib kirgan. Xalq demokratik armiyasi otryadini boshqargan va Toshkent shahrida 3 oylik polk maktabini tugallagan. Qandahor uchun bo’lgan janglarda “Afg’oniston Qahramoni” unvoniga sazovor bo’lgan, ekstremistik kuchlar rahbari Tanad isyonini bostirishda faol qatnashgan va 1992-yildan Doktor Najibulla hukumati bilan aloqani uzgan.Ahmadshoh koalotsiyasiga kirgan Abdurashid Do’stim Afg’onistonda alyans (yettilik) guruhini boshqargan 1992-1996-yillarda president bo’lgan Suhbatillo Mujaddidiy buyrug’i bilan armiya generali darajasiga ko’tarilgan. Abdurashid Do’stim Shimoliy Afg’oniston (Chor viloyat) o’zbek (turkistonlik)lar orasida kata mavqe va obro’ga ega bo’lib, ular manfaatini, xavfsizligini qat’iy turib himoya qilgan. (Bu haqda qarang: Xoshimbekov X. Uzbek severnogo Afganistana. Moskva – 1994.-S. 38-39. Hayitov Sh.A., Mirzoyev Sh.M. Afg’oniston tarix ko’zgusida. – Buxoro: “Durdona”, 2018. –B. 732 bet; Ilova. – B.7)

qabul qilinib, Nizomda maqsad va vazifalar belgilab berildi. AMIHga partiyasiz bo’lgan 15 yoshga to’lgan har qanday kishi a’zo sifatida kirishi mumkin edi. AMIH Afg’onistonda barcha millatlar tengligiga asoslangan federal davlat tuzish, mamlakatda millatlararo totuvlikni, barqaror tenglikni qaror toptirish uchun kurash olib boorish haqida afg’on xalqiga murojaat qildi. 1992-1993-yillarda AMIH tashkilotining Afg’oniston hukumati va xalqiga qilgan murojaatlarida xalqaro huquq me’yorlari, BMT nizomi asosida siyosat yuritish, iqtisodiyot, madaniyat, harbiy, tashqi siyosat sohalarida maxsus komissiyalar tuzish kabi takliflar ilgari surildi. AMIHning Eron va boshqa mamlakatlarda vakolatxonalari ochildi. Hatto, AMIH Oliy Kengashning matbuot organi “Nidoi islom” nomli gazetasi bosilib, u Mozori Sharif shahrida o’zbek, dariy, pushtu tillarida bosilgan.[1]

Afg’onistonda o’zbek (turkistonlik)larning uyushma va tashkilotlari bilan bog’liq tarixiy jarayonlar tahlil etilar ekan, Zoyirshoh hukmronlik qilgan 1933-1973-yillar (40 yillik davr) mamlakatda nisbatan tinchlik va osoyishtalik hukm surganligi, milliy tashkilotlar faoliyati deyarli deyarli taqiqlab qo’yilganligi ayon bo’ladi.

Mamlakatda milliy uyg’onish har bir millat va elatning o’z huquqini talab qilib chiqishi 1978-yil aprel to’ntarishi (“Savr inqilobi”) natijasida kun tartibida dolzarb qilib qo’yildi. Afg’oniston shimoliy viloyatlarida o’zbek tili rasmiy tilga aylangani, o’zbek jamiyatlari tuzilgani, milliy matbuot organiga asos solingani, milliy ansambl, o’zbek radioeshittirishlari tashkil etilgani yuqorida qayd etildi.

Bu yo’nalishda ikkinchi bosqich, sovet cheklangan qo’shinlarining Afg’onistondan olib chiqilishi (1989) va Doktor Najibulla rejimining qulashi (1992) yuz berib, Hatto AMIH siyosiy partiyasi tuzilishi, uning “Nidoi Islom” gazetasini o’zbek tilida ham chop etilishi bilan bog’liq jarayonlar kechdi. Afg’onistonda milliy-etnik nizolar, xususiyatlarning tez almashinuvi, nobarqaror siyosiy vaziyat milliy uyushma va tashkilotlar faoliyatini yo’lga qo’yish maqsadlariga to’sqinlik qilib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’MA, R-2822-fond, 1-ro’yxat, 34-yig’ma jild, 34-35-varaqlar.
2. Hayitov Sh., Badriddinov S., Vatan deya vatansiz qolganlar qismati, Buxoro: “Buxoro” nashriyoti 2005. –B:137
3. Boboxo’jayev M., Ochildiyev D. Afg’oniston: Inqilob himoyasi va bunyodkorlik yo’lida. –T.: Fan; 1987. –B:21
4. Nasriddin Nazarov. Afg’oniston o’zbeklari. –Toshkent- 2011-B.80.
5. Pikulin M. Sovet ittifoqi va Afg’oniston.
6. Nasriddin Nazarov. Afg’oniston o’zbeklari. –Toshkent- 2011-B.48.
7. Xoshimbekov X. Uzbek severnogo Afganistana. Moskva – 1994.-S. 38-39. Hayitov Sh.A., Mirzoyev Sh.M. Afg’oniston tarix ko’zgusida. – Buxoro: “Durdona”, 2018. –B. 732 bet; Ilova. –B.7
8. Halimbekov X. Uzbeki Severnogo Afganistana. K.39. S. 43-49; S. 53-55.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING DUNYO ILM-FANI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Adilov Zafar Yunusovich Ma’mun universiteti
Umumkasbiy fanlar kafedrasi mudiri dotsent, f.f.d.,(PhD)
ORCID:0009-0003-1363-2904
Zafaradilov68@gmail.com

Fahru’l-Xorazm, Ustazu’l-Arab va’l-Ajam jorulloh nomli unvonlar sohibi Mahmud Zamaxshariy va uning ilmiy ma’naviy merosini yaxshiroq tushunish va tahlil qilish uchun u o'sgan muhitini ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qisqacha falsafiy tahlil qilish o‘rinli bo‘ladi.

Az-Zamaxshariy tug‘ilib yashagan "Xorazm" to‘grisida tarixchilar ma’lumotlariga ko‘ra, Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i, Orol ko‘li va Amudaryo oralig‘idagi o‘lka “Havarazm” deb ataladi.Bu hudud nomi ba’zan “Xarzem” deb talaffuz qilinsa-da, deyish to‘g‘ri hisoblanadi. "Xorazm". Bu joy “Turkiston” deb ham ataladi. Qayd etilgan davlatning markazi Xorazmning

[1] Halimbekov X. Uzbeki Severnogo Afganistana. K.39. S. 43-49; S. 53-55.

ma’muriy va iqtisodiy markazi “Gurgench” shahri bo‘lgan. Arablar bu shaharni “Kurkaniya” nomi bilan yaxshi bilishgan.

Xorazmning geografik joylashuvi u erdagi ma’muriy va iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida Muqadimmetu'l-Edab asarida gi ushbu falsafiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki “Misr, Mesopotamiya, Hindiston va shunga o'xshash mamlakatlarda tarixiy sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratgan serhosil deltalari bilan daryolar muhim ahamiyatga ega bo‘lgani kabi, Xorazmdagi Amudariyning unumdor deltasi va qirg'oqlari mintaqaning madaniyati va rivojlanishining manbai sifatida ta’rif beriladi ."Bu esa sivilizatsiya rivojida muhim rol o'ynadi"[1].

Ulug‘ alloma Ibn Xaldun Xorazm nomi to‘g‘risida o‘zining “Divonu'l-Mubtada val-Habar fî Tarih” asarida bergan ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm shahar emas; Bu mintaqaning nomi deb keltiradi.

Professor M.Matniyozov o‘zining Xorazm tarixi.1-jildida Xorazimga islom dini kirib kelishini shunday ta’riflaydi,Qutayba 712yilda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini bosib oldi.o‘sha davirda Xorazimda boshlangan ichki qarama -qarshiliklar Qutaybani So‘g‘d yurishining to‘xtatib Xorazmga qarshi yurishga jalb etadi.Xorazm garchi xalifalikka tobe bo‘lsa ham,lekin uning alohida hukumati bor edi.Afrig‘ sulolasidan Xorazm shohlar hukmronligi davrida (305-995) Kat shahri markaz bo‘lgan[2] , xalifalik uchun bosh kant esa, Jayhun daryosining chap tomonidagi Curcaniye markaz bo‘lgan; Urganch shahri keyinchalik siyosiy va madaniy sohalarda balki savdoda ham asta-sekin katta ahamiyat kasb etdi. Kurkaniya odatda savdo markazi, ba'zan esa mustaqil boshqaruv markazi bo'lganligi sababli, arab geograflari Amudaryoga ergashib, Amuni qadimgi deb atashganlar.

Shuni ta’kidlash joizki Xorazmning poytaxti Jurjaniya, iqtisodiy jihatdan katta yutiqlarga erishib, o'sha davrning ilm-fan va san'at markazlaridan biriga aylandi. Uning mintaqadagi ilm-fan sohasida eng katta roli Urgenchning 12-asri bo'ldi. O‘sha asrda tinmay taraqqiy etib, rivojlanib, Xurosonning yirik shaharlari bilan bellasha oladigan ilm-fan va san’at markazlaridan biriga aylanib dunyo sivilizassiyasi beshiklaridan biri bo‘ldi.Hamda Urganch geografik jihatdan muhim savdo markaziga aylandi.Tarixiy manbalarga ko‘ra Sulton Otsiz (vaf. 552/1156) davridan boshlab, ayniqsa Tekish (vaf. 596/1200) va Alaaddin (vaf. 616/1220) hukmronligi davrida poytaxti Jurjaniya shahar barchani o'ziga tortgan yorqin ilm-fan va san'at muhitiga aylandi. davrning yetuk olimlari. Atsiz 536 1141-yildagi Xuroson yurishidan so‘ng bir qancha mashhur olimlarni urganchga taklif etadi. Jumladan Hirakiy (vaf. 541/1146), Qodi Ebul-Fazl Kirmoniy (vaf. 545/1150), Ebu Mansur Abbodiy (vaf. 547/1152) va Qodi Husayn Arsabandiy (vaf. 548/1153) kabi ko'plab olimlar. Ular bu taklifni qabul qilib, Urganchga joylashdilar. Bulardan tashqari Xorazmda Zemahsheriy (vaf. 538/1143), Fahriddin Roziy (vaf. 606/1209), Shihobuddin Hivakiy va shoir Reshiduddiyn Vatvat (vaf. 573/1177) yashagan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki Xorazmning geografik joylashuvi shunday ediki, u hujumlardan himoyalanishni osonlashtirdi. Amudaryo va unga tutashgan kanallar tabiiy barrikadalar bo‘lib, yuzlab shahar va aholi punktlarini yot bosqinlardan himoya qilgan. Vaqti-vaqti bilan to'g'onlar ochilib, ishg'ol qo'shinlari o'tadigan hududlarni suv bosdi. Shu sababli Xorazmni boshqargan hokimlar qisqa vaqt ichida mustaqil sulolalar barpo etishgan. Biroq, ba'zi geografik to'siqlar, masalan, atrofi keng cho'llar bilan qoplanganligi sababli, ularning suvereniteti faqat o'z mintaqalari bilan cheklangan edi.

Xorazm ham muhim savdo markazi edi. U Sibir tekisliklari va Eron, Xitoy va Hindiston kabi Osiyo mamlakatlarini Janubiy Rossiya va Yevropadagi Skandinaviya mamlakatlari bilan bog‘lovchi asosiy yo‘llarning tutashgan joyida joylashgan edi; Islom davrida, ayniqsa Dashti Qipchoq va Quyi Volga o'rtasida yuk tashishda juda muhim o'rin tutgan. Katta karvonlar Xorazmda yuzdan ortoq tovarlar bilan savdo qilganlar·.O‘sha davirda karvon yo‘llari savdo satiq bilan bir qatorda insonlarning ilm marifatga bo‘lga qiziqishi ortdi.

[1] Qarang Nuri Yüje, Muqadimmetu'l-Edeb (Hvarizm turkcha va tarjima Shuşter nusxasi), Otaturk nomidagi oliy madaniyat, til va tarix instituti TDK nashrlari, Anqara, 1993, 3-bet.

[2] Хоразм тарихи.1-жилд.Масъул муҳаррир. М.Матниёзов.Урганч.1997.-Б.123

Arab geografi va sayohi Mahdisiy ‘‘sobol, kul rang olmaxon. oq susar,chol tulkisi,Qunduz mo‘ynalari, Quyonlarning bo‘yalgan terilari, echki terilari, mum,o‘q-yoylar,qora bursiq terilari,qolpoqlar,boliqdan qilingan elimlar va marj tishlari,asal, yabboyi yong‘oq, lochinlar, shamshirlar, sovitlar, eman yog‘achlari,slavyanlardan bo‘lgan qullar,qo‘ylar va sigirlar-manashunday bulg‘or mollarining hammasi osiyoning qo‘shni mamlakatlariga Xorazm orqali o‘tkazilar edi. Laqlangan buyumlar, bo‘yoqlar, ipak va shoilar, kimxob to‘qilgan matolar, guruch, quruq mevalar,shirinliklar va boshqa shu kabiylar Xorazim orqali sharqiy evropa mamlakatlariga olib o‘tilar edi.Xorazimda tokzorlar ko‘p bo‘lib mayiz, quritilgan narsalar, kunjut, xar hil kiyimlar, gilamlar,ko‘rpalar,zardozlik mollari,mustahkam o‘q-yoylar,pishloqning alohida turlari,tigmalar, boliqlar ko‘p miqdorda tayorlanardi, Xorazimda kemalar qurilardi va yahshilab bezatilardi[i].Bu keltirilgan ma’lumot Xorazimda savdo-sotiq, iqtisodiy munosabotlar, dehqonchilik, boliqchilik, mevachilik, xunarmandchilik turli-tuman turlarining keng rivoj topganidan boshqa mamlakatlar bilan aloqalar avj olganligidan dalolat beradi.Bunday aloqalarning shubhasiz shahar madaniyati rivojiga katta tasir ko‘rsatishi va o‘z navbatida shahar madaniyatinig yuksakligidan dalolat beradi.

Kuroni karim va hadisi shariflaridagi jinsidan qattiy nazar xar bir shaxsning ilm olishga chaqirilishi mamlakatda ta’lim maskanlari bilan bir qatorda kutubxonalarning ham tashkil etilishiga sabab bo‘ldi.Ma’lumotlarda

Dunyodagi jannatlar soni to‘rttadir: G‘utai Dimashq (Damashq shahri joylashgan vodiy), Nahri Abulla (Basra shahri yonidan o‘tadigan daryo), Sha’bi Bavvon (Fors o‘lkasida joylashgan vodiy) va So‘g‘di Samarqand.

Abu Bakr Xorazmiy shunday degan: “Men bu joylarning barchasida bo‘lganman. G‘uta qolgan uchtasidan afzalroq, uchtasi esa dunyodagi qolgan barcha bog‘lardan afzalroqdir. G‘uta xuddi u dunyodagi jannatning yerdagi suratiga o‘xshaydi”. (205-bet)

Xorazmshohlarning Anushtiginilar hukmronlik qilgan davrda (470/1077-628/1231) Merv, Mervur-Rud, Gurgench kabi ba’zi shaharlarda kutubxonalar bo‘lgan. Mervda uch yil qolib, mashhur asari uchun hujjatlar to'plagan Yaqut al-Hamev (vaf. 626/1230) bu shaharda o'nta kutubxona borligini aytadi. Yoqut kitobxonlar hech qanday garov qilmasdan ma'lum muddatga bu kutubxonalardan kitob olishlari mumkinligini va bundan katta foyda olishini qo'shimcha qiladi[1].

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, islom dini qabul qilingandan keyin Xorazmda ilm-fan, she’riyat va adabiyotda katta taraqqiyot kuzatildi. Xorazmshoh unvoniga ega musulmon hukmdorlar olimlar, shoirlar va adabiyot arboblarini himoya qilganlar. Xorazmliklar ham ilmga mehr qo‘ygan, boylar madrasa va kutubxonalar qurish orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan. Keyingi davrda Xorazmda hukmronlik qilgan Ma’muniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va mahalliy sulolalar ham fan va san’atga qiziqish bildirgan. Shu tariqa Xorazm islom olamining eng muhim markazlaridan biri sifatidagi maqomini mo‘g‘ullar istilosigacha saqlab qoldi[2].

Ibn Mas’uddan rivoyat qilishlaricha, rasulullоh s.a.v. shunday deganlar: “Men Isro kechasi osmonga olib chiqildim. To‘rtinchi osmonda go‘zal bezalgan bir qasrni ko‘rdim. Uning atrofi nurdan bo‘lgan qandillar bilan o‘ralgan edi. So‘radim: “Ey Jabroil, bu qanday qasr bo‘ldi?”. U aytdi: “Ey Muhammad, bu Xuroson degan yurtda, Jayhun bo‘yida sening ummatlaringga fath bo‘ladigan joydir”. So‘radim: “Ey Jabroil, Jayhun nima degani?”. Aytdi: “Bu Xurosondan o‘tgan bir daryodir. Kim shu daryo bo‘ylarida o‘lsa, qiyomat kunida qabridan shahid maqomida turadi”. Yana so‘raim: “Nega bunday bo‘ladi?”. U aytdi: “Ularning turk degan itlari qopag‘on, o‘zlari shiddatli bir dushmani bordir kimning qalbiga ulardan qo‘rquv tushgan bo‘lsa, u qiyomat kunida qabriddan shahidlar qatorida shahid maqomida turadi”.

Abu Hurayra: Rasulullоh s.a.v. shunday dedilar: “Xorazmda bir kecha tunagan kishiga yaxshiliklar bo‘lsin, ustiga Xorazmning changi tekkan kishiga yaxshiliklar bo‘lsin, Xorazmda ikki rak’at namoz o‘qigan kishiga yaxshiliklar bo‘lsin”.

[1] Shihobuddin Ebu 'Abdulloh Yaqut al-Hameviy, Mu'cem'ul-buldon, 2-nashr. Doru Sadir, Bayrut, 1995, V/114-116.
[2] Qarang Özaydın, agm, DİA, XVI/219.

Hasan Basriy aytgan: Mashriq tomonda, Jayhun degan daryoning yoqasida joylashgan bir shahar bor. Uning nomi Xorazm. Uni jannatga xuddi kelin kuyovnikiga borayotganidek qilib bezalgan holda farishtalar atrofidan ko‘tarib jannatga olib kelishadi. Undagi qabrlardan Alloh ta’olo yuz ming shahidni tiriltiradi. Ularning har biri Badr shahidlariga teng bo‘ladi.

Makhul shunday degan: “Xurosonda Xorazm degan bir shahar bor. Hozirda ham u yerda kofirlar ko‘p va musulmonlar katta qiyinchilik va azob ichidalar. Agar ular musulmon bo‘lsaar, musulmonlarning bitta qanoti va ishonchli qalqoni bo‘lar edilar”.

Ibn Umar bilan shu voqea bo‘lganini keltiradilarki, u xorazmlik bir kishidan u yurt qanaqaligini so‘radi. Xorazmlik kishi shunday dedi: “Bizda hvolar sovuq bo‘lganida kishi tahorat olish uchun yuzini yuvsa, suv yuzida yaxlab qoladi”. Buni eshitib, Ibn Umar shunday debdi: “O‘sha yuzlarga jannat bashoratini ber”.

Ibn Samqa degan kotib Xorazmning fazilatlarini sanab shunday degan: “Xorazmning boshqa yurtlarda uchramaydigan afzalliklari va o‘zga shaharlarda bo‘lmagan maqtovli xislatlari bordir. U islom mamlakatlarining chegarasidir. Uni ahli shirk o‘rab turibdi. U turk qabilalarini to‘sib turibdi va Xorazm ahli ular bilan doimiy janglar olib boradilar. Ular ixlosli va sadoqatlidirlar. Shuning uchun Alloh hamisha ularni o‘z yordami bilan kafolatladi hamda barcha janglarda g‘alaba bilan mukofotladi. Yana Alloh ularga Jayhun daryosini qo‘rg‘on qildi, undan kechib o‘tuvchi yo‘llarni qiyin qilib qo‘ydi, suvni toshqinli va halokatli qildi. Bu joylardan yuragi sog‘lom va shijoatli va salomatligi joyida bo‘lgan kishilargina o‘ta oladilar. Xorazmliklar jasur kishilardir. Ularning qalblari jur’atli, o‘zlari g‘ururlidirlar. Shuning uchun dushmanlar ular bilan jang qilishdan umidsiz bo‘lib qochadilar, to‘qnashishga yuraklari dov bermaydi. O‘q yoylardan bexato otadilar. Odamlarining qo‘lidan o‘q yoylari hech qachon tushmaydi. Qilich va nayzalarning barcha turlarini mustaqil ishlata oladilar. Ular to‘g‘ri fikrli, diyonatli, vafodor va omonatdor hamdirlar. Ularning vijdonlari toza, har turli yaxshiliklar qilishga rag‘bat ko‘rsatadilar. Ularning yo‘li yaxshilar bilan tutash, yomonlardan uzilgandir. Musofirlarga ehson qilib, zaiflarga mehribonchilik qiladilar. Ularning bu kai xususiyatlarni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Ularga bari nazokatlik va pokizalik kabi xususiyatlar xosdir.

Yana ularning yo‘rg‘a va yeldek yeluvchi tulporlari bor. Yana burgut va lochinlarning bir necha sara zotlari bor. Paxmoq yungli kiyimlar, boshqa turli liboslar kiyishadi. U joyning mevalari eng yaxshi, eng shirin, eng mazali va mashhur mevalardir. Qo‘ylari va mollari semiz, havosi toza, suvlari totli bo‘lib, bu suvlar buloqlardan oqib chiqadi. Yeri unumdor. Qovunlarining o‘xshashi jannatdan boshqa yerda yo‘q”.

Az-Zamaxshariy yashagan davr Islom jamiyatining turli xil millatlar, elat va xalqlardan tashkil topganligi bilan xarakterlanadi. Islom mamlakatlarining kengayishi o‘z navbatida turli-tuman xalqlarni, urf – odatlarni kishilik jamiyatiga olib kirar edi. Turli-tuman, katta-kichik millatlar qorishib ketgan va hammasi bitta mafkura – islom mafkurasiga bo‘ysundirilgan edi. O‘sha davrda inson va jamiyat tabiiy va tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda din bilan bog‘liq edi.

Xuroson va Movarounnahrda asosan uchta millat – arab, fors va turkiylarning salmog‘i katta va sezilarli edi. Ularning o‘zaro munosabatlarida muayyan muammolar, manfaatlar doirasi mavjudki, bunga alohida e’tibor qaratish lozim.

Saljuqiylar davlatining siyosiy nufuzi butun islomiy mamlakatlarda sezilarli darajada edi. Turkiy millat vakillari yoppasiga islomni qabul qila boshladi. Ular dinni qabul qilish bilan birgalikda arab tilini ham o‘rgandilar. Bu borada hatto arablardan ham o‘tib ketishdi. Biz bunga misol tariqasida az-Zamaxshariydan oldin yashab o‘tgan ijod ahlidan «Muallim-us-soniy» («Ikkinchi muallim») Abu Nasr al-Forobiy (vafoti 951), «As-Sihoh» muallifi Ismoil ibn Hammod al-Javhariy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sinolarni sanab o‘tishimiz mumkin. Az-Zamaxshariy asrida saljuqiylar – turkiylar hukumat sub’ektlari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida hal qiluvchi rol o‘ynasalarda, biroq davlat idora tizimida forsiyzabon kishilar ham ko‘pchilikni tashkil qilardi. Bunga misol tariqasida Nizomulmulkni keltirishimiz mumkin. Nizomulmulk vazirlik masnadida o‘tirib davlatning siyosatida, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini to‘g‘ri belgilashda saljuqiylarga ko‘maklashdi.

Xorazm ahli islomni sekin-asta qabul qildilar va shuning barobarida arab tili ham yoyildi. Bu haqda o‘z asarlari orqali Beruniy, Maqdasiy, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Battutalar batafsil va atroflicha ma’lumot qoldirganlar.

Bu yerdagi turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lgan, turli etnoslarga mansub kishilarning maqsad, manfaatlarini to‘g‘ri tahlil salohiyatiga ega az-Zamaxshariy bu jamiyatning afzal jihatlari haqida shunday yozadi: «Xorazmning afzal jihati shundan iboratki, u adl va tavhid ahli yo‘li bo‘lmish to‘g‘ri yo‘ldan bormoqda».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang Nuri Yüje, Muqadimmetu'l-Edeb (Hvarizm turkcha va tarjima Shuşter nusxasi), Otaturk nomidagi oliy madaniyat, til va tarix instituti TDK nashrlari, Anqara, 1993, 3-bet.
2. Хоразм тарихи.1-жилд.Масъул муҳаррир. М.Матниёзов.Урганч.1997.-Б.123
3. Shihobuddin Ebu 'Abdulloh Yaqut al-Hameviy, Mu'cem'ul-buldon, 2-nashr. Doru Sadir, Bayrut, 1995, V/114-116.
4. Qarang Özaydın, agm, DİA, XVI/219.

ХОРАЗМ ҚАДАМЖОЛАРИ ТАРИХИДАН СЎЗЛОВЧИ ҚЎЛЁЗМА

А. Болтаев, Хоразм Маъмун университети профессори, ф.ф.д. (DSc)
И. Жабборов, Хоразм Маъмун университети доценти ф.ф.д. (Phd)

Маълумки, бугунги кунда мамлакатимизда туризмни ривожлантириш мақсадида комплекс ишлар амалга оширилмоқда. Мазкур ишларнинг асосини туристларга миллий-маданий тарихимизнинг ажралмас бир қисми бўлган меъморий обидаларимиз ва буюк валийлар қадамжоларини кўрсатиш, уларнинг тарихи билан боғлиқ қизиқ ва ибратли жиҳатларни баён қилиб бериш орқали халқимизнинг бой маънавий меросига уларнинг қизиқишини орттириш каби долзарб вазифалар киради. Мазкур вазифаларни бажаришда соҳа ходимлари билан бирга кенг жамоатчилик, жумладан, олимлар жамоаси ҳам бир ёқадан бош чиқариб, ишлаб келмоқда.

Хоразм қадимдан туркий давлатчилик марказларидан бири бўлиб, шимол ва жанубни, Шарқ ва Ғарб маданиятларини боғловчи ҳалқа вазифасини бажариб, келган. Бу юртдан Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Хоразмий, Бу Райҳон Беруний, Маҳмуд Замахшарий каби жаҳонга машҳур олимлар, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик каби саркарда ва лашкарбошилар, шунингдек, Нажмиддин Кубро, Ҳусайн Хоразмий, Комил Хоразмий каби орифу авлиёлар яшаб ўтишган ва ижод қилишган. Уларнинг қолдирган бой мероси халқимизга бугунги кунгача хизмат қилиб, маънавий озуқа вазифасини бажариб келмоқда. Олимларимиз томонидан кўпгина валийлар мероси халққа етказилган бўлса, навбат кутиб турганлари сони ҳам анчани ташкил этади. Айниқса, бой тарихимизни очиб берувчи кўплаб асарлар халқимизнинг қўлида, шахсий кутубхоналари фондида ҳам сақланиб келмоқда.

Хоразм ва унинг атрофидаги қадамжолар тарихини ўзида жамлаган бир асар қўлёзмаси хоразмлик олим И. Жабборов шахсий кутубхонасида мавжуд бўлиб, у ўзининг камёблиги ва илмий-тарихий аҳамияти билан диққатга сазовор.

Мазкур асар настаълиқ ёзувида ёзилган бўлиб, муқовасидаги бўртма қилиб туширилган санага асосланилса, ҳижрий 1309 (1891) йилда ёзилиб, муқоваланган. Муқовадаги ёзув ўтган давр таъсирида сийқаланган ва уни тўлақонли ўқиш имкони чекланган. Бироқ, давр нуқтаи назаридан таҳлил қилинса, XIX асрнинг охирларида яшаб ижод қилган хоразмлик маърифатпарвар, санъаткор, шоир ва хаттот, давлат арбоби Комил Хоразмий қаламига мансуб деб тахмин қилиш мумкин.

Асар назмий услубда ёзилган бўлиб, тили туркийдир. Бу эса ўз навбатида қадимдан Хоразмда мавжуд бўлган туркий тилда ижод қилиш, асарлар таълиф этиш анъаналарининг яққол намунаси ҳам ҳисобланади. Унинг умумий ҳажми 170 бетни ташкил этади. Бироқ,

унинг охирги саҳифалари мавжуд бўлмагани учун умумий ҳажм бундан кўп бўлган деб айтишимизга асос бўлади.

Асар мақсади ва мазмунига кўра асосан, Хоразм заминида яшаб ўтган тасаввуф намоёндалари, валийлар ва сўфийлар ҳаётига оид, уларнинг мавжуд зиёратгоҳлари, уларни зиёрат қилишнинг аҳамияти ва фойдалари тўғрисида бўлиб, қўлимиздаги нусха ўзида жами 28 мавзуни қамраган. Мавзуларнинг баёни мантиқий изчиллик асосида кетган бўлиб, аввал Худога ҳамду сано, кейин пайғамбарга наъту дуруд ва унинг ҳаёти билан боғлиқ, муаллиф китоб мазмунига мувофиқ топган лавҳалар баён қилинади. Шундан сўнг пайғамбарнинг Хоразм мадҳида айтган ҳадиси келтирилиб, бу билан Хоразмнинг ислом оламидаги ўрни асосланади.

Шундан сўнг “Ҳазорасп авлиёси зиёратининг баёни”, “Ҳазрат Норинжон бобо зиёрати” каби номлар билан Хоразм ва унинг атрофидаги қадамжоларни санаб, у ерларда ётган улуғларни таништира бошлайди, зиёрат одоби ва тартибини гўзал шеърий тарзда баён қилади.

Муаллиф Хоразмнинг нисбатан кўп зиёратгоҳлари бор жойларини алоҳида мавзу қилиб танлайди. Масалан, “Кўҳна Урганч зиёратиға сафар қилмоқ ишорати” деб мавзу қўйиб, ўша мавзега бориш тартибини баён қилса, у ерда ётган валийларни кўрсатиб бериш учун “Кўҳна Урганч авлиёсининг баёни” номли алоҳида мавзуни беради. Шунингдек, “Тоза Урганч авлиёсининг зиёрати” номи билан икки Урганчдаги пир ва валийларни алоҳида беради. Муаллиф қипчоқ, қўнғирот ва манғит каби ўзбек уруғлари яшаётган ҳудудларни улар номи билан номлаб, у жойлардаги авлиёуллоҳни ҳам алоҳида санаб ўтади.

Асарнинг яна ўзига хослиги шуки, у Хоразм заминига қарашли бўлган кўплаб қалъалардаги авлиёларни ҳам баён қилиб ўтган. Масалан, “Кат қалъаси авлиёсининг зиёрати”, “Шоҳобод қалъаси авлиёсининг зиёрати”, “Гурлан қалъаси авлиёсининг зиёрати” ва Ҳилолий, Тошҳовуз, ҳоказо қалъалар номини келтириб, уларда дафн этилган улуғларни айтиб, қадамжоларининг ўзига хос томонларига урғу бериб ўтади.

Булардан ташқари китобда Саййид Ота, Ҳаким Ота каби яссавия тариқати пирларига ҳам алоҳида ўрин ажратилган бўлиб, уларнинг кароматлари ва зиёратидан келадиган фойдалар ҳақида тўхталиб ўтилган.

Асар ҳақида хулоса қилинадиган бўлса, мазкур қўлёзма ноёб бўлиб, унинг бошқа вариантлари кам бўлиши керак. Негаки, қўлёзмани тадқиқ қилиш жараёнида уни кўчиришда йўл қўйилган камчиликлар ўша котиб томонидан, ўша ҳуснихатда тузатиб чиқилган. Бу эса асарни қоралама нусхадан оққа кўчирган киши уни яна қайта назардан ўтказган ва қолиб кетган баъзи байтларни қайтадан киритган. Бу эса китобнинг кўп нусхада мавжуд эмаслигини англатади. Бундан ташқари асар ярмига қадар ингичка учли қалам билан ёзилиб, қолган ярмида қалам бироз йўғонлашган. Бу котибнинг икки хил ўлчамли қаламда, орада маълум танаффус билан кўчирганлигини кўрсатади.

Умуман олганда, асар бугунги кунда зиёрат туризмини ривожлантириш, муқаддас қадамжоларимизни аниқлаб, уларни обод қилиш, тарихларини тиклаш ва уларни халқимизга қайтаришда катта аҳамиятга эга ҳисобланади. Бундан ташқари уни илмий муомалага киритиш, нашр этиш ишларини йўлга қўйиш ҳам бугунги кун талабларига тўла мос келади.

NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA ILMU-MA’RIFATNING ULUG‘LANISHI

Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich “Ma’mun universiteti” NTM,

“Umumkasbiy fanlar” kafedrasi

dotsenti, f.f.f.d

Annotatsiya: Ushbu tezisda tasavvufning yirik shahobchasi bo‘lgan kubroviya ta’limotining ilmiy-falsafiy asoslari, kubroviya ta’limotida ilm-ma’rifatga bo‘lgan targ‘ibotning kuchliligi, o‘z davrida Xorazm zaminida ushbu tariqatning mafkura sifatida qabul qilinishi, inson ma’naviy kamolotida ilohiyot ilmlarining ahamiyati, haqsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalarining o‘rni, kubroviylarning ruhiy-ma’naviy, axloqiy holati hamda ilm va amalning mushtarakligi masalalari falsafiy jihatdan tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: ilmi qol, ilmi hol, qalb, ruh, aql, nafs

KIRISH: Ma’lumki tasavvuf ta’limotida ilm-ma’rifat yuksak baholanadi. Jumladan, Najmiddin Kubro tolibu muridlarni doimo ilm olishga, ma’rifat sohibi bo‘lishga da’vat etgan. Allomaning shunday hikmatli so‘zlari mashhur: “Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan”[1]. Chunki, insonga berilgan barcha moddiy ne’matlar, dunyo matohlari unga faqat bu olamda asqotadi, ilm-ma’rifat esa odamga har ikki olamda hamroh bo‘ladi. Shuning uchun muborak Hadisi shariflarda: “Olimlar payg‘ambarlarning vorislaridirlar”[2], deya ta’kidlanadi

So‘fiy zohiddan farqli o‘laroq, na dunyo va na oxirat ta’masidan yiroq bo‘lgan, yagona maqsad-istagi faqatgina Haq taoloning diydori bo‘lgan zotdir. Mana shuning uchun ham Haq taoloni butun qalbi, vujudi bilan sevish, Uning zotini hamda sifatlarini tanish va bilish, botiniy musaffo bir holatda ko‘ngilni nafsu-hirs g‘uborlaridan poklab, Iloh vasliga yetish va bundan yuksak darajada lazzatlanish g‘oyasini dastavval so‘fiylar keng targ‘ib qilishdi. Aynan mana shu so‘fiylar tasavvuf ta’limotining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan kishilardir. Ulug‘ mutasavvuf Shayx Najmiddin Kubro ana shunday Haqsevar inson edilar. Bu haqda ruboiylaridan birida orif, darvesh zotlarni ta’riflab shunday yozadi:

Darvesh elin yozg‘urma debon xordurlar,

To bordur ular, borlig‘icha bordurlar.

Tariqchaga qone’lar, olam tegsa,

Sabr birla qanoatga chunon yordurlar[3].

Ma’nosi: Hech qachon darveshlarni sen ta’na, malomat bilan tahqir etma, ular azalda qanday bo‘lsalar – ayni shundaydirlar. Ularning kimligini bilmoq istasang, bir dunyo to‘la kumush tanga olib borib, birgina dona jav (arpa) olib qaytgin.

[1] Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси ёхуд Хоразм тарихи. / Эски ўзбек тилидан табдил қилиб нашрга тайёрловчилар: М.Сафарбоев, С.Раҳимов. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти, 2017. – Б.102

2 Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. /“Фавойиҳ-ул жамол”. – Т.: “Мовароуннаҳр”. 2004. – Б. 112.

[3] Шайх Нажмиддин Кубро. Жамолинг менга бас. / Матназар Абдулҳаким тарж., – Тошкент: Ғ. Ғулом номли АСН, 1994. – Б. 14.

Kubroviya ta’limotini ikki qismga – nazariy va amaliy qismlarga ajratish mumkin. Nazariy qismini axloqiy qarashlar va xulq-atvor qoidalarining muayyan majmuasi tashkil etadigan bo‘lsa, amaliy qismining vazifasi, maqsadi esa nafsu-jonni be’mani, befoyda xatti-harakatlardan mutlaqo qutqarish, turli o‘tkinchi mayl va istaklardan ozod qilishdir. Insonning umri qisqa, imkoniyatlari cheklangandir. Mana shu qisqa bir umri mobaynida haqiqatni anglab yetishi va Haq taoloni sevishi, unga sidqidildan bandalik qilishi tasavufning bosh g‘oyalaridan biridir.

MUHOKAMA. Biz tasavvuf ilmining o‘lmas siymolari Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro hamda Bahouddin Naqshband singari mutasavviflarning tabiat va jamiyat xususidagi fikrlari bilan tanishish jarayonida ular qarashlaridagi o‘zaro umumiylikni va alohidalikni ko‘ramiz.

Hijriy II-asrning oxirlaridan boshlab jamlanib, taraqqiy topa boshlagan tasavvufning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) Tasavvuf asos e’tibori bilan Qur’oni karim va Hadisi shariflarga asoslangan ilmdir. Xijriy IV va V-asrlardan e’tiboran tasavvufning ichiga kirgan bir qancha tashqi, begona fikrlar uning bu xususiyatiga ziyon yetkaza olmaydilar. Xullas, tasavvuf islomdan paydo bo‘lgan va islomiy xususiyatni davom ettirgan ilm sohasi va fikrlash tizimidir. Tasavvuf qiyofasida maydonga chiqqan ba’zi botil mazhab va harakatlarni haqiqiy-asl tasavvufga qorishtirmaslik kerak;

b) Tasavvuf nazariy bo‘lishi bilan birga, tajribada ko‘rinadigan amaliy ilm hamdir. U faqatgina nazariyot bilan cheklanib qolgan ilm emas. Chunki tasavvuf ko‘rsatgan maqsadlarga faqatgina tushuncha hosil qilish va o‘rganish bilangina emas, amal qilish orqali erishmoq mumkin. Bu yerda amal deyishdan maqsad, faqatgina ibodat emas, hayotning har bir daqiqasida ma’lum bir niyat va maqsadga ko‘ra qilingan har bir faoliyatdir. Tasavvufiy iymon – amaliy iymondir. Kalom va falsafa iymonni mujarrad (fardiy) va aqliy bir hodisa sifatida baholaydi. Tasavvuf esa imonni axloqiy turmush tarzi, o‘zaro hamjihatlik, mehr-muhabbat va hol sifatida baholaydi. Ya’ni, tasavvufiy iymon statik (turg‘un) emas, dinamik (faol)dir[1]. Ya’ni, har qanday ilm amaliyot jarayonida ahamiyat kasb etadi. Beamal ilmdan esa hech qanday manfaat yo‘q;

v) Tasavvufda bilim manbai sifatida sog‘lom fikr va aql bilan bir qatorda ilhom, kashf va yuksak intuitiv sezgiga ham o‘rin berilgan. Sufiylar nazarida aql va naql ma’lum o‘lchovlarda bilim manbai bo‘lish bilan bir qatorda, eng oliy va eng qudsiy bilimlar kashfu ilhom bilan, ya’ni yuksak sezgi orqali hosil qilinadi. Bu yo‘l orqali erishilgan bilimga so‘fiylar ilm emas, “ma’rifat”, “ilhom”, “mukoshafa”, “ilmi ladun”, “ilmi vahbiy” kabi nomlar berganlar[2]. Sezgi orqali erishilgan “irfon” Alloh va uning sifatlari haqida bevosita ma’lumot beradi. Aql va diniy hujjatlar esa bilvosita ma’lumot beradi;

g) Tasavvuf ilmining eng muhim jihatlaridan biri uning asl, yangi va originalligidir. Buning sababi, manbaining bevosita sezgi va ilhom ekanligidir. “Ma’rifat”ning xususiyatlaridan biri uning yangiligi. So‘fiylar oyatu hadislardan barchaga ma’lum ma’nolar bilan bir qatorda yangi ma’nolar chiqarishga harakat qiladilar. Ular Qur’onni shunday holda o‘qir edilarki, uni bevosita Allohdan tinglashga g‘ayrat qilardilar. Go‘yo qiroat onida oyatlarni o‘zlariga nozil bo‘layotgandek xis qilib o‘qiydilar va quloq soladilar. Bu haqda Imom Sha’roniy shunday deydi: “Biror valiy yangi bir shariat ijod etmaydi, ammo Qur’on va hadis to‘g‘risida yangicha qarash kashf etadi. Avvallari bu qarashdan behabar bo‘lganlari uchun, tasavvuf yo‘liga ishonmaganlar, kashf etilgan bu qarashni qabul etolmaydilar va uni xatto qoralash niyatida “yaxshiku-ya ammo ilgarilari hech kim bunday

[1] Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 1999. – Б. 27.

[5] Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 1999. – Б.28.

demagan-ku?!”, deydilar”[1]. Salafchi va kalomchilarning tasavvufga qilgan hujumlari aynan ana shu sabablidir. Ular shu bahonani pesh qilib, so‘fiylarni “dinning g‘oyasini bulg‘ayapti, o‘zgartiryapti”[2], deb ayblaganlar. Salafiyaning naqlga va kalomiyaning aqliy hujjat keltirishga asoslangan statik va o‘zgarmas islomiy qarashiga muqobil so‘fiylar o‘zgaruvchan va dinamik qarashga ega bo‘lganlar. Bu nuqtai nazar doirasida so‘fiylar Islomning tamal o‘lchovlariga muvofiq islomiy qarash tizimiga yangicha va original uslub qo‘shganlar. Ya’ni, ahli tasavvuf islomdagi turli tuman firqalar, mazhablar zohiriy ihtiloflariga qarshi o‘laroq, diqqat e’tiborlarini mohiyatni anglashga, Haq taoloning roziligiga musharraf bo‘lishga qaratadilar;

d) Tasavvufiy bilimga ega bo‘lish metodi qalbning poklanishidir. Bu ish kitob o‘qish va yodlash bilan amalga oshmaydi. Zero bunday ish nazariy emas, balki amaliydir. Shuning uchun “tasavvuf qol (so‘z) ilmi emas, hol ilmidir” deyilgan. Qalbni poklash haqiqiy ixlos bilan amal qilish, ibodatga berilish, dinning buyruqlarini bajarib, ma’n etganlaridan qaytishdir. Shu orqali qalb soflashib, tiniqlashadi va ilohiy bilimlar tajalli etuvchi makonga aylanadi. Bunday holga kelgan qalblarga Alloh taolo ba’zi bilimlarni ehson etadi. Shu bois tasavvufiy bilimga “Vahbiy ilm” ham deyiladi. Negizi ilohiy bo‘lgani sababli “Laduniy ilm” ham deyilganki, bu ilm kishining kasb-koriga aloqador emas. Boshqacha qilib aytganda, qilingan amal va mujohada-intilishlar bu yo‘lda faqatgina tayyorgarlik sanalib, ilmga erishishni qiyinlashtirmaydi. Alloh istagan bandasiga bu ilmni ehson etadi, istamasa yo‘q. Shunisi ham haqiqatki, “Vahbiy ilm”ga erisha bilmoq uchun ibodat va mujohadalar orqali qalbning poklanishi va qalbdagi zulmat pardalarining bartaraf etilishi shart. Bundan shu narsa anglashiladiki, ilmni ikkiga ajratadigan bo‘lsak, uning avvalgisi dunyoga aloqador moddiy ilmlar (ilmi qol) deb atalsa, uqboga aloqador bo‘lgan ruhiy-ma’naviy ilmlar (ilmi hol) deyilgan. Yuqorida ta’kidlangan “Vahbiy” va “Laduniy” ilmlarning barchasi ilmi holning samarasidir.

XULOSA. Najmiddin Kubroning zohiriy ilmlarda o‘z zamonasida mohir bo‘lib, uncha-muncha olimni nazariga ilmaganligi ta’kidlanadi. Ammo uning pirlari ham Najmiddindagi ana shu donishmandlikka qarama-qarshi o‘laroq qattiq kurash olib bordilar hamda g‘ayb asrorini egallash “Botiniy bilish” usuli, zohiriy bilimdan bir necha marta afzal ekanligini isbotlashga intiladilar. Bu narsa tasavvufning bosh ruknlaridan biridir. Ya’ni, Haq ma’rifatini idrok etish va ilohiyot vasliga yetish uchun zohiriy bilimlar hisoblanmish shariat ilmlari bir pog‘ona, xolos. Bu shundayki, toki so‘fiyning ko‘ngli ham musaffolanib, qalbi billurday shaffof holiga kelmas ekan, unda Alloh taolo uning qalbida aks etmaydi va g‘ayb sirlarini bilish ilojsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham tariqat shayxlari butun diqqat e’tiborlarini solikdagi sezgi his-tuyg‘ularini charxlashga, ruhiy-ilhomiy qobiliyatni kamol toptirishga qaratganlar. Shayx Najmiddin ham ana shunday qobiliyat va iste’dod sohibi bo‘lishni xohlar edi, ammo bunday darajaga osonlikcha erishmadi. Negaki, uning zohiriy ilmlar bilimdoni ekanligi, ya’ni uning aqlu zakovati ilohiy ma’rifatni qabul qilishga to‘sqinlik qilar, xissiyoti bilan aqli to‘xtovsiz olishar, mantiqiy ilmlari bilan sirli holatlarda keladigan ilmlari to‘qnash kelardi. Shuning uchun ham Najmiddin Kubroning ma’naviy ustozlari uni butunlay zohirbinlikdan xalos bo‘lib, botin ko‘zining ravshanlashishiga ko‘maklashishgan.

Darhaqiqat, kubroviya tariqati insoniyatni ilm-ma’rifatga, ezgu, solih amalga chorlaydi. Jumladan, Najmiddin Kubro asarlari bilan tanishar ekanmiz buni yaqqol guvohi bo‘lamiz. Albatta ilmsiz tafakkur bo‘lmaganidek, tafakkursiz ilm ham bo‘lmaydi. Bu borada buyuk mutasavvif Imom G‘azzoliy aytadiki: “Tafakkurning umumiy maxsuli – ilm, hol va amal. Xususiy natijasi esa – ilm. Qalbda ilm maydonga kelgach, qalbning holi o‘zgaradi, ya’ni amal holga, hol ilmga, ilm esa

[1] Имом Шаръоний. Табақатул кубро. – Миср, 1-ж. , 1954. – Б. 6.

[7] Улудоғ Сулаймон. Ислом тафаккурининг тузулиши. – Истанбул, 1979. – Б. 128-129.

tafakkurga bog‘liqdir”. Ko‘rib turganimizdek, G‘azzoliy ham Najmiddin Kubro ham dastavval ilm va amal uyg‘unligiga e’tibor qaratishadi.

O‘ylaymizki, tasavvufning muhim shahobchasi bo‘lgan kubroviya ta’limoti va uning ilmiy falsafiy g‘oyalari bugungi kun avlodlari bo‘lmish yoshlarning komil inson bo‘lib shakllanishida muhim bir dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси ёхуд Хоразм тарихи. / Эски ўзбек тилидан табдил қилиб нашрга тайёрловчилар: М.Сафарбоев, С.Раҳимов. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти, 2017. – Б.102
2. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. /“Фавойиҳ-ул жамол”. – Т.: “Мовароуннаҳр”. 2004. – Б. 112
3. Шайх Нажмиддин Кубро. Жамолинг менга бас. / Матназар Абдулҳаким тарж., – Тошкент: Ғ. Ғулом номли АСН, 1994. – Б. 14.
4. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 1999. – Б. 27.
5. Имом Шаръоний. Табақатул кубро. – Миср, 1-ж. , 1954. – Б. 6.
6. Улудоғ Сулаймон. Ислом тафаккурининг тузулиши. – Истанбул, 1979. – Б. 128-129.

GLOBALLASHGAN DAVRDA YOSHLARNING ONGINI ZAXARLOVCHI TAHDIDLARNING KLASSIFIKATSIYASI

Musayev Umidjon Saidkamolovich,
Ma’mun universiteti
“Umumkasbiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
f.f.d., (PhD)
ORCID: 0009-0000-3398-8674
e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada globallashgan bugungi shiddatli dunyoda butun dunyo mamlakatlaring asosiy e’tibori qaratilgan tahdid va yot zararli g‘oyalarning turlari ochib berilgan. Shu bilan birgalik jamiyat va yoshlar ongini zararlovchi tahdid va xavf-xatarlani ta’sir etish ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra klassifikatsion ko‘rinishlari ham alohida ta’riflangan.

Kalit so‘zlar: Tahdid, xavf-xatar, g‘oya va mafkuraviy tahdidlar, siyosiy tahdidlar, diniy tahdidlar, ma’naviy tahdidlar, informatsion tahdidlar, ta’lim, tarbiya, ong.

Kirish. Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ydi. Yangi davrning tahdid va xavf-xatarlarini tobora kuchayotganligi muntazam ogoh va sezgir bo‘lishga undamoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish xar qachongidan ham muhimdir”[1].

Inson qalbi va ongini zabt etuvchi o‘zida yovuz va zararli g‘oyalar orqali namoyon bo‘layotgan g‘oyaviy ta’sir, oshkora mafkuraviy tayziqlar teran fikrlashni taqozo etmoqda. Yoshlar tarbiyasiga raxna solishga intilayotgan ekstremizm, terrorchilik, missionerlik, prozelitizm kabi tahdidlarni chegara bilmasligi dunyo afkor ommasining kayfiyati, ruhiyati, dunyoqarashiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” nomli asari, nutq va ma’ruzalaridan hamda I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari, Tillaboyev S., A.Zamonovlarning “O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari)” darsligidan, Mansur Musayevning “Global miqyosda madaniyat ko‘rinishida targ‘ib qilinayotgan “Ommaviy madaniyat” tahdidi” Demokratlashtirish va inson

huquqlari jurnalida chop etilgan maqolasidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun hizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va tizimli funksional tahlil, kompleks yondashuv, sotsiodinamik yondashuv, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. Bugungi kun axborotining tarqalish tezligi, inson tafakkuriga turli yo‘nalishlarda tez ta’sir o‘tkazishi, insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuborishga qodirligi, turli vaziyatlarda salbiy va ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylanmoqda. Bizningcha, bu axborotlarning aksariyati internet orqali tarqalmoqda.

Bugungi kunda internet insonlar ongida go‘yo hech qanday qonun-qoidalarga amal qilmaydigan, parallel olam sifatida mustahkam o‘rin olmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov internet haqida shunday degan edi: “internet shunday bir narsaki, u yutuq emas, yaxshini – yomon, kamni – ko‘p qilib ko‘rsatuvchi, aqlni chalg‘ituvchi, yoshlarni o‘z domiga oluvchi o‘rgimchak to‘ri bo‘lib, ularni maqsaddan og‘ishiga xizmat qiladi”. Zero, internet orqali tarqatilayotgan axborotlar bugungi kunda global mohiyat kasb etish orqali axborotga egalik qilsa, o‘sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan ibora bejiz o‘z tasdig‘ini topmoqda. Yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlarini tobora avj olmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlari tufayli yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, milliy mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan begona qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish xatarlar kuchayotganligi, ayniqsa, tashvishlidir.

Bugungi kunda yosh avlodning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida “o‘rgimchak to‘ri” internet tarmog‘iga murojaat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekani, istagan narsangizni undan bir zumda topa olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lash imkoniyati mavjudligi muhim omil.

Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz in’omidan o‘z g‘arazli manfaatlari yo‘lida foydalanuvchi soni ham ortib borayotganidan ko‘z yuma olmaymiz. Masalan, ayni paytda internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingta, erotik mazmundagi 4 mingtadan ziyod saytlar mavjud. Undagi 49 foiz kompyuter o‘yinlari zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qilayotir, 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn tizimi orqali tarqatiladigan pornografik ta’siriga butunlay qaram bo‘lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola zo‘ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlashgan.

O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin o‘sib bormoqda, ularning 80 foizdan ko‘prog‘ini yoshlar ekanini hisobga olsak, bu holat barchamizni yanada ogoh va sergak bo‘lishga undaydi. Shu o‘rinda yoshlarimizni mustaqil fikrlash, sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini shakllantirish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

NATIJALAR. Hozirgi kunga kelib tahdid va xatarlarning soni tobora ortib borayotganligi ayniqsa tashvishlidir. Xususan, ularni yoshlar ongiga ta’sir etish doirasiga ko‘ra quyidagicha guruhlashtirish ham mumkin:

- Ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar (“Dunyo fuqaroligi” kosmopolitizm, “qayerda yashash yaxshi bo‘lsa, o‘sha joy vatan”, amoralizm, migratsiya, starizm, beshinchi kolonna, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, barbi “madaniyati”, volyuntarizm, vandalizm, varvarlik, gedonizm);

- Diniy tahdidlar (suitsid, panislomizm, radikalizm, atanizm satanizm, missionerlik va prozelitizm, fundamentalizm, islom fundamentalizmi, terrorizm, fanatizm, radikalizm, ekstremizm, mutaassiblik va “g‘ulu” tushunchalari, ularning paydo bo‘lish sabablari va oqibatlari, soxta salafiylik, diniy aqidaparastlik, islom aqidaparastligi, diniy ekstremizm, islom modernizmi, islom traditsionalizmi);

- Siyosiy tahdidlar (separatizm, vesternizatsiya, “vijdon erkinligi”, rangli inqilob, neofashizm, gegemonizm, bo‘lib tashlab – hukmronlik qilish, konservatizm, neokonservatizm, etnotsentrizm, anarxizm, shovinizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, irqchilik, mafkuraviy poligon, pansovetizm, fashizm, “demokratiya”ni olg‘a surish);

- Iqtisodiy tahdidlar (ilmoqli qarz, asotirli qarz, peniyafobiya, besamar investitsiya);

- Hozirgi kundagi eng asosiysi va xatarlisi informatsion tahdidlar (ludomaniya, dezinformatsiya, etnotsentrizm, seduksiya, stokgolm sindromi, yumshoq kuch, dunyo axborot urushi, fleshmob, “ommaviy madaniyat”, psixologik urush, beshinchi kolonna, axborot va internet tarmog‘idagi axborot urushi, axborot urushi, mediamanipulyatsiya, kiberterrorchilik, virtual jinoyatchilik, vertual ta’qib, onlayn hayot vakillari, mediavirus va hozirgi kungi dolzarb fobiyalar: TV, mediya, o‘yin, internet, xayolot va boshqalar).

Tobora murakkablashib borayotgan hisoblash texnikasidan qo‘rqish (kompyuterofobiya), kompyuterda ishlashda elektromagnit nurlanish, kompyuter viruslarining zararli ta’siri, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, ruhiy kasalliklar, real dunyoni virtual dunyoga almashtirishga urinish – bularning barchasi bugungi kun hodisalaridir.

Tahdidlarga misol uchun: “tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”[2]. Zero, mamlakatimizda milliy ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda eng avallo, insonlarning ma’naviy, axloqiy-ruhiy hayotiga tahdid soluvchi xatarlardan bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning shunday ta’kidlab o‘tadilarki, tahdidlar milliy an’analarimiz va qadriyatlarimizga zarar yetkazmoqda”[3]. Albatta, tahdidlar suqilib kiradiki, sezmay va hatto bilmay ham qoladi inson. Islom Karimov ta’kidlaganidek, “... chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerak”[4]. Bu hozirgi globallashuv sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Information tahdid sifatida “Ommaviy madaniyatga falsafiy ma’noda ta’rif beradigan bo‘lsak, – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli”[5]. madaniyat ko‘rinishidagi “ommaviy madaniyat” ta’sirida yoshlar qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo‘lgan xarakatlarni namoyon bo‘layotganligi juda tashvishlidir. Qolaversa, ushbu mafkuraviy – g‘oyaviy tahdid xar qanday xalq va millatning o‘ziga xosligini rad etuvchi g‘oyani targ‘ib etmoqda[6].

Xulosa qilib aytganda tahdid va xavf-xatarlarga duch kelgan inson va internet tarmog‘idagi noo‘rin va zararli saytlarni varaqlagan fuqaroda Vatan tuyg‘usi, o‘z xalqiga nisbatan e’tiqodi mustahkam bo‘lsa, xar qanday bo‘hton va to‘qimalarga ishonmaydi. Immunitetga esa, iymoni baquvvat, g‘ururi baland, siyosiy madaniyati yetuk insonlarga yot g‘oyalar ta’sir o‘tkaza olmaydi. Yosh avlod ham shu tariqa xar qanday axborot xurujiga qarshi javob qaytara oladi va barkamollik sari odimlayveradi.

Foydaloanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. 18.10.2016

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 15.

3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий харакатининг IV қурултойидаги нутқи. 30.06.2017

4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 117.

5. Фалсафа: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 313.

6. Мусаев М. Глобал миқёсда маданият кўринишида тарғиб қилинаётган “Оммавий маданият” таҳдиди. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент: 2017. - №1. – Б. 45.

XIVA XONLIGIDA USULI JADID MAKTABLARI

Karimov Umrbek Davronbekovich
Ma’mun Universiteti, Xiva.
“Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi.
karimovumrbek1@mail.com

Annotatsiya: Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu harakatning asl maqsadi millatning o‘zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, millat, Vatan istiqloli edi. Ma’lumki, bunday buyuk o‘zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi. Buning uchun taraqqiy etgan millatlar bilan hamqadam avlodni tarbiyalab yetishtirish kerak. Ushbu maqolada Xiva xonligida jadid maktablarining vujudga kelish tarixi, rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rahimxon Feruz, “Tarjimon” gazetasi, “Vaziri akbar”, usuli jadid, rus-tuzem maktablari.

Annotation: The cornerstone of the Jadid movement is the Jadid schools. The original goal of this movement was to promote the identity of the nation, radically reform the socio-political system, and achieve the independence of the nation and the Motherland. It is known that only a new generation can carry out such great changes. For this, it is necessary to educate and raise a generation in step with advanced nations. This article analyzes the history of the emergence and development processes of Jadid schools in the Khiva Khanate.

Key words: Muhammad Rakhimkhon Feruz, “Tarjiman” newspaper, “Vaziri Akbar”, new method, Russian-style schools.

Аннотатsiя: Краеугольным камнем движения джадидов являются школы джадидов. Первоначальной целью этого движения было укрепление идентичности hatsii, радикальное реформирование общественно-политической системы и достижение независимости hatsii и Родины. Известно, что только новое поколение может осуществить такие великие перемены. Для этого необходимо воспитывать и воспитывать поколение в ногу с передовыми hatsiями. В данной статье анализируется история возникновения и процессы развития школ джадидов в Хивинском ханстве.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхон Феруз, газета «Тарджиман», «Вазири Акбар», новый метод, школы русского типа.

Vatanimiz tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan xonlar orasida hech biri adabiyot va san’at, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, mamlakat obodonchiligi sohasida Muhammad Rahimxon Feruzchalik faoliyat ko‘rsatgan emas. Ma’rifatparvar hukmdor 47 yil xonlik qildi, dastlabki o‘n yil mustaqil xon sifatida, ammo Rossiya mustamlakachilik siyosati eng yuqori bosqichga ko‘tarilgan bir davrda, 37 yil Rossiya imperiyasining vassali sifatida faoliyat ko‘rsatdi. U butun hukmronligi davrida ulug‘ ustozi, Turonzaminning buyuk mutafakkiri Muhammad Ogahiyning raiyatni ma’rifat nuridan bahramand qilish haqidagi o‘gitlariga izchil amal qildi:

Bu so‘zlarnikim, man bayon ayladim,
Necha bayt birla ayon ayladim.
Bularg‘a qayu shahki qilsa amal,
Oning mulkiga yetmas aslo xalal.
Hukumat binosi bo‘lur uspnivor,
Oning xonadonida tutniy qaror.

Atoqli shoir, tarixchi olim Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarai Xorazmshohiy” asarida ma’lumot berishicha, Muhammad Rahimxon o‘nlab bog‘-rog‘lar, masjid va madrasalar, maktablar qurdirgan, boshqa davlat arboblarini ham mamlakat obodonchiligi uchun sa’y-harakatta da’vat etgan, ularni bunday ishlarga rag‘batlantirgan. Bayoniy bu haqda yozadi: “Ma’lum bo‘lsinkim, xon hazratlari bag‘oyat mushfiqfuqaro va bag‘oyat xayrdo‘st kishi erdilar. Ko‘b madrasalar va masjidlar

bino qildilar va ko‘b madrasalarning binolariga sabab bo‘ldilar”. Muhammad Rahimxon Soniy adabiyot ravnaqiga, ayniqsa, iqtidorli yoshlar ijodiga rahnamolik qildi, ularni ham ma’naviy, ham iqtisodiy tomondan rag‘batlantirdi. XIX asr oxirlarida adabiyotga kirib kelgan Bayoniy, Tabibiy, Avaz O‘tar o‘g‘li, Chokar, Rog‘ib, Devoniy, G‘oziy, Oqil, Shinosiy, Kamyob, Muhammad Rasul kabi ijodkorlarga g‘amxo‘rlik qildi, ularning ijodini kuzatib bordi. Muhammad Rahimxonning bevosita rahbarligida Xorazm adabiyotini va ma’naviyatini o‘rganishda tengsiz manba bo‘lmish “Majmuat ush-shuaro” tazkirasi maydonga keldi. Bu ish Ahmad Tabibiy tomonidan amalga oshirildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Buxoro amirligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy va mirzaboshi Komil boshchiligida usuli jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yildayoq ulug‘ mutafakkir Komil tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o‘quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda jug‘rofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitildi. Qozondan maxsus o‘qituvchi chaqirilgan edi. An’anaviy mahalliy maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 daqiqa va 10 daqiqalik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni hatto Muhammad Rahimxon kelib ko‘rdi, o‘g‘li Asfandiyorni shu maktabga o‘qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o‘quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag‘ ajratdi. Ma’lumotlarga qaraganda, bo‘lg‘usi devonbegi, Xiva xonligida jadidchilik harakatining rahnomalaridan Sayid Islomxo‘ja ibn Sayid Ibrohimxo‘ja, shoir na mutafakkirlar Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komil Xorazmiyning o‘g‘li), Ahmad Tabibiy, Avaz O‘tar o‘g‘li shu maktabda rus tilini o‘rganishgan.

Xiva xonligida “usuli jadid” maktablari taraqqiyotining oldini olish maqsadida 1894-yildan boshlab Turkiston general gubernatorligining faol aralashuvi bilan dastlab Xivada, keyinroq Urganchda rus-tuzem maktablari ochila boshlaydi. Bunday maktablarni o‘z homiyligiga olgan Sayid Islomxo‘ja millat ma’naviyatidan kelib chiqqan holda ular dasturiga rus tili, riyoziyot, jug‘rofiya, xandasa kabi fanlar bilan bir qatorda, ona tili va adabiyot hamda musulmon dini qonunlarini kiritadi, ularning o‘qitilishini o‘zi nazorat qiladi. Chunki u “Turkiston viloyatining gazeti”, “Tarjimon” gazetalarida rus-tuzem maktablari mohiyati haqida kechayotgan munozaralarni kuzatib borar, bunday maktablardan general gubernatorlik ko‘zlagan maqsadlaridan to‘la xabardor edi. Shuning uchun ham rus-tuzem maktablarida milliy til, adabiyot va islom ma’naviyatining o‘qitilishiga katta e’tibor beradi.

Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Asfandiyor ham usuli jadid maktablari rivojiga katta ahamiyat berdi. Ayniqsa, devonbegi (bosh vazir) Said Islomxo‘ja bunday ma’rifiy ishlarga bosh bo‘ldi. Qozondan muallimlar taklif qilish, ular yordamida usuli jadid maktablari ochish davom etdi. XX asr tongidayoq Islomxo‘ja zamona talablariga hamohang holda o‘z hisobidan ikki qavatli usuli jadid maktabi qurdirdi, rus, tatar muallimlarini jalb qildi. U bunday faoliyati tufayli “Vaziri akbar” sharafli unvoniga musharraf bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Улуғбек Долимов. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: “Университет”, 2006.
2. Муҳаммад Юсуф Басний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: “Мерос” нашриёти, 1991й., 252-бет.
3. Д. Раҳим. Ш.Матрасул. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: 1991 й.
4. Рустам Шарипов. Туркистон жадидларининг сиёсий-хуқуқий қарашлари. – Тошкент: 2002 й.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOIY QARASHLARI

Karimov Umrbek Davronbekovich
Ma’mun Universiteti, Xiva.
“Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi.
karimovumrbek1@mail.com

Annotatsiya: Mamlakatimiz istiqloli tufayli XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish harakati, ya’ni jadidchilik namoyandalarining hayot-faoliyatlari, publisistik, badiiy va ilmiy merosini tadqiq etish, idrok qilishga intilish kuchaymoqda. Samarqandlik mufti Mahmudxoja Behbudiy ham shu harakatning yo‘lboshchisi nazariy va amaliy rahnamosi sifatida jo‘shqin faoliyat ko‘rsatgan, boy ijodiy meros qoldirgan bo‘lib, ushbu maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxoja Behbudiy, “Tarjimon” gazetasi, Ismoil Gaspirali, “Oyna” jurnali.

Annotation: Due to the independence of our country, the desire to study and comprehend the life and activities of the national revival movement of the late 19th and early 20th centuries, that is, the journalistic, artistic and scientific heritage of the representatives of Jadidism, is increasing. Samarkand mufti Mahmudhoja Behbudiy also worked vigorously as the theoretical and practical leader of this movement, leaving behind a rich creative heritage, which is covered in this article.

Key words: Mahmudhoja Behbudiy, “Tarjimon” newspaper, Ismail Gaspirali, “Oyna” magazine.

Аннотатsiя: В связи с обретением нашей страной независимости усиливается стремление к изучению и осмыслению жизни и деятельности движения natsионального возрождения конца XIX - начала XX веков, то есть публицистического, художественного и научного наследия представителей джадидизма. Самаркандский муфтий Махмудходжа Бехбудий также активно работал как теоретический и практический руководитель этого движения, оставив после себя богатое творческое наследие, которое освещается в данной статье.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбудий, газета «Тарджимон», Исмаил Гаспиринский, журнал «Ойна».

O‘zbek jadidchilik harakatining sardorlaridan biri, shubhasiz, Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand shahri yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida tavallud topgan. Lekin uning otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li asli Turkiston shahridan, Ahmad Yassaviy avlodlaridandir. Behbudiyning onasi ham samarqandlik emas. Uning ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqandga ko‘chib kelgan.

Maxmudxo‘ja to‘qqiz-o‘n yoshida otasidan yetim qolib, tog‘asi Muhammad Siddiqning qo‘lida tarbiya ko‘rgan. Arab tilini kichik tog‘asi Odildan o‘rganganligi sababli o‘n sakkiz yoshidan e’tiboran qozixonada mirzalik qila boshlagan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Mahmudxo‘ja Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida puxta tahsil ko‘rgan. Ayni paytda xususiy mutolaa bilan shug‘ullanib, dunyoqarashining kengayishiga erishgan. Tahmin qilish mumkinki, shu yillarda u Ismoil Gaspiralining “Tarjimon” va boshqa taraqqiyparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi gazeta va jurnallar bilan tanishgan va, ehtimol, 1893 va 1897-yili Turkistonga kelib, Buxoro va Samarqandda bo‘lganida “Tarjimon” gazetasining muharriri bilan ham tanishish sharafiga erishgan. Har holda shu yillarda o‘qigani maqolalar va sayohatnomalar ta’sirida u 1899-1900 yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safarida bulgan.

Behbudiyning sakkiz oylik ana shu safari izsiz ketmadi. Bir tomondan, jadid gazetalari va ikkinchi tomondan, Kavkaz, Turkiya va Misrda ko‘rgani o‘quv muassasalari ta’sirida u 1903-yili Samarqand atrofidagi Xalvoyi va Rajab amin qishloqlariga borib, o‘sha yerlik ma’rifat ahli bilan hamkorlikda usuli jadid maktablarini ochdi va bu maktablar uchun “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolan jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitob at ul-atfol”

(1908), “Amaliyoti islom” (1908) va “Tarixi islom” (1909) singari kitoblarni yaratdi. Behbudiy siyosiy-ijtimoiy qarashlarining shakllanishida sayohat, ayniqsa, katta rol o‘ynadi. U 1903-1904-yillarda Moskva va Peterburgda bo‘ldi, 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodga xizmat safari bilan bordi. 1914-yili esa ikkinchi marotaba arab mamlakatlariga sayohat qildi. Agar bu safarning bir qismi Nijniy Novgorodda 1906-yil 23-avgust kuni ochilgan Rossiya musulmonlari qurultoyi, Nijniy Novgorod yarmarkasi paytida bo‘lib o‘tgan milliy ishlarga doir majlis tufayli amalga oshgan, binobarin, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi bevosita ma’lum maqsad bilan qilingan sayohatlardir. Ularning har ikkisi ham Behbudiy ijtimoiy qarashlarining shakllanishida chuqur iz qoldirgani shubhasiz.

Behbudiyning siyosiy publitsist sifatidagi faoliyati, ayniqsa, 1913-1915-yillarda “Oyna” jurnali va “Samarqand” gazetasini nashr etgan vaqtda kuchaydi. Bu vaqtda u nafaqat Turkiston xalqlari hayotini, balki xorijiy Sharq mamlakatlaridagi ahvolni ham yaxshi bilgan va har ikki hayotni o‘zaro qiyoslagan holda gazeta va jurnalning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab olgan va aniq maqsad bilan harakat yurgizayotgan edi. Behbudiy muharriri bo‘lgan bu nashrlarning g‘oyaviy yo‘nalishi esa birinchi navbatda xalq ommasining og‘ir iqtisodiy va madaniy sharoitda yashashiga sabab bo‘lgan ba’zi bir urf-odatlardir. Otashin publitsist o‘z maqolalarida ana shunday qusurli va zararli odatlardan biri bo‘lgan to‘y masalasini ko‘taradi. Qizig‘i shundaki, bu masala bugungi voqeligimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Behbudiy va boshqa jadidlarimiz esa hamisha dolzarb bo‘lib kelayotgan bu mavzuni 1913-yildayoq ko‘targan edilar.

O‘zbek xalqi orasida 1917 yilga qadar kechgan davrda kosiblik eng ko‘p tarqalgan va shu bilan bir qatorda ko‘p mehnat talab etadigan hunar edi. Shuning uchun ham Behbudiy “A’molimiz yoyinki murodimiz” degan maqolasida shu kasb egalarini nazarda tutib yozadi: “Bechora kosibni a’moli to‘ydur. O‘zi rohat yuzi kurmaydir. Kecha-kunduzni 18, balki 20 saotni mehnatga o‘tkaraturgon kosiblarimiz bordur... Un na yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan o‘g‘il tilar, to‘y qilmoq uchun. Ana bechorani a’moli. Yigirma sanalik mehnati uch kunda tamom”.

Behbudiy uch kunlik to‘y ba’zi oilalarni o‘n yil, hatto bir umrlik tashvishlarga giriftor etishi, hatto xonavayron qilib, bevatan aylashi mumkinligini ta’kidlaydi. Bir to‘y kosib uchun ming, o‘rtahol kishi uchun 2000 - 3000, “nimboy” uchun esa 5000 so‘mga tushadi. Va bu so‘mlar uch kunlik to‘yda yeb-ichilib ketadi. Kosib ham, o‘rtahol ham, hatto “nimboy” ham bu mablag‘ni bonka, firma yo “foydaxo‘r”dan oladi. Shuning uchun ham ular qarzni to‘lash paytida “bog‘u xona va uyi ichidagi asbob”ni sotishga, hatto “bechora kelin va kuyov”ning ko‘rpa va libosini “qarzgoh”ga berishga majbur bo‘lishadi. “Nimboylar sinar, deb yozadi Behbudiy, tirikligida bo‘lmasa, o‘lganda sinar. Ahlu ayoli darbadar bo‘lur. Oy, bu nima? To‘grisi, bir nav devonalik emasmi? Subhonollox, qarz olib, xalqg‘a osh bermoq aqlsizlik emasmi? Hamda illati bedavosidur” (158-bet).

Xalq faqat to‘y munosabati bilan emas, balki boshiga musibat tashvishi tushganida ham shunga yaqin oqibatlarni boshidan kechirishi mumkin. Shuning uchun ham Behbudiy chinakam gumanist inson va ma’rifatparvar sifatida xalqni ichdan kemirayotgan urf-odatlarning past-baland tomonlarini ochib tashlaydi. Behbudiy ko‘targan masala xususiy ahamiyatga emas, balki umumo‘zbek ahamiyatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рустам Шарипов. Туркистон жадидларининг сиёсий-хуқуқий қарашлари (Абдурауф Фитрат ва Махмудхўжа Бехбудий ижоди мисолида). – Тошкент: 2002 й.
2. Жўрабой Яхшиликов, Нилуфар Убайдуллаева. Жадидчилик ва Беҳбудий. – Тошкент : «Фан» нашриёти, 2004. - 188 бет.
3. Сотимжон Холбоев ва муаллифлар жамоаси. Туркистон жадидчиилиги -миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири XX аср бошлари). – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2012.
4. Улуғбек Долимов. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: “Университет”, 2006.

POLVONNIYOZ HOJI YUSUPOV – “YOSH XIVALIKLAR” TASHKILOTI RAHBARI

Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li,
Ma’mun-Universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
Fakulteti, “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:sarvarbekmatniyozov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati yetakchilaridan biri, “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbari bo‘lgan Polvonniyoz Hoji Yusupovning hayoti, faoliyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Asfandiyorxon, Nozirlar kengashi, Turkkomissiya, bolsheviklar, jadid, “millatchi”.
Аннотация: В статье освещены жизнь и деятельность Полвонниёза Ходжи Юсупова, одного из лидеров джадидского движения, действовавшего в Хорезме, и главы организации "Молодые хивинцы".
Ключевые слова: Асфандиёрхан, Совет министров, Туркомиссия, большевики, джадид, «националист».
Abstract: The article covers the life and activities of Polvonniyoz Hoji Yusupov, one of the leaders of the Jadid movement active in Khorezm and the head of the "Young Khivans" organization.
Keywords: Asfandiyar Khan, Council of Ministers, Turkish commission, Bolsheviks, Jadids, "nationalist".

XX asr boshlarida Turkiston hududida, shu jumladan Xorazmda ham ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati – jadidchilik shakllandi. Xiva xonligida jadidchilikning o‘ng (Bosh vazir Islomxo‘ja boshchiligida) va so‘l (Qozikalon Boboxun Salimov boshchiligida) oqimlari shakllandi. Mazkur harakatda faol qatnashgan jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, 1914-yilda tashkil topgan yos*h xivaliklar* partiyasining asoschisi va davlat arbobi bo‘lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov 1861-yili Xiva shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. 1871-yilga qadar ota-onasining, ular vafotidan keyin esa amakisi Yusufboyning qo‘lida tarbiyalangan. 13 yoshida eski maktabda o‘qib, savod chiqargan. Maktabni bitkazgach, savdo ishlari bilan shug‘ullangan. Polvonniyoz 1877-yilda amakisi bilan Moskvada bo‘ladi. Keyinchalik 1885-yilda jadid maktabini tugatadi. U arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan. 1904-yili Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlarida va Makka shahrida bo‘lgan. 1914 yili u jadidlarning “so‘l oqimi”dan ajralib chiqqan yosh xivaliklar tashkilotini boshqardi. P. Yusupov 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfandiyorxonga taqdim etilgan davlat boshqaruvida islohotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi manifest mualliflaridan biri edi. Biroq Asfandiyorxonning jadidlarga qarshi siyosati natijasida P.Yusupov 1917-yil oxiridan boshlab 2 yil davomida Toshkentda muhojirlikda yashadi.

Xiva xonligi tugatilgach, 1920-yil 30-aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilib, Polvonniyoz Hoji Yusupov - Nozirlar kengashi raisi lavozimiga tayinlanadi. Polvonniyoz Hoji Yusupov XXSR hukumati raisi sifatida mustaqil siyosat yuritish va Xorazm Respublikasida demokratik islohotlarni qaror toptirish uchun intilgan. XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmadi. Chunki Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edilar. Biroq Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) va Turkiston fronti qo‘mondonligi Polvonniyoz Hoji Yusupovning bu siyosatiga qarshi chiqib, Xivada yangi hukumat to‘ntarishini amalga oshirishgan. Faqatgina 1921-yil davomida uch marta (mart, sentabr, noyabrda) hukumat o‘zgarishi yasalib, o‘z xalqi milliy manfaatlarini yoqlab siyosat yuritgan Polvonniyoz Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo‘lgan hukumat tarkiblari bekor qilindi, ularning rahbarlari asossiz qoralanib, ular og‘ir jazolarga mahkum etildilar. 1921-yil 6-martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, Polvonniyoz Hoji Yusupov lavozimidan chetlashtirildi va u

boshliq hukumat a‘zolari qamoqqa olishga hukm qilindi. Biroq Polvonniyoz Hoji Yusupov yashirinishga ulgurdi. Polvonniyoz Hoji Yusupov faol siyosiy kurashdan voz kechganligi uchun keyinchalik bolsheviklar tomonidan afv qilingan va XXSRda turli lavozimlarda xizmat qilgan. 1926-yil 10-yanvardan Xorazm viloyat Ijroiya qo‘mitasi raisining xo‘jalik bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi.

1930-yillarga kelib, Stalin davrida boshlangan ommaviy qatag‘onlar Xorazm ziyolilarini ham qamrab oldi. Polvonniyoz Hoji Yusupovga ham “xalq dushmani”, “millatchi” kabi siyosiy tamg‘alar qo‘yildi. U 1936-yil 14-mayda 75 yoshida Xivada vafot etdi. O‘zining “Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar)” nomli asarida u 1910–1924-yillardagi siyosiy voqealar, jadidlar kurashi va XXSR tarixi haqida bebaho ma’lumotlar qoldirgan.

Polvonniyoz Hoji Yusupovning hayoti o‘z xalqining ma’naviy-ma’rifiy va siyosiy uyg‘onishi yo‘lida fidoyilik bilan o‘tganini ko‘rish mumkin. Jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo‘lishi, uning davrida olib borilgan siyosiy islohotlarga qo‘shgan hissasi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) raisi sifatidagi faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.:Университет, 1999.
2. Алимова Д.А. История как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
3. P. Hoji Yusupov. “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.
4. О. Қўшжонов, Н. Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиѐсий жараѐнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. MCHJ.2007 йил.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo’rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). T. “Sharq”-2000.

XUDOYBERGAN DEVONOV — BIRINCHI O‘ZBEK FOTOSURATCHISI

Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li,
Ma’mun-Universiteti,
“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
Fakulteti, “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:sarvarbekmatniyozov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek kinomotografiyasining asoschi, birinchi fotosuratchisi Xudoybergan Devonovning hayoti, faoliyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Vilgelm Penner, teleskop, grammofon, fotolaboratoriya, «Sovkino», burjua.
Аннотация: В статье освещены жизнь и деятельность Худойбергана Девонова – основателя узбекского кинематографа и первого фотографа.
Ключевые слова: Вильгельм Пеннер, телескоп, граммофон, фотолаборатория, Совкино, буржуа
Abstract: The article covers the life and activities of Khudoybergan Devonov, the founder of Uzbek cinematography and the first photographer.
Keywords: Wilhelm Penner, telescope, gramophone, photolaboratory, Sovkino, bourgeois

Xudoybergan Devonov 1879-yilda Xivada, Xiva xonining Xo‘jaylidagi mulklari boshqaruvchisi Nurmuhammad devon (mirza) oilasida tug‘ilgan. Xudoybergan Xivadagi madrasada savodini chiqargan, arab tilini o‘rgangan. Soatsozga shogirdlikka tushgan. Ko‘plab musiqa asboblarini chalishni bilgan. Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog‘ida yashaydigan mennonit

nemislar jamoasi vakili Vilgelm Penner bilan uchrashuv Xudoyberganning dastlab fotografiya, keyinchalik kinematografiya sohasida faoliyat olib borishiga sababchi bo‘lgan.

Avvaliga bu diniy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchragan bo‘lsa-da, keyinchalik Muhammad Rahimxon uni o‘z himoyasiga oldi.1907-1908-yillarda Xiva xonligining bosh vaziri Islomxo‘ja boshchiligida delegatsiya Sankt-Peterburg shahriga boradi. Xivaliklar delegatsiyasi tarkibida Xudoybergan Devonov ham bo‘lib, Moskva, Peterburgdan teleskop, grammofon, foto va kino asboblari olib kelib fotolaboratoriya tashkil etgan. Xudoybergan Devonov o‘z tarjimayi holida mazkur safar natijalari to‘g‘risida shunday yozadi: «1908 yilda Maskovga borib, Pyotr Yahum degan boydan kinoapparat sotib oldim. Bir oy uning xususiy laboratoriyasida pul to‘lab o‘rgandim. Kino o‘ynataturgan apparat va materiallarni sotib olib, Xivaga keltirdim». Bu laboratoriya Xorazmda fotokinostudiya vazifasini o‘tagan.

1920 yili Xiva xonligi tugatilib, Xorazm Xalq sovet respublikasi tuziladi. Xudoybergan Devonov yangi davlatning moliya vaziri etib tayinlanadi. Kasbiga oid vazifalarni bajarish chog‘ida u juda ko‘p marta Moskvaga safar qiladi, yangi filmlarni olib keladi. «Sovkino» jamiyatining hududiy muxbiriga aylanadi. Uning kinolavhalari «Soyuzkinojurnal» seriyalarida namoyish etiladi. «Ishchi ayollar», «Sho‘rko‘l», «Ko‘za», «Chig‘ir», «Tuzkon», «Degish ofati», «Xorazm dalalarida», «Paxta karvoni» singari hujjatli film va syujyetlarni suratga olib yuboradi. Xudoybergan Devonov Xorazm xalqi urf-odatlari ifodalangan mingga yaqin fotosurat yaratdi. XXSR davrida maktab, internatlar ochib, unda foto-kino ishlarini olib bordi. «Uzbekistanskaya pravda» («O‘zbekistan haqiqati»), «Inqilob quyoshi» gazetalarida fotomuxbirlik qilib, Xorazm dalalarida birinchi traktorning paydo bo‘lishi, dehqonlarga yer taqsimlanishi va ommaviy yig‘ilishlarga oid ko‘p fotosurat va kinolavhalar yaratdi. Xudoybergan Devonov Urganch, Xiva, Toshsoqa, Toshhovuz, Xo‘jayli, To‘rtko‘l singari shahar va tumanlarni kezib, diqqatga sazovor joylarni, aholining dehqonchilik ishlarini tasmalarda muhrlagan. Xiva shahrining me'moriy obidalari, xalq sayillari, dorbozlar va masxarabozlarning tomoshalari, xonlikda yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq millatiga mansub kishilarning madaniy va maishiy-etnografik hayoti manzaralari uning ijodida bosh mavzulardan biri bo‘lgan.

Xudoybergan Devonov ijodi rus kinosan’atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U «O‘rta Osiyo me’moriy yodgorliklari», «Turkiston ko‘rinishlari», «Xiva va xivaliklar» kabi qisqa filmlarni ishlagan. O‘z filmlarida vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan.

Afsuski, 30-yillar oxirida avjiga chiqqan Stalinning qatag‘oni Xudoybergan Devonovni ham chetlab o‘tmadi. 58 yoshli fotosuratchi 1937-yilda hibsga olinib, Yangiyo‘ldagi siyosiy mahkumlar lageriga yuboriladi.1938-yil 5-sentyabrda, atigi 20 daqiqa davom etgan sudda Xudoybergan Devonov O‘zbekiston SSRni SSSRdan ajratib olib, burjua davlatni barpo etish maqsadini qo‘ygan aksilinqilobiy, millatchilik, qo‘zg‘olonchilik, terrorchilik va diversiya-zararkunandachilik tashkiloti bilan aloqa o‘rnatganlikda, tumanma-tuman kezib, ingliz ravedkasi uchun josuslik ma'lumotlarini to‘plaganlikda aybdor deb topilib, oliy jazo – o‘limga mahkum qilinadi. Mol-mulki esa davlat foydasiga musodara qilinadi. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etiladi.

Ammo Stalinning o‘limidan keyin qatag‘on qilingan ko‘plab ziyolilar qatori Xudoybergan Devonovning jinoyat ishi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Oliy Sud harbiy kollegiyasi 1959-yilda unga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilib, mutlaqo aybsiz deb topadi va oqlash haqida qaror chiqaradi.

Xudoybergan Devonov o‘zidan boy ijodiy merosni, ko‘plab foto va kinotasmalarni qoldirgan, ularning ko‘pchiligi NKVD tomonidan yo‘q qilingan. U suratga olgan kinolentalarning ko‘pi haligacha topilgani yo‘q. Bugungi kunda Urganch shahridagi kinoteatr, Xiva shahridagi X.Devonov yashagan ko‘cha uning nomi bilan yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.:Университет, 1999.

2. Алимова Д.А. История как история, история как наука. 2 часть. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
3. P. Hoji Yusupov. “Yosh xivaliklar harakati: quvonchlar iztiroblar, fojealar” // Nashrga tayyorlovchi Umid Bekmuhammad // ziyo.com.uz.
4. О. Қўшжонов, Н. Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиѐсий жараѐнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. MCHJ.2007 йил.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo’rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). T. “Sharq”-2000.

XIVA XONLIGI JADIDLARI SIFATIDA BOSH VAZIR SAYYID ISLOMXO’JA VA BOBOOXUN SALIMOV

Ma’mun universiteti

Tarix yo‘nalishi 24/4 – guruh

2 – bosqich talabasi Egamova Ilmira

Xiva xonligi bosh vaziri Sayyid Islomxo‘ja qisqa umr ko‘rsada Xorazm tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk davlat arboblaridan biri bo‘lgan. Islomxo‘ja Xiva tarixida islohotchilik harakatini boshlab bergan ilg‘or, taraqqiyparvar siymo, Xoprazmdagi jadidchilik harakatining ilk peshqadamlaridan bo‘lib, u islohotlar orqali Xiva Xonligini qoloqlikdan qutqarish uchun hamda iqtisodiy va madaniy jihatdan ilg‘or davlatlar qatoriga chiqarish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni qaror topdirish va xalq farovonligini ta’minlashga butun hayotini baxshida qilgan, shu xayrli ishlarni amalga oshirishni o‘zining shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan ustun qo‘ygan qalbi toza, yuksak fazilat egasi bo‘lgan davlat arboblaridan biri hisoblanadi. Islomxo‘ja Xonlikda katta norozilikka sabab bo‘layotgan soliq tizimini huquqiy asosga qo‘yishga, davlat xazinasidagi mablag‘ni foydali ishlar uchun sarflashga, maorif, madaniyat va sog‘liqni saqlash ishlarini zamon talablari asosida tubdan qayta qurishdek keng qamrovli ishlarni amalga oshirdi. Islomxo‘janing say harakati bilan Xivada o‘nlab mahobatli imoratlar, saroy, maktab, madrasa, pochta-telegraf, kasalxona va Xivaning ramziga aylangan Sharqdagi eng go‘zal va baland minora Islomxo‘ja minorasi bunyod etildi. Sayyid Islomxo‘ja yaratgan ilg‘or umidbaxsh g‘oyalar keyinchalik Xivada vujudga kelgan yangi ijtimoiy harahatlar “Yosh Xivaliklar” faoliyati uchun dasturil amal vazifasini bajardi. Bosh vazir Islomxo‘ja salkam yigirma yillik faoliyati davrida mamlakatni jaholot va qoloqlikdan qutqarish, demokratik islohotlar yordamida Xorazmning azaliy mavqeyini tiklab, ilg‘or davlatlar darajasiga ko‘tarish, mahalliy hukmdorlar va mustamlakachilar asoratida ezilgan va g‘ururi toptalgan xalqimizning og‘ir qismatini biroz bo‘lsada yengillatish uchun juda ko‘p say-harakatlar qildi. U XX - asr boshlarida Xorazmda keng quloch yozgan ilg‘or ijtimoiy harakat jadidchilik harakatining yirik peshqadamlaridan edi.

Islomxo‘ja o‘zining zukkoligi tufayli 15 yoshidan boshlab davlat ishlariga jalb qilinadi.U ancha vaqt saroyda zakot yig‘uvchi vazifasida hizmat qiladi. Bu vazifada ancha tajriba orttirgach soliq tizimidagi mavjud kamchiliklarni yaxshi faxmlab oladi. Islomxo‘ja 27 yoshida Bosh vazir lavozimiga o‘tiradi. U o‘z faoliyatining dastlabki kunidan boshlab mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti to‘g‘risida qayg‘urdi. Bosh azir Islomxo‘janing say-harakati bilan xonlikda ayniqsa, poytaxt Xivada obodonchilik ishlariga alohida e’tibor qaratildi. Faqat Xivaning o‘zida 30 dan ortiq me’moriy qurilishlar, masjid, madrasa, saroylar, yangi usul va rus –tuzem maktablari bunyod etildi. Bosh vazir Islomxo‘janing say-harakati bilan Ko‘hna Urganch, Qo‘ng‘itot va Xo‘jayli viloyatlarida istiqomat qilayotgan aholi orasida osoyishtalik qaror topadi. O’sha vaqtda Xivada bo‘lgan rus harbiy boshliqlaridan biri “Islomxo‘ja aqilliligi va idrokliligi bilan xonlikdagi barcha amaldorlardan ustun turadi” degan fikrni haqli ravishda yozib qoldirgan. Sayyid Islomxo‘ja Agayev va Abdusharipov kabi jadidlar bilan juda yaqin aloqada bo‘lib, ular bilan xonlikning

yetilgan muammolari yuzasidan tez-tez suhbatlashib turgan. Islomxo‘janing uyi o‘ziga xos ma’naviyat markazi bo‘lgan. Xonning topshirig‘iga muofiq islohot dasturini ishlab chiqish vazifasi Bosh vazir Islomxo‘jaga yuklatiladi. Islomxo‘ja bu masalani o‘ta mas’uliyat bilan o‘rganib chiqadi, islohot loyihasini tayyorlaydi va 1911 yilning 23-yanvarida uni Devonlar Kengashi muhokamasiga kiritadi. Kengashda islohot loyihasi chuqur muhokama qilinadi va ma’qullanadi. Islomxo‘ja demokratik islohotlarning tashabbuskori hamda uni amalga oshirilishi uchun mas’ul shaxs edi. Islomxo‘janing islohot dasturi Rassiya va boshqa chet el matbuotida ham o‘z aksini topdi. Ammo Islomxo‘ja boshlab bergan hayrli ishlar xonlikda zulm jaholatni saqlashdan manfaatdor, eskilik tarafdori bo‘lgan Isfandiyorxon va uning atrofidagi molparast, ig‘vogar, fitnachilarga ma’qul tushmaydi. Sayyid Islomxo‘ja aynan shu johil kishilar tomonidan uyushtirilgan fitnaning bevaqt qurboni bo‘ldi.

1911 yilda Asfandiyorxon Peterburgga safarga otlandi. Xonga hamroh bo‘lganlar orasida Islomxo‘ja, Husayn Muhammad devonbegi, Muhammad Vafo karvonboshi, Tolibxo‘ja ismli amaldor bor edi. Xivaliklar 18 kun deganda Rossiya poytaxtiga etib bordilar. Imperator qabulida bo‘lgan vaqtida Asfandiyorxon Xivada shahzoda Aleksey nomiga kasalxona qurishga ruxsat so‘radi[1]. Ushbu taklif ma‘qullangandan keyin, Islomxo‘ja Peterburg harbiy meditsina akademiyasi professori V.N.Sirotinindan qurilishi rejalashtirilayotgan kasalxonada ishlashga loyiq tajribali vrachni tanlashda yordam berishni iltimos qildi.

1913 yil 10 fevralda Asfandiyorxon o‘z amaldorlari bilan Romanovlar sulolasining Rossiyada 300 yillik hukmronligiga bag‗ishlangan tantanalarda qatnashish uchun Chorjo‘ydan poezdga o‘tirdi. 16 feralda Peterburga etib borgan xivaliklar ikki oy davomida poytaxtda ushlanib qoldilar. Shu vaqtda o‘tkazilgan bir qator muzokaralar natijasi va bosh vazir Islomxo‘janing sa‘y–harakatlari bilan Xivada qurilayotgan kasalxonada ishlash uchun vrachlarni taklif qilish masalasi nihoyasiga etkazildi[2] . Kasalxonadagi ikkinchi vrach lavozimiga Namangan viloyatidagi Pop qishloq vrachlik punktida ishlayotgan Gulsum Jaffarovna Asfandiyorova taklif etildi[3].

Islomxo‘ja Xorazmliklar qalbida chuqur o‘rin olgan siymolardan biridir. Dushmanlar garchi Islomxo‘jani jismonan yo‘q qilgan bo‘lsalarda u yoqqan mashal nurini o‘chirib tashlay olmadilar. Islomx Xo‘ja 42 yoshida aynan ijtimoiy-siyosiy faoliyatining gullagan bir paytida jaholatparastlik, ma’rifat dushmanlarining begunoh qurboni bo‘lgan.

Bobooxun Salimov uning asl ismi Muhammad bo‘lib unga hurmat yuzasidan Bobooxun deb taxallus berilgan. U 1874-yili Gurlanda tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta’limni olgach Xivadagi Olloqulixon madrasasida o‘qishni davom ettiradi. Bobooxun Salimov arab, fors va rus tillarini o‘rgangan. Madrasada mudarris bo‘lib dars bergan 1910-1918- yillarda Xiva Xoni Asfandiyorxon davrida Bobooxun Salomov mamlakatning Qozi-kalon va Shayx ul-islom lavozimlarida ishlagan. 1918-1920 -yillarda To‘rtko‘lda yashab “Yosh xivaliklar” partiyasiga a’zo bo‘ldi. 1920 - yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasini tashkil etishda qatnashib, adliya vaziri etib tayinlanadi. 1924-yilda Xorazm ruhoniylarining birinchi qurultoyini chaqirish va o‘tkazishga rahbarlik qildi. U mamlakatning erkin demokratik rivojlanishi tarafdori edi. 1920 - yilda Xorazm Xsalq Respublikasi tashkil qilishda qatnashib, shu yili Rasssiya davlati bilan shartnoma tuzish uchun Xorazm davlati tomonidan delegatsiya rahbari bo‘lib jo‘natiladi. Mullo Bekchon bilan birgalikda maktab o‘quvchilari uchun alifbe, o‘qish kitoblari yozgan. 1920 - yillar oxirida sovet hukumati tomonidan ziyolilarga nisbatan ta’qib qilinishi natijasida u davlat ishlaridan chetlashtirildi. 1929 yili 10-mayda davlat xodimlari tomonidan uyiga bostirib borib otib tashlanadi, oila a’zolariga ham hujum oqibatida jabr chekadilar.

[1] O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 305, l. 233.
[2] Maxmudov M. Pervaya bolnitsa v Xorezme // ―Sov–e zdr–e‖, 1984, № 1. ― S. 67–69.
[3] Mahmudov M. Sayyid Islomxo‘ja nomi berilsa // ―Xorazm haqiqati‖, 1993, 30 iyun; Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. — Urganch, 2004. ― 139–bet.

Xulosa qilib aytganda bu ikki buyuk Xorazm jadidlari o‘zlarining ma’rifat va islohotchilik harakatlari bilan nafaqat Xorazm, balki mamlakatimiz va dunyo olimlari e’tirofiga ham sazovor bo’lgan asl vatanparvar insonlar qiyofasida gavdalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zR. MDA, f. I–2, op. 1, d. 305, l. 233.
2. Maxmudov M. Pervaya bolnitsa v Xorezme // ―Sov–e zdr–e‖, 1984, № 1. ― S. 67–69.
3. Mahmudov M. Sayyid Islomxo‘ja nomi berilsa // ―Xorazm haqiqati‖, 1993, 30 iyun; Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. — Urganch, 2004. ― 139–bet.

JALOLADDIN MANGUBERDINING JANG SAN’ATI

MA’MUN-UNIVERSITETI
Tarix yo‘nalishi 24.2-guruh talabasi
Rahimberganova Quvonchoy Ergshbek qizi

Jaloliddin Manguberdi 1199–1231 – yillarda yashab o‘tgan bo‘lib, O‘rta Osiyo va O‘zbek davlatchiligi tarixidagi mashhur sarkarda va xalq qahramoni sifarida yorqin iz qoldirgan o‘zbek farzandi hisoblanadi. U Xorazmshohlar davlatining oxirgi buyuk va tengsiz hukmdori Muhammad Xorazmshohning o‘g‘li bo‘lib mo‘g‘ul bosqinchilarga qarshi kurashdagi jasorati bilan tarixda nom qoldirgan. Jaloliddin Manguberdining jang san’ati – harbiy taktika va strategiyasi[1], shaxsiy jasorati va strategik mahorati – o‘sha davr uchun yuksak baholangan hamda e’tirof etilgan.

Jaloliddin Manguberdining jang san'ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari[2]:

Jasorat va shaxsiy mardlik uslubi - Jaloliddin jang maydonlarida oldingi saflarda turib, o‘zi ham qilichbozlik qilgan. U o‘z qo‘shinini ruhlantiruvchi sarkarda bo‘lgan. Dushman ustiga hech ikkilanmay hujum qilishda mashhur bo‘lgan, bu esa askarlarga kuchli motivatsiya bergan;

Ko‘chmanchi urush uslublarini o‘rganish uslubi - Mo‘g‘ullarga qarshi kurashda u ularning tezkor yurish va orqa hujum taktikasini o‘rganib, o‘z harbiy harakatlariga moslashtirgan. Bu bilan dushmanni kutilmagan joydan hujum qilishni ko‘p marotaba qo‘llagan;

Tabiat va hududdan ustalik bilan foydalanish uslubi - Jaloliddin tog‘li hududlar, daryolar va tor yo‘llardan foydalanib, katta mo‘g‘ul qo‘shinlarini qiyin holatga solgan. Ayniqsa, Indus daryosi bo‘yidagi jangda u Chingizxonning ko‘z o‘ngida daryodan sakrab o‘tib qutulgan;

To‘saddan chiqish (partizan uslubi) - U mo‘g‘ullarga qarshi klassik ochiq jangdan tashqari, partizanlik urushlarini ham olib borgan. Dushmanning orqa tomonlariga hujumlar, yo‘l to‘siqlar va hujumdan keyin tez g‘oyib bo‘lish taktikasi bilan dushmanlarini charchatgan;

Tezkor harakat va manevr uslubi - Jaloliddin o‘z qo‘shinlarini tez yurishga, har qanday holatda ham saf tortishga o‘rgatgan. Bu unga dushmanning rejasini buzib, oldindan hujum qilish imkonini bergan;

Ruhiy qudrat va ma’naviy yuksaklik uslubi - Jaloliddinning o‘zi va uning qo‘shini dushmanga qarshi kurashda yurt va din uchun kurashayotganini bilgan, bu ularga ruhiy ustunlik bergan.

Jaloliddin janglar tarixida birinchi marta mo‘g‘ullarga qarshi kurashadi yangi taktik usuli qo‘llaydi: jangchilarga otdan tushib jilovlarini bellariga bog‘lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorong‘usiga qadar davom etgan jangda ikki tomonning birontasiga ham zafar kulib boqmaydi. Ertasi kuni Qayqur no‘yan harbiy hiyla ishlamoqchi bo‘ladi. U dushmanni yangi kuchlar kelib qo‘shildi, deb ishontrish maqsadida kigiznamat va choponlar orasiga poxol xashaklar, sun’iy

[1] Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999. – B. 26-27.
[2] Qarang: Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jaloliddin Manguberdi zikri, T., 1999.

boshlar yasab ularni otlari ustiga o‘tqazib qo‘yadi. “Soxta jangchilari”ni tuyalar karvoni va aravalar orasiga joyladilar. Bu hiyla Jaloliddin askarlarini dastlab ancha dovdiratib qo‘ydi. Hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo‘q edi. Noiloj jangga kirishdi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib kofirlardan ko‘pini halokat tuprog‘iga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo‘lganda, unga bo‘lgan muhhabat yopinchig‘ini o‘z yelkasiga solgan bo‘lardi. Agar kumushtan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganda, uning xizmatida qullik lavozimini jonu dili bilan qabul qilgan bo‘lardi.

Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo‘lga olishga farmon beradi. Xorazm bahodiri yeti yuzta mard yigitlari bilan jang maydoni o‘rtasida arslonlardek jon berib jon olardi, qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qonga bo‘yardi. Agar bu jangni Zolimning o‘g‘llari ko‘rsa edi, u sulton Jaloliddinning qo‘lini o‘pgan bo‘lardi. Ammo Chingizxon Lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda bo‘lishni arafasida turgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar saralangan lashkar jang oqibatini Chingizxon foydasiga hal qiliadi. Sulton Jaloliddin vaziyatining g‘oyat o‘gir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo‘liga tushishini istamay ularni Sind daryosiga cho‘ktiradi. Chunki o‘sha kuni mo‘g‘ullar Jaloliddinning qo‘lga tushirilgan 7 yoshli o‘g‘lining yuragini tiriklayin sug‘urib olgan edilar. 1226 -yilgacha Jaloliddin Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egallaydi.

Bu fitnaga Kichik Osiyodan tashqari Shom (Suriya), Shimoliy Mesopatamiya kabi davlatlar va boshqa bir qator shaharlarning hukundor va beklari ham qatnashadilar. Jaloliddin bu fitnani nazar-pisand qilmaydi va e’tibor bermaydi. Jaloliddin bilan fitnachilar qo‘shinlari o‘rtasidagi jang 1230-yil 10-avgustda bo‘lib o‘tadi.

1231-yilning avgustida tunda mo‘g‘ullar Jaloliddin Manguberdi qo‘rasiga hujum qiladilar va shirakayf holatda yotgan sultonni qo‘lga olib, otgan bog‘lab olib qochadilar. Yo‘lda o‘ziga kelgan Jaloliddin qo‘lini bo‘shatib, yonidagi mo‘g‘ul askarining qilichini tortib olib, ular bilan jang qiladi va ulardan o‘zini ozod qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
2. Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
3. Bo‘riyev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
4. Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jaloliddin Manguberdi zikri, T., 1999;

MUNDARIJA

Matkarimova S.M. Kirish so‘zi 3

II SHO‘BA. JADIDCHILIK G‘OYALARI: ZAMONAVIY TA’LIM VA TARAQQIYOT

Babajanova D. Jadidlar va ularning yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashdagi o‘rni 4
Бабаджанов Б. Жадидчилик харакати – “миллий тикланиш” ғоясини асосчисидир 9
Doniyorova D. Sadriddin Ayniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari 13
Xo‘jaxonov I.M. Mahmudxo‘ja Behbudiyning millat va milliy o‘zlik haqidagi qarashlari 17
Djurayev G‘. Jadidchilik va ekzistensializm: insonning ozodligi va mas’uliyati haqida qiyosiy tahlil 19
Jo‘rayeva. A. Zamonaviy ta’lim va taraqqiyotda jadidchilik g‘oyalarining ahamiyati 23
Iskandarova G. Jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari 25
Ochilova G. Jadid ma’rifatparvarlarining gender madaniyatga doir qarashlari yoritilish jarayoni 27
Komiljonova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy va tarix: yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi xizmati 29
Манзаров Ю. Жадидчилик харакати: миллий уйғониш адабиёти ва жадид драматургияси 31
Shonazarova I. Tarixiy tafakkurni shakllantirishda jadidlarning ta’lim sohasidagi sa’y harakatlari 33
Omonova Z., Ma'rufova J. Abdulhamid Cho‘lpon ijodida tarixiy tafakkur va milliy ong 36
Maxsudjonova A. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari 38
Shernazarova K. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning davlatchilik qarashlari xususida 42
Matnazarov J. O‘zbek she’riyatida jadidlar obrazi – ibrat namunasi 45
Otaboyeva Z. Reflection of jadidism ideas in the modern education system 48
Pulatov Sh. Nega aynan hind? Fitratning “hind sayyohining qissasi” va “munozara” asarlarida hind obrazidan foydalanishi haqida mulohazalar 50
Raxmanova Sh. Jadid ma’rafatparvarlari qarashlarida oila – nikoh masalalari va unda xotin-qizlarning o‘rni 53
Ruzmatova G. Toshkentdagi jadidchilik maktablari faoliyati 57
Topildiyev O. Yoshlarni tabiyalashda jadid ma`rifatparvarlari goyalarining tutgan o`rni 60
Tursunkulova Sh. Jadidlarning estetik merosi: go‘zallik va ma’rifat uyg‘unligi 64
Xusnullayeva M. Jadidlarning ayollar ta'limi borasidagi qarashlari 66
Пулатова Д. Абдулла Авлонийнинг маънавий меросида қадриятлар талқини 69
Пулатова С. Ўзбекистонда учинчи ренессанс ғоясини ривожлантиришда жадидлар ҳаракатининг ўрни 71
Babayeva Z., Komilbayeva A. Cho‘lpon ijodida komil inson va vatanparvarlik g‘oyasi 73
Babayeva Z. Milliy ma’rifatparvar jadidimiz cho‘lpon ijodida innovatsiya va vatanparvarlik g‘oyasi 74
Омонова З. Джадидизм в условиях информатsионного общества: роль цифровых платформ в продвижении прогрессивной педагогики 76
Қўлдашев Ш. Маҳмудхўжа Беҳбудий дарсликлари 79
Jumanyazova M. Abdulla Avloniy darsliklari va ularning ta’lim yangilanishidagi o‘rni 82
Maxmudov U., Shomuratov O. Jadidchilik faoliyatini o‘rganishda “jadid” gazetasining o‘rni 84
Abdullayeva S. Jadidchilik ruhini davom ettirish – zamonaviy o‘qituvchi va yoshlarning vazifasi: taklif va mulohazalar 87
Saidova R. Reflections on the works of abdurauf fitrat in the anthology “samples of tajik literature” 89
Raxmanova Sh., Shermamatova M Jadidlar va ularning ta’lim-tarbiya usullarining bugungi kunda ahamiyati 92
Ro‘zmetova R. Jadidlarning ta’lim tizimidagi islohotlari 95
Ахмадий Г. Роль джадидов в возрождении жанра басни 97
Захирбоева М. Мирза Сираджиддин и его вклад в развитие узбекского языка 100
Abdullayeva S., Rahimboyeva Ch. Axloqiy tarbiya jarayonida avloniy merosidan foydalanish yo‘llari 102
Муратова О. Роль джадидов в развитии образования и просвещения 104
Оллаберганов Б. Джадиды и проблема прав женщин 105
Нурматова З. Исмаил Гаспринский и его влияние на узбекских джадидов 107
Юсупова И. Сравнение литературных приёмов джадидов и русских народников 109

III SHO‘BA. XORAZM JADIDLARI: ISLOMXO‘JA VA ISLOHOTLAR DASTURI

Masharipova G. «Yosh xivaliklar» harakatining ta’lim sohasidagi islohotlari 112
Хусаинбекова Г. Хоразмда жадидчилик «ёш хиваликлар” ҳаракатида Полвонниёз Ҳожи Юсуповнинг фаолияти 116
Tadjiyeva F., Tadjiyeva N. Tatar diasporasi vakillarining yosh xivaliklar faoliyatidagi o‘rni 120
Salimov M. Jadid Bobooxun Salimovning hayoti va faoliyati 123
Bekchanov D. Xorazm jadidlari qarashlarida davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash masalalari 125
Бекмуҳаммад У. Жадид намояндаси Отамахзумохуннинг Хоразм жадидчилик ҳаракати ва республика раҳбарлиги давридаги фаолияти 128
Йўлдашев А. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлиги ёшларининг чет мамлакатлардаги таълими 133
Jumaniyozov F., Matyozova I. Xiva Xonligida jadidchilik xarakating mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni 138
Matkarimova N. Жадид маърифатчилиги ва мусиқа уйғунлиги: мулла Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг “Хоразм мусиқий тарихчаси” рисоласининг илмий ва тарихий аҳамияти 141
Abdullayeva N. Said Islomxo‘ja islohotlari: XIX-XX asr boshlarida Xiva xonligida modernizatsiya urinishlari 143
Самандарова С. Хоразмлик жадидларнинг адабий жараёнларда тутган ўрни ва асарларининг аҳамияти 144
Tajiyeva U., Davletov K. Islomxo‘ja islohotlarining xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni 148
Бекчанов Д, Кадамбаева Д. Хоразм жадидлари фаолиятида адабиёт ва санъатни ривожлантириш борасида амалга оширган ишлари 150
Yuldashev Y. Xiva Xonligida yangi-usul maktablarini tashkil topishi va uning ahmiyati 153
Allaberganov O.A. Xorazmda jadidchilik va Muhammad Rahimxon II (Feruz) islohotlari 155
Raximberganov J. Sayid Islomxo‘janing Xiva Xonligida savdo va iqtisodiy islohotlari: jadidchilik g‘oyalari ta’sirida modernizatsiya harakati 157
Ko‘palboyeva L. Islomxoja va uning jadidchilik faoliyati 159
Отабоева З. Хивинское джадидизм в новом свете 160

IV SHO‘BA. TA’LIM VA FAN TARAQQIYOT POYDEVORI

Matkarimova N. To‘y marosimlarida bolalar va xalq o‘yinlari 164
Kurbanov R. Farg‘ona vodiysi viloyatlari yoshlarining demografik holati yoshlar va jadidchilik tamoyillarining bog‘liqligi 167
Raximov B.A. Kasbiy muhim sifatlarning oliy ta’lim pedagoglarining kasbiy rivojlanish trayrektoriyasiga ta’sirining psixologik asoslari 171
Babajanov M. Oliy ta’limda talabalar stressining psixologik xususiyatlari va unga qarshi yondashuvlar: empirik tahlil asosida 173
Jumanazarov S. Onlayn izohning janr statusi 176
Omonova Z. O‘zbekiston tarixini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati 180
Atadjanova S.R. Modernizing minds: the jadid vision for education and literacy (improving reading and assessment) 182
Ҳасанов Б. Танбур садоси остида ёзилган тақдир 184
Арал А .Бобоохун Салимов-жадид маърифатпарвари, давлат арбоби ва дипломат 186
Ҳошимхонов М. Истиқлол даврида Хоразмда жадидлар фаолияти ҳамда меросини тадқиқ қилиш ва унинг аҳамияти 188
Ирзаев Б. Олимжон Қодирий 190
Baxtiyarov S.. Avaz O‘tar o‘g‘li ijodida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy hayotning aks etishi 193
Alijonov M. Muhojir jadidlarning “Yosh Turkiston” jurnalida Obidjon Mahmudov hayoti va faoliyatining yoritilishi 195
Elmurodova N. Afg’onistonda 1970-1980-yillarda turkiston o’zbek uyushmalari faoliyati 198
Adilov Z. Mahmud az-Zamaxshariyning dunyo ilm-fani rivojida tutgan o‘rni 200
Болтаев А., Жабборов И. Хоразм қадамжолари тарихидан сўзловчи қўлёзма 204
Jabborov I. Najmiddin Kubro ta’limotida ilmu-ma’rifatning ulug‘lanishi 206
Musayev U. Globallashgan davrda yoshlarning ongini zaxarlovchi tahdidlarning klassifikatsiyasi 209

Karimov U. Xiva xonligida usuli jadid maktablari 212
Karimov U. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy qarashlari 214
Matniyozov S. Polvonniyoz hoji Yusupov – “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbari 216
Matniyozov S. Xudoybergan Devonov — birinchi o‘zbek fotosuratchisi 217
Egamova I. Xiva xonligi jadidlari sifatida bosh vazir Sayyid Islomxo‘ja va Bobooxun Salimov ... 219
Rahimberganova Q. Jaloladdin Manguberdining jang san’ati 221

JADIDCHILIK: O‘ZGARISH VA TARAQQIYOT

mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 31-may

Muharrir: S.M.Matkarimova, U.M. Abdalov

Komputerda sahifalovchilar: D.Bekchonov, Sh.Ismoilov, S.Baxtiyarov

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.

Muharrir: *A. Qalandarov*
Texnik muharrir: *G. Samiyeva*
Musahhih: *Sh. Qahhorov*
Sahifalovchi: *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 27.05.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 25,5. Adadi 100. Buyurtma № 292

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45